4. Бабаева Д. Р., Ещанова Г. О. и Мадрахимова Н.Я. (2023). ТЕХНОЛОГИЯ ОЗНАКОМЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С КНИГАМИ СКАЗОК. *Европейский международный журнал педагогики*, *3*(05), 74-79.

5. Babayeva, D., & G'Afforova, D. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MARKAZLAR FAOLIYATI. *Science and innovation*, *1*(B7), 1152-1156.

TA'LIM SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY TAMOYILLARI

Jumanova Fatima Uralovna,

Nizomiy nomidagi TDPU,Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedra mudiri
jumanovafatima@gmail.com

Ta'lim - O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ***ustuvor*** deb tan olinadi. Ta'lim sohasida davlat siyosatining ***asosiy prinsiplari (tamo-yillari)*** quyidagilardan iborat:

1) ***ta'lim va tarbiyaning uyg'unlikda olib borilishi tamoyili*** – ta'lim va tarbiya jarayonlari o'zaro uzviy bog'langanligi, ularni bir-bi-ridan ajratib bo'lmasligi, ya'ni ta'lim tarbiyaning, tarbiya ta'limning muhim vositasi ekanligiga asoslanadi va **yaxlit pedagogik jarayonda ularning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim-tarbiya jarayonida yetuk, barkamol shaxsni kamol toptirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyaning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idroki va individual qobiliyatlari hisobga olinishiga bog'liq bo'ladi;**

2) ***ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xususiyatga ega ekanligi tamoyili*** – ta'lim va tarbiya jarayonida asosiy e'tibor o'quv-chi-talaba shaxsiga yo'naltiriladi; ular ma'rifiy faoliyat sub'ektiga ayla-nadi. Insonparvar va demokratik xususiyatga egalik umuminsoniy qadriyat-lar, inson hayoti va salomatligi, shaxsning erkin kamol topishi bilan bog'liq bo'lib, bunda insoniy munosabatlar, o'zgacha fikrlarga chidamlilik, jamiyat va tabiat oldidagi fuqarolik mas'uliyati kabilarga asosiy e'tibor qaratilgan **shaxsga yo'naltirilgan ta'limda birmuncha to'liq o'z ifodasini topadi;**

3) ***ta'limning uzluksizligi, uzviyligi va izchilligi*** – butkul ma'rifiy jarayon davomida o'quvchilarning har bir vaqt oralig'ida oldin-ga siljishini ta'minlaydigan o'quv vazifalarining birin-ketin (tadri-jiy) zanjiri – *uzluksizlikni*, ma'rifiy jarayonning turli

bosqichlari yoki shakllari doirasida, aslida, bo‘linmas ma’rifiy tizim doirasida bu bosqichlar yoki shakllarning yaxlit tashkil etilishi – *izchillikni,* o‘zaro bog‘liqligi - *uzviylikni* ifodalaydi.

4) ***12 yillik ta’limning majburiyligi*** - 6 yoshdan 7 yoshgacha bola-larni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlash hamda o‘n bir yillik umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim olish davlat qonunlarida fu-qarolik majburiyatlaridan biri sifatida mustahkamlangan ma’rifiy tizimning tashkil etilish shakli;

5) ***ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga ega ekanligi*** – ta’lim va tarbiyaning davlat tizimi tabiatan dunyoviy ekanligi, boshqacha aytgan-da, ta’lim (o‘quv-tarbiya) tashkilotlari (muassasalari) tizimining shunday tashkil etilishi bo‘lib, unda har qanday diniy maqsadlarga erishish ta’-qiqlanadi yoki unga yo‘l qo‘yilmaydi;

6) ***davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi*** – barcha odamlarning ijtimoiy mansubligi, jinsi, etnik kelib chiqishi yoki jismoniy va aq-liy xususiyatlaridan qat’iy nazar *teng ta’lim-tarbiya olish* imkoniyat-lariga ega bo‘lishi, boshqacha aytganda, ta’lim-tarbiyaning hammabopligi;

7) ***ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv –*** ta’lim mazmunining variativligi (o‘zgaruvchanligi) ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun eng maqbul sharoitlar yaratishga, bolaning tafakkur xususiyatlari, fikrlash jarayoni tezligi, bilishga qiziqishlari darajasi, shuningdek kamol topish darajasini hisobga olishga hamda o‘quv materallarini chu-qur o‘rganishga, tabaqalashtirilgan va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning yangi metodik tizimlarini ishlab chiqishga, ijodkor o‘quvchini shakllan-tirishga imkon beradi;

8) ***bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish –*** o‘quvchi-lar o‘quv faoliyatini maqsadli faollashtirish usullaridan biri bo‘lib, bu faoliyatni tashkil etuvchi va tartibga soluvchilar tomonidan o‘quvchiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan tadbirlar majmui sifatida qo‘llaniladi: ularning turli mukofotlar, diplomlar, esdalik sovg‘alari ko‘rinishida taqdirlanishi. Rag‘batlantirish o‘quvchida ijobiy his-tuyg‘uni uyg‘otadi, unda o‘z kuchiga ishonch paydo bo‘lishiga, shuningdek intizom, mas’ullik kabi fazilatlar shakllanishiga olib keladi;

9) ***insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi*** – axborotlar, bilim va kompetensiyalar hajmining muntazam ko‘payishi va yangilanishi sharoitida odam o‘zining ma’rifiy saviyasi va kasbiy mahoratini doi-miy oshirib borishga majburligi *umr bo‘yi ilm olish* (life-long learning education) tizimi shakllanishiga, bu tizim har qanday yoshdagi odamning o‘quv faoliyatini turmush tarzining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirishga va inson hayotining

barcha davrlariga xos va mos ma’rifiy zinopoyani yangi bos-qichlar bilan to‘ldirishga imkon beradi;

10) ***jamiyatda pedagog xodimlar ijtimoiy himoyasining kafolatlanganlig***i – o‘qituvchi huquqlarini hurmat qilishga va ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi jamiyatda pedagog kadrlarning ijtimoiy ta’minotini yaratishga,ularga ijtimoiy xizmat va yordamlar (turli shakldagi to‘lovlar, uy-joy, dori-darmon, bepul tibbiy xizmat, sanatoriya-kurort, tovon puli, turli imtiyozlar va sh.k.) ko‘rsatilishiga imkon beradi.

11) ***ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish*** – davlat va jamiyatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashga, har bir ta’lim tashkiloti yoki muassasasida davlat va jamoat boshqaruvini samarali yo‘lga qo‘yishga, ya’ni ta’limning davlat boshqaruvi organlari, ta’lim muassasasi ma’muriyati va turli xil kengashlari (pedagogik, ilmiy, metodik, o‘z-o‘zini boshqarish va sh.k.) va ota-onalar qo‘mitasining birgalikda kafolatlangan ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uralovna, J. F. (2024). INNOVATSION TA’LIM SHAKLLARINI AMALIYOTGA JORIY ETISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *17*(1), 123-127.

2. Uralovna, J. F. (2024, March). TA’LIMNING RIVOJLANISH YO ‘NALISHLARI (TARAQQIYOT TENDENSIYALARI). In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 3, No. 3, pp. 177-184).

3. Uralovna, J. F. (2024). PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF INNOVATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN THE CONDITIONS OF NEW. *Academia Repository*, *5*(2), 355-365.

4. Uralovna, J. F. (2024). PEDAGOGIK AMALIYOTDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO’LLASH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАТSIОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *39*(1), 30-38.

5. Uralovna, J. F. (2024). BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA INNOVATSION KOMPETENTLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK TA’LIMIY MUHITINI YARATISH. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 18), 847-850.

6. Uralovna, J. F. (2024). BO ‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING INNAVATSION MODELINI YARATISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАТSIОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *39*(1), 23-29.

MAKTABGACHA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA XORIJIY TAJRIBALAR

Gaynazarova Gulbaxor Abdullayevna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Muqimjonova Nilufarxon Ikromjon qizi

Qo‘qon Universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Bolalarning sog‘lom va bilimli, yetuk kadr bo‘lib voyaga yetishida maktabgacha ta’lim va tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Lekin, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, turli omillar ta’sirida maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash borasida rivojlanish o‘rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olish ko‘rsatkichlari o‘sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so‘nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo‘yicha bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o‘rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma’lumotli emasligi, ta’lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo‘ldi. Shu sababli mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish borasida bir qancha me’yoriy-huquqiy asoslar ishlab chiqildi. Davlatimizdagi bolalarni maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga qabul qilish qamrovi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu ko‘rsatkich 2016 yilda 27,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib 60 foizga yetdi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bir kun o‘z mevasini albatta beradi. Shu maqsadda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Ayni paytda islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog‘cha ta‘limining barcha bo‘g‘inlarini izchil isloh qilmoqdamiz” degan edilar.

Maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’limtarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan muhtaram

prezidentimizning 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955 qarorida ham qator ustuvor vazifalar belgilab berildi. Jumladan:

- Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-metodik va didaktik adabiyotlar tayyorlash, tanlash va ekspertizadan o‘tkazish, shuningdek, ularni nashr qilishni takomillashtirish bo‘yicha mexanizmlarni joriy etish.

- Ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini ishlab chiqish.

- Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash va xodimlarni moddiy rag‘batlantirish uchun ularni qo‘shimcha pullik xizmatlar ko‘rsatishga rag‘batlantirish tartibini ishlab chiqish.

- Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruvning zamonaviy shakllarini joriy etish orqali shaffoflikni ta’minlash.

- Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlari malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

- Maktabgacha ta’lim pedagoglarini zarur metodistik materiallar bilan ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar ma’rifiy tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari quyidagilardan dalolat bermoqda:

1) ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotning zaruriy sharti sifatida aholining ilmma’rifatga, ya’ni ma’lumotli, o‘qimishli bo‘lishiga ishtiyoqi, qiziqishlarini muntazam ortib bormoqda;

2) bepul ta’lim tarbiya beriladigan davlat ma’rifiy tashkilotlari tarmog‘i kengaytirib bormoqda,

3) xususiy ma’rifiy muassasalarda pulli ta’lim xizmatini ko‘rsatish tendensiyasi saqlanib qolmoqda,

4) davlat byudjeti hisobidan ta’lim tizimini moliyalashtirish hajmi oshib bormoqda,

5) ma’rifiy muassasalar uchun turli manbalardan mablag‘lar to‘planmoqda;

6) ma’rifiy muassasalarni hududiy boshqarish tamoyili kengaymoqda;

7) turli yo‘nalishdagi ma’rifiy muassasalarning tuzilmaviy xilma-xilligi ortib bormoqda,

8) ma’rifiy muassasalarda o‘quvchi-talaba tomonidan tanlab o‘rganiladigamn o‘quv fanlarga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta’limitizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi. Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Maktabgacha ta’lim bu kelajagimiz poydevori desak mubolag‘a bo‘lmas, chunki bolalarga bog‘cha yoshidan tarbiya va ta’lim bermas ekanmiz biz yangi kelajakni yarata olmaymiz. Maktabgacha ta’limni rivojlantirish uchun bir qator rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda ish olib borishimiz, xorijiy tajribalarni amalda qo‘llashimiz ayni muddaodir. Misol uchun rivojlangan davlatlar qatorida bo‘lgan Yaponiyani maktabgacha ta’limini olsak:

Yaponyadagi maktabgacha ta'lim tizimidagi asosiy vazifalar bu bolalarning ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash hamda ularga bilim va ko‘nikmalarni berish, yo‘lda o‘zini qanday tutishi, o‘zidan kattalarga qanday munosabatda bo‘lishi kerakligi, insonlar bilan munosabat o‘rnatish haqida ularga o‘rgatiladi. Davlat maktabgacha ta'limni ijobiy baholaydi: u boshqa bolalar bilan hamkorlik qilishga qodir bo‘lmagan, bolalar bilan tez kirishib keta olmaydigan bolani tarbiyalashga yordam beradi. Shuningdek, gimnastika, suzish, musiqa, raqs, san’at va boshqalar bo‘yicha qo‘shimcha maktablar, shuningdek, ular birlashgan oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishga tayyorlanayotgan maktablarda xususiy bolalar bog‘chalari mavjud. Hozirda O‘zbekistonda Yaponiya konsepsiyasini qo‘llash borasida bir qancha farmonlar va konferensiyalar bo‘lmoqda. Bu biz uchun albatta manfaatlidir chunki biz maktabgacha ta’limni yaxshi rivojlantirib, sifatini oshira olsak boshqa masalalar o‘z-o‘zidan yaxshilanadi.

Biz misol qilib jahon ilm-fani va madaniyati o‘choqlaridan biri bo‘lgan Germaniyani ham olishimiz mumkin. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlarni bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada e’tirof etilgan olmon ta’lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e’tibor beriladi. Ta’lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so‘nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o‘z o‘rniga ega bo‘lish amri mahol. Darvoqe, olmonlarga xos temir intizom, birso‘zlilik xislatlari ham aynan ta’lim dargohlarida shakllanadi. Maktabgacha ta’lim tizimi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmagan bolalarda o‘z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang‘ich ta’limga tayyorlashda bog‘chalarning o‘rni katta.

Mana shunday rivojlangan davlatlardan xorijiy tajribalarni o‘rganib nafaqat maktabgacha ta’lim tizmida balki ta’limda qo‘llashimiz yaxshi samara bera oladi deb o‘ylaymiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mavjud muammolarga bag‘ishlangan tadqiqot natijalarini o‘rganish shuni aniqlashga imkon berdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish borasida hali ko‘plab amaliy izlanishlar olib borish zarur. Xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari ularning davlatlarini rivojlanishiga katta xizmat qilib kelmoqda. Xitoyliklarning “Bir yilni ko‘zlasangiz sholi eking, ellik yilni ko‘zlasangiz

daraxt eking, yuz yilni ko‘zlasangiz farzand tarbiyalang” degan hikmatidan bugungi kunda zamonaviy davlatlarning deyarli barchasi samarali foydalanmoqda.

Shu nuqtai-nazardan, bizning mamlakat ham unib-o‘sib kelayotgan barkamol avlod ta‘lim-tarbiyasiga katta e‘tibor qaratmoqda. Bu borada kerak bo‘lsa, xorijiy davlatning ilg‘or tajribalaridan unumli foydalanish orqali milliy ta‘lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz ezgu maqsad-uchinchi Renesans davrini barpo etishni rejalashtirgan. Ana shunday ezgu maqsadlarni esa albatta bugungi kunda voyaga yetayotgan avlod amalga oshiradi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya esa ana shu avlodni ta’limning birinchi bo‘g‘inidan savodli va tarbiyali bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilishi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M.(2021) Yangi O’zbekiston strategiyasi.-T.: “O’zbekiston” , 23-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 30-sentabr PQ-3944-son qarori.
3. Gaynazarova G.A., Eshchanova G.N. Xorijda maktabgacha ta’limning zamonaviy tizimlari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2023.
4. G.A.Gaynazarova, N.I.Muqimjonova MAMKAKAT TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISHIDA YOSH KADRLARNING O‘RNI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ Выпуск журнала №-41 Часть–2_ Марть – 2024.Стр.100-103.
5. Muqimjonova N.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlikka o‘rgatishda xorijiy tajribalarni o‘rganish metodikasi (ona tili va o‘qish savodxonligi darslari misolida).

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI JAMOADA ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Tatliboev Shuxratjon Kamol o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari.e-mail shuha-3787@mail.ru

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish ta’lim jarayonining negizi bo‘lgan, doimiy diqqat va e’tiborni talab qiladigan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan pedagogik muammodir. Aytish o‘rinliki, har bir shaxsning jamiyat maqsad va manfaatlariga mos keluvchi intilishlari uning ma’naviy dunyosi, nuqtai nazarlari va shu asosda

shakllangan ideali orqali tartibga solinadi. Ochiq axborot tizimidagi, internet global tarmog‘idagi yangilanishlar, “ommaviy madaniyat rivoji” akseliratsiya jarayonini bir qadar tezlashtirib yubordi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda kichik maktab yoshidan boshlab o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish zamirida, ularda ijtimoiy va shaxsiy mohiyatga ega hamkorlik faoliyatini mazmunan tarkib toptirish, yuksak axloqiy ideallarni shakllantirish ma’naviy ehtiyojga aylandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda “jamoada ishlash”, “ko‘nikma”, “rivojlanish”, “tarbiyalash”, “shakllantirish”, “pedagogik shart - sharoit”, “omil”, “pedagogik ta’sir” kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot muammosini ijobiy hal etishda bu tushunchalarning mazmunini to‘laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Bugungi kunda zamonaviy psixologiya va pedagogikada ko‘rib chiqilayotgan dolzarb masalalardan biri qobiliyatlarni rivojlantirish masalasidir. Bizning fikrimizcha, bu tasodif emas, chunki jamiyatning turli hayotiy muammolarni hal qila oladigan faol, mustaqil, ijodiy odamlarga bo‘lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Federal davlat ta’lim standartini amalga oshirish sharoitida o‘quvchilarda umumiy ta’lim ko‘nikmalari va universal kompetensiyalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shaxsning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va o‘z-o‘zini tarbiyalashi, o‘quvchilarning bilish faoliyati usullarini egallashi, bolalarning turli xil faoliyat turlari bo‘yicha tajriba o‘zlashtirishi asosiy yo‘nalishlardan biridir. Tadqiqot faoliyati - bu yangi bilimlarni, atrofdagi dunyoni bilishni ochishga qaratilgan ijodiy faoliyat.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sub'ektdan o‘ziga xos shaxsiy ta’lim - tadqiqot qobiliyatiga ega bo‘lishni talab qiladi. Tadqiqot qobiliyatlari mantiqiy jihatdan, rus psixologiyasining an'analariga muvofiq, shaxsning individual psixologik xususiyatlari sifatida, tadqiqot faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sub’ektiv shartlar sifatida ishlaydi. Boshqa barcha qobiliyatlar singari, ular ham turli tomonlardan ko‘rib chiqilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning bilimdon, ma’naviy jihatdan barkamol insonlar bo‘lib yetishishiga bog‘liqdir. Bu o‘rinda inson ruhiyati uchun to‘laqonli, faol, barkamol shaxs sifatida shakllantirish samaradorligini yanada oshirishda psixologik-pedagogika ilmi va uning amaliyotda to‘g‘ri bo‘lishi juda muhimdir. Kelajagi, ertangi kuni yorug‘, farovon va buyuk bo‘lishini o‘ylagan davlat, albatta barkamol avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor beradi va bu ezgu yo‘lda barcha chora tadbirlarni ko‘radi. Bu borada mamlakatimizda Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh davrlarini hamda psixo-fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, pedagogik jamoada ta'lim sub'yektlari o‘rtasidagi ziddiyatlarni oldini olish bo‘yicha tadqiqotlar ko‘lami kamyob. Biz tadqiqotimiz mobaynida bir qator ilmiy manbalarni, adabiyotlarni

o‘rganishimiz natijasida, aynan Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta'lim jarayonida ta'lim sub'yektlari o‘rtasidagi nizo, konflikt, ixtilof va ziddiyatlarni oldini olish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar so‘nggi yillarda o‘tkazilmaganligining guvohi bo‘ldik. Shu jihatdan olganda biz tanlangan tadqiqot mavzusi dolzarb ahamiyatga ega. Chunki 7-11 yoshli Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘ziga xos bo‘lgan pedagogik, psixologik jihatdan kamol topayotgan davrda ularda ham qaysi bir ma'noda ruhiy inqirozlar sodir bo‘lishi mumkin. Mana shu ruhiy inqirozlarni, turli-tuman ichki ziddiyatlarni, ichki diskomfordni oldini olishga bo‘lgan ehtiyoj, mazkur tadqiqot ishining dolzarb qilib qo‘yadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil qilish uchun, dastlab bu jarayonning mazmunini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Chunki o‘quvchilarni jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish har bir o‘quvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish va o‘z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O‘quvchilarda shu faoliyatga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina o‘quvchilarni jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini samarali kechadi.

Bundan tashqari o‘quvchilarni jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda mustaqil ta’lim vositalari, video namoyishlar, didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘zining ijobiy samarasini beradi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri o‘z fikrlari va qiziqishlarini himoya qila olmaydigan tengdoshlariga juda salbiy baho berishlaridadir. Ular kattalar bilan jiddiy suhbatlar qurish, o‘zlarini qiziqtirayotgan muammolar haqida fikrlashishga harakat qiladilar. Bu jarayonda ular aqliy jihatdan rivojlanib, takomillashadilar.

Shuning uchun ham, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘quvchilarni jamoaa a’zolari bilan madaniyatli muloqotni takomillashtirishga yo‘naltirish jarayonida:

- o‘quvchilar egallashga intilayotgan kasb axloqi;

- jamiyat talab qiladigan xulq-atvor me’yorlari;

-o‘z burchlari va majburiyatlarini bajarishga ma’sullik bilan yondashish kabi sifatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratishlari kerak.

O‘quvchilar hatti-harakatlarini kuzatish, o‘rganish va tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘zining obro‘sidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanib, o‘quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o‘qishga ijobiy munosabat, o‘z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o‘zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarni shakllantirnshn lozim. Buning uchun 1-4 sinf o‘quvchilarini tizimli tarzda jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilar jamoasining hatti–harakatlari, axloqi va qarashlarini tizimlashtirish uchun pedagogik ta’sir vositalari bilan bir qatorda, ularning jamoaviy ijodiy faol tashabbuslari,

o‘quvchilar jamoasining ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarning mavjudligi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida “o‘quvchilar jamoasining ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarning mavjudligi” pedagogik jarayonda jamoa tushunchasi mazmun mohiyatini ochishga yordam beruvchi, o‘ziga xos tushuncha va pedagogik kategoriyalar tizimini aks ettiruvchi pedagogik shart sharoitlar, shakl, metod va vositalarini to‘g‘ri tanlashga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T. Moliya, 2003.

2. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolatning psixologik o`ziga xos xususiyatlari. –Toshkent: 2002.

3. Dilova N.G. Ajdodlarimiz merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati.

4. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Boshlang'ich ta'lim jurnali № 6-I99S y.

maktab darsliklarini yaratish mezonlari. T.: I999.

5. R.A.Mavlonova N.Raxmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" T.: Ili-Ziyo 2GG9 y.

6. O'zbekiston Respublikasining «Boshlang'ich sinf tarbiya va sport to'g'risida» qonuni (Yangi taxrirda). 2GGG.

TA’LIM-TARBIYA SIFATI VA SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARGA QO‘YILADIGAN IJTIMOIY BUYURTMA

Muxamadaliyeva Moxira Xikmatullaevna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Bolalarni tarbiyalash jamiyatning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biridir. Bu jarayonda tajribali va bilimga ega bo‘lgan tarbiyachilar alohida o‘rin tutadi. Ushbu maqolada biz bo‘lajak tarbiyachilarning funktsional vazifalari va ularning bolalar rivojlanishidagi rolini ko‘rib chiqamiz.

Xozirgi kunda Davlatimiz rahbari jamiyat rivojining har bir bosqichi shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta’lim tizimi oldiga ijtimoiy buyurtmalarni qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta’lim tizimi oldiga har tomonlama kamol topgan, ta’lim va kasb-hunar

dasturlarini ongli ravishda tanlagan va puxta o‘zlashtirgan, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik bilimlarga ega, jamiyat, davlat va oila oldidagi o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalash bilan bog‘liq ijtimoiy buyurtmalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va asarlarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar, huquqiy-demokratik jamiyat qurish tamoyillari o‘z aksini topgan. Jumladan, “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” nomli risolada ta’lim tizimi oldiga quyidagi buyurtmalar qo‘yilgan:

- yoshlarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish va joriy etish; yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda o‘qitishni samaradorligini oshirish; xalqning boy ma’naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta’limning insonparvarlik yo‘nalishini ta’minlash; o‘quv-uslubiy majmualarning hamda ta’lim jarayoni didaktik va axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

- o‘quv jarayonini yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlashni amalga oshirish;

- milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida yoshlarning ma’naviy va ahloqiy sifatlarini rivojlantirish; yoshlar ongi va qalbiga milliy g‘oya va mafkurani singdirish, ta’lim muassasalarida mafkuraviy tarbiyani bugungi kun darajasiga ko‘tarish;

- ta’lim berishning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarni huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigienik ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish;

- yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash, ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, pedagoglarning kasbiy nufusini oshirish, ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;

- pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Yurtimizda jadallik bilan rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar ta’lim tizimi yangidan-yangi mazmun, ilg‘or g‘oyalarni o‘zida namoyon etuvchi ta’limiy qadriyatlar shakllantirmoqda. Umuminsoniy, ma’naviy-axloqiy, kasbiy ahamiyatli qadriyatlar pedagog shaxsini tarbiyalashga xizmat qilishi, uning qadr-qimmatini oshirishi, shaxs omilining ta’lim-tarbiya jarayonlarining yetakchi sub’ekti va ob’ekti sifatida tan olinishini ta’minlashi, unda ijodiy fikrlash, shuningdek, ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir. Binobarin, barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishga bo‘lgan ehtiyoj rivojlanayotgan hamda yangicha ijtimoiy munosabalar qaror topayotgan mavjud sharoitda yanada dolzarb xususiyat kasb etadi.

Davlat ta’lim standarti ta’limning zarur, yetarli darajada hamda o‘quv yuklamalar hajmiga qo‘yiladigan asosiy davlat talablari hamda kadrlar tayyorlash sifatini baholashni belgilab beruvchi mezon bo‘lib, u “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va asarlarida belgilab berilgan vazifalar hamda pedagog shaxsini shakllantirishda umuminsoniy, ma’naviyaxloqiy, kasbiy ahamiyatli qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, davlat ta’lim standartlarida kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, bo‘lajak mutaxassislar kasbiy shakllanish jarayonining sub’ekti sifatida ishtirok etishining pedagogik shartsharoitlari, mexanizm, metod va texnologiyalari belgilab berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda bo‘lajak tarbiyachiga quyidagi talablar qo‘yiladi: Bolalar xavfsizligi va salomatligini ta'minlash:

1. Bo‘lajak tarbiyachi maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning xavfsizligi uchun javobgardir. U bolalarning xavfli vaziyatlarga tushib qolmasligini va shaxsiy gigiena vositalari va sog‘lom ovqatlanishni ta’minlashi kerak. Bo‘lajak tarbiyachi, shuningdek, bolalar o‘rtasidagi ziddiyatlarning oldini olish va bostirish, kerak bo‘lganda tibbiy yordam ko‘rsatishi lozim.

2. Ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va olib borish: o‘qituvchi bolalarning jismoniy, kognitiv va hissiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan turli tadbirlarni rejalashtiradi va amalga oshiradi. Bu ijobiy o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘zaro tushunish va jamoaviy ruhni rivojlantirishga yordam beradigan qo‘llab-quvvatlovchi va ijodiy muhit yaratishi kerak.

3. Ota-onalar bilan hamkorlik: tarbiyachining ota-onalar bilan ishonchli munosabatlarni o‘rnatishidir. U bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish masalalarida ota-onalarga yordam va ko‘mak beradi, ota-onalar yig‘ilishlari va turli tadbirlarni o‘tkazadi, har bir bolaning rivojlanishi haqida ma’lumot berib borishi lozim.

4. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish: Bo‘lajak tarbiyachi bolalar uchun muzey va teatrlarga sayohatlar, bayramlar va turli xil o‘yinlar o‘tkazish, sport tadbirlarini tashkil etish kabi ko‘ngilochar tadbirlarni muntazam ravshda tashkil etishi va bu tadbirlarning barchasi bolalarning ijodiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishiga e’tibor qratishi lozim.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Sh.M.Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – T.: O‘zbekiston, 2017.-488 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 23-sentyabr.

3. Sodiqova Sh.A Maktabgacha pedagogika. — T.:Tafakkur bo‘stoni, 2013.

4. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. ChT.:Tafakkur bo‘stoni 2019-y.

5. http://www.marifat.uz/marifat/index.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA BADIIY ADABIYOTNING O‘RNI

Xo‘jamberdiyeva Shaxnoza Ko‘paysinovna,

NamDU dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim nazariyasi va amaliyotida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy adabiyotlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ular bilan yaqindan tanishtirish ishlarini amalga oshirishning ijtimoiy tartibini ishlab chiqish hamda ushbu jarayonni uslubiy ta’minlashning yetarli darajada tashkil etilmaganligi o‘rtasida qarama-qarshilik mavjud ekanligi ma’lum bo‘lmoqda. Bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish muammolarini hal qilishning pedagogik ehtiyojlari maktabgacha yoshdagi bolaning mazkur adabiyotlar orqali atrofdagi dunyoga axloqiy va estetik munosabatini shakllantirishga qaratilgan tizimni yaratish hamda uni mazmunan to‘g‘ri boyitishga zaruriyat sezilmoqda.

So‘nggi yillarda respublikamizning uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy hayot sur’atining tezlashuvi natijasida ta’lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni mazmunan murakkab, ko‘p qirrali hamda ichki raqobatga asoslanuvchi shaxsga yo‘naltirilgan munosabatlar jarayoniga tayyorlash, yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[1]. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim nazariyasi va amaliyotida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy asarlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ular bilan yaqindan tanishtirish ishlarini amalga oshirishning ijtimoiy tartibini ishlab chiqish hamda ushbu jarayonni uslubiy ta’minlashning yetarli darajada tashkil etilmaganligi o‘rtasida qarama-qarshilik mavjud ekanligi ma’lum bo‘lmoqda. Bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish muammolarini hal qilishning pedagogik ehtiyojlari maktabgacha yoshdagi bolaning mazkur adabiyotlar orqali atrofdagi dunyoga axloqiy va estetik munosabatini shakllantirishga qaratilgan tizimni yaratish hamda uni mazmunan to‘g‘ri boyitishga zaruriyat sezilmoqda.

Badiiy asarlar bolaning nutqini shakllantirishda, uning so‘z boyligini to‘ldirishda asosiy o‘rin tutadi. Har qanday asar yoki uning parchasini o‘qib bo‘lgach, birozdan so‘ng nimani va qanday o‘rganganligini bilish uchun undan nima o‘qiganligi haqida so‘rash kerak. O‘rganilayotgan materialning mohiyatini tahlil qilish bolaning axloqiy rivojlanishiga, izchil nutq va fikrlashning uyg‘unlashuviga yordam beradi va xotiraga yangi so‘zlarni qo‘yadi. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining mukammalligiga uning maktabdagi birinchi yillarida tayyorlanishi ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Badiiy asarlar bolaning yoshi va qiziqishlariga, uning rivojlanish darajasiga mos kelishi kerakligi fanda doim o‘z isbotini topib kelgan. Maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhlaridagi bolalar ko‘pincha matn mazmunini afzal ko‘radilar. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, 6-7 yoshli bolalar kitoblar bilan doimiy aloqada bo‘lish tufayli yaxshi so‘z boyligiga ega bo‘lganliklari, o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini aniq ifoda eta olishlari isbotlangan. Chunki badiiy asarlar bolaning ruhiyatiga kirib borar ekan, asardagi ifoda etilayotgan mazmun uning harakatlarida, chuqur hissiy kechinmalarida faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Aynan shu jihat boladagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun dastlabki poydevordir.

Shaxsning shakllanishida badiiy va estetik tarbiyaning ahamiyati qadimgi Yunonistonning pedagogik nazariyasida o‘z aksini topgan edi. Platon o‘qilgan manba asosida olingan hissiyotlarni yosh bolalar tarbiyasining ichki asosi deb hisoblagan. U tarbiya vositasi sifatida o‘yinlarga, bolalarga adabiy asarlar va afsonalarni o‘qish va aytib berishga alohida ahamiyat bergan. Aristotel bolalar uchun ertaklarni tinglash foydali ekanligini, ularga nutqni ham o‘rgatish kerakligini yozgan. Kvintilianning ta’kidlashicha, maktabgacha yoshda bolalarda badiiy so‘z, ritm, nutqning ifodaliligi va mimika tuyg‘usini ularni kichikligidanoq boshlab rivojlantirish zarurdir. V.G.Belinskiy bolalarning yoshlik davridanoq badiiy adabiyotga qiziqtirish zarurligiga alohida ahamiyat bergan hamda mazkur adabiyotlardan, ular estetik tarbiya vositasi sifatida foydalanish zarur, deb hisoblagan. Uning bolalar yozuvchilari va bolalar kitoblari haqidagi ko‘plab bayonotlari bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. V.G.Belinskiy “O‘qish haqida bir necha so‘z” sharhida bolalarga xalq ertaklarini o‘qishni tavsiya qildi. Uning bolalar kitoblari tili haqidagi ko‘rsatmalari ham qimmatli bo‘lib, unda soddalik, ravshanlik, ifodalilik va obrazli taqdimotni ajratib ko‘rsatdi. V.G.Belinskiyning bolalar adabiyoti va bolalar mutolaasi haqidagi maqolalari bolalar uchun sifat jihatidan yangi asarlarning paydo bo‘lishiga, shuningdek, bolalar adabiyotida yangi yo‘nalishlarning qaror topishiga xizmat qildi [2].

L.N.Tolstoy bolalar o‘qishlari orqali kuch va qobiliyatlarning uyg‘un rivojlanishiga erishish mumkin deya hisoblagan. Uning bolalar uchun yozilgan “ABC”, “O‘qish uchun kitoblar” hamda bir qator hikoyalari hozir ham tarbiyalanuvchilarni aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasiga xizmat qiladi [3].

K.D.Ushinskiy rasm va xalq, adabiy ijodiyot asarlari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy, estetik tarbiyasini rivojlantirish hamda tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilarning his-tuyg‘ularini majburlamasdan boshqarish kerakligini ta’kidladi. K.D.Ushinskiy o‘zining “Mahalliy so‘z” nashrida bolalar uchun ajoyib asarlarini jamlagan bo‘lib, unda bolalarni aqliy, axloqiy va estetik tarbiyalash uchun xizmat qiluvchi sodda, tushunarli, badiiy hikoyalari o‘z aksini topgan.

Maktabgacha ta’lim nazariyasiga ulkan hissa qo‘shgan K.D.Ushinskiy xalq ertaklarini

bolalarni axloqiy va estetik tarbiyalashning samarali vositasi deb hisoblagan. U o‘zining “Bolalarning aqliy va axloqiy tarbiyasi” kitobida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash uchun ochiq va foydali bo‘lgan bir qator xalq ertaklarini taqdim etadi. E.N.Vodovozova ertak bolalarning bilim va kuzatishlariga asoslanishi, bolalarning boy tasavvurlarini rivojlantirishi, bolalar nutqini boyitishga hissa qo‘shishi, nutq burilishlari va xalq nutqining go‘zalligini o‘rganishga yordam berishini ta’kidladi [4]. Bolalar adabiyoti umumiy adabiyotning bir qismidir, lekin alohida hodisa sifatida ajralib turadi.

Ertak va hikoyalar bolalarda to‘g‘ri nutqni rivojlantirishda beqiyos yordamchi hisoblaniladi. Shuningdek, ular qo‘rqoqlik, dangasalik, injiqlik va xudbinlikka qarshi kurashda yaxshi vositadir. Ertaklar mazmunini talqin qilish bolalarning o‘z hikoyalarini tuzish qobiliyatiga ijobiy ta’sir qiladi. Obrazlar yosh kitobxonning tasavvur va fantaziya zaxirasini boyitadi. Yaxshi va sifatli adabiy asarlarning mazmun-mohiyatini singdirish natijasida bola yaxshilikni qadrlaydigan, yovuzlikka qarshi kurashishga tayyor, insonparvar shaxs bo‘lib shakllanadi.

Hikoya va ertaklar orqali bolalarning ham estetik, ham axloqiy g‘oyalardan oziqlanishlari foydali va maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi vositasida eshitilgan asarlar bolaga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Hikoyani eshitish orqali bolaning nutqiy madaniyati oshib boradi. Badiiy asarlarning barcha tarbiyaviy usullaridan mohirona foydalanish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy adabiyotlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari va tarbiyachilarning mazkur jarayonni ijodiy tashkil etish istaklarining kesishuvi natijasida quyidagi sifatlar shakllanadi: bolalarning ijtimoiy hayot hodisalariga hissiy munosabatini shakllanganligi; asar mazmunini idrok etish va tushunish; boshqalarning quvonchi va qayg‘usiga hamdard bo‘lish istagining paydo bo‘lishi; doimiy izlanish va harakatga intilish; asar mazmunini idrok etishga qaratilgan didaktik o‘yin faoliyatida hayot tarzini o‘zgartirish; hayotni estetik jihatdan bezatish mumkin bo‘lgan ishlarda ishtirok etish istagi; birgalikda harakat qilish zarurati, boshqalarning muvaffaqiyatidan quvonish qobiliyati va boshqalar. Aynan shu jihatlar maktabgacha yoshdagi bolalarga badiiy adabiyot orqali shaxsiy madaniyat, ma’naviyat, estetik tarbiya asoslari hamda dunyoqarash kabi eng muhim pedagogik va psixologik bilimlarni shakllanishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021 y., 07/21/5234/0826-son; 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son.

2. Xujamberdiyeva Sh.K., Abdusamatova N.J., Isabayeva A.Y. “Bolalarni nutqini o‘stirish” // (darslik) Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug‘i, 233-0262 raqamli guvohnoma. – Toshkent: «Fan ziyosi» nashriyoti, 2023, ISBN: 978-9943-9608-3-1. –B.1-236.

3. To‘ychiyeva I.I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Avtoref. ped.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD). - T.: 2020. – 26 b.

4. Xujamberdiyeva Sh.K. Maktabgaca ta’lim tashkilotlarida badiiy adabiyot bilan tanishtirishning mazmuni // NamDU Ilmiy Axborotnomasi. – Namangan, 2022. №7. –Б. 538-543

5. Xujamberdiyeva Sh.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning yosh bilan bog‘liq xususiyatlari // NamDU Ilmiy Axborotnomasi, № 1. – Namangan, 2023. –B. 382-388.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KASBGA ERKIN QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning bir qismi sifatida bolalar bog'chasi yagona uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini bo'lib xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotida kasblar haqidagi asosiy bilimlarni shakllantirishning birinchi bosqichi amalga oshiriladi. Bolalar bog'chada kasblarning xilma-xilligi va keng tanlovi bilan tanishadilar. Bola qanchalik ko'p ma'lumotni o'zlashtirsa va qanchalik xilma-xil va boy bo'lsa, kelajakda uning hayotini belgilaydigan hal qiluvchi tanlovini amalga oshirish osonroq bo'ladi. Insonda hamma narsa bolalikdan, shu jumladan kasbiy yo'nalishdan kelib chiqadi.

Hozirgi kun pedagog-o'qituvchisi o'quvchilar kelajakda to'g'ri kasb-hunar tanlashlari uchun mutafakkirlarning ilmiy adabiyotlari va asarlaridagi kasb-hunar va mehnat faoliyati tarixini o'rgatuvchi omillarga tayanib ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbek xalq tarbiyashunosligining o'tmishdagi mashhur mutafakkirlari, xalq maorifi arboblari va ma'rifatparvar shoirlarining mehnat kasb-hunar to'g'risidagi qimmatli fikrlarini biz uchun ahamiyatli tomoni shundan iboratki, ulardan yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, kasb-hunarga qiziqtirishning vositasi sifatida foydalanish mumkin.

O'rta Osiyoda ko'plab shoirlarning ustozi bo'lgan Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»sida mehnat ahliga va kasb-hunarni egallash malakasiga bag'ishlangan misralarni ko'plab uchratish mumkin:

Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj,

Ganj topmas hech kimsa, tortmas ersa ranj.

Firdavsiyga yaqin davrda yashagan shoirlardan yana biri Nosir Xisravning fikricha, dunyodagi eng oliyjanob va oliyhimmat odamlar – mehnatkashlar, ya'ni jamiyat uchun foydali narsalar ishlab chiqaruvchi hunarmandlar, kosiblar, binokorlardir.

Kasbdan jodu xurram yo'q jahonda,

Hunardin yaxshidur ham yo'q jahonda.

Butun kun rizqining bog'boni bo'lg'ay,

Kishini o'z uyining mehmoni bo'lg'ay.

Arzir uning bo'lsa boshi osmonda,

Usiz yashay olmas shoh ham jahonda.

«Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak» deydi Abu Nosir Farobiy.

Insoniyat qadr-qiymatini mehnatda, bilimda, hunarga tayanishda, birovga xor bo'lsamlikda deb bilgan Sa'diy shunday ta'lim beradi: O'z mehnatidan non egan kishi, Hotam minnatidan ozod yoz-qishi. Yuqorida tilga olingan ulug' mutafakkirlarning mehnat tarbiyasi va kasb-hunar tarbiyasi borasida aytgan so'zlaridan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, inson dunyoga kelar ekan, o'z hayoti mobaynida insoniy qadrqiymatga ega bo'lishi kerak. Zero, mehnat qilgan, kasb-hunarli inson birovga qaram bo'lmaydi, ya'ni mehnat qilish orqali inson o'zining uch ehtiyoji: moddiy, ma'naviy, mehnat ehtiyojini qondiradi. Moddiy ehtiyoj qondirilishi natijasida ma'naviy va mehnat ehtiyojlari ham qondiriladi. Mutafakkir va olimlarimizning ilmiy merosini chuqur o'rganib, uni ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish har bir ma'naviyatli va ijodkor pedagogning muqaddas burchi hisoblanadi. Xalq pedagogikasi sohasida o'tmishning madaniy merosini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar muhimligini davr talab etmoqda. Shuning uchun xalq pedagogikasi deb ataladigan tarixiy-pedagogik materiallarni umumlashtirish va o'rganish katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

To'g'ri kasb tanlash insonning kelajakdagi hayot tarzini belgilashda katta ahamiyatga ega. Har bir yosh avlod o'z kasbini qiziqishi, qobiliyati, ijtimoiy nuqtai nazardan kelib chiqib tanlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining muhim vazifalaridan biri tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga tayyorlash bilan birga erkin kasb tanlashga qiziqtirish xamda yo'naltirishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda turli mashg'ulotlarda ularning qo'llaridan keladigan o'yin faoliyati turlari bo'yicha dastlabki kasb-hunar ko'nikmalarini ijobiy, hissiy va ta'sirchan shakllantirish dolzarb masalalardan biridir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi o'z qobiliyatlari, qiziqishlari va moyilliklarini hamda ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasb

tanlashlarida ko'maklashishdan iboratdir. Bizning jamiyatimiz har bir shaxsning qobiliyatlari to'liq namoyon bo'ladigan, yuqori samara bilan ishlay oladigan faoliyat va shart-sharoitlar bilan band bo'lishiga katta e'tibor bermoqda. Tarbiyalanuvchilarni mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda kasbga yo'naltirishni quyidagi omillar bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

-bolalarni kasblar bilan tanishtirish.

-kasblar, mehnat yutuqlari talqin etilgan asarlar bilan tanishtirish.

-ishlab chiqarish korxonalari, firma, fan, maorif, madaniyat san'at muassasalariga sayohatlar tashkil etish.

-mehnat ilg'orlari bilan uchrashuvlar, ular erishgan yutuqlar haqida suhbatlar o'tkazish.

-mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha mul'timedia materiallarini ko'rsatish.

--bolalarni turli xil kasbiy to'garaklarga jalb etish.

-kasblar haqida o'yinlar tashkil etish.

- yangi kasb va mutaxassisliklar, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalari bilan muntazam tanishtirib borish.

Maktabgacha ta'limda kasb-hunarga yo'naltirish ishining maqsad va vazifasi shu hudud ehtiyoji uchun zarur kasblar, kasb-hunar kollejlarining mavjud soha yo'nalishlariga bolalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tavsiya berishdan iborat. Kasblar to'g'risida axborot berishda bolalarni turli xil mehnat turlari, kasblarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tartibsiz ma'lumot bermaslik uchun bolalar oladigan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish lozim. Kasblar haqida axborot berish bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi zarur.

Kasblar haqida ma'lumot berish, kasb tanlashga yo'naltirishni turli o'yinlar orqali amalga oshirish ham katta ahamiyatga ega. Ushbu o'yin jarayonida tarbiyalanuvchilarning vaqtini to'g'ri tashkil qilish, ularning ma'naviy dunyosini shakllantirish, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qilishi bilan birga ularning mashg'ulot jarayonida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini qaror toptiruvchi jarayon sanaladi. Tarbiyalanuvchilarning turli kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini faqat mashg'ulot jarayonida hal etib bo'lmaydi. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining ommaviy, individual, guruhli shakllarda tashkil etish bolalarning kasblar haqida tasavvurlarini kengaytiradi va kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantiradi.

Kasb-hunar insonni shaxs bo'lib shakllantirishga yordam beradi. Ajdodlarimiz yosh avlodni mehnatsevar qilib tarbiyalash, otalarimiz izidan borib, turli kasb-hunarlarni egallash, ularda mehnat munosabatlarini kamol toptirish, kelajak hayotga tayyorlashni o'zlariga muhim vazifa deb hisoblaganlar. Shunday qilib, mehnat ta'limining bosh maqsadi maktabgacha ta'limda bolalarni mehnatga va kasbiy faoliyatga tarbiyalashdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Xodieva D.P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat darslarida kasb-hunarga yo'naltirish. //Zamonaviy ta'lim, 2015, № 3.
2. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodieva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2007.
3. Sanaqulov X., Xodieva D., Sanaqulova A. 2–3 sinf. «Mehnat ta'limi» darsligi. – T.: «Sharq», 2012.
4. Sanaqulov X., Rustamova M., Ismatova T., Nosirova M. Boshlang'ich sinflarda mehnatdan sinfdan tashqari ishlar. – T.: TDPU, 2014.
5. Magzumov P.T., Antonov A.F. va boshqalar. O'quvchilarni mehnat va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: «O'qituvchi», 1991.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBGA TAYYORLASH JARAYONIDA TASVIRIY-IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti

Tillayeva Vasila O’ktam qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim yo’nalishi magistranti

Zamonaviy ta’lim barcha turdagi ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo‘lishlarini taqozo etmoqda. “Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar. Sharqda esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Pedagogning kreativligi — bu uning innovatsion yondashuvlari bilan shakllanadi. Pedagogning kreativligi - tashabbuskorlikni, samarali muloqotni, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqeni, oldindan ko‘ra olish, vaziyatni tezda payqab olishlari zarur. O‘ziga ishonchi bo‘lmagan pedagog vaziyat o‘zgarishi bilan, o‘z qarorini o‘zgartirib turadi. O‘z shaxsiga va qobiliyatiga ishonmagan odam o‘zgalarda ham ishonch uyg‘ota olmaydi. Kreativlikning mohiyati — intellekt

insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirgan holda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Ko‘pgina pedagog-tarbiyachilar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilardir: axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog- tarbiyachi tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta’lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo‘lgan ijod mahsulotlari sanab o‘tiladi.

Pedagog-tarbiyachining ijodkorlik sifatlari. Pedagog-tarbiyachi o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Ijodkorlik — muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.

Ijodkor shaxs — ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.

Kreativ shaxs — jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o‘ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.

Ijod — ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.

Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g‘oya, ularni amalga oshirish ko‘nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish.

Kasbiy-ijodiy faoliyat — mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati.

Pedagogik kompetensiyalar-bilimlar, malaka va ko‘nikmalar hamda o‘zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo‘lgan motivatsiyaning uyg‘unlashgan majmuini

o‘zida aks ettiradi. Kompetentli kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko‘nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarni xam o‘z ichiga oladi. Har bir tarbiyachi shaxsi, temperamenti va tarbiyachiik uslubi boshqalarinikidan farqlanadi. Biroq bolaga, uning ta’limiga va rivojlanishiga yondashuv barcha tarbiyachilarda bir xil bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham kasbiy standart barcha tarbiyachilar uchun bir xil talabni qo‘ydi.

Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy salohiyatini samarali rivojlantirish shartlari quyidagilardan iborat: zarur bo’lgan ta'lim muhitini yaratish orqali o'quvchilarning ijodiy faolligini rag'batlantirish; tashkil etishning unumli usullari va shakllarini qo'llash ijodiy faoliyat (pedagogik texnologiyalar); rivojlanishining yuqori darajasi oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining ijodiy salohiyati kabilarni kiritishimiz mumkin.

Erta bolalik davridagi tasviriy ta'lim bolalarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ularga: kognitiv rivojlanish, motorikalar rivojlanishi, o'z-o'zini ifodalash,o’zligini hurmat qilish,ijodkorlik,ijtimoiy ko’nikmalar kabilarni kiritamiz.Aynan mana shu ko’nikmalar bolalarda tasviriy san’at orqali namoyon bo’la boshlaydi deya olamiz. Pedagog bolalarni o'yin orqali yaxshiroq o'rganishini tashkillashtira olishi kerak, shuning uchun ijodkor o'qituvchining muhim vakolati bolaga jismoniy, kognitiv, ijtimoiy-emotsional, til va o'z-o'ziga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini birlashtirishni aks ettiruvchi dasturni taqdim etishdir. Buni yo’lga qo’yishninп eng yaxshi usuli - ijodiy texnikadan foydalanish ,bu bolalarga turli usullardan foydalangan holda o'zlarini ifoda etishga ko’maklashadi.Bolalar o’zlarining g’oyalari yoki fikrlarini turli xil yo'llar va ramziy vositalar orqali ifodalashga harakat qilishadi.Hali o’z qarashlarini so’zlarda to’liq ifoda eta olmaydigan maktabgacha yoshdagi bolalar ichki olami haqida chizgan suratlari orqali ham anglab olishimiz mumkin bo’ladi.

Erta yoshdagi bolalar tabiatan hamma narsaga qiziquvchan bo'ladi. Ular o’zlariga hali noma’lum bo’lgan bilimlarni kashf qilishni xohlashadi, chunki ular har kuni yangidan yangi narsalarga duch kelishadi va ular haqida ko'proq bilishni xohlashadi, shuning uchun ular doimo quyidagi kabi savollarni berishadi: bu qanday ishlaydi, nima uchun bu yerda, qanday nomlanadi... Har bir narsa yosh o'sib borayotgan bolani hayratda qoldirishi va hayajonlantirishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim tarbiyachilari tarbiyalanuvchilarni qiziquvchanliklarini, qobiliyatini rag’batlantirib turishi kerak. Motivatsiya berishning eng yaxshi usuli kreativ mashg’ulotlarni olib borishdir. Albatta darslarni rejalashtirish — o'qituvchi loyihalashtirishi kerak bo'lgan birinchi ish va u maqsadlar, mazmun, material, protseduralar, baholash va boshqalarni o'z ichiga olishi kerak. Ushbu rejalashtirishning eng muhimi uni tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib loyihalash va o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undashdir. Ammo tarbiyalanuvchilar qanday qilib

ijodiy fikrlashlari mumkin? Bu savolga javob berish uchun o'z tarbiyalanuvchilarga bilimlarni yetkazib beruvchi tarbiyachi ularga erkinlik va ijodiy fikrlashga yo’l ochib berishi lozim.

Har qanday mashg’ulot ijodiy fikrlashni rivojlantirishi mumkin, agar u tarbiyalanuvchilarni g'oyalarni kengaytirishni, yaratishni o'z ichiga olsa. Maktabgacha ta’lim tarbiyachilari mashg’ulot davomida ijodkorlikni rivojlantiruvchi "vaziyatlarni" kiritishga harakat qilishlari kerak:

-tasavvurdan foydalanish,

- savollar, g'oyalar va natijalarni yaratish;

- muqobil variantlar bilan tajriba o'tkazish;

- original bo'lish,

- ular bilgan yoki aytadigan narsalarni kengaytirish,

- o'z hukmini amalga oshirish.

Bular keng doiradagi o'quv dasturlariga qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi strategiyalar:

Tasavvurdan foydalaning

Yangi g'oyalarni o'ylab ko'ring, nima bo'lishi mumkinligini taxmin qiling va natijalarni yaxshilash uchun tasavvurni qo'llang.

Savol turlari:

Agar... (agar bo'lmasa) nima bo'lishi mumkin?

Tasavvur qila olasizmi...?

Yaxshilashni taklif qilish... kabi savollar berishimiz ham mumkin.

Ijodkor tarbiyachini tayyorlashda talabalarning o'quv amaliyoti muammolarini o'rganishda faol ishtirok etishi muhim rol o'ynaydi ta'lim muammolari bo'yicha materialni mustaqil izlash, ilmiy va o'quv-uslubiy manbalarni o'rganish , voqelikni chuqur tahlil qilish ,kuzatuv, tadqiqot, pedagogik vaziyatlarni hal qilish yo'llari va usullarini izlash orqali.

Avvalambor tarbiyachilar o'zlari o'rgatadigan narsalarni yaxshi ko'rishlari kerak. Shundagina bolaga ham o’z bilimlarini yetkaza oladi va mashg’ulotga qizitirishi oson bo’ladi. Tasviriy san'atni sevish dunyodagi eng yaxshi san'at o'qituvchilari orasida ham umumiy xususiyatdir! San'at o'qituvchisi bo'lish juda kreativ bo'lishni talab qiladi va o’zidagi ijodkorlikni ko’rsata olishi , erta yoshdagi bolalarda ham mehr uyg’otish lozim.

Ijodkorlik muvaffaqiyatli san'at o'qituvchisi bo'lishning kalitidir. Biz har kuni yuzlab, balki minglab talabalarga har xil ta'lim beramiz,shunday ekan iste'dod va qiziqishlarga ega bo'lgan talabalarni o'qitishning eng yaxshi usullarini aniqlashimiz kerak. Suvanidan (Jorjiya) Dallas Gillespi shunday deydi: "Yaxshi san'at o'qituvchisi doimiy ravishda barcha talabalar uchun yuqori darajadagi muvaffaqiyatni ta'minlaydigan mazmunli va tegishli loyihalarni yaratishi, rejalashtirishi va tayyorlashi uchun doimo o'z ustida ishlaydi". Jorjiya shtatining Augusta

shahridan Ivey Coleman qo'shimcha qiladi: "Yaxshi san'at o'qituvchisi keng ko'lamli materiallarni samarali boshqarish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak." Hozrgi globallashuv davrida har bir ta’lim beruvchi pedagog zamon bilan hamnafas bo’lishi,yangiliklardan habardor bo’lishini talab qiladi. Sababi kun sayin yangi metodlar, mashg’ulotlar yuzaga chiqmoqda.O’z ustida ishlaydigan zamonaviy ta’lim usullaridan habardor tarbiyachi yoki o’qituvchi har doim boshqalardan bir pog’ona tepada bo’ladi.

Shunday qilib, uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashda uzluksizlik tamoyilini, uning talablarini, funktsiyalarini, shu bilan birga mutaxassislarni uzluksiz tayyorlash darajalarini hisobga ham olish kerak. O'rta kasb-hunar ta'limi darajasida kadrlar tayyorlash ijro faoliyatini shakllantirishga qaratilgan (o'quv va o'quv faoliyatini tashkil qiladi / amalga oshiradi), bakalavriat darajasida esa bitiruvchining pedagogik faoliyati talabalarni pedagogik qo'llab-quvvatlash sohasiga yo'naltiriladi. Ilmiy tadqiqot va loyihalash (loyihalash / ishlab chiqish / boshqaruv). Shu bilan birga, ta'limni rivojlantirishning asosiy printsipi saqlanib qolmoqda: umumiy uslubiy bazani yaratishni o'z ichiga olgan yagona ta'lim maydoni turli darajadagi ta'lim dasturlari uzluksizligini ta'minlaydi. Bir ta'lim darajasidan ikkinchisiga o'tayotgan talabalar nafaqat yangi kasbiy malakalarni egallashlari, balki egallaganlarini yo'qotmasliklari, balki rivojlanishda davom etishlari kerak. Kasbiy kompetentsiyaning natijasi - bu yuqori darajadagi professional tayyorgarlikka ega bo'lgan, eng samarali o'zaro ta'sirga erishish uchun doimiy intilishi bo'lgan shaxsdir. Yuqorida aytib o'tilganlarga asoslanib, kasbiy kompetentsiya haqida bahslashish mumkin bo’lgan bo'lajak maktabgacha tarbiyachining umumiy va kasbiy ta'lim natijasi, agar o'qituvchining yetarli darajada tayyorgarligi bashorat qilish, rejalashtirish, dizayn professional o'zini-o'zi belgilash va o'z-o'zini boyitish yo'llarini topishga layoqati bo’lsa ,bo’lajak tarbiyachiga shaxsiy va professional hayotni yaxshilashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xasanova, S. (2022). ORGANIZATION OF A DEVELOPING EDUCATIONAL SPACE AS A FACTOR OF A CHILD'S READINESS FOR SCHOOL. *Science and Innovation*, *1*(8), 2199-2203.
2. Xasanova, S. (2022). ОРГАНИЗАТSIЯ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА КАК ФАКТОР ГОТОВНОСТИ РЕБЕНКА К ШКОЛЕ. *Science and innovation*, *1*(B8), 2199-2203.
3. Khasanova, S. (2021). THE ROLE OF HISTORICAL ARCHITECTURAL MONUMENTS IN THE FORMATION OF NATIONAL PRIDE BY PRESCHOOL ADULT CHILDREN. In *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* (pp. 103-107).

4. Khasanova, S. (2021). Formation of national pride in children through teaching description of historical monuments in Uzbekistan. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, *11*(2), 734-738.

5. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B7), 401-405.

6. Barno, E. (2023). O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.

7. Ergasheva, B., Maxmudova, D., & Ramozonova, B. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 2(10), 118–122.

8. Ergasheva Ba’rno Ziyavitdin qizi, & Qulbulova Rayhona Anvar qizi. (2023). MAMLAKATIMIZDA VA XORIJIY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI . Лучшие интеллектуальные исследования, 10(4), 69–74.

TEATR O’YINLARI ORQALI MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO’NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING METODIKASI

Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti

Zufarova Laziza Tolibjon qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim yo’nalishi magistranti

Har bir insonning bolaligi rolli o‘yinlar asosida o‘tadi, u bolada kattalarning hayotiy qonun-qoidalarini anglashni o‘rgatadi. Har bir bola o‘zi bilganicha o‘ynaydi, lekin bu o‘yinlar asosan kattalar, sevimli qahramonlardan o‘rganib yoki ularga taqlid qilgan holda amalga oshiriladi. Bolalar o‘yinlariga improvizatsiya qilingan teatrlashtirilgan tomosha sifatida qarash mumkin. Bolaga o‘zini rejissyor, aktyor, musiqachi, dekorator holida ko‘rish imkoni beriladi. Dekoratsiya va kostumlarni tayyorlash bolada ijodiy va texnik faoliyatni rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Tomoshani tayyorlash jarayonida ular chizish, yasash, tikish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, oldilarida amalga oshirishlari lozim bo‘lgan vazifalarga nisbatan istak, xohish tuyg‘ulari yanada rivojlanadi va ular bundan katta zavq oladilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida teatrlashtirilgan faoliyatning barcha yo‘nalishlariga katta e’tibor berish lozim va shart, chunki ular:

− jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish modelini yaratish;

− milliy va ma’naviy qadriyatlarni singdirib borgan holda bolaning madaniyatini oshirish;

− bolalar adabiyoti, musiqa, tasviriy san’at, o‘zini tutish odobi, milliy an’analar va qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish va bu boradagi qiziqishini muntazam oshirib borish;

− to‘g‘ri fikrlash, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni o‘yinlar orqali bolalar ongiga singdirib borishga yordam beradi.

Shuningdek, teatrlashtirilgan faoliyat bolalarning ichki kechinmalari, munosabatlari, emotsional faoliyatlarining rivojlanishiga, ya’ni asar qahramonlariga munosabat bildirish, ularning holatiga kirishga harakat qilish kabi holatlar bilan birga, ulardagi ijodiy faollikni o‘yin, fantaziya, to‘qib chiqarish orqali kengaytiradi.

Teatrlashtirilgan faoliyat bilan bolalar nutqini rivojlantirish uzviy bog‘liq bo‘lib, qahramonlarning so‘zlari, bola nutqi bilan uyg‘unlashib, uning so‘z boyligini orttiradi, nutqining tovush madaniyati mukammallashadi.

Teatrlashtirilgan mashg‘ulotlar o‘z ichiga ertaklardan lavhalar qo‘yish, rasmga qarab rolli suhbatlar tuzish, hayotiy mavzularga oid mustaqil improvizatsiya (o‘xshatish) qilish (kulgili voqealar, qiziq hodisalar va hokazo); qo‘g‘irchoq tomoshalarini ko‘rish va uni muhokama qilish, dramatizatsiyalashgan o‘yinlar, rolni ijro etish ifodaliligini rivojlantiruvchi mashqlar (verbal va noverbal); bolalarni hissiy rivojlantiruvchi mashqlarni qamrab oladi.

Teatrlashtirilgan faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, jamoani to‘g‘ri yo‘naltirishda tarbiyachi katta rol o‘ynaydi. Tarbiyachi nafaqat ifodali o‘qishi yoki aytib berishi, balki ko‘rishi, eshitishi, obrazga kirishi, ya’ni aktyorlik va rejissyorlik mahoratlariga ham ega bo‘lishi zarur. Aynan shu holat bolalarda teatrlashtirilgan faoliyatga qiziqish uyg‘otib, ularning ijodiy qobiliyatlarining ijobiy tomonga o‘zgarishiga yo‘l ochadi. Tarbiyachi o‘zining aktyorlik faolligi bilan tortinchoq bolalarni faqatgina tomoshabinga aylantirib qo‘ymasdan, har bir bolani diqqat bilan kuzatishi lozim. Tarbiyachi bolalarni muntazam ravishda qo‘llab-quvvatlashi, ularning xato qilish va sahnaga chiqishda «qo‘rqish», «artist» va «tomoshabin»ga bo‘linib qolishlariga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Quyidagi vazifalar teatrlashtirilgan faoliyatni shakllantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan darslar majmuasi davomida hal etiladi:

− tarbiyalanuvchining ijodiy qobiliyat va ijodiy o‘z-o‘ziga ishonish tuyg‘ularini shakllantirish;

− bolalarda ijodiy faoliyatning barcha jabhalariga qiziqish uyg‘otish;

− improvizatsiya (o‘xshatish) qilish ko‘nikmalarini egallash;

− nutq faoliyatining barcha shakl, funksiya va komponentlarini rivojlantirish;

− bilish ko‘nikmalarini mukammallashtirish.

Teatrlashtirilgan o‘yin teatrlashtirilgan mashg‘ulotning asosi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida teatrlashtirilgan o‘yinni o‘tkazishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

− janr va mavzuning turli- tumanligi;

− pedagogik faoliyatning barcha yo‘nalishlariga teatrlashtirilgan faoliyatni har doim va har kuni singdirish.

− bolalarning teatrlashtirilgan o‘yinni tayyorlash va o‘tkazishdagi maksimal faolligi.

− bolalarning teatrlashtirilgan o‘yinni uyushtirishda o‘zaro va kattalar bilan hamkorligi.

Teatrlashtirilgan faoliyatni rivojlantirish tizimi uch bosqichda amalga oshiriladi:

− adabiy va folklor asarlarni ijodiy his etish;

− maxsus bilimlarni asosiy («aktyor», «rejissyor») va qo‘shimcha («ssenariy muallifi», «bezakchi», «kiyim ustasi») nuqtayi nazardan o‘rganish;

− mustaqil ijodiy faoliyat.

Pedagogik vazifa sun’iy teatrlashtirilgan faoliyat bilan qiyinlashib boradi. U his etish, fikrlash, tasavvur, nutq bilan uyg‘unlashib, bolalarning turli xil faolliklarida namoyon bo‘ladi (nutqiy, musiqiy va hokazo).

Shuning uchun teatrlashtirilgan faoliyatni umumlashtiruvchi faoliyat deb atashimiz mumkin.

Teatrlashtirilgan o‘yinlar davomida bolalarda:

− atrof olam haqidagi tushunchalar kengayadi;

− tasavvur, ong, anglash kabi psixologik tushunchalar rivojlanadi

− ko‘rish, eshitish, so‘zlab berish kabi turli analizatorlar rivojlanadi;

− so‘z boyligi, grammatik nuqtayi nazardan to‘g‘ri gapirish, o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalash, talaffuz, temp, so‘z intonatsiyasi va ifodasi faollashadi hamda yaxshilanib boradi;

− motorika, koordinatsiya, tembr, suhbat qurish ko‘nikmalari mukammallashadi;

− hissiy-irodaviy faoliyati rivojlanadi;

− xulq shakllanishi ro‘y beradi;

− jamoada faoliyat olib borish, bir- biri uchun javobgarlik rivojlanadi;

− mustaqil fikrlilik, ijodiy faollik rivojlanadi;

− teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etish bolalarga olam- olam quvonch baxsh etadi, ularda bu faoliyatga nisbatan qiziqish uyg‘onadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan holatda tashkil etilgan ta’lim albatta o‘z samarasini ko‘rsatadi. Teatrlashtirilgan o‘yin bolalarda o‘zini boshqalar oldida ifoda eta olish, o‘zining «Men»ini

boshqalarga taqdim eta olish, o‘rtoqlari oldida o‘z harakatlaridan faxrlanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotidagi davrlari teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatining integratsiyalashgan o‘yinlar, san’atning turlari hisobiga boyitiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xasanova, S. (2022). ORGANIZATION OF A DEVELOPING EDUCATIONAL SPACE AS A FACTOR OF A CHILD'S READINESS FOR SCHOOL. *Science and Innovation, 1*(8), 2199-2203.
2. Xasanova, S. (2022). ОРГАНИЗАТSIЯ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА КАК ФАКТОР ГОТОВНОСТИ РЕБЕНКА К ШКОЛЕ. *Science and innovation, 1*(B8), 2199-2203.
3. Khasanova, S. (2021). THE ROLE OF HISTORICAL ARCHITECTURAL MONUMENTS IN THE FORMATION OF NATIONAL PRIDE BY PRESCHOOL ADULT CHILDREN. In *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* (pp. 103-107).
4. Khasanova, S. (2021). Formation of national pride in children through teaching description of historical monuments in Uzbekistan. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11*(2), 734-738.
5. Sh.T.Xasanova. Tarixiy obidalar bolalarda milliy g’ururni shakllantirish vositasi sifatida. «Yosh olimlar axborotnomasi» – «Вестник молодых ученых» – «The bulletin of young scientists». №4(1) 2023.ISSN 2181-5186.
6. Хасанова, Ш. Т. (2012). Формирование элементов natsiональной гордости у детей старшего дошкольного возраста посредством архитектурных памятников. Педагогические науки, (1), 70-73.
7. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). DEVELOPMENT OF IMAGINARY-CREATIVE COMPETENCES IN THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSION. In *Next Scientists Conferences* (pp. 84-91).
8. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta’lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.
9. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B7), 401-405.

10. Barno, E. (2023). O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.

11. Ergasheva, B., Maxmudova, D., & Ramozonova, B. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 2(10), 118–122.

12. Ergasheva Ba’rno Ziyavitdin qizi, & Qulbulova Rayhona Anvar qizi. (2023). MAMLAKATIMIZDA VA XORIJIY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI . Лучшие интеллектуальные исследования, 10(4), 69–74.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALAR KOGNITIV RIVOJLANISHIGA OTANING TA’SIRI

Tursunov Lutfulla Sayfullayevich,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Psixologiya kafedrasi dotsenti, Psixologiya fanlari nomzodi

Raimova Saida Hatamjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Oilada otaning o‘rniga Sharq mamlakatlarida alohida o‘rin berib kelinishining sababi shundaki ota oilani ham ruhan ham jismonan suyanchig‘i bo‘lishi bilan bir qatorda oilaning asosiy ma’naviy yetakchisi ham hisoblanadi. Garchi jannat onalarning oyog‘i ostida bo‘lsa ham otaning roziligisiz hatto u jannat hidini hidlamasligi mutafakkirlarimizning asarlarida takror va takror uqtirib kelingan. Otaning farzand tarbiyasi hamda ruhiy va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’siri haqida fan-texnika rivojlangan axborot asrimizda ham bundan XX asr avval yozilgan Qobusnomada ham o‘tgan asrning boshlarida faoliyat ko‘rsatgan Jadidlar asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Qobusnomaning muallifi Kaykovus o‘z asarida “odam mevaga ota-ona daraxtga o‘xshaydi daraxtni yaxshi tarbiya qilsang, mevasi yaxshi va shirin bo‘ladi, shuningdek, ota onaga izzat va hurmat ko‘proq qilsang sening haqingdagi ularning duosi tezroq mustajob bo‘ladi”

Otani onadan avval qo‘yganligining sababi ko‘pligini tan olishimiz lozim. Darhaqiqat otaning oiladagi roli barcha davrlarda ulug‘lanib kelishiga sabab ona farzandni dunyoga keltirsa ota bolani olamga tanitib, millatini, davlatini dunyo tan olishiga sababchi bo‘ladi. Ijtimoiy psixologiyaning tarmoqlaridan biri bo‘lgan oila psixologiyasi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki to‘liq

oilada rivojlanayotgan bola bilan to‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan bolaning dunyo qarashida o‘zligini namoyon etishida va “Men”ligiga bo‘lgan munosabatida katta farq bo‘ladi. Ayniqsa otasiz oilalardagi bolalarning psixologik xususiyatlari, xulq-atvorlari hamda o‘zlariga hos bo‘lgan individualligi ajratib turadi. Shuni ham alohida ta’kidlashimiz lozimki, mazkur sohada sotsiologlar olib borgan taqdiqotlarga e’tiborimozni qaratadigan bo‘lsak, to‘liq oilada o‘sgan bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonch yuqori bo‘lsa, otasiz noto‘liq oilada rivojlangan bolalarda bu ko‘rsatkich sust yoki noto‘liq oilada tarbiyalangan yoshlarning kognitiv jarayonlariga bo‘lgan ishonchi sustroq bo‘lsa, to‘liq oilada tarbiya topgan yoshlarda o‘z kognitiv jarayonlari natijalariga bo‘lgan ishonchi yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin.

Otaning har bir harakat va berayotgan ko‘rsatmalari bolalarning ruhiyatida to‘liq idrok etilib, hotirada saqlanib qolishiga asosiy sabab otadagi har bir harakat yoki ko‘rsatmani qayta-qayta takrorlamasligi ekan. Yani aniq qat’iy harakat va ko‘rsatma otalar ruhiyatiga tegshli bo‘lgani uchun ham aksari bolalar otalarni ko‘rsatmalariga ko‘proq e’tibor qaratishlari tadqiqotlarda aks etganligini tadqiqotchilar ta’kidlab keladilar. Oila psixologiyasi bilan shug‘ullanuvchi aksari mutaxassislar bola tug‘ilganidan 3 soniya o‘tib, otasining ovozini taniydi, 3 hafta o‘tib esa onasining ovozini tanishini tez tez ta’kidlab turishadi. Buning sababi shundaki bolaning ona qornida embrion rivojlanish bosqichlarida, ota gapirganida uning tovushi distibali va chastotasi bolaga kelib urilgan, ona gapirganida esa tovush boladan qarama-qarshi tomonga qarab yo‘nalgan, shu sababli bolaga otaning tovushi onanikiga qaraganda tanishroq tuyuladi. Yoki to‘liq oilada o‘sayotgan bolalarni aksariyatini dastlabki so‘zlaridan biri “Ada” degan so‘z bo‘lishiga e’tibor qaratganmisiz? Buning ham o‘ziga xos ijtimoiy psixologik asoslari mavjud. Ya’ni onalar har soatda kamida “Ana adang” degan so‘zni to‘rt-besh marotaba takrorlashlari odatiy hol ekan, natijada bola taqlidchanligi asosida “Ada”, “Dada” degan iborani takrorlayveradi. Yoshlarni hulq ahloq va odobida otaning o‘ziga xos hususiyatlari aks etishi tabiiy hol bo‘lib u milliy qadriyatlarimizda namoyon bo‘lishini yetakchi olimlar ta’kidlab kelishadi. E.G‘.G‘oziyev ta’kidlaganlaridek “Axloq va odobli bo‘lish, ota onalar va kattalarga hurmat, samimiylik, inoqlik, qadr-qimmat, vijdonliylik, iffatliylik, o‘zari yordam kabi insoniy hislatlar o‘zbek xalqi ma’naviyatining ramzi sanaladi. Milliy ma’naviy boyligimizni yoshlar chuqur egallashlari uchun uning bebaho durdonalarini keng ko‘lamda namoyish qilishimiz, bular to‘g‘risida yoshlar ongiga muayyan bilimlarni singdirishimiz zarur”.

Milliy qadriyat va ma’naviyatni oilada umyoshlarga singdirishda otaning rolini hech kim bosa olmasligini yuqoridagi fikrdan ham aniq ko‘rish mumkin. O‘zbek xalqining o‘ziga hos hususiyatini aks ettiradigan eng kichik jamoa oila bo‘lsa, ana shu oilada yoshlar o‘zlarini to‘liq imkoniyatlarini namoyon etib, spng boshqa jamoalarga o‘z “Men”liklarini ko‘rsatishlari maqsadga muvofiqdir. Mazkur holatni davomiy nazorat qilib turuvchi ota ekanligini oila tizimini ilmiy

amaliy tahlil etgan psixologlarimiz o‘z izlanishlari natijalarida qayd etganlar. Yoshlarda kognitiv jarayonlar ijtimoiy psixologik qonuniyatlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki to‘liq oilada rivojlangan yoshlar jinsidan qat’iy nazar o‘zlarinig aniq va yo‘nalgan fikrlarini dadil ayta olishlari bilan to‘liqsiz oilada tarbiya topgan tengdoshlaridan ajralib turgan. Otalardagi qat’iyatlik va aniq talabchanlik oilada tarbiyalanayotgan yoshlar kognitiv jarayonlarni takomillashuvida aks etmay qolmasligi insonshunoslik fanlarida o‘z isbotini topgan desak xato bo‘lmaydi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar kognitiv rivojlanishiga otalarning ta’siriga e’tibor qaratadigan bo‘lsak ulardagi otalarga bo‘lgan munosabati boshqa davrlarda ko‘rinmaydi. Bu yoshdagi bolalar uchun otasi hamma narsani biladi va hamma narsa qo‘lidan keladi. Otaning timsoli idela sifatida aks ettirish mazkur yosh vakillariga hos bo‘ladi. Bolaning “Men”ligi shakllanib o‘zligini anglash jarayonida otaning diqqat e’tibori bolalar uchun naqadar zarurligi va ana shu e’tibor orqali oilada bolaning o‘z o‘rniga ega bo‘lishini mutaxassislar ta’kidlab o‘tishadi. Qolaversa, dono xalqimizning ko‘plab maqol va matallarida ota va onaning bola tarbiyasida birligi beqiyos ekanligi uqtirib o‘tiladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Qobusnoma. T.:Zamon, 2021.

2. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. — T.: O‘zbekiston FMJ nashriyoti, 2010/

3. Nizomova, Shoxista. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush tizimini shakllantirish." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).

4. To’raqulovich J. U. Innovative Pedagogical Technologies in a Preschool Educational Institution //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – T. 11. – C. 215-218.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T. “Ma’naviyat”, 2008, 43-bet.

6. Quronov.M. Bolam baxtli bo’lsin, desangiz... .T. “Ma’naviyat”, 2014, 22-bet.

7. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.// “Xalq so‘zi” gazetasi 2018 yil 8 dekabr.

BOLALAR TABIATNI KO‘RISHI VA TASAVVURI ORQALI DUNYOQARISHINI KENGAYTIRISH USULI

Rasulxo‘jaeva Madina Axmadjonovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

rasulxo’jayevamadina75@gmail.com

Mamlakatimizda ham atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim-tarbiya berishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo‘yicha universal modellarni ishlab chiqish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish masalasiga alohida urg‘u berilib, bunda xalqaro maydonda atrof muhitga oid tashabbuslar, shu jumladan Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish tashabbusi ilgari surilgan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019 yil 27 mayda “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-son Qarori [2] tasdiqlangan bo‘lib, ushbu qarorning 3-bobida maktabgacha ta’lim tizimida ekologik ta’limni takomillashtirish lozimligi bayon etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va bu orqali tarbiyalanuvchilarga mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, ularda ekologik madaniyatni oshirish hamda ushbu o‘ta jiddiy, hayotiy masalalarni hal qilishda yangi metodikalar yaratishdan boshlash kerakligi belgilangan.

Ta’lim tamoyillarini zamon o‘zgarishi va ta’limga kirib kelayotgan yangiliklar tufayli o‘zgarib borishi mumkindir. Ushbu ta’lim tamoyillari ichida ko‘rsatmalilik tamoyili maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayonida muhim tamoyil sanaladi. Chunki, ta’kidlaganimizdek, tarbiyalanuvchilarning katta foizi ko‘rsatilgan ma’lumotlarni yodda saqlab qolishadi.

Ta’limda ko‘rsatmalilik tamoyili o‘quv materiallarini aniq obrazlar orqali bevosita tarbiyalanuvchilarning idrok qilishlarini ta’minlashga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zotan ko‘rsatib, anglatib, analiz va sintez qilib, amaliy sur’atda ishlatib berilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar tarbiyalanuvchilar ongiga tezroq singadi, xotirasida uzoq saqlanadi. Ko‘rsatib o‘qitish orqali tarbiyachi mashg‘ulot jarayonida bolalarga nazariy va amaliy ma’lumot beradi va tarbiyalanuvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi [3].

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda turli usul va metodlar bo‘lib, bular orasida bolalar ko‘rishi va tasavvuri orqali dunyoqarishini kengaytirish usuli bo‘lgan vizual texnologiyalarning ahamiyati yuqori sanaladi. ***Vizual texnologiya – bu axborot kommunikatsiya vositalarining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materiallarini tarbiyalanuvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir.***

Shulardan biri tabiat bilan tanishtirishning kuzatish metodi asosidagi rasmlarni ko‘rish, tabiatdagi uzoq vaqt mobaynida bo‘lib o‘tadigan voqea hodisalarni qisqa vaqt ichida ko‘rish imkonini beruvchi virtual ekskursiyalardir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotilarida vizual texnologiyalardan foydalanish nafaqat taqdim etilayotgan material mazmunini yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi, balki o‘quv jarayonida ijodkorlik muhitini paydo qiladi.

Ta’limning vizual texnologiyalari o‘zaro ta’sir etish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga qulay ta’lim va tarbiya berish imkoniyatlarini ochadi, bu esa oxir-oqibatda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ekologik madaniyati, ekologik ma’rifati hamda ekologik ta’lim-tarbiyasini shakllantirishning muhim manbai bo‘lishi mumkin. Mashg‘ulot va mashg‘ulotlardan tashqari jarayonda turli vizual “videorolik”, “multfilm”, “tasvirlar”, “ekskursiya” texnologiyalardan foydalanish bolalarda ekologiya va atrof-muhitga bo‘lgan qiziqish uyg‘onishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Pespublikasi Ppezidentining 2022 yil 28 yanvapdagi “2022–2026 yillapga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tapaqqiyot stpategiyasi to‘g‘pisida”gi PF–60-son Fapmoni.

2. O‘zbekiston Pespublikasi Vaziplap Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Pespublikasida ekologik ta’limni pivojlantipish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘pisida”gi 434-son Qapopi.

3. G.E.Djanpeisova.,M.A.Rasulxo‘jayeva “Tabiat bilan tanishtirish”//O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur” Toshkent 2020 yil

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHINING ROLI

Nurmatova Iroda Toxtasinovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda musiqaning o‘rni juda katta. Musiqa - bolalarda boshqa san'at turlaridan oldin hissiy munosabat uyg‘otadi. Musiqiy ta‘lim nutqni, hissiyotlarni, harakatlarni rivojlantirishga hissa qo‘shadi, bolalarga quvonch bag‘ishlaydi, faollikni rag‘batlantiradi, ularni yorqin badiiy ta‘ssurotlar bilan boyitadi. Musiqa hatto 3-4 oylik bolaga ham zavq bag‘ishlaydi: qo‘shiq aytish, metallofon tovushlari bolada birinchi navbatda diqqatni jamlashga, so‘ngra tabassum qilishga sabab bo‘ladi. Bolalar yoshi qanchalik katta bo‘lsa, musiqa shunchalik yorqin va ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu bolani go‘zallik dunyosiga kiritish uchun eng qulay vaqt. Shu munosabat bilan tarbiyachining shaxsiyati katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdag bolani tarbiyalash tarbiyachining axloqiy xarakteriga, bilim darajasiga, kasbiy mahoratiga va tajribasiga bog‘liq. Tarbiyachi - nafaqat musiqani tushunishi va sevishi, ifodali qo‘shiq aytishi, ritmik harakatlanishi va musiqa asboblarida ijro etish imkoniyati darajasida bo‘lishi muhimdir. Bolani musiqa vositasida tarbiyalashda tarbiyachi shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun uning ahamiyatini tushunishi kerak. Bolalarning bo‘sh vaqtlarida xorovod raqslarda raqs tushishlari va qo‘shiqlar kuylashlari juda yaxshi. Metallofon, doirada kuylarni ijro etishni bilishi lozim.

Musiqa bola hayotining ko‘p qirralarini qamrab olishi kerak. Musiqiy talim jarayoni faqat to‘g‘ri yo‘nalishda bolalar bilan ajralmas holda ishlaydigan kishi, yani tarbiyachi tomonidan boshqarilishi mumkin. Ammo buning uchun tarbiyachi musiqa sohasida kerakli bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Maktabgacha o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida kelajakdagi tarbiyachilar keng musiqiy tayyorgarlikni oladilar: ular cholg‘u asboblarida ijrochilikni, qo‘shiq aytishni, raqsga tushishni, musiqiy ta‘lim usullarini o‘zlashtiradilar. Tarbiyachi bilan ishlashda musiqiy rahbari unga navbatdagi musiqa mashg‘ulotlarining mazmunini ochib beradi, amaliy materialni tanishtiradi. Bu ularga har bir bolaning muvaffaqiyatini birgalikda kuzatishlariga yordam beradi. Qo‘shimcha yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni aniqlash, ushbu yordamning usullarini belgilanadi. Bundan tashqari musiqiy rahbar, har bir tarbiyachining imkoniyatlarini hisobga olgan holda, musiqa mashg‘ulotlari jarayonida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi.

Tarbiyachining musiqa mashg‘ulotida qatnashishi guruh yoshiga, bolalarning musiqiy tayyorgarligiga va ushbu mashg‘ulotning o‘ziga xos vazifalariga bog‘liq. Bolalar qanchalik yosh

bo‘lsa, tarbiyachi shunchalik faol bo‘lishi kerak - bolaga yordam berish, bolalarning diqqatli ekanligiga ishonch hosil qilish, sinfda kim va qanday namoyon bo‘lishini kuzatish. Katta va tayyorgarlik guruhlarida bolalarga ko‘proq mustaqillik beriladi, ammo baribir tarbiyachining yordami zarur.

Musiqiy rahbarning pedagogik malakasi qanchalik baland bo‘lmasin, tarbiyachining ishtirokisiz amalga oshirilsa, shuningdek, bolalar uchun musiqa faqat musiqa rahbari kelgan kunlarda yangrasa, musiqa talimining asosiy vazifalaridan hech biri qoniqarli hal etilmaydi. Musiqa mashg‘ulotning birinchi qismida yangi harakatlarni o‘rganish jarayonida tarbiyachining o‘rni katta. U musiqiy rahbar bilan birgalikda barcha turdagi mashqlarni namoyish etishda qatnashadi, bu bolalarga bir vaqtning o‘zida vizual va eshitish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Tarbiyachi musiqa mashg‘ulotida barcha bolalarni ko‘radi, harakatlar davomida tegishli ko‘rsatmalar berishi va izohlar berishi mumkin.

Tarbiyachi barcha turdagi mashqlarda aniq, va chiroyli harakat tartiblarini taklif qilishi kerak. Mashg‘ulotlarda tarbiyachi mashqni ko‘rsatadi, chunki bu mashqlar bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Mashg‘ulotning ikkinchi qismida tarbiyachi musiqa tinglash faoliyatida uning harakatlari asosan passiv bo‘ladi. Musiqiy rahbar musiqiy asarni ijro etadi va suhbat o‘tkazadi. Tarbiyachi bolalarga musiqani tahlil qilishda yetakchi savollar bilan yordam berishi mumkin, agar bolalarning o‘zi javob berishga qiynalsa, obrazli taqqoslashga yordamlashadi. Tarbiyachi bolalarga kerak bo‘lganda musiqa tinglash usullarini ko‘rsatib beradi, izohlar beradi, yangi qo‘shiqni o‘rganayotganda tarbiyachi bolalar bilan qo‘shiq aytadi, to‘g‘ri intonatsiya va talaffuzni namoyish etadi.

Bolalarni yangi qo‘shiq bilan tanishtirish uchun yaxshi musiqiy mahoratga ega bo‘lgan tarbiyachi - ovozi, sof intonatsiyasi qo‘shiqni yakka o‘zi ijro etishi mumkin. Qoida tariqasida, yangi asar bilan bunday tanishish bolalarda jonli hissiy munosabat uyg‘otadi. Bolalar bilan syujetli o‘yinlarni o‘rganayotganda tarbiyachi o‘yinning borishi haqida tushuntirishlar, ko‘rsatmalar, izohlar beradi, u o‘yin birinchi bo‘lib amalga oshirilganda yoki o‘yin teng miqdordagi bolalar juftligini talab qilganda unga qo‘shilishi mumkin. Tarbiyachi o‘yinni o‘rganishning barcha bosqichlarida bolalar bilan o‘ynaydi. O‘yin tugagandan so‘ng tarbiyachi kerakli tushuntirishlar, ko‘rsatmalar beradi va bolalar yana o‘ynashadi. Tarbiyachi bolalarning o‘yinlarini kuzatib borar ekan, musiqa rahbariga maslahat bilan yordam beradi - qaysi harakatlarni takomillashtirish kerakligi, mashqlar uchun qanday harakatlarni o‘rganish kerakligini aytadi. Raqslarni ijro etishda tarbiyachi xuddi shu tarzda harakat qiladi. Mashg‘ulot jarayonida tarbiyachi ko‘rsatmalar beradi, harakatlarni to‘g‘ri bajarishga yordam beradi, harakat o‘zgarishini taklif qiladi, musiqa o‘zgarishiga e‘tibor beradi, jufti yo‘q bolalar bilan raqsga tushadi. Mashg‘ulotning yakuniy bosqichida bolalar mustaqil ravishda raqsga tushishadi. Katta yoshdagi bolalar bilan

o‘tkaziladigan raqslarda - improvizatsiyalarda tarbiyachi ishtirok etmaydi, chunki ular bolalarning ijodiy tashabbusini rivojlantirish uchun amalga oshiriladi. Mashg‘ulotning yakuniy qismida tarbiyachi odatda faol ishtirok etmaydi, chunki musiqa rahbari mashg‘ulotga baho beradi. Tarbiyachi bolalarga saflanishida yordam beradi, intizomni nazorat qiladi. Bundan tashqari, musiqiy talimda asosiy rol bolalarning mustaqil faoliyatida tarbiyachiga yuklanadi.

Tarbiyachilar musiqiy va pedagogik malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib, musiqiy rahbarning faol va mohir yordamchilari bo‘lishlari, bolalar bilan kundalik ishlarida musiqiy materiallardan foydalanishlari va agar kerak bo‘lsa - musiqa rahbari bo‘lmagan taqdirda mustaqil ravishda eng oddiy musiqa mashg‘ulotlarini o‘tkazishlari mumkin. Tarbiyachi musiqa mashg‘ulotlarini kuzatish va tahlil qilishda hamda ularni mustaqil ravishda o‘tkazish tajribasida bir oz tajribaga ega bo‘lganda, u mashg‘ulotlarni o‘tkazish uslubiy metodlarini muhokama qilishda o‘z takliflarini bildiradi, bolalarning ijodkorligini rag‘batlantiradi, rollarni taqsimlaydi, o‘yinlarda va dramatizatsiyalarda syujetning rivojlanishini belgilaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Toxtasinovna, N.I. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQALI SAHNALASHTIRISH ASOSIDAGI FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISHNING SHAKL, USUL VA VOSITALARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *4*(2), 16-22.
2. Nurmatova, I. (2023). Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanishidaqo ‘g ‘irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, *1*(2-3).
3. Toxtasinovna, N. I. (2024). MUSIQA TINGLASH FAOLIYATI ASOSIDA KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *17*(2), 155-158.
4. Nurmatova I.T. Theatrical activity as a means of developing the creative abilities of younger preschoolers., Modern problems of science and yedugation., 15.12.2022.,136-140pp.International scientific and current research conferences.Virginiya.USA.
5. Nurmatova I.T. Development of creative activity of older preschool childrenby means of theaterized activity., european international journal of pedagogics.ISSN: 2751-000X., Pages: 20-25. SJIF – 5,983. https://www.eipublication.com.
6. Нурматова И.Т. “Роль педагога в организации театрализованной деятельности дошкольников”.//“International sonference on yeducational innovations and sciences 2022/8" Toshkent.2022 Page No.: -R.168-171.

7. Nurmatova I.T. Maktabgacha yos’hdagi bolalar hayotida musiqaning o‘rni va roli. Maktabgacha ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash: innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajriba. Respublika ilmiy-amaliy seminari. Tos’hkent. 2019. -B. 119-121.

8. Nurmatova I.T. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga musiqiy ta’limberishda tarbiyachining faoliyati / “Maktab va hayot” jurnali. 5-son. (161) 2021 2010-5460 ISSN – B. 24. (13.00.00 №4).

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA SENSOR QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQIY DIDAKTIK O‘YINLARNI TASHKIL ETISH

Nurmatova Iroda Toxtasinovna *- Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta’lim metodikasi" kafedrasi o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)*

Sag'dullayeva Muqaddas Dilmurod qizi *- Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim yonalishi talabasi*

Musiqa san’ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta’sir o’tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o’rin tutadi. Bugungi jamiyatning madaniy hayotida yanada kengroq o’rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg’u uyg’otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o’sib, hissiyotni yanada boyitib boradi. Musiqa bolaga har tomonlama yordam berishi, tevarak-atrofni obrazli - emotsional idrok etishi va bola xarakterining shakllanishiga ta’sir ko’rsatishi mumkin. Bola tug'ilarkan, eng avvalo onasining allasi bilan ulg'ayadi. Bolalar hayotida musiqaning o'rni va ahamiyati juda katta.

Yunon faylasufi Platonning fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan - to'g'ri bog'liq. Bolada badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ham muhimdir. Bolalar o'z tasavvurlarini qo'shiq, o'yin, raqs ijodida namoyon qilishga va musiqa savodining oddiy elementlarini egallashga qodirdirlar. Musiqiy faoliyatning har bir turi musiqa qobiliyatlarining o'sishiga yordam beradi. Musiqaga qiziqtirish jarayonida so'z muhim rolni bajaradi. Bolalar idrok eta oladigan, tushuna oladigan musiqa asarlarini eshitar ekan, so'zlar asosida olamni anglay boshlaydi. MTTda musiqiy faoliyatlarni rejalashtirishda musiqa mashg‘uloti asosiy vazifani bajaradi. Pedagog o'z ishini rejalashtirar ekan, bolalar bilan bo'lajak har bir uchrashuvning aniq vazifalari unga ravshan bo'lishi kerak, o'quv materialini butun o'quv davriga taqsimlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda musiqaning o'rni beqiyosdir. Kuy, qo’shiqqa, san’atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda

bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga berilayotgan musiqiy ta'limning sifati, samaradorligi butkul musiqa rahbari zimmasida bo'lib, uning o'z kasbini sevishiga, pedagogik mahoratiga, izlanuvchanligiga, fidoiyligiga, o'z mas'uliyatini qay darajada his etishiga bog'liq. Bu sharafli vazifani bajarishda ularga pedagog tarbiyachilar ham yaqindan ko'makdosh sanaladi. Har bir musiqa rahbari musiqiy tarbiya berishda tarbiyalanuvchilarni egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar mezoni talablarini yaxshi bilishi hamda mashg'ulotlar shu mezonlar asosida va darajasida bo'lishini ta'minlashi kerak. Shunday ekan kichkintoylarning har tomonlama rivojlantirishda musiqa mashg'ulotining munosib o'rni borligini hisobga olgan holda dasturlarni shunga mos ravishda tayyorlashi lozim.

Amaliyot jarayonida mashg‘ulotlar o'tkazishning quyidagi tartibi shakllangan: bolalarning tinglash qobiliyatini, diqqat e'tiborini to'plab, jamoani yaxshi uyushtiradigan musiqali-ritmik malaka rivojlanishi uchun amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish. Bolalar musiqiy faoliyatlarini amalga oshirish uchun musiqali mashg'ulotlarda qatnashadilar. Bu mashg'ulotlar orqali bolalar o'zlarini, o'rtoqlarini, pedagogning ko'rsatmalarini tinglab, ashula aytish improvizatsiyalari uchun ijodiy topshiriqlarni bajaradilar va yangi qo'shiqlar o'rganadilar. Bolalar tarbiyasida musiqiy-didaktik o'yinlar katta rol o'ynaydi. Ulardan ayrimlari mashg'ulotlar vaqtida o'rganiladi.

Musiqiy didaktik o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolaning musiqiy madaniyatini rivojlantirish vositalaridan biri bo’lib, bolalarning musiqa eshitish qobiliyati, ritm hissi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Musiqiy didaktik o'yinlar - bu musiqa haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirishga qaratilgan o'qitishning o'yin usuli, shuningdek, mustaqil o'yin faoliyatining o'yin shakli, musiqiy muloqot va bolalarni rivojlantirish vositasi. Musiqiy didaktik o'yinlar musiqiy faoliyatning barcha turlarini birlashtiradi: qo'shiq aytish, tinglash, musiqa ostida harakat qilish, musiqiy asboblarda ijrochilik. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatining kuzatuvi shuni ko'rsatadiki, kichik maktabgacha yoshdagi bolalardan farqli o'laroq, ular mustaqil ravishda bir-birlari bilan musiqiy va didaktik o'yinlarni o'ynashlari, ularni tuzishlari, harakatlar ketma-ketligini ishlab chiqishlari va o'yin qoidalarini shakllantirishlari mumkin.

Musiqali didaktik o'yinlarning ham ahamiyati katta bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotida ushbu faoliyatni qo'llash tarbiyalanuvchilarda badiiy didning shakllanishiga sezilarli ta'sir qiladi. Musiqada "o'z tili bilan" aks ettirish xususiyatlari mavjud va uning emotsional mazmunini so'zlar orqali tushuntirish qiyindir. Bularni idrok qilish kishining umumiy emotsional rivojlanishiga bog'liqdir. Mashg'ulotlarda bolalar bilan didaktik o'yin o'tkaziladi va bu o'yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o’rmon, metro stantsiyasi, temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin. O'yinning ijodkori yaratuvchisi - bolalardir va ular o'yinda o'zlariga tanish bo'lgan hayotiy voqea va hodisalarni ularga bo'lgan munosabatlarini aks ettiradilar. Musiqali o’yinlarda musiqa asarlarining badiiy mazmuni,

xarakteri va ifoda vositalari o’yinning syujetiga mos tushishi shart. O’yinning syujeti esa MTT hayotidan olingan bo'lishi lozim. Bolalar o'yinlari ijtimoiy hayot va tabiat bilan bog'liqdir. Bu o'yinlarda tarbiyachi bolalarga ro'l beradi va har xil musiqiy janrlarni o'yin orqali o'rganishga yordam beradi.

Jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa - kishiga butun hayoti davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa san'ati inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega. Demak, ajdodlarimizga munosib voris tarbiyalashda musiqaning alohida o'rni borligi ayni haqiqat, bolani har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashdek sharafli ishni to'g'ri yo'lga qo'yish biz pedagoglarga hamda bo'lajak kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

9. Nurmatova I.T. Bolalarning musiqiy ta’limi. Toshkent.:Tafakkur.2021.
10. Toxtasinovna, N.I. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQALI SAHNALASHTIRISH ASOSIDAGI FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISHNING SHAKL, USUL VA VOSITALARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *4*(2), 16-22.
11. Nurmatova, I. (2023). Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanishidaqo ‘g ‘irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, *1*(2-3).
12. Toxtasinovna, N. I. (2024). MUSIQA TINGLASH FAOLIYATI ASOSIDA KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *17*(2), 155-158.
13. Nurmatova I.T. Theatrical activity as a means of developing the creative abilities of younger preschoolers., Modern problems of science and yedugation.,15.12.2022.,136-140pp.International scientific and current research conferences.Virginiya.USA.
14. Nurmatova I.T. Development of creative activity of older preschool childrenby means of theaterized activity., european international journal of pedagogics.ISSN: 2751-000X., Pages: 20-25. SJIF – 5,983. https://www.eipublication.com.
15. Нурматова И.Т. “Роль педагога в организации театрализованной деятельности дошкольников”.//“International sonference on yeducational innovations and sciences 2022/8" Toshkent.2022 Page No.: -R.168-171.
16. Nurmatova I.T. Maktabgacha ta’limda zamonaviy tarbiyachilar kasbiy kompetentligi va uning muhim jihatlari. Maktabgacha ta’lim faoliyatini takomillashtirish: innovatsiya va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Navoiy. 2019. -B.101-102.
17. Yakubova, Z. Z. (2023). NATIONAL VALUES OF PRESCHOOL CHILDREN BASICALLY FORMING EDUCATIONAL AND MORAL QUALITIES. *European International Journal of Pedagogics*, *3*(01), 51-55.
18. Zikirovna, Y. Z. (2023, February). EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL TRADITIONS. In *Conference Zone* (pp. 257-262).

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILI O‘RGATISH IMKONIYATLARI

Marasulova Dono Nigmatullayevna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
donomarasulova@gmail.com

Mamlakatdagi ijtimoy-iqtisodiy o‘zgarishlar, jamiyatning dinamik rivojlanishi, fan va texnika sohasidagi taraqqiyot XXI asrda insonga yangi: bugungi kun kishisini – ijodkor, yaratuvchan va faol tashabbuskor shaxsni kamolga yetkazish uchun ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, yoshlarning eng kichik yoshidan boshlab uzluksiz va har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan innovatsion ta’lim muhitini yaratish talablarini qo‘ydi.

Mutaxassislarning kuzatishlariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan asosiy axborotning boshlang‘ich manbasining 70-80 foizini 5-7 yoshgacha bo‘lgan davrida olar ekan. Xorijiy tillarni ilk o‘rganishning eng maqbul va oson o‘zlashtirish davri maktabgacha bo‘lgan davr bo‘lib, kichik yoshdagi bolalarda til egallashning o‘ziga xosligini tug‘ma qobiliyat deyish mumkin. Ayni vaqtda tilni egallash bolalar tafakkurining rivojlanishiga kuchli ta’sir etuvchi vosita hisoblanadi, chunki bolaning har bir o‘rgangan so‘zi tagida muayyan tushuncha yotadi. L. Vitgenshteynning**:** «Mening tilim chegaralari mening dunyoqarashim chegaralarini bildiradi», degan fikrida ham til o‘rganish jarayonidagi har bir o‘zlashtirilgan so‘z ortida muayyan tushunchani egallash orqali tafakkurning boyishi nazarda tutilgan. Demak, bolaning har taraflama sog‘lom, barkamol rivojlanishida bog‘cha yoshidan ta’lim- tarbiya ishlarini to‘g‘ri olib borish muhim ahamiyatga ega.

Bolaning bog‘cha yoshidagi davri nihoyatda serqirra va faol davr bo‘lib, bu davrda bola har tomonlama ham jismoniy jihatdan, ham psixik jihatdan taraqqiyotning yana bir yuqori pog‘onasiga ko‘tariladi. Bu yoshdagi aksariyat bolalar nihoyatda serharakat, qiziquvchan, intiluvchan, ayrim hollarda hatto sergap ham bo‘ladilar. Bola hatto qorni ochib ketgan vaqtda ham, taomni chala yegancha, yana o‘yinga berilib ketishi mumkin, uni dam olish uchun uxlatish yoki bir joyda qimirlatmay o‘tqazib qo‘yish nihoyatda murakkab vazifa hisoblanadi.

Ilmiy-metodik va psixologik adabiyotlarni o‘rganib chiqish maktabgacha yoshdagi bolalar leksikani tez o‘zlashtirish qobiliyatiga egaliklarini ko‘rsatadi. Maktabgacha yosh xorijiy tilni egallash uchun eng noyob davr, shu bois bundan samarali foydalanish darkor. Bolalar asosiy leksik materialni bog‘chada o‘rganib olsalar, maktabga muayyan ko‘nikmalarni egallagan tarzda o‘qish va yozishga tayyor holda keladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xos psixofiziologik xususiyatlarini o‘rganib chiqib, aynan quyidagi lingvopsixologik xususiyatlar chet tilni o‘rgatishda alohida ahamiyatga egaligi aniqlandi:

1.Aynan maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tildagi tovushlarni aniq qabul qilish va talaffuz qilish qobiliyati mavjud. Bolalar har qanday tildagi tovushlarni intonatsiyaga qarab ajrata oladi, lekin bolaulg‘aygan sari bu qobiliyat sustlashib boradi. Bu bolalarga kichik yoshidan til o‘rganish samarali bo‘lishini asoslaydi.

2.Bolalarda taqlidchanlik xususiyati kuchli bo‘ladi. Shu bois, ular atrofdagi nutqiy muloqotni oson o‘zlashtiradilar. Chet tilni o‘rganishda taqlidchanlikdan foydalanish ham samarali kechadi.

3.Bolalardagi har narsaga qiziqish xususiyati kuchli bo‘ladi, masalan, yangi o‘yinchoqlarga, voqealarga, predmetlarga. Turgan gapki, bola qiziqib ko‘rayotgan ushbu yangi narsalarning nomini atagisi, eslab qolgisi keladi. Chet tilni o‘rganishda aynan shu xususiyatdan foydalanish kerak.

4.Bolalar narsalarni o‘z qo‘li bilan ushlab, yalab, yeb ko‘rib, o‘z hissiyotlari bilan bog‘laydilar, kattalar odatda bundan tortinadilar. Shu bois, bola muntazam barcha analizatorlar ishtirokida nutqni tez egallay boshlaydi. Ya’ni, biror predmetni ikkinchi tilda eslab qolish uchun o‘sha narsaning rangi, mazasi, hajmi va o‘ziga xos xususiyati darhol bola xotirasida namoyon bo‘ladi va bola uni so‘z bilan ifodalaydi.

5.Chet tilni o‘rganish ona tilidagi nutqning to‘liq shakllanishiga, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishga yordam berish bilan birga bolani boshqa madaniyat olamiga, o‘zga til va muloqotga olib kiradi. Chet tilni o‘rgatish kommunikativ vazifalardan tashqari xotiraning, ijodiy xayolning, tafakkurning rivojlanishi va dunyoqarashning kengayishiga ko‘maklashadi.

6.Til bolaning kundalik hayotiga tabiiy tarzda kirishib ketsa, u o‘yinda, atrofdagilar bilan muloqotda undan foydalana boshlaydi, bu esa tilni muvaffaqiyatli egallashning garovidir. Shu bois pedagogning vazifasi til o‘rganuvchilarga tabiiy muhitni yaratib borishdan iborat bo‘ladi.

I.L.Sholponing nuqtai nazaridan maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: bolalarda chet tilida boshlang'ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirish; o'z maqsadlariga erishish, hayotiy aloqa sharoitida fikr va hissiyotlarini ifoda etish uchun chet tilidan foydalanish qobiliyati; chet tillarini yanada o'rganishga ijobiy munosabat yaratish; boshqa mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqishni uyg'otish; so'zga faol ijodiy va emotsional-estetik munosabatni tarbiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda lingvistik qobiliyatlarini rivojlantirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasidagi o‘quv- tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitishi va tushunishi;
- o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanishi;
- ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqish namoyon qilishi;
- ikkinchi tilni egallash bo‘yicha dastlabki bilimlarni egallashi;
- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni bilishi ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga chet tillarni o‘rgatishda lug‘at ustida maxsus ishlash katta ahamiyatga ega. Bu jarayonning samarali kechishi ko‘p hollarda bolalarning o‘z ona tilida qanchalik ko‘p so‘zlarni bilishiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning bilingval komunikatsiyasini rivojlantirish maqsadli va istiqbolli omillardan biridir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Марасулова Д. Н. АУТЕНТИЧНЫЕ ВИДЕОМАТЕРИАЛЫ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА //Results of National Scientific Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 252-259.
2. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). DEVELOPMENT OF IMAGINARY-CREATIVE COMPETENCES IN THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSION. In Next Scientists Conferences (pp. 84-91).
3. 2. Marasulova, D. N. (2023). BOLALARGA CHET TILINI O‘RGATISHDA . MULTIMEDIALARNI O‘RINI. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(3), 83-87.
4. Marasulova, D. N., & Alovatova, L. S. (2023). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘RGATISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 47-50.
5. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.
6. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta’lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

ENGLISH TEACHING METHODS IN PRESCHOOL EDUCATION

Marasulova Dono Nigmatullayevna,

Tashkent state pedagogical university named after Nizami,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Teaching methodologies. Before introducing the different English Teaching Methodologies, (ETM), some concepts must be understood: Edward Anthony (as cited in Richard & Rodgers, 1986) described an approach as a set of correlative assumptions, evident or obvious, thatdeal with the nature of the matter to be taught. He explains that in theuse of an approach to teach a language, there can be many plans for the presentation of the language materials in a procedural way; he refers to these plans as methods. Therefore, within one approach there can be many methods. Furthermore, Edward Anthony describes the technique as the implementation of the method in the classrooms, and the actions that would take place in the classroom.

On the other hand, Richard and Rodgers (1986), believe that as methodis related theoretically to one approach, it is organized and determinedby a **design** and then put into practice using a **procedure**. This wholebroad relationship between theory and practice should be referred to asa **method**. The difference between an approach and a method is the emphasis and priority they give to the content versus instructional issues (Richard & Rodgers, 1986), i.e. "an approach is an idea or a concept, whereas a method is the procedures to turn that idea into reality in theclassroom".

Second Language Acquisition. When the ETP aims at teaching English as a Second Language (ESL), itshould be taken into account the route and the rate of the student´s progress. The **route** is the nature of the stages students go through in the*acquisition* process, not taking into account their mother tongue nor the context of their learning, and the **rate** is the speed of the language´s*learning* (Myles, 2011).

For this reason, regarding the Second Language Acquisition process (SLA), Myles (2011) believes that teachers should be more concernedabout their student´s **rate** of learning due to the implied pedagogical issues. Teachers need to observe what makes their students understand and learn the language faster and their capacities at certain stages oftheir development. From this, they will be able to adapt the **route** of learning and choose the most appropriate methodologies according tothe situation and conditions (Myles, 2011)

Learning or acquiring a language? In the English Teaching Process (ETP), it is important to consider whetherone method is aiming at acquiring or learning the language.

Stephen Krashen (1982) stated that the process of **acquiring** a languagehappens in a natural way, when children are immersed into a language, reacting spontaneously and interacting subconsciously. On the contrary, language **learning** is a conscious, rather rational process which normally happens in a programmed way, for example, when learning grammar or vocabulary.

Therefore, when learning English in the early stages, students begin to**acquire** the language unconsciously motivated by necessities, such as toget the attention of the teacher, to exchange information or to participate in a game. Consequently, children would start to understand, feel comfortable, and get used to an English speaking environment.

However, later on, when reaching Primary and higher levels of education, it is adequate for students to also **learn** English by means ofstudying the language using more complex approaches, learning the grammar, etc. (as native English speakers also do), but it is fundamental not to leave the acquisition process behind.

Which is the best method? According to Taylor (n.d.) linguists have demonstrated that there is notone single best method for everyone in all contexts, and that no teaching method is inherently superior to the others. In addition, it is not always possible, nor appropriate, to apply the same methodology to alllearners.

It is very important for teachers and learners to understand the different methodologies. Moreover, when choosing the best one, several factorshave to be taken into account, such as the age, objectives, environment, learning styles, needs, context, previous knowledge, mother tongue, aptitudes, backgrounds, ambitions, attitude, and eventhe length and the time of the lessons. It also implies encouragement,dedication, time and effort.

Total Physical Response. Children are constantly moving and willing to play. The Total Physical Response (TPR) method emphasizes the importance of auralcomprehension, where students participate actively responding tocertain commands. For example, "Close your eyes", "Touch your nose","Sit down", etc. (Richards & Rodgers, 1986).

Using TPR activities in the ECE classroom promotes children being physically active. The procedures in the designs of this method would look like activities and games that are motivating and enjoyablemethods to teach and acquire the English language. TPR activities canbe done individually by asking individual children for commands whilethe rest of their classmates listen and process the information, or it couldbe done in groups. In the course of my student teacher field practice, this was the most used methodology and the one children seemed to enjoy the most.

White paper project. The White paper project, created by Ana García de la Fuente, director of the Art and visual Program at "Colegio San Patricio", has the purposeof teaching a second language in an enjoyable and simple way,reaching a personalized education. It is based on the Content and Language Integrated Learning (CLIL) methodology, and its goals in ECE is to develop English oral comprehension and the artistic language as away of letting children express themselves in a bilingual setting while enjoying talking about themselves and reinforcing the teacher-student bonding.

The White paper project consists of three activities directed to the acquisition, not the learning, of the language as a result of a natural communication between teacher and students. The activities consist ofthree parts. First, a group conversation where the teacher and studentstalk about a topic of interest, developing the general communicative competence in listening and talking. During the conversation, the students associate the information given with their previous knowledge. They structure their ideas and share them along with knowledge and even feelings and emotions. Secondly, the students would do an individual free drawing, finding a way of transmitting their ideas, feeling and thoughts. It was observed that during the first months the drawings were rather simple but the more they used this methodology, the morethe students realised the teacher cares to learn about them, and gave more importance to their drawings, adding more details and creativity.Thirdly, the One-to-One conversation takes place. It is an interaction between the teacher and the student talking in English about the drawing. It is a very important educational moment which can be reflected on and encourages English language speaking and comprehension skills, and their individual learning construction process, as well as learning about their innate capabilities, their experiences, feelings, personality, likes, concerns, and friends and family situations. (Salinas, 2016).

Conclusions. There is no one best method, but instead, in this progression scheme, methodologies should change and evolve as the child progresses. Normally, different methodologies should be used during the different school years and according to different backgrounds. Teachers shouldevaluate the route and rate of the learning process in order to choose, develop or adapt any available methodology.

Eclecticism was identified as the most versatile and useful approach to design and implement proper methodologies. When implementing theselected procedures is important to gather the ideas delivered by the children, and at the same time make them feel that the activities theyare conducting are the result of their proposals, for motivational purposes.

Methodologies change over time, and should change according to the results of new researches, the evolution of new technologies, and, more importantly, the cognitive evolution of the child.

Some methodologies used for education in the native language, such as PBL or Learning by Projects, among others, may also be used as a methodology in the process of teaching a foreign language. We shouldnot be limited to foreign language methodologies but also adapt other educational methodologies used for the native language.

Bibliography references:

1. María de las Mercedes González-Aller Rodríguez. *Metodologías de enseñanza del inglés en Educación Infantil// Revista Internacional de Didáctica y Organización Educativa.* Esús Paz-Albo

on 18 April 2017.

2. Marasulova, D. N. (2023). BOLALARGA CHET TILINI O‘RGATISHDA MULTIMEDIALARNI O‘RINI. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(3), 83-87.

3. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

4. Марасулова Д. Н. АУТЕНТИЧНЫЕ ВИДЕОМАТЕРИАЛЫ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА //Results of National Scientific Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 252-259.

5. Марасулова, Д. Н. (2024). ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В ОБУЧЕНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *17*(2), 204-208.

ЗНАЧЕНИЕ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ.

Ким Ирина Николаевна,

PhD, доцент кафедры Методика дошкольного образования ТГПУ имени Низами

Физическое воспитание является совершенно необходимым условием гармоничного развития ребенка и сохранения его здоровья. Приобщение к спорту с раннего детства не только улучшает состояние соматического здоровья, но и воспитывает ловкость, быстроту реакции, повышает активность, развивает чувство коллективизма, улучшает навыки социализации.

В Республике Узбекистан уделяется большое внимание развитию дошкольного образования. Приняты комплексные организационно-правовые меры по организации эффективной системы дошкольного образования, призванной обеспечить формирование здорового и всесторонне развитого подрастающего поколения.

Воспитание здорового поколения с гармоничным развитием физических качеств — одна из основных задач современного общества. В любом обществе, построенном на гуманистических и демократических принципах, здоровье человека является высшей ценностью, важнейшим достоянием государства, оно — бесспорный приоритет, залог жизнестойкости и прогресса общества.

Формирование здоровья детей, полноценное развитие их организма — одна из основных проблем в современном обществе. В период дошкольного детства у ребенка закладываются основы здоровья, всесторонней физической подготовленности и

гармонического физического развития. В то же время, сложившиеся система дошкольного образования учитывает лишь санитарно-гигиенические нормы условий жизни ребенка и приводит нормирование двигательных качеств и навыков.

Подвижные игры — одно из основных средств физического воспитания детей. Огромную потребность в движении дети обычно стремятся удовлетворить в играх. Играть для них — это, прежде всего, двигаться, действовать. Во время подвижных игр у детей совершенствуются движения, развиваются такие качества, как инициатива и самостоятельность, уверенность и настойчивость. Они приучаются согласовывать свои действия и даже соблюдать определенные (вначале, конечно, примитивные) правила.

Подвижные игры создают атмосферу радости и потому делают наиболее эффективным комплексное решение оздоровительных, образовательных и воспитательных задач.

Активные движения, обусловленные содержанием игры, вызывают у детей положительные эмоции и усиливают все физиологические процессы.

Сегодня подвижные игры — наиболее доступный и эффективный метод воздействия на ребенка при его активной помощи. Благодаря играм обыденное становится необычным, а потому особенно привлекательным. Преимущество подвижных игр перед строго дозируемыми упражнениями в том, что игра всегда связана с инициативой, фантазией, творчеством, протекает эмоционально, стимулирует двигательную активность. В игре используются естественные движения большей частью в развлекательной ненавязчивой форме. Игра — естественный спутник жизни ребенка и поэтому отвечает законам, заложенным самой природой в развивающемся организме ребенка — неуемной потребности его в жизнерадостных движениях.

Важнейший результат игры — это радость и эмоциональный подъем. Именно благодаря этому замечательному свойству подвижные игры, особенно с элементами соревнования больше, чем другие формы физической культуры, адекватны потребностям растущего организма в движении, способствуют всестороннему, гармоничному физическому и умственному развитию детей, воспитанию у них морально-волевых качеств и прикладных навыков, координации движений, ловкости, меткости, развитию чувства коллективизма, дисциплинированности и других важных качеств.

Через подвижные игры достигается наиболее гармоничная координация деятельности всех органов и систем ребенка. Неоценима роль игры в эффективности приобретения новых знаний благодаря ускорению развития памяти, речи, техники чтения, интеллектуального развития.

Как показывает практика, достаточное насыщение свободного времени детей играми содействует общему и всестороннему их развитию. Кроме того, целесообразно подобранные, с учетом возраста, состояния здоровья, характера функциональных изменений организма, степени физической подготовленности детей подвижные игры, особенно игры на воздухе, несомненно способствуют оздоровлению, укреплению организма ребенка.

Список литературы:

1. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta'lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.
2. Бауэр О. П. Подвижные игры // Теория и методика физической культуры дошкольников: учебное пособие для студентов / под ред. С.О. Филипповой, Г. Н. Пономарева. — СПб., 2004. — 412 с.
3. Вильчковский Э. С. Физическая культура детей дошкольного возраста. — Киев., 1979. — 232 с.
4. Вильчковский Э. С. Физическое воспитание дошкольников в семье. — К., 2003. — 128 с.
5. Глазырина Л.Д., Овсянкин В.А. Методика физического воспитания детей дошкольного возраста. — М., 2000. — 262 с.

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ STEAM ДЛЯ СОЗДАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Садикова Дилафруз Хусановна

доктор философии по педагогическим наукам (PhD), и.о. доцента кафедры Технология дошкольного образования Ташкентского государственного педагогического университета им. Низами

Будаева Ольга Рубеновна,

Студентка направления дошкольное образование ТГПУ имени Низами

Цель STEAM технологии – развить у дошкольников высокоорганизованное мышление и обучить эффективному применению полученных знаний в таких дисциплинах, как естественные науки, технология, инженерия, математика и искусство, посредством проектного обучения. При этом STEAM-образование способствует интеграции, то есть

позволяет усваивать отдельные предметы в их взаимосвязи в рамках выполнения комплексных учебных проектов.

STEAM технологии прочно вошли в наш современный мир, и год за годом мы стараемся усовершенствовать нашу систему образования путём интеграции уже имеющихся знаний в новые навыки и достижения. В Постановлении Президента Республики Узбекистан, от 08.05.2019 г. № ПП-4312 «ОБ УТВЕРЖДЕНИИ КОНЦЕПЦИИ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДО 2030 ГОДА» одним из главным стал пункт о внедрении в систему дошкольного образования инноваций, передовых педагогических и информационно-коммуникационных технологий.

Мы стоим на пути величайшего прогресса нашего будущего, будущего наших детей, потому что прошлые задачи канули в лету, а в настоящем мы стараемся идти в ногу со временем, и, не теряя даром драгоценное время, находим достойные решения в сфере обучения дошкольников.

Например, одним из прогрессивных продвижений стало участие 12-14 декабря 2019 года делегации Узбекистана в выставке Shanghai International STEAM Education Expo (STEAMEX) в Шанхае (Китай). Выставка ежегодно объединяет производителей различной продукции для STEAM-образования из Китая и других стран мира". В состав делегации вошли представители Министерства народного образования (МНО), Центра "Инновация, технология и стратегия" и негосударственных образовательных учреждений.

Делегация Узбекистана посетила выставку для изучения опыта иностранных стран в этой сфере и организации таких мероприятия, в том числе, чтобы организовать фестиваль STEAM Fest – 2020 в Узбекистане на высоком уровне.

В дошкольном периоде у ребенка наблюдается развитие всех высших психических процессов, таких как восприятие, внимание, память, воображение, мышление и речь. Эти познавательные процессы позволяют ребенку ориентироваться в окружающем мире, в себе самом и регулируют его деятельность. Педагоги дошкольных образовательных организаций отмечают, что в реализации задачи поддержания развития этих функций большой эффективностью обладают технологии STEAM образования. К старшему дошкольному возрасту заметно возрастают возможности инициативной преобразующей активности ребенка. Этот период важен для развития познавательной потребности ребенка, которая реализуется в форме поисковой, исследовательской активности. Использование STEAM технологий в дошкольном образовании дает возможность детям научиться вникать в логику происходящих явлений, устанавливать причинно-следственные связи, выходить из критических ситуаций. У детей проявляется любознательность, вырабатывается

инженерный стиль мышления, развиваются исследовательские навыки и творческие способности. Вместе с тем детьми осваиваются основы менеджмента и самопрезентации, что становится принципиально новым уровнем развития ребенка.

На Всемирном экономическом форуме в 2024 году в докладе «Новый взгляд на образование» была предложена модель, центральную часть которой занимают компетенции «4К»: креативность, критическое мышление, коммуникация и кооперация (взаимодействие и сотрудничество).

В качестве основных элементов *критического мышления* можно выделить несколько умений:

1. Анализ. Умение находить связи между утверждениями, вопросами, аргументами.

2. Оценка. Умение оценивать надежность утверждений, убедительность доводов.

3. Объяснение (аргументация). Умение объяснять ход своих мыслей/метод, защищать свои выводы.

4. Выведение гипотез (планирование решений). Умение формулировать гипотезы и самим делать выводы, обнаруживать нехватку информации.

5. Саморегуляция (контроль). Рефлексия, самопроверка и коррекция.

Исследователи убеждены, что 65% современных дошкольников в будущем овладеют профессиями, которых на сегодняшний день не существует. Потребуются молодые специалисты, владеющие новейшими технологиями, разбирающихся в естественных науках и инженерии.

STEAM-технологии позволят педагогам вырастить поколение успешных исследователей, изобретателей, учёных, технологов, художников и математиков.

Возникает вопрос, почему именно STEAM и именно в детском саду? Наши дошкольники должны быть готовы к школьным инновациям, созданию проектов и умению реализовывать их в реальности.

Как внедрить STEAM образование в детском саду?

Во-первых, создание смешанной предметно-пространственной среды, которая позволит осуществить проектно-экспериментальную исследовательскую деятельность, созданию кабинетов IT-технологий, STEAM-лаборатории, LEGO-центров.

Во-вторых, STEAM интегрирует различную деятельность дошкольников, которая объединяет все пять направлений (естественные науки, технологии, техническое творчество, искусство и математика), и дает возможность демонстрации результатов, как применять науку и искусство в жизнедеятельности. Ведь главный девиз STEAM-программы: «Минимум теории, максимум практики»!

Список литературы:

1. Садикова Д.Х. ПЛАНИРОВАНИЕ РАЗВИВАЮЩИХ ИГР СВЯЗАННЫХ С ПРИРОДОЙ / ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ / Электронный журнал Часть-15_ Том-3_ Февраль -2024
2. Садикова Д. Х. Внедрение STEAM технологий в образовательный процесс. Учебник. 2024 г.
3. Sadikova, D. K. (2023). ORGANIZATION OF CREATIVE ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATION. European International Journal of Pedagogics, 3(02), 31-35.
4. Imamova, N. Z. (2022). DEVELOPING THE CREATIVE QUALITIES OF FUTURE TEACHERS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *2*(04), 317-321.
5. Садикова Д.Х., & О.Р. Будаева. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ПРЕДМЕТНО-РАЗВИВАЮЩЕЙ СРЕДЫ В ДОО. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(1), 9–13. Retrieved from http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/1257
6. Marasulova, D. (2023). Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, *1*(1).
7. К.Т. Гайнулина. CTEAM образование дошкольников в Узбекистане- Наука и развитие № 1, 2019
8. Марасулова Д. Н. АУТЕНТИЧНЫЕ ВИДЕОМАТЕРИАЛЫ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА //Results of National Scientific Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 252-259.

TABIAT BILAN TANISHTIRISH ORQALI BOLALARDA ATROF-MUHITGA MAS’ULIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH

Namazbayeva Lola Zakirovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Haydarova Adolat Nurmat qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish — bu ularda tabiatga ma’suliyatli munosabatni tarbiyalash va hissiy tajribaga asoslangan, atrof-muhit haqidagi real bilimlarni anglashning ta’limiy vositasi. Bolalarning atrof-muhitdagi faoliyati asosan o’z-o’zidan, kutilmagan tarzda kechadi va buni ulardagi tabiatga bo’lgan bunday munosabatning asosiy sababi

deb hisoblash to’gri bo’ladi. Oila, mahalla, bir so’z bilan aytganda, tevarakdagilarning, ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining pedagogik ta’siri bilan ush bu faoliyat hamkorlikda olib boriladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha yoshdayoq bolalarning tabiat haqida ishonarli ma’lumotlarni egallashlari juda muhim [3].

Anglash jarayonidagi tabiat hodisalari orasidagi sababiy aloqalar va munosabatlar fikrlashni rivojlantiradi. Bola o’zini o’rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta’mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil obyektlarning rangini ko’zi bilan, tovushlarni qulog’i bilan sezib, ya’ni mazkur xossalar bolaning besh turli sezgisiga ta’sir etib, shu a’zolarda joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to’g’risida bilim paydo bo’ladi, ularning ko’rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi [2].

Bolalarda bilishga qiziqishni tarbiyalash ham muhimdir. Bolalarga hayvonlar va o’simliklarni qanday kuzatishni ko’rsatish, ularning diqqatini ularning tashqi ko’rinishi, harakatiga qaratish orqali tarbiyachi ularda nafaqat tabiat haqida bilimlarni, balki ularga mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi. Faqatgina har doim bolaning yoshini hisobga olish va uning diqqatini mazkur narsa va hodisadagi nimaga qaratishni bilish zarur. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida axloqiy, jismoniy, mehnat va estetik tarbiyani amalga oshirish zarur.

Pedagogikada metod — pedagog va ta’lim oluvchining (bolaning) ma’lum ta’limtarbiyaviy natijasi: bilimlarni egallash,| malaka va ko’nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o’stirishj, axloqiy sifatlar, xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun yo’llangan hamkorlikdagi faoliyatining usulidir. Bolalar bog’chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o’z oikasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi| metodlar birbiri bilan uzviy bog’liq va birbirini to’ldiradi.Turli yosh guruhlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi ko’rgazmali metod — kul zatishdan keng foydalanadi[5].

Kuzatish — tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo’nalgan vd bevosita shu hodisalarni borishiga aralashmagan holda sezgilan bilan qabul qilib olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo’lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaroi diqqat talab etiladi.Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o’stirishda g’oyat katta ahamiyatga egadir. Bu haqda K.D.Ushinskiy shunday deydi: «Haqiqiy insoniy, aqliy nutq, to’g’ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to’g’ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko’rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi».Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma’lum bir tartibda tanishtirib borilsa,

ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi [1].

Kuzata bilish — juda muhim xususiyat bo'lib, bunda bolada to'g'ri yoza bilish, og'zaki nutq malakalari rivojlanadi.Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o'zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga o'rgatish zarur. Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqa va sabablarning bog'lanishlarini ilg'ab olishni bolalarga o'rgatishi kerak. Shunday qilib maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tafakkurlari tabiat haqidagi aniq bilimlarni to'plash orqali o'sadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish yo'li bilangina olib borilishi mumkin. Kuzatish, ya'ni narsa va hodisalarga diqqatni maqsadga muvofiq holda jalb qilishga o'rgatish bilan, biz ularda ixtiyoriy diqqatni ham o'stiramiz [4].

Bolalarni ilk yoshidan hayvonot olami bilan tanishtirish orqali ularga mehr uyg'otish, jonsiz va jonli tabiatni muhofazaqilish ekologik tarbiyaning dastlabki elementlaridan biri sifatida tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammodir. Tabiat bilan tanishish insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon bo'lib, uni barcha salbiy xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go'zalligi ortadi. Shu sababdan ham tabiat bilan tanishtirish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni uzoq tarixga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva B. S. Namazbayeva L. Z. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish. - T., 2003.

2. Sodiqova Sh. A., Rasulxo'jayeva M.A. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. — T.: Fan va texnologiya, 2013.

3. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta'lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

4. Umarova M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. - T.: 2008.

5. Djanpeisova G.E., Rasulxo'jaeva M.A. Tabiat bilan tanishtirish. O'quv qo'llanma.— Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

6. Haydarov Q., Nishonov S. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof tabiat bilan tanishtirish. – T., 1992

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ZARURIYATI

Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna

Maktabgacha ta'lim texnologiyasi kafedrasi dotsent v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishning o'ziga xos zamonaviy «STEAM – ta'lim» (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san'at va ijod, Mathematics – matematika) yondashuvi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi, umumiy va muhim tayanch kompetensiyalarini xususan kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularning yoshiga mos bo'lgan psixologik va pedagogik xususiyatlarini ilmiy-nazariy asoslash, bolalarda ilk kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda oilada ota-onalar bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachilarning o'zaro hamkorligini mustahkamlash hamda bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratish uchun keng yo'l ochildi.

Bundan ko'rinadiki, Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning ilk kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini tug'diradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda boshlang'ich muhim kompetensiyalarni shakllantirishda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentliligining ahamiyati va ular bilan muloqotga kirisha olish malakasi va kommunikativ kompetensiyalarini shakllanganlik darajasini baholash mezonini ishlab chiqish muammolari bugungi kunda muhim masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlar olimlari J.Piaje (Fransiya), J.Iverson, L.Ferson, (Angliya), J.Yakman, X.Feldman (Amerika), K.Erikson (Amerika) va boshqa olimlarning izlanishlarida maktabgacha ta'lim-tarbiya, bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yoshli) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari:

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi. atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo'lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o'yin, bilish, maishiy va ijodiyvazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati.

Shaxsiy kompetensiya (“Men” konsepsiyasini yaratish) – shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog‘lom turmush tarzini amalda qo‘llash mahoratini o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va meyorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish mahorati;

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalana olish jarayonlari kiradi.

Quyidagi keltirilgan kompetensiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga individual yondashuv, ularni jamoaviy hamkorlikka undash, bola shaxsini hurmat qilish, uning noyobligi va takrorlanmasligini his etish, ularning manfaatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g‘amxo‘rlik qilish, erkin ijodiy o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish asosida shakllantirilib boriladi.

Kompetensiyalarni bola maktabgacha yosh davrida egallab borishini tarbiyachi-pedagoglar kuzatib, nazorat qilib boradilar va shu orqali bolaning maktabga tayyorlik darajasi belgilanadi. Ya’ni, bola maktabgacha ta’lim tashkilotida har tomonlama maktabga tayyorlanadi.

Shuningdek, boshlang‘ich muhim tayanch kompetensiyalarni birlashtirib, yaxlit mazmun kasb etishida maktabgacha ta’lim tizimida ***KIBSH*** integratsion usulini amalda qo‘llash, o‘rganib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning maktabga tayyorlov guruhida ya’ni 6-7 yosh davrida 4 ta tayanch kompetensiyalarni mustaqil faoliyat jarayonida bir vaqtda ko‘ra olish, rivojlantirish mumkin.Masalan, **KIBSH** –**kommunikativ**, **ijtimoiy, bilish** va **shaxsiy** kompetensiyalarini “Til va nutq” markazidagi ta’limiy faoliyatida ko‘ra olamiz.Bola markazda **ijtimoiy** muhitda faoliyat olib boradi, tengdoshlari jamoasida o‘ynaydi, bevosita **kommunikativ** muloqot qiladi, ushbu jarayonda **bilishga,** tushunishga qiziqish shakllanadi hamda barchasini **o‘yin** tarzida amalga oshiradi.

K – kommunikativ kompetensiya

I – ijtimoiy kompetensiya

B – bilish kompetensiya

SH – shaxsiy kompetensiya

Globallashuv davrida ta’lim-tarbiya olish uchun murakkab vazifalarni qo‘yadi: bolani kelajakda mustaqil hayotga tayyorlash, bu birinchi navbatda tez o‘zgaruvchan axborot bilan ishlashga qaratilgan maxsus intellektual qobiliyatlarni talab qiladi. Olingan ma’lumotlarni qabul

qilish, qayta ishlash va amalda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish STEAM - ta’lim dasturining asosini tashkil etadi.

Bundan ko‘rinadiki, STEAM ta’lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ham ta’lim-tarbiyasiga samarali ta’sir etish mumkin.Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda bolalarning ilk yosh davridanoq ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor va mas’liyat bilan yondashish, ularni maktabga tayyorlashda turli zamonaviy innovatsion usullarni amalda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.Bola shaxsini shakllantirishda eng avvalo uning yoshi va yosh xususiyatlariga mos tarzda ta’lim-tarbiya dasturlarini ishlab chiqish juda muhimdir.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, bugungi zamonaviy dunyoning asosini ham barqaror taraqqiyotini ham aynan kommunikatsiyasiz tasavvur etish qiyin bo‘lib bormoqda. Biroq bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasida davr talabiga mos innovatsion g‘oyalarni kashf etish, yangicha yondashuvlar va kreativ fikrlash jarayonida ishlash muammo bo‘lib turibdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, aqliy-ma’naviy kamoloti, saviyasi, qobiliyati, muloqotga kirisha olish ko‘nikmasi shu ma’noda o‘ta dolzarb masaladir.

Nutqning rivojlanishida va bolaning undan foydalanishida maktabgacha yosh bosqichidagi turli davrlarda bolalarda o‘zgarib turadigan kommunikativ tusdagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Kommunikativ tusdagi omillar deganda muloqotni yo‘lga qo‘yishga, muloqotga ehtiyoj tug‘ilishiga ta’sir qiladigan omillar tushuniladi. Dastlabki yetti yilda bolada kattalar bilan muloqotga ehtiyoj rivojlanishining 4 ta bosqichi ro‘y beradi.

1-bosqich – vaziyatli-shaxsli muloqot (bola xayotining birinchi yarim yilida) – kattalarning diqqat-e’tiboriga va yaxshi muomalasiga bo‘lgan ehtiyoj;

2-bosqich – vaziyatli-amaliy muloqot (6 oydan boshlab 2 yilu 6 oygacha) – kattalar bilan hamkorlikka va ularning ishtirokiga muhtojlik;

3-bosqich – vaziyatsiz-bilish muloqoti (2 yilu 6 oydan boshlab 4 yoshgacha) – kattalarning hurmat bilan munosabatda bo‘lishlariga muhtojlik. U bolaning jismoniy olamdagi his qilinmaydigan o‘zaro bog‘liqliklarini aniqlashga yo‘naltirilgan bilish faoliyati doirasida vujudga keladi. Ushbu davrda bola kattalar bilan o‘ziga xos “nazariy” hamkorlikka intiladi, u predmetli olamning hodisa va voqealarini birgalikda muhokama qilishda ifodalanadi.

4-bosqich – vaziyatsiz-shaxs muloqoti (4 yoshdan 7 yoshgacha) – kattalar bilan o‘zaro bir-birini tushunishga va kattalarning g‘amxo‘rlik ko‘rsatishiga ehtiyojmandlik. Bu ehtiyoj bolaning insoniy munosabatlar olamiga qiziqishi tufayli vujudga kelib, u bolaning munosabatlar qoidalari va meyorlarini o‘zlashtirish bilan bog‘liqdir. Bola kattalar bilan qarashlar umumiyligiga erishishga intiladi va bu unga ulardan o‘z hatti-harakatlarida qo‘llanma sifatida foydalanish imkonini beradi.

Kommunikatsiya va uning talqini, mazmun-mohiyati haqida turli qarashlar, ta’riflar mavjud. **Kommunikatsiya** – lotin tilidan olingan bo‘lib, “umumlashtiraman, bog‘layman, muloqot qilaman” degan ma’nolarni bildiradi.

Kommunikativ ko‘nikmalar – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot va bilimlar almashinuvi bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Ko‘nikmalar shaxslarning o‘zaro munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Muloqot jarayonida shaxsning o‘z-o‘zini va atrofdagilarni boshqarish, nazorat qilib borish hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishdan iboratdir.

Shunday qilib, nutqni rivojlantirish jarayoniga muloqot vositasi, ya’ni kommunikativ faoliyat sifatida qarash kerak. Uning vujudga kelishi va rivojlanishi bolaning muloqot va umumiy hayot faoliyati ehtiyojlariga bog‘liqdir. Davr taraqqiyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, maktabgacha yosh davrida bolani muomala madaniyatiga ega, komil va barkamol shaxs etib kamol toptirishda birinchi navbatda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish asosida amalga oshiriladi.

Demak kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda keng ma’noda atrofdagilar bilan muloqotga kirisha oladigan, turli foydali axborotlarni qabul qilib, ularni umumlashtirgan holda mustaqil fikrlarini bayon qila oladigan shaxsni kamol toptirishni maqsad qilib olishimiz darkor. Maktabgacha ta’lim tizimini ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan innovatsiyalar ota-onalardan tortib sohadagi barcha pedagoglarning bola tarbiyasi, uning sifatli ta’lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 802-son 2020 yil 22- dekabr (1-2 ilova)
2. F.R.Qodirova “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”Darslik, T-2010 yil
3. Y.R.Maxmutazimova “Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari” O‘quv qo‘llanma, T-2022 yil
4. Maxmutazimova, Y. R. (2019). Rol vospitatelya v detskom sadu v formirovanii lichnosti rebenka. Actual Problems of Applied Sciences Journal World, (3), 24-28.
5. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta’lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.
6. Imamova, N. (2022). IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY AND CREATIVITY DEVELOPMENT IN TRAINING TEACHERS. *Science and Innovation*, *1*(7), 676-679

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARILARIDAGI RIVOJLANISH MARKAZLARIDA 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Amirova Munisa Yusuf qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim yonalishi talabasi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim-tarbiya berishda, intellektual, jismoniy, ma’naviy-axloqiy, etik va estetik jihatdan rivojlantirishga, shuningdek ularni maktabga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim bugungi kunda dolzarb masalalardandir. Darhaqiqat har bir bola rivojlanishining zamini maktabgacha davrdan boshlanadi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarida bolalarning kommunikativ jarayonlarini shakllanishi, tarbiyachi-pedagoglar tomonidan metodik imkoniyatlarni yaratilishi bolaning barkamol rivojlanishida ayniqsa qiziqarli va foydalidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlarida bolalar o‘zlarining ilk kommunikativ sifatlarini rivojlantirib borish ko‘nikmasiga egadirlar:

- Qurish, konstruksiyalash va matematika;
- Til va nutq;
- Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish;
- Fan va tabiat;
- San’at;
- Musiqa va ritmika.

Yuqoridagi keltirilgan rivojlanish markazlarida har bir yosh guruhlarida tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati, ta’limiy-tarbiyaviy jarayoni tarbiyachi tomonidan kuzatib boriladi va rivojlanish xaritasida qayd etiladi.

Xorijiy davlatlar olimlari J.Piaje (Fransiya), J.Iverson, L.Ferson, (Angliya), X.Feldman (Amerika), K.Erikson (Amerika) va boshqalarning tadqiqotlarida maktabgacha ta’lim-tarbiya, bolalarda muloqotni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Buyuk olimlar Jan Piaje, Erikson, L.Vigotskiy nazariyalari bo‘yicha bolani o‘rab turgan rivojlantiruvchi muhitni faollik markazlariga bo‘lishni tavsiya etadi. Buning uchun guruhdagi barcha materiallar va jihozlar sohalar bo‘yicha tartibga solinishi lozim. Bu bolalar o‘yinlari va ishlarining yanada qulay uyushtirilishiga yordam beradi. Bu sohalar faollik markazlari deb ataladi. Bugungi kunda rivojlantiruvchi markazlar deb yuritilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida barcha yosh guruhlarida shuningdek 6-7 yoshli bolalar qamrab olingan maktabga tayyorlov guruhlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi ta’limiy jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlantiruvchi markazlarining asosiy maqsadidir.

MTT tarbiyachisi o‘quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagogik jamoasining o‘rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo‘yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo‘llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishlari kerak.

Rivojlanish markazlaridagi ta’lim jarayonida bolalarning o‘zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o‘ylab topadiki, unda barchaga birdek ko‘rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holdaa o‘zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug‘ilib qolsa topshiriq va materiallarni o‘zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin

Guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini bersin. Har bir guruhda rivojlanish markazlar bo‘lib, ularning har birida izlanish va o‘yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi va bolalar ular bilan bevosita aloqa bog‘laydilar.

Qurish, konstruksiyalash va matematika markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo‘lib, bolalar ulardan o‘z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar. Masalan, ko‘rgan tarixiy obidalari, uylar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg‘ul bo‘lgan bolalar bu yerda juda ko‘p narsalarni o‘zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o‘rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xohish-istagiga ko‘ra ko‘plab turli narsalarni – o‘yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo‘laklarini qo‘shib qo‘yish mumkin.

Syujet-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik sahnalashtirishni o‘ynashga xohish-istak uyg‘otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo‘lishi zarur. Bular ularda atrofda nimalar sodir bo‘layotganini anglash, ularni ajrata

olish hamda hayotda o‘z o‘rinlarini tushunib yetishlariga yordam beradi.

Til va nutq markazida kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o‘quv qurollari mavjud bo‘ladi. Bu tinch burchak bo‘lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o‘qib berishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi yoki ko‘ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o‘qib berishi mumkin. Unda bolalarga kitobchalarni o‘z qo‘llari bilan yasash, mavzu(syujet)larni o‘ylab topish va ijro etish, hikoyalar tinglash taklif etiladi.

Fan va tabiat markazida boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig‘ishi va bo‘laklarga ajratishi mumkin bo‘lgan narsalar bo‘lishi lozim. Bu yerda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o‘yinlar ham bo‘lishi kerak. Ushbu markazda bolalarning tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari va ko‘chadan topilgan narsalar bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun foydalaniladi.

San’at markazi bolalarning o‘z ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazish va amalga oshirishga rag‘batlantiradi, ularga yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish olish imkoniyatlarini beradi, bolalarning sezish qobiliyatini boyitadi. Bu yerda bo‘yoq, qog‘oz, qaychi, bo‘rchalar, qalamlar, gazlama bo‘laklari va kesish hamda yelimlash uchun turli qiyqimlar mavjud. Shuningdek, tabiiy materiallar – yog‘och, barg, qum-tuproqni ham qo‘shib qo‘yish foydadan xoli emas. Ushbu markazdagi mashg‘ulotlar ijodiy qobiliyat, so‘z orqali va so‘zsiz muloqot, umumiy va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Musiqa va ritmika markazi butun kun davomida mashg‘ulotlarni birlashtirish uchun foydalanish mumkin. Kuylash, harakatlar, qarsak chalish, o‘yinlar, musiqa asboblari chalish va yozilgan kuy-qo‘shiqlarni tinglash har qanday dasturni yaxshigina to‘ldiradi. Musiqaviy mashg‘ulotlar zehnni charxlaydi, ritmga, sanashga o‘rgatadi va nutqni rivojlantiradi; umumiy va nozik harakatlanishni (motorikani) rivojlantiradi va ijodiy qobiliyatni namoyish etishga imkon beradi.

Tarbiyachilarning vazifasi – bolalarning muloqotga kirishishga bo‘lgan qiziquvchanligini rag‘batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o‘z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan xamda ularni kuzatishdan iborat.

Umuman olganda, bolaning rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan markazda faoliyati nafaqat bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi balki bugungi kunni samarali o‘tishi, o‘sish va rivojlanish jarayoni tabiiy holda kechishi uchun zarur shar-sharoitlar yaratishni ko‘zda tutadi.

Shunday ekan,rivojlanish markazlarini tashkil etishda tarbiyachi aynan nimalarga e’tibor berishi zarur?

-bolalardagi qiziqish, layoqat va qobiliyatlariga;

-rivojlanish ko‘rsatkichlariga va yosh xususiyatlariga;

-bolaning ehtiyoj va talablariga;

-bolalar jamoasiga, kichik jamoalar va juft-juft bo‘lib faoliyat olib borishlariga sharoit yaratilgan bo‘lishi, alohida e’tibor talab etiladi.

Bizning fikrimizcha, maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning rivojlanish markazidagi mustaqil faoliyati natijasida ularda yetarli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanadi:

- yangi sharoitga tezda moslashadi;
- kichik jamoa bo‘lib ishlashni o‘rganadi;
- o‘z ehtiyojlarini ayta oladi va namoyish qiladi;
- o‘z tengdoshlari bilan muloqotga oson kirishadi;
- o‘z xulq-odobini va muloqotchanligini namoyon qila oladi;
- o‘z tengdoshlarining hissiy holati va munosabatlarini yaxshi tushunadi;tengdoshlarini qo‘llab-quvvatlaydi, hayrihoxlik ko‘rsata olishga o‘rganadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020 yil 22 dekabrdagi 802-son qarori (1-2 ilova).

8. Takomillashtirilgan Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. — T., 2022.

2. Выготский Л.С. Психология. — М.: Изд-во ЭКСМО-ПРЕСС, 2000.-1001 с.

3. Махмутазимова, Ю. Р. (2019). Роль воспитателя в детском саду в формировании личности ребенка. Actual Problems of Applied Sciences Journal World, (3), 24-28.

4.Махмутазимова, Ю.Р.(2020). Дошкольная образовательная организация и семья: взаимодействие ребенка и педагога. Вестник педагогики: наука и практика, (51), 125-126.

MAKTABGACHA TA’LIM YO’NALISHI TALABALARI O’QUV FAOLIYATIDA MUSTAQIL TA’LIMNING AHAMIYATI

Imamova Nilufar Zabiyxulla qizi,

Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.,
Imamova9097@gmail.com

Jahonda ilg’or oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’lim jarayonini rivojlantirishning yangi mexanizmlari ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Bu borada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’lim jarayonini modellashtirish, talabalar vaqtini tejash va undan samarali foydalanish, kreativ sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda ham mustaqil ta’lim olish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshirish orqali mutaxassislarda kasbiy sifatlarini va qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini foydalanishning me’yoriy asoslari yaratildi. Ayniqsa, maktabgacha ta’limda yaxsil olayotgan talabalar orasida “Mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metod va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” dolzarb vazifalardan biridir. Natijada, mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishning izchil texnologiyalarini tatbiq etish imkoniyatlari oshirildi.

Mustaqil ta’lim talaba tomonidan ma’lum bir fan bo‘yicha o‘zlashtiriladigan bilimlar, qo‘shimcha ma’lumot olish va bilimlarni chuqurlashtirish shaklidir. Keng ma’noda talabaning sinfdagi faoliyati davomida ham, sinfdan tashqarida ham o‘qituvchi yordamida va uning nazorati ostidagi yoki u yo‘q bo‘lganda amalga oshiradigan barcha ta’lim faoliyati yig‘indisi mustaqil ish deb tushuniladi.

Mustaqil ish, shuningdek, maxsus ajratilgan vaqt davomida bajariladigan, o‘qituvchi maslahatchi rol o‘ynaydi yoki jarayonda umuman ishtirok etmaydi.

Mustaqil ish, bizning fikrimizcha, I.Kovalevskiy ta’rifiga ko‘ra, mustaqil ish maqsadli, ichki motivatsiyalangan, jarayon va natija nuqtai nazaridan ob’ektning o‘zi tomonidan bajarilgan va tuzatilgan harakatlar yig‘indisida tuzilgan.

"Mustaqil ish" tushunchasi hozirda pedagogikada bir ma’noli to‘liq talqinni olmagan, chunki u ko‘p qirrali. S.I.Arxangelskiy, M.G.Garunov, B.G.Yoxansen, S.I.Zinovev, A.G.Molibog, R.A.Nimazov, N.D.Nikandrov, P.I.Pidkasti va boshqa tadqiqotchilar bu atamaga turli mazmunni kiritdilar. “Mustaqil ish” tushunchasi; o‘quvchilarning sinfda yoki sinfdan tashqarida bevosita rahbarligisiz, lekin o‘qituvchi (R.A.Nizamov) nazorati ostidagi individual, guruhli bilish faoliyatining xilma-xil turlari sifatida.

Mustaqil ish deganda bir qator mualliflar o‘qituvchi yo‘qligida yuzaga keladigan o‘quv faoliyatini boshqarishni ta’minlay oladigan pedagogik shart-sharoitlarni tashkil qilish tizimi sifatida ham tushuniladi (V.Graf, I.I.Ilyasov, V.Ya.Lyaudis).

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, mustaqil ish, bir tomondan, faollik, mustaqillik, o‘quv jarayoniga kognitiv qiziqishni uyg‘otadigan faoliyat sifatida qaralsa, o‘z-o‘zini tarbiyalashning asosi sifatida talabalarning bilimlarini yanada takomillashtirishga yordam beradi. ko‘nikma va malakalarni egallash, ikkinchi tomondan, talabalarning mustaqil faoliyatiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi tizimli faoliyat yoki pedagogik shart-sharoitlar sifatida ko’rinadi.

Agar talaba o‘z ishining natijalari kelajakda unga foydali bo‘lishi mumkinligini

bilsa (ular keyingi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda, laboratoriya ishlarida, seminarda taqdimotga tayyorgarlik ko‘rishda, maqola chop etishda yoki boshqa yo‘l bilan), keyin uning vazifani bajarishga nisbatan ongi, bajarilgan ishning sifati sezilarli darajada oshadi. O‘qituvchining vazifasi - talabaning psixologik munosabati, unga bajarilgan ishning zarurligini tushuntirish. Mustaqil ishi hayot bilan, uni bo‘lajak kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lishi kerak

Foydali omildan foydalanishning yana bir varianti - bu faol kasbiy tayyorgarlikda ish natijalarini qo‘llash. Misol uchun, agar talaba birinchi kursdan boshlab kasbiy yo‘naltirilgan mazmundagi masalalarni yechishni o‘rgansa, kelajakda u olgan bilimlaridan maxsus fanlar bo‘yicha kurs ishlarini bajarishda, diplom (malakaviy ish) yozishda, shuningdek ishlab chiqarish.

Shuni ta’kidlash kerakki, quyidagi mustaqil ta’limda boshqaruv tamoyillarini sanab o‘tish kerak: o‘quv vazifalarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligiga muvofiq talabalarga tabaqalashtirilgan yondashuv; intellektual yuklarni muntazam ravishda oshirish va mustaqil ishlarni bajarish uchun yanada ixcham ko‘rsatmalarga izchil o‘tish; o‘qituvchini maslahatchi, keyin esa kognitiv jarayonning kuzatuvchisi lavozimiga bosqichma-bosqich olib tashlash; o‘qituvchi nazoratidan stajyorning o‘zini o‘zi boshqarishiga o‘tish.

Bunday holda, eng oddiy yo‘l, auditoriya mashg‘ulotlarini talabaning mustaqil ishi foydasiga qisqartirishdir, ammo bu ta’lim sifatini yaxshilash yoki hatto bir xil darajada ushlab turish muammosini to‘liq hal qilmaydi. Auditoriya ishlari hajmining kamayishi mustaqil ishning haqiqiy o‘sishi bilan birga bo‘lishi shart emas.

Oliy kasbiy ta’lim standartlarida talabaning vaqt byudjetining ayrim qismi auditoriyadan tashqari ishlarga ajratiladi.

Zamonaviy didaktik tizimlar asosiy va bir qator qoidalarni ishlab chiqdi va bular qaysilar:

1. Fanning mantiqiyligini ochib berish, uni o‘rganishning dastlabki bosqichlaridanoq yangi ilmiy tushunchalarni idrok etish uchun ishonchli asosni ta’minlash;

2. Har bir yangi kiritilgan ilmiy tushuncha tizimli ravishda takrorlanishi, tatbiq etilishi va ta’lim jarayoni davomida qo‘llanilishi kerak materialni yaxshiroq o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan kurs.

Qiyinchiliklarning o‘sishida bosqichma-bosqichlik tamoyilini batafsil bayon qilaylik:

1. O‘rganilayotgan material rejalashtirilgan bo‘lib, mantiqiy bo‘limlarga, mavzularga bo‘linadi, u bilan ishlash tartibi va metodikasi belgilanadi.

2. Har bir mavzuda mazmun markazlarini tashkil etish, asosiy tushunchalarni, g‘oyalarni ajratib ko‘rsatish, o‘quv materialining mazmunini tuzish kerak.

3. Albatta, o‘quv materialini o‘rganishda nazariyalar, qonunlar, faktlar o‘rtasida tashqi va ichki aloqalar o‘rnatiladi. Shunday qilib, mustaqil ta’lim talabalarning faol mustaqil ishi uchun

jiddiy va barqaror motivatsiya bo‘lishi kerak. Kelajakdagi mutaxassislar uchun eng kuchli rag‘batlantiruvchi omil ongli kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdir. Mustaqil ishning ijobiy natijasi, agar u o‘zaro bog‘liq, ketma-ket va mantiqiy ravishda bir-biridan kelib chiqadigan va umumiy vazifalarga, ish turlariga bo‘ysunadigan izchil tizim bo‘lsa, amalga oshiriladi. Ko‘nikmalar, ta’limning asosiy bilim va ko‘nikmalarga tayanish, o‘quv fanlarining mehnat zichligini hisobga olgan holda malaka oshirish va mustaqil ishlarni optimal rejalashtirishda ko’rinadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Aripdjanova A. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. p.f. f. d. (PhD) disser. avtoref. – T.: -2017.
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: - 2015, - 72
3. Imamova N.Z. Bo‘lajak tarbiyachilarning mustaqil ta’lim jarayonida kreativ sifatlarini rivojlantirish metodikasi. p.f. f. d. (PhD) disser – T.:2023.
4. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ecological Culture Development of Independent Learning, Creativity, Integrative Technology and Logical Thinking. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2524-2529.
5. Imamova, N. (2022). Pedagoglarni tayyorlashda mustaqil faoliyatning axamiyati va ijodkorlikni rivojlantirish. Science and innovation, 1(B7), 676-679.

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING FAOLIYATINI TASHKIL QILISHDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Qayumova D.N.- *Nizomiy nomidagi Toshkent davlar pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi p.f.f.d. (PhD)*

Gafurjonova Laylo Zafar qizi
“Maktabgacha ta’lim “ fakulteti talabasi

Bola o‘sgan sayin olamni anglay boshlaydi, o‘zicha turli xatti-harakatlarga qo‘l uradi. Biz kattalar esa uning qiziquvchanligini chegaralab, ichki dunyosini o‘zimizga moslashga harakat qilamiz. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, bolaning har qanday xarxashasi uning rivojlanishidagi to‘siqlarga bo‘lgan noroziligidir. 3 yoshgacha bola o‘zini ota-onasi bilan butun deb his qilgan bo‘lsa, keyinchalik “men” shakllanadi. O‘zi qadam tashlab yuradi, mustaqil ovqatlanadi, harakatlanadi. O‘z bilganidan qolmayotgan farzandingizning hayotida yangi palla boshlanadi. Tahlillarga ko‘ra, bolalarning kelajakda qanday inson bo‘lib voyaga yetishi aynan shu davrga bog‘liq.Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har

tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, o‘tgan o‘n yilliklar davomida o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko‘rsatdi. Maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamonaviy talabga javob bermagan. Tizimda variativ dasturlar joriy etilmagan. Bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan. Shuningdek, taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo‘naltirilgan maxsus davlat ta’lim dasturlari tatbiq qilinmagan edi.Vaholanki, o‘sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e’tiqodini o‘stirish, xulq-atvorini tarkib toptirish maktabgacha ta’limning dolzarb muammolaridandir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Hududlarda tuman maktabgacha ta’lim bo‘limlari tashkil etildi va barcha davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnika holati qayta xatlovdan o‘tkazildi. Yangidan bino qurish, kapital rekonstruksiya, kapital ta’mirlash ishlari olib boriladigan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining manzilli “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi.

Bugungi kundagi bo‘lajak tarbiyachida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birgalikda ulardagi ijodiy salohiyatni balkim, kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi o‘ziga xos dolzarb yo‘nalishlardan biri sanalmoqda. *Kreativlik:* (ingliz tilida create — yaratish, creative — yaratilgan, ijodiy) – shaxsning yaratuvchilik, ijodiy faollik qobiliyati sifatida tushuniladi. Shuningdek, kreativlik insonning borliqni bilish va o‘zgartirishga yo‘naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo‘lib, uning natijasida yangi, betakror, ilgari mavjud bo‘lmagan jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar va boshqalar ko‘zda tutiladi.

Pedagogik kreativlik – pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish, tashkil etishdagi muhim sifat bo‘lib, u tarbiyachining bilish faoligi, g‘ayrioddiy tafakkur tarzi, mustaqilligi va kasbiy mahorati sifatida namoyon bo‘ladi. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda roli beqiyos sanaladigan maktabgacha ta’lim tashkiloti bo’lajak tarbiyachilari hamda mutaxassislarini kreativ kompetentligini rivojlantirish eng avvalo oliy ta’lim tashkiloti va

pedagoglarining zimmasidadir. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy sifatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oya va fikrlarni yaratish, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, intiluvchanlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Tarbiyachi – bu nafaqat kasb, balki yillar davomida ishlab chiqilgan imij. Haqiqiy pedagog yillar davomida o‘z obro‘si uchun mehnat qiladi, doimo o‘zgarib, takomillashib boradi. Farzandlarimizning tarbiyasini qaysi pedagogga ishonib topshirish mumkinligini tushunish juda muhim.

Tarbiyachi avvalambor sabr-bardoshli, qunt bilan o‘qish, o‘z ustida ishlash, bolalarning ruhiyatini, ularning rivojlanish xususiyatlarini chuqur o‘rganib, tahlil qila olish va eng asosiysi ularga mehr bera olish zarur. Bu pedagog-tarbiyachining o‘zida mujassam bo‘lmog‘i lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola sevinib-quvonib kirishi, tarbiyachini o‘zining eng yaqin odami sifatida qabul qilishi uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanish zarur. Bugungi tarbiyachi zamon va davr talabi bilan hamnafas, har bir yangilikni ilg‘ab oladigan, ish jarayoniga tatbiq eta oladigan bo‘lishi zarur va shartdir.

Foydalanilgan adabyotlar

1.Avliyoqulov N.H.O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. B.: 2001. – 100 b.

2.Adizov D. Ijodiy ta'lim jarayoniga tizimli yondashish // Xalq ta'limi. – 2001. - №4. – B. 102-104.

3.Azizxodjaev N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003. – 174 b

4.Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. T.: TASИS, 2001. – 59 b

5. Zaripov K.Z. Pedagogik kadrlarni malakasini oshirish tizimini metodologik tadqiq qilish // Xalq ta'limi. – T.: 2003. – № 3. – B. 15.

6 .Nuraliyevna, Q. D. (2021). Approaches to the development of inclusive competence in preparation of future teachers for professional activity. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2314-2320.

7.Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. Наука и образование сегодня, (4 (63)), 82-83.

8.Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations-Pedagogical Need. Journal of Advanced Zoology, 44(S-2), 1777-1784.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ В ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДОО

Ширбачеева Гульчехра Шакировна

Доцент кафедры Педагогика и психология дошкольного образования ТГПУ им. Низами

Дошкольное детство – совершенно особенный период развития ребенка. В настоящее время внимание многих психологов во всем мире привлечено к проблемам развития ребенка. Этот интерес далеко не случаен, так как обнаруживается, что дошкольный период жизни является периодом наиболее интенсивного развития всех сторон личности и формированием основы физического, психического здоровья ребенка.

Особенностью этого периода, отличающей его от других, последующих этапов развития, является то, что он обеспечивает именно общее развитие, служащее фундаментом приобретения в дальнейшем любых специальных знаний и навыков и усвоения различных видов деятельности. Формируются не только качества и свойства психики детей, которые определяют собой общий характер поведения ребенка, его отношение ко всему окружающему, но и психологические новообразования, достигаемые к концу данного возрастного периода.

В современной психологической литературе описано множество теоретических подходов к пониманию проблемы психического развития. Они существенно отличаются представлениями о механизмах развития, о его движущих силах, о закономерностях и показателях, не говоря уже о том, что они принципиально отличаются представлениями о происхождении и существовании психической реальности.

Одной из самых сложных проблем психологии и одной из центральных является проблема психического развития детей, становления человеческой личности.

Неудовлетворенность врожденных потребностей в любви, безопасности, принадлежности, взаимодействии с окружающим миром отрицательно сказывается на состоянии человеческого организма и провоцирует развитие так называемой психической депривации. Находясь в этом состоянии, индивид не может гармонично жить и полноценно развиваться. Защитные действия закрепляются, препятствуя позитивному восприятию и

взаимодействию ребенка с окружающим миром, и еще больше изолируют его, искривляя ход психического развития.

Проблема развития общения в дошкольном возрасте интенсивно развивающаяся область возрастной психологии. Общение со взрослым формирует практически все знания о самом себе, стимулирует познавательную активность ребенка. Общение со сверстниками актуализирует это знания, формируя у ребенка более правильный, адекватный образ самого себя.

На протяжении дошкольного возраста последовательно возникают и сменяются несколько форм общения детей и взрослых, в которых изменяются и перестраиваются отношения взрослого и малыша, меняется содержание общения. Содержание общения является существенным моментом для развития отношений ребенка и взрослого. Если оно соответствует уровню потребности, то возникает расположение, приязнь к взрослому.

Изменяется содержание общения, его мотивы, коммуникативные навыки и умения, формируется один из компонентов психической готовности к обучению в школе – коммуникативный. Ребенок избирательно относится к взрослым, постепенно начиная сознавать свои отношения с ними: как они к нему относятся и чего они от него ждут, как он к ним относится и что от них ожидает. Интерес к сверстнику проявляется несколько позднее, чем интерес к взрослому. Общение ребенка со сверстниками складывается в различных объединениях. На развитие контактов с другими детьми влияет характер деятельности и наличие у ребенка умений для ее выполнения.

Важной чертой контактов детей является их нестандартность и нерегламентированность. Если в общении со взрослым даже самые маленькие дети придерживаются определенных норм поведения, то при взаимодействии со сверстниками дошкольники ведут себя непринужденно. Общество сверстников помогает ребенку проявить свою оригинальность. Если взрослый прививает ребенку нормы поведения, то сверстник поощряет проявления индивидуальности.

Таким образом, общение в дошкольном возрасте носит непосредственный характер: ребенок дошкольник в своих высказываниях всегда имеет в виду определенного, в большинстве случаев близкого человека. В дошкольном возрасте происходит овладение основными средствами языка, и это создает возможность для осуществления общения, опирающегося на собственно языковые средства.

Ведущей в этот период становится предметно-манипулятивная деятельность. Ребенок не играет, а манипулирует предметами, в том числе игрушками, сосредоточиваясь на самих действиях с ними.

Одна из самых интересных психических функций, формируемых в дошкольный период жизни, – осознание себя во времени. Ребёнок начинает вспоминать прошлое, осознавать себя в настоящем и уже знает о существовании будущего. Благодаря тому, что в возрасте 3-6 лет происходит личностное, эмоциональное и интеллектуальное развитие, маленький человек начинает всё активнее осознавать себя и своё место в окружающем мире. Он уже способен давать первые собственные оценки своему, а также чужому поведению.

Список литературы:

1. Боулби Дж. Создание и разрушение эмоциональных связей // Дж. Боулби: пер. с англ. В.В. Старовойтова. – М.: Академический Проект, 2014. – 272 с.
2. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика: учебник для вузов // – СПб.: Питер, 2017. – 351 с.
3. Гартвик, Е.В. Особенности развития модели психического у подростков с делинквентным поведением // Общество: социология, психология, педагогика. - 2021. - №5. - С. 121-126.
4. Данилова С.И. Психологическое сопровождение дошкольников. Диагностика и сценарии занятий. ФГОС ДО // Сфера, 2022 г. Серия: Библиотека современного детского сада.
5. Исаев Д.Н. Эмоциональный стресс, психосоматические и соматопсихические расстройства у детей // – СПб.: Речь, 2015. – 400 с.

PEDAGOGLARDA KITOB O‘QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AFZALLIGI

Muratova Munavvar O‘rol qizi,

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchii munavvarmuratova1@gmail.com

Kitob — insoniyatning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi, aql qayrog‘i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo‘lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo’tabar va mukaddas deb hisoblaydi. Shuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash, o‘qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Kitobxonlik oiladagi muhitga ham bog‘liq. Ma’rifatli oilalarda kitobga e’tibor farzandlar tarbiyasida qo‘l keladi. Inson o‘zining fikrlash qobiliyati, ma’naviyat dunyosi bilan tirik. Odamni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi omillardan biri ham uning ma’naviyati hisoblanadi.

“O‘zimdagi barcha yaxshi xislatlarim uchun kitobdan minnatdorman” degan edi o‘z davridagi allomalardan biri. Darhaqiqat, kitob bizning do‘stimiz hisoblanadi. Ota-bobolarimiz “Boburnoma”, “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” singari bebaho asarlarni o‘qib, ulg‘ayishgan. Kitobni inson tafakkurining qanotlariga o‘xshatishgan. Zero, tafakkuri, fikr doirasi keng ma’rifatli kishilar jamiyatning chinakam boyligidir. Aksincha, hayotda ro‘y berib turadigan ayrim noxushliklar ildizi esa ma’rifatsizlik, kitob o‘qimasliknint achchiq mevasi. Temirni zang kemirganidek, odamni ham ma’naviyatsizlik mo‘rt qiladi. Ma’naviyat esa insonga kitob o‘qish orqali yuqadi. Har qanday yangilik ham bir kun eskiradi, biroq insoniyatnint ming-ming yillar davomida qo‘lga kiritgan aqliy hamda fikriy durdonalarini o‘zida jamlagan kitoblar aslo eskirmaydi. Binobarin, kitob hamisha ilm-ma’rifat, adab va axloq manbai bo‘lib kelgan. Bugungi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ham kitobdan ko‘ra qudratliroq vosita yo‘q. Inson aqliy salohiyatining yuksalishida kitobni o‘rni beqiyos. Zero, kitob tufayli dunyoqarashimiz boyib, tafakkurimiz yanada o‘sib boraveradi. Ne-ne ulug‘ zotlar kitobga oshno bo‘lib, etuklikka erishgan, komil inson darajasiga etishganlar.

Kitob – inson ma’naviyati va dunyoqarashini yuksaltiruvchi muhim manbaa hisoblanadi. Kitob o‘qigan inson mulohazali, bilimli bo‘lib, yuksak tafakkuri ila boshqalardan o‘zining dunyoqarashi va fikrlashi bilan ajralib turadi. Kitob bilan oshno bola yaxshi inson bo‘lib ulg‘ayadi. Shuning uchun ham oilada, bog‘cha va maktablarda bolalarning kitobga mehrini, adabiyotga qiziqishini oshirish ota-onalarning, o‘qituvchilarning vazifasi.

Ko‘p kitob o‘qigan kishining bilim saviyasi yuqori, muomala madaniyati yuksak, yetuk inson sifatida hayotda o‘z o‘rnini topa oladi. Qadimda buyuk shoir va yozuvchilarimiz, olimlarimiz kitobga shu qadar mehr qo‘ygan edilarki, hatto tunlari sham yorug‘ida kitob mutolaa qilganlar. So‘z mulkining sultoni Navoiy xazratlari 7 yoshida Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» asarini yod olgan, buyuk muhaddisimiz Imom al-Buxoriy hazratlari esa olti mingdan ziyod hadisni yod bilgan. Ammo u davrlarda bizga yaratib berilayotgan imkoniyatlarning bir qismi ham bo‘lmagan. Lekin ular o‘z maqsadlari sari intilib, yuksak ma’naviyat sohibiga aylanishgan. Demak, biz uchun berilayotgan imkoniyatdan unumli foydalanish har birimizning o‘zimizga bog‘liq. To‘qlikka sho‘xlik esa o‘zbek millatining yoshlariga xos fazilat emas. Aslini olganda, ayrim yoshlarimiz bunday loqaydlikdan yirok. Ular o‘zlarining hur fikrligi va yuksak ma’naviyati bilan ajralib turadi. Biroq, guruch kurmaksiz bo‘lmagani kabi insonlar orasida ham ma’naviy kashshoq kishilar yo‘q emas. Bundaylarning loqaydliklari natijasida “engil hayot” ixlosmandlari safi ortib bormokda. Oqibatda kitob o‘qish unutilmoqda. Ma’naviyati sayoz, kitob o‘qimaydigan insonlar oilasida tarbiya topayotgan farzandlar kelajakda barkamol shaxs bo‘lib ulg‘aymaydi.

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o'zi ham yuksak didga

ega va ma'rifatli va bilimli bo'lishlari kerak. Ma'lumki, bola kitob o'qishni bilgan taqdirdagina, kitob uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Kitob bolaning ma'naviy boyishi uchun uni ma'naviy, aqliy, estetik o'sishga yo'llashi zarur. Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga o'qib berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o'smirlik davrida uning ma'naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Chunki, o'smir hayotini ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, o'yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Kitobxonlik uning hayotidagi voqeya-hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qiladigan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan aql-zakovatli ma'nan barkamol shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi. Ana shunday aql-zakovatni shakllantiruvchi, inson ma'naviy dunyosini boyituvchi vosita — kitob, kitobxonlikdir.

Haqiqatan ham kitobxonlik insonni barkamollikka yo'llasa, uni o'qimaslik johillikka, ma'rifatsizlikka olib kelib, natijada bolada ma'naviy qashshoqlik yuzaga keladi. Maktab va oilaning muhim vazifalaridan biri — kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdir. Agar kitobxonlik zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e'tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin emas.

Oilalarda yana bir muhim muammo — kitobni asrash va uni o'zidan keyingi oila a'zolariga yoki boshqalarga yetkazishdir. Ko'pincha biz kuzatgan oilalarda kitob tanlash, uni o'qishga e'tibor beriladi-yu, lekin avaylab-asrashga, kitobga mehrni tarbiyalashga befarq qaraydilar. Kuzatishlar natijasida darsliklar, juda ko'p rangli bolalarbop kitoblar yirtilib, chizilib, axlat qutilariga tashlanganligining guvohi bo'ldik. Bolalarga "Kitob ham nondek aziz"ligini tushuntirishda kattalarning o'zi ibrat bo'lishi zarur. Ajdodlarimiz doimo kog'ozni uvol qilmanglar, uni avaylab-asranglar. Bu an'anani yosh avlod ongiga singdirish bir tomondan bolalarda kitobni asrash eng muhim insoniy hislat sifatida shakllantirsa, ikkinchi tomondan hozirgi bozor iqtisodi sharotida kitob zahirasini yaratish muhim omil sanaladi. Ayniqsa, serfarzand oilalarda hox darslik bo'lsin, hox badiiy yoki ommaviy adabiyotlar bo'lsin, ular har bir xonadon a'zosiga o'zidan keyingi oila a'zolariga ham kerakligini tushuntirish asosiy vazifalardandir.

Hozirgi davrda televizor qisman kitob o'qishni siqib chiqarmoqda degan e'tirozlar ham paydo bo'lmoqda. Lekin televizorda biror ko'rsatuvni ko'rish uchun har bir inson tayyorlanadi, o'ziga qulay sharoit yaratadi. Teledasturlar qaysi ko'rsatuvni qachon ko'rishga o'rgatadi. Agar kitob o'qish uchun ham ota-onalar ana shunday sharoit yaratsa, televizor ko'rish va tanlab kitob o'qishni, qiziqib o'qishni o'rgatsalar, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Boladagi barcha tarbiyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust

rivojlanishida oiladagi boshqa a'zolarning kitobga, o'qishga munosabati katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona har bir ishda, jumladan kitobga munosabat va uni o'qishda ham bolalariga o'rnak bo'lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o'qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so'rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o'rganish (aniqrog'i o'rganish) muhimdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muratova, M. (2022). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALARNI TA’LIM TARBIYAVIY JARAYONDA FAOL ISHTIROKINI TA’MINLASHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. *Science and innovation*, *1*(B7), 1091-1096.
2. Muratova, M. O. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA AKTNING SALBIY TASIRI. In *ПРОБЛЕМЫ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ* (pp. 7-11).

YOSHLARNING MA’NAVIYATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN MAZMUNLI FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Muratova Munavvar O‘rol qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi munavvarmuratova1@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasida axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati aniq belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resruslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan. Axborotlashgan jamiyatda bilimlarning tizimga solinishi innovatsiya omili hisoblanadi, bunday bilimlar “Jamoaviy boylik”ka aylanadi, chunki barcha insonlar uchun ochiq bo‘ladi. Haqiqatan ham, axborotlashgan jamiyatda bir insonning aql-idroki quvvatiga umuminsoniy aql-zakovat qudrati qo‘shiladi.

Axborotlashgan jamiyatda ham muayyan muammolar, qiyinchiliklar, ziddiyatlar mavjud bo‘ladi, xavotirli tendensiyalar ham yo‘q emas. Jumladan, axborotlashgan jamiyatda ommaviy axborot vositalarining jamiyatga ta’siri yanada ortadi, axborot texnologiyalari insonlar va tashkilotlarning shaxsiy, xususiy hayotiga zarar yetkazishi mumkin bo‘ladi. Masalan, mamlakatning istagan fuqarosi haqida axborot to‘plash va uning erkinligini bo‘g‘ish yo‘lida bu ma’lumotlardan foydalanish mumkin bo‘ladi, axborot texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanish imkoniyati ortadi. Sifatli va haqqoniy axborotni tanlab olish muammosi yuzaga keladi.

Ko‘pchilik kishilar uchun axborotlashgan jamiyat muhitiga moslashish murakkablik tug‘diradi, axborot texnologiyalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan kishilar bilan iste’molchilar o‘rtasida uzilish yuzaga kelish xavfi tug‘iladi. Jamiyatning texnologik imkoniyatlari bilan sotsial sohaning va madaniyatning rivojlantirish bilan bog‘liq imkoniyatlari o‘rtasida tafovut paydo bo‘ladi. Yangilikka, turli axborotlarga hamisha qiziqish bilan qaraydigan yoshlar ongiga internet qay darajada ta’sir ko‘rsatayotgani haqida aytilatgan har bir fikr zamirida ulkan ma’no mujassam. Yoshlarning internetga bo‘lgan qiziqishlarini yaxshi bilgan ayrim buzg‘unchilar bundan juda ustalik bilan foydalanib “axborot huruji”ni avj oldirmoqdalar. Hozirgi davrda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida butun insoniyat Yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun ayniqsa, hayotga kirib kelayotgan yosh avlod uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratib bergan.

M.Quronovning fikricha, axborot hurujlari bu mafkuraviy obyekt xususiyatlarini hisobga olib ta’sir ko‘rsatish: dushman o‘zining o‘rta yoshli va ma’lumotli o‘zbek do‘sti bilan gaplashayotgandek tutadi. XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib dunyoda global informatsion maydonining yaratilishiga sabab bo‘ladi. Inqilob sodir bo‘ldi. Natijada informatsion kommunikativ kompleks dunyo xo‘jaligi yalpi mahsulotining 20% ta’minlovchi asosiy tarkibiy qismiga aylanadi. Internet tarmog‘i imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda o‘quvchi yoshlarimizda ma’naviy madaniyatini shakllantirishda ko‘makchi kompyuterli tizim imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Ko‘makchi kompyuterli tizim o‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda quyidagi imkoniyatlarga ega:

1. Ijodiy ta’limiy muhit yaratiladi.

2. O‘quvchi sifatli va ishonchli axborot materiallari bilan ta’minalanadi.

3. Tarbiyaviy ishlar jarayonida ham axborot texnologiyalarida keng foydalanish imkoniyati yaratiladi.

4. O‘quvchilarning mustaqil o‘qib-o‘rganishlari uchun zarur shart-sharoit yaratiladi.

O‘quvchi yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishga doir ko‘makchi kompyuterli tizim uchun ba’zalari yaratilishi maqsadga muvofiq.

Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlar ba’zasi orqali axborotli boshqaruv bloki tuziladi va uning tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1. Axboriy ta’minot (axborotlar banki, ma’lumotlar ba’zasi).

2. Multemediyali materiallar (videoroliklar, sayd-shoular).

Ko‘makchi kompyuterli tizimning eng asosiy xususiyatlaridan biri o‘quvchi yoshlarga ma’naviy madaniyat bilan bog‘liq ma’lumotlarni uzatishdan tortib, ular tomonidan mazkur axborotlarning qanchalik o‘zlashtirilishini aniqlashga imkon beradi.

Bo‘lajak pedagolarni har tomonlama bilimli yetuk kadr qilib tarbiyalashda bugungi kun talabi axborot texnologiyalaridan unumli va samarali foydalanish ko‘nikmalarini xosil qilish muhim masalalardan biridir. Albatda yosh avlod kelajak mevasi sifatida qaraladigan bo‘lsa, bizning oldimizdagi vazifa va mas’uliyat ikki hissa ortib boradi. Dunyoni zabt etadigan kelajagi buyuk yoshlarga ham pedagoglar tahsil berishi bejiz emas.

Buyuk siymolarimiz, bobokalonlarimiz shu yurtning farzandlari bo‘lishgani gapimizning isboti desak adashmaymiz. Shu o‘rinda maktabgacha yoshdan boshlab ta’lim tarbiyani to‘g‘ri tashkil etsak, maqsad vazifalarni ulkan qo‘yib olg‘a intilsak biz o‘ylagan natijaga erishgan bo‘lamiz.

Umuman olganda, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, shaxs rivojining motivatsion, kognitiv, faoliyatli va qadriyatli sohalarini uzviy ravishda o‘z ichiga qamrab olishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

3. Muratova, M. (2022). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALARNI TA’LIM TARBIYAVIY JARAYONDA FAOL ISHTIROKINI TA’MINLASHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. *Science and innovation*, *1*(B7), 1091-1096.

4. Muratova, M. O. R., & Dekhkambaeva, Z. (2022). Maktabgacha Ta'lim Muassasasida Bolalarning Hayot Faoliyati Xavfsizligi. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, *13*, 111-113.

5. Muratova, M. O. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA AKT NING SALBIY TASIRI. In *ПРОБЛЕМЫ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ* (pp. 7-11).

6. Джамилова, Н. Н., Кадирова, Н. М., & Жамилова, Ф. М. (2020). ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНИЦИАТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ. Управление дошкольным образовательным учреждением, (6), 36-42.

7. Marasulova, D. (2023). Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 1(1).

8. Muratova, M. (2023). NEGATIVE CONSEQUENCES OF BULLYING IN RELATION TO PRESCHOOL CHILDREN. International Journal of Pedagogics, 3(10), 43-47.

9. Muratova, M. (2023). PECULIAR ASPECTS OF WORKING WITH FAMILY IN THE FORMATION OF THE CULTURE OF LIFE SAFETY IN CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. Science and innovation, 2(B2), 593-596.

PEDAGOG TAYYORGARLIGIDAGI INQILOB: KOMPETENTSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING INTEGRATSIYASI

Ergasheva Ba'rno Ziyavitdin qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta'lim metodikasi o'qituvchisi
barnoergasheva90@gmail.com

Tez texnologik taraqqiyot va rivojlanayotgan ta'lim paradigmalari bilan ajralib turadigan davrda o'qituvchilarni tayyorlash sohasi tubdan o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. O'qituvchilar malakasini oshirishning an'anaviy modellari o'z o'rnini XXI asrda samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beruvchi innovatsion yondashuvlarga bo'shatmoqda. Ushbu inqilobning markazida texnologiya integratsiyasi bo'lib, kelajakdagi o'qituvchilarni zamonaviy sinflar talablariga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Pedagogni tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'qitish va ta'limning muvaffaqiyatli natijalari uchun zarur bo'lgan aniq ko'nikma, bilim va munosabatlarni egallashga urg'u beradi. Faqat kontentni o'zlashtirishga qaratilgan an'anaviy usullardan farqli o'laroq, bu yondashuv keng doiradagi vakolatlarni, jumladan, muloqot, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va moslashuvchanlikni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beradi. O'quv dasturlarini real dunyo o'qitish kontekstiga moslashtirish orqali o'qituvchilar turli sinflardagi murakkabliklarni boshqarish va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun yaxshi jihozlanadi.

Texnologiya tarbiyachilarni tayyorlash dasturlariga kompetentsiyaga asoslangan yondashuvlarni integratsiyalashuvini kuchaytirish uchun katalizator bo'lib xizmat qiladi. Virtual haqiqat simulyatsiyalari, kengaytirilgan reallik vositalari va immersiv o'rganish tajribalari intiluvchan o'qituvchilarga xavf-xatarsiz muhitda sinfni boshqarish, o'qitish strategiyalari va talabalarni jalb qilish usullarini qo'llash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, onlayn platformalar va raqamli resurslar ko'plab o'quv materiallariga kirishni taklif qiladi, bu esa individual o'rganish uslublari va afzalliklariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini ta'minlaydi. Bundan tashqari, texnologiya o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik va tarmoqni osonlashtiradi, ularga geografik chegaralar bo'ylab ilg'or tajribalar, resurslar va innovatsion o'qitish strategiyalarini almashish imkonini beradi. Onlayn jamoalar, ijtimoiy media platformalari va professional ta'lim tarmoqlari orqali intiluvchan o'qituvchilar tajribali murabbiylar va tengdoshlar bilan bog'lanib, uzluksiz o'rganish va o'sish madaniyatini rivojlantirishlari mumkin.

Biroq, texnologiya tarbiyachilarning tayyorgarligini oshirish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etsa-da, uning samarali integratsiyasi puxta rejalashtirish, o'qitish va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Tarbiyachilar o'z o'qitish amaliyotida texnologiyadan samarali foydalanish uchun zarur raqamli savodxonlik ko'nikmalari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, institutlar infratuzilmaga, resurslarga va doimiy kasbiy rivojlanishga sarmoya kiritishlari kerak, bu esa barcha intiluvchan tarbiyachilar uchun texnologiyaga asoslangan ta'lim tajribasidan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Kompetentsiya yondashuvi va texnologiyasini birlashtirish orqali o'qituvchilar malakasini inqilob qilish butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarining samaradorligini oshirish uchun ulkan salohiyatga ega bo'lgan transformatsion g'oyadir. Keling, ushbu integratsiyaga komponentlarni ajratib, qanday erishish mumkinligini o'rganamiz.

Tarbiyachilarni tayyorlashda kompetentsiya yondashuvi:

- ✓ Kompetentsiya yondashuvi real vaziyatlarda vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar, bilimlar va munosabatlarni rivojlantirishga urg'u beradi.
- ✓ Tarbiyachilarni tayyorlash sharoitida ushbu yondashuv tarkibni chuqur o'rganishdan muloqot qobiliyatlari, pedagogik texnikalar, sinflarni boshqarish va turli xil o'quv ehtiyojlarini tushunish kabi samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan vakolatlarni egallashga qaratilladi.

Texnologiyaning integratsiyasi:

- ✓ Texnologiya tarbiyachilarni tayyorlashda kompetentsiya yondashuvini amalga oshirishni osonlashtiradigan kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.
- ✓ Onlayn platformalar, virtual sinflar va ta'lim dasturlari stajyor tarbiyachiga interaktiv modullar va simulyatsiyalarni taqdim etishi mumkin, bu ularga simulyatsiya qilingan muhitda mashq qilish va o'qitish ko'nikmalarini oshirishga imkon beradi.
- ✓ Videoga asoslangan o'quv modullari tinglovchilarga amalda o'qitish texnikasini kuzatish va tahlil qilish imkonini beradigan samarali o'qitish amaliyotini namoyish etishi mumkin.
- ✓ Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn jamoalar stajyor tarbiyachilar o'rtasida hamkorlik va bilim almashishni osonlashtirishi, ularga bir-birlarining tajribalari va ilg'or tajribalaridan saboq olishlari mumkin.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim:

- ✓ Texnologiya tinglovchilarning individual ehtiyojlari va o'rganish uslublariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini ta'minlaydi.
- ✓ Adaptiv ta'lim platformalari stajyor o'qituvchilarning kuchli va zaif tomonlarini baholashi va takomillashtirishni talab qiladigan sohalarni hal qilish uchun maqsadli aralashuvlar va manbalarni taqdim etishi mumkin.

✓ Virtual murabbiylik dasturlari stajyor tarbiyachilarni tajribali tarbiyachilar bilan bog'lashi mumkin, ular mashg'ulotlar davomida shaxsiy ko'rsatma va yordam bera oladilar.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish :

✓ Texnologiya tarbiyachilar uchun dastlabki tayyorgarlikdan tashqari doimiy kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

✓ Onlayn kurslar, vebinarlar va virtual seminarlar o'qituvchilarga o'z vakolatlarini yanada rivojlantirish va so'nggi pedagogik tendentsiyalar va yangiliklardan xabardor bo'lish imkoniyatini beradi.

✓ Raqamli portfellar va aks ettirish vositalari o'qituvchilarga kasbiy o'sishini kuzatishga va doimiy takomillashtirish maqsadlarini belgilashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kompetentsiyaga asoslangan yondashuvlarni texnologiya bilan integratsiyalashuvi tarbiyachilarni tayyorlashda inqilob qilish va bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy va pedagogik faoliyatda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlarini kengaytirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Innovatsiyalarni qabul qilish va texnologiya kuchidan foydalanish orqali biz ta’lim kelajagini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma, bilim va tafakkur bilan jihozlangan pedagoglar avlodini shakllantirishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B7), 401-405.

2. Barno, E. (2023). O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.

3. Ergasheva, B., Maxmudova, D., & Ramozonova, B. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 2(10), 118–122.

4. Ergasheva Ba’rno Ziyavitdin qizi, & Qulbulova Rayhona Anvar qizi. (2023). MAMLAKATIMIZDA VA XORIJIY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI . Лучшие интеллектуальные исследования, 10(4), 69–74.

5. MAKTABGACHA TA’LIMDA RIVOJLANUVCHI TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH USULLARI MD Akmalovna, BR Sadriddinovna, BEZ Qizi.Science and innovation 2 (Special Issue 13), 538-540.

6. Ergasheva Ba’rno Ziyavitdin qizi, & Islomova Sabina Jamshidxon qizi. (2023). ZAMONAVIY TARBIYACHINING KASBIY KOMPETENLIGI . Лучшие интеллектуальные исследования, 10(5), 60–62.

7. Ergasheva Barno Ziyavitdin qizi. (2022). KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *5*(5), 75–77.

8. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA O‘QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Ergasheva Ba’rno Ziyavitdin qizi *- Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha talim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Abduqayumova Marjona Olim qizi *,,Maktabgacha ta’lim fakulteti” talabasi*

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida maktabgacha talim tizimiga aloxida to'xtalib o'tganlar va bir qancha vazifalar bergilab berganlar.Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish,maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022 — 2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish,maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish to'grisida alohida to'xtalib o‘tganlar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga professional mahorati yuqori bo‘lgan pedagoglarni jalb qilish bolalarga turli innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda tarbiya berish zamon talabi hisoblanadi.

Bolalarni turli xil ta'lim va tarbiyaviy faoliyatga jalb qilish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog va tarbiyachilari o'zlarining ijtimoiy tajribalarini hisobga olgan holda faoliyatning mazmuni va shakllariga bo'lgan qiziqishlariga asoslanib, psixologik majburlashsiz jarayonni tashkil qilishlari kerak. Ushbu talablarning barchasi faqat bitta shart bilan amalga oshirilishi mumkin - ta'lim va tarbiyalashning eng samarali vositalarini tanlash orqali. Bu esa o’z navbatida ta'lim jarayoniga ta'lim faoliyatini olib borishning innovatsion shakllari va usullarini keng joriy etishni talab qiladi. Pedagogning innovatsion faoliyati quydagilar bilan belgilanadi:

• Yangilik qo‘llashga tayyorgarligi;
• Pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
• Novatorlik darajasi;
• Kommunikativ qobiliyatning rivijlanganligi;
• Ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo’naltirish asosida bilim, malaka ko‘nikmalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keng qo’llanilayotgan loyihalar va tadqiqotlar faoliyati, ijodiy muammolarni hal qilish texnologiyasi (TRIZ), o'yin faoliyati vositasida bilim berish texnologiyasi, “Ta’lim jarayonida SINGAPUR texnologiyalari”, Mariya Montessori metodikasi, Reggio pedagogikasi kabi metod va texnologiyalarning barchasi mohir pedagog va tarbiyachilar qo'lida "yumshoq ko'nikmalar" (Soft skills)ni rivojlantirish vositalariga aylanmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimidagi istalgan pedagog va tarbiyachi, avvaldan ma’lum, hamda keng qo’llanilgan mashxur metod va texnologiyalarni o’z faoliyatida qo’llab ham, texnologiyaning yaratuvchisiga aylana oladi. Chunki xar bir tehnologiya moxir pedagog va tarbiyachilar qo’lida yanada sayqallanib, o’zigagina xos jilo bilan nur sochadi. Zeroki xar qanday texnologiya – bu yaratuvchanlik va ijodkorlikdir. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida ishlashni o'rgangan pedagog va tarbiyachining oliy maqsadi bolaning rivojlanish paytidagi kognitiv jarayonni to’g’ri tashkil etish bo’lib qoladi. Hamma narsa bizning qo'limizda, muhimi fursatni va tashabbusni boy bermaslikdir.

Yuqoridagilarni sarhisob qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, XXI -asrning asosiy "ko'nikmalarini" o'zlashtirib, maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs sifatida shakllanishi va o'sishi jarayonida, keyingi hayotda muhim bo’lgan fundamental ko'nikma va malakalarni o'rganish osonroq bo'ladi. Texnologik yondashuv, ya'ni innovatsion pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda keng tadbiq etish, maktabgacha yoshdagi bolaning yutuqlarini kafolatlaydi va kelajakda ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqayumova Marjona Olim qizi. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA SYUJETLI-ROLLI O’YINLARNING AHAMIYATI . Tadqiqotlar, 10(1), 74–77. Retrieved from http://tadqiqotlar.uz/index.php/01/article/view/440

2. Ergasheva Ba’rno Ziyavitdin qizi, & Abduqayumova Marjona Olim qizi. (2023). MAKTABCHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BO’LAJAK TARBIYACHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(23), 228–231. Retrieved from https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/8797
3. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B7), 401-405.
4. Barno, E. (2023). O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.
5. Azizxojayeva. N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, -67-68 betlar
6. Shukur Po‘latov. Ta’lim muassasasini ilmiy –metodik boshqarishga innovatsion yondashuv. O’quv qo’llanma. T.: “Yosh kuch” 2022, -196 bet

MAKTABGACHA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA XORIJIY TAJRIBALAR

Abdusabirova Laylo Azizjon qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktaranti,
layloabdusabirova@gmail.com

Respublikamizda ta’lim tizimini rivojlantirish, va yetuk malakali kadrlarni tayyorlash uchun Davlat rahbarimiz tomonidan katta kuch va mablag‘lar ajratilmoqda. Ushbu katta say-harakatlar natijasida maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatlarida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini va tashkilotda ko‘rsatilayotgan maktabgacha ta’lim xizmatlari sifatini baholash alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Chunki bu komponent butun dunyoda maktabgacha ta’lim tizimining asosiy maqsadli funksiyasi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim sohasidagi milliy siyosat qoidalarida belgilangan maktabgacha ta’lim xizmatlari sifatini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan va amal qilayotgan dasturlar maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu o‘rinda shuni ta’kidlashimiz kerakki barchamizga a’yonki respublikamizda maktabgacha kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalari bo‘yicha jahon konferensiyasi bo‘lib o‘tgan edi. Ushbu konferensiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qatnashgan edilar.

Anjumanning maqsadi 2030-yilga qadar maktabgacha ta’lim sohasiga oid siyosatni belgilab olish va bu boradagi xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan edi.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad — ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribani joriy etishdan iborat. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish uchun, avvalambor, mavjud bo‘lgan kamchiliklarni aniqlab olsak. Ushbu muammolar bo‘yicha bir qancha savollarni muhokama qilsak:

- Maktabgacha ta’limda kompyuter transformatsiyasi muammolari.
- O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim pedagog kadrlarini tayyorlash. tizimining yo‘llarini
- Alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarning kasbiy malakasiga qo‘yiladigan talablarini ko’rib chiqish.
- Jamiyatni raqamlashtirish davrida maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari qo’llash.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun turli xil ko‘lamli ishlar omalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim berish uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar mavjud, jumladan ta’lim-tarbiya jarayonlari xorijiy tajribalar asosida pedagoglar tomonidan olib borilmoqda. Buning uchun, avvalombor, pedagog o‘z mahoratini oshirib, ta’limning yangi uslub va usullarini o’z faoliyatida qollamog’i zaruz. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, O‘zbekiston Respublikasida bo‘lib o‘tayotgan turli mavzudagi anjumanlar maktabgacha ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida tasdiqlangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishdagi muhim qadamlardan biridir.

O‘tkazilayotgan bunday tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad – tajriba almashish va zamonaviy maktabgacha ta’limni rivojlantirishning dolzarb muammolari, asosiy tendensiyalari va istiqbollarini muhokama qilishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta’minlash hozirgi kundan muhim ahamiyatga ega va bunga to’sqinlik qilayotgan barcha muammolarni bartaraf qilishga harakat qilinmoqda. Chunki bola boshlang‘ich bilimni bog‘chadan oladi. Yana eng muhim jihatlaridan biri shundaki maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlarning samaradorligini oshirishda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mahorati, boshqaruvchilik salohiyati alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarga o‘zlarining bilimlarni taqdim etish jarayonida kasbiy kompetentsiyalarning shakllanishi, ularda kreativlik sifatlari yuqori darajada bo‘lishi talab qilinmoqda. Tarbiyachilar maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda tashkil etish zarurligi va bu malakalarni oshirish uchun pedagog va tarbiyachilar o’rtasida o‘zaro tajribalar almashib, xorij tajribalaridan na’muna olgan holda ta’lim-tarbiyani tashkil qilmoqdalar.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim soxasida amalga oshirilayotgan tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan konseptual islohotlar o‘z natijasini ko’rsatmoqda. Ta’lim-tarbiya jarayonida qollanilayotgan texnologiyalar bolalarni qiziqishini uyg‘otib yangi bilimlarni o’zlashtirish samaradorligini oshirmoqda va sifatli ta’lim berishda katta ahamiyatga egadir.

Biz hozirgi kunda texnologik inqilob davrida yashayapmiz. Kundan-kunga yangi zamonaviy texnologiyalar, yangi kasblar paydo bo‘lmoqda. Biz pedagog-tarbiyachi sifatida mulohaza qilishimiz kerakki, biz bolalarga mana shunday zamonaviy yangi texnologiyalar orqali ularga bilim beryapmizmi, biz berayotgan bilimlar hayotda bolaga foydali bo‘ladimi, kabi bir qancha savollar ustida ishlar olib borishimiz kerak. Hozirgi kundagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mavjud texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun qay darajada o‘z natijasini ko‘rsatmoqda?

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalasida bir qancha vazifalar belgilanib qo‘yildi:

- vazirlik axborot xavfsizligining munosib darajasini ta’minlash, yagona axborot maydonini yaratish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish sohasida ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish, umumlashtirish va joriy etish maqsadida xorijiy mamlakatlarga o‘quv safarlarini tashkil qilish;

- maktabgacha ta’lim sohasida dasturiy vositalar, axborot ma’lumotlar bazalari, multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida qo‘llash;

- maktabgacha ta’limni boshqarishning axborot tizimini (EMIS) yanada takomillashtirish va rivojlantirish, ma’lumotlarni kiritish va tezkor almashish uchun mobil ilovalarni yaratish;

- o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va nashr etishni tashkil qilish, raqamli ta’lim resurslari, uydan turib masofali ta’lim berish va ota-onalar bilimini oshirish texnologiyalarini joriy etish;

6) maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg‘or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish;

7) innovatsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, startap-loyihalar tashabbuskorlari, olimlar, moliyaviy institutlar va boshqa manfaatdor shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kengaytirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish;

8) maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining innovatsion axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalari sohasidagi bilimlari va malakasini oshirish, innovatsion ta’lim muhitini tashkil qilish;

9) birinchi bosqichda har bir tuman tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotini, keyinchalik esa respublikaning har bir maktabgacha ta’lim tashkilotini Internet tarmog‘iga chiqadigan personal kompyuterlar bilan ta’minlash.

Bolalarning ta’lim olishlari uchun yaratilayotgan bunday sharoitlar kelajakda o‘z natijasini berishda hech qanday shubha yoq desak adashmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4312 qarori. 08.05.2019.

1. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta’lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

2. Sodiqov .Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. — T:. “Tafakkur sarchashmalari”, 2013.

3. Dr. Shoista A. Sadikova Zilola Z. Yakubova Development of Professional - Pedagogical Culture of Students of Higher Educational Organizations. 6241-6246 betlar, INTERNATIONAL JOURNAL OF SPECIAL EDUCATION Vol.37, No.3, 2022.

ВЛИЯНИЕ ОБЩЕНИЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧИ РЕБЕНКА

Махмудова Диёра Акмалевна

Преподаватель кафедры Методика дошкольного образования ТГПУ имени Низами

maxmudova_diyora@tdpu.uz

Формирование грамотной, эмоционально окрашенной речи – одно из важнейших условий всестороннего развития детей. Чем богаче и правильнее у ребёнка речь, тем легче ему высказывать свои мысли, тем шире его возможности в познании окружающей действительности, содержательнее и полноценнее отношения со сверстниками и взрослыми, тем активнее осуществляется его психическое развитие.

Речь является таким же важным приобретаемым навыком, как и навыки ползанья, ходьбы. Первое проявление – плач ребенка, таким способом малыш пытается сказать взрослому, что ему холодно, он хочет кушать или у него что-то болит. Ребенок растет и,

как следствие, совершенствуется его речь, переходя от лепета к грамотно оформленной, эмоционально окрашенной речи.

Однако исследования специалистов показывают, свидетельствуют о том, что в несколько раз возросло число детей с отставанием в развитии речи. И причинами данных нарушений являются не только эндогенные (внутренние) факторы, но и экзогенные (внешние), один из которых – дефицит самого общения (педагогическая запущенность).

Современная жизнь диктует свои правила. В погоне за финансовым благополучием дети уходят на второй план. Желая дать детям все самое лучшее, купить самые модные игрушки, взрослые упускают главный момент – чего хотят сами дети. А детям важно непосредственно общение с любимыми мамой и папой, совместные игры и чтение книг. Все чаще взрослые стали уклоняться от всех контактов с ребенком, кроме «деловых» (накормить, переодеть, уложить спать и т.д.), просто потому, что им такие контакты малоинтересны.

Очень часто находится множество причин не заниматься ребенком и предоставить его самому себе – усталость после работы, масса всяческих домашних дел. Обычно взрослым удается довольно быстро убедить самих себя в том, что именно эти причины и не позволяют им уделить ребенку какое-то время, кроме самого жесткого минимума. Эти причины сами по себе вполне реальны: все устают после трудового дня, после уборки, стирки и других дел по дому. Однако важно понять, что общение с ребенком нельзя откладывать до того момента, когда все дела будут сделаны. Так для него может изо дня в день вообще не оставаться времени. В большинстве случаев в такой ситуации главным «воспитателем» для ребенка становится телевизор, телефон, планшет. И это вполне устраивает взрослых: ребенок не пристает, не безобразничает, ребенок как бы занят, узнает что-то новое. Но это занятие не совсем безобидно, так как может иметь последствия для физического здоровья (нарушение зрения, испорченная осанка, дефицит движения и др.) и психического развития, прежде всего отставание в речи.

По мнению некоторых ученых, просмотр современных мультиков препятствует развитию таких сторон речи, как мелодика, ритм, интенсивность, темп, тембр и логическое ударение, так как у героев отсутствует мимика, а лица остаются всегда одинаковыми.

С одной стороны полностью оградить ребенка от гаджетов очень трудно, т.к. он видит, как другие дети играют в телефонах, сидя на лавочке на улице, родители общаются в социальных сетях, не отрывая взгляд от телефона. Одним из вариантов решения данной проблемы, на мой взгляд, является ограничение времени просмотра телевизора, игр в телефоне или планшете. Развитие речи не требует больших материальных затрат и особой подготовки. На прогулке ребенку всегда интересно послушать рассказ об окружающих

предметах, его свойствах и назначениях. Рассказ об увиденном на улице во время прогулки, о проведенном дне в саду учит ребенка не только составлять связные и последовательные истории, но и формирует доверительные отношения в системе «ребенок-взрослый». Ответы ребенка по-детски наивны и интересны, они никогда не будут такими больше, как в этом прекрасном дошкольном возрасте. Отвечая на вопросы ребенка, даже самые неудобные, взрослый побуждает его вести диалог, рассуждать и делать выводы.

Для развития речи ребенка можно использовать любую ситуацию: поездку в транспорте, прогулку. Из своего опыта, предлагаю несколько простых игр, которые способствуют правильному формированию речевых процессов:

1. «Два-пять». Цель научить ребенка согласовывать существительные с числительными. Взрослый говорит слово (существительное), которое необходимо посчитать. Например: «У меня два кактуса, у меня пять кактусов».

2. «Угадай, что я загадал». Родитель загадывает слово, а ребенок по наводящим вопросам должен отгадать, что же родитель загадал. Потом наоборот, ребенок загадывает, а взрослый отгадывает. Можно договорится о том, что в слове должен быть определенный звук.

3. «Будем искать слова». Взрослый предлагает проверить кто из них самый внимательный. Он говорит: «Будем называть предметы, мимо которых мы проходим; а еще обязательно укажем – какие они. Вот почтовый ящик – он синий. Я заметил кошку – она пушистая». Ребенок и взрослый могут называть увиденные объекты по очереди.

В играх подобного рода развиваются: внимание детей к слову, языковое чутье, умение выбирать подходящее по смыслу слово в определенном словосочетании, предложении. Речь ребенка строится по подражанию, если в семье кто-то картавит, искажает или смешивает звуки при произношении, то ребенок, скорее всего, будет говорить также. Поэтому взрослые должны говорить правильно, четко произнося каждый звук, не торопиться, не «съедать» слогов и окончании слов, не «сюсюкать». Совершенно неуместна «подделка» под детский язык, которая нередко тормозит развитие речи. Если взрослые не следят за своей речью, то до уха ребенка многие слова долетают искаженно («смори» вместо «смотри», «не бежи» вместо «не беги», «ваще» вместо «вообще» и т.д.). Но не всегда искаженное произношение того или иного звука говорит о недостатках развития речи, это может быть подражание ребенком специфическому акценту взрослого (звуковые особенности другого языка).

Список литературы:

1. Kim, I. (2022). РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ИХ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ. *Science and innovation*, *1*(B7), 1195-1197.
2. Ким, И. Н. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ. In *Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста* (pp. 33-36).
3. Ким, И. Н. (2021). ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ КАК СОЦИАЛЬНО ЗНАЧИМОЕ НАПРАВЛЕНИЕ. In *Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста* (pp. 75-79).
4. Ким, И. Н. (2022). СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *Информационные технологии и цифровое образование: приоритетные направления развития и практика реализации* (pp. 25-28).
5. Марасулова Д. Н. АУТЕНТИЧНЫЕ ВИДЕОМАТЕРИАЛЫ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА //Results of National Scientific Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 252-259.
6. Нурматова, и. т., & ким, и. н. (2019). семья как институт воспитания, формирования и социализации личности. in *international scientific review of history, cultural studies and philology* (pp. 31-36).
7. Ким, И. Н. (2022, October). РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 180-183).
8. Muratova, M. O. R., & Dekhkambaeva, Z. (2022). Maktabgacha Ta'lim Muassasasida Bolalarning Hayot Faoliyati Xavfsizligi. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 13, 111-113.
9. Muratova, M. (2023). NEGATIVE CONSEQUENCES OF BULLYING IN RELATION TO PRESCHOOL CHILDREN. International Journal of Pedagogics, 3(10), 43-47.
10. Maxmudova, D., & Bahoroy, R. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *Modern Science and Research*, *2*(10), 118-122.
11. Махмудова, Д. А. (2023). Проблемы цифровой педагогики и развитие цифровой компетентности обучающихся. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *8*(1), 143-147.
12. Maxmudova, D. A. (2023). METHODS OF USING DEVELOPING TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 120-125.

13. akmalovna, m. d., sadriddinovna, b. r., & qizi, b. e. z. (2023). maktabgacha ta'limda rivojlanuvchi texnologiyalarini qo'llash usullari. *science and innovation*, *2*(special issue 13), 538-540.

14. махмудова, д. а. (2024). влияние развивающих игр на липучках на развитие детей дошкольного возраста. *golden brain*, *2*(1), 199-202.

15. ramozonova, b. s., & maxmudova, d. a. (2023). malakaviy o 'quv amaliyotida bo 'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. *golden brain*, *1*(31), 52-56.

16. махмудова, д. а. (2024). enhancing natural science education and developing a system of scientific knowledge in elementary schools. *образование наука и инновационные идеи в мире*, *41*(2), 135-136.

17. Махмудова, Д. А. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДОШКОЛЬНИКОВ. *GOLDEN BRAIN*, *2*(1), 203-206.

РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧЕРЕЗ ТЕАТРАЛЬНО-ИГРОВУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Махмудова Диёра Акмалевна

Преподаватель кафедры «Методика дошкольного образования» ТГПУ имени Низами maxmudova_diyora@tdpu.uz

Педагогическая целесообразность использования коллективных театрально-игровых постановок в обучении и воспитании объясняется тем, что они позволяют повысить темп развития речи, за счет включения ребёнка в творческую деятельность. Важное значение в возникновении у детей потребности в игре особого рода, а именно театрализованной, имеет сюжетно-ролевая игра.

Особенность театрализованной игры состоит в том, что со временем дети уже не удовлетворяются в своих играх — только изображая деятельность взрослых, их начинают увлекать новые игры, навеянные литературными произведениями. Такие игры являются переходными, в них присутствуют элементы драматизации. Но при этом текст используется здесь более свободно, чем в театрализованной игре. Потому что детей больше увлекает именно сам сюжет, его правдивое изображение, а не выразительность исполняемых ролей.

Таким образом, именно сюжетно-ролевая игра — это своеобразный плацдарм, на котором получает своё дальнейшее развитие театрализованная игра. Оба вида игр развиваются параллельно. Но сюжетно-ролевая игра достигает своего пика у детей 5-6 лет, а театрализованная — у детей 6-7 лет.

Исследователи отмечают близость сюжетно-ролевой и театрализованной игры. При этом существуют и некоторые отличия. Если в сюжетно-ролевой игре дети отражают впечатления, полученные в жизни, то в театрализованной — из готового источника (литературно-художественного). В сюжетно-ролевой игре инициатива детей направлена на создание сюжета, а в театрализованной — на выразительность разыгрываемых ролей.

Деятельность детей в сюжетно-ролевой игре является ориентировочной и не может быть представлена для показа зрителю, а в театрализованной игре у действия могут быть зрители: другие дети, родители.

Не секрет, что многие дети страдают от неустойчивого внимания, испытывают трудности при ориентировании в пространстве. У них слабо развита познавательная деятельность, наблюдается нарушение грамматического строя речи, недостаточность эмоционально-волевой сферы. Такие дети склонны к тормозным процессам и в процессе игры у них часто проявляется робость, скованность и быстрая утомляемость.

Детям же с повышенной возбудимостью, наоборот, не хватает внимательности и сосредоточенности. И, как показывают практические наблюдения, особая роль в повышении умственной активности, совершенствовании речевых навыков, развитии психических процессов, повышении эмоциональной активности принадлежит именно театрализованным играм. Для успешного формирования творческой активности детей в театрализованной деятельности необходимо соблюдать ряд условий. Приобщать детей к театральному искусству, начиная с просмотров спектаклей в исполнении взрослых.

Так, например, чередование просмотров спектаклей кукольного и драматического театра позволяют детям осваивать законы жанра. А ещё накопленные впечатления помогают им в разыгрывание простейших ролей, постижении азов перевоплощения. Осваивая способы действий, ребёнок начинает всё более свободно чувствовать себя в творческой игре. Педагог должен осознано выбирать художественные произведения для работы. Сначала воспитателю необходимо выразительно прочитать произведение, а затем провести с детьми по нему беседу для понимания не только содержание произведения, но и отдельных средств выразительности.

Огромную роль в осмыслении познавательного и эмоционального материала играют иллюстрации. При рассматривании иллюстрации особое внимание необходимо уделять анализу эмоционального состояния персонажей, изображенных на картинах.

При организации игр можно использовать фланелеграф. Так особенно эффективно использовать фланелеграф для составления сезонных сказок. Например, на небе появилась тучка, из неё сыплются сестрички-снежинки, они покрывают землю белым пушистым покрывалом. Можно использовать настольный кукольный театр, в котором чётко

фиксируются различные ситуации. Особенно много сценок можно разыграть с куклами бибабо. Необходимо предоставлять детям возможность самовыражаться в творчестве. Учиться творчеству можно только при поддержке взрослых, в том числе родителей.

Рекомендуемые формы работы с родителями:

- проведения досугов;
- организация тематических вечеров «Любимые сказки», «Театральные встречи»;
- беседы и консультации;
- домашнее сочинение сказок и различных историй и их разыгрывание;
- совместное изготовление атрибутов, костюмов для представлений.

Социально-психологические особенности детей дошкольного возраста включают стремление участвовать в совместной деятельности со сверстниками и взрослыми, а также время от времени возникающую потребность в уединении. Поэтому в каждой возрастной группе должны быть оборудованы: театральная зона или уголок сказки, «тихий уголок», в котором ребёнок может побыть один и порепетировать какую-либо роль перед зеркалом, или ещё раз посмотреть иллюстрации. В группе детей 5-6 лет более широко должны быть представлены виды театров и разнообразные материалы для изготовления атрибутов к спектаклю.

В целях учёта полоролевых особенностей детей оборудование зоны для театрализованной деятельности должны отвечать интересам как мальчиков, так и девочек. Театрализованная деятельность выполняет одновременно познавательную, воспитательную и развивающую функцию. Участвуя в театрализованных играх, дети активно познают окружающий мир, становятся участниками событий из жизни людей, животных, растений.

В процесс театрализованной игры расширяются и углубляются полученные детьми знания об окружающем мире. Развиваются такие психические процессы, как внимание, память, восприятие, воображение. Активно стимулируются мыслительные операции. Происходит развитие различных анализаторов. Активизируется и совершенствуется словарный запас, грамматический строй речи, звукопроизношение, навыки связной речи, мелодико-интонационная сторона речи, темп, выразительность речи. Совершенствуется моторика, координация, плавность, переключаемость, целенаправленность движений. У детей развивается эмоционально-волевая сфера. Происходит коррекция поведения ребёнка. Формируется чувство коллективизма, ответственности друг за друга, опыт нравственного поведения. Значительно стимулируется развитие творческой, поисковой активности, самостоятельности. Участие в театрализованных играх доставляют детям радость, вызывают активный интерес, увлекают их.

Список литературы:

18. Maxmudova, D., & Bahoroy, R. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *Modern Science and Research*, *2*(10), 118-122.

19. Махмудова, Д. А. (2023). Проблемы цифровой педагогики и развитие цифровой компетентности обучающихся. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *8*(1), 143-147.

20. Maxmudova, D. A. (2023). METHODS OF USING DEVELOPING TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 120-125.

21. Akmalovna, M. D., Sadriddinovna, B. R., & Qizi, B. E. Z. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA RIVOJLANUVCHI TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH USULLARI. *Science and innovation*, *2*(Special Issue 13), 538-540.

22. Махмудова, Д. А. (2024). ВЛИЯНИЕ РАЗВИВАЮЩИХ ИГР НА ЛИПУЧКАХ НА РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *GOLDEN BRAIN*, *2*(1), 199-202.

23. Марасулова, Д. Н. (2024). ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В ОБУЧЕНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *17*(2), 204-208.

24. Ramozonova, B. S., & Maxmudova, D. A. (2023). MALAKAVIY O 'QUV AMALIYOTIDA BO 'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 52-56.

25. Махмудова, Д. А. (2024). ENHANCING NATURAL SCIENCE EDUCATION AND DEVELOPING A SYSTEM OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE IN ELEMENTARY SCHOOLS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *41*(2), 135-136.

26. Махмудова, Д. А. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДОШКОЛЬНИКОВ. *GOLDEN BRAIN*, *2*(1), 203-206.

27. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). DEVELOPMENT OF IMAGINARY-CREATIVE COMPETENCES IN THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSION. In Next Scientists Conferences (pp. 84-91).

28. Xasanova, S. (2022). ОРГАНИЗАЦИЯ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА КАК ФАКТОР ГОТОВНОСТИ РЕБЕНКА К ШКОЛЕ. Science and innovation, 1(B8), 2199-2203.

29. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations-Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, *44*, 1777-1784.

30. Sodiqova, S., & Yakubova, Z. (2022). O ‘QUV MASHG ‘ULOTLARINING TALABALARNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDAGI O ‘RNI. *Science and innovation*, *1*(B7), 855-859.

31. Ким, И. Н. (2023). Особенности использования цифровых технологий в дошкольном образовании. In *Наука, технологии, инновации для развития экономики и общества* (pp. 37-39).

32. Ким, И. Н. (2021). ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ КАК СОЦИАЛЬНО ЗНАЧИМОЕ НАПРАВЛЕНИЕ. In *Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста* (pp. 75-79).

33. Ким, И. Н. (2022, October). РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 180-183).

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARDAGI TARBIYALANUVCHILARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA QO’YILADIGAN MAQSAD VA VAZIFALAR

Zarifova Zabarjatxon Muxammad qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi o’qituvchisi

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda nutqni tuza bilish darajasini ko‘tarish maktabgacha ta’lim tizimi oldidagi asosiy vazifalardandir. Shuni hisobga olgan holda tevarak-atrofni o‘rganishda maktabgacha yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirishni ta’minlaydigan omillarni aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yuqori darajasiga quyidagilar evaziga erishilishi mumkin ekan:

- tilning adabiy me’yorlari va qoidalaridan xabardorlik;
- o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon eta olish;
- muloqotga kira bilish, kattalar va tengdoshlar bilan muomala qilaolish;
- suhbatdoshni tinglay bilish, so‘rash (savollarni to‘g‘ri bera olish),javob berish, e’tiroz bildirish, zarur bo‘lganda esa tushuntirish, izohlash.

Ma’lumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishfaoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladi:

- tabiat ob’ektlari bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida;
- badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida;
- savod o‘rgatishda;
- o‘yin faoliyatida;
- ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarningbajarilishida.

Tadqiqotchilardan L.P.Fedorenko va G.A.Fomichevalar metodik jihatdan muhim g‘oyani ilgari suradilar: «Bolani nutqga o‘rgatish, - deb yozadi ular, - unga til materiyasini (nutq organlarini mashq qildirish) tilbelgilari, leksik va grammatik belgilar (intellektni mashq qildirish) ma’nosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilar yordamida (ehtiros va tuyg‘ularni mashq qildirish) borliqni baholashni ifodalashni o‘rgatish, adabiyot me’yorlarini eslashni osonlashtirishga ko‘mak berish demakdir».

Bola tomonidan nutqni o‘zlashtirishga asosli yondashuv bilan kelishgan holda biz shunga e’tiborimizni qaratdikki, qo‘llanma mualliflari tez-tez «yordam berish», «mashq qildirish» va boshqa iboralarni qo‘llaydilar-u, biroq qay tarzda yordam berish, mashq qildirish mumkinligiga kam e’ibor qaratadilar. Nutq o‘stirish bo‘yicha aniq maqsadga qaratilmagan mashqlar bolalarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga ijobiy ta’sir ko‘rsata olmasligi mumkindir. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularga ona tilini o‘rgatish sohasidagi psixologo-pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish

quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- Nutqni rivojlantirish – bu bolaning individual rivojlanishida markaziy o‘rinni egallovchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirishiga oid o‘ta murakkab va ko‘p omilli jarayondir.
- Bu stixiyali jarayon emas, balki pedagogik rahbarlikni taklif qiluvchi ijodiy jarayondir.
- Bolaning nutqiy rivojlanish jarayonini boshqaruvchi pedagog ushbu jarayon qonuniyatlari, mexanizmlari va uning turli yosh bosqichlaridagi xususiyatlarini bilishi, nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini ko‘ra bilishi va bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uning nutqiga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning eng samarali yo‘llarini tanlashi shart.

«Bola nutqini rivojlantirish» hodisasining o‘zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishlari zarur, deganxulosani keltirib chiqaradi.

Nutq madaniyati — bu to‘g‘ri so‘zlay olish, ya’ni nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko‘zlangan maqsadni hisobga olgan holda hamda barcha til vositalaridan (til

vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zahira, grammatik shakllardan) foydalangan holda bayon qilinayotgan mazmunga mosholda gapirishdan iboratdir.

Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun nutqni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo’lib, tarbiyalanuvchilarning til o'rganish, ijodiy fikrlash va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydilar. Bu esa, maktabgacha ta'lim tizimlarining nutqni rivojlantirishdagi maqsadi va vazifalarini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarga tarbiyalanish va uning natijasida kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun qo'llaniladigan vazifalarni ham bajarishadi. Bu vazifalar tarbiyalanuvchilarni ijodiy fikrlash va o'z fikrlarini boshqalar bilan baham ko'rish va munozara qilishga tez-tez qatnashishga rag'batlantirish, shuningdek, nutqni isbotlash va aytishning ahamiyatini anglab yetishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi tarbiyalanuvchilarning nutqini rivojlantirish va ularni sodda, sof va amaliy tarzda o'z fikrlarini ifoda qilishga yordam berishdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa, tashkilotlar quyidagi vazifalarni bajarishadi:

1. Tarbiyalanish: Maktabgacha ta'lim tizimlari tarbiyalanuvchilarga adabiyot, madaniyat va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalanish beradi. Bu esa, ularning nutqini so'z bilan samarali va e'tiboringizni jalb qiluvchi tarzda rivojlantirish uchun muhimdir.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni og‘zaki nutqni rivojlantirish: bolalar nutq faoliyatini yo’lga qoyish, o‘qish va nutqning mantiqiy va xis-hayajonli-obrazli ifodasini o‘zlashtirish, badiiy asarlarni tahlil qilish va uni ijro eta olishni bilish ko’nikmalariga ega bo’ladilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarga nutqni rivojlantirish: ahamiyatini tushuntirish va ularni bu ko'nikmalarga ega qilishda yordam beradi.

Bu vazifalar tashkilotlar uchun nutqni rivojlantirishda muhimdir, chunki tarbiyalanuvchilar nutq orqali o'z fikrlarini to'g'ri ifoda qilish va boshqa insonlar bilan o'zaro munozaraga kirishish qobiliyatini oshirishadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta’lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilarini yosh guruhiga qarab pedagog tarbiyachilar tomonidan o'quv mashg’ulotlari jarayonida bolajonlarni qanchalik nutqi ravon rivojlanayotganini bilish uchun baholash va takomillashtirishning turli usullarini qo'llaydilar. Bu esa, ularning nutqni rivojlantirishda qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishini aniqlash va ularni yaxshilashga imkoniyat yaratadi.

Nutqni rivojlantirish tashkilotlar uchun muhimdir, chunki bu tarbiyalanuuvchilarning o'z fikrlarini ifoda qilish, ijodiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularga mustaqil ish qilish,

tengqurlari bilan bemalol muloqotga kirisha olishi va she’r, ertak, qo’shiq ayta olishi kabi amaliy mashg'ulotlar orqali o'z fikrlarini to'g'ri va ma'qul ifoda qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning nutqini rivojlantirishda qo'llaniladigan maqsad va vazifalarning muhimligini, ularning amaliyotdagi o'rni va ahamiyatini qayd etadi. Bu bo'limda amaliy ishning natijalari, maktabgacha ta'lim tizimlarida tilni rivojlantirishga oid yaxshi amaliy usullar va dasturlarning maqsad va vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilarga qanday yordam berishga intiladigan yaxshi amaliy usullar va dasturlar haqida ko'proq ma'lumot beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodiy fikrlash va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa, maktabgacha ta'lim tizimlarining nutqni rivojlantirishdagi eng yaxshi usullar va dasturlarni tanlashda, ularning tarbiyalanish va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantirishda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarurdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdullaev, A. (2018). Maktabgacha ta'lim tizimlarida tarbiyalanuvchilarning tilni o'rganish va nutqini rivojlantirish uchun amaliy usullar. Toshkent: O'qituvchi.

2. Ochilov, B. (2020). Tarbiyalanuvchilarning nutqini rivojlantirishda qo'llaniladigan maqsad va vazifalar. O'zbek tilini o'rganish va tarbiyalash.

3. Rahmonov, D. (2019). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish usullari. O'quv fanlari metodikasi va tarbiyaviy asoslari.

4. Sobirov, O. (2017). Tarbiyalanuvchilarning tilni rivojlantirishda qo'llaniladigan maqsad va vazifalar. O'zbekiston fan va tarixi.

5. Usmanov, U. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tilni o'rganish va nutqni rivojlantirish. Pedagogika va psixologiya.

6. Marasulova, D. N. (2023). BOLALARGA CHET TILINI O‘RGATISHDA MULTIMEDIALARNI O‘RINI. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(3), 83-87.

7. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

8. Марасулова Д. Н. АУТЕНТИЧНЫЕ ВИДЕОМАТЕРИАЛЫ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА //Results of National Scientific Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 252-259.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna,

TDPU, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi.,
mushtariysultansaidova@gmail.com

Maktabgacha ta’lim tizimi nafaqat O‘zbekistonda balki butun dunyoda katta ahamiyatga ega sohalardan hisoblanadi. Butun dunyoda ta’lim maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlanishi barchamizga ma’lum. Ushbu sohani rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda tahlil qilish va yurtimizda ham erishilgan natijalarning tahliliga muvofiq qiyosiy o‘rganish muhim va qiziqarlidir.

Yevropa mamlakatlarida, xususan, Germaniyada ham maktabgacha ta’lim tizmiga alohida e’tibor beriladi. Germaniyada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida asosan bog‘larda va umumiy zallarda bolalarni tarbiya qilishadi. 50-80 ta bolani birgalikda jamoaviy tarzda tarbiya etishadi. Ularda yoshga qarab alohida guruhlarga ajiratilmaydi turli yoshdagilar birgalikda yurishadi bundan asosiy maqsad turli yoshdagi insonlar bilan muloqot qilishni o‘rganishga imkon beradi. 20-25 bolaga ikkita tarbiyachi beriladi. Germaniyada maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilarini o‘qitish tizimi mamlakatimiz tizimidan tubdan farq qiladi. Ular 3 bosqichda tahsil olishadi.

Birinchi bosqichda talaba maktabgacha ta’lim tashkilotiga yuboriladi ikki yil mobaynida turli hil ishlar va bolalar bilan shug‘ullanishadi ular amaliyot o‘tashadi.

Ikkinchi bosqichida esa ikki yil mobaynida nazariy bilimga ega bo‘lishadi. Ularga asosan bola psixologiyasi, yosh fziologiyasi, pedagogika kabi fanlar o‘qitiladi.

Uchunchi bosqichda yosh tarbiyachi-pedagoglar malakali tarbiyachi-pedagoglarga bir yil muddatga shogirtlikka borishadi va ish tajribasini o‘rganadi so‘ng diplomga ega bo‘ladilar. Germaniyada bolalarni asosan mustaqil va erkin qo‘yadilar. Pedagoglarga ham shu metodik tayyorgarlik o‘rgatiladi .

Germaniyada barcha maktabgacha ta’lim muassasalarida mavjud bo‘lgan o‘qitish hamda kasbga yo‘naltirishning eng samarali metodi sifatida “Fryobel” metodi qo‘llaniladi. Ushbu metodga binoan bolalar faqat o‘zlari qiziqqan soha bilan shug’ullanadi. Fridrix Froebel kichkintoylar uchun birinchi ta’lim tizimlaridan birini ishlab chiqdi. Uning asosiy g’oyasi shundaki, barcha bolalar iste’dodli va noyobdir, lekin har bir bolaning qobiliyatlari har xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi va har xil faoliyat turlariga qaratilgan. Shuning uchun bolalarni xuddi shu narsani qilishni dasturlash mumkin emas, har bir bola individual yondashuvga yega bo‘lishi

kerak. Tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti-harakatlarini kuzatadilar, ularning turli o‘yinlarda ishtirok etishlarini nazorat qiladi, dunyoqarashini rivojlantiradilar, ammo bolaning shaxsiy qobiliyatlari, uning qiziqishlari va afzalliklariga ustuvor ahamiyat beriladi.



Germaniyada ham bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy metodik kompetensiyalarini oshirishda amaliy mashg‘ulotlardan ko‘proq foydalaniladi. Bu albatta kasbiy metodik kompetensiyani mukammal darajada shakllanishi bilan birgalikda haqiqiy yetuk mutaxassisni tarbiyalashga imkoniyat yaratadi. Kasbiy metodik kompetensiyaga ega bo‘lgan pedagoglar dars jarayonini tashkil etishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gaynazarov G. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari kasbiy kompotentligini rivojlantirish. Pedagogika fandari bo‘yicha f.d. (PhD) diss. avtoref. Namangan 2021.

2. Raxmanov B.X. Bo'lajak o'qituvchi uchun kasbiy madaniy aloqalarni shakllantirish tizimi.:T

3. Sultansaidova, M. (2023). Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo‘naltirib o‘qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 1(1).

4. Development of Professional Competencies of Students Based on Social Cooperation. A.A.Artikbayeva. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2 (2), 354-356

5. Abzalxanovna, S. M. (2023). Jahon reytingi va bo ‘lajak tarbiyachilarni kasbga yo‘naltirib o‘qitishda metodik tayyorgarligini takomillash-tirishning nazariy asoslari. Science and innovation, 2(Special Issue 13), 758-761.

MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYANING XORIJ DAVLATLARDAGI ILG‘OR TAJRIBALARI

Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna
Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Abdujabborova Dilnura Nuriddin qizi
Maktabgacha ta’lim fakulteti 3-kurs talabasi

Maktabgacha ta‘lim va tarbiya tizimini isloh qilishni prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev-Yangi O‘zbekiston strategiyasi kitobida-inson kapitali tushunchasi bilan bog‘laydi. Ya‘ni - rivojlangan mamlakatlarda ta‘limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya‘ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e‘tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart-deb, yozadi davlatimiz rahbari.

Demak, maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishda prezidentimiz asarlari va ma‘ruzalari hamda Farmonlari va Qarorlarida belgilangan vazifalar metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Maktabgacha ta‘lim va tarbiya tizimida xorijiy davlatlarning ilg_or tajribalarini o‘rganish yuzasidan alohida adabiyotlar, tadqiqot ishlari juda kam, bu boradagi manbalarning faqatgina elektron resurslari mavjud bo‘lib, ularni ham internetning turli veb saytlaridan topib, tarjima qilib o‘rganish mumkin.

Masalan, bu mavzuda B.E.Parmonov, I.G‘.Mamajonov, R.Mamatovlar, M.X.Qilichovaar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat ta‘lim standartlariga ko‘ra maktabgacha ta‘lim maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma‘naviy me‘yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayonhisoblanadi.

Angliya, Shotlandiya va Uelsda majburiy ta‘lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada esa 4 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun ham majburiy ta‘limda o‘qitishni boshlash muddati

Yevropada eng erta deb hisoblanadi.

Maktabgacha tayyorlov guruhlari				
O‘zbekiston	Angliya, Shotlandiya,Uels	Shimoliy Irlandiyada	Italiya	Singapur
6-7 yosh	5-6 yosh	4-6 yosh	3-6 yosh	3-6 yosh

Singapurda ham maktabgacha ta‘lim ta‘limning boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanadi. Bog‘chaga bolalar 3 yoshdan qabul qilinadi. Ikki-uch yil davomida ularga ona tili va ingliz tili, o‘qish, sanash, kuylash, rasm chizish, raqs tushish kabilaro‘rgatiladi. Singapurda davlatga qarashli bog‘chalar yo‘q. Maktabgacha ta‘lim muassasalarining barchasi xususiy bo‘lib, ayrimlarigina diniy tashkilot yoki jamg‘armalar tomonidan boshqariladi.

Uzluksiz ta‘lim tizimida xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganar ekanmiz, har bir davlat o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlariga ega ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bu xosliklar qaysidir jihatdan o‘sha mamlakatlarning rivojlanishiga, taraqqiy etishiga ham xizmat qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga hattoki tarixning ham o‘zi guvohdir. Masalan, yaponlardagi bolalar bog‘chalarida ta‘lim dasturlari ham inobatga olingan, yozish va o‘qishdan tashqari bolalarga qo‘shiq aytish o‘rgatiladi, sport musobaqalari o‘tkazilib, muntazam sayrlarga chiqib turiladi. Ammo bular bilan bir qatorda bu tadbirlarni o‘tkazilishidan maqsad - bolada xamjihatlik, jamoada yashash hislarini rivojlantirishdan iborat.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Gluzman N.A. Essence and structure of social pedagogue professional-ethical competence. Журнал современные проблемы науки и оброзования 2020 г.

2.Marhabo Xudoyqulovna Qilichova Academic Research in Educational Sciences Maktabgacha ta’limning xorij tajribalari Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2021 y.

3.Sultansaidova, M. (2023). Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo ‘naltirib o ‘qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 1(1).

4.Development of Professional Competencies of Students Based on Social Cooperation. A.A.Artikbayeva. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2 (2), 354-356

5.Abzalxanovna, S. M. (2023). JAHON REYTINGI VA BO ‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBGA YO ‘NALTIRIB O ‘QITISHDA METODIK

TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASH-TIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Science and innovation, 2(Special Issue 13), 758-761.

HARAKATLI O‘YINLARNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH METODIKASI

Xalilova Dilnoza Furqatovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Harakatli o‘yinlarning kelib chiqishi qadim xalq pedagogikasiga borib taqaladi. Ilk yoshli bolalar oilalarda bolaning dastlabki harakati bilan bog’liq ovunmachoqlar ermak o‘yinlar, yordamida tarbiyalanganlar. Undan kattaroq yoshdagi bolalar hayotida rang barang harakat mazmuniga ega bo‘lgan.xalq o‘yinlari katta o‘rin olgan. Bularning hammasi hozirga qadar badiiy jozibadorligini, tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda va qimmatli o‘yin folklorini tashkil etadi.

Harakatli o‘yinlarni tanlab olishda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi hamda jismoniy mashqlarni mos ravishda belgilay olishi kerak. Bola 7 yoshga yetib maktabga qadam qo‘yganda uning tayyorgarligi darajasini hisobga olish zarur. Masalan: sakrash harakatlari oid o‘yinlarni o‘tkazishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarining harakat ko‘nikmasi va malakasini rivojlantirishda gap harakat texnikasini chuqurroq o‘rgatishda emas, balki mashqni to‘g‘ri bajarishdadir. Masalan, bolalar uzunlikka yugurib kelib sakrashga o‘rgatiladigan bo‘lsa, avval ularni sakrash oldidan birdaniga to‘xtab qolmaslikka, yugurishni sekinlashtirmaslikka, sakrashdan oldin bir oyoqda depsinib, ikkala oyoq bilan yumshoq tushishga o‘rgatish lozim. Faqat shundan so‘ng sakrash o‘yinlariga o‘tilsa bo‘ladi, chunki bu kabi o‘yinlar tufayli bolalarda sakrash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish mumkin, bundan tashqari, shu kabi harakatli o‘yinlar chaqqonlik, jasurlik kabi jismoniy xususiyatlarni ham rivojlantiradi.

Harakatli o‘yinlarni tanlab olishda, eng avvalo, tarbiyachi bola yoshiga oid o‘yinlarning jismoniy va psixologik ta’siri jihatlarini bilishi kerak.Yana shuni unutmaslik kerakki, o‘yin vazifasi qo‘yilganda faqat harakatlarga mos bo‘lishi shart emas, balki harakatli o‘yinlar yordamida bolalar ruhiyatida bir-biriga yordamlashish, qo‘llab-quvvatlash hislatlarini tarbiyalash lozim. Maktabga tayyorlov guruhlari maktabgacha yoshidagi bolalarga harakatli o‘yinlarni tanlab olishda ularning qiziqishini hisobga olish zarur.

Bu yoshdagi bolalarni o‘yinlardagi bo‘ri, qo‘zi, sichqon, mushuk qiyofasi, surati, nimalar qilishi emas, ularning hatti-harakati (mushukning chaqqonlik bilan sichqonni sakrab ushlab olishi) qiziqtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalari bilan turli estafetalarni uyushgan holatda o‘tkazish oson tuyuladi, lekin bolalar o‘yinlarini kuzatish natijasi shularni ko‘rsatadiki, o‘yinlar bolalar

uchun hech qanday tushuncha bermaydi, oqibatda ular bolalarda tartibchanlikning buzilishiga, sabrsizlik, betoqatlik, xunob bo‘lishlik, bir-birini turtish asabiylikka olib kelishi mumkin. O‘yinda yutqazgan hamda g’olib chiqqan guruh bolalarini o‘yin tugagandan keyin tinchlantirish juda murakkab kechadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismonan tarbiyalashda ularga sezgirlik, tez yugurish, chaqqonlik bilan predmetlarni uzatish, olib berish, guruh oldida ma’suliyat hissini shakllantirish, bir hatti harakatni aniq baholay olishga, boshqalarning harakatini ham yaxshi tushuna olishga o‘rgatib borish lozim.

Estafetalarda bolalarni 4-5 guruhlarga ajratib olish zarur. Bu guruhlar ketma-ket holatda turmay, bir- birini yaxshi ko‘rib turishi uchun o‘tirib olishi ham mumkin, chunki navbati bilan startda chiqish tartibini saqlab turadilar. Bunday o‘yinlarda bolalar bir birini kuzatadi, har bir guruhdan bitta ishtirokchi tezlikda, chaqqonlikda, aniq nishonga otishda mahoratini ko‘rsatadi. G’olib chiqqan o‘yinchi o‘z jamoasiga ball oladi. O‘yin tugagandan so‘ng to‘plangan ballar hisoblab ko‘riladi. Eng ko‘p ball to‘plagan jamoa g’olib deb topiladi. Qolgan jamoalar ham bolalar shijoatini ko‘tarish maqsadida taqdirlanadilar.

O‘yinni tashkil etishda barcha shart sharoitlar to‘g’ri hisobga olinsa, uning tarbiyaviy ahamiyati oshib boradi. Buning uchun o‘yin paytida bo‘ladigan chiziqlar, chegaralar masofalari, kerakli o‘yin predmetlari: koptok, bayroqcha kabilar taqsimlab berilishi lozim, keyinchalik esa bolalarni o‘z–o‘ziga xizmat qilishga odatlantirish kerak. Ko‘pincha tarbiyachi bu tashkiliy ishlarni bolalardan biri yoki ikkisiga navbatchi sifatida topshiriq berib o‘rgatadi, shunda har safar navbatchi almashtirib turiladi. Tarbiyachi o‘yin o‘tkazishdan oldin uni qanday tushuntirishni o‘ylab ko‘rishi kerak. Tushuntirish juda qisqa, aniq lo‘nda bo‘lishi lozim, Undan keyin o‘yinchilarga kim qaysi yerda turishini aytib o‘tish kerak.

O‘yin o‘tkazilayotgan vaqtda tarbiyachi faqatgina kuzatuvchi bo‘lib qolmasligi kerak. O‘yinni shunday o‘tkazish kerakki, bolalar undan quvonib, qanoat hosil qilib, murakkab qoidalarni o‘rganib olishlari darkor. Tarbiyachi o‘yin davomida qatnashuvchilarni kuzatib alohida bolalarga e’tibor berib, gohida rag’batlantirib gohida qoida buzganlarga tanbeh berib rahbarlik qilishi lozim.

O‘yin jarayonida bolalarni darxol to‘xtatishga ham o‘rgatish zarur. Shunday umumiy qoidaga o‘rganish lozimki, hohlagan o‘yin paytida belgi yoki xushtakka bolalar tezda to‘xtab qolsin. Shundan so‘ng tarbiyachining gapiga tushuntirishiga qatiyan rioya qilinishi kerak. Lekin o‘yinni ko‘p to‘xtatmaslik kerak, chunki o‘yinda bolalar hayajonda bo‘lishini unutmaslik lozim. Tarbiyachi o‘yinni o‘tkazish chegaralariga ham diqqat qilishi kerak. Bu ayniqsa, juda ma’suliyatli payt, chunki o‘yinning zavq bilan o‘ynalishida vaqtga ham e’tibor beriladi. Masalan: gimnastika mashqlariga qaraganda, o‘yin vaqtini belgilash murakkabroq bo‘ladi. Bolalardan “Charchab qoldingizmi?” – deb so‘rash mumkin emas, zavqlanib, qiziqib, o‘ynayotgan bolalarga bu ta’sir

qilishi mumkin. Shu bois tarbiyachi bolalarning charchaganligiga tashqi ko‘rinishiga, xulqiga e’tibor berishi va o‘z vaqtida o‘yinni to‘xtashish lozim. O‘yin har hil tugallanishi mumkin. 6-7 yoshli bolalarni o‘yinning o‘zigina emas, balki natijasi ham qiziqtiradi. Shu bois har bir o‘tkazilgan o‘yindan keyin uning natijasini tahlil qilish muhim. O‘yinda qaysi bir bola chaqqonlik, epchilik mahoratini ko‘rsatgani, do‘stona qo‘llab o‘ynagani, qoidaga rioya qilmaganligi to‘g’risida aytib o‘tish lozim. Har bir o‘yin natijasini tarbiyachi o‘ziga xos ravishda tushuntirishi, bolalar uchun chiroyli tahlil qilib berishi kerak.

Harakatli o‘yinlar jarayonida bolalar ahloqiy, irodaviy sifatlar tarbiyalanadi, shuning uchun o‘yin bola shaxsini shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlar Arken fikricha, organizmni harakat apparatini rivojlantirish va takomillashtirish bilan mustahkamlashga yordam beradi. O‘yinlar bolalarni intizomga, diqqatni bir yerga to‘play olishga va harakatlarni rejalashtira olishga o‘rgatadi.

Shunday qilib, harakatli o‘yinlarda mujassamlashgan emotsional sog’lomlashtirish, bilish va tarbiyaviy komponentilarning butun kompliksidan foydalanish bolalarni har tamonlama tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanova Shaxnoza To‘xtasinovna. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyat o‘rgatish. Darslik. “Metodist nashriyoti”, 2023.

2. Kamoldinov M, Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. – T.: ―Talqin 2010. - 128- bet.

3. K.Rahimqulov. Milliy harakatli o‘yinlar. O‘quv qo‘llanma. Tafakkur-bo‘stoni» toshkent - 2012

4. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ecological Culture Development of Independent Learning, Creativity, Integrative Technology and Logical Thinking. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2524-2529.

5. X.D.Furqatovna. Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali, 2022/4/15.

СОЦИАЛЬНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА В УПРАВЛЕНИИ КАЧЕСТВОМ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Халилова Дилноза Фуркатовна,

преподаватель кафедры Технология дошкольного образования Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

В последнее время педагоги и родители всё чаще с тревогой отмечают, что многие дошкольники испытывают серьёзные трудности в общении со сверстниками и взрослыми, проблемы с социализацией. Это, как правило, выражается в неумении находить подход к партнёру по общению, поддерживать и развивать установленный контакт, согласовывать свои действия в процессе любой деятельности, адекватно реагировать и выражать свою симпатию к конкретному ребёнку. Отмечаются сложности в умении сопереживать в печали и радоваться успеху другого человека.

Дети не умеют договариваться, часто ссорятся, конфликтуют, не пытаются услышать друг друга, агрессивны. Возникающие конфликтные ситуации не только препятствуют нормальному общению детей, мешают образовательному процессу в целом, влияют на безопасность детей и их здоровье.

Рассмотрим термины. «Компетентность — это уровень обученности социальным и индивидуальным формам активности, которая позволяет индивиду в рамках своих способностей и статуса успешно функционировать в обществе [4].

Социальная компетентность – означает способность соотносить свои устремления с интересами других людей и социальных групп, продуктивно взаимодействовать с членами группы, решающей общую задачу, и позволяет использовать ресурсы других людей и социальных институтов для решения задач.

Социальная компетентность отражает степень конструктивности человека как субъекта социального взаимодействия и занимает особое место в ряду различных видов компетентности исследуемых в современной педагогике; определяется как способность индивида эффективно взаимодействовать с окружающей средой и заключается в адекватности и эффективности решения многообразных проблемных ситуаций, с которыми сталкивается человек в социуме, включает социальные способности, представления и достижения, лежит в основе социальной адаптации [5].

Педагог должен располагать не только профессионально-образовательными компетенциями, обеспечивающими передачу содержания дошкольного образования, но еще и компетенциями, обеспечивающими передачу содержания социализациии.

Важнейшим вектором развития современного образования является компетентностный подход, который представляет собой направленность образовательной

деятельности не только на процесс, но и на ее качественный результат. В отношении педагогов дошкольных образовательных организаций (ДОО) это связано с формированием социальных и профессиональных компетенций, которые представляют собой готовность к переменам, мобильность, способность к нестандартным трудовым действиям, ответственность и самостоятельность в принятии решений. Все это приобретает особую актуальность в связи с обновлением требований к содержанию деятельности ДОО, качеству предоставления образовательных услуг, появлением нормативных требований к уровню социальной и профессиональной компетенции будущих воспитателей ДОО [1].

В рамках ДОО педагогические условия повышения социальной компетенции педагогов могут быть реализованы в рамках методической работы, которая является одним из системных аспектов непрерывного образования педагогов. Методическая работа представляет собой целостную системную деятельность учреждения, направленную на развитие социальной компетенции педагогов, а именно будущих воспитателей ДОО.

Динамичность происходящих перемен, новые стратегические ориентиры в развитии экономики, политики, социокультурной сферы объективно выдвинули проблему качественной подготовки профессионально-педагогических кадров в число приоритетных. Обновлению и изменению целей и задач образования, становлению новых образовательных структур, нового содержания образования нужны новые технологии обучения педагогов, подготовленных к профессиональной деятельности, способных к педагогическому самоопределению, самоорганизации и самоуправлению. Важная роль в выполнении этой задачи принадлежит именно системе профессионально-педагогического образования, поскольку педагогические кадры, в первую очередь, будут выполнять миссию перевода системы профессионального образования на качественно новый уровень [3].

Сущность понятия «компетентность». В современных условиях повышенного внимания общества и государства к результативности и конкурентности образования на постсоветском пространстве проблема формирования профессиональной компетентности будущих специалистов приобретает приоритетное значение.

Анализ научной литературы показал, что социальная компетентность состоит из совокупности знаний о социуме и о специфике развития общественно-социальных взаимоотношений в нём, из практических умений применять эти знания в образовательных процессах, а также развивать у детей дошкольного возраста способности социально активной личности. Следовательно, социально активная личность будущего воспитателя — это творческая, профессионально определившаяся мобильная, открытая к инновациям личность [2].

Таким образом, профессиональная готовность будущего воспитателя к формированию социальной компетентности детей дошкольного возраста, под которой понимается интегральное новообразование личности педагога, характеризуется совокупностью теоретических, лингвистических и методических знаний по коммуникативному развитию дошкольников, сформированностью коммуникативными умениями и навыками общения с детьми дошкольного возраста, а также высоким уровнем эффективной профессиональной деятельности.

Список литературы:

1. Зимняя И.А. Ключевые копетенции — новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. — 2003, №5.
2. Мосягина Г.П. Формирование социальной компетенции будущих педагогов (на примере педагогического колледжа): автореф. дис. канд. пед. наук. 13.00.08 – теория и методика профессионального образования. –Астрахань, 2008. – 27 с.
3. Халилова Д.Ф Эффективность совершенствования технологий развития социальной компетентности будущих воспитателей // Лучшие интеллектуальные исследования (журнал), 2023/9/12.
4. Khalilova D. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. - Science and innovation, 2023.
5. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.
6. Xalilova D.F Maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy jihatlar. "XXI asr ilm-fani va ta'lim sohasida ayollar: yutuqlar va muammolar" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2023/2/8. —351-353 b.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISHGA ZAMONAVIY YONDOSHUV

Kamalova Gavhar

TDPU Maktabgacha ta'lim texnologiyasi kafedrasi o'qituvchisi

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining dolzarb masalaridan biri ta'limning barcha bo'g'inlarida bo'lgani kabi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy yondashuv

asosida ta'lim jarayonini tashkil etishdan iboratdir. Davr ta'lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan eski ish uslublaridan voz kechib milliy qadriyatlarimiz asosida mustaqillik mafkurasiga tayanib pedagogik va psixologik uslublarni an'anaviy ish shakllaridan noan'anaviy yondashuvga o‘tishni talab etadi. Innovatsion texnologiyalar asosan pedagogik o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Bolalarni mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishda, bilim va tushunchalarni puxta o‘rganib olishlarida, idroki va xotirasini mustahkamlashda yangi pedagogik texnologiyalar tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarga qulay sharoit yaratadi.

Bu jarayonga yangicha tafakkur, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishlari rivojlanadi va rag‘batlantiriladi. Bolalarda qiziquvchanlik kuchli, ammo ular uzoq muddat diqqatini bir narsaga jalb qila olmaydi, tezda zerikadi. Shu bois ta'lim-tarbiyaviy mashg‘ulotlar, tadbirlar o‘yin ko‘rinishida, bolalarni ochiqchasiga majburlashni istisno qiladigan shakllarda 20-25 daqiqa davomiylikda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq.

Hozirgi zamonda ta’lim tizimining barcha turlarida bola shaxsi ta’lim jarayonining ob’yektivligidan o‘zining tarbiyalanishi va bilimlarini o‘zlashtirishi jarayonida bevosita faoliyat yuritishi lozim bo‘lgan subyekt darajasiga ko‘tarilmoqda. Endi tarbiyachi emas, balki bolalar belgilangan maqsad sari intiladilar, birgalikda faoliyat yuritadilar. Ta’lim jarayoni bugun bola shaxsini tarbiyalashga, o‘qitishga emas, balki uni o‘z-o‘zini tarbiyalashga, bilimlarni o‘zi mehnat qilib o‘zlashtirishga qaratilgan. Bugungi pedagogikada insonni ma’naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalash yetakchilik qilmoqda. Chunki ma’naviy kamolotga erishgan inson, ta’limni o‘zi qidiradi, izlanadi va o‘z ustida mehnat qiladi.

Tarbiyashunoslik tajribasida shunday haqiqat mavjud: bola eshitsa – unutadi, ko‘rsa-eslab qoladi, bevosita ishtirok etsa – o‘zlashtiradi. Shuning uchun ta’lim tashkilotlarida bola o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan insoniy sifatlarni, hayotiy haqiqatlar va bilimlarni uning oldiga muammoli masalalar, o‘ylashga majbur qiladigan savol-topshiriqlar, o‘zi his qilishiga, sinab ko‘rishiga yo‘naltiradigan vazifalar tarzida berish lozim. Uning o‘z-o‘zini tarbiyalashiga, bilimlarni o‘zi mehnat qilib o‘zlashtirishga imkoniyat yaratish kerak. Bunday vaziyatlarga bola qo‘shimcha adabiyotlarga, hayotiy tajribasiga, bilganlariga qayta-qayta murojaat qiladi, izlanadi, o‘rtog‘larini eshitadi, o‘z qarashlari bo‘ladi, xulosalar chiqaradi. Shu tariqa bola o‘zi bilmagan holda o‘z ma’naviyatini shakllantirish yo‘lida ishtirok etadi, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida bevosita mehnat qiladi. Fikr aytish bilan unda o‘z qarashi, o‘z munosabati, o‘z nuqtai nazari shakllanadi [6].

Bolada kashf etish lazzatini tuydirish.

Ma’lumki, yangilik yaratish huzurbaxsh jarayon. Avvalo, inson o‘z yaxshi ko‘rgan ishi bilan shug‘ullanayotganida lazzatlanadi, lazzatlangani sari ishlayveradi, ishlagani sari huzur

qiladi. Boshlagan ishi yakunlanganda, ya’ni kayfiyat dunyoga kelganda yanada yayrab ketadi. O‘z ixtirosi tufayli rag‘batlarga sazovor bo‘lganda yana lazzatlanadi. Ularning hayotga, amaliyotga jalb etilganini ko‘rganda yanada huzurlanadi. Tuyilgan lazzatlar uni o‘z-o‘zini tarbiyalash yo‘lida olg‘a yetaklaydi. Bu tuyg‘u uni hayotiy yoki ilmiy haqiqatlar mohiyatiga chuqurroq kirishiga, yangi-yangi kashfiyotlar qilishiga undaydi. Tarbiyachi bolalar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlarni ular uchun qiziqarli masalaga, jumboqqa aylantirishi kerak. Shunda bolalar tomonidan ilmiy va hayotiy kashfiyotlar qilinadi. Kashfiyotlarning lazzatlari ularni ixtirolarga undaydi.

Bola shaxsni yo‘naltirilgan ta`limni tashkil etish.

Amaliyotda hamisha ta’lim berish o‘quv dasturining bajarilishi yetakchilik qilgan. O‘qitishning turli metodlaridan foydalanishdan maqsad ham ta’lim samarasini oshirish bo‘lgan pedagogikada ta’lim yetakchilik qilgani holda tarbiya doimo unga tobe bo‘lgan. Istiqlol davri tarbiyashunosligi amaliyoti uchun o‘z sohasini yaxshi biladigan, xonadagi har bir bolani har xil yo‘l, usul va vositalar ko‘magida mehnat qildirib bilim olishga, o‘zini-o‘zi tarbiyalashga yo‘naltira oladigan, bilimlarni bolaning xotirasiga emas, ruhiyatiga singdirishni biladigan tarbiyachi zarur. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishda interaktiv strategiyalardan o‘rinli foydalanish zarur.

Interaktiv strategiyalarning ikkita muhim maqsadi bor:

1. Ta'lim olishda bolaning faol o‘rni.

2. Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot o‘rnatishi.

Interaktiv strategiyalarga quyidagilar kiradi:

- turli mashg‘ulotlarni uyushtirganda bolalarni kichik guruhlarga bo‘lish (muhitni bolalar kichik guruhlarda birga ishlay oladigan qilib moslash);

- bolalar o‘rtasida hamkorlikni talab qiladigan mashg‘ulotlardan foydalanish (biror narsani qurish);

- doira shaklida o‘tirib faktlar, hodisalar bilan bo‘lishish;

- biror masalada fikrlar bilan almashishlaridan oldin vaqt va imkoniyat berish;

- bir-biridan o‘rganish (vazifani bajarayotganda bolalar bir-birlariga yordam berishlariga yo‘l qo‘yib berish);

- muammoli vaziyatlarga birgalikda yechim izlash;

- bolalar bilan mavzuga doir loyihalar ishlab chiqish.

Ta'lim jarayoni shaxsiy insonparvar yondoshuv asosida tashkil etilsa bola faolligi yanada oshadi. Insonparvar g‘oyalarga asoslangan ta'lim birinchi navbatda bolalarning ma'naviy tuyg‘ularining uyg‘onish faolligiga e'tibor qaratadi. Shaxsiy insonparvar yondoshuv, bu pedagogik texnologiyaning shaxsga yo‘naltiruvchi kommunikativ asosi hisoblanadi [5]. U quyidagilarni o‘z ichiga jamlaydi:

- ta'lim maqsadiga qarash kabi, bola shaxsiga yangicha qarash;

- pedagogik munosabatlarning insonparvarligi va demokratikligi;

- natija bermayotgan majburiy uslubdan voz kechish.

Bola shaxsiga yangicha qarash pozitsiyalari quyidagilar:

- shaxs sifatida shakllanish erta yoshdan boshlanadi, maktabgacha ta`limdan bolani shaxs sifatida yetishtirish lozim.
- pedagogik jarayonda bola shaxsi ob'yekt emas, subyekt sifatida e'tirof etiladi.
- shaxs – ta'lim tizimining maqsadi.
- har bir bolada o‘ziga xos qobiliyat mavjud, ko‘p bolalar iqtidorli bo‘lishadi.

Bolalar shaxsiga **yo‘naltirilgan yondashuv** quyidagilarni umumlashtiradi: pedagogik muhabbat; bolaga kelajakka ishonch bilan qarash ruhini shakllantirish; hamkorlik, mahoratli muloqot; ijobiy omillarning ustuvorligi; bola kamchiliklarga bardoshlilik.

Munosabatlar demokratizatsiyasi: tarbiyachi va tarbiyalanuvchi huquqida tenglik darajasi; xato qilish huquqi; bolalar huquqi Konvensiyasiga rioya qilish; tarbiyachi va tarbiyalanuvchi munosabatlari usuli.

Erkin ta’lim tavsifi: ishonchga asoslangan erkin talabchanlik; mashg‘ulotning mazmunli o‘tilishi natijasida vujudga kelgan qiziqish; bolalar iqtidoriga ishonch bildirish.

Individual yondoshuvning yangicha shakli: shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash; bola shaxsiga pedagogik-psixologik tashxis qo‘llash; o‘quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs xususiyatlarining hisobotini olib borish; shaxs rivojlanishining tahlili; mustaqil rivojlanish dasturini shakllantirish, uning korreksiyasi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda pedagogik jarayon bola shaxsida belgilangan sifatlarning shakllanishiga qaratiladi.

Pedagogik jarayon – bu belgilangan maqsadga erishish hamda bola shaxsining xususiyat va sifatlarini ijobiy tomonga o‘zgartirishga qaratilgan tarbiyasi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi aniq bir muddat va ma’lum tarbiyaviy tizimda maxsus tashkil etilgan o‘zaro munosabatdir. **Jarayon** (lotincha protsessis – oldinga intilish) holat davomiyligi, insonning rivojlanishi, biror bir natijaga erishishi yo‘lidan davom etayotgan harakatlar jamlanmasi.

Agar tarbiya jarayoni tushunchasi maqsadga yo‘naltirilgan, shaxsga ma’lum sifatlarni shakllantirish ta’sirini amalga oshirishga qaratilgan harakat bo‘lsa, pedagogik jarayon tushunchasi oldindan tashkil etilgan tarbiyaning o‘zaro ta’sir tizimini bildiradi.

Pedagogik jarayonni shakllantirish va tashkillashtirishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- tarbiyaga yaxlit yondoshish prinsipi;
- uzluksiz tarbiya prinsipi;

- tarbiyani maqsadga yo‘naltirish prinsipi;
- pedagog va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati prinsipi;
- tabiiy muvofiqlik prinsipi;
- madaniy muvofiqlik prinsipi;
- faoliyat va jamoadagi tarbiya prinsipi;
- ta’lim va tarbiyada davomiylik, batartiblilik prinsipi;
- pedagogik jarayonda o‘z-o‘zini boshqaruv prinsipi kabilar.

Tarbiyachi bolalardagi o‘ziga xoslikni bilishi va shu asosda faoliyatni tashkil etishi bola shaxsida bor bo‘lgan imkoniyatlarning ro‘yobga chiqishiga sabab bo‘ladi. Tarbiyachi mahorati bu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish orqali bola faolligini oshirishga qaratiladi. Agar bolalar o‘quv-biluv faoliyatiga qiziqsalar bu ta’lim samaradorligini va bolalarning intellektual rivojlanish darajasini ta’minlaydi, bilimga qiziqish va ehtiyojini shakllantiradi. Ayniqsa keyingi hayot yo‘lini tanlashda bu qiziqishlar asos vazifasini o‘tashi mumkin.

Maktabgacha ta’lim bu tug‘ilgandan to yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarga har tomonlama ta’lim-tarbiya berish va bog‘cha sharoitida ta’lim-tarbiya ishi mazmunini tashkil etadi.

Xulosa shuki, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning quyidagi psixologik, pedagogik xususiyatlari mavjud:

- bolalarda interaktiv mashg‘ulotlar jarayonida kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ularning ba’zi birlari boshqalar bilan tez muloqotga kirishuvchan bo‘lib, jamoaga darrov kirishib ketsa, yana birlari buning aksi bo‘ladi. Yana biri serharakat bo‘lsa-da, fikrini bir nuqtaga jamlay olmaydi. Ma’lum muddat o‘tib mashg‘ulotlar jarayonida bu kabi xususiyatlar bartaraf etib boriladi;
- tarbiyachiga bolalarni qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib, ularning ijobiy tomonlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish va ularga kerakli yo‘nalishda tarbiya berishga imkon yaratadi;
- jamoaviy o‘yinlar davomida ayrim tarbiyalanuvchilar bir-birlaridagi ijobiy tabiiy xususiyatlarni o‘zlashtiradilar. Jamoaviylik, birdamlik kabi ‘sixologik xususiyatlar shakllantiriladi;
- tarbiyalanuvchilar berilayotgan ta’limiy axborotni harakatlar asosida o‘zlashtiradilar. Bunda axborotni xotiraga saqlabgina qolmay, amaliy jarayonda ham qo‘llaydilar;
- tarbiyalanuvchilar o‘zlariga berilgan vazifa orqali jamiyatdagi ayrim voqelikni o‘z harakatlarida namoyon qiladilar;
- odatdagi tartibda, ya’ni so‘zlab yoki o‘qib berish jarayonida tarbiyalanuvchining faqat eshitish organigina harakatda bo‘ladi, interaktiv metodlarda esa bu vazifani tananing barcha a’zolari bajaradi (nerv sistemasi, tayanch harakat a’zolari, ko‘rish organlari);

- tarbiya jarayonida kuzatishlar natijasiga ko‘ra, taxminiy o‘zlashtirishlar nisbati bolalarni bevosita ishtirokida harakatlar orqali amalda qo‘llash 90 foizga, harakat orqali amalda qo‘llash 75 foizga, munozara-bahsda 50 foizga, namoyish etishda 30 foizga, ko‘rgazmali va audiomateriallarda 20 foizga, o‘qib berishda 10 foizda, so‘zlab berishda 5 foizga samara beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Ta’lim to‘g‘risida / O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022−2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son qarori.

4.Takomillashgan “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2022.

5.Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279 b.

MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYA – KELAJAK POYDEVORI

Ixtiyorova O’g’iloy –
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha talim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

Muydinova Maftuna Ravshan qizi
Maktabgacha ta’lim fakulteti talabasi

Biz har tomonlama rivojlangan, ma’naviy va madaniy dunyosi boy, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega, zamon talablari bilan hamnafas yashaydigan yurt va kelajak qurish yo‘lidan bormoqdamiz. Ushbu yo‘lning eng oliy maqsadi esa Vatan kelajagi bo‘lgan barkamol yoshlarni kamol toptirishni tashkil etadi. Muxtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so‘zlari fikrimiz tasdig‘idir: “Ma’naviy jihatdan yuksak rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg‘onish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.”

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy aloqalar o‘rnatdi. Bu esa xorijiy tillarni mukammal biladigan kadrlarga ehtiyojni oshirdi. Qolaversa, zamonaviy kadrlarning asosiy hususiyati bir necha xorijiy tillarni mukammal bilish, axborot texnologiyalaridan foydalana olish ko‘rinishida tobora takomillashib bormoqda.

Yoshlarda ayni shu hususiyatlarni rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda keng qamrovli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Hususan, ta’lim tashkilotlarining moddiy texnik bazasi yaxshilanishi, turli to‘garaklar va tanlovlarning tashkil etilishi shular jumlasidandir. Maktabgacha ta’lim, bolalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu ta’lim bolalarning ijtimoiy, jismoniy va aqliy rivojlanishlarini ta’minlash bilan bir qatorda, ularni maktab va keyingi hayotga tayyorlaydi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining ilk boshlanishi Sovet Ittifoqi davriga to’g’ri keladi va bu davrda ko‘plab maktabgacha ta’lim muassasalari tashkil etildi. Mustaqillikdan keyin, mamlakat maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga intildi, ta’lim dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirish va sifatini oshirish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda, O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimi davlat va xususiy bog‘chalarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim dasturlari bolalarning yosh xususiyatlariga va rivojlanish ehtiyojlariga moslashgan holda tuziladi. Bolalar o‘yin orqali o‘rganish prinsipi asosida ta’lim olishadi, bu esa ularning ijodiy va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Kelajakda maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston hukumati ta’lim sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani yangilash va pedagog kadrlarni tayyorlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Xususiy sektorning maktabgacha ta’lim sohasidagi ishtiroki ham rag‘batlantirilmoqda, bu esa ta’lim xizmatlarining ko‘lamini kengaytirish va sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalarning maktabgacha ta’lim tizimiga integratsiyasi, bolalarning o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Interaktiv o'quv vositalari, elektron o'quv resurslari va ta’lim dasturlari bolalarning tafakkur qobiliyatini rivojlantirishda, shuningdek, ularning ijodiy va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yangiliklar orqali bolalar o'zlarining qiziqishlariga ko'ra o'rganishadi va yangi bilimlarni osonroq o'zlashtirishadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining fizik sharoiti va atrof-muhitining yaxshilanishi bolalarning sog'lom rivojlanishi uchun zarurdir. Yaxshi jihozlangan o'yin maydonchalari, keng va yorug' sinflar, tabiiy elementlar bilan boyitilgan muhit bolalarning jismoniy va psixologik salomatligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, atrof-muhitning xavfsiz va qulay bo'lishi bolalarning o'rganish faoliyatini rag'batlantiradi va ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Ota-onalar va jamoatchilikning maktabgacha ta’lim jarayonidagi ishtiroki bolalarning tarbiyasi va ta’limiy yutuqlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ota-onalarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilish, masalan, ota-onalar uchun o'quv seminarlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, bolalarning ta’limiy muhitini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, bu ishtirok jamoatchilikning ta’lim tashkilotlariga bo'lgan ishonchini oshiradi va bolalar uchun yanada qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida ko’plab hamkorliklar tashkil etilmoqda. Bunday hamkorliklar ta’lim yizimimizga ijobiy ta’sirlarini o’tkazmoqda. Xalqaro hamkorlik orqali O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochiladi. Xalqaro tajribalar va bilim almashinuvi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik loyihalari O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Xususan, xalqaro standartlar va yaxshi amaliyotlarni joriy etish, ta’lim metodlarini takomillashtirish va ta’lim tashkilotlarinining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish yo'li bilan maktabgacha ta’lim tizimini yaxshilash mumkin.

Maktabgacha ta’lim tizimi O‘zbekistonda bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Tizimning takomillashtirilishi bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va unga investitsiya kiritish davlat va jamiyatning ustuvor vazifalari qatorida turishi kerak. Ushbu tizimning rivojlanishi nafaqat bolalarning shaxsiy kamolotida, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim sifatini oshirish orqali bolalar maktabga qadam qo‘yishdan oldin zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lishadi. Bu esa ularning keyingi ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etishlarini ta’minlaydi va umumiy o‘qish ko‘nikmalarini yaxshilaydi.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston hukumati ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, o‘qituvchi va tarbiyachilarning malakasini oshirish, ota-onalar va jamoatchilikning ta’lim jarayoniga faol ishtirokini ta’minlash kabi bir qator choralar ko‘rmoqda. Shuningdek, innovatsion ta’lim metodlari va texnologiyalardan foydalanish, maktabgacha ta’lim tizimida inkluziv ta’limni rivojlantirish ham diqqat markazida turibdi.

Nihoyat, maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishi, bu sohada xalqaro standartlar va yaxshi amaliyotlarni joriy etish orqali, O‘zbekistonning kelajak avlodini jahon miqyosida raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatning umumiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. 2019 yil 11 iyundagi 487-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg’or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori
2. 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori,
3. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo’latova, N.M.Qayumova, M.N.A’zamova Maktabgacha padagogika Toshkent 2019

4. Shaxsga yonaltirilgan metodik xizmat U.Asronova, M.Pardayeva, I.Mannapova 2-qism Toshkent 2015

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA XALQARO TAJRIBA

M.R.Muydinova

Oriental universiteti magistranti

Bugungi kunda xalqaro munosabatlarning rivojlanish jarayoni shuni yaqqol ko‘rsatadiki, hamkorlikning asosiy shakli sifatida sheriklikni o‘rnatish hamda malaka oshirish tizimlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish juda dolzarb vazifaga aylanmoqda. Dunyoning barcha mamlakatlarining o‘zaro aloqasi va o‘zaro bog‘liqligi kengayib va chuqurlashib borayotgan bir sharoitda, O‘zbekistondagi pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini rivojlanishini jahon ta’lim makonini rivojlantirish jarayonlaridan ajralgan holda o‘rganib bo‘lmaydi. Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda BMT, YuNESKO, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) muvofiqlashtiruvida professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish sohasida qiyosiy pedagogika bo‘yicha aniq maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda [10].

Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda uzluksiz malaka oshirish ta’lim tashkiloti faoliyatini takomillashtirishning asosiy sharti hisoblanadi va shuning uchun rahbarning vazifasi shu rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashdir. Ammo o‘qituvchining kasbiy mahorati nimani anglatishini tushunish turli mamlakatlarda bir-biridan sezilarli darajada farq qilar ekan, uni ta’minlash usullari ham farq qiladi [10].

Malaka oshirish Yevropaning deyarli barcha mamlakatlari va mintaqalarida o‘qituvchilarning majburiyati deb hisoblanadi. Biroq, hamma joyda ham ushbu mas’uliyatni belgilaydigan me’yoriy-huquqiy baza mavjud emas. Masalan, Fransiya, Islandiya, Gollandiya va Shvesiyada kasbiy malaka oshirish o‘qituvchilarning vazifasi deb e’lon qilingan, ammo amalda ular bundan bo‘yin tovlashlari mumkin. Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya va Lyuksemburgda muttasil malaka oshirish ixtiyoriydir, ammo ta’qib etilmasada, u lavozim va ish haqiga ta’sir qiladi. Lyuksemburg va Ispaniyada ma’lum bir o‘qish kursiga ro‘yxatdan o‘tgan o‘qituvchilar qo‘shimcha ish haqi oladilar. Qolgan uchta mamlakatda o‘qituvchilar turli shakllar va o‘quv dasturlari uchun kreditlar to‘plashadi va bu ularni yangi lavozimga tayinlashda hisobga olinadi. Kipr, Gresiya va Italiyada uzluksiz kasbiy rivojlanish faqat boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarining mas’uliyati hisoblanadi. [17].

Yigirmanchi asrning 60-yillarida AQShda, boshqa mamlakatlarga qaraganda avvalroq, ijtimoiy va texnik taraqqiyot, avvalo, odamlarning o‘ziga - ularning qanday o‘qitilgani va tarbiyalanganiga - boshqacha qilib aytganda, maktabning qanday ishlashiga va o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liqligini angladilar [43]. Yigirmanchi asrning 60-yillaridan boshlab ushbu

mamlakatda amalga oshirilgan uzluksiz maktab islohotlari shundan dalolat beradi. Yigirmanchi asrning 80-yillarida o‘qituvchilar malakasini oshirish sohasidagi amerikalik mutaxassislar mohir o‘qituvchi nafaqat pedagogik texnologiyalarni puxta bilishi, balki shaxsiy, axloqiy, intellektual, ijtimoiy ahamiyatga ega yuqori fazilatlarga ega bo‘lishi kerak degan tushunchaga kelishdi. Shu nuqtai nazardan, Amerika o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi nafaqat o‘qituvchilarga qo‘shimcha ravishda zamonaviy bilimlarni berishga, balki, avvalambor, ularning bilish faoliyati, ijodiy izlanishlari va shaxsiy o‘sishini rag‘batlantirishga qaratilgan [45].

1. AQShda o‘qituvchilar malakasini oshirishning tashkiliy va uslubiy asoslari quyidagilardan iborat: universitetlarda, kollejlarda, maktablarda ishda va uzluksiz qisqa va uzoq muddatli kurslar; o‘qituvchilarni attestatsiyadan o‘tkazishda samarali foydalaniladigan kasbiy-pedagogik ta’lim standartlarini muntazam takomillashtirish.

2. AQSh o‘qituvchilarining malakasini oshirish tizimida quyidagi shaxsga yo‘naltirilgan kasbiy ta’lim texnologiyalari eng samarali hisoblanadi: murabbiylik, nazorat, kasbiy shakllantiruvchi treninglar; modulli texnologiyalar; kasbiy hamkorlik texnologiyalari. O‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimining barcha mashg‘ulotlari video va audio yozuvlarga olinadi, ular keyingi o‘qituvchilar guruhlarini o‘qitishda qo‘llaniladi.

AQShdagi o‘qituvchi kadrlar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish jarayonlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu mamlakat siyosiy va ishbilarmon dunyosi rahbarlari, boshqa mamlakatlarga qaraganda oldinroq, uzoq muddatli iqtisodiy farovonlikning zaruriy sharti sifatida o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimi ekanligini anglab yetdilar [45].

Biroq, AQShda malaka oshirish tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishi bir tekis va oson bo‘lmagan. Bu turli xil bosqichlarni o‘z ichiga olgan o‘zgarishlarga to‘la jarayon edi. Ular orasida shartli ravishda uchta bosqichni ajratish mumkin: 40-yillardan 60-yillarga qadar, 20-asrning 60-80-yillari va 80-yillardan hozirgi kungacha. Malaka oshirish tizimini rivojlantirishning har bir bosqichi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, jamiyatning maktabga bo‘lgan talablari bilan tavsiflanadi.

Ijodiy faol o‘qituvchini tayyorlash maqsadi o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishda yangi yondashuvlarni izlashga turtki berdi. Ko‘rsatilgan muammo nuqtai nazaridan o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarini maqsadli ravishda tahlil qilish, o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida xulq-atvor va shaxsiy (biogenetik, funksional, kognitiv) kabi o‘qitishning bir-nechta asosiy yondashuvlarini aniqladi.

Muammoning tarixiy-pedagogik umumlashtirilishi zamonaviy Amerika maktabi hayotini tavsiflovchi yangiliklar va o‘qituvchilar malakasini oshirish mazmuni o‘rtasidagi o‘rganilayotgan

yondashuvlarda aks etayotgan aloqalarni qayd etish imkonini beradi. Yaqqol ko‘rinib turgan farqlariga qaramay, ularning barchasi nafaqat zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mohirona egallagan, balki yuqori shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lgan va maktab muhitini o‘zgartirishda ongli ravishda ishtirok etadigan ustoz o‘qituvchini tayyorlashga qaratilgan.

Malaka oshirish tizimida olib borilgan tadqiqotlar asosida amerikalik mutaxassislar (A.Brolli, Ch. Knopper) [43] quyidagi xulosalarga kelishdi: malaka oshirish tizimidagi asosiy bo‘g‘in o‘qituvchi; o‘qituvchini bir tomonlama alohida fani bo‘yicha tayyorlash istiqbolga ega emas; zamonaviy o‘qituvchi pedagogik va ijtimoiy-psixologik bilimlarni mukammal egallagan bo‘lishi lozim. Ushbu tavsiyalar o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini tubdan takomillashtirish uchun bir qator amaliy choralarni ko‘rish imkonini berdi. Xususan, Ta’lim vazirligining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi ishga tushirildi, bu mamlakatning barcha shtatlarini yagona tizimga bog‘ladi. Uch million o‘qituvchining har biri haqida kasbiy mahorat darajasi, qachon va qaysi kurslarni tugatganligi, qanday baho olganligi, kursdagi faoliyati, ijtimoiy holati, oilaviy daromadi, sevimli mashg‘ulotlari va boshqalardan iborat batafsil ma’lumotlar to‘planadi.

Kurslardagi dars mashg‘ulotlarida ishlatiladigan tushuntirish, namoyish qilish, modellashtirish, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni yechish keyingi bilimlarni amaliy laboratoriya sharoitida samarali qo‘llashni ta’minlaydi. Ammo, amerikalik o‘qituvchilar ta’kidlaganidek, o‘qituvchining kursdagi mashg‘ulotlarda o‘qitish texnikasining barcha turlaridan foydalanishi yetarli emas. Sinfdagi o‘quv jarayoni davomida ko‘nikmalarni uzatish bo‘yicha mutaxassis- o‘qituvchining bevosita maslahati talab qilinadi. Buning uchun mashg‘ulotning yana bir o‘qitish shakli - «kouching» (“coaching” – “murabbiylik”) deb nomlangan shakli qo‘llaniladi.

Ko‘plab o‘quv dasturlari mualliflari tomonidan «kouching» o‘qitishning eng muhim va mazmunan jadal tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralgani bois, uni batafsilroq ko‘rib chiqamiz. “Konsalting” so‘zi ushbu tushunchaga ma’no jihatidan ancha yaqin, ammo u mazkur tushunchaning barcha jihatlarini ochib bermaydi.

“Murabbiylik” ilmiy konsepsiyasi quyidagicha tavsiflanadi: “o‘qituvchining malaka oshirish kurslari davomida shakllangan ko‘nikmalarini sinfdagi o‘qitishning haqiqiy holatiga o‘tkazishda yordam beradigan o‘qituvchi va mutaxassis (“murabbiy”) o‘rtasidagi o‘zaro muloqotlar jarayoni. “Murabbiylik” o‘qituvchining darsini kuzatish va erishilgan natijalar to‘g‘risida ma’lumot berib, tezkor teskari aloqalarni amalga oshirish jarayonlari bilan tavsiflanadi.

Kurs mashg‘ulotlarining samaradorligini o‘rganib, amerikalik mutaxassislar (B.Blum, R.Brot) quyidagi faktni aniqladilar: kurslarda yangi texnologiyalarni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsada, ularni o‘z amaliyotida qo‘llaydigan o‘qituvchilarning ulushi juda past, bundan tashqari, ushbu texnologiyalardan foydalanishni asta-sekin unutish doimiy odatga aylangan. Shunday qilib,

kurslardagi mashg‘ulotlardan bir yil o‘tgach, o‘qituvchilarning atigi 5 foizi o‘rgangan barcha vositalaridan o‘zlarining amaliy darslarida faol foydalanishda davom etishgan.

2000-yillarning boshlarida Qo‘shma Shtatlarda “Bolani tashlab qo‘ymaslik to‘g‘risida”gi (No Child left Behind) qonun o‘qituvchilarni muntazam test sinovlariga jalb qilishni joriy qilganda, ko‘plab tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, o‘qituvchilarning malakasini oshirish dasturlarining mazmuni va sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ular testlarni muvaffaqiyatli topshirish uchun turli xil strategiyalarga bag‘ishlangan treninglarga aylana boshladilar va o‘qituvchining kasbiy mahoratiga deyarli ahamiyat berilmay qo‘yildi. Bundan farqli o‘laroq, ayrim tadqiqotchilar doimiy nazoratlar maktablarni malaka oshirish, ayniqsa, eng yaxshi o‘qitish amaliyotini tahlil qilgan va ommalashtirgan ta’lim muassasalariga murojaat qilishga undadi, deb hisoblaydilar. Ba’zi tadqiqotchilar malaka oshirishni xohlagan o‘qituvchilar, umuman olganda, ilgari muvaffaqiyatli o‘qituvchilar bo‘lganligini, zaif o‘qituvchilar esa malaka oshirishga umuman murojaat qilmaganliklarini ta’kidlashadi [21].

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Ленская Е.А. Спрос и предложения в системе повышения квалификации педагогических кадров. /Москва, 2015. // WWW.NAUKA.X-PDF.RU.
2. Teachers’professional development. Europe in international comparison. An analysis of teachers’ professional development based on the OECD’s Teaching and Learning International Survey (TALIS) (2010) European Union, Printed in Belgium.
3. Barber, M., Neither Rest nor Tranquillity, speech at the National Education Summit, Washington D.C., 15 September 2008 [электронный ресурс]
4. Teachers Matter. Attracting, developing and retaining effective teachers. Overview [текст] OECD publishing (2005).
5. Rivkin, S.G., Hanushek, E.A. and Kain, J.F. Teacher, schools, and academic achievement. [Текст] Econometrica, 73(2), 2005.417-458.
6. Schleicher, A. (2012), Ed., Preparing Teachers and Developing School Leaders for the 21st Century: Lessons from around the World, [Электронный ресурс] OECD Publishing. p.38.
7. Salberg P. (2011) Finnish lessons. [Текст] Teachers College. Columbia University, NY, p.87.
8. Eurydice, 2003, 2008; [Текст] European Commission, 2009.
9. Зайцева О., Фатеева А. Отчет. Анализ результатов международного исследования TALIS. [электронный ресурс] МВСШЭН, 2009.
10. Slater, Ch. Ed. (2007) Facing accountability in Education. /Teachers College Press, Columbia University. NY, p. 32.

11. Bush T., Bell L., Middlewood D. (2012) The principles of educational leadership and management. [Текст] SAGE, p.99.

12. Heystek, J. (2007) Reflecting on principals as managers or moulded leaders in a managerialist school system. [текст] South African Journal of Education 27(3) p 491.

13. Fullan M. (2001) Leading in a culture of change./San-Francisco:Jossey-Bass.

14. King M.B. and Newman F.M. (2001) Building school capacity through professional development: conceptual and empirical considerations. [Текст] International Journal of Educational Management, 15(2)p87-93

15. Hargreaves A. and Shirley D. The Fourth Way. (2009) //Corwin and SAGE p.89-91

16. Hargreaves A. and Fullan M. Professional Capital. (2012) [Текст] Teachers College, Columbia University, p.181-182

17. http://www.teachingcouncil.ie/press-releases-and-speeches/teaching-council-awards-almost-%E2%82%AC50000-to-teachers.553.html [электронный ресурс]

18. Building a high quality teaching profession.(2011) [текст] OECD

19. http://www.oecd.org/pisa/keyfindings [электронный ресурс]

20. http://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/materialy-o/2012/07/01/pervye-rezultaty-vnedreniya-fgos-noo [электронный ресурс].

21. Ковалева Г.С. PISA-2012: мы ждем перемен? http://www.akvobr.ru/pisa_2012_zhdem_peremen.html [электронный ресурс]

22. Ушаков К.М. Ресурсы управления школьной организatsieй// Библиотека “Директор школы”. - 2000. - № 4

КОГНИТИВНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГОВ И ДОШКОЛЬНИКОВ: ИНТЕГРАЦИЯ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Исманова Гульнора Гафуровна,

Методист ЭГДОО №324 при Агентстве дошкольного образования Министерства дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан
gafurovna.gulnora@gmail.com

Дошкольное образование в настоящее время пребывает в век широкого использования цифровых технологий и развития искусственного интеллекта. Это и признанный факт, и феномен современности. На международном уровне система дошкольного образования на ряду с другими отраслями развивается в соответствии с данной действительностью. Одним из приоритетных направлений развития дошкольного образования является внедрение цифровых, передовых педагогических и инновационно-информационных технологий в систему дошкольного образования.

Поток информации из разных направлений, в том числе относительно области дошкольной педагогики, психологии, а также новшеств по применению технологий, методов, приёмов, подходов, средств в педагогической деятельности с детьми дошкольного возраста, предоставляет педагогам возможности совершенствовать профессиональную квалификацию и педагогическое мастерство.

Педагогу в этом течении информации необходимо ориентироваться не только в соответствии с психологическими, физическими и физиологическими особенностями в разном периоде развития детей дошкольного возраста, а также с учетом, что получаемая ребенком разнообразная информация, индивидуально влияеет на общее его развитие. Педагог является фасилитатором обучения детей, используя свои знания, навыки и ресурсы в осуществляемой педагогической деятельности. Объект педагогической деятельности педагога–фасилитатора – это ребенок дошкольного возраста.

Когнитивные компетенции в процессе обучения, воспитания, развития присуще и педагогу-фасилитатору, и объекту дошкольного образования. Изучение вопросов когнитивных компетенций в свете современных требований и условий непосредственно связано с современными педагогическими исследованиями. На основе уже имеющихся теорий о развитии педагогических компетенций, изученных Э. Ф. Зеером, А. К. Марковой, В. А. Адольфа, И. Я. Лернер, М. Н. Скаткиным, В. А. Сластениным, отечественными представителями педагогической науки Н.Ш.Юнусовой, Н.С.Жуманиёзовой, Б.С.Абдуллаевой, П.Н.Ибрагимовой, О.Э.Азизовым, Н.Н.Джамиловой и др., целесообразно обратить внимание на современные теоретические взгляды по итогам последних педагогических исследований связанных с когнитивными компетенциями.

Когнитивные компетенции педагога базируясь на гностических знаниях, подразумевают умения и навыки их профессионального применения в педагогической деятельности, направленной в свою очередь на формирование и развитие познавательных (когнитивных) компетенций дошкольников. Последними из таких теорий рассматривающий интеллектуальное развитие, является предложенная Б. Блумом и развитая Д. Кротвелем «Теория таксономии Блума». Одной из 3-х областей теории таксономии Блума, которая решает образовательные цели, является когнитивная область.

Понятие «таксономия» относящийся к области ботаники (от греч. táxis — расположение, строй, порядок и nómos — закон) ввел О. Декан в 1813 году, разрабатывая классификацию растений на основе таксонов, то есть групп, объединяющий отдельные элементы на основе общих признаков. В педагогической области «таксономия» обозначает систему педагогических целей, внутри которой выделены их категории и последовательные уровни. На сегодняшний день используемая в образовании шестиуровневая структура

2. Begmatova H. Bog’cha bolalarida multimedia tehnologiyasi tushunchalarini shakllantirish halq ta’limi 2010 yil 2-son.
3. Adilova S. Multimedia vositalari va uni ta’lim jarayonida qo’llash Pedagogik ta’lim. 2001 yil 2-son
4. Nuraliyevna, Q. D. (2021). Approaches to the development of inclusive competence in the preparation of future teachers for professional activity. Academicia:An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2314-2320.
5. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. Nauka i obrazovanie segodnya, (4 (63)), 82-83
6. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., &Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational OrganizationsPedagogical Need. Journal of Advanced Zoology, 44(S-2), 1777-1784

8. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. Наука и образование сегодня, (4 (63)), 82-83

10. Хидиров, Х. Н. (2019). Philosophical Analysis of the Role of the Media in Shaping Civic Culture in Uzbekistan. Молодой ученый, (15), 322-324.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI EKOLOGIK TARBIYALASH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ravshanova Nargiza Norboevna
Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.,
nargizawazed@gmail.com

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta’limi barcha ta’lim sohalarida amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish ta’lim sohasining mazmuni jamiyatda qabul qilingan me’yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtirishga qaratilgan; hissiy sezgirlik, hamdardlik, shu jumladan tabiiy ob’ektlarga nisbatan rivojlanish; kundalik hayotda, jamiyatda, tabiatda xavfsiz xatti-harakatlar asoslarini shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ekologik loyihalardan foydalanish quyidagilarga qaratilgan:

- tabiat bilan tanishish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiiy va ekologik bilimlari asoslari tizimini shakllantirish;

- bolalarni o‘rab turgan barcha narsalarga nisbatan hukm va harakatlarda ongli ravishda hurmatni shakllantirish;

- bolalarda tabiatdagi go‘zallikni ko‘rish va tushunish, tabiatni muhofaza qilish faoliyatida o‘zini namoyon qilish zarurligini shakllantirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash masalalarida oilani bolalar bog‘chasi bilan hamkorlik qilishga jalb qilish.

“Kognitiv rivojlanish” ta’lim sohasining mazmuni atrofdagi dunyo ob’ektlari, ularning xususiyatlari va munosabatlari (shakli, rangi, hajmi, sabablari va oqibatlari va boshqalar) haqida dastlabki g‘oyalarni shakllantirishga qaratilgan; yer sayyorasi odamlarning umumiy uyi sifatida, uning tabiatining xususiyatlari, mamlakatlar va xalqlarning xilma - xilligi to‘g‘risida; bolalarning dunyoqarashini kengaytirish

“Nutqni rivojlantirish” ta’lim sohasining mazmuni bolalar adabiyoti, shu jumladan tabiatshunoslik bilan tanishishni o‘z ichiga oladi.

“Badiiy va estetik rivojlanish” ta’lim sohasi tabiiy dunyoni qiymat-semantik idrok etish va tushunish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi; umuman olganda atrofdagi dunyoga estetik munosabatni shakllantirish.

“Jismoniy rivojlanish” ta’lim sohasi maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Ekologik ta’lim bo‘yicha maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning asosiy maqsadi quyidagilarni o‘z ichiga oladi : har bir bolada tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish zarurligiga ishonchni shakllantirish; tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarni etarli darajada idrok etish va ko‘nikmalarni rivojlantirish istagi; ekologik madaniyatning jahon darajasiga kirish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun maktabgacha ta’limning federal davlat ta’lim standartini hisobga olgan holda ekologik dasturlarni yaratishning ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan tamoyillariga asoslangan ekologik ta’limning yaxlit tizimini yaratish zarur.

Barcha guruhlarda rivojlanayotgan ob’ektiv muhitni ko‘kalamzorlashtirish uning tarkibidagi barcha tarkibiy qismlarni amalga oshirishga yordam beradi: kognitiv, axloqiy, qiymat va faoliyat.

Ekologik ta’lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiat bilan o‘zaro ta’siri yosh xususiyatlari tufayli o‘ziga xos xususiyatlarga ega va faoliyatga asoslangan yondashuvga asoslanadi, chunki bu bolaning ruhiyatini, jismoniy faolligini rivojlantiradigan va uni jismonan kuchliroq va sog‘lom qiladigan faoliyatdir

Ekologik ta’limning an’anaviy shakllari va usullari bilan bir qatorda, biz pedagogik faoliyatimizda (suhbatlar, kuzatuvlar, adabiyotlarni o‘qish) innovatsion shakl va usullarni qo‘llaymiz. Masalan: ekologik o‘yinlar. Ekologik o‘yin murakkab tabiiy hodisalarni yanada qulayroq tarzda etkazishga yordam beradi; kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish; tabiat ob’ektlari va hodisalari, o‘simliklar, hayvonlar haqidagi g‘oyalarini aniqlashtirish, mustahkamlash, kengaytirish.

Biz o‘yinlarni bolalar bilan ham jamoaviy, ham individual ravishda o‘tkazamiz, ularni bolalarning yoshini hisobga olgan holda murakkablashtiramiz. Murakkablik g‘oyalarni kengaytirish va aqliy operatsiyalar va harakatlarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Biz didaktik o‘yinlarni bo‘sh vaqtlarida, darslarda va yurishlarda o‘tkazamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda siz ko‘pincha ma’lumot va vizual materiallarning etishmasligiga duch kelasiz. Ekologiya bo‘yicha bolalar bilan olib borgan faoliyatimizda biz zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga qaror qildik. maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning eng maqbul vositalaridan biri bu multimedia taqdimotlari.

Og‘zaki tushuntirishni tinglash, keyinchalik mantiqiy fikrlashni bog‘lash, ma’lumotlarning ma’nosini tushunish uchun etarli bo‘lgan kattalardan farqli o‘laroq, bolalar “yuz marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rish yaxshiroqdir” degan maqolga juda mos keladi. Bola o‘zining vizual-majoziy tafakkuri bilan bir vaqtning o‘zida ko‘rib chiqilishi, eshitilishi, ob’ekt bilan ishlashi yoki ob’ektning harakatini baholashi mumkin bo‘lgan narsa aniq. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish uchun mavjud bo‘lgan ma’lumot kanallariga murojaat qilish juda muhimdir. bolalarni tabiat bilan tanishtirishda biz turli xil materiallardan foydalanamiz: didaktik rasmlar, badiiy rasmlarning reproduktsiyalari, fotosuratlar, videofilmlar, ovoz yozuvlari (qushlar, sutemizuvchilar ovozlari yozuvlari, o‘rmon shovqini, bemaqsad, yomg‘ir, shamol va boshqalar); bunda bolalar pedagogik ta’sirning passiv ob’ektlari emas, balki faol bo‘lishadi.

Biz multimedia taqdimotlaridan faol foydalanamiz. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va Internet bizga o‘simliklar, hayvonlar, tabiiy hodisalar haqida boy tasviriy va axborot materiallarini to‘plashga yordam berdi. Kompyuterdan foydalanish guruhlardagi mavzu-fazoviy muhitni sezilarli darajada o‘zgartirishga yordam berdi.

Modellashtirish usuli. Modellashtirish haqiqiy ob’ektlarni ob’ektlar, sxematik tasvirlar, belgilar bilan almashtirish printsipiga asoslanadi. Ekologik ta’limda modellashtirishning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan tabiat ob’ektlarining xususiyatlari, ularning tuzilishi va o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishini ta’minlashdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta’limida biz turli xil modellardan foydalanamiz: mavzu modellari-hayvonlarni tasvirlaydigan interaktiv o‘yinchoqlar (hurayotgan

itlar, miyovlaydigan mushuklar, tovuq va boshqalar). Eng keng tarqalgan mavzu modeli globusdir. Bu sizga Sayyora haqida elementar geografik tasavvurga ega bO‘lishga imkon beradi katta maktabgacha yoshdagi bolalar va bolalar “O‘zbekiston o‘lkasining tabiiy dunyosi”, “suv va suv osti dunyosi”, “o‘rmon”, “fasllar” va boshqalarni yaratdilar.

Biz o‘rnini bosuvchi narsalardan foydalanamiz bolalar baliq nima uchun soddalashtirilgan shaklga ega, nima uchun hayvonlar himoya rangiga ega, nima uchun yirtqichlar tirnoqlarga muhtoj degan xulosaga kelishadi.

Modellashtirish bizning jamoamizga tabiiy hodisalar to‘g‘risida chuqur va mazmunli bilimlarni shakllantirishga yordam beradi, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashga va bolalar bog‘chasi va boshlang‘ich maktab ta’limida uzluksizlikni saqlashga yordam beradi.

Loyiha-tadqiqot faoliyati ekologik ta’lim va bolalarni tarbiyalash bo‘yicha ishimizning bir qismidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar tug‘ma tadqiqotchilar. Bu bola hamma narsani bilishni istagan yosh, u tabiatdagi tabiiy narsalar, hodisalar, munosabatlarga qiziqadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik materiallar bo‘yicha dizayn va tadqiqot faoliyatini tashkil etish pedagog (tarbiyachi)larga bolaning asosiy vakolatlarini shakllantirishga imkon beradi: muammoni ko‘rish, ma’lumot qidirish va topish, guruhda ishlash, natijalar haqida gapirish, aks ettirish, taqqoslash, savollarga javob berish, xulosalar chiqarish, sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish.

Barcha guruhlardagi mavzu-fazoviy muhit eksperimental tadqiqot faoliyati uchun materiallarni ham o‘z ichiga oladi: tajriba o‘tkazish uchun idishlar; turli xil ob’ektlarni kattalashtirilgan shaklda ko‘rib chiqish uchun lupalar; muz, suv, qor (bo‘yoqlar, tuz, shakar, sovun, plastik stakan) bilan tajriba o‘tkazish uchun materiallar; ekish va unib chiqish uchun urug‘lar; (fasol, no‘xat, makkajo‘xori va boshqalar); er, loy, qum.

Biz bolalar bilan havo bilan bir qator tajribalar o‘tkazdik: “havoni ushlang”, “havo harakat qiladi”, “havo og‘irlik qiladi”, “havo suvdan engilroq”, “havo hidsiz”, laboratoriya idishlari, tarozilar, turli hajm va shakldagi suv bilan o‘ynash uchun idishlar; tabiiy material: toshlar, loy, qum, qobiq, qush patlari, daraxt barglari, urug‘lar va boshqalar ; tibbiy materiallar: pipetkalar, kolbalar, o‘lchash qoshiqlari, boshqa materiallar: nometall, sharlar, elak, shamlar.

Ekologik madaniyat tamoyillarini shakllantirish, tabiatga har xil xilma-xillikda, uni himoya qiladigan odamlarga ongli ravishda to‘g‘ri munosabatni shakllantirish. Va bundan tashqari, tabiatning bir qismi sifatida o‘ziga bo‘lgan munosabat. Hayot va sog‘liqning qadr-qimmatini va ularning atrof-muhitga bog‘liqligini tushunish.

Maktabgacha yosh-bu insonning ekologik madaniyatini rivojlantirishning o‘z-o‘zidan qimmatli bosqichidir. Ushbu davrda shaxsning asoslari, shu jumladan tabiatga, atrofdagi dunyoga ijobiy munosabat qo‘yiladi. Bu yoshda bola o‘zini atrof-muhitdan ajrata boshlaydi, atrof-muhitga

hissiy va qadriyat munosabati rivojlanadi, shaxsning axloqiy va ekologik pozitsiyalarining asoslari shakllanadi, ular bolaning tabiat bilan o‘zaro munosabatlarida, u bilan ajralmaslikni anglashda namoyon bo‘ladi. Shu tufayli bolalarda ekologik bilimlarni, tabiat bilan o‘zaro munosabatlar normalari va qoidalarini shakllantirish, unga hamdardlikni tarbiyalash, ba’zi ekologik muammolarni hal qilishda faollik mumkin. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilimlarni to‘plash o‘z-o‘zidan maqsad emas. Ular dunyoga hissiy, axloqiy va samarali munosabatni rivojlantirish uchun zarur shartdir.

Bolalarni qizil kitob bilan tanishtirar ekanmiz, nima uchun odamlar qizil kitobni yaratdilar, nima uchun har qanday tirik mavjudotga shafqatsiz munosabatda bo‘lish mumkin emas, yovvoyi tabiatga nima tahdid soladi, noyob O‘simliklar va hayvonlar sonini saqlash va ko‘paytirish uchun nima qilish kerak, nima uchun har birimiz tabiatni muhofaza qilish uchun javobgarmiz

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son qarori 3 bob
2. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In Archive of Conferences (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).
3. Ravshanova, N. N. (2020). THE PRINCIPLE OF CONTINUITY IN ENVIRONMENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. Scientific and 4. Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 369-374.
4. Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. The American Journal of Social
5. 5. Science and Education Innovations, 2(08), 23-31.
6. Ravshanova N.N. “Ekologik bolajon” variativ dastur T 2021. (82-83 bet)

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING SHAXSIY VA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHGA KO‘MAKLASHUVCHI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR.

Muxamadaliyeva Moxira Xikmatullayevna
Nizomiy nomidagi TDPU ”Maktabgacha ta’lim metodikasi” Kafedrasi o‘qituvchisi

Bo’lajak tarbiyachi uchun eng zaruri nutq madaniyatini egallashdir. Ularning nutqi yaqin kelajak pedagogic faoliyatda bolalar uchun ibratli bo’lib borib ularning nutq madaniyatini shakllantirishga yordam berishi kerak. Nutqning Grammatik to’g’riligi, uning leksik boyligi, yaxshi ifodalanganligi, obrazliligi, nutq texnikasini egallanganligi tarbiyachining turli xil kasbiy

masalalarni sifatli echishiga imkon beradi. Pedagogning tashqi ko’rinish madaniyati, uning tashqi ko’rinishga moslik darajasi va pedagogik faoliyati bilan baholanadi. Keng fikrlilik, tartibli, odobli, bosiqlik va o’zini-o’zi yaxshi boshqara olish kabilar pedagogik faoliyatning muvaffaqqiyatli bo’lishiga olib keladi.

Bo’lajak tarbiyachilarida pedagogik madaniyatini rivojlantirish jarayoni o’z navbatida tizimli hamda faoliyatli yondashuvni taqozo etadi. Bunda albatta, yuqorida qayd etilgan ta’lim jarayoniga antroposentrizm yondashuvining asosiy maqsad va vazifalarini inobatga olgan holda mazkur jarayonning har bir bosqichini, mezonlarini, shakl, metod va vositalarini aniqlashtirish, ulardan samarali foydalanish talab etiladi. Shu sababli, tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, bo’lajak tarbiyachilarning pedagogic madaniyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi.

Ushbu model Oliy ta’lim tizimi bo’lajak tarbiyachilarida pedagogic madaniyatini rivojlantirishning maqsadi va undan kelib chiqib kutiladigan natijani o’zida aks ettirgan. Shuningdek, mazkur jarayon bosqichlari, asosiy pedagogik shartlar, faoliyatni tashkil etishning shakl, metod va vositalarini hamda talabalar tomonidan o’zlashtirilishi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar tizimini belgilab beradi. Bo’lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish samaradorligini ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida eng avvalo professor-o’qituvchi mashg’ulot loyihasini ishlab chiqishda, asosiy maqsadni aniqlashda, pedagogik vazifalarni belgilashda mavjud shart-sharoitni, talabalarning bilim darajasini, ularning qiziqishlarini hisobga olishi, shuningdek, qo’yilgan maqsadga erishishning eng samarali yo’llari, usullarini tanlay bilishi va o’qitish jarayonida qo’llay olish ko’nikmasiga ega bo’lishi lozim.

Pedagogik kompetensiyalar-bilimlar, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo'lgan motivatsiyaning uyg'unlashgan majmuini o'zida aks ettiradi. Kompetentli kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko'nikmalarni, balkida qadriyatlar va axloqiy fazilatlarni ham o'z ichiga oladi. Har bir tarbiyachi shaxsi, temperamenti va tarbiyachilik uslubi boshqalarinikidan farqlanadi. Biroq bolaga, uning ta'limiga va rivojlanishiga yondashuv barcha tarbiyachilarda bir xil bo'lishi lozim. Shuning uchun ham kasbiy standart barcha tarbiyachilar uchun bir xil talabni qo'ydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bolalar bog'chasini yangi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. AKTga egalik qilish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga, tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogning insoniy xislatlari alohida muhimlik kasb etadi. Bu xislatlar qatoriga insoniylik, adolatlilik, mehribonlik, sabr-bardoshlilik, to'g'rilik, haqiqatgo'ylik, javobgarlik, adolatlilik, majburiylik, ob'ektivlik, sahiylik, insonlarga bo'lgan muhabbat, hurmat, yuqori ma'naviyatlilik, optimizm, emotsional vazminlik, muloqotga bo'lgan ehtiyoj, tarbiyalanuvchilar hayotiga bo'lgan qiziqish, olijanoblik, o'z-o'zini tanqid qilish, do'stsevarlik,

vazminlik, qadr-qimmat, vatanparvarlik, diniy e'tiqod, printsipiallik, emotsional madaniyat va boshqalar kiradi.

Inson tashqi ko'rinishi nimalarni bildirishi xususida muayyan qoidalar mavjud. Ularni o'rganish asosida yaxshi natijalarga erishish mumkin. Fanda madaniyat mohiyatiga uch xil qarash tushuniladi:

Aksiologik, faoliyatli va shaxsiy. Aksiologik qarashda pedagogika va tarbiyadagi yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Faoliyatli qarash pedagogik metodlar va vositalar mohiyatini amalga oshirishni tadbiq etish imkonini beradi. Individual-shaxsiy rejada o'qituvchining pedagogik madaniyati uning kasbiy faoliyatidagi tavsifining mohiyatidan iborat, deb tushuniladi. Bunday qarash o'qituvchini umuminsoniy madaniyat va pedagogic boyliklarni, u orqali tarbiya va ta'limning madaniy boyliklarini bir avloddan ikkinchi avlodga tashuvchi vakili sifatidagi shaxs deb qarash imkonini beradi. Pedagogik madaniyat umuminsoniy kabi, moddiy va ma'naviy shakllarda mavjud bo'ladi.

Hozirgi paytda maktabgacha ta'lim tashkilotlari yetuk shaxslarni tarbiyalash va barkamol avlodni yetishtirishda muhim ahamiyatga ega bo’g’in sanaladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ma'naviy ishlab chiqarish sohasi bo'lib, uning mahsuli nafaqat yangi bilimlarni, yangi maqsadlarni, yangi qadriyatlarni va shaxsiy ma'nolarni egallash, balki o'qituvchining muhim kuchlarini ochib berish va rivojlantirishdir, uning intellektual, axloqiy va ijodiy salohiyatini ko’rsatib berishdan iborat. Ijodiy salohiyat - bu shaxsning o'zini o'zi anglashga yo'nalishini, tayyorligini va qobiliyatini belgilaydigan ijodiy faoliyatning zaruriy sharti va natijasi bo'lgan shaxsning dinamik, integrallangan xususiyati sanaladi. Tarbiyachining kasbiy mahorat darajasi uning malakasiga shuningdek, kasbiy va pedagogik fikrlashning rivojlanish darajasiga bog'liq. Pedagogik ijodkorlik yuqori kasbiy va pedagogik kompetensiyaga asoslangan bo'lsa samarali bo'ladi. Afsuski, ko'p hollarda bu kompetentsiya mavjud emas, bu didaktogen omillarga olib keladi. Haqiqiy pedagogik ijodkorlik yangilikning sub'ektiv emas, ob'ektiv mezoniga, ijodiy faoliyat natijalariga mos keladi. Pedagogik ijodkorlikni tushunishda, agar kimdir ob'ektiv mezonga rioya qilsa, bu mezonga o'n minglab tarbiyachilardan faqat bir nechtasi javob beradi degan fikr paydo bo'lishi mumkin. Ammo bu noto'g'ri.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ishlayotgan tarbiyachilarning juda ham ko‘pchiligi bu mezonlarga rioya qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Artamonova E.I., Ekjanova Ye. V., Ziyryanova Ye. I. va boshqalar. Oilaviy maslahat asoslari bilan oilaviy munosabatlar psixologiyasi / yed. Silyaeva Ye. G.-M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2002 yil.
2. Shnayder L. B. oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Ma'ruzalar kursi. - M.: aprel-matbuot, YeKSMO-Press nashriyoti, 2000 yil.
3. V.Karimova .Oila psixologiyasi/ darslik Toshkent ."Fan va texnologiya", 2008.-170b.
4. Axmedjanov M.M., Xo'jayev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat - Buxoro Davlat universiteti, 2014
5. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013 – 343 b.
6. Musurmanova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili. Monografiya. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2020. – 184

O'QUVCHILARNI JAMOADA ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALASI VA TARIXIY-MILLIY YONDASHUVLAR

Tatliboev Shuxratjon Kamol o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari.e-mail shuha-3787@mail.ru

Xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati, asriy an'ana va qadriyatlari asosida o'quvchilarni jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi**.**

Insoniyat ijtimoiy taraqqiyoti uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo'lib, unda kishilarning erishgan moddiy va madaniy merosi o'z aksini topgan.

Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, o'quvchilarni jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda yuz beradi. Har bir davlat va jamiyat rivojlanishida umumiylik, mutanosiblik bilan birga o'ziga xoslik ham bor.

Jahonda uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini sifatida boshlang'ich ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash, bunda sub'ektlar faoliyatining o'zaro hamkorlikka asoslangan pedagogik neologiya shakllari hamda amalga oshirish mexanizmlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va dasturlar doirasida boshlang'ich sinf ta'lim jarayonida o'quvchilarni

jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish jarayonini mazmunan va mohiyatan modernizatsiya qilish jarayoni bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda pedagogik yangiliklarni klassifikatsiyalash, ta’lim ishtirokchilari orasida neologik va kreativ yondashuvli jamoaviy munosabatlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, xalqaro amaliyotda boshlang‘ich ta’limdan boshlab jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olish, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo‘lgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish borasidagi islohotlar, sohaning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik kabi prinsiplar asosida takomillashtirilayotganligi ta’lim jarayonida ma’naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni yuksak ma’naviy g‘oyalar asosida jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi rivojlantirish konsepsiyasida “ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish” kabi vazifalar belgilangan. Bu borada boshlang‘ich sinflarda ta’lim tizimini modernizatsiyalashning amaliyotdagi holatini tahlil qilish, neonologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish mexanizmlari mazmunini, usullari, yo‘llari, metodlari va vositalarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilar o‘zlarida qayday sifatlarni tarbiyalashlari, mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘z o‘rinlarini belgilashlari, qanday hayotiy maqsadni o‘z oldilariga qo‘yishlari birinchi navbatda ularning o‘zlarini anglash darajalariga bog‘liq. O‘quvchi xuddi mana shu asosda o‘z jamoasining xatti–harakatlari, axloqi va qarashlarini takomillashtirishga kirishadi. Chunki shaxsga ta’sir ko‘rsatishning tashqi vositalari bir qadar cheklangan imkoniyatlarga egadir.

Tajriba va kuzatishlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, o‘quvchilar ta’lim jarayonida o‘zlarining “men”larini faol tarzda o‘zgartiruvchi sub’ektlar sifatida namoyon bo‘ladilar. O‘quvchilarning o‘z atrofdagilar, sinfdoshlari va o‘qituvchilar bilan o‘zaro muloqotlari davomida ularda yangi ehtiyojlar paydo bo‘ladi. Ular o‘z harakatlari orqali bu ehtiyojlarni qondirishga intiladilar. O‘quvchilar o‘quv faoliyatiga kirishish asnosida yangi shaxsiy sifatlarni egallashga ehtiyoj sezadilar. Jumladan, mas’uliyatlilik, qat’iylik, faollik, mustaqillik kabi. O‘z navbatida bu sifatlar ularning o‘quv-biluv faoliyatlarida namoyon bo‘la boshlaydi. O‘quvchilar tomonidan egallangan sifatlar ijtimoiy tajribalariga singib, ularning shaxsiy sifatlarini boyitadi. O‘quvchilarning ehtiyojlari ularni faol izlanishlarga undaydi. Bu holatga o‘quvchilarda jamoada

ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish nuqtai-nazaridan yondashadigan bo‘lsak, o‘quvchilar jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lish, jamoada “o‘zligini namoyon etish”, o‘zlarining faoliyatlarini amalga oshirish uchun yetishmaydigan sifatlarni egallashga ehtiyoj sezadilar.

Fikrimizcha, o‘quvchilarning intellektual, axloqiy taraqqiyoti, o‘quvchilarni jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini jadallashtiradi. O‘quvchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi, unga erishishga bo‘lgan intilishi uni fikrlar, e’tiqodlar, an’analar, shaxslararo munosabatlarning xarakterining, fe’l-atvorining yaxlitligida, shuningdek amaliy faoliyatining birligida paydo bo‘ladigan jamoaning birdamlik darajasi jamoaviy jipslik faoliyatida amalga oshadi. Bunday vaziyatda o‘quvchilarning nuqtai nazarlari, hayotiy tajribalari va yosh xususiyatlari bilan bog‘liq holda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘ziga xoslik kasb etadi.

Aytish o‘rinliki, ijtimoiy va shaxsiy mohiyatga ega hamkorlik faoliyati mazmuni yordamida o‘quvchilarda ijobiy xislatlar tarkib toptiriladi. Bu xislatlar shaxsning ijtimoiy faolligini oshiradi, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga safarbar qiladi. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Boy ma’naviy merosimiz, me’moriy va tarixiy yodgorliklarni keng targ‘ib qilish, milliy urf odatlari haqida to‘g‘ri ma’lumot berish kerakligi” to‘g‘risidagi fikrlari ham yaqqol tasdiqlaydi”.

Shunday qilib, o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirishda talab etiladigan diniy qadriyatlarning imkoniyatlarini quyidagicha izohlash mumkin: jamoa a’zolarini va ularning fikrini hurmat qilish orqali o‘quvchilarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash; komil inson tarbiyasida yosh xususiyatlarini hisobga olish; diniy va dunyoviy bilimlarni egallash, olijanob bo‘lish, pokiza yurish, oila va vatan oldidagi burch va vazifalarning ustunligiga erishish, ezgulikka xizmat qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.:O‘zbekiston, 2014. – 48 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni" // Xalq so‘zi gazetasi, 2020 yil 24 sentyabr

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021yil 26 martdagi PQ-5039-son “Ma’naviyat va ijodni qo‘llab quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” gi Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2021 yil 26 mart

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 6 noyabr

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 29 aprel

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931-son “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror. Qonun xujjatlari to‘plami, 2018.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH YO’LLARI

Kayumova Nargiza Mirziyatovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi dotsenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi **boshqaruvini** takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-son farmoniga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli ta’lim-tarbiyasini tashkil etish va ularni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish vazifalari belgilangan.

Inson kapitalini shakllantirishda maktabgacha ta’lim tizimi eng muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Darhaqiqat, maktabgacha ta’lim yoshi garchi inson hayotining qisqa fursati bo‘lsada, bu davrda bola butun hayoti davomida o‘rganganidan ko‘proq narsani anglaydi va o‘rganadi

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli **islohotlar** amalga oshirilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimi jarayoni tashkilotchilari faoliyati ijtimoiy faoliyatning alohida shakli bo‘lgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uning **maqsadi** ta’lim-tarbiya berish va o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar asosida **insonlarni tarbiyalashdir**. Ta’lim-tarbiya natijasida ta’lim oluvchi shaxsining turli xislatlari, fazilatlari va ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bunday o‘zgarishlarni amalga oshirish va rivojlantirish turli pedagogik **texnologiyalarni, metod va**

yondashuvlarni tatbiq etishga asoslanadi. Mazkur metodlar va yondashuvlar, bir tomondan, o‘qituvchining pedagogik faoliyati va ta’lim oluvchining shahsiy xatti-harakatlari ta’siridagi o‘zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni t**ahlil** qilishga imkoniyat yaratadi. Ta’lim oluvchilar va tarbiyachilarning faoliyatlari, harakatlari, ta’lim mazmuni, metodlar, yondashuvlar, texnologiyalar va ta’lim vositalari orasidagi bog‘liqliklar, tabiat qonuniyatlari kabi obyektiv xususiyatlarga ega hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim tizimi jarayonlari samaradoligi haqida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajribalarga asoslangan **tadqiqotlar** natijalariga ko‘ra qo‘llanadigan metodlar va yondashuvlarga asoslanish, ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda **tashkil etish va uni boshqarishda** muhim ahamiyat kasb etadi. **Adabiyotlarda “ilmiy bilish metodlari** – bu obyektni o‘rganishning asoslangan izchil usullari va qoidalaridir. Muayyan fanlarning **umumilliy, xususiy va maxsus** metodlari farqlanadi.

Tabiiyki, fan epidemiologiyasida ularning dastlabki ikkitasi bevosita qiziqish uyg‘otadi”, deb ta’kidlangan holda kuzatish, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, abstraklashtirish, anologiya, modellashtirish kabi **metodlar keltiriladi** va ular quyidagicha ta’riflanadi. **Kuzatish** – bu bilishning shunday bir metodiki, bunda subyekt obyektning tuzilishi va rivojlanishiga aralashmaydi. U mavjud sharoitlarni o‘zgartirmaydi, chunki unga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Kuzatishning ilmiy bilish metodi sifatida afzalligi shundaki, u o‘rganilayotgan hodisaning obyektiv manzarasini berishi mumkin. **Ilmiy kuzatish** – bu chinakam ijod, haqiqiy mahorat va san’atdir.

Demak, **tarbiyachilarning kasbiy** kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy yondashuv zarur bo‘lib, mazkur yondashuvda kuzatish metodi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki kuzatish jarayonida o‘qituvchi tarbiyachilarning dunyoqarashi, mustaqil, erkin fikrlash darajasi, ta’lim-tarbiya jarayoniga va o‘rganilayotgan fanlarga bo‘lgan munosabatlarini **aniqlash** imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, kuzatish natijalariga asosan o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonining holatini vaziyatlarga ko‘ra aniqlash va zaruriyatga ko‘ra vaziyatlarni o‘zgartirish, o‘qituvchilarni faolligini hamda mustaqil faoliyatini ta’minlovchi metodlarni qo‘llash imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Ilmiy bilim olish metodi ham o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishga muhim rol uynaydi.

Ilmiy bilim olish metodi – induksiya, ya’ni alohida, parchalangan, tizimga solinmagan ma’lumotlardan umumlashtirishlarga, ilmiy gipotezalar, nazariyalar, qonuniyatlar tuzishga o‘tish yakka ilmiy faktlardan ularni tushunish va tushuntirishga o‘tishni ta’minlaydi. Ilmiy ijodda mushohada yuritish va aqliy xulosa chiqarish xususiydan umumiy, yaxshi rivojlanmagan ilmiy bilimdan teran, yanada rivojlangan ilmiy bilim sari induktiv xulosa chiqarishga asoslanadi.

Analiz – bu bilish predmetini fikran qismlarga ajratish, uning alohida tomonlari, xossalari, belgilarini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni ajratish, obyektning mohiyatini anglab yetish

maqsadida uning turlarini aniqlash demakdir. Sintez – bu predmetning bilingan tomonlari, belgilari, xossalari va hakozolarni fikran birlashtirish, obyektning tuzilishini uning barcha aloqalari, munosabatlari, rivojlanishi va faoliyatiga bog‘lab tushunib yetishdir. Analiz va sintez insonning fikrlash usullari, ya’ni ijodiy fikrlash usullari ekanligiga asoslangan holda biz induksiya va deduksiyaning analiz va sintez bilan o‘zaro bog‘liqligi haqidagi fikrlarga qo‘shilamiz. Bizning fikrimizcha, aynan refleksiv yondashuv jarayonida induksiya va deduksiya, analiz va sintez usullaridan foydalaniladi, ya’ni refleksiv yondashuv jarayonida tarbiyachilarningtahliliy faoliyati tashkil etiladi va tahliliy jarayonda olingan ma’lumotlar tarbiyachilarningboshlang‘ich tushunchalari bilan umumlashtiriladi. Shuningdek, refleksiv yondashuvda o‘tmishni o‘rganish va tahlil qilish jarayonida olingan ma’lumotlarni umumlashtirish induksiyani ifodalasa, obyektiv baholash asosida o‘qituvchilarda aniq va ishonchli ma’lumotlarga asoslangan xulosalar, tushunchalar shakllanishi deduksiyani ifodalaydi. Tahliliy fikrlash analizni ifodalasa, xulosalar chiqarish sintezni ifodalaydi, bular o‘z navbatida, sintez doimo analizga asoslanishini hamda ular biri ikkinchisisiz mavjud bo‘lmasligini tasdiqlaydi. Bular fikrlash usuli xususiyatlari bo‘lib, ularning mazmuni muhim ahamiyat kasb etuvchi sifatlarda, ya’ni yangi tushunchalarni shakllanishi va yangilik yaratish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bular o‘z navbatida divergentlilik, realistik, moslashuvchanlik, tanqidiylik va boshqa fikrlash usullari bilan birgalikda ijodiy fikrlashni tashkil etadi. A.Rasulovning ta’kidlashicha, ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish ta’lim beruvchi uchun ham, ta’lim oluvchi uchun ham ahamiyatli bo‘lib, ta’lim oluvchilarni mulohaza yuritishga, masalalarni tahlil qilishga, mas’uliyatni his qilishga, mustaqil faoliyat ko‘rsatishga, shahsiy nuqtai nazarini shakllantirishga, guruh va jamoa bo‘lib ishlashga, faoliyatni rejalashtirish va rivojlantirishga o‘rgatadi. Muallifning fikricha, ta’lim jarayonida maqsadga erishish uchun muammoli o‘qitishga quyidagi talablar qo‘yiladi: qo‘yilgan muammoning muhimligi; muammo o‘ylab topilmasligi, real hayotdan olinishi; ta’lim oluvchilar uchun muammoning ahamiyatliligi; muammoning aniq muqobil yechimlarga ega bo‘lishi; ta’lim oluvchilarning hamkorlikda faol ishlashi; muammoga aloqador axborotlar bazasini yaratilishi. Shuningdek, ta’lim oluvchilarning mazmunli va izchil bilim olishini ta’minlash; muammo yechimlarini topish va uning boshqa yechimlari bo‘yicha ham istiqbolli rejalar ishlab chiqish; ta’lim oluvchilarni guruh-guruh bo‘lib ishlash va muammoli vaziyatlardan chiqib ketishga o‘rgatish; ta’lim oluvchilarda shahsiy mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otish va mustahkamlash muallif tomonidan muammoli o‘qitishning asosiy maqsadlari sifatida keltiriladi.

Maktabgacha ta’lim tizimi tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida yuqorida keltirilgan metodlar bilan bir qatorda, kasbiy faollik, kasbiy kompetentlik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati borasida ularning boshlang‘ich tushunchalarini rivojlantirish, ularda refleksiv yondashuv ko‘nikmalari va malakalarini

shakllantirish, hamda rivojlantirish uchun tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonlarida ijtimoiy-psixologik va metodologik xususiyatlarga ega bo‘lgan trening, interfaol suhbat, integrativ ma’ruza, ishchanlik o‘yinlari kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida tarbiyachilarning tahliliy faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi, ishbilarmon o‘yinlari orqali innovatsion faoliyatning usul va shakllarini yorituvchi, tarbiyachilarfaoliyatini kuzatish asosida tarbiyachilarningo‘zaro ta’sir ko‘rsatishga undovchi metodlardan foydalanish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda integrativ ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulot, seminar-treninglardan foydalanish bilan bir qatorda, tarbiyachilarga oldindan tarqatiladigan savol va topshiriqlardan foydalanish juda katta samara beradi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Каюмова Н.М.(2022 November) Функциональные обязанности директора дошкольной образавательной организации.In INTERNATIONAL SCIENTIFIK AND PRAKTIKAL KONFERENCE”THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS (Vol. 1.No.3.pp.102-107).

2. Kayumova, N. M. (2023). EDUCATING CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND IN THE FAMILY. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, *1*(6), 33-38.

3. Kayumova, N. M. (2019). PECULIARITIES OF TEACHING ENGLISH IN ESP CLASSES. *MODERN SCIENTIFIC RESEARCH*, 128.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH

Kayumova Nargiza Mirziyatovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi dotsenti

Bilishga qiziqish atrofdagi voqelikni tanish, tushunish va o‘zgartirish uchun kuchli sababchidir. Qiziqish ta’siri ostida bola nafaqat yangi narsalarni o‘rganishga, qiziqishning predmet, hodisa haqidagi bilimlarini qo‘shish va chuqurlashtirishga intiladi, balki bu bilimlarni turli faoliyatda faol qo‘llaydi. Bilishga qiziqish mavjud bo‘lganda bilishda ishtirok etadigan barcha aqliy jarayonlar faollashadi, jadalroq va ongli ravishda rivojlanadi, natijada olingan bilimlar kuchli, chuqur va tizimli bo‘ladi.

Bilish — ob’ektiv borliqni inson ongida aks etishining oliy shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayoni. Bilish quyidagicha darajalanadi: hissiy bilish — sezgilar, idrok, tasavvur orqali hosil qilishadi; ratsional bilish – tushunchalar, mulohazalar, aqliy xulosalardan o‘tib nazariyalarda o‘rin oladi.

Qiziqish – bilish, o‘rganish va shu kabilarga intilish, shaxsning o‘zi uchun qimmatli va yoqimli bo‘lgan muayyan narsa va hodisaga munosabatidir.

Psixologiya nuqtai nazaridan – ong insongagina xos bo‘lgan ruhiy aks ettirishning oliy darajasidir. U faolligi, intiluvchanligi, refleksivligi, motivatsion-qimmatli xarakteri va aniqlik darajasi bilan tavsiflanadi, shuningdek, hamkorlikdagi faoliyat ongning tarkibini shakllantiruvchi interiorizatsiya jarayoni tufayli ontogenezning dastlabki bosqichlarida shakllanuvchi, beto‘xtov o‘zgarib turuvchi sensor axborot oqimiga quyiluvchi barqaror va invariant sxema yoki tuzilmalarni tashkil qiladi. Shu tariqa uning ichki nutqi, predmetlilik va belgili tuzilmalar vositasida ifodalanuvchi ijtimoiy xarakteri kabi asosiy xislatlari bilan belgilanadi.

Sharqning qomusiy olimlari asarlarida ta’lim-tarbiya, shaxs kamoloti borasidagi fikrlari bilan birga bilim egallash, ilm olish yo‘llari xususida qator ilmiy ma’lumotlar keltiriladi. Jumladan, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Zarnujiy kabi olim va mutafakkirlarning asarlarida yuqoridagi muammo yuzasidan atroflicha ma’lumotlar keltiriladi.

Muhaddis olim Imom al-Buxoriy ham ilm o‘rganishni yuqori darajaga qo‘yib, o‘z asarlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: “Kishi ilm bobida nafaqat o‘zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o‘zidan past bo‘lganlardan hadis olmaguncha, yetuk muhaddis bo‘la olmaydi.” Imom Buxoriy ushbu fikri bilan o‘quv-bilish faoliyatining ijobiy motivlari ustoz-muallim tomonidan shakllantirilishiga urg‘u beradi.

Abu Nasr Forobiy esa o‘z asarlarida bilish shakllari, insonning ruhiy holati, jon va tananing o‘zaro munosabati, mantiqiy fikrlash to‘g‘risidagi mulohazalarini bildiradi. Uning aytishicha, insonning bilish, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a’zolarni hayot uchun zarur bo‘lgan qon bilan ta’minlovchi markaz vazifasini bajaradi. Inson voqelikni idrok, sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy tafakkur, akl, nutq va boshqa vosita hamda usullar orqali bila oladi. Olim hissiy va aqliy bilish mavjudligini, ular bir-biridan farq qilishini ham aytib o‘tadi. Hissiy bilishda sezgi a’zolari yordamida ashyolar, narsa va hodisalarning muayyan sifatlari bilib olinadi. Shu bilan birga, sezgi orqali narsa va buyumlarning muhim bo‘lmagan tomonlari ham idrok qilinadi. Aql orqali esa buyum sifatlarini mavhumlashtirish orqali uning mohiyati va umumiy tomonlari bilinadi. Farobiyning asarlarida didaktika masalalari, ta’limning nazariy muammolari, bilimlarni egallashning falsafiy, fiziologik va psixologik asoslari ham ko‘tarilgan. Forobiy bolaning shaxsiga xos qator fazilatlarga xolisona sharh bergan olimdir.

Bolalarning o‘qish faoliyatiga oid fikrlar qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham o‘z aksini topgan. Ilm olishning muhim yo‘llaridan biri inson hammani o‘ziga do‘st tutishi va boshqa insonlarga ham yaxshilik qila olishi lozim. Beruniy ilm olishda axloqiy poklikni yuqori o‘ringa qo‘yib, ta’lim va tarbiyani bir xil izchillikda olib borganlar komil inson darajasiga erishadilar deydi. Beruniy o‘qitish uchun pedagog o‘z malaka va bilimlarini doimo orttirib, zamonga moslashib borishi lozimligini uqtiradi. U kitob o‘qish usullariga alohida e’tibor qaratadi. Kitoblarni shunchaki emas, fikrlab, kichik-kichik bo‘limlarga bo‘lib o‘qish va umumlashtirib borish kerakligi haqida ma’lumotlar beradi. Beruniy o‘qitishda faqat induktiv yo‘li bilangina emas, balki deduktiv yo‘li bilan ham ish tutish lozimligini ta’kidlaydi, zotan bunday o‘qishda tafakkur kengayib, bilimlar ortib boradi.

Al-Xorazmiy hissiyot orqali bilishni “mantiqiy mulohazalar” vositasida aniq farqlagan: hissiyot “mayda” xususiyat, “mantiqiysi” esa mohiyatni o‘rganadi va ular o‘zaro aloqada kechadi, deb hisoblagan. Xorazmiy bilish nazariyasining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan. U tajriba – kuzatish va eksperimental bilish metodlarini samoviy jismlar harakatini o‘rganishga, shuningdek, yer sathidagi nuqtalarni koordinatalarini ilk bor jadval ko‘rinishida tasvirlashni ilmiy asosladi, yagonalik, alohidalik bilan umumiylikning birligi prinsipini aniqlab berdi.

O‘rta asrdagi barcha buyuk G‘arb mutafakkirlarining, olimlarining e’tiborini jalb etgan olamni bilish muammosining savollari, bilish jarayoni qanday bosqichlardan iboratligi, bolalarning bilish va amaliy faoliyati o‘rtasidagi munosabatlar qanday ekanligiga doimo qiziqib kelganlar.

Yan Amos Komenskiy o‘zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lishi to‘g‘risidagi tushunchani ilgari suradi. Pedagog bolani tarbiyalaganda, bog‘bon daraxtning biologik o‘sish qonuniyatini hisobga olgani kabi, undagi tabiiy bilish xususiyatlarini hisobga olishi shart, deydi. Komenskiy o‘qishga hammaning tortilishini, hamma umumta’lim olishi kerakligini uqtiradi. U bolalar qalbida bilim va o‘qishga intilishni barcha usullar bilan yolqinlashtirish kerakligini yozgan edi.

Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy shuningdek, bolalar uchun qiziqarli va qiziqarli jiddiy shug‘ullanish qanchalik muhimligini ta’kidladi. Buning uchun tarbiyachilar o‘z faoliyatlarini bolada bevosita qiziqish uyg‘otuvchi metodlar bilan to‘ldiradilar. Ularda turli xil qiziqarli o‘quv materiali va hikoya-rolli o‘yinlar, mini-viktorinalar, so‘rovnoma vazifalari, rebuslar, xarakatlar va ko‘ngilochar vaziyatlardan foydalaniladi. Shchukina o‘z tadqiqotlarida uzoq muddatli bilishga qiziqish insonga tug‘ma xos emasligini, u inson hayoti jarayonida shakllanishini, uning mavjud ijtimoiy sharoitlarida shakllanishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga maktabgacha yoshda qiziqishning shakllanish yo‘li bir necha sifat bosqichlaridan o‘tadi: atrof olamdagi narsa va hodisalarning tashqi

sifatlari, xususiyatlari bilan qiziqishdan ularning mohiyatini anglash, ular o‘rtasida mavjud bo‘lgan bog‘lanish va munosabatlarni kashf etishgacha ekanligini ko‘rsatdi.

Bilish jarayonida bilim hosil bo‘ladi. Bilim-odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to‘plagan umumlashgan tajribasidir. Bilim ob’ektiv borliqni to‘g‘ri aks ettiradi. Eng to‘g‘ri va mukammal bilimlar ham o‘z navbatida doimiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarib boradi. Bilishga qiziqishni asosini o‘rganish tashkil etadi, shu tufayli bolalarning bilimga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish ustida maqsadli, tizimli ishlash mumkin. O‘z navbatida, muvaffaqiyatli o‘rganish uchun bolalarning o‘quv faoliyatida mustaqilligini va mavjud bilimlarni amalda qo‘llashni ta’minlaydigan bilishga qiziqish bo‘lishi zarur. Agar maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim va o‘quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirmasa, bu ishni maktabda amalga oshirish qiyinchilik tug‘diradi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Каюмова Н.М.(2022 November) Функциональные обязанности директора дошкольной образавательной организатsiи.In INTERNATIONAL SCIENTIFIK AND PRAKTIKAL KONFERENCE”THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS (Vol. 1.No.3.pp.102-107).

2. Kayumova, N. M. (2023). EDUCATING CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND IN THE FAMILY. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, *1*(6), 33-38.

3. Kayumova, N. M. (2019). PECULIARITIES OF TEACHING ENGLISH IN ESP CLASSES. *MODERN SCIENTIFIC RESEARCH*, 1.

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONIDA ULARNING HISSIY IDROKINI RIVOJLANTIRISH

Choriyeva Durdona Anvarovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta`lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi dotsenti

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z taraqqiyotlarining har bir bosqichida ruhiyat jihatidan o‘zaro farqlanadi. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ularning yoshi, individual xususiyatlariga tayangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish va topshiriqlar mazmunini belgilash lozim. Bu esa, o‘z navbatida, bolalarning nutqi va bilish faoliyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish imkonini beradi. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ularning hissiy idrokini rivojlantirish

aqliy taraqqiyoti va ko‘nikmalari ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Bolalarni maktabga muvaffaqiyatli tayyorlash uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya ishlarini kuchaytirish va ularni o‘rab turgan narsa-buyumlar, atrofdagi odamlarga nisbatan sinchkov, qiziquvchan bo‘lishga o‘rgatish zarur. Buning natijasida bolalarning dunyoqarashi, nutqi, bilish faoliyatlari izchil tarzda rivojlanadi, ularda shaxslararo munosabat ko‘nikmalari rivojlana boshlaydi. Bolalarning hissiy idroklari, sezgilarini rivojlantirish orqali ularning nutqini o‘stirish masalalarini olimlarimizdan M.A.Asqarova, S.D.Abidjanova, D.G.Boboyeva, F.N.Vaxabova, F.R.Kadirova, N.Sh.Nurmuxamedova singari pedagog va psixologlar ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Sezgirlikni ta’minlash orqali bolalarning nutqini o‘stirish ularning mustaqil fikrlash va o‘zaro muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hissiy idrok etish jarayonlari sezgi a’zolari faoliyati bilan bog‘liqligini Marta Ljubesic va Sanja Simlesa kabi olimlar ko‘p bora ta’kidlaganlar. Bolalarni maktabga tayyorlash davrida ularda narsa va buyumlarning nomi, shakli, rangini idrok etish va eslab qolish jarayoni jadal kechadi. Bunda narsa-buyumlar haqidagi barcha tasavvurlar bevosita ularni ko‘rish, nomlarini ifodalovchi so‘zlarni eshitish va ular yordamida o‘quv mashqlarini bajarish orqali shakllantiriladi. Bolalardagi hissiy idrok etish va sezish jarayonlari ularning so‘zlarni o‘zlashtirish va ular yordamida fikrlash, atrofdagilar bilan muloqot va hamkorlik o‘rnatish ko‘nikmalarini jadal rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalarga muayyan so‘zlarni o‘rgatayotganda aniqlik, mantiqiy asosga egalik prinsiplariga tayanish lozim. Bular asrlar davomida pedagogik tafakkurdan mustahkam o‘rin olgan didaktik tamoyillardir. Mazkur tamoyillarda qator didaktik qonuniyatlar mujassamlashgan. Bolalarning hissiy a’zolari tashqi ta’sirlarni turlicha qabul qilishi, aksariyat bolalarda voqea-hodisalardan ta’sirlanishning kuchli bo‘lishi kabilar shular jumlasidandir. Sezgilarni rivojlantirish orqali bolalarning nutqini o‘stirishda nafaqat ko‘rganlarini idrok etish, balki suhbatdoshlarini tinglay olish layoqatining mavjudligi darajasini ham hisobga olish lozim. Mashg‘ulotlarda sezgirlikni rivojlantirish orqali bolalar nutqini shakllantirishda turli buyumlarning nomi, ularning xususiyatlarini aniq, to‘liq etkazish, narsalarning rangi, shakli, hajmi haqida aniq tasavvur hosil qilish talab etiladi.

Pedagogik-psixologik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqini o‘stirishda ulardagi sezgirlikni yanada kuchaytirish ularni aqliy jihatdan rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bolalarda sezgirlikni oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik harakatlarning dastlabki bosqichi hissiy tajribaga asoslangan tushunchalarni, ya’ni bizni o‘rab turgan atrof-olam, shaxslararo munosabatlarga kirishish, ijtimoiy hayotning o‘ziga xos jihatlarini anglash, mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo‘lish kabilarni maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Aqliy, jismoniy, axloqiy-estetik, ekologik tarbiyadagi muvaffaqiyatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hissiy sezgirlikni ta’minlash

Второй год жизни. В начале второго года жизни большинство детей начинает ходить. Получив относительную независимость. Ребёнок пытается «взять весь мир в свои руки». Начинается новый этап в развитии руки и мозга – ознакомление с окружающим предметным миром. В этот период ребёнок овладевает предметными действиями, т.е. использует предмет в соответствии с его функциональным назначением. Ходит уверенно. Наклоняется, чтобы достать предмет с пола. Останавливается, ходит в сторону и назад, бросает мяч. Короткое время стоит на одной ноге, наклоняется, может встать с коленей. Относит предмет на короткое расстояние. При легкой поддержке ходит вниз по лестнице, поднимается сам, прыгает на месте, перешагивает через палку, лежащую на полу; крутит педали трёхколесного велосипеда. Умеет ходить по поверхности шириной 15-20 см на вы соте от пола 15-20 см.

Третий год жизни. Учится бегать, ходить на носках, сохранять равновесие на одной ноге. Сидит на корточках, спрыгивает с последней ступеньки. Может поднять игрушку с пола, перешагивает через препятствие или через несколько препятствий, лежащих на полу на расстоянии 20 см друг от друга, попадает по мячу ногой, прыгает на двух ногах. Открывает ящик и опрокидывает его содержимое. Играет с песком и глиной. Открывает крышки, использует ножницы. Красит пальцем. Нанизывает бусы. Повторяет штрих, повторяет по показу вертикальные и круглые линии.

Сенсорные процессы представляют собой первую ступень познания, образуют область чувственного познания, поэтому сенсорное воспитание часто выступает исходным звеном умственного воспитания. В процессе сенсорного воспитания подготавливается переход от чувственного к рациональному познанию, от восприятия к мышлению, формируется основа последующей интеллектуальной деятельности. Вместе с тем развитие сенсорных процессов играет существенную роль в совершенствовании практической деятельности ребенка. Способствует интеллектуальному развитию, усвоению сенсорных эталонов, развивает наблюдательность, внимание, позитивно влияет на эстетическое чувство, упорядочивает хаотичные представления ребёнка, полученные при взаимодействии с внешним миром, помогает в освоении навыков учебной деятельности, готовит к реальной жизни.

Список литературы:

1.Дворова И.В. Упражнения и занятия по сенсорно-моторному воспитанию детей 2-4-го года жизни / И.В. Дворова, О.П. Рожков. — М.: МПСИ Модэк, 2007. — 123 с.

2. Маликова Ю.В. Сенсорное воспитание в наследии выдающихся педагогов прошлого / Ю. В. Маликова // Вестник Южно государственного педагогического университета им. К. Д. Ушинского: сб. научных трудов. —Одесса: ПГПУ им. К. Д. Ушинского, 2005. № 3-4. — С. 151-153.

3. Пилюгина Э.Г. Сенсорные способности малыша: Игры на развитие восприятия цвета, формы, величины у детей раннего возраста / Э.Г. Пилюгина - М.: Просвещение: Учебная литература, 2001. - 112 с.

“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQ O‘STIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI”

Ochilova Xilola Sheraliyeva

Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi o’qituvchisi

Dhdhdiid625@gmail.com

Hasanova Qizlarxon Qobiljon qizi

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 103 guruh talabasi

Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o‘zlashtirib olish, ularni jamg‘arish, ijodiy tafakkurni rivojiantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo‘lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha ta’lim yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bularning hammasi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko‘nikmalarini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta’im yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak atrof to‘g‘risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo‘lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi voqealardagi muhim va muhim bo‘lmagan tomonlarini ajrata oladigan ba’zi bir sabab natijali bog‘lanishlarni bilib oladigan bo‘lib qoladilar. Ularda o‘quv faoliyatining dastlabki ko‘rsatkichlari shakllanadi. Shuning uchun bog‘cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta

ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta’limi bo‘ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun ko‘rgazmaliharakatli, ko‘rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so‘z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi.

Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib toptiriladi bu hodisalarni, voqealarni, chuqur anglab olish, ularni muhim bo‘lgan va muhim bo‘lmagan tomonlarini ajratishga o‘rgatish lozim. Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak-atrofdagi voqeahodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashga, hamma narsani ushlab his qilib, diqqat bilan tomosha qilishni ktizatishda namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni fikrini mustaqil javob qidirishga yo‘llab, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo‘l qo‘ymaydi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Bolalar bog‘chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Insonning aqliy qobiliyati aqlining ziyraklik - fahm-farosatlilik, tanqidiy ko‘z bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatlari bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, ya’ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko‘nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo‘lib, bolaning bilimlarini muvaffaqiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan: o‘simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish bo‘yicha sistemali mashg‘ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim konkret o‘simliklar yoki hayvonlar to‘g‘risida ma’lum bir tasavvurga ega bo‘ladilar.

Ilk va bog‘cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo‘lgan qiziqish juda tez o‘sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo‘lgan har qanday xohishini sezishlari va rag‘batlantirib borishlari kerak. Aqliy tarbiya vazifalari bolani maktab ta’limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko‘nikmalarini egallab olishlari ularni maktabda muvaffaqqiyatli o‘qishlari uchun bo‘lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo‘lib xizmat qiladi. Odamning aqliy faoliyati - bu umumiy ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarining katta miqdoridir.

Ko‘pgina vazifalarni hal etishda qo‘llaniladigan keng ko‘lamdagi aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa, muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi.

Ham umumiy, ham maxsus aqliy harakatlarni egallash aqliy faollik va mustaqillikning rivojlanishini ta’minlaydi. Aqliy faoliyatning moslashuvchanligi va jo‘shqinligini, hodisalarni xilma-xil aloqalar va munosabatlarda ko‘ra bilishni shakllantirishga yordam beradi. «Aqliy mehnat madaniyati» tushunchasiga aqliy faoliyatning umumiy tartibliligi, rejaliligi, vazifani qabul qilish va o‘rtaga qo‘yish, uni hal etish usullarini tanlash, ishlab chiqilgan harakat rejasini izchil amalga oshirish natijalarini baholash mahorati kiradi. Aqliy mehnat madaniyati aqliy faoliyatning maxsus malakalari va ko‘nikmalarini, kitob bilan ishlash ko‘nikmalarini egallash darajasi, ilmiy bilish usullari va metodlarini, turli yordamchi vositalardan foydalanish bilan ham bog‘liqdir. Aqliy tarbiya vazifalaridan har biri maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashni tashkil etishda hisobga olish lozim bo‘lgan bir qancha vazifalarni o‘z ichiga oladi. Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko‘rsatkichining yuqoriligida ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kattalar bilan bevosita muloqot qilish bola nutqiga katta ta'sir ko’rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdagilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to‘g‘ri talaffuz qilishni, so‘z larni to‘g‘ri qo’llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda (pedagoglar, ota-onalar, oila a'zolarida), atrofdagi bolalarda uchrab turadigan nutq nomukammaliklarini ham o‘z lashtirib oladi. Bolalarning nutq madaniyati pedagogning nutq madaniyatiga bevosita bog’liq bo’ladi. Doimo kichkintoylarning diqqat-e'tibori markazida turadigan va ular bilan muloqot qiladigan tarbiyachining nutqi bolalar ona tili, nutq madaniyati namunalarini oladigan asosiy manba hisoblanadi, Shuning uchun u nafaqat to‘g‘ri so‘z lashi, ona tilining barcha tovushlarini aniq va tushunarli qilib talaffuz etishi, balki u muayyan balandlikdagi ovozda bosiqlik bilan so‘z lashi, uning nutqi intonatsion jihatdan ifodali, grammatik jihatdan to‘g‘ri rasmiylashtirilgan, ravon, tushunish uchun oson bo’lishi hamda so‘z bilan belgilash to‘g‘ri va aniq amalga oshirilishi lozim. Tarbiyachining ifodalilik vositalaridan foydalangan holda o’qigan hikoyasi bolalarda qiziqish uyg’otadi, ularda qayg’urish, so‘z kuchini his qilish, uning mazmunini anchagacha yodda saqlab qolish imkonini beradi; agarda aynan shu hikoya tez va quruq ohangda his-hayajonlarsiz o’qib berilsa, u faqatgina badiiy asarga nisbatan zerikish va befarqlikni shakllantiradi. Pedagog o‘z nutqiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo’lishi va unda kamchiliklar borligini sezsa, ularni darhol bartaraf etishgi intilmog’i lozim. Biroq, o‘z nutqining kamchiligini aniqlash har doim ham oson kechmaydi, chunki muloqot jarayonida so‘z lovchining diqqat-e'tibori eng avvalo nutqning shakliga emas (qay tarzda aytish), balki uning mazmuniga (nimani aytish) qaratilgan bo’ladi. Bundan tashqari, o‘z nutqiga nisbatan beparvolik bilan munosabatda bo’lish natijasida ayrim kamchiliklar tilga qattiq o’rnashib qolishi va keyinchalik so‘z lovchi uni sezmay qolishi mumkin. Masalan, nutqning shoshqaloqligi, tushunarsizligi, bir ohangdaligi (monotonligi), ovozning kuchliligi, ayrim tovushlar, so‘z larni noaniq talaffuz qilish kabi nuqsonlar sezilmasdan qoladi.

O‘z nutqining nomukammalliklari haqida bilish uchun pedagog o‘z o’rtoqlarining mulohazalariga quloq tutishi darkor. Ochiq darslarni magnitofonga (videokassetaga) yozib olish va uni keyin muhokama qilish maqsadga muvofiqdir. Shunda tarbiyachi nutqini tovush, leksik vositalaridan foydalanish, grammatik jihatdan rasmiylashtirish nuqtainazaridan tahlil qilish mumkin bo’ladi. Ayni paytda shuni hisobga olish lozimki nutqni yozib olish chog’ida tarbiyachining o‘zini-o‘zini nazorat qilishi evaziga nutq sifati yaxshilanadi. Shuning uchun nutqda aniqlangan kamchiliklarga tarbiyachining o‘z i va uning o’rtoqlari diqqat-e’tibor bilan yondoshishlari zarur. Shu bois tarbiyachi notiq, kreativ va qobiliyatli bo’lishi kerak. Chunki, bolajonlar unga qarab so‘z lashni o’rganadi. Bolalarning nutqi eng ko’p rivojlanadigan yosh davri Maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelganida boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; Nev York; Lang, 1999

2.R.M.Qodirova. O‘zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o’rgatish. T., “O’qituvchi”1993.

3.F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o‘z bekcha so‘z lashishga o'rgatish. T., “O'qituvchi” 1993

4.R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog’och, 1998.

5.F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., “Sano-standart”, 2004.

6.F.R.Qodirova. R.M Qodirova. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. T., “Istiqlol”, 2006.

7.Babayeva D.R. “Nutq o'stirish metodikasi” T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK JARAYONLARNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Artikbayeva Aziza Abrorovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Amanbayeva Munisa Ubaydulla qizi, Obidjonova Shukurona Bahtiyor qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalari

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmoqlarini kengaytirish va maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni faol joriy etishda olimlar va amaliyotchilar, maktabgacha ta’lim tizimi qaysi yo‘nalishda rivojlanishi kerakligi, ta’lim mazmuni va metodlarini tanlash erkinligining maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan majburiy talablar va zamonaviy jamiyatning ehtiyojlari bilan qay darajada uyg‘unlashtirish mumkinligi to‘g‘risida o‘ylaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga quyilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” orqali nazorat qilinadi. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari”da maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta’lim-tarbiya mazmunining asosiy yo’nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga quyiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo’lib u davlat hujjati sifatida e’tirof etiladi.

Mazkur muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun, tarbiyachilarning MTTning holati va rivojlanish istiqbollariga nuqtai nazarlari va munosabatlarini tahlil qilish lozim.

Biz MTT tarbiyachilariga ikkita savol bilan murojaat qildik: “Sizning fikringizcha, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning hayotlarida erkin tanlov vaziyatlarini yaratish zarurmi?” va “Agar siz birinchi savolga ijobiy javob bergan bo‘lsangiz, aytingchi, shaxsan Siz o‘z tarbiyalanuvchilaringizni qanday erkin tanlov vaziyatiga jalb etgan bo‘lardingiz?”.

Birinchi savolga javoblar tahliliga ko‘ra, 60% tarbiyachilar bolalarga tanlov erkinligi berish zarur deb hisoblaydilar, 40% esa bu zaruratni inkor etadilar yoki tanlash erkinligining ehtimoliy mumkinligi to‘g‘risida aytadilar.

Tarbiyachilarning ikkinchi savolga bergan javoblarini tahlil qilib, biz ular bolalarga nimalarda tanlov erkinligini berish mumkin deb hisoblashlarini aniqladik.

Anketalarda ko‘proq uchraydigan vaziyatlarni keltiramiz.Tarbiyachilar bolaning tanlash o‘yin faoliyati bilan bog‘laydilar. Tarbiyalanuvchilarning tanlash erkinliklari bu holda o‘yinni, sheriklarni, o‘yinchoqlarni tanlash bilan bog‘liq.

Odatda MTT ikkinchi uy deydilar. Kelajak maktabgacha ta’lim tashkiloti nafaqat bola uchun, balki uning oilasi uchun ham uyga aylanishi kerak. Masalan, MTT qoshida oilaviy mehmonxona tashkil etish va u yerda nafaqat bolalar va pedagoglar, balki ularning ota-onalari bilan birgalikdagi tadbirlarni o‘tkazish mumkin. Ota-ona-bola treninglarini tashkil etish mumkin. Ota-onalarga bolaga nisbatan mehrni turli ko‘rinishlarda ifodalash mumkin ekanligini ko‘rsatib berish kerak.

Maktabgacha ta’lim tizimi tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida yuqorida keltirilgan metodlar bilan bir qatorda, kasbiy faollik, kasbiy

kompetentlik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati borasida ularning boshlang‘ich tushunchalarini rivojlantirish, ularda refleksiv yondashuv ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish, hamda rivojlantirish uchun tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonlarida ijtimoiy-psixologik va metodologik xususiyatlarga ega bo‘lgan trening, interfaol suhbat, integrativ ma’ruza, ishchanlik o‘yinlari kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kelajak maktabgacha ta’lim tashkiloti — boy predmetli-o‘yinli va predmetli muhitdir. Bizningcha, buning uchun barcha sharoitlar allaqachon yaratilgan. Ammo muammo shundaki, muhit nafaqat funksional, balki amalda qo‘llaniluvchi bo‘lishi ham kerak. Shuning uchun MTTni rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri predmetli-rivojlantiruvchi muhitni uslubiy ta’minlash bo‘lishi mumkin. Masalan, MTT pedagoglari va mutaxassislari tomonidan mazkur muhitdan yanada samarali foydalanish tanlovini e’lon qilish orqali. Maktabgacha ta’lim tashkiloti — xursandchilik uyiga aylanishi kerak. Butun sharoit va 266edagogic muloqotning to‘liq vaziyati bolaning moslashishi va ijtimoiylashuviga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Kun davomida bolaga unga yoqqan mashg‘ulotlar, faoliyat va turini mustaqil tanlashi uchun imkoniyat berish kerak. Bolalarga o‘z tanlovlari uchun javob berishlari imkonini yaratish kerak. Masalan, ma’naviy tanlov vaziyatlaridan ko‘proq foydalanish lozim. Bunda har bir bola o‘zini shaxs sifatida anglash va boshqalarni hurmat qilish, nafaqat o‘zining, balki boshqalarning muvaffaqiyatlari uchun xursand bo‘lishni o‘rganadilar. Kelajak maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim texnologiyalarining diqqat markazidir. Bunda nafaqat bolalar bilan ta’limiy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga va qo‘yilgan maqsadlarga erishishga imkon beruvchi texnologiyalar, balki muloqot, tarbiya va o‘qitishning samarali texnologiyalari hamdir. Shu bilan birga, bizningcha, asosiy e’tiborni muloqot texnologiyalariga qaratish lozim.

So’ngi yillardagi xorij tajribalaridan ko’rish mumkinki texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida maktabgacha ta’limni isloh qilish, bolalarga zamonaviy bilim berish, ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashishda tarbiyachilarning kompetensiyaviy xususiyatlarini, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda axborotlarni bolalarga singdirishni hal qilish kerakligi muammo hisoblanadi.

MTTda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning yaxlit tarzdagi samaradorligini ta’minlashda alohida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan omillardan biri ularning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi bo‘lib, u barcha shakllardagi ta’lim-tarbiya jarayonlari hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minlash zaruriyatini belgilaydi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Боброва Е. Б. Формирование профессиональных компетенций студентов в процессе прохождения практики и создание портфолио: Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании» , 2009

2. Вульфов Б.З., Харькин В.Н. Педагогика рефлексии. М.: Эгвес, 1996.

3.Климов, Е.А. Пути в профессионализм (психологический взгляд) /Е.А.Климов. - М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 2011. -320 с.

4. Иргашева У. Р. Талабалар касбий нутқ компетенциясини такомиллаштиришнинг педагогик аспектлари: Текст научной статьи по специальности «Науки о Земле и смежные экологические науки» 2022

5. Artikbayeva, A. A. (2023). IJTIMOIY HAMKORLIK ASOSIDA BO’LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPENTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 187-190.

ОРГАНИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКИХ СЮЖЕТНО-РОЛЕВЫХ ИГР В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Касимова Дилрабо Бахадировна,

Преподаватель кафедры Педагогики и психологии дошкольного образования ТГПУ имени Низами

Роль является основным стержнем сюжетно-ролевой игры. Чаще всего ребенок принимает на себя роль взрослого. Наличие роли в игре означает, что в своем сознании ребенок отождествляет себя с тем или иным человеком и действует в игре от его имени: соответствующим образом используя те или иные предметы (ведет машину, как шофёр; ставит градусник, как медсестра), вступает в разнообразные отношения с другими играющими (наказывает или ласкает дочку, осматривает больного и т. д.). Роль выражается в действиях, речи, мимике, пантомиме.

К роли дети относятся избирательно: они принимают на себя роли тех взрослых или детей (старших, а иногда и сверстников), действия и поступки которых произвели на них наибольшее эмоциональное впечатление, вызвали наибольший интерес. Чаще всего это мама, воспитатель, учитель, врач, летчик, моряк, шофер и т. д. Интерес ребенка к той или иной роли связан и с тем местом, которое занимает данная роль в развертываемом сюжете игры, в какие взаимоотношения — равноправия, подчинения или управления — вступает с другими играющий, принявший на себя ту или иную роль.

В сюжете дети используют два вида действий: оперативные и изобразительные — «как будто». Наряду с игрушками в игру включаются разнообразные вещи, при этом им придается воображаемое, игровое значение.

Сюжетно-ролевая игра — это основной вид игры ребенка дошкольного возраста. Ей присущи основные черты игры: эмоциональная насыщенность и увлеченность детей, самостоятельность, активность, творчество. Первые сюжетные игры протекают как игры безролевые или игры со скрытой ролью. Действия детей приобретают сюжетный характер и объединяются в цепочку, имеющей жизненный смысл. Действия с предметами, игрушкой осуществляются каждым из играющих самостоятельно. Совместные игры возможны при участии взрослого.[1]

Сюжетно-ролевая игра — это творческая игра детей дошкольного возраста в развитом виде представляет деятельность, в которой дети берут на себя роли взрослых и в обобщенной форме в специально создаваемых игровых условиях воспроизводят деятельность взрослых и отношения между ними.

Основной особенностью сюжетно-ролевой игры является наличие в ней воображаемой ситуации. Воображаемая ситуация складывается из сюжета и ролей, которые принимают на себя дети в ходе игры, включает своеобразное использование вещей и предметов.

Сюжет игры — это ряд событий, объединенных жизненно мотивированными связями. В сюжете раскрывается содержание игры — характер тех действий и отношений, которыми связаны участники событий.

Творческой сюжетно-ролевой игре присущи специфические мотивы. Наиболее общий мотив — стремление ребенка к совместной социальной жизни со взрослыми. Это стремление сталкивается, с одной стороны, с неподготовленностью ребенка к его осуществлению, с другой — с растущей самостоятельностью детей. Возникающее противоречие разрешается в сюжетно-ролевой игре: в ней ребенок, принимая на себя роль взрослого, воспроизводит его жизнь, деятельность и отношения.

Непосредственные мотивы игры с возрастом детей изменяются, определяя содержание игр. Если у младшего дошкольника основная побудительная причина игры — действие с привлекательными для него предметами, то для ребенка старшего дошкольного

[1] Эльконин, Д.Б. Психология игры. 3-е издание [Текст] /Д.Б. Эльконин. - М.: Гуманитарное издательство «Владос», 2006. - 383 с.

возраста основной мотив — воспроизведение отношений, в которые вступают — друг с другом изображаемые в игре взрослые.[2]

Руководя сюжетно-ролевой игрой детей, педагог решает следующие задачи:

- воспитание желания и умения совместно играть;

-воспитание навыков коллективной игры (умение договариваться, распределять роли и игрушки, радоваться успехам товарища);

- воспитание доброжелательного отношения к людям, желания и готовности сделать им полезное и приятное. При этом учит детей намечать тему игры (во что будем играть), совместно производить определенные действия, не мешать, а помогать друг другу, самостоятельно и справедливо разрешать возникающие конфликты.

Успех воспитания различных нравственных качеств — в систематичности, возможном использовании любой педагогической ситуации.

Однако следует постоянно иметь в виду, что руководство ролевыми играми детей не должно превращаться в «натаскивание», когда воспитатель не только навязывает тему, сюжет игры, но и дает готовые рецепты поведения. Руководя игрой, нужно решать и развивающие, и воспитывающие задачи.

Рекомендации по организации воспитателем сюжетно-ролевой игры:

- вспомнить более подходящие для игры события, установить их последовательность;

- спланировать ход игры, последовательность действий;

- распределить роли, согласовать замысел;

- помощь в решении игровых задач, поддержание познавательного интереса в игре;

- наблюдение за игрой детей;

- направление замысла и действий детей (совет, подсказка, вопрос, изменение игровой среды);

- создание проблемных ситуаций (гибкое воздействие на замысел игры, развитие сюжета, усложнение способов отображения действительности);

- создать игровую ситуацию;

- индивидуальная работа (ребенок не владеет игровыми способами, можно использовать опыт хорошо играющих детей).

Итак, руководство сюжетно-ролевыми играми детей дошкольного возраста находится в прямой зависимости от комплексных педагогических воздействий, осуществляемых в разных видах деятельности. Воспитательные и образовательные

[2] Игра дошкольника /Л.А. Абрамян, Т.В. Антонова, Л.В. Артемова и др. / Под ред. С.А. Новоселовой. - М.: Наука, 2009. - 164 с.

воздействия должны быть направлены на обогащение и углубление знаний детей, введение значимых мотивов деятельности и формирование положительного эмоционального отношения к игре.

Список литературы:

1. Игра дошкольника /Л.А. Абрамян, Т.В. Антонова, Л.В. Артемова и др. / Под ред. С.А. Новоселовой. — М.: Наука, 2009. — 164 с.
2. Михайленко Н.Я. Педагогические принципы организации сюжетной игры [Текст] // Дошкольное воспитание. - 2008. - №4. - С.38-46.
3. Новоселова С.Л. Игра дошкольника [Текст] / С.Л. Новосёлова. – М., Просвещение, 2009. - 235с.
4. Эльконин, Д.Б. Психология игры. 3-е издание [Текст] /Д.Б. Эльконин. - М.: Гуманитарное издательство «Владос», 2006. - 383 с.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA`LIMIY JARAYONLARNI TASHKIL ETISH USULLARI

Kasimova Dilrabo Baxadirovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi o`qituvchisi

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, insoniyat fan o‘qi atrofida aylanayotgandek go‘yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga quyilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish “Ilk qadam” Davlat o`quv dasturi asosida amalga oshiriladi. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunda mamlakatning ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotini ta’limning asosiy omili bo’lgan kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berilgan.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim va maktabga tayyorgarlik bolaning kelajakdagi ta’lim sayohati uchun zamin yaratish uchun juda muhimdir. Qo’llab-quvvatlovchi va rag’batlantiruvchi muhitni ta’minlash orqali maktabgacha ta’lim dasturlari bolalarga maktabda va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo’lgan ko’nikmalar va munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga quyilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” orqali nazorat qilinadi. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari”da maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta’lim-tarbiya mazmunining asosiy yo’nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga quyiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo’lib u davlat hujjati sifatida e’tirof etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mashg‘ulotlar jarayonida axborotlarni qabul qilishi bilish jarayonlarini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik mashg‘ulotlar jarayonida beriladigan axborotlar ham boshqa axborotlar singari vaziyatga qarab qabul qilinadi, shuning uchun axborotlarni o‘zlashtirishdagi individual farqlar, extiyojlar, topshiriqlar va bolalarning maqsadlari mos bo‘lmasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning axborotlarni qabul qilishlari bir xil bo‘lmasada, ularning bilish faoliyatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda qabul qilishning ikki turlari ajratilgan: analitik va sintetik. Analitik turda diqqat e'tibor alohida mayda-chuydalarga qaratiladi. Sintetik turda umumiy yaxlit holda qabul qilinadi. Ikkala turni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish psixologiyada hozirgacha saqlanib keldi. Ammo turli yo‘nalish vakillari buni shunday ta'riflaydilar. Differensial psixologiya uchun perseptiv usullarni farqlash muhimdir, chunki bu barcha bolalarda bir xil emas. Bu turdagi individual xususiyatlar bolada umrbod o‘zgarmas bo‘lib qolmaydi, ular ontogenez jarayonida rivojlanadi, nafaqat rivojlanish jarayonida balki pedagogik mashqlar, pedagogik ta'sirlar orqali o‘zgarib boradi.

Axborotlarni qayta ishlab chiqish tezligini an'anaviy taxistostopik usul va ko‘z harakatini o‘lchash zamonaviy muolajasi yordamida aniqlash mumkin. Taxistaskopik tajaribalarda insonlarda bir xil sharoit va bir xil vaqt ichida axborot qabul qilish va qayta ishlash qobiliyati har xilligi kuzatilgan. Axborotni qayta ishlash tezligi va sifatini o‘rganishning ikkinchi metodik uslubi bu ob'ektlarni ko‘rib chiqish va matnlarni o‘qish paytida amalga oshiriladigan ko‘z harakatlarni o‘lchash va belgilab qo‘yishdir. Axborotlarni qabul qilish qayd etish paytida sodir bo‘ladi. Shuning uchun fiksatsiyalar davomiyligini o‘lchash axborot qabul qilishga qancha vaqt kechishini aniqlashga imkon beradi. Ma'lumki, jismni ko‘rgazmali tahlil qilish kuzatuvchining bilimi, tajribasi va kuzatishlariga bog‘liq.

Psixologlar tomonidan kuchli va kuchsiz asab tizimiga ega bo‘lgan bolalarni o‘yin faoliyatida kuzatilganda nigohni fiksatsiya qilish davomiyligi va qaror qabul qilishdagi vaqtda farq borligini aniqlaganlar. Kuchsiz asab tizimiga ega bo‘lgan bolalar kuchlilariga qaraganda nigohlarini tez va uzoq to‘xtatib turishgan, qarorni sekinroq qabul qilishgan, raqiblarining figuralariga emas, o‘z figuralariga ko‘proq e'tibor berishgan. Kuchli asab tizimiga ega bo‘lgan bolalar bir fiksatsiyada juda ko‘p axborot qabul qilishgan, o‘yinning keyingi holatiga ahamiyat berishgan. Faol qidiruv axborotini amalga oshirgan.

Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim bola rivojlanishining zaruriy va ijtimoiy ahamiyatga ega bosqichi sifatida qaraladi. Bu shaxsning normal psixologik rivojlanishiga, ijtimoiylashuv jarayoniga va bolaning ijobiy rivojlanishiga yordam beradi. Bir qancha xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim tuzilmasini ko’rib chiqamiz. AQSh maktabgacha ta’lim tizimi har qanday rivojlanish darajasidagi bolalar uchun ta’limolish uchun sharoit yaratish bilan tavsiflanadi. Oddiy bolalar rivojlanishda qandaydir buzilishlari bo’lgan bolalar bilan birga o’qiydilar. Ayni paytda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ularning qulay dam olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Maktabgacha ta’lim pullik. Davlat bolalar bog’chalari mavjud bo’lib, ularda bolalar kuniga ikki-uch soat o’qitiladi va erta rivojlanishmaktablari mavjud bo’lib, ularda uch yoshdan bolalar qabul qilinadi va rivojlanish dasturlari bo’yicha o’qitiladi. Bola kun bo’yi qoladigan xususiy bolalar bog’chalari ham mavjud. Asosan, ular o’z xodimlarining farzandlarini qabul qilish uchun alohida korxona va tashkilotlarda tashkil etiladi. Bolalarning ijodiy rivojlanishiga alohida e’tibor beriladi.

Finlyndiyadagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari (bolalar bog’chasi, progimnaziya, bolalar rivojlanish markazi va boshqalar) oilalarga 1 yoshdan olti yoshgacha bo’lgan bolalarni tarbiyalashga yordam berish uchun yaratilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan ta’lim va tarbiya boshlang’ich ta’limning tayyorgarlik bosqichidir. Maktabgacha ta’limning bu xususiyati nafaqat Finlandiyaga emas, balki boshqa barcha mamlakatlarga ham berilishi mumkin, Finlandiyada maktabgacha yoshdagi ta’lim tamoyillarida sezilarli farqlar yo’q. Yaponiyaning maktabgacha ta’lim tizimi bolaning iqtidorini aniqlash va uning salomatligini saqlashga alohida e’tibor qaratilishi bilan ajralib turadi. Jismoniy faollikka katta e’tibor beriladi. Har bir maktabgacha ta’lim tashkilotsi suzish havzasi bilan jihozlangan, tibbiyotxodimlari faoliyat ko’rsatadi. O’qitish bolaning aniqlangan qobiliyatidan kelib chiqqan holda differensiallashtirilgan dasturlar bo’yicha olib boriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga izoh berish va ularni jazolash taqiqlanadi. Shveytsariya yuqori sifatli maktabgacha ta’lim tizimiga ega Yevropa davlatidir. Bolalar bog’chalarida ta’lim 4-5 yoshdan boshlanadi. Ularda ta’lim bolaning maktabga aqliy tayyorgarligiga qaratilgan. Bolalar bog’chalari barcha zarur materiallar va atributlar bilan jihozlangan. To’liq kunduzgi parvarishga ega davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ham,bolalar

ertalab yoki kechqurun bir necha soat qolishlari mumkin bo’lgan xususiy tashkilotlar mavjud. Latviya va Vengriyadagi maktabgacha ta’lim tizimi bolalarni maktabga to’liq tayyorlashga qaratilgan.

Hindistondagi maktabgacha ta’lim barcha mamlakatlar uchun xos bo’lgan bolalar bog’chalarining yo’qligi bilan tavsiflanadi. Ularda majburiy bo’lgan tayyorgarlik maktablari, shuningdek, ota-onalar kun davomida bir muncha vaqt o’z farzandlarini tark etishlari mumkin bo’lgan tashkilotlar mavjud. Frantsiya maktabgacha ta’lim tizimi bolalar bog’chalari, ona maktablari va boshlang’ich maktablardagi chaqaloqlar sinflaridan iborat. Ta’lim ikki yoshdan olti yoshgacha amalga oshiriladi. Barcha ta’lim tashkilotlari maktabgacha va boshlang’ich ta’limning uzluksizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Ona maktablari boshlang’ich sinf o’qituvchisi bo’lgan bitta o’qituvchi tomonidan ta’lim beradi. Bu ta’limning uzluksizligini maksimal darajada oshiradi. Trening asosan o’yin shaklida amalga oshiriladi.

Demak, MTT ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda madaniy muhit, madaniy faoliyat bosqichlaridan iborat andazasini tashkil etish, ularni har tomonlama anglashga, milliy qadriyatlarni saqlashga imkoniyat yaratadi. Bolalar ma’naviy dunyosining o’ziga xos xususiyatlaridan yana biri – kattalarni obro’li inson, namuna deb bilishlari, maslahat olishlari, taqlid qilishlari va lozim bo’lgan paytda har qanday yordamni olishlariga ishonch hosil qilishlari kerak. Hyech qanday tarbiya uslubi, bolalarga namuna kuchidek ta’sir ko’rsata olmaydi. Namuna taqlid uchun asosiy manba rolini o’ynaydi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 8 oktabr PF-584 sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-sonli farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. 2017 yil 02 iyuldagi PF-4947-son farmoni.

4. Qodirova F., Toshpo’latova Sh., Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. — T.: Tafakkur nashryoti, 2019 y.

5. Djurayeva D.R. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari. O`zPFITI. 2015 y.

O‘QUVCHILARDA INSONPARVARLIK XISLATLARINI SHAKLLANTIRISH

Tashmetova Shaxlo Xusanovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Umumiy pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ko‘rinib turibdiki, ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan dolzarb vazifalarni amalga oshirishda pedagoglarda ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlar jarayonida faol ishtirok etishlari, ta’limdagi islohotlarga nisbatan daxldorlik hissini anglagan holda o‘z pedagogik faoliyatiga yondashish zarur ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu esa har bir ta’lim jarayonini tashkilotchisida jamiyatdagi yangicha qarash-ob’ektiv dunyoni yaxlit idrok etadigan, o‘zligini anglab yetgan, insoniy qadr-qimmatini ulug‘laydigan yosh avlodni tarbiyalash davlatimiz taraqqiyoti va ravnaqining bosh mezoni sanalmoqda. Ushbu jarayonda umum ta’lim maktablarining o‘quvchilarda tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishdan boshlash va bunda maktab o‘qituvchisining o‘quvchiga bo‘lgan munosabatlarini insonparvarlashtirishga nisbatan qo‘yiladigan talablar, ta’limni tubdan demokratlashtirish, uzluksiz ta’lim g‘oyasi, ya’ni «ta’lim butun umr davomida» g‘oyasi bu nafaqat mutaxasisslarni tayyorlash vositasi, balki jamiyatga ongli, insonlarni yetkazib berish hamdir.

Ta’lim tashkilotlarida yaratilayotgan sharoitlar bilan bir qatorda ta’lim jarayonini insonparvarlashtirishdagi quyidagi talablar asosiy o‘rinda turadi:

-ta’limni tubdan demokratlashtirish;

-uzluksiz ta’lim g‘oyasi, ya’ni «ta’lim butun umr davomida» g‘oyasi. Bu nafaqat mutaxasisslarni tayyorlash vositasi, balki jamiyatga ongli, insonlarni etkazib berish hamdir;

-ta’limni globallashuviga erishish.

O‘quvchi shaxsida inosparvarlik his-tuyg‘ularini shaklantirish orqali insonparvarlik tayanch fazilatlarini tarkib toptirishda pedagogika nazariyasining asosiy tushunchalaridan «ta’limni insoniylashtirish» «ta’limni insonparvarlashtirish», «ta’lim-tarbiya jarayonga insonpar yondashuv», «hamkorik pedagogikasi» kabi tushunchalar nazariy asos hisoblanadi.

Ta’limni insoniylashtirish — ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsining ustuvor o‘rin tutishi, uning shaxsi, xohish istak va qiziqishlarini hurmat qilish, qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topib olishi uchun sharoit yaratish.

O‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirish orqali ularda insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda har bir o‘quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, o‘quvchilik ijtimoiy maqomiga mas’uliyat bilan yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang’ich sinf o‘quvchilarida axloqiy xis-tuyg’ularni shakllantirishning shartlaridan biri ularda axloqi ong, tushuncha va tasavvurni shakllantirishdir. Maktabning 1-sinfiga kelgan

o‘quvchida ijobiy va salbiy xulq-atvor haqida tushunchalari shakllangan bo‘ladi. O‘quvchilarda o‘rtoqlik do‘stlik, o‘zaro yordam berish, o‘rtog‘ining quvonchi yoki qayg‘usiga sherik bo‘lish, o‘zaro yordam kabi xislatlar ko‘rinishlari namoyon bo‘la boshlaydi. Bu esa o‘quvchilarni sinf jamoasiga intilishining bir belgisi xisoblanadi. Ijtimoiy rivojlanishining barcha jabxalaridagi insonparvarlashuv jarayoni ma’naviy qadriyatlar va asrlar mobaynida tarkib topgan boy xalq milliy an’analarini yangicha tushunishni taqozo qiladi. Ulardan talim-tarbiya soxasida samarali foydalanish pedagogika fani nazariyasi va amaliyoti oldiga tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakl va metodlarini yangilash muammosini qo‘ymoqda. Boshlangich sinf o‘quvchilarining bir maqsad asosida sinf jamoasiga birlashib bir makon va zamonda ekanliklarini, talim jarayonida fanlardan yangi bilimlarni birgalikda o‘zlashtirishlari, bir-birlariga xayrihoh bo‘lib o‘zaro yordam berishlari, qiziqishlarining umumiyligi o‘quvchilarni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Talim jarayonida uchraydigan muammolar, uni yechish uchun birgalikda xarakat qilish natijasida muvaffqiyatdan quvonish, muvaffqiyatsizliqdan bir-birini tushunish, o‘zaro yordam berishga tayyor turishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq. 1-sinf o‘quvchisi xayotidagi o‘zgarishlar, yangi shart-sharoit, maktabning jo‘shqin xayoti, yangi tengdoshlar bilan muloqot, maktabga kelgan dastlabki kunlardagi jo‘shqin xayot tarzi o‘quvchida qiziqish uyg’otadi, ushbu voqea-xodisalarni jo‘shqin qabul qilish orqali ushbu xolatni tengdoshlari bilan birga qabul qiladi, ichki kechirmalarni boshidan o‘tkazadi. Bolalarga xos bo‘lgan tevark-atrofdan jo‘shqin ta’sirlanish xususiyati, shuningdek, atrofdagilar bilan doimiy muloqotda bo‘lib turish extiyoji ularda kattalarga, tengdoshlarga nisbatan sezgir, e’tiborli bo‘lishni tarbiyalashda foydalanish maqsadga muvofiq. Bu o‘rinda 1-sinf o‘quvchisinining o‘quvchilarga ochiq yuz bilan samimiy, do‘stona munosabati, o‘quvchilarning xar biriga e’tiborli bo‘lishi, ularga yordam berishga tayyor turganligini o‘quvchilar tomonidan xis etilishi, o‘qituvchiga nisbatan xayrixox bo‘lishi, unga ishonish, uning so‘zlariga itoat qilish orqali unda «onalik funktsiyasi» ning qirralarini xis etishi muxim xisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida insoniy xis-tuyg‘ularini tarbiyalash shartlaridan eng muximi boshlang’ich sinfda ijobiy xis-tuyg‘ular muxitini yaratish xisoblanadi. Maktabning pedagog jamoasi, xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro xurmat, samimiylik, o‘qituvchining bolalarga va ularni ota-onalariga xurmat bilan qarashlari, ayniqsa o‘qituvchining o‘quvchilarga bo‘lgan munosabatidagi demokratik uslub insoniylikni tarbiyalashning sharti xisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insoniylik sifatlarini rivojlantirishning shartlaridan yana biri o‘quvchilar xayotida, ijtimoy xayotda sodir bo‘layotgan har voqea-xodisalardan o‘rinli, maqsadli foydalanish xisoblanadi. Masalan, 2020 yilning yozida ommaviy axborot vositalari orqali sardoba suv omborining ochilib ketishi orqali odamlarning uylarini oqizib ketganligi haqidagi xabar va unga oid ko‘rsatuvlar televidenie orqali qayta-qayta ko‘rsatildi. Ushbu voqea xar bir O‘zbekistonlikni

qalbini larzaga soldi. O’zbekiston televideniyasi orqali xayriya jamg‘armalari tashkil etilib sardobaliklarni yuborildi. Shunga o’xshash xayotiy dalillardan o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiq.

Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining ta’lim-tarbiyasini, tashkil etishda emotsiya va xissiyotlarning ontogenezidagi rivojlanish qonuniyatlarini, shart-sharoitlarini, yosh davrlari xususiyatini inobatga olish o‘quvchining maktabda turli xayotiy vaziyatlarda optimistik munosabatda bo‘lishga imkon beradi. Bu esa o‘quvchida yuksak oliy xususiyatlarning maqsadga muvofiq rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimova X.I, Yo’ldoshev U.A, Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. -T.: O’zbekiston faylasuflar miliy jamiyati, 2007.-410 b

2. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta`lim maktabida o`qitish metolari. -T.: O`qituvchi, 2000 y.

3. Otamurodov S., Husanov S., Ramatov J.. “Ma’naviyat asoslari”. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 2002 y.

4. Xoja Samandar Termiziy Dastur ul-muluk. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.

MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNI AMALIY PEDAGOGIK VA BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA “KEYS-STADI” METODIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Toshpo‘latova Dildora Baxriddinxon qizi

NamDU, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, (PhD)

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarini amalga oshirish, xususan, bolalarni jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog‘lig‘ini muhofaza qilish; bolalarning erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axloqiy va ma’naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi [1].

Talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda pedagogik masala va muammolarni yechish pedagogik faoliyatning mohiyatini ifodalaydi. Pedagogik masalalarni yechishda standart ham, ijodiy ham yechimlarni foydalanish mumkin.

Agar ta'lim jarayonida barcha o'qitish subyektlarining muloqoti, kooperatsiyasi, hamkorligiga asoslangan o'qitishning interfaol tartibi foydalanilsa, amalda ushbu talablarning barchasi rioya etiladi. Shuning uchun, pedagogikaga oid fanlarni o'qitishda talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradigan yondashuv va uslublari ichidan o'qitishning interfaol shakllariga, shu jumladan, vazifalarni tahlil qilish uslubi (muammoli ta'lim, Keys-uslubi)ga alohida e'tibor qaratish lozim.

Amaliy yo'naltirilgan, ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi uslublar o'z xususiyatlariga ko'ra innovatsion hisoblanadi. Ularga: tashkiliy-faoliyatli o'yinlar, ishchan va rolli o'yinlar, personallarning muloqoti, ijodiy ishlar, psixotexnika, rolli trening, "Case-study" va boshqalar kiradi. *"Case-study"* – turli vaziyatlarning tavsifidan, ya'ni keyslardan foydalangan holda talabalarda aniq ko'nikmalarni shakllantirish texnikasidir[2].

Keys-uslubi – oliy ta'lim muassasalari uchun o'qitishning innovatsion uslubi hisoblanib, predmetning barcha xususiyatlarini hisobga oladi va talabalarda zarur bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish imkoniyati mavjud.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarni o'qitishda keyslar bilan ishlash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli texnologik yondashuvlarni ko'zda tutadi. Aniq muammoli vaziyatlarni yaratish usuli va talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, o'quv materialining murakkablik darajasi, ajratilgan vaqt, talabalarning aniq kontingenti va boshqa qator omillarga bog'liq.

Keys – texnologiyadan foydalanib o'tkaziladigan dars algoritmiga muvofiq darsni tashkil etishni quyidagi kengaytirilgan bosqichlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. *Keysni o'qituvchi tomonidan tayyorlash*. Keys va uni tahlil qilish masalalarini tuzish ijodiy tabiatga ega bo'lgan ish hisoblanadi. Bu ish auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladi va o'qituvchining ilmiy-tadqiqot, uslubiy va konstruktorlik faoliyatlarini qamrab oladi.

2. Talabalarning keys bilan yakka tartibda mustaqil ishi. Umuman, talabaning keys bilan ishi ikki fazaga ajraladi. Birinchi faza auditoriyadan tashqaridagi ish bo'lib, uning maqsadi ikkinchi fazaga –auditoriyada bajariladigan keys tahliliga tayyorgarlikdan iborat.

3. *Kichik guruhlarda amaliy vaziyatni tahlil qilish*. Vaziyatni ko'rib chiqish, talabalarni kichik (4-5 talaba) guruhlarga ajratib amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Guruhlardagi talabalarning soni juda kichik bo'lgan hollarda, vaziyatning tahlilini ularni juftliklarga ajratib amalga oshirish ham mumkin. Kichik guruhlardagi talabalarning soni qaralayotgan vaziyatning qanchalik yangiligi, keng qamrovligi va murakkabligiga ko'ra o'zgarishi mumkin. Keys-uslubida

kichik guruhlarda ishlash markaziy o‘rin egallaydi, chunki u eng samarali o‘rganish va tajriba almashish uslubidir.

4. Vaziyatni auditoriyadagi dastlabki muhokamasi. Bu bosqich o‘qituvchiga talabalar materialni qanchalik yaxshi o‘zlashtirganliklari va vaziyatdagi muammolarni qanchalik tushunganliklarini aniqlash uchun zarur, chunki talabalar keys bo‘yicha amaliy vazifalarni bajarishga zarur bo‘lgan yangi materialni mustaqil o‘rganadilar.

Talabalar egallagan bilimlarini an’anaviy (og‘zaki frontal so‘rov, o‘zaro tekshirish, kartochka bo‘yicha javob) va noan’anaviy (test sinovlari, reyting va sh.k.) uslublari orqali nazorat qilish mumkin.

5. Guruhlararo munozara. Bu bosqich kichik guruhlarning ma’lumotlari asosida o‘tkaziladi. Har bir kichik guruhlarning yakuniy materialni taqdimot qiluvchi sardorlari - ajratilgan vakillari, keysning tahlili va kichik guruh taklif qilgan yechimlar bilan chiqish qiladilar, boshqa kichik guruh ishtirokchilari esa opponent rolida chiqadilar.

O‘qituvchi vaziyatni nazorat qiladi va munozarani to‘g‘ri yo‘naltirgan holda, munozarani muvafiqlashtiruvchisi va rahbari, zarurat bo‘lgan vaqtlarda – opponent rolini bajaradi.

6. Yakun yasash. Bu bosqichda auditoriyadagi xohlovchilarning fikrlari eshitiladi, so‘ngra mashg‘ulot olib borgan o‘qituvchining chiqishi orqali mashg‘ulotga yakun yasaladi.

O‘qituvchi kichik guruhlar va alohida talabalarning xulosalariga, shuningdek o‘tkazilgan munozaraga baho beradi.

Quyida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash maqsadida “Maktabgacha pedagogika” fanini o‘qitishda foydalaniladigan keyslardan namunalar keltiramiz:

1-vaziyat. Feruza ismli qiz bola 6 yoshda. U 3 yoshidan xoreografik to‘garakka, 5 yoshidan esa vokal va teatr studiyasiga qatnaydi. Tez-tez sahnada chiqish qiladi, turli tanlovlarda qatnashadi. Navbatdagi chiqish oldidan o‘yin vaqtida Feruza o‘zining tengqurlariga: “Men sizlardan yaxshiroq bilaman, men sahnaga ko‘p marotaba chiqqanman, sizlar esa, chiqmagansizlar. Shuning uchun, men tulki rolini o‘ynayman” deb, rahbarlik qilishga harakat qilmoqda. Tengqur qizlar unga bo‘ysunishdan bosh tortishga harakat qilmoqdalar va tarbiyachi oldiga yordam so‘rab bormoqdalar.

Keysga savol- vazifa:

Sizning harakatlaringiz qanday bo‘ladi?

Echim variantlari:

1-variant. Feruzaga o‘zining dugonalariga o‘zlarini namoyon qilishlariga yordam berish uchun ushbu o‘yinda rejissyor rolini taklif etish. Ularning chiqishlari ham maqtovga loyiqligini ko‘rsatish.

2-variant. Feruza bilan badiiy asar qahramonlari xulqlarining salbiy tomonlari (maqtanish, do‘stlarining xafaligi va hokazo)ni tahlil qilishga yo‘naltirilgan suhbat o‘tkazish, boshqa qizlar uning dugonalari ekanligini, ularda ham shu rolni o‘ynashga xohishlari borligini tushuntirish. Tulki rolida navbat bilan o‘ynashni taklif etish.

3-variant. Bolalarga tortishmaslikni taklif etish, balki rolni taqsimlashni qur’a tashlash yo‘li bilan amalga oshirish. Shunda to‘g‘ri bo‘lar.

4-variant. Tulki – bosh rol uchun tanlov tashkil qilish, mustaqil hakamlarni (ushbu o‘yinda qatnashmaydigan o‘g‘il bolalardan) tanlash.

5-variant. Ushbu muammoni hal etish uchun bolalarga murojaat qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar”

1.O‘zbekiston Pespublikasining 2019 yil 16 dekabpdagi “Maktabgacha ta’lim va tapbiya to‘g‘pisida”gi O‘PQ-595-sonli Qonuni.

2.Abduqodirov A.A. «Pedagogika» va «Psixologiya» fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti .-T.: «Fan va texnologiyalar», 2015. - 161 b.

3.Sh.Sh.Olimov, B.T. Juraev. Malakaviy amaliyot. Metodik qo‘llanma. –B.: Buxoro davlat universiteti, 2021. - 41 b.

4.Sh.A.Tursunov, Sh.B.Rashidova. “Menejment va marketing asoslari” O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: 2014 6-b.

5.Ta’lim menejmentini o‘qitish metodikasi. O‘quv-uslubiy majmua. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. –T.: 2021, 57-b.

6.Pedagogik amaliyot: tizim mohiyati va mexanizmi. E.Yuzlikaeva., J.G‘ulomov., X.Ruzimetov va boshqalar. Nizomiy nomidagi TDPU, 2012 y., -165 b

TALABALARNI KASBIY-IJODIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INDIVIDUAL TA’LIMNI TASHKIL ETISH ZARURATI

Арслонова Гулсора Курбоновна

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
gulsoraarslonova@gmail.com

Zamonaviy ta’limni modernizatsiyalash kontekstida talabalarni kasbiy-ijodiy jihatdan tayyorlashning eng samarali yo‘llarini izlash ijtimoiy va pedagogik zarurat hisoblanadi. Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim sharti, ularni individual ta’lim asosida mamlakatimizda yuz berayotgan ilmiy-texnikaviy yutuqlar, mehnat bozori va ijtimoiy-iqtisodiy

sohalarning transformatsiyalashuviga oid yangi bilimlar bilan qurollantirishdir. Oliy ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, professor-o‘qituvchilardan o‘quv maqsadlariga erishishning samarali yo‘llarini izlashi va ta’lim sifatini oshirishni talab etadi. Fikrimizcha, mazkur vazifalarni yechimi talabalarga individual yondashuv asosida ta’lim-tarbiya berishdir.

Pedagogika fanining asoschilari Ya.A.Komenskiy, Ye.S.Rabunskiy, V.A.Suxomlinskiy, I.E.Unt, K.D.Ushinskiyning ilmiy g‘oyalari mazmuni individual ta’lim berishga bag‘ishlangan. Zamonaviy pedagogikada talabaning individual xususiyatni inobatga olish, o‘qitishni noan’anaviy usuli ya’ni individual ta’lim traektoriyasi deb tavsiflanadi. Individual yondashuv elementlarini talaba shaxsiga erkin tanlash imkoniyatini berish, kasbiy-psixologik potensialini amaliyotga tatbiq etish, ma’suliyatni o‘z zimmasiga olish, ichki psixik rivojlanishi va ijtimoiy-kasbiy hayotdagi faolligini oshirishni tashkil etadi. Oliy ta’limda individual pedagogik yondashuvni tashkil etish jarayonida psixologik komfort muhit yaratish zarur. Chunki talabalarga o‘z-o‘zini namoyon etishlari uchun optimal sharoit yaratish, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish va o‘zlashtirish uchun pedagogik ta’sir ko‘rsatish zarur. Oliy ta’lim jarayonida individual ta’limning ijtimoiy-pedagogik shartlarini quyidagilar tashkil qiladi:



Talabalarni kasbiy-ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim pedagogik aspekti bevosita ijodiy faoliyatga yo‘naltirish, uzluksiz ta’lim olishini ta’minlashdan iborat. Bu esa o‘z navbatida talabalarni kasbiy rivojlantirish, ularda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda individual yondashuv taqozo etiladi. Shu bosidan talabalarni kasbiy mobilligini oshirish va so‘nggi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga undovchi jarayon tashkil etish maqsadga muvofiq.

Individual ta’limni tashkil etish quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi:

- ***Past o‘zlashtirayotgan talaba***. Agarda talabalar fan dasturi mazmunidagi vazifalarni o‘zlashtira olmasa, darslik, o‘quv qo‘llanma bilan ishlay olmasa o‘qituvchi unga diqqatini

qaratishiga ehtiyoj sezadi, o‘zi uchun qulay holatda ta’lim olishga imkon yaratilishini, mavzuni aniq, ravon tushuntirishini istaydi.

- ***Iqtidorli talabalar***. Darsda faol qatnashadi, intellektiga mos murakkab o‘quv materiallarini o‘zlashtirishni istaydi. Bilimlarini faollik bilan namoyon qiladi. Xattoki past o‘zlashtiruvchi talabalarga xalaqit berishi ham kutiladi.
- ***Oliy ta’lim tashkilotiga moslashish va ijtimoiylashuvida qiyinchilik yuz berishi***. Mabodo talaba tengdoshlari bilan me’yor darajasida muloqotga kirisha olmasa, o‘zini noqulay his qiladi. Xulq-atvorida ham o‘zgarishlar ro‘y beradi. Shuning uchun darsdan tashqari mustaqil ta’lim berish, yakkama-yakka suhbatlashish, savol-javob o‘tkazish, yozma topshiriqlar berish lozim.
- ***Sog‘ligini yaxshi emasligi ham talabalarning imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi.*** Uzok muddat dars jarayonida qatnashish jismoniy zo‘riqishni keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur vaziyatda talaba individual shaklda ta’lim olishi kerak.
- ***Sport musobaqalari yoki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok*** etishi ham darsda muntazam qatnasha olmaslikka sabab bo‘ladi.

Keltirilgan sabablar talaba va professor-o‘qituvchi hamkorlikda individual ta’lim marshruti tuzishni taqozo etadi. Natijada talabalarga o‘z-o‘zini rivojlantirishga yordam beradi, shaxsiy o‘quv faoliyatini boshqarishni ta’minlaydi. Oliy ta’lim jarayonida talabalarga yaratilgan kompfort muhit o‘zlashtirayotgan o‘quv materialini to‘g‘ri idrok etishni ta’minlaydi. Individual ta’limda talaba bilimlarni yakka o‘zi o‘zlashtirmasligi ham mumkin, o‘qituvchi va talabaning produktiv hamkorligi individual ta'lim dasturining izchil amalga oshirishni ta’minlaydi. Izchil ravishda hamkorlikda ishlash, ta’lim jarayoni sub’ektlarini faollashtiradi, personifikatsiya munosabatini o‘rnatish va o‘zaro ta’sir ko‘rsatishga ko‘mak beradi. Ta’limni insonparvarlashtirish individuallashtirishning muhim komponenti sanaladi. Bunda har bir talabaning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ular shaxsini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi.

Fransuz psixologi A.Vallon fikricha, “shaxsni rivojlantirish borasida har bir yosh bosqichida psixikaning ichki rivojlanishi ustunlik qiladi. Keyingi yosh davrida rivojlanish yana amalga oshaveradi” [1]. Talabaning intellektual salohiyatini oshirish kasbiy-ijodiy ko‘nikmani rivojlanishida poydevor vazifasini o‘taydi. Oliy ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim oluvchi shaxsini rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Individual ta’lim sharoitida talabalar o‘quv materiallarini turlicha o‘zlashtiradi, dars jarayonida ishtiroki xam turlicha kechadi. Individual ta’limning afzalligi shundaki, talabalarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari yuqori pog‘onani egallaydi. Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali muloqot kechadi. Individual ta’lim shaklida talaba shaxsining ijodiy imkoniyatlari rivojlantiriladi.

Ta’limni individuallashtirishning ikki muhim jihati mavjud:



Shaxsiy maqsadni amalga oshirish

Individual ta'lim strategiyasini shakllantirish

Individual ta’lim yetakchi tizimli didaktik tamoyil bo‘lib, kasbiy-ijodiy ko‘nikmani rivojlantirish vositasi sifatida individual rivojlanish strategiyasi sanaladi. Individual ta’lim strategiyasi shaxsning murakkab integrativ dinamik o‘sishi sanalib, qadriyatli, motivatsion, kognitiv va faoliyatli komponentlardan iborat. Ushbu komponentlar talabani hozirda va kelgusida kasbiy faoliyatini turli shakllarini tanlashiga turtki bo‘ladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Валлон А. От действия к мысли. Очерк сравнительной психологии. 1996. — 240 с.
2. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. — М., 1989. — 350 с.
3. Сухомлинский В.А. Рождение гражданина. — М.:2023. — 400 с.
4. Рабунский Е.С. Индивидуальный подход в процессе. — М., 1991.— 184 с.
5. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания: Научное монография. — М., 2012. — 248 с.
6. Унт И.Э. Индивидуализация и дифференциация обучения. — М., 1990. —188 с.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BOG‘LANISHLI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA HIKOYA TUZISHGA O‘RGATISHNING AHAMIYATI

Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi,

Namangan Davlat Universiteti, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Bola qanday fikr bildirayotganini tushunish uchun faqat nutqning o‘zi yetarli emas, uni faqat maktabgacha yoshdagi bolaning o‘ziga xos holatini hisobga olgan holda tiklash mumkin. Buning sababi, bolalar o‘z fikrlarini ko‘proq ifoda etadilar, bu ularning xarakterli xususiyatidir.

Faqat asta-sekin bolalar nutq kontekstini qurishga o‘tadilar. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarga kelsak, ular muntazam ravishda qiziqarli nutq tuzilishini rivojlantiradilar.

Bolalar beixtiyor o‘z nutqlarini ularga darhol tushunarli bo‘lgan narsaga asoslanib tuzadilar. Maktabgacha yoshdagi har bir bola o‘z fikrlarini ifodalashda mazmunli, grammatik jihatdan to‘g‘ri, izchil nutqqa ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, uning nutqi jonli, o‘z-o‘zidan va ifodali bo‘lishi kerak. Bola o‘z bayonotini qanday qurishiga qarab, uning nutqining rivojlanish darajasini baholash mumkin. O‘z fikrlarini (yoki adabiy matnni) izchil, to‘g‘ri va majoziy ifodalash qobiliyati bolalarning estetik rivojlanishiga ham ta’sir qiladi: o‘z hikoyalarini takrorlash va yaratishda bola badiiy asarlardan o‘rganilgan majoziy so‘z va iboralardan foydalanadi. Aytish qobiliyati ularga ko‘proq muloqotga kirishishga, sukunat va uyatchanlikni yengishga, o‘z qobiliyatlariga ishonchni rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, nutqning rasmiy tomonini rivojlantirish haqida unutmasligimiz kerak. Bolaning bilim va g‘oyalarini kengaytirish va boyitish ularni nutqda to‘g‘ri ifodalash qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Demak, bog‘lanishli nutq deganda mantiqiy, izchil va to‘g‘ri, grammatik jihatdan to‘g‘ri va majoziy ma’noda amalga oshiriladigan ma’lum mazmunning batafsil bayoni tushuniladi. Nutqni rivojlantirish jarayonida nutqning mazmuni ham, funksiyasi ham o‘zgaradi va bolalar izchil kontekstli nutq shaklini o‘zlashtirishni o‘rganadilar.

A.M.Leushina maktabgacha yoshdagi bolalarda izchil nutqni, ularning vaziyatli nutqining xususiyatlarini o‘rganishga ko‘plab ishlarni bag‘ishlagan, bu bolalar nutqida turli shakllarda namoyon bo‘ladi [6].

Muvofiq nutqqa o‘rgatish vositasi bolalar ertaklaridir. Hikoyani o‘rgatishda aniq usullar qo‘llaniladi, ularning maqsadi boladan izchil bayonot yoki monolog olishdir (so‘z, imo-ishora yoki ibora bilan javob emas). Dastlabki bosqichda bunday usullar qo‘llaniladi, ular yordamida bolalarga ularning oldidagi nutq faoliyatining taxminiy natijasi (ulardan nima talab qilinadi) va bu natijaga erishish yo‘llari (bu qanday amalga oshiriladi) ko‘rsatiladi. Keling, asosiy ta’lim usullarini ko‘rib chiqaylik:

Hamkorlikda hikoya qilish – bu kattalar iborani boshlab, bola uni tugatsa, qisqa gaplarning birgalikda qurilishidir. Kichik guruhda – yakka tartibda, o‘rta katta guruhda - barcha bolalar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Buni asosan tarbiyachi rejalashtiradi, uning asosiy qismini belgilaydi, jumlaning boshini nomlaydi, ketma-ketlikni, aloqa usullarini taklif qiladi.

Turli syujetlarni dramatizatsiya qilish bilan birgalikda hikoya qilish. Hikoya namunasi – bu bolalarga taqlid qilish va olish uchun ochiq bo‘lgan obyektning qisqa, jonli tavsifi yoki hodisaning taqdimoti. Treningning dastlabki bosqichlarida keng qo‘llaniladi. Namuna bolaga monologning taxminiy mazmuni, ketma-ketligi va tuzilishini, uning hajmini aytib beradi, lug‘at, grammatik shakllar va matn ichidagi muloqot usullarini tanlashni osonlashtiradi. Namuna bolalar

erishishi kerak bo‘lgan taxminiy natijani ko‘rsatadi. U mazmuni va shakli jihatidan qisqa, tushunarli va qiziqarli, jonli va ifodali bo‘lishi kerak. Namuna aniq, o‘rtacha tezlikda va yetarlicha baland ovozda talaffuz qilinishi kerak. Namuna mazmuni tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak. Hikoya namunasini tahlil qilish – bolalar e’tiborini hikoyaning ketma-ketligi va tuzilishiga jalb qiladi. Ushbu uslub bolalarni har xil turdagi monologlarni qurish bilan tanishtirishga qaratilgan bo‘lib, ularga kelajakdagi hikoyalar rejasini aytib beradi. Hikoya rejasi uning mazmuni va ketma-ketligini belgilaydigan 2-3 savoldan iborat bo‘ladi. Hikoya konturi hikoyaning barcha turlarida qo‘llaniladi. O‘yinchoqlar va narsalarni tasvirlashda u tafsilotlarni, xususiyatlarni va sifatlarni izchil amalga oshirishga yordam beradi, hikoya qilishda esa – faktlarni tanlash, personajlar tavsifi, harakat joyi va vaqti, syujetning rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Tajribali hikoya qilishda kontur ko‘rinishidagi savollar voqealarni ma’lum bir tartibda eslab qolishga va takrorlashga yordam beradi.

Ijodiy hikoya qilishda reja ijodiy muammoni hal qilishni osonlashtiradi, bolaning tasavvurini faollashtiradi va bolaning fikrlarini boshqaradi. Kattaroq guruhda bolalar rejadan chetga chiqishga yo‘l qo‘yishlari mumkin, kattalar asta-sekin ularni hikoyaning ma’lum bir ketma-ketligiga o‘rganadi, mantiqning buzilishi va hikoyaning to‘liq emasligiga e’tibor qaratadi. Tayyorgarlik guruhida bolalar rejani takrorlashlari va hikoyachilarning unga rioya qilishlarini kuzatishlari mumkin. Hikoya rejasi guruh muhokamasi bilan birga bo‘lishi mumkin.

Jamoaviy hikoya asosan hikoya qilishga o‘rgatishning dastlabki bosqichlarida qo‘llaniladi. Kattalar gapni boshlaydi, bola esa davom etadi. Rejani ketma-ket muhokama qilish jarayonida bolalar kattalar bilan birgalikda eng qiziqarli bayonotlarni tanlaydilar va ularni izchil hikoyaga birlashtiradilar. Voyaga yetgan kishi o‘z iboralarini kiritib, butun hikoyani takrorlaydi, keyin bolalar hikoyani takrorlaydilar.

Hikoyani qismlarga bo‘lib tuzish – bu hikoyalarning har biri matnning bir qismini (syujetli rasmlar seriyasi) yaratishdir. Ushbu uslub ko‘p epizodli rasmlarni tasvirlashda, jamoaviy tajribadan hikoya qilishda, alohida obyektlar va tub mavzularni aniqlash oson bo‘lganda qo‘llaniladi.

Modellashtirish – maktabga tayyorlov guruhlarida qo‘llaniladi. Model – bu hodisaning diagrammasi bo‘lib, uning tarkibiy elementlari va aloqalari, obyektning eng muhim tomonlari va xususiyatlarini aks ettiradi. Har xil turdagi modellar qo‘llaniladi (3 ta teng bo‘lmagan harakatlanuvchi qismga bo‘lingan doira, ularning har biri hikoyaning boshlanishi, asosiy qismi va oxirini tasvirlaydi). Birinchidan, model idrok etilgan matn tuzilishining tasviri, keyin esa mustaqil ravishda hikoya tuzish uchun qo‘llanma sifatida ishlaydi. Muayyan simvolizm orqali aks ettirilgan sxemalar, shuningdek, o‘yinchoqlar, tabiiy narsalar va fasllarning izchil, mantiqiy tavsifi uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Hikoyaning yoki argumentning har bir qismining boshida

paydo bo‘ladigan so‘z va iboralarni almashtirish uchun mavhum belgilardan foydalanishingiz mumkin (geometrik shakllar: doira - hikoyaning boshi, to‘rtburchak - asosiy qism, uchburchak - oxiri). Bolalarga o‘rinbosarlarning vazifalari tushuntiriladi. Birinchidan, ular tayyor ma’lum matnlar yordamida bunday modellarni qurishni o‘rganadilar, so‘ngra ular model asosida yangi matnlarni idrok etish, tahlil qilish va takrorlashni o‘rganadilar va nihoyat, o‘zlarining o‘rnini bosuvchi rasmlar asosida o‘zlarining hikoyalari va mulohazalarini yaratadilar. Muvofiq nutqni o‘rgatish uchun personajlarning sxematik tasvirlari va ular bajaradigan harakatlar qo‘llaniladi. Dastlab, badiiy asarlarning tinglangan matnlari qismlarining semantik ketma-ketligining rasm-sxematik rejasi tuziladi. Keyin strelkalar bilan tutashgan belgilar o‘rnini bosuvchi chizilgan kartochkalar ko‘rinishidagi tayyor elementlardan maket qurish malakalari o‘rgatiladi. Keyinchalik, bolalar taklif qilingan model asosida ertak va hikoyalarni o‘ylab topishadi. Asta-sekin, bola mustaqil nutq faoliyatida o‘zini yo‘naltiradigan matnning mantiqiy ketma-ketligi haqida umumlashtirilgan g‘oyalarni rivojlantiradi. Bolalar monologlarini baholash bolaning hikoya mavzusini ochishini, uning ketma-ketligini, izchilligini, tilning ifodali vositalarini tahlil qilishga qaratilgan. Baholash tarbiyaviy xususiyatga ega. Avvalo, kattalar hikoyaning kuchli tomonlarini ta’kidlaydi, shunda barcha bolalar ulardan o‘rganishlari mumkin. Kichik va o‘rta guruhlarda baholash rag‘batlantiradi, katta guruhlarda esa bolalar hali o‘rganishlari kerak bo‘lgan narsalarni bilishlari uchun kamchiliklarni ko‘rsatadi. Bolalar katta va tayyorgarlik guruhlarida hikoyalarni tahlil qilishda ishtirok etadilar. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarni hikoya tuzishga o‘rgatish usullari xilma-xildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.“Ilk qadam” (takomillashtirilgan ikkinchi nashri) Davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.

2. Тихеева Е.И. Развитие речи детей (раннего и до школьного возраста) – М.: 2003.

3. Korotkova E.P. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hikoya qilishga o‘rgatish. – M. : Ma’rifat, 1982.

4. Borodich, A.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutqni rivojlantirish usullari. — M.: Pedagogika, 1982. - 361 b.

5 .Leushina A. M. Maktabgacha pedagogika. - L.: Uchpedgiz, 1945. - 363 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM BERISHNING SIFATINI OSHIRISH VA MAKTABGA TAYYORLASH

Z.K.Kalendarova

Qo‘qon Universiteti “Ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda qayta ko‘rib chiqilganligi diqqatga sazovordir. Maktabgacha ta’lim berishning sifatini oshirish va bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakllarini joriy etish orqali ta’lim-tarbiya jarayoni yanada takomillashtiriladi. Qarorlarda ko‘rsatilgan vazifalar ijrosini ta’minlash orqali Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yanada takomillashib, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash ishlari samaradorligining oshishi ta’minlanadi. Bu esa har tomonlama sog’lom va barkamol bolalarni ulg’aytirish maqsadiga erishishga zamin yaratadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatda maktabgacha ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini tubdan yaxshilash imkonini beradi.

Xorijiy davlatlar ilg’or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama ma’naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan. Bu hamkorlik o‘z navbatida ilg’or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga, bolalarning maktabgacha ta’limi va tarbiyasining muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq etishga, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim-tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini joriy etishga, bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni uyg’otuvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallar, o‘yin va o‘yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ta’minlashga, tajribali yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni bu jarayonga jalb qilish va ularning malakasini oshirishga hamda ko‘ngilochar va bilim beruvchi ta’limiy uyin faoliyatlar elementlari bo‘lgan, hajmlari va intensivligi asosiy tibbiy taqdimnomalar bilan belgilanuvchi serharakat o‘yinlar va mashqlar uyushtirish kabilarga xizmat qilishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, aqliy, ijtimoiy hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog’ligini muhofaza qilish, bolalarni erkin

fikrlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ahloqiy va ma’naviy jihatdan barkamol qilib maktab ta’limiga tayyorlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog va tarbiyachilarining mahorati, bilimi va tajribasiga bog’liq. Buning uchun ular tinimsiz izlanishi va o‘rganishi lozim. Maktabgacha ta’lim-tarbiya yoshidagi bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishda ta’lim yo‘nalishi bolalarning bilimga bo‘lgan qizikishini shakllantirishga munosib hissa qo‘shadi.

Bolalar tafakkurini rivojlantirish ilk matematik tasavvurlarni tizimli o‘stira berish orqali amalga oshadi. Bunda ilk matematik tasavvurlar tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarni sanash, taqqoslash, ularning o‘lchamlarini solishtirish, ularning o‘rni va vaziyatlarini aniqlash, geometrik shakllarni farqlash, tafakkur operatsiyalarining analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, aniqlashtirish kabi turlarini bolalar yoshiga mos holda rivojlantira borish orqali yuzaga keladi. Bu o‘z navbatida bolalar tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda boshlang’ich sinflarda o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur qilish malakalarini egallashlariga zamin hozirlaydi va unga imkoniyat yaratadi.

Yuqoridagi qaror va farmonlarning bajarilishi, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy uyin faoliyatlar sifatining oshirilishi, tashkil etilishi, o‘tkazilishi, bolalarga bilim berish bo‘yicha zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalanishga erishish joylarda qanday kechayotganligi katta qiziqishni uyg’unlashtirishi tabiiy.

Shunday ekan, maktabgacha ta’limda ta’lim berishning sifatini oshirish orqali mustaqil fikrlay oladigan bolalarni maktabga tayyorlashimiz asosiy vazifamiz bo‘lmog’i darkor. Bu o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning maktabga tayyorgarligini kuchaytirish, didaktik sharoitlarni aniqlash, ularga bilimli va yuksak pedagogik mahoratga ega pedagog-tarbiyachilarni jalb etishni hamda ularning kasbiy malakasini muntazam oshirib borishni talab etadi. Bu bejiz emas albatta, chunki bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotida olgan bilimlarini kelgusi maktab faoliyatida amalga oshirishda ular muhim hisoblanadi. Bu davrda bolalarning egallayotgan bilim, ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish amalga oshiriladi. Bu kelgusida bolaning maktabga tayyor bo‘lib yetishishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-son qarori;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida»gi PF-6108-son Farmoni.

4. Арапова-Пискарева Н.А. Формирование элементарних математических представлений в детском саду. Программа и методические рекомендатсии. 2- е изд. испр. и доп. – М.: Мозаика-Синтез, 2009. – 112 с.

MAKTABGACHA TA’LIMDA PEDAGOGIK JARAYONINI TASHKIL ETISHDA BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHINI O‘ZIGA XOSLIGI

Axmedova Ziyoda

Uchtepa tumani 388-DMTT direktori

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan yurtimizda 2020-yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"deb e'lon qilindi. Qolaversa, prezidentimiz o‘z nutqlarida: "Biz 2020-yil davomida belgilangan sohalarni ustuvor darajada rivojlantirish va isloh etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Xususan, bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini joriy yilda 60 foizga yetkazishimiz zarur..." deb ta'kidladilar va maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan kadrlar mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida bir nechta vazifalar va takliflar berib o‘tdilar.

Ta'lim va tarbiyaning umumiy tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Har tomonlama rivojlanishning asosi sifatida jismoniy tarbiyaning ahamiyatini belgilaydigan muhim vazifa - bu o‘z harakatlarini yaxshi biladigan, jismoniy mashqlarni yaxshi ko‘radigan, o‘z muhitiga mustaqil ravishda yo‘naltirilgan, maktabda o‘rganishga va keyinchalik faol ijodiy qobiliyatga ega bo‘lgan sog'lom bolani shakllantirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning ustuvor yo‘nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi bo‘lishi kerak, bu bola tanasining tashqi va ichki muhitning salbiy omillariga chidamliligini oshirishga, jismoniy madaniyat sohasidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga, jismoniy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan. harakat qobiliyatlari, jismoniy va aqliy sifat va qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy takomillashtirishga qiziqish va ehtiyoj, bolaning shaxsiyatini har tomonlama shakllantirish.

Jismoniy tarbiya vositalarining butun majmuasi, jumladan, kun tartibini, sog'lomlashtirish va chiniqtirish tadbirlarini amalga oshirish, zarur vosita yuklarini ta'minlash,

ratsional ovqatlanish asosiy vazifani - sog'lom bolani tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Faqatgina kompleks yondashuvni amalga oshirish orqali ta'lim va dam olish ishlarining asosiy vazifalarini bajarishga erishish mumkin: bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularning optimal jismoniy rivojlanishi va harakatchanligini oshirish.

Bolaning jismoniy salomatligining asosini uning organlari va tizimlarining rivojlanish darajasi va xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Rivojlanish darajasi har bir bolaning tabiatiga xos bo‘lgan va uning asosiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo‘lgan dastur bilan belgilanadi. Bu bolaning individual-barkamol rivojlanishining sharti bo‘lgan asosiy asosiy ehtiyojlarni qondirishdir. Bolalarning to‘liq ruhiy salomatligining zaruriy sharti - bu turli xil faoliyat jarayonida ularning xatti-harakatlarini etarli darajada tartibga solishni ta'minlaydigan ruhiy qulaylik va psixologik farovonlik holati. Inson salomatligining ma'naviy tarkibiy qismi ularning ta'lim jarayoniga bo‘lgan munosabati, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolaning motivatsion va semantik sohalarini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo‘lgan umumiy qabul qilingan xatti-harakatlar normalariga muvofiqligi bilan tavsiflanadi.Bolalr jismoniy tarbiya nazariyasi va texnologiyasi integratsion fan sifatida keng qamrovli muammolarni o‘z ichiga oladi, ularni o‘rganish bir-biriga bog‘liq bo‘lgan fanlarga erishish bilan bog‘liq.Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi va texnologiyasi bo‘yicha tadqiqotlarda maxsus fan va metodlar - sotsiologiya, psixologiya, neyropsixologiya, fiziologiya, sport metodologiyasi, tibbiy nazorat va boshqalar qo‘llaniladi. Tadqiqot muammoning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, uning predmeti va obekti, gipotezasi va eksperimental maqsadlarini ochib beradigan qisqa kirish bilan boshlanadi. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish usuli nazariy va ilmiyamaliy adabiyotlarni o‘rganish va tushunishga asoslangan. Adabiy manbalarni umumlashtirish va tahlil qilish jismoniy tarbiya muammosini chuqurroq anglashga imkon beradi. Biz batafsilroq ko‘rib chiqadigan pedagogik tadqiqotlarning eng ko‘p qo‘llaniladigan usullari. Kuzatish bevosita, vositachilik, ochiq, yashirin bo‘lishi mumkin. U tarbiyachi va bola faoliyatini kuzatishni o‘z ichiga olgan faktlarni aniqlash tizimini ishlab chiqish bilan maxsus tashkil etilgan. Pedagogik kuzatish sizga qulay, tabiiy muhitda qiziqqan savollarni o‘rganishga imkon beradi. Kuzatish jarayonida kuzatilganlarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun turli xil usullardan foydalanish tavsiya etiladi: video, audio yozuv, fotosurat va filmga olish va hk.Harakat parametrlari, organizmning funksional holati, faoliyatning ayrim turlari vaqti hisobga olinadi. Masalan: psixofizik fazilatlar, jismoniy tayyorgarlikning ko‘rsatkichlari o‘lchanadi; o‘lchov amalga oshiriladi: spirometriya yordamida o‘pkaning hayotiy qobiliyati; qo‘l mushaklari kuchi - qo‘l dinamometri yordamida; harakatlanishni tashkil qilishning turli shakllarini bajarishda tananing alohida qismlari uchun vaqt ko‘rsatkichlari - sekundomer va boshqalar. Shunday qilib, jismoniy tarbiya nazariyasida turli fiziologik va psixofiziologik holatlarni o‘lchashning instrumental va instrumental bo‘lmagan vositalari qo‘llaniladi.

Kuzatish natijalari kundalik, protokol, matritsali yozuv yoki jurnalda qayd etiladi. Kuzatuv ma’lumotlari yozuvi vaqt, joy, ishtirokchilar soni va kuzatuv sifatini qayd etadi. Tadqiqot usuli sifatida suhbat bolalar va tarbiyachilar shaxsini o‘rganish uchun ishlatiladi. Tadqiqot maqsadi suhbat asosida belgilanishi kerak, buning uchun suhbatdagi savollarni o‘ylab, to‘g‘ri qo‘yish muhimdir. Misol uchun, agar tarbiyachi boladan bolalarning zal atrofida qanday qilib tarqalib ketishlarini so‘rasa, u javob beradi: "Yaxshi, hatto, to‘g‘ri", ya’ni. harakatning sifat parametrlarini ta’kidlaydi. Agar siz boladan zaldan taralgan bolalar qayerga yugurishini so‘rasangiz, u javob beradi: "Boshqa bolaga duch kelmaslik uchun yaqin atrofda hech kim yo‘q". Suhbat natijalarini diktafonga yozib olganingizdan so‘ng, yozuvlarni tahlil qilganingiz ma’qul. Yordamchi (tarbiyachi yoki maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlaridan biri) tomonidan suhbatning mumkin bo‘lgan stenografiyasi. Suhbat natijalarini jadvallarda ko‘rsatish mumkin. Uning natijalarini matematik qayta ishlash mumkin. So‘rovnoma tadqiqot usuli sifatida. Bolalar xismoniy tarbiyasida anketalar keng qo‘llaniladi. So‘rovnoma maxsus tanlangan savollar va mumkin bo‘lgan standart javoblardan iborat. Jismoniy tarbiya tamoyillari shaxsni har tomonlama komil inson qilib rivojlantirishga bolalarda jismoniy qobiliyatni, harakat malakalari va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan, bola shaxsini tarbiyalashni birgalikda va har tomonlama tarbiyalashni amalga oshirishga mujassam holda yondashishni ko‘zda tutadi. Jismoniy tarbiya tizimidagi bunday yondashuv bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari, yosh rivojlanish bosqichlarining xususiyatlari, hayotning u yoki bu davrida asosiy faoliyat sifatida tanlanadigan jismoniy tarbiya faoliyati turlari xususiyatlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Jismoniy tarbiya tamoyillari, unga muvofiq ravishda tarbiyachiga nisbatan qonunlar, qoidalar va talablar shakllantiriladi, uning hayotiy kuchlarini ochib berish, uyg‘un rivojlanish, bolani kelajak hayotiga har tomonlama jismoniy tayyorlashda uning faoliyati belgilanadi. Jismoniy tarbiyada umumiy pedagogik didaktik prinsiplar (ong va faoliyat, ko‘rinadiganlik, mavjudlik va boshqalar) bilan bir qatorda jismoniy tarbiyaning o‘ziga xos qonuniyatlarini ifodalovchi maxsuslari ham mavjud. Keling, ushbu prinsiplarning asosiy qismini sanab o‘tamiz:

-shaxsning har tomonlama va uyg‘un rivojlanishi;

- jismoniy madaniyat va hayot o‘rtasidagi bog‘liqlik;

- jismoniy tarbiyani sog‘lomlashtirish yo‘nalishi;

- yuk va dam olishning uzluksizligi va muntazam ravishda almashinuvi; - rivojlanayotgan, tarbiyachi ta’sirlarni bosqichma-bosqich oshirish; sinflarning tsiklik tuzilishi;

- jismoniy tarbiya yo‘nalishlarining yoshga bog‘liqligi.

Umumiy pedagogik tamoyillar. Onglilik va faollik prinsipi bolada jismoniy mashqlar va Harakatliga Mazmunli munosabatni tarbiyalashga qaratilgan. Uni P.F.Lesgaft ishlab chiqqan, u ongni harakatlarni mexanik yodlash bilan taqqoslagan. Harakat qilish texnikasi, uning

bajarilish ketma-ketligi, mushaklarning kuchayishi va o‘z tanasi to‘g‘risida xabardor bo‘lish bolada tanadagi aksni shakllantirishga yordam beradi. Jismoniy mashqlarning organizmga sog‘lomlashtiruvchi ta’sirini anglab, bola harakat muammolarini mustaqil va ijodiy hal qilishni o‘rganadi. U fazoviy terminologiyani o‘zlashtiradi, ongli ravishda harakatlanishning oqilona usulini tanlaydi; U harakatlarning kombinatsiyasini, ularning variantlarini o‘ylab topadi, tanish o‘yinlarni tashkil qiladi va o‘zlariga tegishli bo‘ladi.

Variantli o‘zgarishlarni harakatlarning stereotiplariga kiritish bosqichmabosqichlik prinsipiga muvofiqligini taxmin qiladi. I.P.Pavlov pedagogikada bosqichma-bosqichlik va tayyorgarlik asosiy fiziologik qoidadir, deb yozgan. Bolaning harakatli ta’limini yaratish uchun tizimli va izchil o‘qitish strategiyasi va taktikasi muhimdir. U ta’limning bir bosqichidan ikkinchisiga uzluksizligini nazarda tutadi.

Ko‘rinish prinsipi sezgir idrokni fikrlash bilan bog‘lash uchun mo‘ljallangan. Bu harakatga aloqador sensor tizimlarining funksiyalariga aniq ta’sir ko‘rsatishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya amaliyotida bevosita va bilvosita vizualizatsiya qo‘llaniladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri vizualizatsiya tarbiyachining o‘rganilgan vosita harakatini namoyish qilishida namoyon bo‘ladi.

Bilvosita ko‘rish qo‘llanma, filmlar va videofilmlar, grafikalar, fotosuratlar va boshqalarni namoyish qilish orqali amalga oshiriladi, bu amalga oshirilayotgan harakatlar to‘g‘risida g‘oyani beradi. Ko‘rinishlilik vosita vazifalarini bajarishni osonlashtiradi, jismoniy mashqlarga qiziqishni rivojlantiradi, harakat qobiliyatlari va qobiliyatlarini shakllantirishni tezlashtiradi, harakat qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo‘ramiz. -Toshkent:O‘zbekiston.

2.F.Xujayev, K.D.Raximkulov, B.B.Nigmanov «Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi» Chulpon nashriyoti Toshkent 2011 y.

3.A.Abdullayev., SH.Xonkeldiyev Jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi Toshkent., O‘zbekistan Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil - 300 b.

4.Ливийский А.Н Мактабгача ёшдаги болаларни Жисмоний тарбия асослари ва методикаси Тошкент: 2005 йил - 500 б.

5.Xujayev.F, Raximkulov.K.D.,Nigmanov.B.B «Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi» TDPU, Toshkent 2008 y.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Jo‘rayeva Nafisa Sobirjonovna,

Andijon viloyati Baliqchi tumani 35-DMTT direktori

Mamlakatimizda ta’lim tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga mo‘ljallangan “Yo’l xaritasi” keng ko’lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko’zda tutilgan bo’lib, hech kimdan kam bo‘lmagan navqiron avlodning har tomonlama sog‘lom, yuksak ma’naviyatli bo‘lib kamol topishi yo‘lidagi muhim hujjatdir. Unda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish belgilangan.

Dastur doirasida 5-6 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha muqobil shakllarni yaratish va rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlar tashkil etildi. Bunday guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun turli rivojlantiruvchi amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi. Shu asosda har yili 305 mingdan ortiq 5-6 yoshdagi bolani maktab ta’limiga tayyorlash imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta’limga qamrab olinmagan 3-6 yoshli bolalarning ota-onalarini metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash va ular bilan tushuntirish ishlarini olib borish orqali maktab ta’limiga tayyorlashning muqobil tizimi ham joriy etildi. Ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimi uchun muqobil dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilindi. Yangilangan dasturlar bolalarni maktabga yanada sifatli tayyorlashga, ularning intellektual qobiliyati va mantiqiy fikrlash salohiyatini yuksaltirishga, oldingidan farqli ravishda yozish va o‘qishni yanada yaxshiroq o‘rganishiga xizmat qiladi.

Ta’lim va tarbiyaning muqobil shakli bu — maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modelidir.

Maktabgacha ta’lim muqobil shakllarini tashkil etishning maqsad va vazifalari:

- Bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish.

- Maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalar ilg’or horijiy tajribani xisobga olgan holda davlat talablariga muvofiq xar tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart sharoitlar yaratish,

-Bolalarni boshlang’ich ta’limga sifatli tayyorlash,

-Uzoq hududlarda va qishloq joylarda yashovchi maktabgacha yoshdagi bolalarni teng huquqli sifatli maktabgacha ta’limga ega bo’lishini ta’minlash,

- Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktabgacha ta’lim soxasida nodavlat ta’lim xizmatlarini ko’rsatish bilan shug’ullanuvchi yuridik shaxslarning moddiy–texnik bazasini mustahkamlash.

- Bola shaxsining asoslarini shakllantirish, unda bilimga qiziqishni rivojlantirish.

- MTT qurilishi imkoniyati bo’lgan uzoq qishloq joylari, tog’li tumanlar va borish qiyin bo’lgan aholi punktlarida kamxarj bo’lgan, bepul sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanshini ta’minlash,

- Maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish.

Maktabgacha ta’limga ehtiyoji mavjud mahallalarda, shu jumladan qishloq joylarida maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini tashkil qilish va ularni zarur moddiytexnika vositalari bilan ta’minlash choralarini ko‘rish nazarda tutilgan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari quvvati bolalar soniga nisbatan kam bo‘lganda, yechimni nimada ko‘rish mumkin? Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona viloyati va poytaxtimizning ayrim tumanlarida bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlashni joriy etish tajriba loyihasi amalga oshirildi.

Tajriba guruhlari maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bormaydigan bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya olishda yordam berish, buning uchun zarur shartsharoitlar yaratish maqsadida tashkil etildi. Guruhlar davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktabgacha ta’lim sohasida nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslarning negizida ochildi. Tajriba guruhlarida 3-4 soat davomida bir yoki ikki smenada ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladi. Bitta guruhdagi bolalar soni 30 nafardan oshmasligi kerak. Tajriba guruhlari maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalaydi va maktabga tayyorlaydi. Bunda bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari, albatta, hisobga olinadi.

Tajriba guruhlariga 5 yoshdan oshgan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bormayotgan bolalar qabul qilinadi. Boshlang‘ich ta’limga majburiy yillik tayyorgarlikdan o‘tgan bolalarga davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Maktabgacha ta’limning ushbu muqobil shakli bog‘chaga bormagan bolani birinchi sinfga borganida tengdoshlaridan kam bo‘lmagan darajada faollashtirishni ko‘zlaydigan dastur asosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlaydi. Demak, bu barcha ota-onalar uchun qulay va davlat tomonidan himoyalangan ta’lim shaklidir.

Maktabgacha ta`limning muqobil shakllari taqdimotida 16 ta qayta jihozlangan avtobuslar, bolalar maydonchalari bo`lgan ikkita avtoturargoh va 2 ta modulli MTT taqdim etildi. Isuzu HC 40 rusumli avtobuslar asosida harakatlanadigan MTTlar belgilangan yo`nalish bo`ylab harakatlanadi. Ko`chma guruhlarda bo`lish muddati 3 soatdan oshmaydi, maksimal soni 3 yoshdan 7 yoshgacha bo`lgan 16 nafar bola bo`ladi. Darslarni barcha tarbiyalanuvchilar uchun qiziqarli qilish maqsadida, mutaxassislari turli yoshdagi guruhlar uchun maxsus dastur ishlab chiqdilar, o`qituvchilar esa tegishli tayyorgarlikdan o`tdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2017 yildagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017 yildagi PF-5198-son “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaratuvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.03.2020 yildagi 132-son “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGANING LINGVOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Karimova Aziza Tairovna

Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini hamda o‘qitishning muqobil shakllarini tashkil etish bo‘yicha metodisti

Respublikamizda so‘nggi yillarda fan va texnologiyalar rivoji, yosh avlodning ko‘p madaniyatli dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi, bir necha tilni mukammal bilishini ta’minlashning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim o‘quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta’minlash” ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim-tarbiya ishlarining dastlabki bo‘g‘ini bo‘lib, bolaning ilk nutqiy ko‘nikmalari shu bosqichdan shakllana boshlaydi va bolalar ongi, tafakkuri, xarakter va qiziqishlarining rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Nutq orqali bolalar atrofdagi borliqni qabul qiladilar, narsa-buyum va hodisalarni ataydilar va o‘z fikrlarini bayon qilishni o‘rganadilar. Ayni vaqtda ushbu ko‘nikmalar bola ongi, tafakkurining rivojlanishiga, ularda atrofidagi voqea-hodisalarga nisbatan turlicha munosabatlari shakllanishiga, qiziqishlar hosil bo‘lishiga asos bo‘lib

xizmat qiladi. Bolalarga kichik yoshidan boshlab ularning ona tili bilan bir qatorda, chet tillarda so‘zlashish ko‘nikmalarining ham shakllanib borishi esa ularning kelajakda bir necha tillarda erkin so‘zlasha oladigan raqobatbardosh mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga mustahkam zamin yaratadi.

Mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiyning quyidagi fikri fikrimizni dalillaydi: “Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyatning o‘zidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Bolani o‘tirishga majbur etsangiz tezda charchaydi; yotishga majbur etsangiz ham, xuddi shu hodisa ro‘y beradi; u ko‘p yura olmaydi; uzoq vaqt gapira, ashula ayta, o‘qiy ham olmaydi; ammo u sho‘xlik qilib kun bo‘yi harakat qiladi; faoliyatini tez- tez o‘zgartiradi, aralashtiradi, birini qo‘yib, ikkinchisi bilan shug‘ullanadi, lekin bir daqiqa ham charchamaydi. Keyingi kunga kuch to‘plash uchun bola bir qattiq uxlab olsa kifoya”. Uning fikricha, bunday hollarda, bola tabiatining asosiy jihati bo‘lmish serharakatlilikni cheklamaslik, aksincha maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerak bo‘ladi.

Respublikamizda bolalar psixologiyasi masalalari bilan shug‘ullangan M.V.Vohidov ham maktabgacha yoshdagi bolalarda taqlidchanlik va serharakatlilik ko‘zga yaqqol tashlanuvchi xususiyatlar ekanligini ta’kidlagan. Haqiqatan ham, odam o‘z tabiatiga ko‘ra yoshlik chog‘ida nihoyatda taqlidchan bo‘ladi. Bolalarning o‘yin faoliyati diqqat bilan kuzatilsa, ushbu faoliyatning kattalar xatti-harakatlari va fe’l-atvorlariga taqlid qilishdan iborat ekanini ko‘rish mumkin. Aynan shular orqali bolalarda jumladan, loqaydlik, rostgo‘ylik yoki yolg‘on gapirish, mehnatsevarlik yoki dangasalik kabi muayan xususiyatlar, fe’l-atvorlar, shakllana boradi. Buni Sh. Shodmonova ham shunday ta’kidlaydi: “Inson ilk yoshlik chog‘idan boshlab o‘yin faoliyati orqali tevarak-atrofdagi odamlarning insoniy sifat va fazilatlarini, masalan, mehnatsevarlik, insonparvarlik, sofdillik, halollik, rostgo‘ylik, rahmdillik va bu sifatlarning aksi bo‘lmish ishyoqmaslik, yovuzlik, o‘g‘rilik, vijdonsizlik, berahmlik, yolg‘onchilik va h.k. o‘zlariga singdirib boradilar”.

Bola ruhiyatining rivojlanishi masalalari psixologlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, L.S.Vigotskiyning ongning tizimli va ma’noli tuzilishi hamda uning ontogenezda rivojlanishi haqidagi farazi bolaning ruhiy rivojlanishida ta’limning ta’siri to‘g‘risidagi masalani tadqiq etishga sezilarli hissa qo‘shgan. Uning nuqtai nazarida, psixik taraqqiyot jarayoni ongning ma’noviy tuzilishi o‘zgarishi, ya’ni umumlashtirishlar rivojlanish darajasi bilan shartlangan ongning tizimli tuzilishi qayta qurilishidan iborat. L.S.Vigotskiy fikricha, ongga faqat nutq orqali kirish imkoni mavjud va ongning bir tuzilmasidan boshqasiga o‘tish so‘z (yoki so‘zlar yig‘indisi) ahamiyatining rivojlanishi tufayli amalga oshadi.

Lingvopsixologiya lingvistika va psixologiya fanlari kesimida rivojlanayotgan fan bo‘lib, u nutq jarayonining mazmuni, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy

maqsadga yo‘naltirilganligi, ularning adresant va adresatga ta’sir doirasi kabi masalalarni o‘rganadi. T.Sattarovning fikricha, bunda lisoniy imkoniyatlar sirasida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayonidagi fikrni ifodalash va anglashdagi ruhiy holatlar, shart-sharoit, vaziyat, ta’sirchanlik, so‘zlovchi va tinglovchining ruhiy holati kabilar ham e’tiborga olinadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan bevosita shug‘ullangan F.R. Qodirova bolani o‘zga tilga o‘rgatishdan avval uning ona tilidagi nutqini rivojlantirish hamda tilga o‘rgatish jarayonini bevosita sensor tuyg‘ular orqali sodir bo‘lishini ta’kidlaydi. Bola so‘zlarga mos keluvchi narsalarni «tadqiq qilishi» tufayli ma’noni anglab, o‘rinli qo‘llaydi. Bola o‘z diqqat-e’tiborini sensomotorikaga tayanib, buyum, narsa, uning masofaviy joylashi, xarakatlar kabilarni so‘z orqali ifodalashga o‘rganib boradi. Kichkintoy ongiga yangi so‘zlar bilan tanishish va ularni mustaxkamlash beshta analizator — ko‘rish, tinglash, hid bilish, ta’m bilish, payqaslash asosida o‘z nutqida to‘g‘ri qo‘llashga o‘rganib boradi. Bolalarning yoshiga muvofiq sensomotorikani qo‘llash bilan rejalashtirilgan so‘zlarni narsalar yordamida qabul qilishi, ularning xotirasida ushbu buyumlar, harakatlar haqidagi tasavvur sifatida muhrlanib qolganidan so‘ng, ularning nomini atovchi so‘z bolada eng avvalo u mazkur narsa bilan bevosita to‘qnash kelganida boshdan o‘tkazgan his-tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Xullas, nutq faoliyatining uyg‘onishida eng muhim, ishga soluvchi, asos bo‘luvchi va fursati bilan o‘z aksini fikrda topadigan sabab yuzaga chiqadi va ichki nutq yordamida tashqi nutqqa o‘tish jarayoni amalga oshiriladi. Bu kommunikativ faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha ishni rejalashtirish va tashkil etishda umuman muhim fursat hisoblanadi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqni egallashi va ularning nutqini o‘stirish jarayonlari bolaning o‘quv faoliyatiga nutqiy tayyorligi masalasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, nutq jarayonining shakllanish darajasi muvaffaqiyatli ta’lim omili, atrof-muhitni anglashning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Ko‘rinadiki, bolalarning psixik rivojlanishi ularning nutqi orqali namoyon bo‘ladi, shu bois lingvodidaktik jihatlarga alohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda taqlidchanlik xususiyati ayniqsa uning nutqi rivojlanishiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ilk yoshdanoq avval oila muhitida, keyinchalik bog‘chada elementar og‘zaki nutqni kattalarga taqlid qilib o‘zlashtira boshlaydilar. Go‘dakka aytilgan alla, erkalatishlar, ovutmachoqlar bola nutqining rivojlanishiga asos bo‘ladi. Bola tinglagan har qanday ohang uning ruhini ko‘tarib, kayfiyatini yaxshilaydi.

Ona tilidagi nutqni egallash va o‘stirish bolaning maktabgacha bo‘lgan davrda egallagan eng muhim jihat hisoblanib, bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berishda asos sifatida ko‘riladi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida lug‘at boyligining sezilarli o‘sishi kuzatiladi.

Bir qator psixolog, lingvist olimlar bolalarning ikki yoshdan to besh-olti yoshgacha bo‘lgan davrda gapirishni deyarli qiynalmay o‘rganib olishlarini ta’kidlab o‘tishgan.

Ona tilni o‘rganish insonning umumiy gumanitar rivojlanishining bir qismidir. Ona tilini o‘rgatish bolaning ijodiy salohiyatini ochib berishga yordam beradi, ham mustaqil, ham jamoada ishlash qobiliyatini o‘zlashtiradi, barkamol, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Ona tilini o‘rganish bolalarda xotirani, tasavvurni, diqqatni rivojlantiradi; shaxslararo muloqot, boshqarish va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bolalarni chet tiliga o‘rgatishning dastlabki bosqichidagi eng samarali usul bu bolada til obrazini yaratishning tabiiy usuli — amaliyotga tatbiq etilgan til tuzilmalarini takroriy tinglash orqali bo‘ladigan usul.

Borisova L. o’z tadqiqotlarida shunday fikr bildirgan: “Takroriy tinglash natijasida quyidagilar sodir bo‘ladi:

- ona tilida so‘zlashish asoslarini o‘rgatish;
- tinglash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- bolada ona tili tuzilmalarining “intuitiv til qobiliyatlari” deb nomlangan “tasvirni” yaratish;
- ma’lumot olish uchun nutqdan funksional foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ixtiyoriy yodlash va diqqatni rivojlantirish;
- muloqot qobiliyatini, faolligini va mustaqilligini rivojlantirish;
- mamlakatlar madaniyati bilan tanishtirish”.

Soldatenko K.U. o’z tadqiqotlarida shunday fikr bildirgan: “Bolalar so‘z va iboralarni o‘rganishda atrofdagi dunyoni anglashga va u bilan o‘zaro munosabatlarga kirishishga intiladi, shuning uchun bolalarga tilni o‘rgatishda ularning yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur chet tilini o‘rganish oddiydan murakkablashib borishni taqozo etadi”.

Demak, ona tilini o‘rganish jarayonida xotira, tafakkur, idrok kabi psixologik xususiyatlarning hammasi barobar ishlab, bolaning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa bu yoshda xotira kuchli bo‘lganligi sababli, bola hatto ikkinchi tildagi qofiyali she’r, qo‘shiqni, harakatli o‘yinni yaxshi o‘zlashtiradi va uning hissiyotlariga ta’sir etgani tufayli bu xotirasida umrbod saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

4. 1. Marasulova, D. N. (2023). BOLALARGA CHET TILINI O‘RGATISHDA MULTIMEDIALARNI O‘RINI. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(3), 83-87.

5. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

6. Марасулова Д. Н. АУТЕНТИЧНЫЕ ВИДЕОМАТЕРИАЛЫ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА //Results of National Scientific Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 252-259.

7. Марасулова, Д. Н. (2024). ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В ОБУЧЕНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *17*(2), 204-208.

8. Marasulova, D. N. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISH. *GOLDEN BRAIN*, *1*(32), 26-30.

9. Marasulova, D. (2023). Maktabgacha ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, *1*(1).

10. Jorayeva, N. T., & Marasulova, D. N. (2024). EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. *World of Scientific news in Science*, *2*(2), 37-43.

11. Marasulova, D. N., & Alovatova, L. S. (2023). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'RGATISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 47-50.

12. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta'lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

5.Белошистая А.В. Формирование и развитие математических способностей дошколников: вопроси теории и практики. - М.: Гуманит. изд. сентр ВЛАДОС, 2013. – 400

6. Djamilova N.N Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: 2018, 51 b.

7. Kalendarova Z. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishning zamonaviy nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018 y. — 170 B.

8. Djanpeisova G.E., Xodjimuratova B.N. Matematik tasavvurlarni shakllantirish. O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur, 2020. -12 b.

9. G.Eshchanova SOCIOLOGY OF PRESCHOOL EDUCATION: DISTINCTIVE CHARACTERISTICS. Science and innovation, 2 (B3), 2023. 333-337. doi: 10.5281/zenodo.7764475. (2023).

10. Eraliyeva, Z. MTTNING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDA YECHIM TOPISHGA VA BADIIY NUTQQA O‘RGATISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). izvlecheno ot http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19. (2023).

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KONSENTRATSIYANI RIVOJLANTIRISHDA KUZATISH METODINING O‘RNI

Isroilova Xusnida Adilovna,

Andijon Davlat Universiteti erkin tadqiqotchisi Tel: (33) 950 72 72 E-mail: israilovaxusnida@gmail.com

Ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiyani tadqiq qilishda kuzatish metodining ahamiyatini alohida takidlab o‘tish lozim. Ushbu sohadajgi ba’zi ilmiy tadqiqot ishlarida kuzatish metodidan foydalanilgan bo‘lsa-da, u bir muncha boshqa maqsad va masalalarning yechimiga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot ishi doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarda konsentratsiyaning rivojlanishida kuzatish metodidan foydalanishda quyidagi mezonlar tanlab olingan: bolaning kontsentratsiyasini kuzatish rejasining mavjudligi; kuzatishning maqsad va vazifalari o’rnatilganligi; kuzatishni amalga oshirish shartlari; kuzatishni rasmiylashtirish, kuzatish natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish.

O.F.Nikolaevaning tadqiqotida kuzatuv natijalari tahlili mezonlariga mos keluvchi kuzatuv rejasi mavjud, qo‘yilgan maqsad esa hozirgi zamon maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligi xususiyatlari va yo‘nalishini aniqlashdan iborat. Kuzatish metodi esa bolalarning mustaqilligi va ijodiy faoliyatini tashkillashtirishda, tengdoshlariga murojaat etishini tahlil qilishda qo‘llanilgan. Bolalar ijodiy faoliyati jarayonida ularni kuzatish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mashg‘ulot davomidagi ijodiy faoliyati jarayonini kuzatish natijalari mahsus jadvalga yozib borilgan.

O.F.Borisovaning dissertatsion tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot qilish qobiliyatlarning namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratilgan. O.F.Borisova tomonidan jarayon subyektlarining bir-biri bilan munosabatga kirishish va hamkorlik qilishini kuzatish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar ta’minlangan hamda maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy shakllanganligi darajalari va ularning tavsifi keltirilgan. Shuningdek, “Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot qilish salohiyatini kuzatish jadvali” shakllantirilgan. O.F.Borisova tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalar kuzatish natijalari qayd etilgan, lekin kuzatish rejasi va natijalari qayd etishga misollar keltirilmagan.

E.N.Borodinaning tadqiqotida kuzatish empirik tadqiqot metodlari qatoriga kiritilganligiga qaramasdan, maktabgacha yoshdagi bolalarning axloq va vatanparvarlik tarbiyasi darajasini aniqlashda ushbu usuldan foydalanilmaganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, E.B.Oborinaning tadqiqot ishida ham kuzatish metodidan foydalanilmagan. Tadqiqotchi o‘z ilmiy ishida maktabgacha yoshdagi bolalarning millatlararo bagrikenglik darajasini aniqlagan.

I.M.Lazerevning dissertatsiyasida kuzatish metodidan samarali va maqsadli foydalangan bo‘lib, go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar hayotida sodir bo‘lgan voqealarni qayd etish u tomonidan ishlab chiqarilgan bolaning rivojlanishini kuzatuv jadvalida amalga oshirilgan. Kuzatish davomiyligi 1 oydan 36 oygacha bo‘lgan davomiylikni o‘z ichiga oladi. Barcha ma’lumotlar (7500 dan oshiq qaydlar) qayta ishlab chiqish uchun elektron ko‘rinishga keltirilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda kuzatishni psixologik-pedagogik metod sifatida yetarli darajada samarali foydalanmasligini ko‘rish mumkin. Kuzatishning ilmiy bilish metodi sifatidagi boy imkoniyatlari ilmiy tadqiqot ishlarining natijadorligida o‘z aksini topmaydi.

Bundan ko‘rinadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishda kuzatish metodi muhim ahamiyatga ega. Kuzatish metodisiz bolalarda kontsentratsiya qobiliyatining mavjud holatini samarali aniqlash, diagnostikalash imkonsiz. Pedagogik amaliyotda bu borada turli texnologiyalar qo‘llaniladi. Jumladan, “Bola tug‘ilganidan maktabgacha” dasturi bolalarning individual rivojlanishini baholashda barcha yosh guruhlari va har bir bola uchun individual rivojlanish traektoriyasini yaratish bo‘yicha tavsiyalar bilan bolaning rivojlanishini kuzatish kartalarini taklif qiladi, bu har bir bolaning individual dinamikasi va rivojlanish istiqbollarini turli faoliyat turlarida qayd etish imkonini beradi.

Shuningdek, pedagogik amaliyotda “Bolalik” dasturi ham qo‘llaniladi. Bu usul ko‘p mehnat talab qilishini, kuzatuv davomida kuzatuvchining axloqi va madaniyati darajasi yuqoriligi, obyektivlashtirish qiyin bo‘lgan hodisalarni (masalan, qadriyatlar yo‘nalishi, bolaning turli hodisalarga munosabati) yoki mazmun jihatidan turli tuman bo‘lgan hodisalarni (masalan, qiziqishlar, holat, kayfiyat dinamikasi) o‘rganishda ushbu metodning qadr-qimmati ta’kidlangan. Dasturda monitoringning bosqichlari berilgan, kichik va maktabgacha yoshdagi bolalar psixologik oziga xosliklari batafsil bayon qilingan, ma’lum holatlarga misollar keltirilgan, atama va tushunchalar lug‘ati berilgan va bular amaliyotchi pedagoglarning pedagogik kuzatuvlarga oid bilimlarini sezilarli darajada boyitadi. Ushbu qo‘llanma asosida L.S.Vakulenko tomonidan “bolalar rivojlanishini kuzatish va baholash jurnali” ishlab chiqarilgan.

M.Montessori tizimi bo‘yicha “bolalar bog‘chasi dasturi” ilmiy kuzatuv metodiga asoslangan monitoring tizimi bilan ifodalanadi. Unga quyidagilar kiradi: kiritilgan pedagogik kuzatuv kundaligi; bolalar ishlari individual portfoliosini tahlil qilish; 1 yoshdan 3 yoshgacha va

3 yoshdan 7 (8) yoshgacha bo‘lgan bolalarning individual yutuqlar kartasi. Bu kartada pedagoglar har bir bolaning ayni vaqtdagi rivojlanish darajasini belgilaydilar va o‘zgarishlar dinamikasini aniqlaydi, kuzatuv natijalarini avvalgi qaydlar bilan solishtiradi.

“Ilhom” dasturi kuzatuvni sistematik ravishda olib borishni, kuzatuvni yozma shaklda qayd etishni va kuzatuv natijalari munozarasini o‘z ichiga oladi. Bolaning bilim olishi va rivojlanishini bo‘yicha to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun kuzatuv va hujjatlashtirishni doimiy ravishda bajarish, qayd etish tavsiya etiladi. Dastur mualliflari erkin kuzatuvlar, tizimlashtirilgan shaklagi kuzatuvlar olib borishni yoki baholashni standartlashtirilgan savol javoblardan iborat anketalar orqali baholash, bolalar erishgan natijalarni ularning rivojlanish individual kartasiga qayd qilishni, tarbiyalanuvchilar portfoliosini to‘plashni tavsiya qiladilar. Mualliflar kuzatuv tajribasiga ega bo‘lmagan pedagoglardan maktabgacha yoshdagi bolalar kuzatuvi jarayoniga kirishni talab qilish noto’gri, deb hisoblaydilar.

Maktabgacha ta’lim o‘quv dasturlarini shakllantirishda ham kuzatish metodidan keng qo‘llaniladi. Shu orqali bolalarning individual rivojlanishini baholashda mualliflar maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatishning turli usullari, kuzatuvni qayd qilishni turli shakl va usullarini taklif qiladilar.

E.Yanjun ilmiy maqolasida Mariya Montessorining pedagogik yondashuvini ilmiy tahlil qiligan. Mazkur pedagogik yondashuv bolaning individual tarzda kuzatish metodi asosida ishlab chiqilgan. Natijada bolada individual hamda me’yorda rivojlanishiga shart-sharoitlar ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

M.Montessorining pedagogik yondashuvi “psixologik kuzatishlar qo’llanmasi” sifatida e’tirof etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama kuzatish tavsiya etilib, unga ta’lim faoliyati jarayonida bolaning faoliyati, xulq-atvori, uning qoidalarga rioya qilishi, tartibliligi, mas’uliyatliligi va boshqalar kiradi. Kuzatishni tadqiqot metodi sifatida bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotidagi kundalik faoliyatini baholash uchun qo‘llash mumkin bo‘ladi. Bunda bolaning biror bir mashg‘ulot bilan band bo‘lish davomiyligi, mashqni bajarish tempi, bir xil mashqning qayta takrorlanishi, mashqni bajarish davomidagi namoyon bo‘ladigan individual xususiyatlari, bir mashq ustida qat‘iylik bilan ishlashi, mashq tanlash ketma ketligini kuzatish taklif etiladi.

Yuqoridagi tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, M.Montessori pedagogik yondashuviga ko‘ra kuzatish metodi maktabgacha ta’limda keng qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bolalarda kontsentratsiyani rivojlanishini kuzatish metodi vositasida baholash va tahlil qilish dalillarga asoslangan pedagogik yondashuv (*Evidence-based education*) tamoyillariga mos keladi.

M.Montessorining pedagogik yondashuvining ilmiy ahamiyati ham unda qo‘llanilgan

ilmiy metodlarning samaradorligi, ta’sirchanligi, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlaganligidadir. Qo‘llanilgan metodlar ichida eng asosiysi kuzatish ekanligi uning ilmiy me’rosini o‘rganish natijasida o‘z aksini topgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotiy faoliyatini o‘rganishda olimlar va amaliyotchi-pedagoglar tomonidan kuzatish metodiga qiziqish ortayotganini ta’kidlash lozim. Maktabgacha ta’lim pedagogikasida kuzatish metodining afzalligini zamonamiz olimlari tomonidan tan olinayotganligi ham ana shundadir.

Kuzatish keng ma’noda tabiiy pedagogik hodisalar va jarayonlardagi o‘zgarishlarni qayd etish tarzida ham amalga oshirilib, pedagogika sohasida muhim metod sifatida qo‘llaniladi. Natijalarning obyektivligi va haqqoniyligi uni olib boruvchining professional salohiyati, kuzatish metodining maqsadga muvofiq tarzda ishlab chiqilganligi, natijalar tahlilida to‘g‘ri yo‘l tutilganligi hamda kuzatuvning muntazamliligiga bog’liq.[3]

Umuman olganda kuzatish metodi obyektiv borliqdagi narsa hodisalarni tizimli, uzluksiz, tartibli, mukammal idrok qilish jarayoni hisoblanadi. Bu metod pedagogik-psixologik tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi va asosiy empirik metod hisoblanadi. Kuzatish metodi pedagogika va psixologiya fani doirasida o‘tkaziladigan amaliy tadqiqotlarda hamda ta’lim jarayonida qo‘llaniladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Бабаева Т.И., Гогоберидзе А.Г., Солнцева О.В. и др. Детство: программа развития и воспитания детей в детском саду / СПб.: Детство-Пресс, 2014. – С. 280.
2. Борисова О.Ф. Формирование социальной компетентности детей дошкольного возраста: дис. …канд. пед. наук. – Челябинск, 2009. – 201 с.
3. Бородина Е.Н. Нравственно-патриотическое воспитание детей старшего дошкольного возраста в полихудожественной деятельности: дис. … канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2016. – 241 с.
4. Лазарев И.М. Психологические условия становления и развития речи детей младенческого и раннего возраста: дис. … канд. пед. наук. – М.: 2016. – С.157.
5. Монтессори М. Впитывающий разум ребенка. – СПб.: Благотворительный фонд “Волонтеры”, 2009. – С. 320.
6. Николаева О.Ф. Педагогические условия формирования культуры творческого мышления старших дошкольников: дис. … канд. пед. наук. – Челябинск, 2011. – 206 с.

[3] Safarova R.G., Jo’rayev R.H. Pedagogika entsiklopediyasi (II jild) // O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2015. – 202-203 b (377).

7. Оборина Е.В. Изобразительное искусство как средство формирования межнациональной толерантности у детей старшего дошкольного возраста: дис. … канд. пед. наук. – Пермь, 2016. – 244 с.

8. От рождения до школы. Примерная общеобразовательная программа дошкольного образования / Под ред. Н.Е.Вераксы, Т.С.Комаровой, М.А.Васильевой. – М.: Мозаика-синтез, 2014. – С. 368.

9. Основная образовательная программа дошкольного образования “Вдохновение” / под ред. В.К.Загвоздкина, И.Е.Федосовой. – М.: Национальное образование, 2016. – 352 с.

10. Safarova R.G., Jo’rayev R.H. Pedagogika entsiklopediyasi (II jild) // O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2015. – 202-203 b (377).

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA RIVOJLANTIRUVCHI O‘YIN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI

Rahmonova Iroda Samidjonovna

NamDPI tadqiqotchisi

Maktabgacha ta’limda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Mashg‘ulotlarda tarbiyachi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida tarbiyalanuvchilarga yetkazadi, tarbiyalanuvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida tarbiyalanuvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan bilimlarni tushunish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarlarning hamkorligi asosida tarbiyalanuvchilarning mustaqil ishlashi, mashg‘ulotdan tashqari faoliyatida ham hal etiladi[1;152-b].

Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi, shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan[2;182-b]. Ta’limiy maqsaddan kelib chiqib tarbiyalanuvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki nutqni rivojlantirish mantiqiy tafakkurni

rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashadi, tasavvur doirasi kengayadi, vaziyatni tahlil qilish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’limda “Klaster”, “Bahs-munozara”, “Rolli o‘yin”, “Oxirgi so‘zni men aytay” kabi zamonaviy metodlar qo‘llanilmoqda, ulardan yangi mavzuni mustahkamlashda foydalanilsa ijobiy natija beradi[3;44-b]. O‘yin-topshirig‘ining qaysi bir turini tanlash mashg‘ulotning turiga, turli yosh guruh tarbiyalanuvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganligi asosida namoyon bo‘ladi [4;50-b].

Bugungi zamon talabi tarbiyachidan ilg‘or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan o‘quv jarayonida samarali foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, olib borgan tadqiqotlarimiz asosida mashg‘ulotda o‘yin ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish tamoyillarini belgilab oldik. O‘ylaymizki, ular o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda pedagoglarga amaliy yordam beradi. SHuningdek, tarbiyalanuvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas’uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchisiga aylanadi. Tarbiyachilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishlari ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish samaradorligi, bir tomondan tarbiyachining kasbiy mahorati, ikkinchi tomondan esa bu jarayonda qo‘llaniladigan o‘yin texnologiyalarining mahsuldorligiga bog‘liq.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni o‘yin ta’lim texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida tarbiyachi tarbiyalanuvchi munosabatlarining o‘ziga xos jihatlariga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish refleksiv jarayonlarga asoslanadi, ya’ni refleksiv o‘yin muhitida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar faoliyatini muvofiqlashtirish va tahliliy faoliyat uchun zaruriy shart-sharoitlar, voqelik va tushunchalarga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganish, tahlil qilish va ob’ektiv baholash asosida xulosalar chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Yuqorida keltirilgan bir qator xususiyatlarni inobatga olgan xolda boshlang‘ich sinf tarbiyalanuvchilarida o‘yin ta’lim texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi *omillar*ni keltirib o‘tamiz:

- boshlang‘ich tushunchalar va uning faolligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar;

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni mashg‘ulotdan tashqari vaqtlarda shug‘ullanadigan faoliyatlari;

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar faolligini ta’minlash vositalari;

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning faoliyat turlariga bo‘lgan qiziqishi;

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonlarida tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining o‘ziga xos integratsiyasini yo‘lga qo‘yish;

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarining moyilligi, shaxsiy imkoniyatlari, boshlang‘ich tushunchalari va shaxsiy qiziqishlarining o‘zaro bog‘liqligi bilan belgilanadi.

Shunga muvofiq tadqiqotni olib borish jarayonida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarida o‘yin ta’lim texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlashda ustuvor bo‘lgan tamoyillarni aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqot muammosiga oid ilmiy ishlarni nazariy tahlil qilish, pedagogik amaliyotni kuzatish, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondent-tarbiyalanuvchilar, boshlang‘ich sinf tarbiyachilarining jarayonga bo‘lgan munosabatlarini tahlil qilish orqali maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarida rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda quyidagi tamoyillar va yondashuvlar ustuvor ahamiyatga egaligiga ishonch hosil qilindi.

Quyida (yuqorida) qayd etilgan tamoyillarning maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyatini qisqacha yoritishni lozim deb topdik.

Refleksiv tamoyil- Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda o‘yin ta’lim texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida o‘qituvchilar, ota-onalar muayyan vaqt oralig‘ida o‘z faoliyati samaradorligini tahlil qilib borishi zarurligini ko‘rsatadi. Bosib o‘tilgan jarayonni tahliliy o‘rganish tarbiyachilar, ota-onalarga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish yo‘lida erishilgan yutuq va kamchiliklardan xabardor bo‘lish, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni barataraf etish yo‘lida amaliy harakatni tashkil qilish, istiqbol loyihalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. [5;36-b],

Hamkorlik tamoyili-bolalar, shu jumladan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirishda jamoaning birgalikda, yakdillik va hamkorlikda amalga oshiriladigan tizimli, majmuaviy jarayon ekanligini anglatadi.

Kreativlik tamoyili-refleksiyani tatbiq qilishga pedagogning ijodiy tayyorgarligi

Innovatsion tamoyil- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning ilg‘or, noan’anaviy shakl, metod, vosita hamda texnologiyalari yordamida tashkil etilishini bildiradi. Pedagogik faoliyatning innovatsion shakl, metod, vosita va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi o‘quvchilarda o‘yinga bo‘lgan qiziqish, ehtiyojni yuzaga keltirib, ijobiy munosabatni shakllantiradi. Tadqiqotni olib borishda binar-dars, muammoli suhbat, virtual-ko‘rgazma (tashkiliy shakl), “Blits-so‘rov”, “Mantiqiy chalkash zanjir”, “Kontseptual jadval” (metod), kabi o‘yinli texnologiyalaridan samarali foydalanildi [5;42-b].

Loyihaviy tamoyil- maktabgacha ta’lim yoshidagi rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonining puxta asoslangan loyihaga egaligini ifodalaydi. Loyihalarning ishlab chiqilishi nazarda tutilayotgan davrda, Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish, so‘ngra rejalashtirish, modellashtirish va konstruktsiyalash orqali amalga oshirish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qadriyatli tamoyil- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish, o‘yinning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati, shaxsga zavq bag‘ishlovchi, shu bilan birga, qadimdan e’zozlanib keladigan manbaa ekanligi to‘g‘risidagi tushunchalarni hosil qilish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘yin ta’lim texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishni odatga aylantirishga erishishni nazarda tutadi.

Tizimlilik tamoyili-maktabgacha ta’lim tashkiilotining har bir tarbiyalanuvchisiga rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish tizimli amalga oshirilsagina o‘z samarasini ko‘rsatishi mumkin.

Izchillik, uzluksizlik tamoyili- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning davomiy va samarali tashkil etilishini ta’minlaydi. Chunki, aynan izchillik, uzluksizlik, tizimlilik negizida jarayon tadrijiy tarzda rivojlanadi, mavjud omillarning ta’siri va imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish uchun zarur pedagogik shart-sharoitni ochib beradi.

Yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalari uchun o‘yinlarni to‘g‘ri tanlashga imkon beradi. Zero, yosh xususiyatiga ko‘ra ushbu ta’lim yosh o‘quvchilar uchun: kichiq hajmli, qiziqarli, rasmlar hamda yorqin ranglar bilan bezatilgan, o‘ziga xos orginal shaklga ega o‘yinlarni tanlash taqozo etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tadqiqotni olib borishda shakllantiruvchi tajriba jarayonida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish muhim omillar va ustivor ta’moyillarga bog‘liq ekanliligi isbotlandi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Inoqov Q.Q. Hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). … diss. – Namangan, 2019. – 142 b.

2.Абдуллаева Ш.А. Педагогические технологии развития позновательных творческих способностей младших школьников: дисс. канд. пед. наук. – Т.: УзНИПИ.2005.- 120 с.

3.Вульфов Б.З. Педагогика рефлексии: взгляд на профессиональную подготовку учителя / Б.З.Вульфов, В.Н.Харькин. – Москва: Магистр, 1995. - 111 с.

4.Агапова И., Давыдова М. Литературные игры для детей. – М.:“Лада”, 2011. – 165 с

5.Asadov Yu.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2016. – 160 b.

6.Azizova Z.F. Qo‘g‘irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish: Ped. fan.b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 48 b.

MAKTABGA TAYYORLOV GURUH BOLALARINI BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Shakarova Nilufar Zuvaydullayevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Maktabgacha, boshlang‘ich ta’lim va texnologiya kafedrasi tayanch doktoranti shakarovanilufar97@gmail.com

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o‘zgaradi. 6-7 yoshli bolani boshlang‘ich ta’limga tayyorlashda, maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda keyingi o‘quv faoliyati uchun ko‘prik vazifasini o‘tashini hisobga olgan holda maktabgacha ta’lim tashkiloti yoki maktablar qoshidagi maktabga tayyorlov guruhlaridagi tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonini bugungi kun talablariga mos holda amalga oshirish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani 6-7 yoshida maktab ta’limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo‘lmagan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi.

Maktabda uzoq muddat ota-ona g‘amxo‘rligisiz bolgani sababli, bola o‘z yoshiga mos his-tuyg‘u va iroda mustahkamligiga ega bo‘lishi, o‘z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o‘quvchi o‘qishga ijobiy yondashsa, o‘qishni xohlab, intilsa, ta’limdagi boshlang‘ich qiyinchiliklarni tezroq

va osonroq bartaraf etadi. Irodali bo‘lish bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko‘ra “Maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi:

- ✓ jismoniy,
- ✓ shaxsiy (ruhiy),
- ✓ aqliy,
- ✓ maxsus tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog‘lomligi harakat ko‘nikmalari va sifati, qo‘l mushaklari va ko‘rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o‘simliklar dunyosiga, tabiiy xodisalarga, shaxsiy madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi.

Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o‘zini-o‘zi nazorat qilishga, hamda O‘quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o‘z ichiga oladi.

Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi. Biror tomonining rivojlanmagani, zaifligi (aqliy, his-tuyg‘uli, irodaviy yoki amaliy) maktabda o‘zlashtirmaslikning sabablaridan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfda o‘quv fanlarning (o‘qish, yozuv, matematika) mazmunini o‘zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak. Masalan, matematikani o‘qitishda o‘qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvni o‘rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to‘g‘ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va ko‘nikmalar maktabga maxsus tayyorgarlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarini o‘zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi. Maktab ta’limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o‘qishga intilishi o‘quvchi bo‘lish ishtiyoqida bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajasi bolaning o‘quv faoliyati elementlarini egallashi iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo‘lishda asoslangan tayyorlikni o‘z ichiga oladi. Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirish maktabda o‘quv materialini ongni faol egallash keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni qamrab oladi. Bola shaxsini rivojlantirishda ma’lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo‘naltirish berishga alohida e’tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlashtirilgan, jadal o‘qitish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Klassik pedagog K.Ushinskiy ham bolani maktabga tayyorlash haqida “Maktabga kirish vaqti haqida” maqolasida u bolaning maktabga tayyorgarligining o‘ziga xos ko‘rsatkichlarini sanab o‘tadi. Masalan:

1) daftarga rasm chizish istagi;

2) bir mavzuga e’tibor qaratish, tinglash va eshitish qobiliyati;

3) o‘z fikrini bo‘lakchalarda emas, balki to‘liq gaplar bilan ifodalash.

K.Ushinskiy bola tarbiyasining boshida ekstremal holatlarning zararli ekanligini ta’kidladi – ta’lim jarayoniga juda erta qo‘shilish, shuningdek, kechikish bolaning umumiy rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Uning fikricha, tizimli ta’limning boshlanishi bola hayotining yettinchi yilida amalga oshirilishi kerak va bu uning uchun qiziqarli bo‘lishi muhimdir [2. 215-b].

V.Suxomlenskiy “partada o‘qishdan oldingi yil”ning muhimligini ta’kidladi. Uning ta’kidlashicha, aynan shu davr o‘qituvchining har bir bolani yaxshi bilishi, idrok etish, tafakkur va aqliy mehnatning individual xususiyatlarini chuqur o‘rganishi uchun zarurdir. “Bilim berishdan oldin fikrlash, idrok etish va kuzatishni o‘rgatish kerak. Bundan tashqari, har bir o‘quvchining sog‘lig‘ining individual xususiyatlarini yaxshi bilish kerak – busiz siz odatdagidek dars bera olmaysiz” [3. 19-b].

Bolalarni maktabga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shartlarini har tomonlama o‘rganish N.Cherepanyaning ilmiy tadqiqot ishida keltirilgan. Ilmiy qiziqish, bizningcha, tadqiqotchining muammoning asosiy tushunchalarining mohiyatini ochib berishga bo‘lgan jiddiy e’tiboridir. Shunday qilib, uning ta’rifiga ko‘ra, bolalarni maktabga tayyorlash – sub’yektlari pedagogik jihatdan mos, sub’yekt-sub’yekt insonparvarlik munosabatlarida bo‘lgan, bolaning o‘z imkoniyatlariga muvofiq shaxsga yo‘naltirilgan jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlaydigan muntazam, ijtimoiy va didaktik jihatdan shartlangan o‘zaro ta’sir jarayonidir. Muallifning “bolaning maktabga tayyorligi” va “maktabda yetuklik” tushunchalarini farqlashi diqqatga sazovordir. N.Cherepanyaning fikriga ko‘ra, tayyorgarlik – bu bolaning salohiyati va shuning uchun ideal qobiliyatlari holati, maktabga tayyorgarlik esa uning haqiqiy va real imkoniyatlari holatidir [4 28-b].

Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba’zi ota-onalar ham bola qanchalik sog‘lom, chaqqon, mustaqil, aqlli, o‘qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi. Biroq pedagoglar har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to‘g‘ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo‘lishlari kerak, bunda ular ta’lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo‘lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta’sirlar bo‘lmagan bo‘lsa, unda bola yetti yoshda ta’lim olish darajasiga yetadi. Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakter ijobiy jihatlarining shakllanganligi

bolaga boshqa bolalar bilan muloqotda, sinfdoshlar bilan do‘stona munosabat o‘rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., Kayumova M., A’zamova M. “Maktabgacha pedagogika”. – T., “Tafakkur”, 2019 yil.

2. Loginova V.I., Samorukovalar P.G. taxriri ostida “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi». — T.: “O‘qituvchi”, 2021 y.

3. Nechayeva V.G., Markova T.A. taxriri ostida “Bolalar bog‘chasida ahloqiy tarbiya”. — T., 2019 y.

4. Nedopekina E.T., Nikolskaya A.V. “Maktab bo‘sag‘asida”. — T. “O‘qituvchi”, 2018.

5. Axmedova X.va boshqalar “Bolangiz maktabga tayyormi?” — T., 2000 y.

MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYANING XALQARO DAVLATLARDAGI ILG’OR TAJRIBALARI

Baxromova Fotima Baxtiyor qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Magistratura bo’limi Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 1-bosqich magistranti

Insonning kelajagi, uning xulq-atvori, qobiliyati, dunyoqarashi bolaligi qanday bo'lganligiga, ta'lim qanday amalga oshirilganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bularning hammasi bolalaikning almashinib bo'lmas ahamiyatini, uning yetuk shaxs sifatida shakllanishidagi alohida rolini belgilaydi va maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab ta'lim sifatini ta'minlash muammosini davlat ta'lim siyosatining ustivor yo'nalishiga aylantiradi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi. Bolalalarni bugungi zamon ruhiga mos qilib tarbiyalashda xorij tajribasining o'rni katta hisoblanadi. Ushbu tizimda samarali ishlarni olib borgan va muvaffaqqiyatga erishgan xorij davlatlari juda ko'p albatta. Mana shunday yutuqlarga erishgan davlatlardan biri bu Fransiya. Mamlakatimiz uzoq yillarda buyon ushbu davlat bilan keng hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Jumladan, Fransiya davlati tajribasini hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni

maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar amalga oshirilmoqda. 2018-yildan boshlab Janubiy Koreya tajribasi asosida maktabgacha ta'lim muassasalarini uslubiy va didaktik o'yinlar, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan ta'minlash me'yorlarini ishlab chiqildi.

Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlaming ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni butun qolgan umri davomida olib borar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi - ularning hayotlarining maqsadlaridir. Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga wg'u beradi. Masalan, 1 yoshda - o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda - amaliy san'at qo'l mehnatini ko'reatish, 3 yoshda - burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda - yaxshilik va yovuzlikni fa^lashga o'rgatish, 5 yoshda -liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklami yengishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat.

Yuqorida bayon etilganlar shunga guvohlik beradiki, O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tizimi bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat va jamiyat talablariga binoan xorijiy mamlakatlar tajribasini milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holda integratsiyalash bu sohadagi ishlarimizning pirovard natijasini samarasi bo'lib xizmat qiladi. *Yaponiya* davlatida bolalarni olti yoshga to‘lishi bilan maktabga berishadi. Unga qadar bolalar bog‘chada ta’lim-tarbiya olishadi. Bog‘cha davrida bolalarga pedagoglar sodda hisob-kitoblarni, shuningdek, “xiragana” va “katakana” alifbolarini o‘qishni o‘rgatishadi.[3] Maktabgacha ta’limga Yaponiyada katta e’tibor beriladi, chunki psixologlarning ta’kidlashicha 5 yoshgacha inson bilimlarning 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o‘zlashtirar ekan. Yaponlarda maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o‘rinda turadi. Ko‘pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi-hayotlarining maqsadlaridir. Yaponiyada maktabgacha ta’lim muassasalarining 59,9 foizi xususiy, 40,8 foizi davlatnikidir. Yapon bog‘chalarida bolaning ilk yoshidanoq o‘ziga xos bo‘lgan tarbiya usullaridan foydalanib, hayotda uchraydigan muammolarni har etishga doir ko‘nikmalari bosqichma-bosqich shakllantirib

boriladi. Masalan; 1 yoshda bolada o‘ziga ishonch hissini uyg‘otishga o‘rgatishadi; 2 yoshda amaliy san’at orqali qo‘l mehnatiga o‘rgatiladi; 3 yoshda bolalarda burch hissi tarbiyalanadi; 4 yoshda yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o‘rgatiladi; 5 yoshda bolada liderlik hislatlari tarbiyalanadi, ularni mustaqillikka o‘rgatishadi, rejalar tuzishga va ularni bajarishga doir ko‘nikmalar shakllantiriladi. Yaponiyada bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O‘g‘ilga oilaning bo‘lajak tayanchi sifatida qaraydilar va bolalikdanoq qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatadilar. Qizlarni ham bolalikdanoq uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog‘chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar-“xanlarga” bo‘ladi. Bu bolalarga bog‘chada o‘z ish o‘rnilari ajratiladi, ular o‘z “xanlariga” nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o‘rgatadilar. Bu guruhdagi har bir tarbiyalanuvchi guruhda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga doir ko‘nikmalar shakllantiriladi. Yaponlar ekologik tarbiyaga ham katta e’tibor qaratishadi. Ular bugungi kunda preslangan chiqindilardan butun boshli bir orolni barpo etmoqda. Bunda albatta bolalarning ham hissasi bor. Maktabgacha ta’lim *AQSHda* maktabgacha ta’lim muassasalarida, jumladan, ijtimoiy va xususiy yasli, bog’cha va maktabgacha tayyorlov markazlarida amalga oshiriladi. Davlat faol ravishda maktabgacha ta’lim muassasalarining ta’lim berish vazifasini qo’llab–quvvatlaydi va bolalarning maktabgacha ta’lim olishi va maktabga tayyorlanishi uchun moliyaviy yordam ko’rsatadi. 5 yoshli ko’plab amerika bolalari bolalar bog’chalarida tayyorlov sinflarda ta’lim olishadi. Bu sinfda bolalar boshlang’ich maktabda o’qish uchun tayyorlanishadi, ya’ni asta – sekin o’yindan o’qish, yozish va boshqa kerakli ko’nikmalarni o’zlashtirishga o’tishadi. Ijtimoiy maktabgacha ta’lim muassasalarida 60 foiz besh yoshli bolalar ta’lim oladi, ammo ko’plab ota – onalar xususiy maktabgacha ta’lim muassasalarini ma’qul ko’radilar. *Koreyada* bolalar bog‘chalari umumiy ta’lim dasturining bir qismi hisoblanmaydi, ota-onalar bolalarni xususiy muassasalarga topshiradilar. Bolalar bog‘chasiga bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Olti yoshga to‘lgan bolalar odatda maktabga boradi. 1980-yillardan boshlab bolalar bog‘chalari va maktabgacha muassasalarga boradigan bolalar soni keskin o‘sdi: bunda 901 ta muassasaga 1980 yilda 66 433 bola borgan bo‘lsa, 1987 yilda 7 792 muassasa mavjud bo‘lib, ulardagi bolalar soni 397 020 taga etdi. Ulardagi tarbiyachi va pedagoglar soni ham ortdi, ularning katta qismini ayollar tashkil etdi. Koreya bog‘chalari quyidagi turlarga bo‘linadi: boshlang‘ich; o‘rta; yuqori. Janubiy Koreya maktabgacha ta’lim tizimi asosan bolaning boshlang‘ich har tomonlama rivojlantiruvchi ko‘nikmalarni o‘rgatishga qaratilgan. Bolalar uch yoshdan boshlab koreys va ingliz tillarida o‘qish va yozishni o‘rganadilar. Shu yoshdan boshlab bolajonlar matematika sir-asrorlarini o‘rganadilar. Koreyslar bolalarning jismonan sog‘lom va baquvvatligiga, shuningdek musiqa darslarining o‘zlashtirishiga alohida e’tibor qaratadilar. Bog‘chadan boshlab bolalarga judayam katta hajmda uyga vazifalar beriladi, ingliz tili darslarida alohida so‘z va jumlalarni tarjima qilishdan tashqari, bolalar o‘z fikr va qarashlarini ingliz tilida

ravon va sodda so‘zlashni o‘rganadilar. Koreyada boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo‘lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o‘qishga kirishga huquqli bo‘lib, buning uchun maktab mas’ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo‘ladi. Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog‘chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o‘tiladi. Koreys bog‘chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e’tibor beriladi.Buyuk Britaniyada odatda ta’lim berish o‘rganilayotgan predmet yoki o‘qituvchiga emas, balki bolaga yo‘naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta’limi tarixiga asoslanib, uning rivojiga Russo, Frebel, Montessori ta’sir ko‘rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak, deb hisoblaganlar. Maktabgacha tarbiyaning asosiy maqsadlari: har bir bolaning ehtiyoji va uning manfaatlarini qondirish, bolalar o‘rtasidagi farqni hurmat qilish. Bunda bola o‘qish uchun ichki intilishga ega, qiziquvchan va tabiatan serg‘ayrat, deb taxmin qilinadi. O‘qitish bolaning o‘zi taklif qilgan o‘yin davomida olib borilishi kerak. Ustozning asosiy vazifasi bolaga uqtirish yo‘li bilan emas, balki o‘yinni qo‘llab turish, unga tadqiqot o‘tkazish uchun turli materiallar taqdim etishdan iborat. Germaniya qonunlarida maktabgacha ta’lim olishning bepul huquqi belgilangan. Bolalarni 4 oyligidanoq yasliga olib borish mumkin. Ko‘pchilik nemislar bu huquqdan foydalanadilar. Nemislarda keksa avlod vakillari bo‘lmish buvi va buvalar nevaralar tug‘ilgandan so‘ng nafaqaga chiqib, ularga qarash majburiyatlari tushunchasi yo‘q. SHuning uchun ota-onalar bolalarini bolalar bog‘chalari va yasliga berishga majbur bo‘ladilar. Bauernhofkindergarten (nemischa Bauernhof so‘zidan – dehqon xovlisi, qo‘rg‘oni; Kindergarten –bolalar bog‘chasi). Bunday bog‘chalar dexqon xo‘jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin erlarda joylashgan bo‘ladi. Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog‘larda sabzavot va mevalar o‘stirishda yordam beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Niyozov G’. Ahmedov Q., Tojiboev Q. Sharq allomalari va ma’rifatparvar adiblarning barkamol avlod tarbiyasiga oid ma’naviy – ahloqiy qarashlari. T.: “O‘zbekiston”,

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-sonli Qarori.

3.B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirava. "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolala^a ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari". Uslubiy qo'llanma.

4. Fazilova D.X.Xorijiy tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalar modulidan o‘quv–uslubiy majmua.

MAKTABGACHA 4-5 YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOIY MOSLASHTIRISHDA IJODIY O’YINLARDAN FOYDALANISHNING INTERFAOL METODLARI

Munojat Raximberganova Muzaffar qizi,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Bolalar ham xuddi katta odamlar singari doim ma'lum faoliyat bilan mashg'ul bo'ladilar. Katta odamlar boshqa odamlar uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy foydali narsalar ishlab chiqarish faoliyati bilan band bo'lsalar, bolalar faoliyatining asosiy maqsadi bilib olish, o'rganishda asoslanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatlari — o'yin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biron narsa yasash, applikatsiya, qurish-yasash va shu kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Bolalar odatda kattalarning topshiriq va takliflari bilan ma'lum faoliyatga kirishadilar. Ayrim hollardagina bolalarning o'zlari mustaqil ravishda u yoki bu faoliyatni bajaradilar. Har ikki holatda ham bolalar faoliyati ma'lum natijaga ega bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun interfaol texnologiyalarni joriy etish asta-sekin amalga oshiriladigan jarayon, bu, albatta, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bugun yurtimizdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir necha interfaol texnologik mashg'ulotlardan foydalaniladi. Misol uchun: "Kichik guruhlarda ishlash" ushbu ish texnologiyasining qo'llanilishi barcha bolalar asosida ishlash imkonini beradi. "Zanjir" texnologiyaning asosi bitta vazifaga har bir ishtirokchining izchil yechimi qidirishi hisoblanadi. Umumiy maqsadning mavjudligi, va o'zaro bir-birlariga yordam ko'rsatish muhitini bir-birlari bilan qamrab olishga, vazifani hal qilish imkoniyatlarini taqdim etadi, bolalarda jamoada ishlash imkoniyatini shakllantiradi. "Bilim daraxti"— bu bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, muzokaralar olib boorish va vazifalarni hal qilishda mas'uliyat his qilish qobiliyatini shakllantiradi. Interfaol mashg'ulotlar faol o'quv usulining navlaridan biridir. Interfaol o'quv o'zaro ta'siri nafaqat tarbiyachi va maktabgacha yoshdgi bolajonlar o'rtasida amalga oshiriladi, bu holda barcha ko'plab tinglovchilar birgalikda ishlaydi (yoki guruhlarda ishlaydilar). Interfaol o'rganish usullari har doim o'zaro ta'sir, hamkorlik, qidirish, muloqot, odamlar yoki inson va axborot muhiti o'rtasidagi o'yindir. Darslarda faol va interfaol o'rganish usullaridan foydalangan holda bolalar tomonidan o'qitilayotgan materiallarni o’zlashtirish miqdori 90 foizgacha oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ham interfaol texnologiyalar va o'quv usullar qo'llaniladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachi uchun o'yin - bu asosiy faoliyat va u orqali bolaning yoshida zarur bo'lgan hamma narsani o'rgatishingiz mumkin.

Interfaol o'rganish, shubha yo'qki, pedagogikaning qiziqarli, ijodiy, istiqbolli yo'nalishidir. Bu ularning psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Interaktiv texnologiyalardan foydalanish butun dunyo bo'ylab dunyodagi bolalar haqidagi bilim va taqdimotni boyitishga imkon beradi, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlar haqida bolalarni ijtimoiy munosabatlar tizimida faol munosabatda bo'lishga undaydi.

Pedagogika sohasida bir nechta o'quv modellari farq qiladi:

1) Passiv - bola mashg'ulotning "ob'ekt" sifatida ishlaydi (tinglash va tomosha qilish).

2) Faol - bola mashg'ulotning "mavzusi" sifatida ishlaydi (mustaqil ish, ijodiy vazifalar).

3) Interfaol - bola va o'qituvchining o'zaro ishlashi.

Interfaol texnologiyalarni joriy etishning asosiy vazifalari:

• bolalar tashabbusi hamda o'zaro mustaqilligi rivojlantirish;

• ma'lumotni o'rganish va mustaqil ravishda ishlab chiqarish qobiliyatini shakllantirish;

• bolalar bilan integratsiyalashish;

• bolalar va kattalar o'rtasidagi muloqotlani o’rnatish;

• bolaning jamiyatga faol jalb qilish.

Ba'zi maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarga STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishga ahamiyat berishadi. STEM-ga asoslangan dasturlar talabalardan faqat faktlarni yodlashni talab qilish o'rniga, mustaqil fikrlaydiganlarni yaratishga intiladi. Talaba muammolarni hal qilish, savollar berish, tajribalar o'tkazish va kuzatuvlar o'tkazish haqida bilib oladi. Shubhasiz, bu boshlang'ich va o'rta maktablarda bajarilgan STEM ishi kabi deyarli jalb qilinmasa ham, nazariya shundan iboratki, bu bolalarga yaxshi boshlanishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim strategiyalari uch va to'rt yoshli bolalarning tajriba darajasida til, fan va matematika fanlarini kiritishi kerak. Qaysi turdagi yoki uslubdagi maktabgacha ta'lim tashkilotini tanlasangiz ham, bolangiz bu bilan o'zlarini qulay his qilishi kerak chunki ular tarbiyachilari bilan birga ular ko'p vaqt sarflashadi. Siz ularni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bosim yoki cheklovlarni his qilishni xohlamaysiz — bu ularning maktabni umuman yoqtirmasligiga ishontirishi mumkin, bu esa ularning akademik faoliyatining qolgan qismida muammo tug'dirishi mumkin. O'qishga ijobiy munosabatda bo'lish, chunki ular buni qiziqarli deb bilishadi, ularning umumiy baxtini va uzoq muddatli muvaffaqiyatlarini ochish uchun kalit bo'ladi. Qaysi usulni tanlashingizdan qat'iy nazar, ular biron bir narsani o'rganishadi va har bir dars ularning rivojlanishi uchun juda muhimdir. Interfaol texnologiyalar muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi.

Bolalarga kompyuterda, katta ekranda namoyish etiladigan har qanday yangi ma’lumot jozibali ko’rinadi. Zamonaviy bolalar ba’zida ma’lumotlarni oddiy eshitganidan ko‘ra kompyuter texnologiyalari vositasida tezroq o‘rganadilar. Birgina misol, eshitgan hikoyasi personajlarini yodidan ko‘tarilishi mumkin, lekin multfilm qahramonlarini uzoq muddat eslab qoladi. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha ta’limda AKTdan foydalanish zarurati aniq. Bolalarni rivojlantirish uchun ta’limiy jarayonda AKTdan foydalanish juda keng imkoniyatlarni taqdim qiladi. Xususan, elektron resurslar yordamida badiiy asar matnini eshitish bolalarga monotonli hikoyadan ko‘ra ta’sirliroqdir. Chunki elektron resursda musiqa qo‘shish va qushlar, suv, shamol ovozi kabi vositalardan foydalanish matn samaradorligini ta’minlaydi. AKT asosida tinglangan matnlarga ham bolalar hozirjavoblik va qiziqish bilan javob beradi. Maktabgacha yosh davrida ijodiy ta’lim texnologiyalariga alohida e’tibor qaratish lozim. Xususan, nutq o‘stirish faollik markazini badiiy qo‘llanmalarga va didaktik materiallarga boy tarzda jihozlashga e’tibor berish kerak. Bolalar nutqining barcha qirralarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mavzuga mos syujetli rasmlar to‘plamlari, sahnalashtirishga mo‘ljallangan o‘yinchoqlar to‘plamlaridan, bosma didaktik o‘yinlardan tashkil topgan metodik bankni yaratish tarbiyachi zimmasidadir. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish nutqni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini e’tirof etgan holda, guruhlarda kitoblar burchaklari tashkil etilishi muhim. Chunki tarbiyalanuvchilar bunday materiallar bilan bevosita yangi taassurotlar, bilim, ko‘nikmalar bilan tanishadi. Buni amaliyotda kuzatganimizda o‘yinlar va samarali ta’lim texnologiyalari asosida nutq o‘stirish mashg‘ulotlari o‘tkazilganida bolalarning faolligi, fikrlarini dadil asosda bayon qilgani, jarayonda zerikish bilmaganligi, lug‘atida yangi so‘zlarni qo‘llaganligi, qiziqishlari tufayli yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga ishtiyoq uyg‘onganligi ma’lum bo‘ldi. Bu esa MTTda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda umumiy muhim kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy va zarur talabidir. Mana shularni inobatga olgan olgan xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan ta’limiy faoliyat jarayoni va faollik markazidagi jarayonlar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda olib borilishi zarur. Chunki maktabgacha ta’lim tashkiloti ishiga innovatsiyalarni kiritish maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish va isloh qilishning eng muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova D.Q. Bolalalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. O'quv qo'llanma. — Toshkent, 2020.

2. Ilk qadam davlat o’quv dasturi. T., 2022.

3. Axmedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish. Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi II xalqaro anjuman. - T.: 2009.

4. Kayumova.N Maktabgacha pedagogika. O’quv qo’llanma. —TDPU, 2013.
5. Rasulxodjayeva M.A. A.A.Urazaliyeva Bolalarning ijtimoiy moslashuvi. Darslik, 2023.
6. Jumanova F.U. Umumiy pedagogika. — Toshkent: Ilm ziyo zakovat, 2023 y.

INKLYUZIV TA’LIM SOHASIDA PEDAGOG XODIMLAR VA MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHNING SAMARALI USULLARI MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Djurakulova Lola Raxmonberdiyevna

Xalqaro Nordik Unuversiteti, maktabgacha ta`lim yo’nalishi magistranti
loladjurakulova86@gmail.com

Har qanday jamiyatda yosh avlodning har tomonlama yetuk, komil inson bo‘lib voyaga yetishiga, munosib fuqarolar sifatida ulg‘ayib, davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga ulush qo‘shishlariga umid bog‘lanadi. Butun jahon bolalariga tegishli bo‘lgan bolalar huquqi haqidagi Konventsiya, O‘zbekiston Respublikasining «Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonuni singari qator muhim me'yoriy hujjatlarda ko‘rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o‘z o‘rnini topish huquqlariga egadirlar.

1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir inson bilim olish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan. Taqdim etilayotgan ta'lim har bir shaxsning qobiliyatidan kelib chiqqan holda hamma uchun ochiq va bepul bo'lishi kerak.

1993-yil 1-dekabrda 153 mamlakatda bolalar huquqlari haqidagi Konventsiyaning ratifikatsiya qilinishi vositasida, ularda bolalar kelajagini muhofaza qilishga tayyor ekanlik namoyish etildi. Konventsiya butun jahon bolalar huquqlari haqidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomasidir. Konventsiya – bola huquqlari haqidagi universal rasmiy Kodeksdir. Konventsiyada bolalar huquqlari to‘rt toifaga ajratib berilgan bo‘lib, ular 54 moddani o‘z ichiga qamrab olgan.

1994-yilda YUNESKO «Maxsus ta'lim zaruriyati» nomli hujjatni tayyorlab, unda maxsus ta'limga muhtoj bolalar va yoshlar uchun ta'limni tashkil etish hamda takomillashtirish masalalarini ko‘rib chiqdi. Ushbu ta'lim turida asosiy o‘rin reabilitatsiya masalalariga ajratilgan. Hujjatda: «Maxsus ta'limni alohida yordamga muhtoj kishilarga tashkil etishdan maqsad – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar va o‘smirlarni mustaqil, hamma qatori yashash sharoitida jamiyatga tiklash»,– deb ta'kidlangan.

Respublikamizda 2020 yil sentyabr oyida yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun tomonidan tasdiqlandi. Tasdiqdan oldin esa, O‘zbekiston Respublikasi nogironlar assotsiatsiyasi

mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta’lim tamoyillariga muvofiqligi bo‘yicha tahlili o‘tkazdi. Qonunning 20-moddadasida jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etiladi. Ushbu qonunda belgilangan vazifalarni to’laqonli bajarish maqsadida 2020 yil 13 oktyabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021yil 12 oktyabrda «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 638-son qarorlari ishlab chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo‘nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb bir milliardga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslar borligi haqida o‘ylab, fikr yuritsak, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo‘lamiz.

“Inklyuziv ta’lim’’ ingliz tilidan olingan bo’lib, inclusive — uyg’unlashmoq, uyg’unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Abdulla Avloniylarning tarbiyasining maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta’limning ta’siri to’g’risidagi qarashlari inklyuziv ta’lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadi — ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta’lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi:

• O‘z imkoniyatlarini o‘zlari uchun kashf etadilar;

• O‘zlarini barcha bilan bir xil hisoblay boshlaydilar;

• Ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishi ortadi;

• O‘zlarida mustaqil harakatlanishga bo‘lgan ishonch ortadi;

• Dunyoqarashi kengayib, hayotiy tajribasi ortadi.

Inklyuziv ta'limning sakkiz tamoyili:

1. Insonning qadr-qimmati uning qobiliyati va yutuqlariga bog'liq emas;

2. Har bir inson his qilish va fikrlash qobiliyatiga ega;

3. Har bir inson muloqot qilish va tinglash huquqiga ega;

4. Hamma odamlar bir-biriga muhtoj;

5. Haqiqiy ta'lim faqat haqiqiy munosabatlar sharoitida amalga oshirilishi mumkin;

6. Hamma odamlar tengdoshlarining yordami va do'stligiga muhtoj;

7. Barcha o'quvchilar uchun muvaffaqiyatga erishish, ular qila olmaydigan narsadan ko'ra, qila oladigan narsada bo'lish ehtimoli ko'proq;

8. Xilma-xillik inson hayotining barcha jabhalarini yaxshilaydi.

Inklyuziv maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachisi qanday sifatlarga ega bo‘lish kerak? Inklyuziv ta’limda o‘qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo o‘qituvchi inklyuziv tafakkurga ega bo‘lish va ta’lim sifati mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta'lim berish o'qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari — o'qituvchi o'quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi. Yana bir sifat -hamkorlikni yo'lga qo'yish. Chunki o'qituvchilar uchun hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhimdir.O'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalar aro guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo'lga qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lish kerak.

L.S.Vigotskiy fikricha “Ta’lim tizimi shunday bo’lishi kerakki nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning integratsiyasini ta’minlash deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta’lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj bola o’qish jarayonida har tomonlama rivojlansin”.

H.C.Triandes fikriga ko'ra, munosabat uchta elementdan, kognitiv, affektiv va xatti-harakatlardan iborat. Tushunishlar bizning his-tuyg'ularimizga, fikrlarimizga va xatti-harakatlarimizga ta'sir qiladi. Bu elementlarning barchasi interaktiv bo'lib, o'qituvchilarning alohida ehtiyojli bola bilan ishlash nimani anglatishini tushunishlariga ta'sir qiladi. Bu o'qituvchining alohida ehtiyojli bola bilan o'zaro munosabatlariga ularning oldingi tajribasi, bolaning xususiyatlari va kasbiy bilimlari ta'sir qilishini ko'rsatadi. Inklyuzivlik falsafasi inson huquqlari kun tartibiga asoslangan bo'lsa-da, ko'plab o'qituvchilar alohida ehtiyojli bolalarni asosiy tizimlarga kiritish bo'yicha xavotir va shubhalarini bildirishdi. J.Ward, Y.Center, S. Bochner tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda asosiy o'qituvchilarning munosabatiga ularning o'qitish mahoratiga va jarayon davomida ularga ko'rsatilayotgan yordam sifatiga ishonchsizlik hissi ta'sir ko'rsatdi. Avstraliyada olib borilgan keng qamrovli tadqiqotda olimlar Y. Center, J.Ward, T. Parmenter va R.Nash pedagog o'qituvchilar va psixologlarning munosabatlari o'rganilgan, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, inklyuziyaga bo'lgan munosabat alohida ta’limga muhtoj bolalarning tashxisiga (og’ir yoki yengil nogironlik darajasi) bog’liq bo’lgan.

Inklyuziv ta’lim har bir bolaga barcha sohalarda rivojlanishi va qo'llab-quvvatlanishi, qabul qilinishi va farovonlik tuyg'ularini his qilishiga imkon beradigan ta'lim muhitini ta'minlashni anglatadi. Anomal bolalar uchun alohida ehtiyojga ega bo'lmagan bolalar bilan umumiy bolalar

bog'chasiga borishning eng katta afzalligi ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Shu sababli, alohida ehtiyojli bolalarni qamrab olishda muvaffaqiyatga erishish uchun o'ziga ishonch va malaka hissini his qilishdan tashqari, pedagog tarbiyachi zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi juda muhimdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qarori.
3. Муминова Л. Ўзбекистон Республикасида инклюзив таълим концепцияси. Ривожланишида нуқсони бор болалар нутқини логопедик кўрикдан ўтказиш методикаси. – Т., 2009.
4. Дементьева Н. Ф., Багаева Г. Н., Исаева Т. Н. Социальная работа с семьей ребенка с ограниченными возможностями. – М.: Изд-во Ин-та социальной работы, 1997. – 213 с.
5. Муминова Л. Логопедик текшириш ва ўқитиш. – Т.: Ўқитувчи, 1993.

ИНТЕРАКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Тилонбоева Дилшода Кобилжон кизи,

студентка Дошкольного факультета ТГПУ им Низами

Современная модель дошкольного образования приблизилась к тому, когда возникла потребность в создании и применении педагогических технологий, которые обеспечат подготовку высокоинтеллектуальных и разносторонне развитых личностей, способных к активной социальной адаптации в обществе, началу трудовой деятельности, самообразованию и самосовершенствованию. На сегодняшний день современный воспитатель должен идти в ногу со временем, применяя новейшие технологии. Перед педагогами встает задача: обеспечить индивидуальный путь развития ребенка через использование всех видов детской деятельности: образовательный, индивидуальный, конструктивно-исследовательский, организационно-проектный.

Сегодня очень эффективен и широко используется новый подход в обучении дошкольников – **интерактивное обучение. Интерактивность означает** способность взаимодействовать или находиться в режиме беседы, диалога с чем-либо (например, с

компьютером) или кем-либо (человеком). Следовательно, интерактивное обучение – это обучение, построенное на **взаимодействии** обучающегося с окружающим его миром, развивающей предметно-пространственной средой, которая служит областью осваиваемого опыта.

Интерактивное обучение – это образовательный процесс, организованный таким образом, что практически все участники **оказываются вовлеченными** в процесс познания, имеют возможность понимать и рефлектировать по поводу того, что они знают и думают. Совместная деятельность воспитателей и дошкольников в процессе познания, освоения материала означает, что каждый вносит свой особый индивидуальный вклад, идет обмен знаниями, идеями, способами деятельности. Причем происходит это в атмосфере доброжелательности и взаимной поддержки, что позволяет не только получать новое знание, но и развивает саму познавательную деятельность, переводит ее на более высокие формы кооперации и сотрудничества.

Самой главной **задачей педагога** в интерактивной технологии является направление процесса обмена информацией и помощь в нем: выявление многообразия точек зрения; обращение к личному опыту участников; поддержка активности; соединение теории и практики; взаимообогащение опыта участников; облегчение восприятия, усвоения, взаимопонимания; поощрение творчества.

Практика показывает, что интерактивное обучение влияет на структуру непосредственной образовательной деятельности с детьми, требует особой организации и особого выбора необходимых интерактивных методов и приемов обучения. Технология интерактивного обучения дает возможность одновременно реализовать познавательные, коммуникативно-развивающие и социально-ориентационные аспекты образовательного процесса. Это позволяет педагогу решать комплекс обучающих задач за более короткое время и с более высоким качеством усвоения материала.

Цель интерактивного обучения состоит в обеспечении эмоционально-личностного роста каждого ребенка, в создании **комфортных условий**, при которых дети активно взаимодействуют между собой и при этом каждый чувствует свою успешность, свою интеллектуальную состоятельность, что делает продуктивным сам процесс обучения.

Сегодня вряд ли актуален вопрос — нужно ли интерактивное оборудование в дошкольном образовании. Ответ очевиден. Пришло время разобраться, какие устройства наиболее эффективны для использования в работе с детьми дошкольного возраста. В настоящее время создается множество простых и сложных компьютерных программ для различных областей познания. В зависимости от возраста ребенка и применяемых программ компьютер может выступать в роли оппонента по игре, быть рассказчиком,

репетитором, экзаменатором. Существуют различные компьютерные средства, направленные на развитие различных психических функций детей, таких как зрительное и слуховое восприятие, внимание, память, словесно-логическое мышление и др., которые можно с успехом применять при обучении детей дошкольного возраста. Создание и развитие информационного общества предполагает широкое применение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовании, что определяется рядом факторов.

Во-первых, внедрение ИКТ в образование существенным образом ускоряет передачу знаний и накопленного технологического и социального опыта человечества не только от поколения к поколению, но и от одного человека другому.

Во-вторых, современные ИКТ, повышая качество обучения, позволяют человеку успешнее и быстрее адаптироваться к окружающей среде и происходящим социальным изменениям.

В-третьих, активное внедрение этих технологий в образование является важным фактором создания системы образования, отвечающей требованиям и процессу реформирования традиционной системы образования.

В настоящее время уже невозможно себе представить развитие современного общества и производства без ИКТ. К набору существенных преимуществ использования компьютера в обучении перед традиционными занятиями необходимо отнести следующее:

1. Информационные технологии значительно расширяют возможности предъявления учебной информации. Применение цвета, графики, звука позволяет воссоздавать реальный предмет или явление;

2. Использование компьютера позволяет существенно повысить мотивацию детей к обучению;

3. ИКТ вовлекают детей в воспитательно-образовательный процесс, способствуя наиболее широкому раскрытию их способностей, активизации умственной деятельности.

4. Обучение с применением компьютера способствует формированию у детей рефлексии.

Учебные программы дают возможность наглядно представить результат своих действий, возможность исправить ошибку, если она сделана. Сегодня ИКТ начинают занимать свою нишу и в воспитательно-образовательном пространстве ДОУ. Это позволяет:

- предъявлять информацию на экране монитора в игровой форме, что вызывает у детей огромный интерес, так как это отвечает основному виду деятельности дошкольника — игре.

- ярко, образно, в доступной дошкольникам форме преподнести новый материал, что соответствует наглядно-образному мышлению детей дошкольного возраста;

- привлечь внимание детей движением, звуком, мультипликацией;

- поощрять детей при решении проблемной задачи, используя возможности учебной программы, что является стимулом для развития их познавательной активности;

- развивать у дошкольников исследовательское поведение;

- расширять творческие возможности самого педагога.

Использованная литература:

1. Marasulova, D. N. (2023). BOLALARGA CHET TILINI O‘RGATISHDA MULTIMEDIALARNI O‘RINI. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(3), 83-87.
2. Марасулова Д. Н. АУТЕНТИЧНЫЕ ВИДЕОМАТЕРИАЛЫ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА //Results of National Scientific Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 252-259.
3. Марасулова, Д. Н. (2024). ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В ОБУЧЕНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *17*(2), 204-208.
4. Marasulova, D. N. (2023). MAKTABGACHA TA’LIMDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISH. *GOLDEN BRAIN*, *1*(32), 26-30.
5. Marasulova, D. (2023). Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, *1*(1).
6. Jorayeva, N. T., & Marasulova, D. N. (2024). EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. *World of Scientific news in Science*, *2*(2), 37-43.
7. Marasulova, D. N., & Alovatova, L. S. (2023). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘RGATISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 47-50.
8. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta’lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

ПРОЦЕСС ОЗНАКОМЛЕНИЯ С ПРЕДМЕТНЫМ МИРОМ, КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.

Мансурова А. М

Студентка факультета «Дошкольное образование»

ТДПУ имени Низами

Развитие словарного запаса является одним из ключевых аспектов языкового развития у детей младшего дошкольного возраста. Словарный запас не только определяет способность коммуникации ребенка, но и оказывает значительное влияние на его когнитивные способности и учебные достижения в будущем. Процесс ознакомления с предметным миром играет важную роль в формировании словарного запаса и концептуального понимания у малышей. В данной статье мы проанализируем, какие методы и подходы могут быть использованы для эффективного развития словарного запаса у детей младшего дошкольного возраста через их ознакомление с окружающим миром.

Процесс ознакомления с предметным миром позволяет детям познавать новые объекты, явления, понятия и связи между ними. Этот процесс основан на активном взаимодействии с окружающей средой, что способствует более глубокому усвоению новой информации, в том числе новых слов и терминов. В контексте развития словарного запаса у малышей, процесс ознакомления с предметным миром играет несколько ключевых ролей:

1. **Контекстуальное обучение:** Дети эффективнее запоминают новые слова, когда они встречаются в контексте конкретных ситуаций или предметов. Например, при знакомстве с животными на ферме, ребенок может запомнить слово "корова" лучше, чем при простом просмотре изображения.
2. **Многоканальность восприятия:** Предметный мир предоставляет детям множество разнообразных сенсорных опытов, таких как зрительные, тактильные, звуковые и запаховые впечатления, что способствует более глубокому усвоению и запоминанию новых слов.
3. **Активное участие и взаимодействие:** Взаимодействие с предметным миром позволяет детям активно исследовать окружающую среду, задавать вопросы, выражать свои мысли и учиться новым словам в контексте общения.

Также существует несколько методов и подходов, которые могут быть использованы педагогами и родителями для эффективного развития словарного запаса у детей младшего дошкольного возраста через их ознакомление с предметным миром. Такие как игровые активности - игровые сценарии, имитирующие реальные ситуации, такие как магазин, больница, или кухня, предоставляют детям возможность использовать новые слова в

контексте игры и взаимодействия с другими детьми. Также экскурсии и поездки - посещение музеев, зоопарков, ферм и других мест обеспечивает детей разнообразными визуальными и сенсорными впечатлениями, расширяя их словарный запас на основе конкретных наблюдений. Нельзя забывать о чтение книг - чтение детских книг с яркими иллюстрациями и интересными историями позволяет детям узнавать новые слова в контексте захватывающих сюжетов.

Процесс ознакомления с предметным миром играет ключевую роль в развитии словарного запаса у детей младшего дошкольного возраста. Эффективное использование методов и подходов к ознакомлению с окружающей средой способствует не только расширению словарного запаса, но и развитию когнитивных способностей, воображения и социальных навыков у детей. Педагоги и родители могут сыграть ключевую роль в этом процессе, создавая стимулирующую и обогащающую среду для детей, в которой они могут активно исследовать мир вокруг себя и учиться новым словам и понятиям.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Алексеева М.М., Яшина В.И. Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников: Учеб. пособие для студ. высш. и сред, пед. учеб. Заведений. -- 3-е изд., стереотип. — М.: Издательский центр «Академия», 2000. - 400 с.
2. Арушанова, А.Г. Речь и речевое общение детей 3-7 лет: учебное пособие / А.Г. Арушанова. Москва: Детство Пресс, 2016. 125 с
3. Галич Т.Н., Багаутдинова Г.Р. Роль предметного мира в процессе развития словаря у детей младшего дошкольного возраста // Профессиональное самоопределение: современный аспект. Сборник трудов Всероссийской научнопрактической конференции (2 апреля 2020 г., г. Якутск -С.46-49.
4. Миннуллина Р.Ф., Гумерова Р.Р. Развитие словаря детей младшего дошкольного возраста в процессе ознакомления с предметным миром//Профессиональное самоопределение: современный аспект. Сборник трудов Всероссийской научно-практической конференции (2 апреля 2020 г., г. Якутск -С.140 -142.
5. Ушакова О. С. Программа развития речи дошкольников. - М.: Сфера, 2015. - 96 с

III-SHO‘BA PEDAGOGIKA KOLLEJLARI MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHI TA’LIM SIFATINI ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA BOSHQARISH

TA’LIM SIFATI TUSHUNCHASI VA MONITORINGI

Jumanova Fatima Uralovna *Nizomiy nomidagi TDPU kafedra mudiri*

e-mail: zumanovafatima@gmail.com

Ta’lim sifati – ta’limning ijtimoiy majmui, jarayon va natija sifatida shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiqligi, inson kamoloti ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini ta’minlovchi ta’lim xizmatlari iste’mol xususiyatlarining majmui. Ta’lim sifatini aniqlovchi asosiy omillar va ob’ektlar:

1) pedagoglar tarkibi;

2) o‘quv-metodik ta’minot;

3) moddiy-texnik ta’minot;

4) ta’lim muassasasining intellektual-ma’naviy salohiyati;

5) o‘quvchi-bitiruvchilar.

Ta’lim sifatini pedagogik tashxislash tamoyillari majmui:

1) adolatlilik (ob’ektivlik) tamoyili — tashxislash testlari (topshiriqlari, savollari), tashxislash jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta’lim oluvchilarga do‘stona munosabati hamda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni baholashning aniq shaklda belgilangan mezonlaridan iborat bo‘ladi. Amalda tashxislash adolatliligi qo‘yilgan baholarni nazorat qilish metodlari va vositalaridan, tashxis o‘tkazgan o‘qituvchi shaxsidan qat’iy nazar, hamma vaqt mosligini anglatadi;

2) muntazamlik (tizimlilik) tamoyili talabi shundan iboratki, tashxislash nazorati ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida: bilimlarni boshlang‘ich idrok etishdan to amalda qo‘llashgacha bo‘lgan bosqichlarida olib borilishi kerak. Tizimlilik barcha ta’lim oluvchilar o‘quv muassasasida bo‘lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta’lim oluvchining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalarining barcha jihatlarini ishonchli tekshirish uchun ta’lim nazorati tez-tez, davriy o‘tkazilib turilishi kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o‘tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o‘zaro bog‘liqlikda va birgalikda qo‘llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu tamoyil tashxislashning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo‘l qo‘ymaydi;

3) ko‘rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta’lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo‘yicha ochiq sinovdan o‘tkazishni anglatadi. Tashxislash jarayonida aniqlangan har bir

o‘quvchining reytingi ko‘rgazmali, baholarni e’lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo‘ljal (orientir) bo‘lib, ta’lim oluvchilar unga muvofiq o‘zlariga qo‘yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Bu tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashxislash natijalarini e’lon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, kamchiliklarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

“Monitoring” termini ilk marotaba Birlashgan Millatlar tashkilotining 1972 yil iyun oyida Stokgolm shahrida bo‘lib o‘tgan konferensiyasining tashkil etilishi arafasida “nazorat” terminiga muqobil sifatida ishlatila boshlangan.“Monitoring” — inglizcha termin bo‘lib, “uzluksiz kuzatish” degan ma’noni anglatadi. Monitoringga ijtimoiy boshqaruv nazariyasida boshqaruv sohasidagi nisbatan mustaqil, eng muhim bo‘lim sifatida qaraladi.

Ta’lim sifati monitoringi doirasida pedagogik faoliyatning natijalari yuzaga chiqariladi va baholanadi. Respublikamizning barcha turdagi ma’rifiy muassasalarda ta’lim sifati monitoringi tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim sifatini nazorat qilish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) Ichki nazorat - Maktabgacha va maktab ta’limi vazirlig tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi. O‘qituvchilar yoki maktab ma’muriyati, o‘quvchilarning o‘zlari, ota-onalar va jamoatchilik vakillari o‘quvchilarning bilimlarini o‘quv maqsadlari asosida tekshiradilar. Mazkur yo‘nalish o‘ziga xos bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, baholash bevosita o‘quvchining sinfda amalga oshirgan ishlari bilan bog‘liq bo‘lib, bunda o‘qituvchi turli uslublardan (masalan, og‘zaki so‘rov o‘tkazish, amaliy mashqlar bajarish, test va h.k.) foydalanib, o‘quvchi tomonidan bajarilgan ishlarga baho qo‘yadi. Baholash jarayoni tizimli ravishda o‘quv choragi va o‘quv yili davomida olib boriladi. Bunday baholashda o‘qituvchilar, maktab monitoring guruhi o‘quvchilarning o‘zlashtirish sifatiga, o‘quv yutuqlariga Davlat ta’lim standartlari bilan taqqoslangan holda individul baho beradilar. 2) Tashqi nazorat - ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy ta’limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Baholashning bu turi hududiy ta’lim boshqaruvi idoralari tomonidan amalga oshiriladigan hududiy ta’lim sifati monitoringi hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar tomonidan Davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirish dinamikasi tizimli kuzatiladi, o‘quvchila r bilimidagi bo‘shliqlar, ularning kelib chiqish omillari aniqlanadi va bartaraf etish chora-tadbirlari rejalashtiriladi. Shu sababli zamonaviy shaxsga, raqobatbardosh mutaxassisga qo‘yilgan talablarning ortib borishi, eng avvalo, ta’lim muassasalari va hududiy ta’limi boshqaruvi idoralaridagi alohida tuzilmalar tomonidan ta’lim sifati monitoringini tizimli va maqsadli amalga oshirishni talab etadi. Davlat attestatsiyasi va ta’lim muassasalari akkreditatsiyasi davlat tomonidan yoki uning nomidan vakolatli tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladi. Mazkur baholash muayyan ta’lim bosqichi yoki turi tugaganidan so‘ng amalga oshiriladi. Ularning asosiy va

ijtimoiy jihatdan muhim vazifalari bitiruvchilar va ta’lim muassasalarining davlat va jamiyat ijtimoiy buyurtmalarini bajarish holatini tahlil qilishga imkon beradi;3) Davlat-jamoatchilik nazorati - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy ta’lim boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi;

4) Milliy va xalqaro darajada baholash - Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida ta’lim boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi. Umummilliy baholash - barcha yoki ma’lum bir guruhdagi o‘quvchilarni tanlab olish yo‘li bilan ularning o‘qishdagi yutuqlari darajasi milliy standartlarga mosligi muntazam ravishda baholanadi. Mazkur turdagi baholash o‘quv dasturlariga muvofiq o‘tkaziladi. Xususan, alohida olingan o‘quvchilarning bilim va malaka darajasi emas, balki tizimning ish natijalari o‘lchanadi. Ikkinchidan, milliy baholash natijalaridan muayyan yoshdagi yoki sinfdagi o‘quvchilarning umumiy o‘zlashtirish darajasi sifatida foydalaniladi va milliy standartning uzoq muddatli monitoringini olib borishga xizmat qiladi. Tanlash yo‘li bilan umummilliy baholash qisqa muddatda va iqtisodiy jihatdan arzonroq o‘tkazish imkonini beradi. Uning natijalari muayyan o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quvchilarning o‘qishdagi yutuqlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumot berishi mumkin. Xalqaro baholash yaqin 15-20 yilda tashkil etilgan bo‘lib, ularda bir necha mamlakatlar o‘quvchilarining o‘qishdagi yutuqlari tanlash yo‘li bilan baholanadi. Bunday keng qamrovli tadqiqotning asosiy maqsadi — qamrab olingan muayyan yoshdagi (masalan, 13 yoshli o‘quvchilar) yoki sinfdagi o‘quvchilarning bir yoki bir necha o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv yutuqlarini baholash va bir qator mamlakatlar kesimida qiyoslashdan iborat. Shunday qilib, ta’lim sifati monitoringi tizimi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: axborot to‘planadigan ob’ektlar; axborotlarni to‘plash, saqlash va qayta ishlash usullari;axborotlarni to‘plash kanallari (yo‘llari) axborotlarni to‘plashning mezonlari va ko‘rsatkichlari; axborotlarni qayta ishlash tartibi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uralovna, J. F. (2024, March). PEDAGOGIKA METODOLOGIYASI VA ASOSIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 3, No. 3, pp. 86-95).

2. Uralovna, J. F. (2024). INNOVATSION TA’LIM SHAKLLARINI AMALIYOTGA JORIY ETISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *17*(1), 123-127.

3. Uralovna, J. F. (2024, March). TA’LIMNING RIVOJLANISH YO ‘NALISHLARI (TARAQQIYOT TENDENSIYALARI). In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 3, No. 3, pp. 177-184).

4. Uralovna, J. F. (2024). PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF INNOVATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN THE CONDITIONS OF NEW. *Academia Repository*, *5*(2), 355-365.

5. Uralovna, J. F. (2024). PEDAGOGIK AMALIYOTDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *39*(1), 30-38.

6. Uralovna, J. F. (2024). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARDA INNOVATSION KOMPETENTLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK TA'LIMIY MUHITINI YARATISH. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 18), 847-850.

7. Uralovna, J. F. (2024). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING INNAVATSION MODELINI YARATISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *39*(1), 23-29.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIMIY VA TARBIYAVIY JARAYONLARNI REJALASHTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Rizayeva Xusniya Ubayevna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi dotsenti v.b., PhD

Bugungi jadallik bilan rivojlanayotgan barcha mamlakatlar singari yurtimiz ham yoshlarning ilmiy-amaliy qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlarini, har bir shaxsga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish va ularning samaradorligini oshirish maqsadida tendensiyalar ishlab chiqilmoqda. Yosh avlodni yetuk shaxs va jamiyatga kerakli malakali kadrlar etib tarbiyalash uzluksiz ta'limning bosh maqsadi hisoblanadi. Ushbu jarayonni optimallashtirish va samarali tashkil etish, oz vaqt davomida kerakli bilimlarni berish hamda innovatsion yondashuvlar qo'llash asosida natijaga erishish bugungi davr talabidir. Zero farzandlari bilimli,dunyoqarashi keng va o'zining fuqorolik pozitsiyasida turgan yurt egalarining qadr-qimmati yuqori bo'ladi.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish maqsadida innovatsion yondashuvlarni qo'llash ularni takomillashtirish va bugungi kundagi dunyo mamlakatlarining tajribalarini o'rganish hamda amaliyotga tadbiq etish orqali kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tizimida bir qator huquqiy normativ hujjatlar, qaror va farmoyishlar ishlab chiqilmoqda.

Respublikamizda ‘‘O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasi’’ 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son, ‘‘Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PQ-3955-son 2018 yil 30-sentabrdagi Prezident qarorlari, takomillashtirilgan ‘‘Ilk qadam’’ davlat o’quv dasturi va shu kabi qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar, tizimdagi islohotlar maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan.

So’ngi yillardagi xorij tajribalaridan ko’rish mumkinki texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida maktabgacha ta’limni isloh qilish, bolalarga zamonaviy bilim berish, ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashishda tarbiyachilarning kompetensiyaviy xususiyatlarini, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda axborotlarni bolalarga singdirishni hal qilish kerakligi muammo hisoblanadi.

V.G.Suxodolskiy ta'kidlashicha, o'qituvchining kasbiy vakolati bu "fundamental ilmiy ta'limga va pedagogik faoliyatga hissiy-qiymatli munosabat asosida lavozim talablari bilan belgilanadigan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyatidir". Bu kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan munosabat va shaxsiy fazilatlarga, nazariy bilimlarga, kasbiy mahoratga ega bo'lishni o'z ichiga oladi.

Kompetensiya (lot.competo-erishyapman, munosibman, loyiqman) – u yoki bu sohadagi yillar davomida egallangan bilimlar, orttirilgan tajriba mahsuli. Bugungi kun tarbiyachisiga qo’yiladigan talablar:

• O’z bilimlarini muntazam ravishda oshirib borish.

• Zamonaviy yangiliklarda xabardor bo’lish.

• Egallangan malakalarni doimiy ravishda takomillashtirish.

• Tashabbuskorlik va mustaqil faoliyat olib bora olish.

• Mustaqil erkin fikrga ega bo’lish.

• AKT va o’qitish texnologiyalaridan qo’llay olishi.

• Tanqidiy fikr yurita olish va o’z ustida tinimsiz ishlash va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki zamonaviy bilimlar va kasbiy xususiyatlarga ega bo’lish davr talabi.

Kompetensiya quyidagi turlarga bo’linadi:

1. Shaxsiy kompetensiya.
2. Umummadaniy kompetensiya.
3. Kasbiy kompetensiya.
4. Maxsus kompetensiya.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning

o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo’ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo’la olishda.

Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun bo‘lajak pedagoglardan tinimsiz harakar o’z ustlarida ishlash talab etiladi.

Ta’lim tashkilotida tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashishda tarbiyachini quyidagi kompetensiyalarga ega bo’lishi muhim sanaladi:

- ✓ AKTdan foydalana olishi zamonaviy taqdimotlar va ishlanmalar ishlab chiqa olishi.
- ✓ Kommunikativ qobiliyatlarining shakllanganligi.
- ✓ Yangi bilimlarni doimiy ravishda o’rganib turish.
- ✓ Kreativ yondashishga urinish.
- ✓ O’z vaqtida va kamchiliklarsiz ish hujjatlarini yuritish va boshqalar.

Individual yondashuv — bu bola shaxsining alohida belgi xususiyatlarini hisobga olgan holda unga ta’lim berish sanaladi. Bola shaxsining ijobiy xususiyatlari va hatti harakatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish mustahkamlashga qaratilgan jarayon. Ommaviy tarzda taqdim etilgan axborot va bilimlarni anglay olmagan va yetarlicha egallay olmagan bolalarga ularning individual xususiyatlarini hisobga olib ta’lim berish turi. Individual yondashuv bu pedagogik jarayonning bir qismi hisoblanadi. Masalan bazi bolalar faqat eshitgan gaplarini eslab qoladi, bazilar ko’rganini, boshqalari esa eshitib ko’rib amalda qo’llab ko’rgan ma’lumotlarini eslab qoladi. Bundan tashqari, sxema, diogramma turli xildagi chizmalar orqali ham eslab qolishi mumkin bo’lgan bolalar mavjud. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib tarbiyachi-pedagog umumlashtirilgan faoliyat olib borishi lozim.

Bunda u quyidagilarga amal qilishi lozim:

• Faoliyat jarayoni faqat gapirib berishdan iborat bo’lmasligi lozim.

• Bolalar bilan savol-javob o’tkazish, kuzatish uchun ekskursiyalar uyushtirish.

• Sxemali va animatsion tarzda axborotlarni berish.

• Bola kayfiyatini ham hisobga olish.

• Giper aktiv bolalarga ularning aktivligini biroz pasaytiruvchi topshiriqlar berish.

• Giper passiv bolalarga esa harakatga undovchi tezkorlik bilan bajariluvchi topshiriqlar berish.

• O’yinlar va enerjayzerlarda foydalanish.

• Bir xil o’yin yoki texnologiyalardan kamroq foydalanish bir xillikdan qochish.

Faylasuf, jamiyatshunos va antropolog Valeriy Xan nima uchun pedagogik ta’lim sifati O‘zbekistonning innovatsion taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egaligi to‘g‘risida shunday fikr yuritadi: “Ushbu o’zaro aloqador bo’lgan bu ikki komponentni to’liq anglab yetish orqali ta’lim samarasining oshishiga erish mumkin. Mehnat bozorida raqobatbarchosh kadr tayyorlashimiz mumkin. Kelajagimiz xavfsizligining kaliti innovatsion iqtisodiyot ekanligi barchaga ma’lum. Bilimga asoslangan innovatsion iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyati, uning nisbatan qisqa davr ichida katta o‘zgarishlarga erishib, samarali va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishi mumkin. Bu esa «quvib yuruvchi» iqtisodiyotlar qatoridan ilg‘or iqtisodiyotga o‘tishni anglatadi. Innovatsiyalar va dinamik innovatsion iqtisodiyotning asosiy drayveri esa sifatli ta’lim olgan, yaratuvchan va muvaffaqiyatga intiluvchi inson kapitali hisoblanadi. Buning uchun mamlakatda sifatli ta’lim tizimi va kuchli ilm-fan maktabi bo‘lishi lozim.”

Tarbiyachi-pedagog bolani o’z kuchi va bilimiga ishonishga, ichki imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalashi, ilk davrlardanoq kasbga yo’naltirishi, Vatanga faxr va iftixor ruhini tarbiyalashi, bolani kamsitmasdan tenglik asosida bilimlarni berishi lozim. Xulosa qilib aytganda, tarbiyachining kompetensiyaviy xususiyatlarining shaklanganligi va bolalarga individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim berish zamonaviy innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ularning turi va qo’llanilish doirasi juda keng. Inson kapitali hamda jamiyat va davlatning iqtisodiy yutuqlari chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ‘‘Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi 30.09.2018 yildagi PQ-3955-son qarori.

2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

3. Sodiqova Sh.Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: Tafakkur bo’stoni, 2013.

4. www.pedagog.uz.

5. www.gazeta.uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA OILANING ROLI

Rizayeva Xusniya Ubayevna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Shaxs tarbiyasida, uning ma’naviy-axloqiy rivojlanishida boshqa ijtimoiy institular bilan taqqoslaganda, oila eng asosiy institut vazifasini o’taydi. Itimoiy institut sifatida oiladagi ming yillar davomida e`zozlanib, ardoqlanib, avloddan avlodga o`tib kelayotgan oilaviy qadriyatlar: kattalar va kichiklarni hurmat qilish, bir-birini tushunish va mehr-oqibatga asoslangan do`stona hayot tarzi, milliy urf-odatlar va ularni amalda qo`llash barcha davrlarda bo`lganidek, bugungi kunda ham yosh avlodni jismonan sog`lom, ma`naviy yetuk, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalashda dasturilamaldir.

Ma’naviy-axloqiy rivojlanish — fikrlash va o'zini tutish bo'yicha madaniy ravishda belgilangan yoki o'z-o'zidan tuzilgan yaxshi va yomonning me'yorlariga muvofiq rivojlanishdir.

Oila — qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog‘langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir.

Aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy me'yorlar shakllanadi. Oila omili insonga butun umri davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o‘z-o‘zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshirishiga yordam beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo‘shish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan.

“Oilaviy munosabatlar — oliy qadriyat” deb hisoblangan bizning yurtimizda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda baland bo‘lib, u o‘z mavqeini hozirgacha saqlab kelmoqda. O‘zbek oilasida zaruriy tarbiyaviy omil va ko‘nikmalar avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Ko‘p bolali o‘zbek oilalarida patriarxat tartibning saqlanishi oiladagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlagan. Biroq bugungi kunda oila inqirozi ko‘pgina oilalar, shu jumladan, o‘zbek oilalariga ham o‘z ta'sirini ko‘rsatmoqda. Oila a'zolari sonining qisqarishi, avlodlarning muammosining kuchayishi munosabati bilan, oilaviy munosabatlarni shakllantirish masalasi borgan sari muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Oila ikki yo‘nalishda mavjud bo‘ladi: kichik ijtimoiy guruh sifatida va ijtimoiy institut sifatida. Birinchi holatda, oila qarindoshlik asosida tuzilgan va birga yashash bilan birlashtirilgan

hamjamiyat bo‘lsa, ikkinchi holatda esa, insonlarning kundalik hayoti kechadigan ijtimoiy institutdir.

Jamiyatda oila bir nechta funksiyalarni bajaradi. Reproduktiv funksiya — naslni davom ettirish bilan bog‘liq. Iqtisodiy funksiya — ma'lum bir oila a'zolari tomonidan boshqalari uchun moddiy mablaglar topilishi, oila a`zolarining turmush sharoitini yaxshilash, bo`sh vaqtlarini mazmunli o`tkazish, voyaga yetmaganlar va qariyalarni moddiy ta'minlash, pul mablag‘larini to‘plash iqtisodiy funksiyaning asosini tashkil qiladi. Ijtimoiylashuv funksiyasi — oila bola shakllanishiga ta'sir qiluvchi birinchi va asosiy ijtimoiy guruh hisoblanadi. Xo‘jalik-maishiy funksiya — oila jamiyatning asosiy va doimiy xo‘jalik negizidir. Psixoterapevtik funksiya — oilada barcha oila a'zolari o‘zini qulay sezishi lozimligida namoyon bo’ladi. Tarbiyaviy funksiya — bola tug‘ilgandan boshlab, umrining oxirigacha davom etadigan jarayonidir. Bolaning ilk ijtimoiylashuvi jarayonida tarbiya muhim rol' o‘ynaydi. “Oilaviy hayotning asosiy goyasi va maqsadi — farzand tarbiyasi”.(V.A.Suxomlinskiy)

“Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas`uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba`zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan ohiriga yetadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo`ladi. Zotan ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.” (Shax Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf)

Tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri shaxsiy namunadir. Xalqimizda “qush uyasida ko’rganini qiladi”, degan naql bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshiriladigan ijtimoiylashuv jarayoni, yoshi kattalarning o’zaro munosabatlarni namoyon qilishlari, natijada shaxs ijtimoiy meyyorlar va qadriyatlarni o`zlashtirib, ijtimoiy hayotga kirib borishidir.

Farobiyning fikricha, insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l — ta’lim va tarbiya orqali hosil qilinadi: “Ta’lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta’lim so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, har ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo‘ladi...”. Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyani o‘zviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, har birining insonni kamolga etkazishida o‘z o‘rni va xususiyati borligini alohida ta’kidlaydi.

Tarbiyaning jamiyat va davlat taraqqiyotidagi muhim o‘rni haqida to`xtalar ekanmiz V.A.Suxomlinskiyning “Farzandlarning munosib inson bo’lib voyaga yetishi uchun ular mehribon oilada tarbiyalanishi kerak” degan fikrlarini keltirib o’tish joizdir.

Hozirgi kungacha, oilaviy tarbiya amaliyotida ko`p bolalilikning ijobiy va salbiy xususiyatlari borasida bahslar olib borilmoqsa. Sababi, muammoning ahamiyatli ekanligiga qaramay, bu masala hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Ko‘p bolali oila kattalar va bolalardan iborat o`ziga xos jamoadir. Unda shaxsning ijtimoiylashuvi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Bunday oilada tarbiya jarayonini tashkil etish muammosi bilan shug‘ullanuvchi olimlar ham turli qarashlarga egadir. Ularning ba'zilari ko‘p bolali oilada bola jamoa munosabatlari orqali tajriba to‘playdi, deyishadi, chunki ko`p bolali oila tarbiya uchun qulay sharoitlar yaratadi va ota-onalarning bolalari haqida qayg‘urishlari teng taqsimlangan bo`ladi. Boshqa tadqiqotchilar esa, aksincha, ko‘p bolali oilada bola har tomonlama yetarli rivojlanmaydi, deb hisoblashadi.

Agar oilaviy tarbiya bola individualligini aniqlash va uning qobiliyatlarini rivojlantirish kerak, degan qoidadan kelib chiqsak, buning uchun oila nihoyatda rivojlangan bo‘lishi kerakligiga amin bo‘lamiz. Ko’p bolali oilada individual yondashuv bo‘ladimi? Bu yerda tarbiya jarayonining ko’p tamonlamaliligi va standartlashuvi ro‘y bermaydimi? Individual yondashuv uchun, avvalo, psixologik va pedagogik bilimlar, shuningdek, tarbiya jarayonida bolalarni kuzatish uchun maxsus vaqt va psixologik tahlil o‘tkazish kerak.

Ba'zi tarbiyaviy omillar o`zbek oilasida, xususan, ko’p bolali o`zbek oilasida uy xo‘jaligini yuritish bilan bog‘liq:

• Ko‘pchilik o‘zbek oilalarida uy ishlarini qiz bolalar bajarishadi, o‘g‘il bolalar esa bu vazifalardan deyarli ozod qilinganlar. Bu holat keyinchalik o‘g‘il bola xarakterida oiladagi muomalasiga xalaqit beruvchi odatlarni yuzaga keltirishi mumkin;

• Ba'zan bolalar uy yumushlariga xaddan ortiq vaqg ajratishadi;

• Ba'zi o‘zbek oilalarida ota-onalar bolalarining o‘qishiga befarq bo‘lishadi, ularga uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda amaliy yordam berishmaydi;

• O‘zbek oilalarida bola uy vazifalarini kechqurun barcha oila a'zolari to‘planishganda qilish odat bo‘lgan. Bu vaziyatda ko‘pgina chalg‘ituvchi omillar ham paydo bo‘ladi: televizor ko‘rish, oila a'zolarining o‘zaro suhbatlashishi, uy yumushlarini bajarish va h.k.

O‘zbek oilalaridagi yigit-qizlarning ijtimoiy moslashuviga xalaqit beruvchi omillarga qizlarni ko‘pincha faqat oilaviy hayot uchun, yigitlarni esa mehnat, kasb uchun tayyorlashni kiritishimiz mumkin. Ayol kishidan malakaviy va kasbiy faollikni, erkak kishidan esa o‘z xizmat va oilaviy majburiyatlarni bajarishni talab qiluvchi, hozirgi kunda bu an'analarning saqlanib qolishi zamonaviy ijtimoiy talablarga zid keluvchi hodisadir. Bu hodisa ijtimoiy tarbiya va oilaviy tarbiya o‘rtasida kelishmovchiliklar borligidan dalolat beradi. Bu borada aksariyat ota-onalar pedagogik maslahatlarga ehgiyoj sezadilar. Shunday hollarda ota-onalarni bolalarga yordam berishning aniq usullari bilan tanishtirish lozim. Bunday salbiy omillarning ta'sirini bartaraf etish oilani shaxs ijtimoiylashuvining asosiy omili sifatida mukammallashtirishni talab qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Bahtiyor oila. Uslubiy qo`llanma. — T: “HILOL- NASHR”, 2022 y. — 355 b.

2. Teshabayev Z.S. Bolangiz bogchaga tayyormi. Uslubiy qo`llanma. — T: MALIK PRINT, 2020 y. — 48 b.

3. Teshabayeva Z.S. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o`rgatish. O`quv qo`llanma. — Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021 y. — 34 b.

4. Фаусек Ю.И. Детский сад Монтессори. — М: Карапуз, 2011. — С 112-113

5. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. — Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. — 72 b.

6. Quronov M. “Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...:” Ota-onalar uchun. — T.: «Ma'naviyat», 2013.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATI VA BOSHQARUVNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jo‘rayeva Nargiza Tairovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi mudiri, PhD

O’zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va bu sohani yanada rivojlantirish bo’yicha keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasida “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog’ini kengaytirish va ushbu tashkilotlarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi muhim vazifalar belgilangan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga yo’naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, ular uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohadagi boshqaruv muammolarining yechimini topish va bartaraf etish, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishni, ya’ni boshqaruvning avtoretar uslubdan voz kechgan holda, bugungi kun talablariga mos keladigan, demokratik uslubga va innovatsion yondashuvlarga

asoslangan boshqaruvchida kreativlik sifatlari shakllangan tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Boshqaruvda rahbarlar tomonidan o’ziga xos ahamiyat kasb etuvchi vazifalar:

- rejalashtirish;
- amalga oshirish yo’l-yo’riqlarini tanlash;
- qaror qabul qilish va uni amaliyotga tatbiq etish;
- vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko’ra mutaxassislarni tanlash;
-belgilangan vazifalarni to’gri taqsimlash;
- ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish;
- moddiy-texnika bilan ta’minlash;
- maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatida interaktiv metodlarni qo’llash.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligini ta’minlash nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilot rahbari, balki pedagog xodimlar va tarbiyachilarning qiziqishi, bilimi, ko’nikma va malakalariga, ularning faoliyati natijalariga ham bog’liqligi va aloqadorligi maktabgacha ta’lim boshqaruvi o’ziga xos tizim ekanligini ifodalaydi. Har qanday boshqariladigan ob’ekt kabi maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati ham va boshqaruvchi sub’ektlar tomonidan boshqariladi va muvofiqlashtirib boriladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati tashkilotchilari bo’lgan sub’ektlar (MTT rahbari, pedagog xodimlar va tarbiyachilar) o’rtasidagi aloqa tarbiyaviy munosabatlarga asoslanadi va tarbiyaviy munosabatlar jarayonidagi o’zaro munosabatlar ularning faoliyatini ifodalaydi.

Demak, maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish, boshqarish va belgilangan maqsadlarga erishishda rahbarlar, pedagog xodimlar va tarbiyachilarning lavozimi yo’nalishidagi funktsional vazifalarini o’zaro aloqadorligi va bog’liqligini ta’minlash asosida samaradorlikka erishish uchun hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etishning zarurati maktabgacha ta’lim tashkiloti boshqaruvining o’ziga xos xususiyatlaridan biri ekanligini ko’rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida boshqaruvning o’ziga xos xususiyatlaridan biri sub’ektlar faoliyatini tashkil etishda boshqaruv metodlaridan mazmun-mohiyatiga va vazifasiga ko’ra to’g’ri foydalanishning ahamiyatliligi bo’lib, maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyatini tashkil etish va boshqarishga, ya’ni maktabgacha ta’lim tashkilotining funktsional vazifasi va undagi ta’lim-tarbiyaviy muhitning o’ziga xos jihatlariga mos keladigan metodlarni qo’llash zarur hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatini takomillashtirishda pedagog xodimlar va tarbiyachilar faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berish, ularning faoliyatini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim

tashkilotida moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash xodimlarga moddiy yordam ko’rsatish, ularni rag’batlantirish, mukofotlash yoki jazolash (jarima solish)da iqtisodiy metodlardan foydalaniladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti boshqaruvida pedagog xodimlar, tarbiyachilar hamda tarbiyalanuvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishda qaror, buyruq, farmoyish va ko’rsatmalarni o’z vaqtida tegishli shaxslarga yetkazish va bajarilishini nazorat qilish o’ziga xos ahamiyat kasb etib, tashkiliy-ma’muriy metodlardan foydalanish zaruriyatini belgilaydi. Chunki, maktabgacha ta’lim tashkilot faoliyatini takomillashtirishda qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar va ko’rsatmalar tayyorlash va ularning bajarilishini ta’minlash jarayoni o’ziga xos ahamiyat kasb etuvchi jarayon hisoblanib, sub’ektlar faoliyatini muvofiqlashtirishda tashkiliy-ma’muriy metodlar orqali ta’sir ko’rsatishning zarurati maktabgacha ta’lim tashkilotida boshqaruvning o’ziga xos xususiyatlaridan biri sanaladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi boshqaruvi jarayonida mavjud muammolarni hal etish, ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, ta’lim samaradorligini oshirish yo’nalishida qabul qilingan qaror va buyruqlarning mazmun-mohiyati jamoa a’zolarining qiziqishi, manfaatlari, ko’nikma va malakalari, bilimi, qobiliyati hamda imkoniyatlariga, shuningdek, mavjud huquqiy va me’yoriy hujjatlarga mos kelishi zarur bo’lib, bu ko’p jihatdan rahbarlarning boshqaruv yo’nalishidagi bilimi, ko’nikma va malakasi, kasbiy tajribalariga bog’liq bo’ladi.

Demak, tashkiliy-ma’muriy metoddan fodalanishda hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish orqali xodimlarda mas’uliyatni, ya’ni ularda o’z vazifalariga nisbatan javobgarlik hissini shakllantirish, maktabgacha ta’lim tashkilotida mavjud munosabatlarni yaxshilash asosida o’zaro ta’sir jarayonini vujudga keltirish, ongli intizom, o’zaro mutanosiblik va kelishuvchanlik, tartiblilik hamda uzluksiz rivojlanishni zamonaviy talablarga mos ravishda ta’minlashning zarurati MTTda boshqaruvning o’ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida maydonga chiqadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida boshqaruvning o’ziga xos xususiyatlaridan biri ta’lim tashkilotida ijodiy-sog’lom muhitni yaratish zaruriyatini belgilaydi, bu o’z navbatida boshqaruvning ijtimoiy-psixologik metodlaridan foydalanish asosida maktabgacha ta’lim tashkilotida boshqaruvning o’ziga xos xususiyatlaridan biri umumiy maqsadni belgilash va qarorlar qabul qilish jarayonida pedagog xodimlar, tarbiyachilar va mutaxassislarning erkin ishtirok etishi, mustaqil va erkin harakat qilishi, o’z fikr va tashabbuslarini namoyon qilishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Xulosa o’rnida aytish lozimki, zamonaviy rahbar bu vazifalarini amalga oshirish jarayoni pedagog va boshqa xodimlarning barcha faoliyatlariga tegishli bo’lgan jarayon bo’lib hisoblanadi va rahbar ko’zlangan natijalarga erishishda ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta’sir ko’rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilot to‘g‘risidagi Nizom, 2017.

2. Turg’unov S.T. Ta’lim muassasalarini boshqarishning funktsiya va metodlari // Maktab va hayot jurnali. – 2006.

3. Turg’unov S.T. Ta’lim muassasalarini boshqarishda innovatsion faoliyat // Uzluksiz ta’lim jurnali. – 2006. – № 4.

4. Turg’unov S.T. Zamonaviy maktab direktorining boshqaruv faoliyatida tizimli yondashuv // Xalq ta’limi jurnali. – 2006.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TASVIRIY QOBILIYATI VA IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Radjapova Z.T.

Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha ta’lim texnologiyasi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Maktabgacha ta’limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma’naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘ligini ta’minlashdan iborat.

Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san’at orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to‘g‘ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir.

Tasviriy san’atning o‘ziga xos bo‘lgan murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo‘la oladigan tarbiyachilarni yetishtirib chiqarish vazifasi turibdi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalariga ma’no jihatin yondashuvlar keltirilgan. Xususan: Arabchadan yaratish, kashf qilish, vujudga keltirish **“ijod”** tushunchasi ikki xil ma’noni anglashiga urg‘u beriladi: 1) badiiy, ilmiy, san’atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish, yaratuvchilik faoliyati;

2) yaratuvchanlik faoliyati mahsuli, samarasi.

Arabcha **“ijodiyot”** esa lug‘aviy jihatdan “ijodiy ish bilan bog‘liq faoliyat*, ijod” ma’nolarini*

anglatadi.

"Ijodkorlik" *tushunchasi esa arabcha "ijod", shuningdek, forscha "kor" va o'zbekcha "lik" qo'shimchalari yordamida hosil qilingan tushuncha sifatida "ijodkorning ishi", "ijodkorga xos faoliyat" va "yaratuvchanlik" ma'nolarini anglatadi.*

Ijod *- insonningyangi moddiy va ma'naviy ne'matlaryaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi, keyin unga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko'rib chiqiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o'tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi, bular tajribada sinab ko'riladi, noto'g'ri bo'lsa yangilanadi va hokazo.*

Ijodiy izlanishlar natijasi turli shakllarda (badiiy asar, matematik formula va boshqalar ko'rinishida) yuzaga chiqadi. Uni jamiyat e'tirof etsagina haqiqiy, to'liq ijod bo'ladi. Ijod fan-texnikani, madaniyatni bo-yitadi, rivojlantiradi.

Ijodni shartli ravishda ikki guruhga: ilmiy ijod va badiiy ijodga bo'lish mumkin.

Olimlar faoliyati ilmiy ijodga, san'atkorlar, yozuvchilar faoliyati badiiy ijodga qaratilgan. Ba'zi kishilarda har ikki ijod yo'nalishida faoliyat yurita olish malakalari rivojlangan bo'lishi mumkin.

Ilmiy ijodda tabiat va jamiyat hayotining obyektiv qonuniyatlari aks etsa, badiiy ijodda ma'naviy hayot muammolariga san'atkorning subyektiv, o'ziga xos qarashlari, his-tuyg'ulari aks etadi.

Badiiy ijodda hayotning turfa ranglari hamda voqealari orasidan ibratli va ijtimo'li ahamiyatli bo'lganlari tanlab olinadi va badiiy umumlashtiriladi. Bu turdagi ijod murakkab jarayon bo'lib, inson faoliyatining idrok etish, baholash, qadrlash singari turlari bilan bog'liq holda amalga oshadi. Buning uchun ijodkor erkin xayol, ozod tafakkur, keng ko'lamli tasavvur, milliy g'urur va yuksak orzularga ega bo'lishi kerak. Odatda badiiy ijod mahsulotining ommaviyligi va ijtimoiy ahamiyati ana shu bilanbelgilanadi. Ijodning taraqqiy etishida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

"Xalq og'zaki ijodiyot" tushunchasi ham til iste'molida keng qo'llaniladi. "Ijodiyot" tushunchasiga berilgan izohdan kelib chiqadigan bo'lsa, xalq tomonidan amalga oshirilgan ijod va bu ijod natijasida yig'ilgan ijodiy mahsulotlar to'plami ma'nosini ham ifodalash mumkin.

Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi - tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi.

Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga, kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini uning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi.

P.Torrens ijodkorlikni “tartiblikdan tashqariga chiqish” deb yuritib, fikrlash

jarayonini tasvirlaydi. Muallif bolalarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishning to‘rtta afzalligini ko‘rsatib o‘tadi. Ular:

1. *Ijodiy fikrlash yaxshi ruhiy salomatlik va shaxsiyatni rivojlantirishga yordam beradi.*
2. *Ijodiy fikrlash yangi bilimlarni egallashga olib keladi.*
3. *Ijodiy fikrlash kunlik muammolarni hal qilishda yordam beradi.*
4. *Ijodiy fikrlash bugungi va kelajak avlodlarning hayotida yordam beradi.*

“Zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biri shaxs tarbiyasida yangicha yondashuvni tashkil etishdir. Bu jarayonlar bolaning ijodiy faol, mustaqil fikrlovchi, muloqotchan va turli vaziyatlarga moslashuvchan bo‘lishini ta’minlaydi. Hozirgi kunda bolalarda kretivlik masalasi o‘rganilmagani dolzarb masalalardan biridir”.

Pedagogik va psixologik manbalarda “qobiliyat”, “iste’dod” (“talant”) tushunchalari birdek qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda “iqtidor” tushunchasi ‘iste’dod” tushunchasining muqobili sifatida qo‘llanilmoqda. Manbalarda qayd etilishicha, qobiliyat “shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyat”, iste’dod, iqtidor esa “shaxsning ma’lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi” demakdir.

Odatda, ijodiy qobiliyat ijodiy mazmunga ega faoliyat jarayonini tashkil qilishda ko‘zga tashlanadi. Shu sababli, “ijodiy faoliyat” tushunchasining mohiyatini anglab olish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy faoliyat *- shaxsning hissiy holati - ta'sirlanish, ilhomlanish, ruhiy iztirob, nimanidir yaratishga bo‘lgan kuchli xohish-istaklariga tayangan holda ruhiy va aqliy imkoniyatlarni ishga solgan holda nimanidir yaratish, mavjud narsalarni takomillashtirish, yangilashga qaratilgan faoliyati sanaladi.*

Ijodiy faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladigan yoki ijodiy jarayonni nihoyatda oson, samarali tashkil qilishga yordam beradigan qobiliyat ijodiy qobiliyat sifatida aks etadi. Shunga ko‘ra “ijodiy

qobiliyat” tushunchasini izohlash mumkin.

Ijodiy qobiliyat - *shaxs tomonidan ijodiy (nimanidir yaratish, asoslash, modellashtirishga qaratilgan) faoliyatni qiyinchiliklarsiz oson, samarali tashkil qilishga yordam beradigan qobiliyat.*

Qobiliyat mohiyatiga ko‘ra umumiy va maxsus iqtidor kabi guruhlarga bo‘linadi. Qayd etilgan hislatlar umumiy iqtidorga xosdir. Umumiy iqtidor yaxlit holda kamdan- kam kishilardagina namoyon bo‘ladi. Insoniyat tarixida bu kabi maxsus xislatga ega kishilar sifatida Aleksandr Makedonskiy va Napoleon Bonopart nom qozonganlar. Manbalarda yozilishicha, ular bir vaqtning o‘zida yetti xil faoliyatni bajara olganlar. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy qadriyatlarni qayta tiklash, milliy tarixni xolis yoritishga qaratilgan harakat natijalari buyuk sohibqiron Amir Temurning maxsus qobiliyat turli ko‘rinishdagi faoliyatlar (matematik, texnik, musiqa, tasviriy san’at, adabiyot (poeziya va proza), jismoniy tayyorgarlik va boshqalar) bo‘yicha namoyon bo‘ladi.

Demak, qobiliyat, iste’dod va iqtidor:

muayyan faoliyat va uni bajara olish darajasi ;

- individual xususiyat sifatida aks etadi.

Shaxs iqtidori mohiyatiga ko‘ra turli yo‘nalish va darajada ko‘zga tashlanadi. Ya’ni:1) yo‘nalishiga ko‘ra: ilmiy tafakkur (ilm-fan yo‘nalishida), badiiy tafakkur (ad- abiyot yo‘nalishida), musiqa (musiqa yo‘nalishida), sport (sport sohasida), aqs (xore- grafiya yo‘nalishida), tasviriy san’at (rassomlik yo‘nalishida), amaliy san’at (milliy hu- narmandchilik, haykaltaroshlik yo‘nalishlarida), texnik iqtidor (texnika yo‘nalishida), harbiy mahorat (harbiy sohada), ijtimoiy moslashuvchanlik (ijtimoiy munosabatlar yo‘nalishida);

- darajasiga ko‘ra: qobiliyatlilik,
- iqtidorlilik, noyob iqtidorga egalik (daholik).

Qobiliyatga egalik turli vaziyat va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Kishilik tafak- kuri tarixida noyob iqtidorga egalik quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lganligi bar- chaga ma’lum, ya’ni:

1) yoshlik yillaridanoq badiiy, musiqiy va tasviriy san’at asarlarini yarata olish (Alisher navoiy, Aleksandr sergeyevich Pushkin, Vilyam sheksper; Volfgang Amadey Motsart, Lyudvig Van Betxoven, Fridrik shopen, Iogann sebastyan Bax; kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Bronarroti Mekelanjelo, Rafael (Rafaello santi);

2) yoshlik yillaridanoq o‘ta murakkab matematik amal va fizik formulalarni bajara olish (Lev Davidovch Landau, Mixayil Lomonosov, Tomas Alva edison);

3) yoshlik yillaridanioq jang qilish san’atini namoyon etish (Aleksandr Makedonskiy, Amir Temur, napoleon Bonapart, Aleksandr suvorov).

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ularning shaxsiga xurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘z-o‘zini anglashlari, o‘zini namoyon qilishlari, o‘zini o‘zi tasdiqlashlari uchun zarur shart-sharoit berish kerak. Shu sabali, bolalarni kattalar, ota-onalar, tarbiyachilar tomonidan kuzatib borish, maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiyatini rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish juda muhimdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bolalarda eng muhim aqliy va amaliy harakatlarni shakllantirish bilan bevosita bog‘liq. Tashqi tomondan, ular o‘zlarini quyidagi shakllarda qobiliyatli ekanini namoyon qiladi:

Kuzatish, solishtirish va tahlil qilish.

Sabab-oqibat munosabatlari va qarama-qarshiliklarni aniqlash.

Asl, noan’anaviy hodisalarni an’anaviydan farqlay olish.

Mustaqil ravishda yangi yechimlarni izlash, turli xil dizayn usullaridan foydalangan holda muammoli vaziyatlarni o‘rganishda ishtirok etish, o‘z navbatida ijodiy rivojlanishning turli sohalarini birlashtirish.

Qobiliyatli bolalar alohida xususiyatlari bilan tengdoshlaridan ajralib turadilar. Ularga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlar quyidagilardir:

1) maxsus qobiliyatlarni namoyon eta olish;

2) yuksak natijalarni qo‘lga kiritish imkoniyatlariga egalik;

3) bir yoki bir necha yo‘nalishlarda (aqliy salohiyat, ta’lim olishga bo‘lgan o‘ziga xos xususiyat, ijodiy va samarali tafakkur, tasviriy yoki amaliy san’atga bo‘lgan layoqat; psixomotor qobiliyatlarga tayangan holda) muayyan natijalarni qo‘lga kiritganlik .

Adabiyotlar ro’yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017 -2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707 son qarori

2.Sultansaidova, M. (2023). Some aspects of preparing children for school. International Journal of Pedagogics, 3(02), 51-55.

3.Sultansaidova, M. (2023). Development stages of preschool education pedagogy. Confrencea, 4(04), 386-393.

4.Xalilova Dilnoza Furqatovna. “Bo‘lajak tarbiyachilarni ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida”. Science and innovation, Special Issue 4, 3 march 2023. 57-59

INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA BO’LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHGA DOIR YONDASHUVLAR TAHLILI

Qayumova Dilsora Nurali qizi,

Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.,
Dilsoraqayumova@gmail.com

Inklyuziv ta’limni maktabgacha ta’lim tashkilotiga faol joriy etishning muhim muammolardan biri – inklyuziya muhitlarida bu bo’lajak tarbiyachilarni faoliyat ko’rsatishga kasbiy-metodik tayyorlash hisoblanadi.

Ta’limni insonparvarlashtirish g’oyasi negizida bo’lajak tarbiyachilardan bola tabiatni o’rganishni talab etadi. Sog’lig’ida imkoniyati cheklangan: eshitish, ko’rish, nutqi, ruhiy rivojlanishdagi kechikish, aqli zaiflik, tayanch-harakat apparatidagi nuqsonlari bor bolalarning ichki dunyosi juda murakkab.

N.V. Bordovskaya shunday ta’kidlaydi: «shunday insonlar borki, o’qitish ularni kasbidir». Bunday insonlarning aksariyat qismi uchun kasb nafaqat hayotining bir bo’lagi, balki ko’pgina hollarda ularning ichki dunyosidan shu qadar chuqur egalaydiki, shaxsiy bilan kasbiyni ajratib olish qiyin bo’ladi. Bunday holat bo’lajak tarbiyachini tayyorlash jarayoniga alohida nazar bilan qarash kerakligini talab etadi.

N.V. Bordovskayaning fikricha, «o’qituvchilik paradigmalari» mavjud. «O’qituvchi hamda uning kasbiy faoliyatiga nisbatan qo’yiladigan talablar negizida har xil yondashuvlarni ajratish mumkin»: moslashuvchan-ijtimoiy, barkamol-rivojlantiruvchi, ilmiy-didaktik, psixologik-pedagogik, kompetentnli, istiqbolli- rivojlantiruvchi.

Kompetentli yondashuv hozirgi paytda olimlar tomonidan nafaqat kasbiy tayyorgarlikning tashkiliy negizi sifatida, balki kasbiy ta’lim nazariyasini rivojlantirishdagi metodologik bir davr sifatida ham o’rganilmoqda. Bu «ta’lim natijalari ta’lim tizimidan tashqarida ahamiyatli deb tan olingan yondashuv»dir. G.A.Karaxanova va Ye.Orudjaliyevalarning ta’kidlashlaricha, «kompetentli yondashuv pedagogik ta’limda o’quv jarayonini tashkil etishdagi o’zgarishlarni nazarda tutadi. O’quv jarayonini tashkil etishning mazmun-mohiyati talabalarda ta’lim mazmunini tashkil qiluvchi turli xil kasbiy vazifalar va muammolarni mustaqil yechish tajribasini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishdan iborat».

Ta’lim tashkilotlarida bo’lajak kadirlarni faoliyat jarayoniga tayyorlashni klassik yondashuvlari juda ko’p kuzatilmoqda. Ular orasida biz quyidagilarni inklyuziv muhitni tashkil etuvchi yondashuvlar deya ajratib oldik.



Yuqoridagi qadriyatlar tizimi mohiyati va ularning inson hayoti va faoliyatidagi o‘rni hamda ahamiyati nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy faoliyat va jarayonlarning jamiyat xamda ijtimoiy sub’ektlar uchun ahamiyati, hayotning turli qirralarini aks etgiradigan muammolar xamda ularning echimlarini ifodalaydigan qarashlar, g‘oyalar, ta’limotlar, talab va ehtiyojlarning real jarayonlar uchun qadrqimmatini aniqlash *qadriyatli yondashuv* mazmunini tashkil etadi

N.G.Agapovaning fikriga ko’ra, ta’lim sohasida hozirgi vaqtda *poliparadigmallik* deb ataluvchi «to’laqonli qonuniyatli hodisa» kuzatiladi. Muallifning tushunchasida u «o’tuvchan madaniy davrlarda o’quv jarayonlarini tashkil etishning optimal shakllarini qidirib topishning turli xil variantlari sifatida ta’lim paradigmalarining tarixiy tug’ilish, amal qilishi va raqobatbardoshligi» jarayoni sifatida tushuniladi.

S.B.Begaliyevaning fikricha *shaxsga yo’naltirilgan* yondashuvga murakkab ko’p o’lchamli jarayon sifatida qarash mumkin.Muallifning ta’kidlashicha, shaxsga yo’naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari barcha ta’lim muassasalari, shu jumladan ta’lim jarayonida talabalarni to’liq qamrab olishga taaluqlidir».

Faoliyatli yondashuv o’zining barcha o’zgargan ko’rinishlarida (*loyihaviy-faoliyatli, shaxsiy- faoliyatli, refleksiv-faoliyatli, tizimli- faoliyatli* va hokazo) tahlil qilish va tanqidiy baholash ko’nikmasini beradi.

Akmeologik yondashuv S.B.Begalievaning fikricha, «bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirishdagi yangi paradigmani nazarda tutadi». Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun bo'lajak tarbiyachilarni soha jarayonini tashkil etishda shaxsiy kasbiy holatlarni yuksak natijalariga erishish.

Aksiologik yondashuv «jamiyatning oliy qadriyati va ijtimoiy rivojlanishning birdan-bir maqsadidir».Mazkur yondashuv doirasida inklyuziv ta'limning bo'lajak tarbiyachii maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarni qabul qilishga tayyor.

Ontologik yondashuv pedagogik jarayonlarni ularning ishtirokchi-sub'ektlar nuqtai nazardan o'rganadi. Mazkur yondashuv asnosida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash tizimi keng inklyuziya sharoitlarida dunyoga, odamlarga hamda o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatini belgilovchi sub'ektli fikrning tug'ilishiga sababchi bo'ladi.

Tizimli yondashuv ta'limning barcha inklyuziv ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatishga tayyor, bo'lajak tarbiyachilarning shaxsiy-kasbiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat butunligi sifatida pedagogik kadrlarni inklyuziv ta'lim muhitlarida ishlashga mukammal tayyorlab beruvchi jarayondir. Quyida tizimli yondashuvning muvofiq yonfashuvlar bilan integratsiyasi tavsiflanadi.

Antropologik yondashuv «Insonda insoniylik...» miqdorini aniqlash imkonini beruvchi, «insonga bosh maqsad va oliy qadriyat sifatida qarash».

Hodisali yondashuvni biz ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda mazmunli va protsessual islohotlarni amalga oshirish uchun asos sifatida ko'rib chiqamiz. Mazkur yondashuvning o'ziga xos jihati uning etimologiyasi bir xil ma'noga ega emasligidadir.

Fanlararo yondashuv atrofdagi borliqni yaxlit tushunish va idrok qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Ye.A. Bushkovskaya uni «ikki yoki bir necha turli xil fanlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir etishisifatida tasavvur etadi hamda u g'oyalarning oddiy almashinuvi yoki metodologik asoslar, konseptual qoidalar, terminologik apparat va boshqalarning qo'shilishi orqali namoyon bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. To'raqulov X.A. Zamonaviy kompyuter tarmoqlari bo'yicha multimediali electron o'quv qo'llanma yaratish tehnologiy
2. Begmatova H. Bog'cha bolalarida multimedia tehnologiyasi tushunchalarini shakllantirish halq ta'limi 2010 yil 2-son.
3. Adilova S. Multimedia vositalari va uni ta'lim jarayonida qo'llash Pedagogik ta'lim. 2001 yil 2-son

4. Nuraliyevna, Q. D. (2021). Approaches to the development of inclusive competence in the preparation of future teachers for professional activity. Academicia:An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2314-2320.
5. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. Nauka i obrazovanie segodnya, (4 (63)), 82-83.
6. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., &Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational OrganizationsPedagogical Need. Journal of Advanced Zoology, 44(S-2), 1777-1784.

INTEGRATIV YONDASHU ASOSIDA 5-6 YOSHLI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISH TEXNOLOGIYALARI

Marasulova Dono Nigmatullayevna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
donomarasulova@gmail.com

Tilonboyeva Dilshoda Qobiljon qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi dilsodatilonboeva@gmail.com

Integratsiya — lotin tilidan tarjima qilinganda — butunlikni tiklash, ya'ni qismlar butunni tashkil qilish. Pedagogikada bu yondashuv bolaning atrofidagi dunyo va bu dunyodagi o'zi haqida yaxlit tushunchani shakllantirishga yordam beradi. Muammoning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda maktabgacha ta'limda integratsiya ilmiy-pedagogik va tadqiqot nuqtai nazaridan yetarlicha o'rganilmagan va tadqiq etilmagan. Shunga qaramay, O'rta Osiyoning atoqli arboblari ta'limoti va pedagogik fikr tarixini kuzatar ekanmiz, shaxs ta'lim va tarbiyasida integratsiya g'oyasini ko'rish mumkin. Ibn Sino ilmiy merosida ta'lim jarayoni aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasining birligi ekanligiga e'tibor qaratiladi. Inson aql-idroki va ilm-fan bilimdoni Alisher Navoiy o'zi xonadonda nuroniy hisoblagan, oilaga shodlik va baxt keltiruvchi farzandning shakllanishi va tarbiyasiga katta e'tibor bergan, tarbiyaning majburlash usullarini qoralagan. 19-asrning 2-yarmi — 20-asr boshlari davrida Berdaqning pedagogik g'oyalari tug'ilib, shakllandi. U insonni tarbiyalashdan oldin uni har tomonlama o'rganish zarurligini, aqliy va axloqiy tarbiyani o'zaro bog'liq deb hisoblagan, faqat intellektual rivojlangan insonlar yuksak axloqli bo'la olishini aytgan. Xorijiy mamlakatlardagi zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalari maktabgacha yoshdagi bolalarga g'amxo'rlik qilish va tarbiyalashdek an'anaviy vazifalar bilan bir qatorda, bolalarni maktabga tayyorlash, bolaning

shaxsini shakllantirish va uning barcha imkoniyatlarini, shuningdek, individual qobiliyatlarini rivojlantirish. Rivojlanishning psixologik va fiziologik darajasi va maktabgacha yoshdagi bolaning sog'lig'i holati: intellektual va kognitiv, mustaqillik, qiziquvchanlik, o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiya, maqsadlarga erishishda qat'iyatlilik va ijodkorlik maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o‘rgatishning asosiy maqsadi. Chet tili orqali bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirishdir, unga quyidagilar kiradi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aloqa va ma’lumot almashish vositasi sifatida ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan doimiy qiziqishni rivojlantirish.

2. Bolalarni rivojlanish darajasiga mos bo‘lgan so‘z boyliklari bilan tanishtirish, boshlang‘ich til konstruktsiyalarini joriy etish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish orqali ularning til qobiliyatini rivojlantirish.

4. O‘rganayotgan tilda so‘zlashadigan mamlakatlarning madaniyati bilan tanishish orqali bola shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish.

Bolalarning zamonaviy axborot texnologiyalariga jiddiy qiziqishini inobatga olib, ingliz tili darslarida bu imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chet tilini o‘qitish mazmunining yetakchi komponenti nutqiy faoliyat turlari bo‘lib, 5-6 yoshli bolalarni tinglash tushinish va gapirishga o‘rgatishda integrativ yondashuv asosida turli xildagi texnologiyalardan foydalanish katta o‘rin tutadi. Animatsion filmni bir necha marta tomosha qilish bolaga nafaqat yangi so‘zlarni o‘rganishga yordam beradi, balki ingliz tilida nutq tovushlarining to‘g‘ri talaffuzini ham o‘rganadi. Ta’lim tarbiya faoliyatida o‘quv dasturi materiallari bilan birgalikda audio va video materiallar, multfilmlar, drammatizatsiyadan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o‘rgatishni individuallashtirishga yordam beradi va nutq faoliyati uchun motivatsiyani rivojlantiradi.

Integrativ ta'lim texnologiyasidan foydalanish Nurkeldiyeva D. tadqiqot natijalariga ko’ra, “…bolalarning bilim va ko'nikmalarini ozlashtirish jarayonida quyidagilarga erishish mumkinligini ko'rsatdi: tashabbuskor mulohazalar va bolalarning sharhlari sonining ko’payishi; mashfulot jarayonida taxmin mexanizmidan foydalanishni rivojlantirish; ingliz tilida so‘zlashishda nutqida ona tilini iloji boricha kamaytirish; ingliz tilidagi mashqlar davomida bolalarning faolligi; talabalar tomonidan nisbatan katta hajmdagi xorijiy til nutqini erkin idrok etishi va talabalar tomonidan bayonotlar hajmining oshishi.

Bolalarning zamonaviy axborot texnologiyalariga jiddiy qiziqishini inobatga olib, Borisova L. shunday fikr bildirgan: “Ingliz tili mashg‘ulotlarida bu imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chet tilini o‘qitish mazmunini tinglab tushinish, gapirishga o‘rgatishda multimedialar katta o‘rin tutadi. Ta’lim-tarbiya faoliyatida o‘quv dasturi materiallari

bilan birgalikda audio va video materiallardan, multfilmlardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini integrativ asosda o‘rgatishga yordam beradi va nutq faoliyati uchun motivatsiyani rivojlantiradi.”

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish chet tili darslarini qiziqarli va zamonaviy qilish, kognitiv va ijodiy vazifalarni hal etishda yordam beradi. So'nggi paytlarda chet tillari o’quv dasturlariga video materiallarni kiritish har qanday yoshdagi bolalar va kattalarni o’qitishning ajralmas qismiga aylandi. Videolarning joriy etilishi ingliz tili mashg‘ulotlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi:

- video materiallar bolalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, o'quvchilar turli kommunikativ vaziyatlarda chet tilidagi tovushli nutqni eshitadilar. Video materiallar ona tilida so'zlashuvchilarning kundalik hayotiy muloqot holatlarini aks ettiradi, unda ona tilida so'zlashuvchilarga xos bo'lgan nutq bayonotlari mavjud.

- chet tilini bilish darajasi nafaqat bolaning pedagog bilan bevosita aloqasi bilan belgilanadi. Chet tilini muloqot vositasi sifatida o‘rgatish uchun haqiqiy muloqot muhitini yaratish, chet tillarini o‘rgatish bilan hayot o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish, chet tillaridan hayotiy, tabiiy sharoitlarda faol foydalanish zarur.

- multimedia ta’lim resursi video, audio, animatsiya, didaktik o‘yinlarni tez va qulay o‘rganishga yordam beradi. Animatsion mavzular bolalarning olayotgan bilimini oson o‘zlashtirishiga yordam beradi.

- multimedia ta’lim resursiga bolalar ingliz tilida har bir mavzuni mustahkamlashi uchun ko‘rgazmali qurollar, qo‘shiqlar, she’lar, multfilmlar, rivojlantiruvchi videolar, didaktik o‘yinlar kiritiladi bu esa maktabgacha katta yoshdagi bolalar tomonidan ingliz tilidagi so‘zlarni oson o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Bunday materiallardan foydalanish biz uchun juda muhim ko'rinadi, chunki ular zamonaviy chet tilining namunasi bo'lib, mamlakatning kundalik hayotida ishtirok etish illyuziyasini yaratadi, bu esa tarbiyachilarning motivatsiyasini oshirish uchun qo'shimcha rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ingliz tilini multimediyalar asosida o‘rgatish jarayonida bolalarda tilga bo‘lgan qiziqishning shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan. Tarbiyachi-pedagoglar, ikkinchi til o‘qituvchilari metodik tavsiyalar, metodik qo‘llanmalar va adabiyotlar bilan ta’minlandi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari asosida yaratilgan “Ilk qadam” o‘quv dasturiga minimum sifatida qarab, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tilida multimediyalarni tanlash va taqsimlash tamoyillari ishlab chiqilib, bolalarga beriladigan bilimlarni tizimli va takomillashgan holda berib borilishga erishildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturiga asoslanib rivojlanish markazlarida ta’limiy faoliyat pedagogik jarayoni va undan tashqari

vaqtlarda ingliz tili mashg‘ulotlarida o‘tiladigan mavzular o‘rtasida uzviylik, uzluksizlik va tizimlilikka rioya qilingan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ingliz tiliga o‘rgatishda multimediyalardan foydalanish mazmuni va texnologiyasini takomillashtirildi. Maktabgacha 5-6 yoshli bolalarga ingliz tilini multimediyalar asosida o‘rgatish jarayonida bolalarda tilga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishda pedagogik model joriy qilindi. Ingliz tilini multimediyalar asosida o‘rgatish jarayonida bolalarda tilga bo‘lgan qiziqishning shakllantirilganligini aniqlash mezonlari yaratilgan va ularni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar, takliflar keltirildi.

Integratsiyalashgan o'quv faoliyati maxsus tashkil etilgan faoliyat bo'lib, uning maqsadiga ko‘ra bolalarning turli faoliyatlari orqali bilimlarni o'zlashtirishga erishish mumkin, bu tarbiyalanuvchilarga o'rganilayotgan masalani yaxlit idrok etishga, amaliy yo'nalishga erishish imkonini beradi.

Bunday mashg'ulotda o'qituvchi bir nechta rivojlanish muammolarini hal qilishi, bolalarning bilimlarini umumlashtirishi, muayyan faoliyat usulini o'rgatishi, bolalar nutqini faollashtirishi va birgalikdagi faoliyat jarayonida bolalarning o'zaro munosabatlarida tajriba to'planishiga hissa qo'shishi mumkin.

Integrativ faoliyat, birinchi navbatda, bolaga o'z ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi, chunki bu erda u o'z ona tili asosida ingliz tilidagi talaffuzlarini, muloqot uchun yangi so'zlarni o'rganadi va uning tilga bo'lgan qiziqisi ortadi.

Ikkinchidan, qiziqarli, o'yin tarzida olib borilsa, bunda bolalarning ingliz tilidagi so'z boyligi ortadi, nutqning to'gri tuzilishi shakllanadi, eng muhimi, diologik va monologik so'zlashuv rivojlanadi — o'z fikrini ifodalash, taassurotlarni baham ko'rish, biror narsa haqida gapirish.

Uchinchidan, bolalarda kognitiv faollik rivojlanadi, chunki savollar va topshiriqlar bolalardagi mavjud nutq tajribasini faollashtirishni va integratsiyalashgan darsning nostandart vaziyatida haqiqiy hayot tajribasini qo'llashni talab qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

13. Джамилова, Н. Н., Кадирова, Н. М., & Жамилова, Ф. М. (2021). Теоретическое и практическое состояние проблемы развития профессиональных качеств будущих педагогов. Управление дошкольным образовательным учреждением, (3), 56-61.

14. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

15. Khasanova, S., & Zufarova, L. (2023, June). DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE SKILLS IN PRE-SCHOOL CHILDREN THROUGH THEATER GAMES. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 1-5).

16. SH Sadikova.TYPES AND CONTENT OF PICTURE ACTIVITY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Science and Innovation. 2022. 760-764.

17. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

18. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta'lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

TARBIYACHI PEDAGOGLARDA KOMPETENTLIK NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

Qayumova D.N.- *Nizomiy nomidagi Toshkent davlar pedagogika universiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi p.f.f.d. (PhD)*

Toxirova Latofat Jahongir qizi
"Maktabgacha ta'lim " fakulteti talabasi

Mamlakatimiz kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli,ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi- tarbiyalanuvchilarni uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyililiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga shijoatiga bog'liq. Hozirgi kunda jahonda ilm-fanga alohida e'tibor qaralimoqda shu jumladan mamlakatimizda ham ilm-fanga aloxida etibor qaratilmoqda.Jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro`y berayotgan katta o`zgarishlar kasbiy faoliyatning mazmuni va xarakterini sifat jihatdan qayta o`zgartirishni, bo`lajak o`qituvchilarning ijtimoiy kasbiy safarbarligi darajasini, raqobatbardoshligini belgilovchi sifatlarlarni talab etmoqda. Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora ortib, inson qalbi va ongini egallash, avvalambor, yoshlarning ma'naviy olamini izdan chiqarish, ularni o'z qarindoshlariga qarama-qarshi qo'yishga qaratilgan, el-yurtiga qarshi qo'yishga qaratilgan tahdid va xurujlar kuchayib borayotgan bir paytda bugungi kun avlodining siyosiy faolligini oshirish, uning hayotda o'z o'rnini egallash, ta'lim-tarbiya maskanlarida yetuk inson bo'lib yetishish masalalari dolzarb bo'lib hisoblanadi. Keyingi o'n yilliklar mobaynida bir qator Yevropa, AQSh, Rossiya va bizning mamlakatimizda, oliy ta'lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Mazmunida kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy–psixologik tayyorlash kabi masalalar bilan uzviy bog'liq sanalib, ularni tadqiq etish bo'lajak pedagog xodimlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan bog'liq muammolarga yechimlar olib kelishi ehtimoldan holi emas. "Kasbiy kompetentlik" mohiyatan,

keng qamrovli psixologik tushuncha sanalib, unda shaxsga xos refleksiv, prognostik, analitik, tashkiliy, kommunikativ, proyeksion hamda tashkiliy jihatlar mujassamdir.

Demak, kasbiy kompetensiya – insonning qadriyatlar olamiga kirishi hisoblanib, aynan unda inson mutaxassis sifatida o‘zini anglaydi va yangilik yaratadi. Shuningdek, kasbiy kompetensiya insondagi sohaga oid bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba, qobiliyat, iste’dod, kasbiy faziyalatlar, motivatsiya hamda qator xarakterologik sifatlar mazmuniga ham javob beruvchi fenomen hisoblanadi. Uni tadqiq etish kasb va shaxs haqida o‘ta ahamiyatli, qiziqarli ma’lumotlarni aniqlashga imkon berishi ehtimoldan holi emas. Katta psixologik lug‘at kitobida keltirilishicha, kasbiy kompetensiya quyidagicha izohlanadi: “kasbiy kompetentlik bu – bilim, kasbiy o‘z-o‘zini anglash, tajriba to‘plash, kasbiy istiqbolni baholay olish, xatti- harakatlar strategiyasini tanlash qobiliyati, kasbiy vazifalarni samarali bajarish tajribasidir”. Bunda, bilim kasb uchun olingan barcha kerakli ma’lumotlar tizimi sanaladi. Malaka esa, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash tajribasi sifatida qaraladi. Shuningdek, mazkur yondoshuvga binoan, kasbiy kompetensiyani tahlilida insondagi ishlash qobiliyati, motivatsiya darajasi, hayotiy vaziyatlarga tez moslasha olish ko‘nikmasi kabilar ham, e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq sanaladi. Kompetentsiya tushunchasining ilk metodologik asoslari, zamonaviy psixologik tadqiqotlarga mos holda, ilmiy omma ixtiyoriga havola etildi. Bundan tashqari, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida amalga oshgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hodisalar shuningdek, sohalararo amalga oshirilgan ilg’or tadqiqotlar va zamonaviy jamiyatning kasblarga bo’lgan ehtiyoji kabilar ham keng ta’sir etdi.

Har bir shaxsda mehnat funktsiyalarini bajarishga va jarayonlarni tashkil etishga qobiliyat bo’lishi lozim. Agarda, ushbu sifatlar bo’lmasa, faoliyat samaradorligi haqida o’ylash haqiqatdan holi sanaladi. Kasbiy kompetentsiyaning shakllanganlik darajsi bu – bo’lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik holati bilan uzviy bog’liq sanalib, unda malaka, ishlash qobiliyati, o’z-o’zini rivojlantirish, kasbiy kamolotga erishish kabi jihatlar ajratiladi. Sinaluvchilarning so’rovnoma bo’yicha to’plagan natijalari o’zaro o’rta darajadagi qiymatni qayd etgan. Shuningdek, Kraskal-Uollis mezoniga ko’ra, birinchi shkala ijtimoiy-axloqiy yetuklik pedagogika univesiteti talabalarida texnika universiteti talabalarida va natija bilan o’rtacha farqni namoyon qilgan. Ma’naviy yetuklik shkalasi pedagogika yunalishi talabalari texnika yo’nalishi talabalari va boshqa tekshiriluvchilar kabi darajalar bilan o’zaro yuqori farqlarni namoyon etgan.

Keyingi shkala, ijtimoiy intellekt bo’yicha, pedagogika yo’nalishi tekshiriluvchilarida markaziy okrug harbiy xizmatchilarida va shu bois, ko’pchilik tadqiqotchilar kasbiy kompetentsiyaning tarkibiiy elementlari mavzusidagi ilmiy ishida, kasbiy kompetentlikning qadriyatli- semantik, motivatsion, instrumental, individual - psixologik, kognitiv (tashqi dunyoni o’zlashtirishga bo’lgan munosabat) kabi tarkibiy qismlar o’rtasida o’zaro aloqalar mavjudligini

alohida ta’kidlaydi. Ye.V. Popova kasbiy kompetentsiyaning o’zgaruvchan tabiatini tavsiflab, uni kasbiy tayyorgarlik davri hamda kasbiy faoliyatning mazmuni bilan asoslashga harakat qiladi.

Bizningcha, kasbiy kompetentlik masalasini psixologik jihatdan o’rganish quyidagi komponent bilan ham uzviy bog’liq sanaladi: Motivatsion – qadriyatli komponent - bu bo’lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga shaxsiy munosabati, uning o’quv motivatsiyasi, shaxsiy maqsadlari va qiziqishlari kabilar bilan bog’liq. Bundan tashqari, mazkur komponent faoliyatga bo’lgan ijobiy hissiy munosabat, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka yetarlicha darajada javobning namoyon bo’lishi, hissiylik, kasbiy faoliyatning ahamiyati to’g’risida xabardorlik, kasbiy o’z-o’zini rivojlantirish, o’z-o’zini tarbiyalash hamda o’zini takomillashtirish harakatlarida yaqqol namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kuznetsova N.P “O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi DTS lari ralablarini amalga oshirish sharti sifatida”. 2003
2. Andreeva G.M. “Sotsialnaya psixologiya”. M., Aspekt press, 1996.37s
3. Beliskaya G.E. “Sotsialnaya kompetensiya lichnosti. Soznanie lichnosti v krizisnom obщestve.” M.,-Masyagina1995.-24 s.
4. T.G‘afforova. “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” “Tafakkur”nashriyoti.T.:2011.-112b
5. Lukyanova M.I. “Psixologo-pedagogicheskaya kompetentnost uchitelyayu”:// Pedagogika -2001.-№10 s56-61 [1] Андреева Г.М. Социальная психология. М., Аспект пресс, 1996.37с
6. Nuraliyevna, Q. D. (2021). “Approaches to the development of inclusive competence in the preparation of future teachers for professional activity”. Academicia:An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2314-2320.
7. Nuraliyevna, K. D. (2021). “INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN.” Nauka i obrazovanie segodnya, (4 (63)), 82-83
8. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., &Kamalova, G. A. (2023). “Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations Pedagogical Need”. Journal of Advanced Zoology, 44(S-2), 1777-1784.

TARBIYALANUVCHILARDA VATANPARVARLIK HISLARINI SHAKLLANTIRISH

Azizova Zulfizar Fazilovna

“University of economics and pedagogy” NOTM. PhD, dotsent v.b.

Bugungi globalashuv sharoitda inson ongi va qalbini zabt etish uchun kurashlar keskin tus olayotgan bir davrda xalqaro maydonda yoshlarni har qanday xavf va tahdidlardan asrash, ularning mustaqil fikri, e’tiqodini va qat’iy hayotiy pozisiyasini shakllantirish eng muhim va kechiktirib bo‘lmas vazifalardan bir bo‘lmoqda. Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, yoshlar tarbiyasiga mas’ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda.

Har qanday og‘ir va murakkab vaziyatda Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog‘liq eng muhim tushunchalarni, hayotiy va professional ko‘nikmalarni ilm-ma’rifat, shuningdek, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali vatanparvar, sadoqatli hamda shijoatli yoshlarni kamol toptirish 2023 yil 29 iyundagi O‘zbekiston REspublikasi Vazirlar Mahkamasining yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori asosida tashkil etilgan 2023-2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish Konsepsiyasining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazkur Konsepsiyaning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

ilmiylik;

- tarixiylik;
- aniqlik va tezkorlik;
- muntazamlilik;
- faollik;
- ta’lim va tarbiya ishlarining uyg‘unligi;
- tarbiya jarayonining izchilligi[1].

Vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) - shaxsning o‘zi mansub bo‘lgan millat, tug‘ilib o‘sgan vatani tarixidan g‘ururlanishi, buguni to‘g‘risida qayg‘urishi hamda uning porloq istiqboliga bo‘lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

“Vatan” atamasi aslida arabcha so‘z bo‘lib, “ona yurt” ma’nosini bildiradi. Vatan tushunchasi keng va tor manoda qo‘llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal- azaddan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma’nodagi tushunchadir. Kishi tug‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma’nodagi tushunchadir[2]. Vatan kishilarning tug‘ilib o‘sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui. Vatanparvarlik shaxsning o‘zi mansub bo‘lgan millat, tug‘ilib o‘sgan vatani tarixidan g‘ururlanishi, buguni to‘g‘risida qayg‘urishi hamda uning porloq istiqboliga bo‘lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi.

Vatanparvar shaxs o‘z vatani haqida quyidagilarni bilishi shart:

- o‘z tug‘ilib o‘sgan joyini sevishi;

- o‘z Vatanining tarixini bilishi, uning o‘tmishi va buguni bilan faxrlanishi, uning eng yaxshi an’ana va muvafaqqiyatlarini saqlab qolish va ko‘paytirishda faol ishtirok etishi;

- tabiatni sevish va ardoqlash;

- o‘z Vatanida yashayotgan xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni rivojlantirish va mustahkaamlash;

- boshqa millat vakillarining hayot yo‘li bilan qiziqish va ularni an’ana, urf-odatlarini hurmat qilish va o‘zaro tajriba almashish.

Konsepsiyada belgilangan tadbirlar quyidagi besh bosqichda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, birinchi bosqich (3 -7 yosh) -shu yoshdagi bolalarga xos xususiyatlar, jumladan, ilk o‘z tuyg‘ularini, xatti-harakatini boshqarish ko‘nikmalari, shaxsiy fazilatlari asoslari, ijtimoiy motivlar va milliy an’analarga qiziqishlarining paydo bo‘lishi, o‘zini namoyon etish hamda muvaffaqiyatga erishish kabi ehtiyojlarini inobatga olib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladi.

Mazkur bosqichda bolalar bilan milliy g‘urur, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat va uni himoya qilish, davlat ramzlari, buyuk ajdodlarimiz, tarixiy obidalarimizga hurmat, o‘zaro yordam, mehribonlik kabi olijanob fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan she’r, ertak, kuy va qo‘shiqlarni, sport va milliy o‘yinlarni o‘rgatish, teatrlashtirilgan sahna tomoshalarini namoyish etishni o‘zida mujassam etgan tadbirlar o‘tkaziladi.

Bolalarda milliy g‘urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish, bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va manaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash maktabgacha ta’limning vazifalaridan biridir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining yoshini inobatga olgan holda, harbiy-vatanparvarlik tadbirlari tashkil etilishi va samarali o‘tkazilishini hamda ushbu tadbirlarda

barcha tarbiyalanuvchilarning to‘liq qamrab olinishini ta’minlash Konsepsiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Vatanga muhabbat hissi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda kattalar tomonidan bolaning ruhiy taraqqiyotini hamda ular tafakkurining aniq va obrazliligini e’tiborga olgan holda ma’lum izchillik bilan tarbiyalab boriladi. Shuning uchun mazkur yoshdagi bolalarda Vatanga muhabbat hissini ularga yaqin va tanish bo‘lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi. Tarbiyachilar bolalarda o‘z oilasiga, uyiga, MTTga va bolalarni o‘rab turgan atrof-muhitga mehr-muhabbatni va ularga sodiq bo‘lishni tarbiyalayotib, eng muhim ijtimoiy his hisoblangan vatanga muhabbatni tarbiyalab borada.

Kichik yosh guruhda vatanga muhabbat hissi o‘z uyiga, MTTga, tarbiyachiga muhabbatni tarbiyalashdan boshlanadi. Bolalar ota-onalar, tarbiyachilar ularga kanday g‘amxo‘rlik qilayotganini ko‘ra oladilar va his etadilar, natijada bolalarda ularga bo‘lgan muhabbat yanada, ortadi, ularning g‘amxo‘rlik va himoyasiga ishonch hosil kiladi.

O‘rta yosh guruhi bolalari kattalar mehnatini, ularning jamiyat rivoji uchun qo‘shayotgan hissalari, kishilar tomonidan amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlarini tushunadigan bo‘lib qoladi. Mazkur yosh guruhi bolalari endi kengroq doiradagi kishilar bilan munosabatda bo‘la boshlaydi. Ular ota-onalari va tarbiyachilardan o‘z shahri, qishlog‘i to‘g‘risida ko‘p narsani bilib oladi.

Katta guruh bolalariga uyda ota-onasi, bobo-buvilariga yordam berish topshiriladi. Butun guruh bolalari bilan ular oilada kattalarga qanday yordam berganliklari hakida suhbatlashiladi. Mazkur yosh guruhi tarbiyalanuvchilarida vatanga muhabbat hissini tarbiyalashda badiiy adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tayyorlov guruhi bilan esa, tarbiyachi jonajon shahar, qishloqdagi eng ko‘rkam joylarni, maydonlarni, binolarni, bog‘larni ko‘rsatadi. Ko‘cha, maydonlar va xiyobonlarning nomi shahar yoki qishloqning kelib chiqish tarixini, xalqning o‘tmishini anglatishini tushuntirib boradi. Bu nomlar ijtimoiy hayot, buyuk olimlar, xalq e’zozlagan kishilar sharafiga qo‘yilganini tushuntiradi. Shuningdek, mazkur yosh guruhi tarbiyalanuvchilari bilan “Xotiramiz hamrohimiz, qadr esa qomatimiz”, “O‘zbekiston - bayrog‘ingiz”, “Beg‘ubor bolalik himoyachilari”, “Uyim - yozgi dam olish oromgohlarida «Vatanparvar» karvonlarini va bolalar bilan «Men albatta harbiy bo‘laman!» mashg‘ulotlari; “Vatan ichra bo‘stonim” kabi vatanparvarlik mavzusidagi turli tadbirlar, mashg‘ulotlar o‘tkazish yaxshi samara beradi.

Bolalarda vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishda teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo‘shiqlari, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar va elektron o‘yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish; bu borada erishilgan ijobiy

natija va yutuqlarga tayanish, o‘yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tashkil etish ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rang-barangligini ham ta’minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa Vatanga muhabbat va burch, milliy an’analarga sodiqlik, tarixiy va madaniy qadriyatlarni saqlashga intilish kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2023 - 2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish Konsepsiyasi. 2023 yil 29 iyundagi O‘zbekiston REspublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori.
2. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Sh. Sodiqova. Maktabgacha pedagogika. (Darslik). T. «Vrok class servis»-2017.
4. https://www.samviib.uz/uz/news/eshlarni-arbij-vatanparvarlik-ruida-tarbijalash-ustuvor-vazifa

ОРГАНИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВРЕМЕННОГО ДИРЕКТОРА ДОО

Ширбачеева Гульчехра Шакировна,

Доцент кафедры Педагогика и психология дошкольного образования ТГПУ им. Низами

В дошкольной образовательной организации (ДОО) руководитель является ключевым звеном его эффективного функционирования и результативности воспитательно-образовательной работы. Уровень контроля за качеством управления дошкольным образовательным учреждением обуславливает возможности для профессионального роста руководителя, совершенствовании его знаний, умений и личностных качеств в соответствии с государственными требованиями.

В современных условиях, когда перемены в жизни общества и образовательных учреждений происходят значительно быстрее, особая роль уделяется управленческому мастерству. От профессиональных умений руководителя, его способностей оперативно принимать решения, способностей нацеливать коллектив на непрерывное развитие, творческий рост, зависит успешность развития учреждения, его социальный статус.

Руководителям необходимо выработать новый подход в управлении, строящийся на уважении, доверии и успехе, ориентируясь, прежде всего на создание комфортных условий для созидательной деятельности педагогов с детьми, родителями и самовыражения в ней. При этом очень важно демонтировать (творчески разрушить) старые препятствующие обновлению связи в коллективе, и затем осуществить перевод его из одной фазы развития в другую.

Рассматривая ДОО как целостную, динамическую систему, психологи считают, что ее оптимальное жизнеобеспечение возможно лишь при умении руководителя планировать, организовывать, контролировать, регулировать, согласовывать и координировать работу коллектива на научной основе. Эффективность управления дошкольной образовательной организацией напрямую зависит и от умения руководителя осознавать себя и свои личные цели, правильно распределять время и усилия, т.е. от умения изучать и изменять себя, поэтому необходимо создавать собственные управленческие концепции развития, для внедрения достижений педагогической науки и передового опыта. Осуществляя выбор путей обновления педагогического процесса и эффективного управления им, современный руководитель должен учесть тенденции социальных преобразований в обществе, запросы родителей, интересы детей и профессиональные возможности педагогов. Для профессионального управленца очень важно овладеть, прежде всего, культурой профессионального управления, т.е. комплексом тех понятий и методов, которые выработаны в общественном опыте. Однако, ряд специалистов отмечают, что в последнее время многие руководители не соответствуют требованиям времени из-за низкой управленческой компетентности.

В системе образования, по мнению М. М. Поташника, сложилось три типа целей практической деятельности руководителя:

- цели-задания, исходящие из вышестоящих организаций с отражением внешних функций ДОО;

- цели-системы, отражающие объектную необходимость, поддерживающие целостность организации;

- цели-ориентиры, выражающие потребности организации и ее заказчиков, потребителей.

Задачи определяют основные направления в деятельности руководителя ДОО по достижению целей, к примеру, что и как планируется изменить в содержании образования, технологиях обучения, воспитания и развития ребенка, пространственно-предметной среде и тому подобное.

Принципы – кратко представленные теоретические основания, на которых могут строиться процессы воспитания, обучения, взаимодействия с детьми и развивающая среда.

В содержании практической деятельности руководителя ДОО представляется описательная модель видоизмененного содержания и методов образования, экспериментальные программы, формы организации деятельности и пространственно-предметной среды, целостной модели педагогического процесса.

Прежний руководитель проявлял себя, как правило, хорошим исполнителем, образование же сегодня нуждается в новом типе руководителя-инициатора, творца, способном создать условия, обеспечивающие развитие личности педагога и ребенка в соответствии с его собственными потребностями, а также потребностями развивающегося общества. Таким образом, налицо противоречие между новыми целями, задачами и прежними способами организации управленческой деятельности. Разрешение данного противоречия - одно из важнейших условий обновления ДОО и управления им.

Специфической чертой управленческой деятельности можно назвать направленность на обеспечение целостного системного характера функционирования как педагогической системы, так и системы управления. Чтобы обеспечить целостность структурных компонентов управляющей подсистемы, нужно обеспечить системный характер содержания управленческой деятельности.

Данную систему составляет деятельность по созданию прогностических, педагогических, психологических, организационных, правовых, кадровых, материально-финансовых, эргономических, медицинских условий для обеспечения реализации цели ДОО. Стоит отметить, что ориентация содержания управленческой деятельности на концепцию «создания условий» является методологической основой системного подхода к управлению ДОО.

Управлять ДОО – это значит целенаправленно воздействовать на педагогический коллектив, а через него на воспитательно-образовательный процесс для достижения максимальных результатов развития детей дошкольного возраста.

Неразработанность данной проблемы в теоретическом и практическом аспектах привела к тому, что многие руководящие работники испытывают трудности в обеспечении стабильного функционирования ДОО, его развития в соответствии с обновлением содержания дошкольного образования и демократизацией общества.

Список использованной литературы

1. Бандурка А.М., Бочарова С.П., Землянская Е.В. Психология управления. - Харьков, 2008.
2. Велков И.Г. Личность руководителя и стиль управления. - М., 2013.
3. Веснин, В.Р. Менеджмент / В.Р. Веснин. – М.: Проспект, 2012.
4. Ильина Е.А. Направления передового педагогического опыта. - Гомель. 2007.

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA RANGLAR BILAN TANISHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Radjapova Z.T.

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim texnologiyasi" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mirzayeva G .Z.

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi magistranti

Rang – bu inson tanasi va ruhiga doimo ta'sir qiladigan kuchli energiya. Odamlar rangning hayotlarida qanchalik muhim ro'l o'ynashi, ularning jismoniy, hissiy va ruhiy holatiga qanday jiddiy ta'sir ko'rsatishi haqida bilishmaydi. Ammo tug'ilishdan boshlab, bulutli kunda bulutlar ortidan quyosh chiqishi bilanoq, kayfiyat qanday yaxshilanishini esa hamma biladi. Barcha tirik mavjudotlar quyosh ostida paydo bo'ladi va o'sib kamolotga yetadi. Rang uzoq vaqtlardan beri insonga foydali yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan maxsus ma'noga ega kuchdir. Ba'zi ranglar ko'zni quvontiradi, tinchlantiradi, ba'zilari esa zulm qiladi, salbiy hissiyotlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Har bir rang bor-ki, inson zotiga boshqacha ta'sir qiladi. Tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki, har bir inson hayotidagi rangning ma'nosini bilishi kerak, chunki u kayfiyatiga, his tuyg'ulariga, fikrlariga qaysi bir ma'noda ta'sir qiladi.

Bolaning hissiy va jismoniy taraqqiyoti hamda farovonligi uni qurshab turgan atrofiga bog'liq. Bu nafaqat bolani rivojlantirayotgan muhit, balki biz – kattalarmiz. Shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun biz barcha sharoitlarni yaratib berishimiz lozim. Uzoq muddatli kuzatuvlar va amaliy tajriba-sinovlar shuni ko'rsatadiki, rang inson tanasiga ta'siri jihatidan juda katta ahamiyatga ega. Rang bolalarning hissiy va intelektual rivojlanishi uchun kuchli hissiy rivojlanish davri hisoblanadi. Axir, bolalar o'z tabiati va xarakteriga ko'ra atrofi-olamimizning ko'plab ranglarga ko'proq moyil bo'lib, ayniqsa, bunga muhtojdirlar. Shu sababli, bola uchun rang har qanday tanqidiy vaziyat va holatlarda maxsus "Sehrli tayoq" rolini o'ynaydi. Bularning hammasi bizning ishimizda rang terapiyasi metodidan foydalanishga undadi.

Rangli terapiya – bu ma’lum bir ranglar yordamida bolaning psixoemotsional holatini to‘g’irlash metodi bo’lib xizmat qiladadi. Bu har xil to‘lqin uzunlikdagi fotonlarni bolaning ma’lum bir rangning ta’siri tufayli, asabiylashish, giperaktivlik (haddan tashqari faollik) va hatto bolaning boshlang’ich tajovuzkorligini davolashda sezilarli natijalarga erishish mumkin. Rang terapiyasining tarixi uzoq bo‘lgan o‘tmishga borib taqaladi va hozirgi zamonaviy davrlarda u tibbiyot sifatida rasman tan olingan. Rangli terapiya qadimgi misrda foydalanilgan: ichimlik tayyorlanadigan meva bilan bir xil rangdagi qimmatbaxo toshlar mevali ichimlik tayyorlanadigan meva bilan bir xil rangdagi qimmatbaxo toshlar mevali ichimlik bilan idishga qo‘shilgan. Shu tarzda ular kasalliklarni davolaganlar. Zamonaviy ilm-fan bilan davolovchi xususiyatlarini tasdiqladi.

Gyote birinchi bo‘lib ranglarning inson ruhiyatiga ijobiy va salbiy ta’sirini kashf etdi va shu bilan zamonaviy rang terapiyasining asoslarini ishlab chiqdi. U ushbu g’oyani ilgari surgan: ***“Ranglar qalbga ta’sir qiladi: ular his-tuyg’ularini uyg’otishi, bizni tinchlantiradigan va hayajonlantiradigan va hayajonlantiradigan his-tuyg’ular va fikrlarni uyg’otishi, qayg’u va quvonchni keltirib chiqarishi mumkin”***. **V. Bekterev** esa, ***“Mohirlik bilan tanlangan ranglar gamuti asab tizimiga ba’zi iksirlardan ko‘ra yaxshiroq ta’sir qilishi mumkin”*** deb ta’kidlagan. Endi ranglarning insonning psixofiziologik holatiga ta’sir haqidagi butun ilmiy nazariya mavjud. Psixodiagnostikada insonning portretini yaratishga, uning haqiqiy psixofiziologik holatini aniqlashga va hokazolarga imkon beradigan “rang usullari” mavjud. ***“Menga eng yaxshi ko‘rgan ranglaringizni ko‘rsating – va men sizga kimligingizni aytib beraman”*** dedi mashhur shvetsariyalik shifokor va psixologik **Maks Luscher**, taniqli rang shaxsiyat testini ishlab chiqishda.[1]

Bolalar uchun **rang terapiyasi**, avvalambor, ularning sevimli ranglarni aniqlashni, so‘ngra iloji boricha uni o‘rab turgan muhitni shu rang bilan to‘ldirishni o‘z ichiga oladi va bolalar odatda qanday ranglarni tanlaydilar? Ular juda ham yorqin va to‘yingan ranglarni tanlaydilar – qizil, sariq, yashil. Bu shuni ko‘rsatadiki, bolalar odatdagidek rivojlanib bormoqda, ular yangi, yorqin narsalarga qiziqish bildiradi, ular dinamik va qiziquvchan bo‘lishadi. Biroq, sevimli oq yoki qora ranglar bolaning o‘zini tortib olganini va yolg’izlikni afzal ko‘rinishini aytish mumkin. Rangli terapiya bolani bolalik va quvonchning baxtli yorqin olamiga qaytarishga qaratilgan. Bolalar juda sezgir va ta’sirchan bo‘lishadi, ular o‘zlariga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladilar. Bundan kelib chiqadiki, baquvvat, faol, tez qaror qabul qiladigan bolalar o‘zlari kabi bir xil bolalar bilan muloqot qilishadi. Xotirjam, muvozanatli, o‘ychan, shubhaga moyil bolalar ham do‘st tanlashda xuddi shunday qilishadi.

Rang o‘ziga jalb qilishi va qaytarishi, xotirjamlik va qulaylik tuyg’usini yoki buning aksi ya’ni hayajonlantirishi va bezovta qilishi ham mumkin. Ranglar insonning mantig’iga emas, balki

his-tuyg’ularga murojaat qiladi va shu bilan birga, rang-barang muhit yaratadi, odamlar o‘rtasidagi muloqotni tinchlantiradi va yaxshilashga chorlaydi. Rang insonning har qanday holatiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Shuningdek, mazkur mavzuni o‘rgatishning nuqtalaridan biri shundaki, rang insonning muhim predmetiga va o‘ziga bo‘lgam hissiy(shaxsiy-semantik) munosabatini tabiiy ravishda ifodalashga qodirdir. Rang hissiy munosabatlar va bizning ruhiy holatimizni o‘zgartirish va bu o‘zgarishni bildirish uchun rangning xususiyati salbiy tomonga ega. Agar biz kimnidir (yoki o‘zimizni) rang bilan belgilasak, biz u bilan ushbu ob’ekt bizni qanday ruhiy holatga olib kelishini bildiramiz.[2]

Rang inson ruhiyatiga ta’sir qiluvchi kuchli vositadir. Rangning kuchli asosan ongimizning himoya mexanizmlarini “aylanib o‘tish” va ongsiz darajada harakat qilish qobilyatidadir. Shuning uchun bu qobilyatda u psixologik manipulyatsiya uchun juda jozibali vositaga aylanadi. Shunga ko‘ra, zamonaviy inson atrofdagi dunyoda yaxshiroq harakat qilish uchun rang uning tanasi va ruhiyatiga qanday ta’sir qilishini bilishi va tushunishi kerak.[3]

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning 70 foizidan ko‘prog’i yorqin ranglarni xush ko‘rishar ekan. Masalan: pushti rang, sabzi rang va boshqalar. Biroq yorqin ranglar turkumiga kirmasa ham MTT xonalarida yashil rangga urg’u berish darkor. Chunki ushbu rang asabni tinchlantiradi, ko‘zni toliqtirmaydi va umuman olganda ijobiy xususiyatlari ko‘p. Ayiqsa, doska, parta, stol, stul, shkaf kabi jihozlar, devordagi stend, plakatlar yashil rangda bo‘lsa foydadan holi emas. Ko‘p hollarda bolalarning mashg’ulotini a’lo darajada o‘zlashtirishi xona muhitga ham bog’liq bo‘ladi. Chunki, nafaqat bolajonlar balki, biz kattalar ham sharoit va rang ta’sirlariga tez moslashamiz va kayfiyatimiz xona yoki ish kabinetimizning sharoitiga qarab o‘zgarib turishini ongli ravishda bilamiz. Bu faqatgina yashil rang bilan chegaralanib qolish degani emas, albatta. Bola ichki dunyosini yanada go‘zallashtirish maqsadida boshqa turli ranglardan ham o‘z o‘rnida foydalanishimiz lozim.

Ranglar va **ularning xususiyatlari** to‘g’risida qancha ko‘p fikrlar yuritsak, faqat foydali jihatlari bilan chegaralanib qolamiz. Ammo ranglar inson tafakkuriga qarab haddan ortiq to‘q ranglar inson kayfiyati va ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Ayniqsa qizil rang e’tiborni tortishi barobarida markaziy asab tizimiga ham ta’sir etadi. Qora rang esa inson ichki dunyosini torayishiga, jizzaki bo‘lib qolishga, hamda boladagi qobilyatlar bir qolipda rivojlanmay qolishi ehtimolini beradi. Aminmizki, bolajonlarga ta’lim-tarbiya berishda turli xil ranglar jilosidan foydalanishimiz darkor. **Tasviriy san’at mashg’ulotlarida** ularning rassomligini, ijodkorligi munosib taqdirlashimiz va rag’batlantirishimiz, hamisha ularni poklikka, go‘zallikka chorlashimiz lozim. Bolalikdanoq ular dunyoni eng chiroyli va nafis ranglarda tasavvur qilishsin. Zero bolajonlarni kichik yoshdanoq ozodalik va beg’uborlikka oshno etib tarbiyalasak, kelajakda ulardan kreativ ijodkor qalb sohiblari yetishib chiqishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Dutton.T . 1991. Voices in architectural education. Cultural politics and pedagogy. Bergin & Garvey, New York.

2.Eaton M, 2006. Revisiting philosophy and education in landscape architecture. In: Proceeding of Design Research Society, International Conference. IADE, Lisbon.

3.Дополнительная общеразвивающая программа летней занятости для детей младшего школьного возраста «Ландшафтный дизайн для начинающий» infourok.ru 2021 г.

4.«Виды инновационных технологий». Юркова А.Н. Номинация «Ландшафтный дизайн территории в ДОО» МКДОУ «Тогучинский детский сад № 6» 2017 г.

5.Tirkashevna,R.Z. (2023). LANDSHAFT DIZAYNI BO 'YICHA TA'LIM: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 158-164.

6.З.Раджапова, У.Абдурауфова Важность использования методов в профессиональной подготовке будущих учителей на основе интегративного подхода// SAI. 2023. №B1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/the-importance-of-usingmethods-in-the-professional-training-of-future-teachers-on-the-basis-of-anintegrative-approach (дата обращения: 09.11.2023).

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH NAZARIY ASOSLARI

Sharipova Guzal Sodiqovna

Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta'lim texnologiysi dotsent

Raimova Laylo Ma'murjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti magistranti

Mustaqillik yillarida davlatimizda milliy ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Maktabgacha ta'lim sohasi mazkur tizimning ilk bo'g'ini hisoblanib butun ta'lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo'lgan - barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2015-2016-yillar davomida 459 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari mukammal ta'mirlandi va zamonaviy talablarga mos ravishda jihozlandi. Shu bilan birga, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari va o'quv-tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha

qoldi. Aksariyat maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamon talablariga javob bermaydi. Bolalami maktabgacha ta’limga qamrab olish ko'rsatkichi hali ham past deb ko’rsatmoqda. Mavjud muammolami amaliy bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 -yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Dastur asosida keng ko’lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

• bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-sharoitlar yaratish;

• maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish;

• 2200 ta maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiytexnika bazasini mustahkamlash, jumladan qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan uskunalar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, multimedia resurslari bilan ta’minlash. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun jami 2.2 trillion so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilmoqda. Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilarga erishiladi: -yuqori sifatli maktabgacha ta’limni ta’minlash, bolalarni sifatli maktabga tayyorlashni yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlarni joriy etishga;-bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo‘lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhlar tashkil etishga; - 3-6 yoshdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olinmagan bolalarni, ularning ota-onalarini metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash orqali maktab ta’limiga tayyorlashni tashkil etishga; -maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog’ini 50 ta yangi qurilish hamda mavjud tashkilotlarning 1167 tasini qayta ta’mirlash va 983 tasini mukammal ta’mirlash orqali kengaytirishga; -qishloq joylardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalar badal to‘lovini 30 foizgacha kamaytirishga; -bolalarning maktabgacha ta’limga qamrovini 1,5 barobarga oshirishga erishish ko’zda tutilgandi Hozirgi paytda yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni isloh qilish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash hamda ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlar kiritishni talab etyapti. Dunyo davlatlari orasida 0 ‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib umumbashariy tavsifga ega konseptual-nazariy asoslar yaratildi va tizimli ravishda amaliyotga tatbiq etilmoqda. Mazkur ezgu maqsadni hayotda o‘z isbotini topishda 0‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda belgilab qo’yilganidek, maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk maktabda o‘qishga tayyorgarlik darajasini shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy

tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish maxoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir.
O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining birinchi - maktabgacha ta’lim rivojining zamonaviy bosqichi qator o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi:
-maktabgacha ta’lim ochiq turdagi ta’lim muassasasi sifatida shakllandi;
-maktabgacha ta’lim tashkilotlarining eng muhim funksiyasi bolalarning hayotiy faoliyatini muhofaza etish va salomatligini mustahkamlash hisoblanadi;
-tarbiyalanuvchilarni maktab ta’limiga muvafaqqiyatli tayyorlash va boshqalar.
Shuningdek, bugungi kunda Respublikamizda turli-xil (yasli, bolalar bog‘chasi, bolalar bog‘chasi-boshlang‘ich maktab, davlatga qarashli va xususiy) turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari ham faoliyat yuritmoqda.

Dasturning samarali amalga oshirilishi unda ko‘zda tutilgan ko‘rsatkichlar ijrosining borishini tizimli monitoring qilib borish orqali davlat organlarining doimiy nazoratida turadi. Bu qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashishiga xizmat qiladi. 0‘zbekistonRespublikasining «Maktabgacha ta’limkonsepsiyasi»da ko‘rsatib o‘tilganidek, maktabgacha ta’lim bu ko‘p tomonlamali, maqsadga yo‘naltirilgan, bolani ta’limning keyingi bosqichi - maktab ta’limiga tayyorlovchi, jismoniy, ruhiy, individual va yoshga doir rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim va tarbiya jarayonidir. Bolalarga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish uchun ularni avvalo psixologik xususiyatlarni rivojlantirib olish muhimdir. Nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat psixologik jarayonlarning chuqur bosqchlarida, balki ijtimoiy hodisalar darajasida ham ko’rinadi. So'zning insonga, uning xulq-atvoriga ko’rsatadigan ta’siri barchaga ma’lum. “Garchi til va tafakkur bir-birisiz yashay olmasada biroq ular o'zida bir hodisani mujassamlashtirmaydi. Tafakkur obyektiv borliqning intihosi, til esa – ifoda usuli, fikrni boshqa kishilarga berish va mustahkamlash vositasi hisoblanadi. So'z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi. Hozirgi paytda mamlakatimizda tillar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ikki tamoyil mavjuddir: bir tomondan, milliy tillarning yanada rivojlanishi va takomillashuvi, boshqa tomondan esa - o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi ahamiyatining oshishi ro‘y bermoqda. 0 ‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va yuzaga kelgan iqtisodiy ehtiyojlar mamlakatdagi ko‘p sonli aholining ona tili bo‘lgan o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rganishni shart qilib qo‘ydi, bu esa ko‘p millatli jamiyat sharoitida katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi albatta. Til va tafakkur bir biriga bog’liq bo’lganidek, til va nutq ham bir biriga chambarchas bog’liqdir. Til millatning noyob xazinasi bo‘lib, doimo og‘zaki va yozma holda namoyon bo’ladi. Tilning olijanob imkoniyatlar nutq orqali nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo‘lmas ekan tilning cheksiz

imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolib ketadi. So‘z va g‘azal sultoni A.Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi. «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa tilning manfaatidir». Demak, til qanchalik zo‘r bo‘lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilar ekan. Uning kuch, qudrati nutq jarayonida namoyon bo’ladi desak mubolag’a bo’lmaydi. Agar til o ‘q bo ‘Isa, nutq kamondir. 0 ‘qning qudrati, kamonning qudratiga ham bog‘liq. Ma’lumki til inson aqlining, faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan narsasi ham til emasmi?! Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari tafakkur mevalari til, nutq orqali ro‘yobga chiqadi. Til tafakkur mahsulining hayotge tatbiq etilish vositasi bo‘luvchi qudratli quroldir.

Biz ko’rib chiqayotgan jihatdan eng dolzarbi maishiy soha va uyushtirilgan ta’lim sohasi hisoblanadi. Ko‘p yillik amaliyot shuni ko‘rsatdiki, bolalikda bilingvizm (ikki tillilik) bola hayotida har bir tilning tutgan o'rniga, uning ikki tillilikdan qaysi vaziyatlarda va qay darajada foydalanishiga bog‘liq holda shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ikki tillilik shakllanishining quyidagi o‘ziga xos holatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- bola tug‘ilgan paytidan boshlab ikki tilli oilada ikki tilda suhbat qurib muomala qilish sharoitida tarbiyalanishi;

- bola oilada ona tilida so‘zlashadi, undan tashqarida esa (qo‘shnilar, qarindoshlar va boshqa shaxslar bilan) o‘zga tilni o‘zlashtirishi;

-bola o‘zga tilni aniq maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarda va ulardan tashqari bo’sh vaqtlarda maktabgacha ta’lim tashkilotida egallashi kabilar. Bola tug‘ilgan paytidan boshlab ijtimoiy mavjudot hisosblanadi. Uning har bir yosh bosqichidagi ijtimoiy rivojlanishi o‘z xususiyatlariga, vazifa va mazmuniga ega bo‘lib, bularni amalga oshirish uchun pedagogika sohasidagi ishlarga tegishli shart-sharoitlami yaratish zarurdir.

Yana shuni ta’kidlash joizki, tilning rivojlanishi bolalar hayotining har bir jabhasida va ta’limiy muvaffaqiyatlarida eng muhim omil hisoblanadi. 2-5 yoshdagi bolalarning taxminan 6-7 % i til rivojlanishi bilan bogliq muammolarga duch keladi. Tilning yetarlicha shakllanmaganligi bolalarning butun hayoti davomida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va ular bilish, savodxonlik, ijtimoiy munosabat, diqqat va o‘qitish hamda o‘rganishga tayyorgarlikda qator qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Shuning uchun ham o‘z shaxsini erta anglash juda muhim hisoblanadi. Bolalarning ijtimoiy tarbiyasida til o'rganish bilan bogliq muammolar yuzaga keladi va bunda bilish darajasi ko‘pincha past bo‘ladi. Irlandiyada ingiliz tilini qo‘shimcha til sifatida o‘rganayotgan o‘quvchilarda ham til va nutq tahlilida yetishmovchiliklar mavjud deb hisoblanadi. Bunday bolalarda tilning rivojlanishi bir-biridan farq qiladi va shuning uchun til tahlili qiyin bo‘ladi. Tilning murakkabligi umumiy tahlilni qiyinlashtiradi. Bir qancha tahlil uslublari maktabgacha yoshdagi bo‘lgan bolalarning muloqoti va tilini baholashda qulay bo‘lishiga qaramay, bu

metodlarning ko‘pi kelajakda til bilan bog‘liq muammoga duch kelishiga sababchi bo’lishi mumkin. Murakkab tahlil metodlari oddiy tahlil metodlariga qaraganda aniqroq deb hisoblanadi va ular bolalarning turli rivojlanish yo‘nalishlariga ko‘ra oddiy tahlildan afzalroqdir. Tahlil metodlari tilda ishlatiladigan murakkab uslublami qisman ta’minlaydi va shu sababli, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda til tahlili bo‘yicha ko‘proq izlanishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimov LA. Barkamol avlod 0 ‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T: O‘zbekiston, 1997.

2.Кадырова Ф.Р., Кадырова Р.М., Вахобова Ф.Н. Концепция дошкольного образования Республики Узбекистан. - Т: Фан ва технологиялар, 2011.

3.Mo’minova L. – Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o’rgatish dasturi. –T: 1996

4.Vaxobova F.N., Rasulova M. Sh. va boshqalar «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari».-T: 2008.

5.Кадырова R M. Теория и методика развития речи (Текст лекции). -Т: Уз. ПФИТИ, 2000.

6.O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom. // Maktabgacha tarbiya. –T: 2000, 1-son.

7.Asqarova M. va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. —T., 2001.

CHET TILLARNI O‘QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOT MUAMMOSI

Mutalova Dilnoza Abdurashidovna

Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi p.f.f.d. (PhD)

Kojakulova Suluxon Begalievna

Chirchiq davlat pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabasi

Chet tillarni o‘qitish va madaniyatlararo muloqotning yaqin aloqasi va o‘zaro bog'liqligi shunchalik aniqki, ular uzoq muddatli tushuntirishlarga muhtoj emas. Har bir chet tili darsi madaniyatlarning chorrahasi bo‘lib, madaniyatlararo muloqot amaliyotidir, chunki har bir xorijiy so‘z xorijiy davlat va xorijiy madaniyatni aks ettiradi: har bir so‘zning orqasida milliy tushuncha bilan bog'liq dunyo g'oyasi mavjud. Chet tillarni o‘qitishning asosiy vazifasi hozirgi vaqtda tilni haqiqiy va to‘liq muloqot vositasi sifatida o‘rganishdir.

Ushbu muammolarni hal qilish faqat nazariy asosda amalga oshirilishi mumkin. Bunday bazani yaratish uchun bizga:

✓ filologiya bo‘yicha nazariy ishlar natijalarini xorijiy tillarni o‘qitish amaliyotiga biriktirish; ✓ chet tili pedagoglarining katta amaliy tajribasini nazariy jihatdan tushunish va umumlashtirish, kerak bo‘ladi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni an’anaviy o‘qitish matnlarni o‘qishga qisqartirildi. Shu bilan birga, oliy ta’lim darajasida filologlar tayyorlash badiiy adabiyot o‘qish asosida olib borildi; filolog bo‘lmaganlar bo‘lajak kasbiga ko‘ra maxsus matnlarni ("minglab so‘zlar") o‘qiydilar va kundalik muloqotning hashamati, agar o‘qituvchilar va talabalar uchun etarli vaqt va ishtiyoq bo‘lsa, kundalik mavzular bilan ifodalangan: mehmonxona, restoran, pochta bo‘limi va boshqalar. Aynan shuning uchun biz oliy ta'lim darajasida chet tilini o‘qitishni fiziklarga fizik matnlar tilini, geologlarga tilni o‘rgatishning sof amaliy va o‘ta ixtisoslashgan vazifasi emas, balki turli mamlakatlar mutaxassislari o‘rtasidagi muloqot vositasi sifatida tushunamiz.

Universitet mutaxassisi fundamental tayyorgarlikka ega bo‘lgan keng ma'lumotli shaxsdir. Shunga ko‘ra, bunday turdagi mutaxassisning chet tili ham ishlab chiqarish quroli, ham madaniyatning bir qismi, balki ta'limni insonparvarlashtirish vositasidir. Bularning barchasi til bo‘yicha fundamental va ko‘p qirrali tayyorgarlikni nazarda tutadi. Talabaning chet tilini bilish darajasi nafaqat uning o‘qituvchisi bilan bevosita aloqada bo‘lishi bilan belgilanadi. Chet tilini muloqot vositasi sifatida o‘rgatish uchun real muloqot muhitini yaratish, chet tillarini o‘rgatish bilan hayot o‘rtasida aloqa o‘rnatish, chet tillaridan hayotiy, tabiiy sharoitlarda faol foydalanish zarur. . Bular chet ellik mutaxassislarni jalb qilgan holda va ularsiz tilda ilmiy munozaralar, xorijiy ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish va muhokama qilish, chet tillari bo‘yicha individual kurslarni o‘qish, talabalarning xalqaro konferentsiyalarda ishtirok etishi, tarjimon sifatida ishlash bo‘lishi mumkin. aloqa, ma'lumotni tushunish va etkazish qobiliyati uchun darsdan tashqari muloqot shakllarini rivojlantirish kerak: to‘garaklar, to‘garaklar, chet tillari bo‘yicha yopiq ma'ruzalar, turli mutaxassisliklar talabalari to‘planishi mumkin bo‘lgan ilmiy jamiyatlar. Shunday qilib, yozma matnlar orqali yuqori darajada ixtisoslashgan muloqot tilni , aloqa vositasi sifatidagi bilimlarni hech qachon tugatmaydi. Muloqot ko‘nikmalarini maksimal darajada rivojlantirish chet tili o‘qituvchilari oldida turgan asosiy, istiqbolli, ammo juda qiyin vazifadir. Uni hal qilish uchun tilni bilishning barcha to‘rt turini rivojlantirishga qaratilgan yangi o‘qitish usullarini va odamlarga muloqot qilish effektini o‘rgatish mumkin bo‘lgan tubdan yangi materiallarni o‘zlashtirish kerak. Shu bilan birga, albatta, bir ekstremaldan ikkinchisiga shoshilish va barcha eski usullardan voz kechish noto‘g'ri bo‘ladi: ular diqqat bilan barcha eng yaxshi, foydali, o‘tgan o‘qitish amaliyotini tanlab olishlari kerak. Chet tillarini turli xalqlar va madaniyatlar vakillari o‘rtasidagi muloqot

vositasi sifatida o‘qitishning dolzarb muammosini hal qilish haqidagi savolga asosiy javob shundan iboratki, tillar so‘zlashuvchi xalqlar dunyosi va madaniyati bilan ajralmas birlikda o‘rganilishi kerak. Odamlarni muloqot qilishga o‘rgatish (og'zaki va yozma), ularni o‘zboshimchalik bilan yaratishga o‘rgatish va faqat chet el nutqini tushunish qiyin ish bo‘lib, muloqot shunchaki og'zaki jarayon emasligi bilan murakkablashadi. Uning samaradorligi, tilni bilishdan tashqari, ko‘plab omillarga bog'liq (omillar: aloqa sharoitlari va madaniyati, odob-axloq qoidalari, ifodaning og'zaki bo‘lmagan shakllarini bilish (mimika, imo-ishoralar), chuqur fon bilimlari va ko‘proq. Yangi sharoitda, chet tillarini o‘rgatish muammosining yangicha shakllantirilishi bilan ayon bo‘ldiki, turli millat vakillari o‘rtasidagi muloqotni, muloqotni o‘rgatish jarayonining tubdan o‘sishi va bu bo‘shliqni to‘ldirishning tubdan shart-sharoitlari tillarni kengaytirish va chuqurlashtirishdir. muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy komponentning roli. E.Sepirning fikriga ko‘ra, " har bir madaniy tizim va ijtimoiy xulq-atvorning har bir omili aniq yoki bilvosita muloqotni anglatadi. Shunday qilib, biz allaqachon ona tilida so‘zlashuvchilarning dunyosini (tilni emas, balki dunyoni), ularning madaniyati so‘zning keng etnografik ma'nosida, turmush tarzi, milliy xarakteri, mentaliteti va boshqalarni chuqurroq o‘rganish zarurligi haqida gapiramiz., chunki nutqda so‘zlarning haqiqiy ishlatilishi, haqiqiy nutqni ko‘paytirish asosan ushbu tilda so‘zlashadigan nutq jamoasining ijtimoiy va madaniy hayotini bilish bilan belgilanadi. "Til bizning turmush tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros qilib olingan amaliy ko‘nikmalar va g'oyalar to‘plamidan tashqarida mavjud emas."Milliy tuzilmalar ijtimoiy-madaniy tuzilmalarga asoslanadi. So‘zlarning ma'nolari va grammatika qoidalari tilni aloqa vositasi sifatida faol ishlatish uchun etarli emas. O‘rganilayotgan til dunyosini iloji boricha chuqurroq bilish kerak. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, so‘zlar va grammatika qoidalarining ma'nolari bilan bir qatorda, qachon, qanday qilib, kimga, kimga, qaerda; bu ma'no / kontseptsiya sifatida, bu fikr mavzusi o‘rganilayotgan tilning haqiqiy dunyosida yashaydi. Aynan shuning uchun bugungi kunda chet tillar o‘quv rejasida chet tillarni o‘rganish, "o‘rganilayotgan til dunyosi"uchun juda ko‘p mablag' ajratilmoqda. Bu atama mamlakatimizda ko‘plab ta'lim muassasalari tomonidan qabul qilingan tushunchadir. Tillar va madaniyatlarning barcha farqlari ularni taqqoslashda aniqlanadi. Biroq, dunyodagi til rasmlari darajasida bu farqlar ko‘rinmaydi va turli tillarning so‘zlari aldamchi ekvivalentdir. Bu chet tillarni o‘qitish amaliyotida katta qiyinchiliklarga olib keladi. Yana bir bor ta'kidlaymizki, bu muammolarning barchasi faqat kamida ikkita tilni (mos ravishda, madaniyatlarni) – xorijiy va mahalliy qiyosiy o‘rganish bilan aniqlanadi. Shunday qilib, ular chet tillarni o‘qitish amaliyotida ma'lum bir suv osti toshini taqdim etadilar, bu esa o‘quvchilarning ona tilini bilmagan chet tili o‘qituvchilarini, Daryo ishlab chiqarish va aloqa sohasidagi yashirin qiyinchiliklarni ko‘rishga qodir emas. Shunday qilib, madaniy ma'nodan individual ma'noga o‘tish. Ko‘rib turganingizdek, ushbu o‘tishning ta'siri

madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan prizma orqali o‘z xususiyatlarini, qurilmalarini loyihalashda namoyon bo‘ladi. Bu barcha odamlar "shifrlash" va "parolini hal qilish" turli mexanizmi bor va ko‘p sabablarga bog'liq, chunki, muloqot, bu to‘siq, psixologik deb ataladi, eng qiyin bo‘ladi, deb ishoniladi. Shunday qilib, chet tillarni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish muammosini ko‘rib chiqib, biz til bilan muloqot muammosini ijtimoiy-lingvistik hodisa sifatida ko‘rib chiqamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Акрамов М. Р. Психолого-педагогические особенности экологического образования //The Way of Science. – 2014. – С. 78.

2.Akramov M. R. et al. Шахс касбий йўналганлиги ривожланишида масъулиятлиликнинг аҳамияти //Молодой ученый. – 2021. – №. 11. – С. 259-261.

3.Акрамов М. Р. Конфликт и его социально-психологические свойства //Молодой ученый. 2021. – №. 6. – С. 293-295.

4.Акрамов М. Р. Проблемы изучения психологических особенностей развития экологического сознания по ва ясвину //science and world. – 2013. – С. 117.Назаров А. Психологические особенности руководителей, влияющие на принятие управленческих решений //Молодой ученый. – 2019. – №. 44. – С. 298-300.

5.Yusupov O. N. Expression of intercultural differences in translation //International Journal of World Languages. – 2021. – Т. 1. – №. 2.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDAGI MAVJUD ZIDDIYATLAR VA PEDAGOGIK JARAYONLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Yakubova Zilola Zikirovna,

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha talim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
zilolayakubova1979@mail.ru

Shaxs kelajagini belgilash va muhim poydevor yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etishda uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarning alohida o'mili bor, ya'ni maktabgacha ta'lim, umumiy o‘rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida ta'lim oluvchilarda har tomonlama barkamollik sifatlari tarbiyalanadi.

Barkamol shaxsni shakllantirishda pedagogik tizimning ingtegrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni tanlash hamda mazkur tizimni tadqiq etish va takomillashtirishga tizimli, vazivatli, ijodiy, refleksiv, muvofiqlashtirilgan, etnik, shaxs-faoliyat, milliy-hududiy va innovatsion yondashuv kabi yondashuv texnologiyalarini qo‘llash va ulardan mazmun-mohiyatiga ko‘ra to‘g‘ri foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ta'lim — imkoniyatlar tengligini

ta'minlaydigan buyuk mezondir. U jamiyat aql-zakovatining yuksalishi, raqobatbardoshlikning kuchayishi va yutuqlar ko‘payishining muhim omili vazifasini o‘taydi. Pedagogik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta'minlash va samaradorligini oshirishning metodologik asoslari sifatida mazkur yondashuv texnologiyalarini ko'rib chiqish vujudga kelayotgan vaziyatlarga bo‘liq holda pedagogik jarayonlar samaradorligini o‘rganish, tahlil qilish va takomillashtirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega:

- bugungi kunda pedagogik jarayon sub'yektlari uchun qo‘yilayotgan talablar ta'lim standartlari va o‘quv dasturlarini unifikatsiya va modernizatsiya qilsh;
- pedagogik jarayonni va sub'yektlar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirishda pedagogik tizim komponentlarining o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi, integrativ tabiati kabi qator o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- mazkur tizimda innovatsion va hamkorlikdagi faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ya'ni mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlash yo‘nalishida maxsus kurslar, o‘quv-seminarlari tashkil etish va o‘quv-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash;
- maktabgacha ta’lim, oila, mahalla, jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ya'ni hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish va takomillashtirish kabi qator yo‘nalishlar bo‘yicha mavjud muammolarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

Shuningdek, pedagogik jarayonlarning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirish pedagogik jarayonlarda o‘rganiladigan tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini hamda axborotlarning yangiligi va ishonchliligini ta'minlash zaruriyatini belgilaydi. Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirishda, shuningdek, pedagogik tizim komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta'minlashning zaruriyatini asoslashda quyidagi mavjud ziddiyatlami bartaraf etish zarur:

- ta'lim tizimiga yangiliklarni tatbiq etishning rivojlanish darajasi bilan ta'lim-tarbiya ishtirokchilarining bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlari hamda kasbiy qobiliyatlarini shakllantirish darajasi va ilmiy-metodik ta'minot o‘rtasidagi nomuvofiqlik;
- pedagogik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta'minlash asosida ularning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlarning ilmiy asoslanmaganligi;

- ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi;
- ta'lim muassasalarida pedagog xodimlarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga mo‘ljallangan uzluksiz malaka oshirish xonalarini zamonaviy axborot texnologiyalari va ilmiy metodik maxsulotlar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi va h.k.

Pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun o‘qituvchilar belgilangan asosiy maqsad yo‘nalishida pedagogik jarayonlarni strategik rejalashtirish, loyihalashtirish, modellashtirish, ta'lim oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatlarga ko‘ra pedagogik jarayonni boshqarish usullari, metodlari hamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalami bilishi va ular asosida pedagogik jarayon subyektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etishi zarur hisoblanadi. Pedagogik jarayonlar samaradorligi mazkur jarayonning asosini tashkil etuvchi ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviyligi hisoblanadi, chunki samaradorligi tekshirilayotgan yangiliklar va tatbiq etilayotgan innovatsiyalar hamda tashkil etilayotgan innovatsion jarayon aniq bir maqsadga, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlarining bilim, ko‘nikma va malakalarining rivojlanishi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari darajasining o‘sishi bilan belgilanadi. Shunday ekan, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi tatbiq etilayotgan yangiliklar asosida ta'lim oluvchilarning olgan bilimlari, zamonaviy texnika va AKTni o‘rganishi, intellektual qobiliyatlarining shakllanish darajasi hamda tarbiyalanuvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari, shuningdek, pedagogik mahorati va kasbiy qobiliyatlarining rivojlanish darajalari o‘sishini belgilaydi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha keng miqyosdagi ishlarning amalga oshirilishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilmiy va pedagogik tarkib tubdan o‘zgardi, zamonaviy o‘quv-dasturiy asosga, moddiy-texnik bazaga ega bo‘lgan ta’lim maskanlari sifatida samarali faoliyat yuritmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatining pedagogik-psixologik asoslari, davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda ularning muqobil turlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari, boshqarishda jahon tajribasi va uni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish texnologiyalarini o‘rganish va shu asosda chora-tadbirlarni belgilash, amaliyotga joriy qilish ishlari jadallashmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O’zbekiston, 2017. — 488 b.
2. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. — T.: Ma‘naviyat, 2003.
3. Yakubova, Z. Z. (2022, October). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLANING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIGA PROFESSIONAL YORDAM KO ‘RSATISHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB BILAN HAMKORLIK ISHLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-73).
4. Yakubova, Z. Z. (2023). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAXALLA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLAR HAMKORLIGI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(15), 141-147.
5. YZ Zikirovna. MA’NAVIY QADRIYATLAR–SOG ‘LOM AVLODNI TARBIYALASH VOSITASI SIFATIDA.Science and innovation, 2023. 208-210.

ENHANCING THE PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE EDUCATORS: A ROADMAP TO SUCCESS

Ergasheva Barno Ziyavitdin qizi,

Tashkent state pedagogical university named after Nizami, teacher
barnoergasheva90@gmail.com

In an ever-evolving educational landscape, the role of educators continues to expand, requiring a diverse skill set to effectively meet the needs of students. As the demands on teachers increase, it becomes imperative for future educators to continuously refine and enhance their professional skills. Here, we explore several strategies and methods aimed at empowering future educators to excel in their roles.

1. Continuous Learning and Professional Development

Future educators must adopt a mindset of continuous learning, recognizing that education is a dynamic field that requires staying abreast of emerging trends, methodologies, and technologies. Engaging in ongoing professional development opportunities, such as workshops, seminars, and online courses, enables educators to expand their knowledge base and refine their teaching techniques.

2. Mentorship and Collaboration

Mentorship programs offer invaluable support and guidance to future educators as they navigate their early careers. Establishing mentor-mentee relationships with experienced educators provides opportunities for personalized advice, constructive feedback, and professional

networking. Moreover, collaborative endeavors with colleagues foster a culture of sharing best practices and innovative ideas.

3. Utilization of Technology

Incorporating technology into teaching practices equips future educators with essential skills to enhance student engagement and facilitate personalized learning experiences. Platforms for virtual classrooms, educational apps, and digital resources offer opportunities for interactive learning, multimedia presentations, and adaptive assessment techniques. Embracing technology not only enhances teaching effectiveness but also prepares educators to navigate the digital landscape of modern education.

4. Cultivation of Emotional Intelligence

Effective teaching extends beyond subject matter expertise; it encompasses empathy, communication, and relationship-building skills. Future educators must prioritize the cultivation of emotional intelligence to create supportive learning environments where students feel valued and understood. Developing empathy, active listening, and conflict resolution skills enables educators to foster positive relationships with students, colleagues, and parents, thus facilitating holistic development.

5. Reflective Practice

Encouraging future educators to engage in reflective practice fosters self-awareness and professional growth. By regularly reflecting on their teaching experiences, educators can identify areas for improvement, celebrate successes, and refine their instructional strategies. Journaling, peer feedback, and self-assessment tools facilitate the reflective process, empowering educators to make informed decisions and adapt their practices to meet evolving student needs.

6. Engage in Reflective Practice

Reflection serves as a catalyst for professional growth, enabling future educators to critically examine their teaching practices, identify areas for improvement, and refine their instructional strategies. Encouraging educators to engage in reflective practice through journaling, peer feedback, and self-assessment facilitates metacognition and self-awareness. By reflecting on their teaching experiences, educators can continuously evolve and adapt their practices to meet the diverse needs of their students effectively.

Empowering future educators to excel in their profession requires a multifaceted approach that encompasses continuous learning, mentorship, technology integration, emotional intelligence development, and reflective practice. By investing in these strategies, educational institutions can nurture a generation of highly skilled educators equipped to inspire, motivate, and positively impact the lives of students.

Enhancing the professional skills of future educators is crucial for the development of effective teaching practices and ultimately for the success of students. Here's a roadmap to help future educators cultivate and enhance their professional skills:

- ✓ Foundational Knowledge: Ensure future educators have a solid understanding of educational theories, pedagogical approaches, and subject matter expertise relevant to their teaching context. This includes staying updated on the latest research and best practices in education.
- ✓ Effective Communication: Emphasize the importance of clear and effective communication skills. Future educators should be able to articulate ideas, instructions, and feedback in a manner that is accessible to diverse learners and fosters understanding and engagement.
- ✓ Pedagogical Strategies: Provide training in a variety of pedagogical strategies and instructional methods tailored to different learning styles and needs. This includes active learning techniques, differentiated instruction, and the integration of technology in the classroom.
- ✓ Classroom Management: Equip future educators with strategies for creating a positive and inclusive learning environment, managing student behavior, and fostering a sense of community and respect among students.
- ✓ Assessment and Feedback: Teach future educators how to design effective assessments that measure student learning outcomes and provide constructive feedback to support student growth and development.
- ✓ Cultural Competence and Diversity: Promote cultural competence and sensitivity to diversity in all its forms. Future educators should understand the unique backgrounds, experiences, and needs of their students and strive to create an inclusive learning environment where all students feel valued and respected.
- ✓ Collaboration and Professional Development: Encourage future educators to collaborate with colleagues, parents, and other stakeholders to support student learning and development. Additionally, provide opportunities for ongoing professional development and reflective practice to continuously improve teaching skills and stay abreast of new developments in the field.
- ✓ Ethical and Legal Responsibilities: Educate future educators about their ethical and legal responsibilities as professionals, including maintaining confidentiality, upholding standards of conduct, and advocating for the well-being and rights of their students.
- ✓ Resilience and Self-Care: Teach future educators strategies for managing stress, maintaining work-life balance, and prioritizing self-care to prevent burnout and sustain a long and fulfilling career in education.

- ✓ Adaptability and Innovation: Foster a mindset of adaptability and innovation, encouraging future educators to embrace change, experiment with new ideas and technologies, and continuously seek out ways to improve teaching and learning practices.

By following this roadmap, future educators can develop the professional skills and competencies needed to succeed in their careers and make a positive impact on the lives of their students.

Bibliography references:

1.Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B7), 401-405.

2. Barno, E. (2023). O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.

3. Ergasheva, B., Maxmudova, D., & Ramozonova, B. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 2(10), 118–122.

4. Ergasheva Ba’rno Ziyavitdin qizi, & Qulbulova Rayhona Anvar qizi. (2023). MAMLAKATIMIZDA VA XORIJIY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI . Лучшие интеллектуальные исследования, 10(4), 69–74.

5. MAKTABGACHA TA’LIMDA RIVOJLANUVCHI TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH USULLARI MD Akmalovna, BR Sadriddinovna, BEZ Qizi.Science and innovation 2 (Special Issue 13), 538-540.

8. Ergasheva Ba’rno Ziyavitdin qizi, & Islomova Sabina Jamshidxon qizi. (2023). ZAMONAVIY TARBIYACHINING KASBIY KOMPETENLIGI . Лучшие интеллектуальные исследования, 10(5), 60–62.

9. Ergasheva Barno Ziyavitdin qizi. (2022). KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *5*(5), 75–77.

10. Ergasheva Ba’rno Ziyavitdin qizi. (2024). KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING INTEGRATIV TEXNOLOGIYASI. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(3), 50–54.

11. Ergasheva Ba’rno Ziyavitdin qizi. (2024). TECHNOLOGY OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS BASED ON A COMPETENCE-BASED APPROACH. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(3), 46–49.

10. Ergasheva Ba’rno Ziyavitdin qizi. (2024). IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF THEIR STUDENTS IN THE CONDITIONS OF PEDAGOGICAL MODERATION. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(1), 17-20.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Нурбаева Инобат Тулкуновна,

преподаватель кафедры Психологии и педагогики дошкольного образования ТГПУ имени Низами Inobat2379@gmail.com

Любое обновление педагогического процесса в образовательном учреждении требует модернизации не только содержания образования, но и кадрового потенциала, создание системы научно-методического сопровождения, повышения квалификации и подготовки педагогических кадров.

Эти направления должны развиваться параллельно. Неразвивающийся педагог не сможет воспитать творческую созидательную личность. Поэтому, повышение компетентности и профессионализма педагога - одно из важнейших условий улучшения качества дошкольного образования.

Понятие "профессиональная компетентность" пересекается с психологическими, социологическими, педагогическими понятиями и категориями, обозначающими возможность человека заниматься профессиональной деятельностью.

Компетентность в трудах И.А. Зимней рассматривается как "интеллектуально и личностно обусловленная единственная социально-профессиональная характеристика личности, которая проявляется в действиях, деятельности, поведении, в адекватности решения стандартных и особенно нестандартных задач, требующих творчества"[1].

Формирование компетентности ведут по трем направлениям:

- изменение всей системы деятельности, ее функций и иерархического строения;
- изменение личности субъекта;
- изменение соответствующих компонентов установки субъекта по отношению к объекту деятельности.

Наличие всех аспектов компетентности означает достижение человеком зрелости в

своей профессиональной деятельности, общении и сотрудничестве, характеризуют становление личности и индивидуальности профессионала.

В качестве одной из важнейших составляющих профессиональной компетентности А.К. Маркова называет способность самостоятельно приобретать новые знания и умения, а также использовать их в практической деятельности [5].

В качестве базового инструмента управления профессионализмом используется матрица компетенций конкретных должностей. По существу, матрица компетенций - это образ желательного профессионализма сотрудника, занимающего определенную должность, приближение к которому повышает результативность его работы.

Профессиональная компетентность педагога определяется как:

• интегральное качество личности, способствующее саморазвитию, самосовершенствованию; оно структурно и функционально организовано, что позволяет специалисту осуществлять профессиональную деятельность более эффективным способом;

• совокупность познаний и опыта субъекта (компетенции, подготовки и готовности), потенциальных и реализованных способностей педагога;

• возможность реализации данной профессиональной деятельности эффективными способами и получения продуктивных результатов;

*необходимый и достаточный уровень развития структуры личности.

На воспитателя дошкольной образовательной организации возлагаются следующие функции:

• планирование, организация и проведение воспитательно-образовательной работы;

• обеспечение охраны и укрепления здоровья детей;

• приобщение детей к национальной культуре и традициям;

• координация деятельности младшего воспитателя (помощника воспитателя) и других работников в рамках единого образовательного процесса.

К педагогу дошкольной образовательной организации предъявляются особые требования. Обобщенно можно выделить четыре наиболее важных требования к личности педагога и его профессиональной деятельности, которые находятся в русле современных концепций дошкольного образования:

• гуманистические установки, основанные на эмоционально-положительном отношении к детям, интересе к каждому ребенку и детскому сообществу;

• глубокое знание и понимание каждого ребенка, особенностей взаимодействия ребенка со взрослыми и сверстниками;

• культура общения и совместной деятельности с ребенком, культура отношений педагога с самим собой как личностью и профессионалом;

• творчество, выражающееся в постоянном совершенствовании педагогом содержания и форм взаимодействия с детьми.

В соответствии с современными требованиями к подготовке кадров для дошкольного образования, у педагога ДОО должен быть сформирован определенный набор компетенций.

С точки зрения профессиональной подготовки воспитателя дошкольной образовательной организации у него должны быть сформированы следующие группы компетенций: общекультурные компетенции, профессиональные компетенции.

Формирование общей культуры личности, приобщение к культурному наследию и формирование профессиональных качеств, необходимых для профессиональной деятельности - это одна из важнейших задач современного педагогического образования.

Общекультурные компетенции означают совокупность социально-личностных качеств. Среди общекультурных компетенций воспитателя дошкольной образовательной организации можно выделить: способность к социальному взаимодействию, к сотрудничеству и разрешению конфликтов в социальной и профессиональной сферах, к толерантности, к социальной мобильности; готовность к толерантному восприятию социальных и культурных различий, уважительному и бережному отношению к историческому наследию и культурным традициям; готовность к соблюдению прав и обязанностей гражданина. Роль профессиональных компетенций в деятельности педагогов ДОО является приоритетной.

Таким образом, работа по стандарту потребует пересмотра организации всего педагогического процесса в дошкольной образовательной организации, а от педагогов дополнительных знаний, умений, навыков по содержанию программ полного методического обеспечения и овладения педагогическим опытом.

Список литературы:

1. Кузьмина Н.В. Профессионализм педагогической деятельности / Н.В. Кузьмина А.А. Реан. СПб. - Рыбинск, 1993. - 132 с.- С.104.

2. Лукьянова М.И. Профессиональная компетентность педагога: теоретический анализ понятия // Управление дошкольным образовательным учреждением. Научно практический журнал. - 2007, №1. С.75.

3. Майер А.А. Модель профессиональной компетентности педагога дошкольного образования / А.А.Майер // Основы педагогического менеджмента. - 2007. - №1. С. 95-96.

MAKTABGACHA TA’LIMNI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta`lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi o’qituvchisi

Rahbarning boshqaruv faoliyatida maqsadni belgilash tajribasi, ijodiy va maqbul qarorlarni topa olish, istalgan ijtimoiy o‘zgarishlarga moslasha olish mahorati katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ta’lim tashkiloti rahbarining kompetentliligini shakllantiruvchi eng muhim tarkibiy qismlardan biri bo‘lib boshqaruv apparati xodimlariga yangicha, o‘ziga xos talablarning tushunilishi sanalib, ular islohotlar davridagi ta’lim xizmatlari bozorida yuzaga keladigan vaziyatlar orqali paydo bo‘ladi.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, rahbar va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xususan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etildi va unga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish vazifasi yuklatildi [8].

Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida maktabgacha ta’lim sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimini tahlil qilish quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarurligi belgilandi:

- xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko‘p darajali uzluksiz ta’lim tizimini yaratish;

- ta’lim va amaliyotni integratsiyalashtirgan holda xalqaro ta’lim standartlari, o‘quv-metodik reja va dasturlar, interaktiv va muammoli-vaziyatli o‘qitish usullari va treninglari, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- maktabgacha ta’lim tizimi xodimlariga qo‘yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini hamda pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- ta’lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish yo‘li bilan maktabgacha ta’lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, maktabgacha ta’lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil qilish uchun, shu jumladan mamlakat hududlarida, ta’lim muassasalari sonini oshirish;

- maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining xorijdagi yetakchi universitetlarda, ilmiy markazlarda va boshqa ta’lim tashkilotlarida stajirovka o‘tashini tashkil qilish;

- Vazirlikning pedagogika kollejlari faoliyatini tashkil qilish, ularni malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi bilan ta’minlash choralarini ko‘rish;

- xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan uzoq muddatli munosabatlarni yanada rivojlantirish, maktabgacha ta’lim sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun O‘zbekiston Respublikasida ularning filiallarini ochish;

- tajriba almashish, ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni birlashtirish maqsadida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug‘ullanuvchi ta’lim va ilmiy-tadqiqot, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning muassasalari bilan samarali idoralararo hamkorlikni chuqurlashtirish;

- o‘zlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini eng yuqori professional darajada bajara oladigan, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlarga, chuqur kasbiy bilimlarga ega eng malakali xodimlarni saralab olishda raqobat muhitini ta’minlaydigan kadrlarni shaffof tanlov asosida tanlashning yangi mexanizmlarini joriy etish;

- maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlariga zaruriy kasbiy kompetensiyalar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan talablarni belgilash, sertifikatlash tizimini joriy etish;

- strategik boshqaruv, moliyaviy va NR-menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Hozirgi zamon sharoitida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining maqomi va uning boshqaruv funksiyalari tubdan o‘zgarib bormoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari boshqaruv faoliyatini olib borish jarayonida rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish funksiyalarini amalga oshiradi. Rahbarning kasbiy faoliyatida maqsadni belgilash tajribasi, ijodiy va optiml qarorlarni topa olish, istalgan ijtimoiy o‘zgarishlarga moslasha olish mahorati katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Zamonaviy rahbar nafaqat pedagogika, psixologiya masalalarida kompetent bo‘lish, boshqaruv ko‘nikmalarini egallashi, balki ishlab chiqarish, moliyaviy, marketing va resurs vazifalarini hisobga olib qaror qabul qilishi, tashqi va ichki muhit tahlili natijalari asosida o‘zining boshqaruv faoliyatini tashkil etishi kerak. Boshqacha aytganda zamonaviy rahbar iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq fikrlashi va harakat qilishi shart.

Aytib o‘tilgan muammo sababli maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari egallashi kerak bo‘lgan hamda uning kasbiy mahorati asosini tashkil qiladigan kompetentlar, balki u egallashi

zarur bo‘lgan mutlaqo yangi layoqatlar to‘g‘risida ham gapirishga asos bor. Ularning mazmuni to‘liq belgilanmagan, ammo aynan ular zamonaviy rahbar faoliyatini tavsiflaydi. O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi, iqtisodiy kompetentlik nimani aks ettiradi va samarali kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun ta’lim tashkilot rahbari qanday kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Ёзиева, У., & Абдиева, Ф. (2021). Maktabgacha ta’lim tashkiloti samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari. Общество и инновации, 2(11/S), 111-114.

2. Abdieva, F. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ МАДАНИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Science and innovation, 1(B8), 2154-2156.

3. qizi Abdiyeva, F. F. (2023, January). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV MADANIYATINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 397-400).

4. Abdieva, F. (2022). IMPROVING THE MANAGEMENT CULTURE OF DIRECTORS OF PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS. Science and Innovation, 1(8), 2154-2156.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY MOSLASHUVCHANLIKKA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY OMILLAR

Akramova Dildora Ergashboy qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi dildoraakramova29@gmail.com

Ijtimoiylashuv omillari. Ijtimoiylashuv bolalar, o’smirlar, yoshlarlarning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ko’p sonli shart-sharoitlar bilan o’zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta’sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Aslida ularning hammasi ham aniqlanmagan. O’rganilgan omillar haqida bilimlar yetarli emas. Ijtimoiylashuvning omillari 4 guruhga bo’linadi;

1. Megaomillar (mega-eng katta)-kosmos, planeta, dunyo, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy siyosiy, ekologik, planetar jarayonlarni ham kiritsa bo’ladi. Ular boshqa omil guruhlari orqali yerning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta’sir ko’rsatadi.

2. Makroomillar (makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat. Bu omillar muayyan hududda yashovchi aholi ijtimoiylashuviga ta’sir qiladi.

3. Mezoomillar (mezo-o’rta)-hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, auditoriya, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko’ra ajratilgan guruhlarning ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu hududning OAVlariga ta’sir qiladi.

4. Ijtimoiylashuvga mezoomillar mikroomillar orqali ta’sir qiladi. Mikro omillarga muayyan shaxslarga ta’sir qiluvchi omillar-oila, qo’shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

Shaxs tug’ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit sotsium yoki mikrosotsium deyiladi. Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari ichki biologik omillar ham mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o’rganishning iloji yo’q. Zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillarajratib ko’rsatiladi.

Biologik omillar .Biologik irsiyat insonni inson qiluvchi umumiy jihatlarini aniqlaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o’xshashlik, xususiyatlarning o’tishi tushuniladi. Irsiyatga ko’ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg’u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch, teri rangi o’tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. SHuningdek irsiyat bo’yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xusuiyatlari ham o’tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko’zda tutadi. Psixologik ma’lumotlarga ko’ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo’la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo’lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog’liq. Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta’sir ko’rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo’lib tug’ilayogan bolalar soni ko’paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og’ir kechadi. SHuning uchun ularga o’qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug’ullanishadi. Bu bolalar o’z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. SHuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

Ijtimoiy omillar. Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub’ektga aylanishi, uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo’ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan qadriyat, ijtimoiy norma, xulq-atvor namunasi orqali amalga oshadi. Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko’p qirrali

jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. CHunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. SHuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolaning shakllantirishida, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega. Muhit tushunchasi turli fan vakillari-sotsiologlar, psixologlar, pedagoglarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Ular muhitning bunyodkorlik salohiyati va bola shakllanishi, rivojlanishidagi ta'sirini o'rgandilar.

Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'rni Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muhit avvalambor bolaning yangi muhitlarga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shu nuqtai nazardan inson va unga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning jamiyatdagi o'zaro munosabati hamkorlik xarakteriga ega ekanligi muhimdir. Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuvinigina yetarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham inson oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtning o'zida bir qancha mavqe'larni egallashi mumkin. Masalan, ayol ham rafiqa, ham ona, ham ustoz mavqe'larini egallashi mumkin. Har bir mavqe' insonga muayyan talablarni qo'yadi va shu bilan birga unga bir qancha huquqlarni beradi. Insonning jamiyatdagi muayyan huquq va majburiyatlar bilan xarakterlanadigan mavqe'i ijtimoiy maqom deyiladi. Insonda tug'ma maqomlar bo'lishi mumkin. Insonning ijtimoiy maqomiga millati, tug'ilgan joyi, familiyasi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday maqomlarga odatda tug'ma maqom deyiladi. Boshqalari esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga qarab belgilanadi.

Bola o'z rivojlanishi davomida o'zlashtiradigan yana bir muhim roli bu jamoa a'zosi rolidir. Bolalar bog'chasi va maktabda sport to'garagida tengqurlari bilan muomala qilganda bola jamoa a'zosi, o'rtoq, do'st, o'quvchi, yetakchi kabi rollarni o'zlashtiradi. Har bir inson iste'molchi

rolini bajaradi. CHunki u hayoti mobaynida zarur bo’lgan narsalarga doim ehtiyoj sezadi. Bular: ovqat, kiyim-kechak, kitob va boshqalar. Jamiyat insonga taqdim etgan xizmatlardan oqilona foydalana olishni bola yoshligidayoq o’zlashtirishi lozim.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo’nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo’lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlarini o’zlashtirish sodir bo’ladi. Anglash sohasida o’z “men”i obrazini shakllantirish, o’zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o’rnini anglash ro’y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

Adabiyotlar ro’yhati:

1. Akramova, D. (2022). activities of future teachers-psychologists in the system of preschool education. science and innovation, 1(8), 322-326.

2. Акрамова, Д. Э. (2023). совершенствование технологий развития механизмов педагогической и психологической гибкости у студентов как проблема современности. образование наука и инновационные идеи в мире, 13(8), 19-23.

3. Akramova, D. E., & qizi Azimova, X. D. (2023, january). maktabgacha ta’lim yo ‘nalishi talabalarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi. in international conferences (vol. 1, no. 2, pp. 382-385).

4. Akramova, D. E., & qizi Suvonqulova, M. D. (2023, january). rivojlantiruvchi markazlarda bolalarni maktabga tayyorlash va milliy qadriyatlar namunalaridan foydalanishning afzalligi. in international conferences (vol. 1, no. 2, pp. 393-396).

5. Akramova, D. E., & qizi Ne’matova, S. S. (2023, january). bo ‘lajak pedagoglarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishdagi omillar. in international conferences (vol. 1, no. 2, pp. 390-392).

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING MA'NAVIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Matchanov Bekpo'lat Omanbayevich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarorida ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rni alohida ko'rsatilgan. Qarorda vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayotganligi aytib o'tilgan. Bu fazilatlarni amaliy faoliyatga aylantirishda esa ma'naviy tarbiyani maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chuqur olib borish shartligini ta'kidlaymiz.

Insonda ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda maktabgacha ta'lim yoshi qulay davr hisoblanadi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bola ma'naviy fazilatlarini shkllantirish bo'yicha jaxon tajribalariga nazar tashlasak ilg'or tajriba maktabgacha ta`lim yoshidagi bolaning jamiyatda yurish-turish qoidalari, o'z xalqini milliy qadriyatlari bilan tanishishga qaratilgan.

Yapon maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiriladi, guruhda ishlashni, hamkorlik qilishni, baham ko'rishni va muammolarni birgalikda hal qilishni o'rganadilar.

Janubiy Koreyada ham maktabgacha ta'lim-tarbiyani mazmuni har-tamonlama barkamol inson tarbiyasiga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim bolalarga nazariy bilimlar emas, balki, ularni har tomonlama shakllantirish, jismoniy sog'lom va axloqiy-ma'naviy fazilatlari shakllangan, o'ziga ishongan qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'ygan.

J. Piajening fikricha, "bolalarning axloqiy tuyg'usi ularning rivojlanayotgan aqliy tuzilmalari va asta-sekin kengayib borayotgan ijtimoiy tajribaning o'zaro ta'siridan kelib chiqadi"

Bolalarni harakati axloqining nisbiyligini anglashga undaydi. Buni baholashda ular bu harakatlarning natijasi va oqibatlaridan emas, balki insonning, niyatidan kelib chiqadi deb o`ylaydilar.

T.A.Sarbekova, I.A. Kanevalar, ma’naviyat va axloq murakkab integral shakllanishlardir, deb hisoblab, eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagicha ajratib ko‘rsatadilar:

- intellektual-kognitiv;
- qiymat-motivatsion;
- xatti-harakatlarning tarkibiy qismlari.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning ma’naviy tarbiyalash tarbiyachi pedagogning shaxsiy sifatlariga, uning axloqiy qadriyatlarni o‘zida namoyon etishiga va ijodkorligiga bog’liq. Bunda tarbiyachi pedagog ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘z pazitsiyasini tez-tez o‘zgartirishi bolaga moslashishi, ijodiy faoliyatga katta e’tibor qaratishi darkor.

Bolaning kongitiv rivojlanishi bosqichlari bo‘lgani kabi axloqiy-ma’naviy fazilatlarini shakllanish bosqichlari ham mavjud.

- jamiyatda umumetirof etilgan axloqiy-ma’naviy meyor tushunchalariga ega.
- ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zida namoyon etadi.
- ma’naviy axloqiy sifatlarga munosabat bildiradi.

Ma’naviy axloqiy ko‘nikmalarni tarbiyalsh bolaning axloqiy tafakkurini shakllantirishning muhim bo‘g’inidir katta maktabgacha yoshdagi bolaga ma’naviy tarbiya berishning mazmuni uni axloqiy odatlantirishga qaratilishi lozim.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar nima yahshi-nima yomon ekanligini yahshi anglaydilar, lekin hissiy idrok etishga qiynaladi, shuning uchun standart usullar bilan bola ma’naviy fazilatlarini shakllantirish mushkil ish. Yahshi va yomon bolalar yo‘q lekin atrofdagi voqealarga munosabat bildirish, mulohaza yuritishga o‘rgatuvchi yahshi va yomon usullar mavjud.

Katta maktabgacha yoshdagi bola ma’naviy fazilatlarini shakllantirishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muofiqdir.

birinchidan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borgan kuzatishlarimiz davomida katta guruh tarbiyalanuvchilarida o‘rnak olib shunga intiladigan ma’naviy ideal shaxs qiyofasi yaratilmagan, tarbiyalanuvchilar ongida chet el multfilmlari qahramonlari timsollari gavdalanmoqda, o‘zimizning tarixiy va afsonaviy shaxslarimiz to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanmagan. Bu esa katta maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda ma’naviy zaiflikni keltirib chiqarmoqda.

Bolalarda, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Alpomish, Farhod va Shirin dostonidagi Farhod timsollarida, qiz bolalarni To‘maris, Bibixonim, Oybarchin kabi yuksak ma’naviy qiyofaga ega qahramonlarni ma’naviy ideal sifatida ko‘rsatib ulardan o‘rnak olishga chorlash zarur. Ze’ro bu tarixiy va afsonaviy shaxslar o‘zida bir qancha ma’naviy fazilatlarni mujassam etganlar.

Ikkinchidan- shaxsiy namuna bo‘lish. Bolalarning faolligi, atrof-olamga juda qiziquvchanligi, sinchkovligi, har bir narsaga darrov ishonishi va taqlid qiluvchanligidan tarbiyachi mohirona foydalansa va ularni yo‘lga solsa, axloqiy odatlarning tez mustahkamlanib qolishiga yordam beradi. Tarbiyachining shaxsiy o‘rnagi madaniy xulq-atvor ko‘nikmalarining to‘g‘ri shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki bola uni astoydil taqlid qiladi. Rus pedagogi K.D.Ushinskiyning “Odatni singdirishda hech narsa namuna ko‘rsatishdek kuchli ta’sir etmaydi”deya takidlagan.

uchinchidan – Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola ma’naviyatini shakllantirishga turtki bo‘ladigna vositalardan biri bu tashkilotni milliy qadriyatlar asosida bezatish va jihozlash hamdir. Bunda biz avvalo maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘zbek xalqining ertak, dostonlaridagi afsonaviy qahramonlar va buyuk mutafakkur bobolarimizning suratlari, qadimiy milliy me’morchilik obidalari, vatanimizning go‘zal tabiati, milliy timsollari asosida bezash va jihozlash lozim. Afsuski hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini milliy qadriyatlarimiz asosida bezatish va jihozlashga sust e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida tarbiyalanuvchilarning ma’naviy fazilatlarini shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib “ommaviy madaniyat” kabi illatlarni kurtak yoyishiga imkon yaratib bermoqda.

to‘rtinchidan – Ta’lim jarayonlarida amaliy faoliyatga asoslanish. Kishida ma’naviy fazilatlar shakllantirilar ekan bu o‘z natijasini amaliy faoliyatda ko‘rsatadi. Yani tarbiyachi bolada ma’naviy fazilatlarni shakllantirar ekan amaliy harakatlar, ro‘lli o‘yinlar, sahna ko`rinishlari kabilardan foydalanadi.

bechinchidan – tarbiyalanuvchilarni ma`naviy merosimiz bilan yaqindan tanishtirish maqsadida, tarixiy me`moriy obidalarga, muzeylarga sayohatlar tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirish, bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish talab etiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o‘z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko‘nikmalari shakllantirish, o‘zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o‘rgatish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori. www.lex.uz

2.Гонина.О.О«Психодогия дошколного возраста» М.:2015.(info studme.org)

3.С.А.Козлов, Т.А.Куликова «Дошколнайа педагогика» Москва. «Академийа» 2001. 62 ст

4.Т.А. Серебрякова, И.А. Конева “Экспериментальный подход к изучению духовно-нравственного развития детей среднего дошкольного возраста” Возрастная и педагогическая психология. Национальный психологический журнал № 4(34) 2018.123-с

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHIDA O‘YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

Kamalova Gavhar Akbarovna

Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi,

Abdusalomova Nasiba

Maktabgacha ta’lim fakulteti 3-kurs 305-guruh talabasi

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari bolalarning psixologik xususiyatlariga asoslangan holda ta’lim-tarbiya jarayonini belgilab beradi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlaridan pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirish talab etiladi. Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlargina emas, fikrlash ko‘nikmasi, kattalar va tengdosh o‘rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo‘yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko‘nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.

Tarbiyalanuvchilarda o‘z kuchiga ishonchni orttirish, o‘z g‘oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda “Men” konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shunga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta’lim muassasasida maktab ta’limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinlar harakat qobiliyatlari va psixik jarayonlarni majmuali rivojlantirish vazifasining amalga oshirilishini maqsimal darajada ta’minlaydi, chunki ularning mazmuni harakat dasturlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ma’lumki, insonning rivojlanish jarayonida egallab boradigan harakat tajribasi turli darajadagi harakat dasturlarining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida o‘z ifodasini topadi. Demak, sensor va motor tarkibiy qismlar, ularning tizimidagi turli sathlari orasida o‘zaro ta’sir yuzaga keladiki, bu yangi harakat dasturlarining paydo bo‘lishi bilan kuzatiladi.

Pedagogika amaliyotida predmetlar bilan syujetli, harakatli va didaktik o‘yinlar farqlanadi. Bolalar rivojlanishida o‘yinlar juda katta ahamiyatga ega, o‘yinlar kichik, o‘rta va katta harakatchanlik darajasiga ega bo‘lishi mumkin. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar tabiiy o‘yinlar yordamida o‘zlashtiradilar (qadamlab yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashish). O‘yinlar bolalarni jismonan tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri. Ularni ikki yoshdan boshlab qo‘llash mumkin. Bu davrda bolalar yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish kabi hayot uchun zarur harakat ko‘nikmalarini o‘zlashtira boshlaydilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar kuch (qo‘llarda tortilish), tezkorlik (qisqa masofaga yugurish, mokisimon yugurish) va boshqa sifatlar bobida musobaqalashar ekanlar, o‘z harakat va imkoniyatlarini baholashga qodir bo‘ladilar. Jismoniy rivojlanishdan o‘yinlar bolalarda iroda, mardlik, qat’iyatlilik, chidamlilik, qat’iyatlilik kabi xislatlarni tarbiyalashga yordam beradilar. Bolalar o‘zlarining ulkan ehtiyojlarini, odatda, o‘yinlar vositasida qondirishga urinadilar. Harakatli o‘yinlar chog‘ida bolalarning harakatlari takomillashadi, tashabbuskorlik va mustaqillik, ishonch va qat’iyat kabi sifatlari rivojlanadi. Ular o‘z harakatlarini muvofiqlashtirish, hatto ayrim qoidalarga rioya qilishni (dastlab, albatta, sodda shaklda) o‘rganadilar.

Uch yoshli bolalar, odatda, juda ta’sirchan, emotsional holatda bo‘ladilar: ular serharakat bo‘ladilar, lekin bir turli harakatlardan tez charchaydilar,tanaffussiz uzoq vaqt yura (yugura) olmaydilar. Shuning uchun o‘ta faol bolalarni nazorat qilib turish: qo‘llarida osilishga, katta balandlikdan sakrashga ruxsat bermaslik, ularning e’tiborlarini birmuncha sust sur’atli o‘yinlarga tortish kerak. Asta-sekin o‘yinlarning mazmuni ham o‘zgarib boradi. Bolalar dastlab kattalarning ko‘rsatmalari bilan harakatlarni bajaradilar masalan, tovuq yoki qushchani tasvirlaydilar – «don cho‘qiydilar», «uchadilar». Uch yoshda bolalar kattalarning harakatlariga taqlid qilishdan turli «tasviriy» yoki rollar bo‘yicha bo‘ladigan o‘yinlarga o‘tadilar: ular «xola – xola» o‘ynaydilar, shifokor, sotuvchi, haydovchi, oshpaz va boshqalarni tasvirlaydilar. Bolalar o‘zlariga tanish harakatlarnigina emas, ko‘rganlarini faol ravishda takrorlaydilar. O‘yin uzoqroq davom etadi, uning syujeti xilma – xil va tushunarliroq bo‘lib boradi. Keyinroq o‘yin yanada murakkablashadi.

Har xil o‘yinchoqlar bilan o‘tkaziladigan mustaqil o‘yinlar juda foydali bo‘lib, bolalarni ikkita, uchtadan guruhlarga bo‘lish mumkin. Bolaning harakatlari odatda o‘yinchoq turlari bilan belgilanadi. Masalan, bayroqchalar, xalqalar bilan yugurish, mashinalarni yurgizish, koptoklarni dumalatish, otish, ilib olish kerak. Bolalar bunday o‘yinchoqlar bilan qiziqib shug‘ullanadilar. Biroq, mustaqil o‘yinlarda bolalar darhol faollik va tashabbuskorlikni namoyon eta olmaydilar, ularning harakatlari bir turli va cheklangan. Lekin kattalarning topshirig‘ini bajarish bilan bog‘liq o‘yinlarda bolalarning harakatlari aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi, ular harakatlarni bir necha bor takrorlab, harakat ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar, chaqqonlik, epchillikni rivojlantiradilar.

Bolalarga o‘rgatilishi kerak bo‘lgan dastlabki o‘yinlar muayyan syujet va qoidalarga ega bo‘lmaydi. Bola oddiy, qiziqarli topshiriqlarni bajaradi: o‘yinchoqni qo‘liga oladi, kattalar oldiga yugurib borib, ular qo‘lida nima yashirilganligini ko‘radi («Bayroqchani ol», «Mening yonimga yugur», «Bayroqchani top»).

O‘yinlarni o‘rgatishda muayyan izchillikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, «Meni tutib ol» o‘yini, «Seni tutib olaman» o‘yiniga qaraganda soddaroq. Birinchi holatda bola o‘zidan katta kishini tutib olishi lozim; ikkinchi o‘yinda tutilish xavfi yuzaga keladi, shuning uchun bola ko‘proq jismoniy kuch sarflashiga to‘g‘ri keladi. O‘yinlar tobora mazmunan boyroq va xilma-xilroq bo‘lib borishi, yanada murakkabroq topshiriqlarni o‘z ichiga olishi zarur. Agar bola dastlab o‘yinchoqni olish uchun o‘zi istagan surhatda yugurgan bo‘lsa, o‘yin yaxshi o‘zlashtirilib olinganidan so‘ng yugurish surhatini kattalar belgilashi kerak.

Nutq o‘yin mazmunining ijodiy rivojlantirilishiga, qoidalar va taktika bilan boyitilishiga, o‘yinlar tajribasining almashinishiga, yangi o‘yinlarning yaratilishiga yordam beradi. Nutq o‘yin jarayonida ishtirok etuvchilarning xatti-harakatlarini to‘g‘ri yo‘naltirib, o‘yinni o‘rgatishga, o‘yinga rahbarlik qilishga yordam beradi. Nutq kishiga mavhum fikrlash va umumlashmalar qilish imkonini beradi, o‘z obrazlarini yaratishga, o‘yinni ijodkorona yondashuv asosida boyitishga yordam beradi.

O‘yin faoliyati psixik jarayonlarda ixtiyoriylikning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘yinlar tufayli bolalarda ixtiyoriy diqqat hamda ixtiyoriy xotira rivojlana boshlaydi. Ongli maqsad (diqqatni jamlash, eslab qolish va yodga olish) aynan o‘yinlar chog‘ida bola harakatlarida tez va oson namoyon bo‘ladi. O‘yin sharoitlari boladan o‘yin vaziyatiga kiritilgan predmetlarda fikrni jamlash, o‘ynalayotgan harakat va syujet mazmuniga chuqur kirishni talab qiladi. Agar bola o‘yin vaziyati undan nimani talab qilayotganiga diqqatini qaratmasa, o‘yin shartlarini eslab qola olmasa, u tengdoshlari tomonidan chetlashtirilib qo‘yiladi. Muloqotga, hissiy rag‘batga bo‘lgan ehtiyoj bolani maqsadli ravishda fikrlarini jamlash va eslab qolishga majbur qiladi. O‘yin vaziyati va u bilan bog‘liq harakatlar maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishiga muntazam ravishda ta’sir ko‘rsatadi. Asta-sekin predmetlar bilan o‘yin faoliyatlari qisqarib, bola predmetlar haqida fikrlab, ular bilan aql nuqtai nazaridan faoliyat olib borishga o‘rganadi. Shunday qilib, o‘yin bolaning tasavvurlarga tayanib fikrlashni o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi.

Ayni vaqtda syujetli-harakatli o‘yinlarda bolaning o‘yin va ayniqsa, real (haqiqiy) o‘zaro munosabatlari tajribasi tafakkurning alohida xususiyati asosini tashkil etib, u tufayli boshqa kishilarning nuqtai nazari o‘rganiladi, ularning keyingi xatti harakatlarini oldindan ko‘ra bilish va shunga qarab o‘z xatti harakatlarini shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Xulosa shuki, harakatli o‘yinlar tasavvurning rivojlanishida belgilovchi ahamiyatga ega. O‘yin faoliyatida bola bir xil predmetlarni boshqalari bilan almashtirishni, o‘ziga turli rollarni olishni o‘rganadi. Bularning barchasi tasavvurning rivojlanishiga yordam beradi.

Bola shaxsining rivojlanishiga o‘yinning ko‘rsatadigan ta’siri shundan iboratki, u orqali bola kattalarning yurish turishi, o‘zaro munosabati bilan tanishadi, bular uning o‘z xatti-harakatlari uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi; bola o‘yinda muloqot olib borishning asosiy ko‘nikmalarini, tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatish uchun zarur sifatlarni o‘zlashtiradi. Bolani butunlay qamrab olgan o‘yin uni zimmasidagi rolga muvofiq qoidalarga bo‘ysunishga majburlaydi, his-tuyg‘ularning rivojlanishi hamda xatti-harakatlarni iroda orqali boshqarish qobiliyatining takomillashishiga ko‘mak beradi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Aripdjanova A. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. p.f. f. d. (PhD) disser. avtoref. – T.: -2017.

2.Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: - 2015, - 72

3.Imamova N.Z. Bo‘lajak tarbiyachilarning mustaqil ta’lim jarayonida kreativ sifatlarini rivojlantirish metodikasi. p.f. f. d. (PhD) disser – T.:2023.

4.Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ecological Culture Development of Independent Learning, Creativity, Integrative Technology and Logical Thinking. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2524-2529.

5.Imamova, N. (2022). Pedagoglarni tayyorlashda mustaqil faoliyatning axamiyati va ijodkorlikni rivojlantirish. Science and innovation, 1(B7), 676-679.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AMALIY IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Yo‘ldashev Axrorjon
Qo‘qon universiteti raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasi o‘qituvchisi
Yo‘ldasheva Muyassar
Qo‘qon universiteti Maktabgacha ta’lim magistranti

Maktabgacha yoshdagi bolalarning amaliy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, ularning hayotiy va o‘qitish jarayonida o‘zlarini rivojlantirishning katta ahamiyatga ega bo‘lgan bir qismidir. Bu jarayon, bolalarga o‘z fikrlarini ifodalash, yangi yondashuvlar izlash, muammolarni yechish va yaratishni o‘rganishga imkon beradi.

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda bir necha muhim usullardan foydalanishadi. Birinchi navbatda, bolalarga amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish juda muhimdir. Bu mashg‘ulotlar, o‘quvchi qatnashchiligini oshirish va ularning ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda yordam beradi. Masalan, rangli qog‘ozlar, qalam, rasm qilish materiallari, modellar qurish materiallari va boshqa amaliy vositalar orqali bolalar o‘zlarini ifodalash, so‘zlashish va yangi narsalar yaratishlari mumkin.

Keyin, bolalar ijodiy o‘yinlar orqali o‘zlarini rivojlantirishlari mumkin. Bu o‘yinlar, o‘quvchi qatnashchiligini oshirish, muammolarni yechish va yaratish usullarini o‘rganishga imkon beradi. Masalan, amaliy yondashuv o‘yinlari yoki ijodiy masalalar orqali bolalar o‘zlarini rivojlantirishlari mumkin.

San'at va rang-turkum sohasida o‘rganish ham bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun muhimdir. Rasm, musiqa, san'at asarlari va boshqa rang-turkum sohalari bilan tanishish, bolalarga o‘zlarini ifodalash va o‘z fikrlarini chiroyli shaklda ifoda qilish imkoniyatini beradi.

Bolalarni ijodiy fikrlash va yaratishga ilhomlantirishning yana bir usuli - tarixiy namunalar va o‘zlashtirish. Tarixiy namunalar, masalan, san’at asarlari, zamonaviy ijodiy shaxslarning ishlari yoki tabiat manzaralari, bolalarga o‘z fikrlarini ifodalash, yangi yondashuvlar izlash va o‘zlarini rivojlantirish uchun ilhomlantiradi.

Ko‘nikma yaratish ham bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda juda muhimdir. Bu ularning o‘z fikrlarini rivojlantirish, yangi yondashuvlar izlash va yaratishni o‘rganishga yordam beradi.

Bularning hammasi birgalikda, bolalar amaliy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun juda samarali usullardir. Bu usullar orqali, bolalar yangi fikrlar olish, o‘zlarini ifodalash, muammolarni yechish va yaratishni o‘rganishlari mumkin. Bu esa ularning shaxsiy rivojlantirishlariga va ijodiy potentsiallarini o‘rgangan holda, jamiyat uchun foydali va foydali fuqarolarga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Maktabgacha yoshdagi davrda amaliy ijodiy qobiliyatlarning shakllanishi bolaning umumiy rivojlanishi va kelajakdagi muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi asos yaratadi. Tadqiqotlar doimiy ravishda ijodkorlik nafaqat badiiy iste’dod, balki ta’limning barcha sohalariga foyda keltiradigan fikrlash va muammolarni hal qilish usuli ekanligini ta’kidlaydi (Eckhoff, 2019).

Nazariy asoslar

Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi yosh bolalarda ijodiy fikrlashning rivojlanishini yoritadi. U ramziy o‘yin va tajriba maktabgacha yoshdagi bolalarda yangi imkoniyatlarni tasavvur qilish va qurish qobiliyatini rivojlantirishning asosiy usullari ekanligini ta’kidlaydi (Piaget, 2020).

Bunga asoslanib, Vygotskiy ta’limning ijtimoiy kontekstini ta’kidlaydi. Uning ishi bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda kattalarning yo‘l-yo‘riqlari, tengdoshlari bilan muloqoti va boy madaniy muhitga ta’sir qilish muhimligini ko‘rsatadi (Vygotskiy, 1978). Ikkala nazariya ham ijodiy ifodani rag‘batlantirish va shakllantirishda atrof-muhitning muhim rolini ta’kidlaydi.

Rivojlanish strategiyalari

Adabiyotda doimiy ravishda ochiq faoliyat va rag‘batlantiruvchi muhit amaliy ijodkorlikni rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarga bloklar, loy va tabiiy buyumlar kabi yagona qo‘llanilishi bo‘lmagan materiallar bilan ta’minlash tajriba, innovatsiya va noyob muammolarni hal qilishga undaydi (Harris Helm & Katz, 2016). Sensorli o‘yinlar, dramatik o‘yinlar, qurilish va san'at sohasidagi tadqiqotlar bolalarga o‘zlarini ifoda etishlari va yangi echimlarni ishlab chiqishlari uchun bir nechta yo‘llarni taqdim etadi (Malaguzzi, 1998).

Bundan tashqari, ijodiy rivojlanishda texnologiyaning o‘rni e’tiborni tortmoqda. Haddan tashqari ekran vaqti tashvish tug‘dirsa-da, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar maqsadli va ehtiyotkorlik bilan foydalanilganda, ayniqsa tasviriy san'at va musiqa yaratishda ijodiy izlanishlar uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin (Dongauser va boshq., 2020).

Ijodkorlikni baholash

Maktabgacha yoshdagi bolalarda amaliy ijodkorlikni baholash yakuniy badiiy mahsulotga e’tibor berishdan tashqariga o‘tishni talab qiladi. Tadqiqotchilar sifatli kuzatuvlar, tadqiqot jarayonini hujjatlashtirish va muammoni hal qilishda bolaning o‘ziga xos yondashuvini baholash muhimligini ta’kidlaydilar (Eckhoff, 2019). Bundan tashqari, rivojlanish mezonlari yoshga mos ijodiy ifoda va bosqichlarni tushunish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishi mumkin.

Keyingi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar

Turli xil populyatsiyalar: Ijodkorlikning turli madaniy kontekstlarda qanday namoyon bo‘lishini va bolalarning turli kelib chiqishi va o‘rganish uslublarini hurmat qilgan holda uni qanday qamrab olishini o‘rganish uchun ko‘proq tadqiqotlar talab etiladi.

Texnologiyaning potentsiali: haqiqiy hayot tajribasini almashtirmasdan ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun raqamli vositalardan qanday foydalanish mumkinligini qo‘shimcha tekshirish juda muhimdir.

Xulosa

Adabiyotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda amaliy ijodkorlikni tarbiyalash ko‘p qirrali ish ekanligi ta’kidlangan. Nazariy asoslarni tushunish, mos muhitni ta’minlash, jarayon va natijalarni baholash va tegishli baholash usullarini qo‘llash orqali o‘qituvchilar va ota-onalar bolalarning butun umri davomida ijodiy fikrlovchi va o‘quvchilar bo‘lib yetishishi uchun mustahkam poydevor yaratishlari mumkin.

Metadologiya

Mutlaqo! Bu erda "Maktabgacha yoshdagi bolalarning amaliy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish" tadqiqotining meta-metodologiyasini yaratishga qanday yondashishingiz mumkinligi haqida ma’lumot. Meta-metodologiya ushbu mavzu bo‘yicha mavjud tadqiqotlarda qo‘llaniladigan turli metodologiyalarni tahlil qilish va taqqoslash uchun yuqori darajadagi qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Meta-metodologiyani ishlab chiqish bosqichlari, izimli adabiyotlarni ko‘rib chiqish:

Mavjud tadqiqotlarni aniqlab: akademik ma’lumotlar bazalari va tegishli jurnallar bo‘ylab keng qamrovli qidiruvni amalga oshirish. Erta bolalik davrida amaliy ijodkorlikka yo‘naltirilgan tadqiqotlarga e’tibor qarating, ideal holda so‘nggi 10 yil ichida.

Tanlash mezonlari: tadqiqotlarni o‘z ichiga olishi kerak bo‘lgan aniq parametrlarni belgilang (masalan, tengdoshlar tomonidan ko‘rib chiqilgan, maktabgacha yoshdagi bolalar oralig‘iga e’tibor, ishlatiladigan maxsus usullar).

Uslubiy chiqarish:

Kodlash asosi: Siz tanlagan tadqiqotlaringizda topilgan metodologiyalarni toifalarga ajratish uchun tuzilgan tizim yarating. Bunga quyidagilar kiradi:

Tadqiqot dizayni (sifat, miqdoriy, aralash usullar);

Maxsus usullar (kuzatish turlari, intervyu uslublari, eksperiment dizayni va boshqalar)

Ishtirokchilarni tanlash (hajmi, tanlash mezonlari);

Ma’lumotlarni tahlil qilish usullari (tematik tahlil, statistik tahlil va boshqalar)

Qiyosiy tahlil:

Naqshlarni aniqlang: Turli tadqiqotchilar tomonidan qo‘llaniladigan metodologiyalarda umumiylik va farqlarni qidiring.

Kuchli va zaif tomonlari: har bir yondashuvning afzalliklari va cheklovlarini amaliy ijodkorlikni shakllantirishda nimani ochib bera olmasligini tahlil qiling.

Noto‘g‘ri fikrlar: Muayyan metodologiyalar tadqiqot natijalariga potentsial noxolislik kiritishi mumkinligini ko‘rib chiqing.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar:

Bo‘shliqlar: joriy metodologiyalar etishmayotgan yoki nomuvofiq bo‘lgan sohalarni aniqlang.

Eng yaxshi amaliyotlar: Yosh bolalarda amaliy ijodkorlikni tushunish uchun eng samarali ko‘rinadigan uslubiy yondashuvlarni taklif qiling.

Innovatsion yondashuvlar: Ushbu tadqiqot mavzusi bo‘yicha yangi istiqbolni taklif qiladigan yangi yoki aralash uslubli dizaynlar mavjudligini ko‘rib chiqing.

Misol: Kuzatish usullarini tahlil qilish

Sizning meta-metodologiyangizning bo‘limi maktabgacha yoshdagi ijodkorlikni o‘rganishda qo‘llaniladigan turli kuzatish usullariga e’tibor qaratishi mumkin:

Uslubiy yondashuv	Kuchli tomonlari	Kamchiliklari
Strukturaviy kuzatuvlar (oldindan belgilangan nazorat ro‘yxatlari bilan)	Bolalarni muayyan ijodiy xatti-harakatlar bilan solishtirish uchun yaxshi	Ijodkorlikning kutilmagan ifodalarini olish uchun kamroq moslashuvchan
Tabiiy kuzatishlar	Ijodkorlikning tabiiy kontekstda qanday rivojlanishi haqida boy ma’lumotlarni taqdim eting	Ko‘p vaqt talab qilishi va kuzatuvchining nuqtai nazaridan ta’sir qilishi mumkin
Video yozuvlar	Takroriy tahlil qilish, jarayonning batafsil ko‘rinishiga ruxsat bering	Bolalar, agar yozib olinganidan xabardor bo‘lsa, kamroq o‘z-o‘zidan bo‘lishi mumkin

Metadologiyanning natijasi

Metodologiyani quyidagilar uchun qimmatli vositaga aylanadi:

Kelajak tadqiqotchilari: ijodiy rivojlanishni samarali o‘rganish uchun tadqiqot usullarini tanlash va takomillashtirishda ularga rahbarlik qiladi.

O‘qituvchilar: Bolalar ijodini baholash va tushunishning turli usullari haqida tushuncha beradi, ularga qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishda yordam beradi.

O‘zingiz: Agar siz ushbu mavzu bo‘yicha o‘zingizning asosiy tadqiqotingizni o‘tkazishga qaror qilsangiz, ushbu meta-uslubiy ish sizning uslubiy tanlovingizni bildiradi.

Iltimos, diqqat qiling: keng qamrovli meta-metodologiyani yaratish juda katta loyihadir! Siz kichikroq yo‘naltirilgan tahlildan boshlashingiz mumkin (masalan, kuzatish usullarini solishtiring yoki ijodiy ifodaning ma’lum bir turiga qaratilgan tadqiqotlarni tahlil qiling).

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak maktabgacha yosh - bu bolaning amaliy ijodkorlik qobiliyatining ajoyib o‘sish davri. Ushbu turdagi ijod an'anaviy san'atdan tashqariga chiqadi. Bu muammolarga o‘ziga xos yechim topish, o‘z fikrini turli yo‘llar bilan ifodalash va cheksiz fikrlash haqida. Yosh bolalarda bu qobiliyatlarni tarbiyalash juda muhim, chunki u maktabga tayyorgarlik ko‘rish uchun zarur bo‘lgan kognitiv ko‘nikmalarni kuchaytiradi, sog‘lom hissiy ifodani rivojlantiradi va umrbod o‘qishga bo‘lgan muhabbat uchun zamin yaratadi.

Amaliy ijodkorlikni rivojlantirish uchun bloklar, badiiy buyumlar va tabiatdan olingan buyumlar kabi ochiq materiallar bilan ta’minlang. Sensorli o‘yinni, go‘yo o‘yinni, qurilishni va

musiqa yaratishni rag‘batlantiradigan joylar yarating. Yakuniy mahsulotga emas, balki bolaning ijodiy jarayoniga e’tibor bering. Ochiq savollar bering, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmalarni cheklang va o‘zingizning ijodiy qiziqishlaringizni modellang.

Esingizda bo‘lsin, ijodkorlik chalkash bo‘lishi mumkin! Bu kutilgan joylarni o‘rnating. Bolalarga qiziqish uyg‘otadigan faoliyatni tanlash uchun vaqt va erkinlik bering. Bolaning kashf qilish va yaratishga bo‘lgan tug‘ma istagini o‘z ichiga olgan holda, biz ularda yangilik, o‘ziga ishonch va atrofdagi dunyoga quvonch bilan yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yo‘ldashev, A., & Solidjonov, D. (2022). Yangi innovatsion texnologiyalar va ularni ta’lim olish muhhitida qo‘llanishi. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1*(3), 198-204.

2.Yuldashev, A., & Xusanova, M. (2022). The role of student voices in the development of inclusive education. *Central asian journal of education and computer sciences (cajecs), 1*(6), 29-32.

3.Axrorjon, Y. L. (2023). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy texnologiylardan foydalanib samarali mashg ‘ulot o ‘tishning avfzaliklari. *Qo ‘qon universiteti xabarnomasi,* 149-150.

4.Yo‘Ldashev, A. (2022). Ta’limda suniy intellektning imkoniyatlari. *Academic research in educational sciences, 3*(11), 726-729.

5.Tirkashevna,R.Z. (2023). Landshaft dizayni bo ‘yicha ta'lim: muammolar va takliflar. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 158-164.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО И ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ВОСПИТАТЕЛЯ ДОШКОЛЬНОГО УЧЕРЕЖДЕНИЯ

М.Абдухоликова

старший преподователь Национального центра подготовки учителей новым методикам Кашкадаринской области

Масштабные реформы, осуществленные в нашей стране за годы независимости, стали важной основой укрепления национальной государственности и суверенитета, обеспечения безопасности и правопорядка, законности, прав и свобод человека, межнационального согласия и веротерпимости.

Ведь все мы знаем, что сегодня на уровень государственной политики поднялась задача повышения качества и эффективности обучения детей в дошкольном образовании

до уровня мировых стандартов, воспитания детей физически крепкими и психически зрелыми. В то же время в какой мере профессиональный и нравственный потенциал педагогов, привлекаемых к эффективной организации непрерывной методической службы, способен помочь специалисту, только что окончившему вуз и приступившему к работе по специальности? Подобные проблемы давно ждут своего решения. В связи с этим принята программа Президента Республики Узбекистан «О мерах по коренному совершенствованию системы дошкольного образования».

В частности, саморазвитие и самообразование важны в обретении профессионально-педагогической компетентности. Профессионализм и компетентность воспитателя позволяет воспитателю дошкольного учреждения развивать профессиональные компетенции, освещая современные подходы к образованию, пути повышения профессионального мастерства, содержание и сущность нововведений:

- значение образовательного процесса в развитии общества;
- этапы технологизации образовательного процесса;
- инновационный процесс;
- уметь ставить образовательные цели на основе технологического подхода к образованию;
- выбирать педагогические технологии на основе активизации деятельности детей;
- организация занятий в дошкольных образовательных учреждениях;
- игровые технологии и их использование в обучении;
- творческий подход к образовательной деятельности;
- активное формирование духовно-нравственных качеств личности, организация и осуществление образовательного процесса в соответствии с принципами педагогической технологии в соответствии с педагогической целью, обработка, обобщение и распространение информации о содержании образования;
- использование образовательных ресурсов на занятиях;
- навыки обработки, обобщения и донесения информации о содержании образования до детей;
- уметь выбирать педагогические технологии на основе организации и эффективного управления образовательным процессом, иметь навыки организации занятий на основе современных требований;
- быть в курсе существующих инновационных образовательных технологий в мире и иметь компетенции по их использованию в профессиональной деятельности.

Задачи саморазвития определяются посредством самоанализа и самооценивания. Самосовершенствование – это процесс последовательной организации практических

усилий педагога по развитию своих профессиональных и личностных качеств. Работа над собой выглядит так:

- совершенствование профессиональных ЗУН;

- достижение профессионального и творческого сотрудничества;

- развитие деловых навыков;

- овладение положительными качествами.

В качестве воспитателя-специалиста:

- совершенствование педагогического процесса на основе ясной цели, стремления;

- усвоение постоянно обновляемых педагогических знаний;

-знание передовых технологий, методов и инструментов;

- эффективное применение новейших достижений науки и техники в своей деятельности.

Таким образом, внедрение образовательных технологий, направленных на формирование профессиональной компетентности и педагогического мастерства воспитателей, в образовательный процесс развивает навыки самостоятельного мышления, исследовательского, творческого подхода к проблеме, чувства ответственности, развернутого высказывания, защиты и обоснования, побуждает их эффективно использовать научную литературу, заниматься творчеством, регулярно работать над собой. Это создание возможностей и условий для приобретения ребенком жизненных навыков и извлечения знаний из жизненного опыта, для проявления своих способностей, активности, творчества, ответственности; формирования у ребенка мотивации постоянно наращивать обучение, знания, опыт самостоятельно на протяжении всей его жизни; опора на индивидуальность и самостоятельность воспитанника в образовании позволяет преобладать интересам ребенка.

Список литературы:

1. Джураев Р.Х. Интерактивные технологии в образовании. — Т.: Сано-Стандарт, 2010. – 88 с.

2. Ишмухамедов Р.Дж. и другие. Инновационные технологии в образовании. - Т.: Истеъдод, 2008. - 180 с.

3. Актуальные вопросы внедрения новых педагогических и информационных технологий в дошкольное образование. Материалы Республиканской научно-практической конференции – Карши, Изд-во «КаршГУ», 2010. – 296 с.

4. Толипов У.К. Усмонбоева М. Основы применения педагогических технологий. — Т.: «Фан», 2006. — 262 с.

5. Шодмонова Ш.С. и другие. Педагогические технологии.- Т.: «Наука и техника», 2011. – 148 с.

KUZATISH –MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA O‘RGANISHI HAQIDA MA’LUMOT TO‘PLASHNING SAMARALI USULI

Xudaykulova Dilbarxon Zokirovna

NamDU, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim bilan amaliyot integratsiyasi har bir bolaning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni yanada samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. Pedagoglar bolalarning kompetentligini rivojlantirishga hissa qo‘shishlari, bolalarning malakasi qanday namoyon bo‘lishini, bolaning voyaga yetish sohalarida qanday rivojlanishini, shuningdek, ularning ko‘nikma va bilimlari kundalik hayotda qanday integratsiyalashgan va namoyon bo‘lishini bilishlari kerak. Buni pedagogning ta’lim-tarbiya ishlarini yanada rejalashtirish maqsadida ular allaqachon bilgan va qila olganlarini kuzatish, individual rivojlanishini tahlil qilish va aks ettirish yo‘li bilan amalga oshirish mumkin. Bunday holda pedagoglar har bir bolaning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni yanada samarali rejalashtirishlari mumkin. Kuzatishlar bolaning rivojlanishi orqada qolgan sohalarni aniqlashga ham yordam berishi mumkin, bu esa bunday bolaga ko‘proq individuallashtirilgan yordam kerakligini ko‘rsatadi. Masalan, guruhda alohida ehtiyojli bolalar bo‘lsa, pedagoglar bolaga individual rejalashtirishni qo‘llaydi. Kuzatishlarni tahlil qilish va baholash bolani rivojlantirish va o‘qitish nazariyalarini yaxshi tushunishni talab etadi. Bu nazariyalarni bilish kuzatish jarayonida ko‘rgan va eshitganlarni tahlil qilish va sharhlash (tushunish)da yordam berishi mumkin. Pedagog bolaning o‘quv jarayonida ko‘rgan narsalariga e’tiborli bo‘lishi uning o‘ziga ham ko‘p narsalarni o‘rganishga yordam beradi. Pedagog amalda ko‘rganlarini bolaning rivojlanish nazariyasi haqidagi bilimlari bilan bog‘lashi mumkin, bu amalda nima sodir bo‘layotganini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Pedagog bolaning rivojlanish nazariyalari asosida kutilayotganlar bilan bola rivojlanishida aniqlagan shaxsiy farazlarini solishtirib ko‘rishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni kuzatishda kuzatish metodi haqidagi nazariy bilimlarini amalda qo‘llay bilishi lozim.

Kuzatish metodining mohiyati shundaki, tadqiqotchi mutaxassis boshqa odamning xatti-harakatlarini, xulq-atvorini, psixikasining tashqi ko‘rinishlarini kuzatadi va xulosa chiqaradi. Ilmiy kuzatishlar jarayonida tadqiqotchi kuzatadigan obyektlarni nihoyatda diqqat bilan aniq o‘rganishi, pala-partishliklarga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Psixik holatning tashqi alomatlariga

ishongan holda ish ko‘rish har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Odamning xatti-harakatlarini to‘g‘ri talqin qilish ayniqsa muhimdir. Ba’zida o‘quvchi juda diqqat bilan tinglayotgandek ko‘rinsa ham, tamomila boshqa narsa haqida o‘ylab o‘tirgan bo‘ladi. Binobarin, bolalar holatini bilmoqchi bo‘lsangiz, yolg‘iz ko‘z yugurtirib turishning o‘zi kifoya qilmaydi, balki ularning qanchalik qunt bilan ishlayotganliklarini aniqlash maqsadida boshqa usullardan (mas. savollar tashlash) ham foydalanish mumkin. Uy va turli turmush sharoitlarida bolani kuzatish uning o‘qishga, o‘z-o‘ziga, o‘rtoqlariga, katta kishilarga munosabatini o‘rganishga va shaxsiy fazilatlari haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bunda kuzatish metodining subyektiv (o‘z-o‘zini kuzatish), obyektiv (tashqaridan kuzatish) usullaridan keng foydalaniladi. Subyektiv kuzatish, ya’ni o‘z-o‘zini kuzatish metodidan keng foydalanib kelingan bo‘lishiga qaramay, bu metodni ilmiy metod deb bo‘lmaydi. O‘z-o‘zini kuzatish metodining bir qator salbiy tomonlari bor. Birinchidan, o‘z-o‘zini kuzatish metodidan foydalanilganda har bir odam o‘z manfaati yuzasidan subyektiv xulosa chiqaradi. Ikkinchidan, subyektiv kuzatish metodidan foydalanilganda odam o‘z shaxsiga xos bo‘lgan ayrim salbiy (ya’ni irodasizlik, nomustaqillik, qo‘rqoqlik, qobiliyatsiz lik kabi) xususiyatlarni boshqa odamlarda ham xuddi shunday bo‘ladi, deb o‘ylashi mumkin. Buning natijasida odam o‘z subyektiv kuzatishlaridan noto‘g‘ri xulosa chiqaradi. Bu metoddan ayrim hollarda ehtiyotkorlik bilan tanqidiy tarzda foydalanish mumkin. Bolalar psixologiyasida subyektiv, ya’ni o‘z-o‘zini kuzatishdan foydalanilmaydi. Psixologiya fanida obyektiv kuzatish, ya’ni tashqi kuzatish metodidan ham keng foydalaniladi. Obyektiv kuzatish metodi har doim ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘lib, uning yordamida kishilarning turli psixik jarayonlari (sezgilari, idroklari, xotira va tafakkurlari) hamda shaxsiy psixologik xususiyatlari (qobiliyatlari, layoqatlari, temperamenti, xarakteri) o‘rganiladi. Tashqi kuzatish hamma vaqt ma’lum bir maqsadga qaratilgan bo‘lib aniq bir reja bilan kuzatishni taqozo etadi. Reja bilan kuzatilganda u yoki bu psixik jarayon atroflicha chuqur o‘rganiladi. Lekin shunga qaramay tashqi, ya’ni obyektiv kuzatish metodining salbiy tomonlari ham bordir. Obyektiv kuzatish metodi bilan tekshirishning asosiy xususiyati shundan iboratki, bunda biron-bir psixik jarayon tabiiy sharoitda qanday yuz bersa, xuddi shundayligicha olib tekshiriladi. Bu ma’lum noqulayliklar tug‘diradi, chunki ayni shu psixik jarayonning biron tomonida chuqurroq tabiiy sharoit yuzaga kelishini poylashga to‘g‘ri keladi. Bu esa juda ko‘p vaqt talab qiladi. Obyektiv kuzatish metodi orqali to‘plangan ma’lumotlar maxsus kundaliklarda qayd qilib boriladi va yarim yoki bir yil o‘tgach, to‘plangan ma’lumotlar atroflicha analiz qilinib, ma’lum xulosalarga kelinadi. Bolalar psixologiyasida obyektiv kuzatish metodi har doim ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘ladi. Bunda tarbiyachi va tekshiruvchi psixolog bolalarning xulq-atvorlari va xatti-harakatlarini ularning turli-tuman faoliyatlarida, tabiiy sharoitda, mavzuli tarzda kuzatadi. Obyektiv kuzatish metodi quyidagi qoidalarga asoslanib tashkil qilinishi kerak:

1. Kuzatishning aniq maqsadi va rejasi bo‘lishi kerak. Masalan: bolalar diqqatining barqarorligini yoki tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan analiz qila olish qobiliyatini kuzatish.

2. Bola shaxsining yaxlitligi prinsipiga asoslanib, ya’ni analitik-sintetik nuqtayi nazardan kuzatish.

3. Bolani jamoada va jamoa a’zosi sifatida o‘rganish.

4. Kuzatish tabiiy sharoitda olib borilar ekan, bolalar o‘zlarining kuzatilayotganini mutlaqo bilmasliklari kerak.

5. Kuzatishlardan yaxshi natijalar olish uchun, ularni turli sharoitlarda, shaxs xislatlarining turli xil namoyon bo‘lishini nazarda tutib, izchil tarzda, kun sayin o‘rganish kerak. Kuzatish metodidan foydalanilganda bolalarning turli o‘yin faoliyatlari, didaktik mashg‘ulotlar, mehnat faoliyatlarida xilma-xil psixik jarayonlarning va individual xususiyatning namoyon bo‘lishini o‘rganish mumkin. Kuzatish metodi uzluksiz yoki faoliyatni tanlab vaqti-vaqti bilan o‘tkazilishi mumkin. Bolalarni uzluksiz kuzatish metodi bilan o‘rganilganda ularning barcha fe’l-atvorlari va xatti-harakatlari kundalik faoliyatlari davomida kompleks holda o‘rganiladi. Uzluksiz kuzatish bir necha kun yoki bir necha oy davom etgandan so‘ng to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilinib, bolaga psixologik tavsifnoma tuziladi. Vaqti-vaqti bilan tanlab kuzatilganda bolaning barcha psixikasi emas, balki faqat alohida, diqqati yoki xotirasi bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlari o‘rganiladi. Bolalar psixologiyasida kuzatish metodi bolalar taraqqiyotining sermazmun qirralarini o‘rganish va undan olingan dalillarni kundaliklarga yozib borib o‘rganishdan iboratdir. Bola taraqqiyoti haqidagi birinchi kundalik XIX asrning ikkinchi yarmida Ch.Darvin tomonidan nashr etilgan. Undan so‘ng N.N.Ladigina-Kots, N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina va boshqalar bolalar psixik taraqqiyoti yuzasidan izchil ravishda yozib borgan o‘z kundaliklarini nashr etganlar.

Pedagoglar har bir bola qanday kompetensiyalarga ega ekanligini bilishi kerak, zero, bu holda ular bolalarga yangilarini o‘zlashtirishga yordam bera oladi. Bu faqat bolalar allaqachon bilgan va qila oladigan harakatlarni kuzatish hamda istiqbolda ularni qanday rivojlantirish kerakligi haqida fikrlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Shundagina ularning kompetensiyalarini oshirishni rejalashtirishni boshlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Jalilova S.X. A-74 Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2013. – 496 b.24-26-betlar

2.O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi. Kuzatish VA baholash. Metodik qo‘llanma. Toshkent – 2020. Mualliflar: Grosheva I.V., Olimov K.T., Nazarova V.A, Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A.

3.Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Qayumova M va M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”-Toshkent.: Tafakkur nashriyoti, 2019 y. – 684 b.

4.O‘zbekiston Respublikasining “ Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 16.12.2019 yildagi ORQ-595-son.Kuchga kirish sanasi:18.06.2020*Internet havolasi*: https://lex.uz/docs/-4646908

5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020 yildagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qarori;kuchga kirish sanasi: 23.12.2020 *Internet havolasi:* https://lex.uz/docs/-5179335?query=264

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING TABIAT HAQIDAGI TAFAKKURLARINI O‘STIRISHDA TARBIYACHINING ROLI

D.Xomidova

NamDU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi va bolaning ma’lum ta’lim-tarbiyaviy natijasi bilimlarni egallash, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, tafakkurni va qobiliyatlarni o‘stirish, axloqiy sifatlar, xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun yo‘llangan hamkorlikdagi faoliyat usulidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi: *ko‘rgazmali uslub* – kuzatish, rasmlarni ko‘rish, diafilm, kinofilm, ekskursiyalar; *amaliy uslub* – o‘yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar; *og‘zaki uslub* – tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o‘qish, suhbat.

Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o‘z o‘lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi. Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma’lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi.

Kuzatish orqali bolada to‘g‘ri yoza bilish, og‘zaki nutq malakalari rivojlanadi. Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o‘zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga o‘rgatish zarur. Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqa va sabablarning bog‘lanishlarini ilg‘ab olishni bolalarga o‘rgatishi kerak.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning tafakkurlari tabiat haqidagi aniq bilimlarni to‘plash orqali o‘sadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish bilangina olib borilishi mumkin. Kuzatish, ya’ni narsa va hodisalarga diqqatni maqsadga muvofiq holda jalb qilishga o‘rgatish bilan ularda ixtiyoriy diqqatni ham o‘stiramiz. Noto‘g‘ri tushunchalarni tuzatish, yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalar maktabgacha ta’lim yoshidayoq, his qilish tajribalariga asoslangan holda, tabiat haqida to‘g‘ri tushunchalarga ega bo‘lishlari juda muhimdir.

Bolalarda tabiatga qiziqishni tarbiyalash zarur, chunki u sog‘lom bo‘lmagan faoliyatlarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar qo‘ng‘iz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb, ularning qanot va oyoqlarini uzib tashlaydilar. Yoki hayvonlarni, qushlarni qiynab, natijasi nima bo‘lar ekan, deb qiziqadilar. Ularga tabiatning o‘zaro bog‘liqligini, ya’ni uning “oltin zanjir” ekanligini tushuntirish zarur. Bu orqali bolalarga ekologik talim-tarbiya berib boriladi. Tabiat bilan yaqin munosabatda bo‘lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishga ham qiziqishni o‘rgatadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni kattalarga bergan cheksiz savollari bunga misol bo‘la oladi. Bu o‘rinda tarbiyachi savollarga javob topishda bolalarning o‘zlarini jalb qilishga harakat qilishi zarur. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning turli yosh guruhlarida tarbiyachi kuzatishlarni tashkil etar ekan, uning turli xillaridan foydalanadi.

Solishtirma va uzoq muddatli kuzatishlar mazmuniga ko‘ra murakkab bo‘lganligi sababli, maktabgacha ta’lim, o‘rta, katta hamda maktabga tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Bu kuzatuvlar davomida bolalarda analiz qilish, qiyoslash, xulosalar chiqarish jarayoni takomillashadi. Kuzatishlar mazmuniga va tarbiyachining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra o‘simlik va hayvonlar, ob-havo hamda kattalarning tabiatdagi mehnati bilan ekskursiya, sayrlarda, shuningdek, tabiat burchagidagi mashg‘ulotlarda tashkil etiladi.

Tarbiyachining kuzatishni tashkil etishda obyekt tanlashi katta ahamiyatga ega. Tanlangan obyekt yaxshi holatda, bo‘lishi kerak, ya’ni o‘simlik so‘limagan, navlari o‘ralmagan, hayvon qo‘lga o‘rgatilgan, sog‘lom, bolalardan cho‘chimaydigan bo‘lishi zarur. Kuzatish tabiat burchagida bo‘lsa, obyekt yaxshi yoritilgan bo‘lishi, unga yaqinlashish qulay bo‘lishi uchun yorug‘lik yon tomondan tushib turishi lozim. Bolalar hayvonlarning harakatini kuzata turib, ovqat berishlari, silashlari, ular bilan o‘ynashlari mumkin. Bunda hayvonlar o‘zlarini erkin tutishlari, bemalol harakat qilishlari zarur. Buning uchun bolalar tabiat burchagida qulay joylashib o‘tirishlari maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyachi kuzatishni birinchi marotaba o‘tkazayotgan bo‘lsa, dastlab bolalarda hosil bo‘lgan qiziqishlarini qondirish hamda kuzatilayolgan narsa haqida birinchi taassurot hosil qilish uchun ularni kamida 1–2 daqiqa tomosha qildirib turadi. Kuzatishni tashkil etish jarayonida tarbiyachi xilma-xil usullardan bolalarning yoshlariga mos savol va topshiriqlar, narsani ushlab

ko‘rish, qiyoslash, o‘yin harakatlaridan foydalanadi. Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, kerakli ma’lumotlarni aytishi, kuzatiladigan obyektning muhim xususiyatlarini ajratishi zarur. Bolalarda kuzatishga nisbatan qiziqish uyg‘otish, kuzatilayotgan narsalarni estetik idrok etish uchun tarbiyachi she’rlardan, topishmoqlardan, katta yosh guruhlarda esa badiiy asarlarni o‘qishdan foydalanadi.

Hayvonlarni kuzatishda tarbiyachi izchillikka rioya etib, bolalarning diqqatini “Nima qilyapti?”, “Qanday yuryapti?”, “Nima yeyapti?”, “Qanday yeyapti?”, “Tanasi nima bilan qoplangan?”, “Oyoqlari qanday – uzunmi yo qisqami?”, “Ko‘zlari qanday shakl, rangi?” kabi savollar yordamida hayvonlarning xatti-harakatiga qaratadi. O‘simliklarni kuzatish ularning eng yorqin, ko‘zga tashlanadigan belgilarini belgilash va ajratib ko‘rsatishdan boshlanadi. Bu o‘simlikning guli yoki uning yorqin rangdor barglari, ba’zan poyasi (masalan, kaktus) bo‘lishi mumkin. Ana shundan so‘ng o‘simlik tana tuzilishining asosiy xususiyatlari – kattaligi, poyasi (yoki tanasi), barglari, gullari va shu kabilar tartib bilan ko‘rib chiqiladi. Shunday izchillik maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning diqqati hali yetarlicha barqaror emasligi, ko‘p jihatdan beixtiyorligi tufayli zarurdir. Biroq mashg‘ulot oxiri kuzatish jarayonida paydo bo‘lgan tasavvurlar natijasini umumlashtirish lozim.

Tarbiyachi topshiriq berishning turli usullaridan foydalanib, “Gapirib berchi, qayerdan bilding?”, “Nimasi bilan farq qiladi?” kabi savol va topshiriqlar bilan bolalarning kuzatish orqali nutqlarini o‘sishiga yordam beradi. Barcha hollarda, tarbiyachi kuzatishni tashkil etar ekan, uni aniq bir vazifadan ikkinchisiga, faktlardan aloqalarga, tasavvurlar to‘plashdan ularni qiyoslashga, so‘ngra xulosalar chiqarishga o‘tishda izchillikka rioya qilishi lozim. Shunda bolalarda mantiqiy tafakkur o‘sadi. Har bir kuzatishda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning kichik, aniq vazifasini hal etish lozim. Shuning uchun kuzatishlarning har biri ilgarigisi bilan bog‘lanib o‘tkazilishi zarur.

Tarbiyachi uzoq muddatli kuzatishni tashkil etishda, uni oldindan bir qator epizodik kuzatishlar – “bo‘laklarga” taqsimlaydi. Bunday kuzatish o‘simliklar rivojlanishidagi o‘zgarishlar aniq ko‘rinadigan vaqtda o‘tkaziladi. Tarbiyachi bolalarga o‘simlikni tomosha qilib, belgilarini qayd qilishni (birinchi barglarning chiqishini, o‘simtaning urug‘ qobig‘ini yorib chiqayotganini kuzatishni) tavsiya etadi. Yakuniy kuzatishda bolalar kuzatilayotgan o‘simlik rivojlanishining butun tasvirini tiklashi lozim. Buni kuzatishlar kundalik daftari, turlicha rasmlar, gerbariylar, katta yosh guruhlarda esa chizmali jadvallar asosida tashkil etish mumkin. Tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish. Bu kuzatishlar o‘rta yosh guruhlardan boshlab o‘tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish birgina obyektni kuzatishdan ko‘ra ancha murakkabroqdir. Bu o‘rinda tarbiyachi o‘z diqqat-e’tiborini taqsimlay bilishi, bolalardagi harakatni uyushtira olishi talab qilinadi, bolalar esa tarbiyachining barcha ko‘rsatmalariga aniq rioya qilishlari, bir-birlarini tinglashlari, boshqalarning kuzatishlarini o‘zlarining kuzatishlari bilan taqqoslashlari kerak bo‘ladi. Kuzatishning bu usuli

katta rivojlantiruvchi ahamiyatga egadir. Bolalar turli xil tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanib, o‘quv ko‘nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida ularda aniqroq tasavvurlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarqatma material sifatida o‘simliklar hamda ularning bargi, mevasi, urug‘i, shoxchalari, shuningdek, sabzavot va mevalardan keng foydalaniladi. Kuzatishda qatnashgan har bir bolaning va tarbiyachining qo‘lida tarqatma material bo‘lib, kuzatish davomida tarbiyachi bolalarga savollar berib, narsalarni tekshirishni tashkil etadi. So‘ngra olingan tasavvurlarni qiyoslab, bolalarni xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Kuzatish jarayonida tarbiyachi barcha bolalarning yuqori faolligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Djanpeisova G.E., Rasulxo’jayeva. Tabiat bilan tanishtirish. -T.; Innovatsiya Ziyo. 2020.

2.Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. -T.: Tafakkur bo’stoni, 2013.

3.Rasulxo’jaeva M.A. Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali axloqiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi. -T.: “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2020

4.Bukin A.P. Odamlar va tabiat bilan do’stlikda. -M.: Prosveshchenie, 1991.

5.Gorbunova, G.A. Maktabgacha ta’lim oluvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish -M.: 2005.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI RIVOJLANISH MARKAZLARIDAGI TA’LIMIY JARAYONLARDA MULTIMEDIA VOSITALARINI QO’LLASH

M.M.Rizayeva

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchi

O’zbekiston milliy ta’lim-tarbiya jarayonida multimedia vositalarini qo’llash tajribasi shakllanib bormoqda. Multimedia bugungi kunda axborot taqdim etishning zamonaviy shakli hisoblanadi. Taraqqiy etib borayotgan information vositalar jamiyatimizda ijtimoiy rivojlanishining asosini belgilovchi an’anaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda insonlarning qobiliyati, tashabbuskorligini ishga ijodiy yondashishi, intelektual faoliyati, mustaqil ravishda o’z bilim va ko’nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi. Katta hajmdagi ma’lumotni saqlash, uzatish, qabul qilish bilan bog’liq axborot yaratish jarayoni inson faoliyatini turli sohalarida komyuter texnologiyalarini rivojlantirishlarini ko’zda tutadi.

Inson tafakkuri shu qadar taraqqiy etib bormoqdaki, bunda texnikalashtirish va komyuterlashtirish jarayoni nafaqat ishlab chiqarishning turli sohalari, balki madaniyat va ta’lim

sohalariga ham dadil kirib bormoqda. Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta’lim jarayonini yangi bosqichga ko’tardi. Bu o’z o’rnida ta’lim mazmunini, usul va shakllarini qayta ko’rib chiqish uchun yangi bilim hamda ko’nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini tug’dirdi.

Multimedia vositalari asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarga ta’lim berish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Ta’lim jarayonida multimedia vositalarini qo’llash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda katta ahamiyatga ega. Unda beriladigan material chuqurroq o’zlashtiriladi, vaqtni tejash imkoniyatiga erishiladi, olingan ma’lumot kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarning passiv tiglovchi sifatida ishtirok etishi qisqarib, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tatbiq etiladi, ta’lim jarayoniga badiiylik kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, multimedia ta’limning emotsional-estetik ta’sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faollashtiradi. Ma’lumki, ta’lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to’rtdan bir qismini, ko’rgan materialining esa uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko’rib, ham eshitsa axborotning ellik foizini yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalarida foydalanganda esa bu ko’rsatkich 75% tashkil etadi

Bugungi kunda jamiyatimizning turli sohalarida faoliyat ko’rsatuvchi mutaxassislarning professionallik darajasi ularning kompyuter texnologiyalarini egallaganligi bilan ham belgilanadi. Bu hol zamon talabiga aylanib qoldi. Mazkur talabga javob berish uchun mutaxassislarni tayyorlash jarayonida, ya’ni ta’lim tashkilotlarida yetarli baza yaratilishi kerak. Hozirgi vaqtda ta’lim tashkilotarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik ahamiyatini belgilash kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar deganda, an’anaviy va noananaviy metodlar bilan bir qatorda ta’limni kompyuterlashtirish ham tushuniladi. Shu ma’noda tobora shakllanib borayotgan kompyuter-axborot madaniyati axborot madaniyati axborotni yetkazish va qabul qilishda yangi munosabatlarni vujudga keltiradi, fikrlashning yangi turini hosil qiladi. Bunda inson informatsion koinot bilan o’zaro muloqotga kirishadi.

Multimedia (“ko’p muhitlik” degan ma’noni bildiradi) – zamonaviy axborotlar texnologiyasi bo’lib kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko’rinishlarimatn, jadval, grafika, nutq, animatsiya, multiplikatsiya), video tasvir , musiqa yordamida axborotni yig’ish , saqlash, qayta ishlash va uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia “inson-kompyuter’’ interaktiv (dialogig) muloqotning yangi, takomillashgan pog’onasi bo’lib, unda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi. Multimedia vositalaridan xordiq chiqarish, ta’lim olish va reklama kabi sohalarda foydalaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni multimedia vositalari asosida o’qitish jarayonini tashkil etish metodikasi an’anaviy o’qitish usulidan tubdan faqrlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rivojlanish markazlaridagi ta’limiy jarayonlarda multimedia vositalarini qo’llash orqali o’tiladigan va o’zlashtiriladigan mavzularini animatsiya, grafika, multiplikatsiya ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanish markazlarida jarayondagi faolliklarini shakllantirish uchun multimedia vositalari orqali o‘qitish o‘quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko‘lamda tizimga keltirishga ko‘maklashadi: o’quv materiallari obrazlar ko’rinishida taqdim etiladi, o’quv materialini o’zlashtirish jarayonida o’z-o’zini nazorat qilib borish va tuzatish, o’rganilayotgan mavzularni namoyish etish va ularning o’zaro aloqadorligini kuzatish imkoniyati yaratiladi.

Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni o’zatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o‘zgacha o‘rin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo‘naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko‘p tarmoqli, predmetga yo‘naltirilgan multimediali o‘quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ular tarkibiga keng ma'lumotlar bazasi, ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha bilimlar bazasi, jarayon va hodisalarning media vositalarni yaratish imkoniyati bo‘lgan laboratoriya amaliyotlari kiradi.

Maktabgacha ta'limda multimedia vositalaridan foydalanishning umumiy bo‘lgan birmuncha salbiy taraflari ham mavjud. Ular jumlasiga diqqatning bo‘linishi, materiallarni yaratishdagi murakkabliklar, vaqtning ko‘proq talab etilishi, dasturiy ta'minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar, axborotlarni kompyuter ekranidan o‘qish jarayonidagi qiyinchiliklar va ko‘pgina pedagoglarning axborot texnologiyalaridan foydalana olish malakalarining yetarli darajada emasligidir.

Hozirgi kunda har bir pedagogning ish faoliyatida doimiy ravishda multimediadan foydalanish ehtiyoji mavjud. Multimedia vositalari zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarining ajralmas qismi bo’lib, hayotimizning bir bo’lagiga aylangan. Multimedia texnologiyalaridan o’quv jarayonida foydalanish ta’lim sifatini oshirishda hamda maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyaga ega bo‘lishi, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, maktab ta’limiga kompleks tayyorlashga uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov R.X., Xayitmatov O’.T., Xakimov A.F., Yulchieva G.T., Azamatov O.X., U.A.Otajanov. Axborot tizimlari. Toshkent 2013.

2. Xodiev B.Yu va boshqalar. ‘’Informatika’’ Oliy o’quv yurtlari uchun dasrlik. — Toshkent. TDIU, 2010.

3. Marasulova, D. N. (2023). BOLALARGA CHET TILINI O‘RGATISHDA MULTIMEDIALARNI O‘RINI. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(3), 83-87.

4. G’ulomov C.C., Alimov R.X. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. — Sharq. Toshkent, 2000.

ЗНАЧИМОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УМСТВЕННОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Умнова Махсума Кобулжон кизи

преподаватель кафедры Теория дошкольного образования Андижанского государственного педагогического института umnovamahsuma@gmail.com

Эгамбердиева Дилдора Тохиржон кизи

студенка направления Дошкольное образование Андижанского государственного педагогического института dilimegamberdiyeva@mail.ru

Аннотация: Данная статья рассматривает значимость современных информационных технологий для умственного развития детей дошкольного возраста. В контексте быстрого развития цифровых технологий и доступности обучающих приложений и программ, особое внимание уделяется влиянию технологий на когнитивные процессы, логическое мышление, творческие способности и социальные навыки детей. Анализируются основные принципы использования информационных технологий, такие как интерактивность, индивидуализация, игровой подход, развитие навыков, безопасность и контроль. Подчеркивается важность правильного подхода к использованию технологий в образовательных целях, с учетом потребностей и возможностей каждого ребенка. Результаты исследований показывают, что современные информационные технологии могут эффективно способствовать умственному развитию детей дошкольного возраста при соблюдении основных принципов.

Ключевые слова: *дети дошкольного возраста, информационные технологии, умственное развитие, информатизация обучения, цифровая безопасть.*

Abstract: this article examines the importance of modern information technologies for the mental development of preschool children. In the context of the rapid development of digital

technologies and the availability of educational applications and programs, special attention is paid to the impact of technology on cognitive processes, logical thinking, creativity and social skills of children. The basic principles of using information technology are analyzed, such as interactivity, individualization, a game approach, skill development, security and control. The importance of a proper approach to the use of technology for educational purposes, taking into account the needs and capabilities of each child, is emphasized. The research results show that modern information technologies can effectively contribute to the mental development of preschool children while observing the basic principles.

Keywords: *preschool children, information technology, mental development, informatization of education, digital safety.*

В условиях современного развития общества и производства невозможно себе представить мир без информационных ресурсов, не менее значимых, чем материальные, энергетические и трудовые. Современное информационное пространство требует владения детьми компьютером не только в начальной школе, но и в дошкольном детстве.

На сегодня информационные технологии значительно расширяют возможности, родителей, педагогов и специалистов в сфере раннего обучения. Возможности использования современного компьютера позволяют наиболее полно и успешно реализовать развитие способностей ребенка.

По мнению исследователей, «Возможности современного общества – это глобализация информационных технологий и инфраструктуры, практически неограниченные объемы передачи и хранения информации, все более мощные алгоритмы, реализующие те или иные автоматизируемые формы интеллектуальной деятельности человека, развитые средства визуализации и интуитивные интерфейсы, рост мобильности и сетевой культуры. Более того, что очень существенно с точки зрения такой массовой сферы человеческой деятельности, каковой является образование, средства информационно-коммуникационных технологий становятся действительно массовыми, технологически и экономически доступными».

Использование информационно-коммуникативных технологий в учебно-воспитательном процессе в дошкольном образовательном учреждении — это одна из самых новых и актуальных проблем в отечественной дошкольной педагогике. Информатизация общего образования в нашей стране идет активным ростом, внедрение в систему дошкольного образования инноваций, передовых педагогических и информационно-коммуникационных технологий является одной из целей концепции основанное постановлению Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2018 года №ПП-3955

«О мерах по совершенствованию системы управления дошкольным образованием». Компьютер активно входит в нашу жизнь, становясь необходимым и важным атрибутом не только жизнедеятельности взрослых, но и средством обучения детей. С развитием современной информационной технологии, система «человек и компьютер» быстро превратилась в проблему, которая касается всех членов общества, а не только специалистов, поэтому взаимодействие человека с компьютером должно быть обеспечено и образованием.

В отличие от обычных технических средств обучения информационно-коммуникационные технологии позволяют не только насытить ребенка большим количеством готовых, строго отобранных, соответствующим образом организованных знаний, но и развивать интеллектуальные, творческие способности, и что очень актуально в раннем детстве — умение самостоятельно приобретать новые знания.

Современные информационные технологии имеют значительное влияние на умственное развитие детей дошкольного возраста. Использование компьютеров, планшетов, смартфонов и других устройств позволяет детям развивать навыки в области математики, чтения, логики, творчества и общения.

Однако важно помнить, что использование информационных технологий должно быть сбалансированным и контролируемым. Дети дошкольного возраста нуждаются во взаимодействии с родителями и другими детьми, в играх на свежем воздухе и других видов активного времени провождения. Поэтому важно не забывать о разностороннем развитии ребенка и не допускать переизбытка времени, проведенного перед экраном. Следует помнить, что информационные технологии могут быть полезным инструментом для умственного развития детей дошкольного возраста, но их использование должно быть осознанным и умеренным.

При использовании современных информационных технологий для умственного развития детей дошкольного возраста необходимо соблюдать определенные меры безопасности. Ниже приведены основные рекомендации:

1. Выбор качественного контента: При выборе обучающих приложений и программ необходимо уделять внимание качеству контента, его соответствию возрастным особенностям и образовательным целям.

2. Контроль доступа к устройствам: обеспечьте контроль доступа детей к устройствам, на которых они используют информационные технологии. Установите пароли или другие методы защиты.

3. Ограничение времени использования: определите оптимальное время, которое ребенок может проводить за экраном. Соблюдение режима и перерывов поможет избежать переутомления.

4. Создание безопасной среды: убедитесь, что дети используют информационные технологии в безопасной среде, свободной от вредоносного контента или нежелательных воздействий.

5. Обучение правилам безопасности: объясните детям основные правила безопасности при использовании интернета и информационных технологий, такие как необходимость сообщать взрослым о неприятных ситуациях и не делиться личной информацией.

6. Участие в обучении вместе с ребенком: проводите время с ребенком, участвуя в обучающих играх или приложениях. Это позволит контролировать процесс и обсуждать важные моменты.

7. Регулярный мониторинг: важно регулярно мониторить, какие приложения и программы использует ребенок, и обсуждать с ним их содержание.

Соблюдение этих мер позволит обеспечить безопасное и эффективное использование информационных технологий для умственного развития детей дошкольного возраста.

Использование современных информационных технологий в умственном развитии детей дошкольного возраста представляет ценный инструмент для обучения и развития. Однако, для обеспечения безопасности и эффективности этого процесса необходимо соблюдать определенные меры предосторожности. Регулярный контроль со стороны родителей или педагогов, выбор качественного контента, ограничение времени экранного времени и обучение правилам безопасности играют ключевую роль в успешном использовании информационных технологий в образовательных целях. При соблюдении этих рекомендаций можно создать безопасную и поддерживающую среду для развития умственных навыков и навыков детей, способствуя их полноценному обучению и росту.

Список литературы:

1. Постановлению Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2018 года №ПП-3955 «О мерах по совершенствованию системы управления дошкольным образованием».
2. Андашева А., Соловьев С. Компьютер для дошкольников и их родителей // Самоучитель. Практ. пособ. М., 2000.
3. Умнова М. К. и др. Развитие умственных способностей у детей младшего дошкольного возраста через применение развивающих игр //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 595-600.

4. Умнова, М. (2023). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЎҚУВ МУҲИТИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИШГА ҚИЗИҚИШИДАГИ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК АСПЕКТЛАР. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(18).
5. Умнова, М. (2023). СТИМУЛИРОВАНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (7), 606-613.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA RAQS-HARAKAT TERAPIYASINI O'RNI

Mamatova Xusnora Eshquvatovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institute katta o'qtuvchisi
mamatovahusnora56@gmail.com

Hozirgi vaqtda raqs-harakat terapiyasi psixoterapiyaning mustaqil yo‘nalishi sifatida ajratilgan bo‘lib, unda raqs va harakat shaxsning hissiy va jismoniy integratsiyasini rag‘batlantiradigan jarayon sifatida ishlatiladi.

Raqs-harakat terapiyasini qo‘llash doirasi sezilarli darajada kengaydi:

- kattalar uchun turli xil dasturlar (stressga qarshi, psixoterapevtik, homilador ayollar uchun va boshqalar);
- bolalar va o‘spirinlar uchun dasturlar;
- jiddiy kasalliklarga chalingan bemorlar uchun (Parkinson kasalligi, autizm, travmadan keyingi kasalliklar, ovqatlanish buzilishi va boshqalar) uchun dasturlar.

Raqs-harakat terapiyasi maqsadlari:

1. O‘z tanangizni, uning xususiyatlari va imkoniyatlarini anglash doirasini kengaytirish.
2. O‘ziga bo‘lgan chuqur ishonchni rivojlantirish va ijobiy tana qiyofasiga ega bo‘lish orqali o‘z qadr-qimmatini oshirish.
3. Terapevtik munosabatlarning xavfsiz makonida ijtimoiy ko‘nikmalarni takomillashtirish.
4. Ichki tajribani birlashtirish — his-tuyg‘ular, fikrlar va harakat o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish.
5. Chuqur guruh tajribasini yaratish.

O‘z ishlarida raqs-harakat terapevtlari bir qator printsiplarga asoslanadi:

1. Tana va ruhiyat ajralmas va bir-biriga doimiy o‘zaro ta’sir qiladi.

2. Raqs-bu uchta darajada amalga oshiriladigan aloqa: o‘zi bilan, boshqa odamlar bilan va dunyo bilan.

3. Fikr-tuyg‘u-xulq-atvor uchligi bir butun bo‘lib, bir jihatdagi o‘zgarishlar qolgan ikkitasida o‘zgarishlarga olib keladi (yaxlitlik printsipi).

4. Tana obyekt yoki subyekt sifatida emas, balki jarayon sifatida qabul qilinadi.

5. Insonning ijodiy resurslariga hayotiylik va ijodiy energiyaning bitmas-tuganmas manbai sifatida murojaat qilish.

Raqs-harakat terapiyaning rivojlanish tarixi haqida to’xtalib otsak. Raqsning terapevtik uslubga o‘tishi ko‘pincha amerikalik raqs o‘qituvchisi va raqqosa Marion Chase harakatlari bilan bog‘liq. U o‘z sinflarida raqs texnikasining o‘ziga qaraganda raqsdagi his-tuyg‘ularni ifodalashga ko‘proq qiziqqan talabalarning shaxsiy o‘zgarishlarini payqadi. Keyinchalik Chase harakat erkinligiga ko‘proq murojaat qila boshladi va shu bilan raqs taqdim etgan psixologik afzalliklarni kashf etdi. Dastlab u bolalar va o‘spirinlar bilan o‘z studiyasida va maxsus maktablarda ishlagan. Keyin uning ishi psixologlar va psixiatrlarni hayratda qoldirdi va ular unga bemorlarni yuborishni boshladilar.

1946-yilda Cheyz Vashington shahridagi Elizabet kasalxonasida yotqizilgan ruhiy kasallar bilan o‘z usullarini sinab ko‘rishga taklif qilindi. Ushbu sana raqs-harakat terapiyasining tug‘ilgan sanasi hisoblanadi. Chase regressiv, nutqsiz va psixotik bemorlar bilan ishlagan. Umidsiz deb hisoblangan bemorlar raqs terapiyasi mashg‘ulotlarida guruh o‘zaro ta’siriga qo‘shilishlari va o‘zlarining his-tuyg‘ularini ifoda etishni o‘rganishlari mumkin edi, bu esa ularga psixoterapiyaning an’anaviy og‘zaki turlariga o‘tishga imkon berdi. Buning yordamida M.Cheyzning ishlari milliy e’tirofga sazovor bo‘ldi.

Uning g‘oyalarini yanada rivojlantirish Meri Uaytxaus, Blanche Evan, Trudi Shup tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, ular raqsni “harbiy nevroz” bilan kasallangan odamlarni, shuningdek oddiy va nevrotik mijozlarni davolash usuli sifatida qo‘llashni boshladilar. Raqs-harakat terapiya nazariyasining boshlanishi va birinchi o‘quv dasturlari faqat 1950-yillarning oxirlarida paydo bo‘la boshladi, chunki birinchi raqs terapevtlarining aksariyati professional raqqoslar edi.

1966-yilda Amerika raqs psixoterapiyasi assotsiatsiyasi (ADTA) tashkil etildi va bu sana raqs-harakat terapiya rivojlanishining mustaqil fan sifatida boshlanishi hisoblanadi.

Rossiyada raqs-harakat terapiyasi 1990-yillarda paydo bo‘lgan va dastlab kattalar uchun shaxsiy o‘sish guruhlari va bolalar uchun ijodiy rivojlanish turi sifatida rivojlangan. 1995-yil oxirida Moskvada Amerika raqs terapiyasi assotsiatsiyasi (ADTA), Evropa TDT assotsiatsiyasi va xalqaro ijodiy ifoda terapiyasi assotsiatsiyasi (IEATA) tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanadigan raqs-harakat terapiyasi assotsiatsiyasi tashkil topdi.

Raqs-harakat terapiyasida uchta yondashuv guruhini ajratish mumkin:

1. Klinik raqs terapiyasi — bu dori-darmonlar orqali davolash bilan bir qatorda klinikalarda qo‘llaniladigan va bir necha yil davom etishi mumkin bo‘lgan yordamchi terapiya turi. Bu, ayniqsa, nutq buzilishi va shaxslararo aloqa muammolari bo‘lgan bemorlar uchun samaralidir. Ushbu shaklda raqs terapiyasi 1940-yillardan beri mavjud.

2. Psixologik muammolari bo‘lgan odamlar uchun raqs terapiyasi (raqs psixoterapiyasi) — mijozlarning aniq so‘rovlarini hal qilishga qaratilgan. Ish ham, guruh ham individual shakllarda bo‘lishi mumkin va barqaror natijaga erishish uchun biroz vaqt talab etiladi. Ushbu yondashuvda eng ko‘p ishlatiladigan narsa ongning psixodinamik modeli (psixoanaliz) yoki analitik psixologiya yondashuvidir.

3. Shaxsiy rivojlanish maqsadida amalga oshiriladigan raqs-harakat terapiyasi — bu muammolardan aziyat chekmaydigan, lekin hayotida ko‘proq narsani xohlaydigan odamlar uchun mashg‘ulotlar. Bunday holda, raqs o‘zini va uning o‘ziga xos individual fazilatlarini tan olish usuliga aylanadi. Bu tananing yashirin imkoniyatlarini tushunishga, o‘z-o‘zini anglashni kengaytirishga va o‘zini ifoda etish va boshqa odamlar bilan muloqot qilishning yangi usullarini topishga yordam beradi.

Bunday guruhlarga bo‘linish xohishga ko‘ra amalga oshiriladi, ammo bu raqs terapiyaning ta’lim talablarini va texnikani qo‘llashdagi haqiqiy cheklovlarni aks ettiradi.

Raqs-harakat terapiya har doim tajribaning bevosita harakatiga asoslanadi, shuning uchun raqs psixoterapiyasi usullaridan psixoterapiyaning turli sohalarida foydalanish mumkin: hissiy javob terapiyasi; psixoanalitik (chuqur) terapiya; ssenariy va rol terapiyasi; ekzistensial-gumanistik terapiya; transpersonal terapiya.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kozlov V. V., Xirshon A. E., Veremeenko N. I. integral raqs va motor terapiyasi. — Sankt-Peterburg: Nutq, 2010 yil. — ISBN 5-9268-0479-5. (Oldingi nashrlar ham mavjud.)

2. Raqs terapiyasi. Nazariya, metodologiya, amaliyot. — Sankt-Peterburg: Nutq, 2004.

3. Stark A, Xendrix K. raqs va harakat terapiyasi. Ingliz tilidan. — Yaroslavl, 1994 yil.

4. Rudestam K. guruh psixoterapiyasi. — Sankt-Peterburg.: Piter, 2000 yil.

5. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

6. Xodorov J. Raqs terapiyasi va chuqur psixologiya: harakatlanuvchi tasavvur /ingliz tilidan. — M.," Kogito-Markaz", 2009 yil. — 221 b.— ISBN 978-5-89353-261-6.

7. Танцевально-двигательная терапия // Московский Психологический журнал. —

2004. — № 8 (ноябр).

8. Журнал практического психолога. Специальный выпуск: Танцеваьно-двигательная терапия. — Москва, 2005. — № 3.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLARNI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AKMEOLOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

G.Usmonova

Pedagoglarni yangi innovtsiylarga o‘rgatish milliy markazi, pedagogikava psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Barchamizga ma’lumki maktabgacha pedagogikasi bola shaxsining rivojlanishi, maktabgacha yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maqsadi shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Maktabgacha yosh bolaning shaxs, individ, faoliyat sub’ekti sifatida shakllanishida muxim ijobiy xolatlarni belgilash mumkin. Ta’lim orqali har biri bolaga tabiat, jamiyat, inson o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik haqidagi bilimlar beriladi, ushbu bilimlarni amaliyotda butun umri davomida qo‘llashi ko‘nikma va malakasi shakllantiriladi.

Tarbiya orqali bolalarda o‘z-o‘ziga, jamiyatga, o‘z yrtiga, mehnatga, boshqa insonlarga bo‘lgan munosabatlari, milliy g‘oya va mafkura, iftixor tuyg‘ulari, komil inson sifati shakllantirish jarayonida maktab ta’limiga tayyorlanadi.

Maktabgacha ta’limda shaxsning shakllanishi, mentaliteti, intellekti va tafakkurini rivojlantirish bilan dolzarb ta’lim sifati muammosini echish mumkin. Bugungi kunda psixologiya, pedagogikada shaxsni rivojlantirish va tarbiya tizimini takomillashtirish, ta’lim jarayonini rivojlantirish shakli, yangi samarali o‘qitish metodlari, shakl, vositalari haqida ko‘p fikr yuritilmoqda. Bu o‘rinda pedagoglar akmeologiyaga-insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o‘rganadigan fan tarmog‘i sifatida e’tibor qaratadi. Akmeologiya atamasi, evrilogiya, ergonologiya refleksologiyar kabi sohalar ilmiy-amaliy bilimlarga ega bo‘lib, o‘tgan asrning 20-yillarida paydo bo‘lgan. Akmeizm sifatida H. Gumilev, S.Gorodetskiy, A. Axmatova va boshqalarning asarlarida XX asr boshlarida ijtimoiy-madaniy akmeologiya paydo bo‘lgan edi. Ijodiy faoliyat yosh davrlari qonuniyatlari tomonidan va F. Galton va V. Osvaldolarning turli psixobiologik omillar mahsuldorligi bilan bog‘liqligini o‘rganishga oid tabiiy-ilmiy tadqiqotlari akmeologiyaning kelib chiqishga olib kelgan.

B.G.Ananyevning fikricha, akmeologiyaning ilmiy asosi, insonning rivojlanishida individ, shaxs, individuallik va sub’ektning hayot faoliyati haqidagi fanlar integratsiyasidan tashkil

topgan. Akmeologiyada inson kasbiy faoliyat va o‘z hayotini o‘zi belgilash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va ijodkorlik qobiliyati, inson hayot faoliyatida subyekt sifatida qarab chiqiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z –o‘zini boshqarish asosida shaxsning yangi muvaffaqiyatlarga erishish extiyoji, takomillashish, faol hayot tarafdori bo‘lish, ezgu fikrlash o‘z imkoniyatlariga ishonish, hayot mazmunini tushunish yotadi. Shaxsning rivojlanishi uning ona bag‘ri, maktabgacha bolalik davri, boshlang‘ich sinf, o‘smirlik va o‘spirinlik davridagi shart-sharoitlar bilan uzviy bog‘liq. Ushbu davrlarda uning salomatligi qanday bolishi, nimalar u uchun qadrli bo‘lishi, uning xususiy baholashi, insonlarga va mehnatga munosabati, hatti-harakatlari va boshqalar uning kelajakda qanday sifatdagi kasb egasi bo‘lishini aniqlab boradi. Masalan : maktabgacha yosh davrida bola kommunikativ kompetensiyaga egallab boradi. Ya’ni atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishini taqozo etadi. Muloqot qilish va yuzaga kelgan o‘yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Bu jarayonga nutqni ri rivojlanishi ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir. MTT pedagog va-tarbiyachilari har bir bola uchun mazmunga boy va rag‘batlantiruvchi rivojlantiruvchi ta’limiy muhit uchun etarli shart-sharoit shakllanadi. Natijada bolalarda o‘zlariga ishonch, boshqalar bilan muloqotga kirishish, dunyo haqidagi tushunchalari shakllanib boradi. Demak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi bolalar kattalar va boshqa bolalar tushunishlari uchun o‘zlarini namoyon etish imkonin yaratadiadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ijtimoiy-pedagogik tizimda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining yaxlit va munosib rivojlanioshini ta’minlash maqsadida , maktabgacha ta’lim tashkilotlarida akmeologik yondashuvni qo‘llash natijasida ta’lim sifati ortishiga erishiladi. Maktabgacha ta’lim akmeologiyasi bola shaxsini yaxlit rivojlantiruvchisi hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning yaxlit rivojlanishi integral sifat ko‘rsatkichi sifatida maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarning ontogenez va sotsiogenez jarayonlari o‘zaro ta’sir shart-sharoitlari ijtimoiy rivojlanishiga olib keladi.

Maktabga tayyorgarlik davridagi bolalarning borliq bilan munosabati va yaxlit fenomen sifatida haqqoniy aloqalarini o‘rganish; Har bir bolaning hayotiy orzulari bolalarcha cho‘qqilariga erishishini o‘ylashda, shaxsning o‘zini shaxsiy sifatlarini takomillaashtirishga, muvaffaqiyatga , madaniy rivojlanishga va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonidagi sifatlar, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z- o‘z ini anglash asosida ma’naviy- axloqiy sifatlarga erishishga intilishi; Yaratuvchilik, ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda, qiziqarli va mahsuldor, har bir o‘quvchining qobiliyatni ochib beruvchi va uning muvaffaqiyatlarini ta’minlovchi , ijtimoiy tan olinish, o‘z ini katta bo‘layotganini , maktabga borishini xis qilish, ijodiy guruxlarda kommunikativ hamkorlik qila olishni tashkil etish; Akmeologik yondashuvdan foydalanish:-ta’lim oluvchilarning sog‘lig‘ini mustaxkamlash va saqlash, kasb-xunarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ta’lim-tarbiya

masalalarini muvaffaqiyatli xal etish;-qayta fikrlash, ijodiy tafakkur qilish, ta’lim ichki ehtiyojga aylanishi, barcha sub’ektlarda ta’lim tizimlashtirilgan xolda tashkil etilishita’lim sifatining oshish imkonini beradi.Maktabgacha ta’lim tashkilotida akmeologik yondashuvni samarali amalga oshirish, ta’lim jarayoni ishtirokchilaridan barcha jarayonlarni o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqishni talab etadi. Shuningdek muammolarni ko‘rish va o‘z vaqtida echishni; doimiy o‘z-o‘zini takomillashtirishga imkon beradi. Akmeologik rejimda rivojlanayotgan maktabgacha ta’lim tashkiloti bolaning ma’naviy-ahloqiy barkamolligini ta’minlash va ularning maktabga tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Zamonaviy maktabgacha ta’lim muhiti bola yuqori cho‘qqilarga erishishi, o’z-o‘zini takomillashtirishi, rivojlantirishi mumkin bo‘lgan akmeologik muhitni shakllantirish bilan to‘ldirilishi mumkin. Akmeologik yondoshuvdan foydalanishning afzalligi mavjud xar qanday qiyinchilik yoki muammolarda bolaning o‘zi mustaqil ravishda chiqib keta olsin. Unda ijodkor lik shunday rivojlansinki xatto o‘zi mustaqil ravishda maqsadiga erishsin, yani san’at markazida bola applikatsiyadan gul yasayotgan bo‘lsa rangini o‘zi mustaqil tanlasin va qog‘oz satxini to‘g‘ri mo‘ljallaga olib, elim yordamida yopishtirsin. Gulning novdasi, barglari va gulg‘unchasini elimlashdagi muammolarni bola egallagan bilim , ko‘nikma va malakalari asosida xal etadi.Maktabgacha ta’lim jarayonida akmeologik yondoshuvdan foydalanish bilan birgalikda pedagogik jamoada ijodkorlik va muvaffaqiyatga erishish motivida akmeologik muhitni shakllantirish uatida ish olib borilishi lozim. Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotida psixolog metodist tarbiyachilar tomonidan ijodiy ishlar olib borilishi natijalari director huzuridagi yig‘ilishlarda ko‘rib chiqilib, ijobiy natijaga erishgan faol tarbiyachi -pedagoglar munosib taqdirlanishi ko‘zda tutilgan. Bunda pedagog- tarbiyachilarning o‘z-o‘zini boshqarish, liderlik kabi qobiliyatlari shakllantirib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.А.А. Бодалев О смысле жизни человека, его акме и других образованиях и их взаимовязи. \\Акмеология, № 1,2

2/«Ilk kadam» davlat o‘quv dasturi. 2022 y

3.А.А.Бодалев Акмеология и современные проблемы воспитания. Акмеология . 2005 №

4.Gaynazarova, G. A. (2023). Characteristics Of Child Violence And Its Negative 5.Consequences. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *8*(1), 32-35.

6.Gaynazarova, G. A. (2023). Causes and Pathology of lefthandedness. *Eurasian Scientific Herald*, *20*, 49-51.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUTQ NUQSONLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHDA TURLI METODLARDAN FOYDALANISH

Urunova Dilafro‘z Muzafarovna,

BuxDPI o‘qituvchisi dilafruzurunova7@gmail.com

Qoirova Kamola,

BuxDPI talabasi kamolaqoirova2@gmail.com

Nutq — inson uchun zarur, doimiy muloqot vositasi bo‘lib hisoblanadi. Nutq insonda ilk yoshdan boshlab shakllanadi. Shakllangan nutq vositasida bola atrofdagilar, kattalar bilan turli munosabatlarni o‘rnatadi, muloqot qiladi.

Bola hayotining birinchi yili eng muhim davr bo‘lib, bu davrda bola nutqida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu bolaning umumiy ya’ni ruhiy, fiziologik rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Bola tayyor nutq apparati bilan tug‘iladi, lekin undagi nutqni shakllantirish kerak. Bunga bir necha sabablarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

- yangi tug‘ilgan bola o‘zining nutq apparatidan foydalanish ko‘nikmasiga ega emas, bu ko‘nikmani unda hosil qildirish kerak;

- bolada nutq uchun mavzu yo‘q, chunki unda hali atrof-olam haqida tasavvur yo‘q, bu mavzuni bola to‘plashi kerak;

- nutq tafakkur bilan bog‘liq bo‘lib, shuning uchun bolaning tafakkurini rivojlantirish kerak.

Ammo atrofimizda shunday bolalar uchraydiki, ularda tabiiy ravishda nutq shakllanmaydi, bunga sabab qilib nutqning rivojlanishida organik jihatdan buzilishlarni olishimiz mumkin. Bola homiladorlik va tug‘ulish jarayonida turli jarohatlar olishi, ijtimoiy-maishiy sharoitning yaxshi emasligi natijasida nutq to‘g‘ri shakllanmaydi**.** Nutq nuqsonining ko'pgina turlari markaziy nerv tizimining organik shikastlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u logoped va nevrolog yoki psixonevrologning hamkorlikda ishlashi natijasida aniqlanishi mumkin. Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farqlanadi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini o‘rgansak, anomal rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishimiz lozim. Bu jarayonda bolada tovush tomonidan, nutqning sur’at, ritm, ohang tomonidan, lug‘at ya’ni so‘z boyligi tomonidan va ovoz tomonidan buzilishlar kuzatiladi.

Nutqning tovush tomonidan buzilishlaridan biri bu dislaliya deb nomlanib, bu boshqa nuqsonlarga qaraganda ko‘proq uchraydi. Bunda turli tovushlarni bolalar noto‘g‘ri talaffuz qilishadi. Masalan, R tovushi o‘rnida L, K tovushi o‘rnida T, Sh tovushi o‘rnida S tovushi tarzida talaffuz qilishadi. Bunga sabab qilib nutqning organik buzilishlari, ya’ni nutq organlarining qaysidir qismida kamchiliklarni olishimiz mumkin. Ikkinchi turi funksional dislaliyada esa nutq organlarining artikulatsion qismida hech qanday organik buzilishlar, kamchiliklar kuzatilmaydi, balki bu pedagogik qarovsizlik, bolaga nisbatan bee‘tiborlik, bola tilida gapirish natijasida yuzaga keladi. Biz albatta bu jarayonda bola bilan ishlashimiz, nutqidagi nuqsonlarini tuzatishimiz, unga pedagogik yordam ko‘rsatishimiz lozim.

Nutq nuqsonini korreksiyalashda artikulyatsion mashqlar, nafas mashqlari, mayda qo‘l motorikasi ustida ishlash yordam beradi. Biz buni doimiy ravishdagidek olib bormasdan, balki o‘yin tarzida, turli metodlar ko‘rinishida olib borsak bu bola uchun foydali, qiziqarli va manfaatli bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni nutqini rivojlantiruvchi noan’anaviy usullardan foydalanish ularda mashg‘ulotlarga qiziqishni yanada orttirish uchun har xil integratsiyalashgan ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg‘ulotlarni tashkil etishda doimo bolalarning tafakkur xususiyatini hisobga olib ta’lim jarayonini bola yosh imkoniyatlariga mos bo‘lishi metodlarni tanlash bilan bog‘liq bo‘lishi, bolalarga yondashuvda logoped, defektolog, psixolog, tarbiyachi, ota–onalar o‘zaro hamkorlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan, nafas mashqlarini doimiy usuldan foydalangan holda emas balki o‘yin tarzida olib borsak bo‘ladi. Bolalarga aytamiz. Qani bolajonlar tasavvur qilamiz, qo‘limizda tort bor. Tug‘ulgan kun tortini puflab o‘chiramiz. Bolalar birgalikda tortni puflashadi. Yoki bolajonlarga qo‘limizda gul borligini tasavvur qilamiz va uni hidlaymiz deb aytamiz. Bolajonlar gulni hidlaydilar. Natijada nafas mashqini bajarib olamiz.

Bola uchun zerikarli va tushunarsiz mashqlarni qiziqarli o‘yinlarga va tilning turli sarguzashtlari haqidagi ertaklarga aylantirib, ularga turli mazmundagi she’r va topishmoqlar qo‘shib, mashg‘ulotlarni bola uchun osonroq va qiziqarli qilishimiz mumkin. Uning tili o‘z uyida (og‘iz) yashaydi, u uyning ikkita mustahkam darvozalari (tishlar, lablar) bor. Tilchamiz uychasida uxlaydi, darvozadan tashqariga qaraydi, sayrga chiqadi, ovqatlanadi, fudbol o‘ynaydi — shunga o‘xshash vaziyatlarda tilimizni mashqni bajarishini hayajonli o‘yin va tilchamiz bilan butun bir hikoya tarzida tasavvur qilishimiz mumkin.

Biz tovushlarni talaffuz qilishda artikulyatsion apparatlarning holatini, harakatini, nafas olish haqida o‘ylamasdan bajaramiz. To‘g‘ri talaffuzni endigina o‘rganayotgan bola uchun bu harakatlarning barchasi juda qiyin va tushunarsiz bo‘lib tuyuladi. Shunda bolaga tarbiyachi, ota-ona va logopedlar yordam berishi lozim. Zerikarli va odatdagi mashqlarni qiziqarli o‘yinlarga va tilning sarguzashtlari haqidagi ertaklarga aylantirib, ularga turli she’rlar va topishmoqlar qo‘shib,

mashqlarni va vazifalarni bola uchun osonroq va qiziqarli qilishimiz mumkin. Uning tili o‘z uyida (og‘iz) yashaydi, u erda baland to‘siq (tishlar) orqasida yashiringanini tasavvur qildiramiz. U uxlashga yotadi, panjaradan tashqariga qaraydi, sayoxatga chiqadi, begemotga va otchaga aylanadi, shirin murabbo eydi. Shu kabi ertaklar mashqni hayajonli o‘yin va uning hayoti haqidagi butun bir hikoya sifatida tasavvur qilishimiz mumkin. Shular orqali biz bolajonlar bilan artikulyatsion mashqlarni bajarib olamiz

Nutq nuqsonlarini bartaraf etishda mayda qo‘l motorikasi ustida ishlash ham yordam beradi. Bunda ham pedagoglar kreativ qobiliyatlaridan foydalangan holda turli metodlardan foydalanishlari mumkin. Masalan, bolaga turli don mahsulotlarini aralash holatga berib, ularni ajratishni, turli taqinchoq va rangli tugmalarni ipga terish orqali mayda qo‘l motorikasi mashqlarini bajarishimiz mumkin.

Nutq nuqsonini bartaraf etishda bu umumiy mashqlar bo‘lib biz dislaliya nutq nuqsonida asosiy diqqatimizni to‘g‘ri tovush talaffuziga qaratishimiz lozim.

To‘g‘ri tovush talaffuzini amalga oshirish uchun 3 bosqichda ish olib boriladi:

- tovushlar talaffuzini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ustida ish olib boriladi va bu tovushlar postanovkasideb ataladi.

- tovushlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgandan so‘ng oson, uni mustahkamlash - avtomatizatsiyasi ustida ish olib boriladi.

- yakunida esa bir-biri bilan almashtiriladigan tovushlarni bir-biridan farqlashga, ya’ni tovushlar differensiyasiamalga oshiriladi.

Bularni amalga oshirishda birinchi tovushning o‘zi, keyin uni bo‘g‘inlarda, so‘zlarda, gaplarda, turli maqol, hikoya va she’rlarda mustahkamlash ustida ish olib boramiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nutq inson uchun juda zarur bo‘lib, nutqsiz inson mukammal bo‘lib shakllana olmaydi. Nutqida nuqsoni mavjud bolalar bilan yoshligidanoq ishlashimiz, nuqsonni bartaraf etish uchun uning nuqsonidan kelib chiqqan holda korreksion ishlar tizimini tuzib, bola bilan ishlashga, nuqsonini bartaraf etish uchun tayyor turishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Филичёва Т.Б.и др. Основы логопедии. —М.: Просвещение, 1989.

2. Shomaxmudova R., Muminova L.R. Bog‘cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish. — T.: O‘qituvchi, 1981.

3. Law, J., Garrett, Z., & Nye, C. (2004). The efficacy of treatment for children with developmental speech and language delay/disorder: A meta-analysis. Journal of Speech, Language, and Hearing Research, 47(4), 924-943.

4. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "Kasbiy faoliyatda zamonaviy logopedni kompetentligini rivojlantirish yo'llari." International Conference on Developments in EducationHosted from Delhi, India. SciencewebNational database of scientific research of Uzbekistan, 2023.

5. Xonbabayeva, Madinabonu. "NUTQ BUZILISHI BO'LGAN BOLALAR UCHUN IKKI TILLI TA'LIM ASOSLARI." Наука и инновация 1.4 (2023): 231-234.

6. QIZI, XONBABAEVA MADINABONU ASQARJON. "Logopedik mashg'ulotlarni olib borishda sujok terapyaning o'rni". Xalqaro ko'p tarmoqli konferentsiya Angliyaning Manchester shahrida bo'lib o'tdi . Scienceweb-O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar milliy ma’lumotlar bazasi, 2023.

7. Dilshodjon o’g’li, Khonbabaev Shoxruxbek. "THE SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY OF PREPARING FUTURE PEDAGOGS-PSYCHOLOGISTS FOR SPIRITUAL, SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1525-1529.

8. Ayupova M.Y. Logopediya. — TOSHKENT, 2007.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA UZLUKSIZ METODIK XIZMAT KO‘RSATISH MASALALARI

D.X. Qarshibaeva

Toshkent shahar, Uchtepa tumani 450-sonli DMTT direktori
dilfuzakarsiboyeva@gmail.com

Zamonaviy maktabgacha ta’limda jamiyat talablari amalga oshirilishi lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’limda ochiqlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bolalarni qiziqtira olish, ularni maktab ta’limiga tayyorlash tarbiyachi-pedagoglar oldiga quyilgan ulkan ma’suliyat sanaladi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuqori darajadagi metodik xizmatni yo‘lga qo‘yish dolzarb hisoblanib, tarbiyachi-pedagoglarning ijodkorligini oshirish, samarali shakl va usullarni qo‘llash zarur. Ma’lumki ta’lim-tarbiyaning samarali kechishi bevosita tarbiyachi-pedagoglarni mahorat bilan ishlashi, raxbariyat tomonidan ijod qilish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, zamonaviy usul va shakllarga bog‘liq. Shuningdek, har bir pedagog-tarbiyachilarni faoliyatini baholash natijalari xam rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sifatli ta’limning muhim omili tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetensiyasidir. Pedagoglar tarbiyalanuvchilarning sog‘ligi va jismoniy rivojlantirishni ta’minlaydigan turli xil intellektual konkurs va tadbirlar o‘tkazishi, mustaqil faoliyat turlarini tashkil etishlari kerak. Tarbiyachilar ota-onalar, pedagoglar jamoasi bilan xamkorlikda ishlash,

tarbiyaviy-ta’limiy jarayonlarni metodik jihatdan ta’minlash, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarini qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Eng muhimi MTT pedagoglari uzluksiz ravishda kasbiy jihatdan o‘zini rivojlantirib borishi kerak. Yuqorida keltirilgan barcha vazifalar metodik xizmatni tashkil etilishiga bog‘liq. Uslubiy ishlarning muhim aspekti boshqaruv sanalib, ta’lim jarayoni sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu faoliyatni tashkil etish bevosita metodistning shaxsiy sifatlari, kompetentligiga bog‘liq bo‘lib, o‘z-o‘ziga ta’lim berish orqali rivojlanadi va ijodiy tomondan o‘zini namoyon etadi.

MTT metodisti odamlarga xushmuomalalik, sezgirlik va e’tiborlilikni tarbiyalashi kerak. Bu fazilatlarning barchasi uning xodimlar orasidagi mavqeini mustahkamlaydi, uni obro‘li inson qiladi. Bularning barchasi jamoadagi ishning uyg‘un va muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi. Zamonaviy o‘qituvchining yuqori malakasini hisobga olgan holda, rahbar o‘z ishini chuqur tahlil qilish va darslarni o‘tkazish va boshqa rejim momentlari bo‘yicha buyruqlar bilan cheklanmasligi kerak. Uning vazifasi tarbiyachi ishining mazmunini chuqur o‘rganish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, kamchiliklarni tuzatishga yordam berish, dastur mazmunini to‘g‘ri tushunish, o‘quv jarayonining metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirishdir. Bu erda individual yondashuv, har bir insonni tushunish qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Tashkiliy qobiliyat menejer, ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasasi uchun zaruriy sifatdir.

Rahbar yillik va kalendar rejalarni ishlab chiqadi; jamoa a’zolari o‘rtasidagi mas’uliyatni belgilaydi; xodimlar mehnatini rag‘batlantirishning yanada samarali choralarini qo‘llaydi; pedagoglar ishini nazorat qiladi va tahlil qiladi, hujjatlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida rasmiylashtiradi.

Tadqiqot doirasida MTTda metodik ishlarni tashkil etish bo‘yicha qator rus olimlarining izlanishlari tahlil etildi. Xususan YuV.Atemaskina, L.G.Bogosloves, K.Yu.Belaya, N.A.Vinogradova, L.M.Volobueva, V.P.Dubrova, Ye.P.Milashevich va boshqalar.

A.I.Vasileva fikricha “maktabgacha ta’limda metodik ishlar ijodiy va kompleks jarayon bo‘lib, tarbiyachilarni bolalarga ta’lim-tarbiya berishda foydalandigan usul va uslublarini amalga oshirishga amaliy jihatdan tayyorlaydi” [5,27c]. Metodist tomonidan pedagog-tarbiyachilarga o‘quv seminarlari, mahorat darslari tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Natijada ularda kasbiy tajriba ortadi.

L.I.Falyushina esa, metodik xizmatga quyidagicha ta’rif beradi: “ta’limiy tarbiyaviy ishlarni sifatli boshqarishning pedagogik tizimi bo‘lib, o‘qitish va o‘rgatish, bolalarni har tomonlama rivojlantirish muhim komponentidir”.

L.M.Volobuevaning ta’kidlashicha “metodik ishlar bu- tarbiyachilarni uzluksiz ta’lim olish shakli bo‘lib, bilim, ko‘nikma va malakalarni faollashtirishga va chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan jarayon”[8]. Maktabgacha pedagogika fanida asoslangan g‘oyalar bo‘yicha ilg‘or tajribalarni amalga oshirish, har bir pedagogning kasbiy mahoratini oshirishga ko‘mak berish,

jamoada yagona maqsadni shakllantirish, ijodiy potensialni rivojlantirish, MTTda o‘quv-tarbiyaviy ishlarni sifatli tashkil etishni ko‘zda tutadi.

K.Yu.Belaya quyidagicha tasniflaydi, ”metodik faoliyat-fanda erishgan yutuqlarga asoslangan yaxlit o‘zaro bir-biriga bog‘langan pedagogik tajriba, tarbiyachi-pedagoglarni kasbiy mahorati, ijodkorligini oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning sifati va natijaviyligidir”[3].

Metodik xizmat maktabgacha ta’lim tashkilotidagi asosiy muammolarni hal etish, tarbiyachilarga amaliy yordam ko‘rsatish, tarbiyalanuvchilar bilan ishlashning texnologiya, usul va shakllarini takomillashtirishni ta’minlaydi. Ilmiy manbalar tahlili metodik ishlarning tub mohiyati pedagog-tarbiyachilarni kasbiy mahorati va kompetenligini oshirish orqali ta’lim-tarbiyani sifatli tashkil etish ekanligini asosladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, MTTda metodist ishini baholashning quyidagi mezonlari aniqlandi:

1. Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda Davlat standarti va talabini bajarilishi;
2. Pedagog-tarbiyachilarni kasbiy mahorati va kompetentligini dinamik darajasi;
3. Jamoada sog‘lom psixologik muhitni yaratilishi;
4. Pedagoglarning ijodkorlik potensiali va ilg‘or pedagogik tajribalarni rivojlanishi.

MTT metodisti pedagog xodimlarning faoliyatlarini yanada yaxshilash, samaradorligini ta’minlash, yangiliklarga intilish va innovatsiyalarni ish faoliyatlariga tatbiq etish maqsadida olib boriladigan ishlar rejalashtiradi, tahlili yuritiladi hamda shunga munosib tarzda xodimlarni rag‘batlantirish choralarini belgilab oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida. Maktabgacha ta’lim vazirining 2021-yil 12-iyuldagi 128-sonli buyrug‘i.
2. Atemaskina Yu.V. Sovremennыe pedagogicheskie texnologii v DOU. M.: Detstvo-Press, 2011. - 112 s.
3. Belaya K.Yu. Metodicheskaya rabota v DOU: Analiz, planirovanie, formы i metodы. Moskva: Sfera, 2005. 93 s.
4. Bogoslaves L. G., O. I. Davыdova. Rejim dnya doshkolnika. Pravda i mifы. M.: 2018-198
5. Vasileva M.A.. Programma vospitaniya i obucheniya v detskom sadu.M.:2006-232 s.
6. Yakubova, Z. Z. (2022, October). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLANING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIGA PROFESSIONAL YORDAM KO ‘RSATISHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB BILAN HAMKORLIK ISHLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-73).

7. Yakubova, Z. Z. (2023). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAXALLA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLAR HAMKORLIGI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(15), 141-147.

MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDETSIYALARI VA XORIJIY TAJRIBALAR

Abdullayeva Kimyo Adilovna

341-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori.
Gmail: azumar969708@gmail.com

Maktabgacha ta‘lim tizimi uzluksiz ta‘limning birlamchi, eng asosiy bo`g`ini hisoblanadi. Ko‘p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, inson o`z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo`lgan davrida olar ekan.[1, 33-bet] Demak, bolalarning sog`lom va bilimli, yetuk kadr bo`lib voyaga yetishida maktabgacha ta‘lim va tarbiya muhim o`rin egallaydi. Shu nuqtai-nazardan mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim tizimini isloh qilish borasida bir qancha me‘yoriy-huquqiy asoslar ishlab chiqildi. Davlatimizdagi bolalarni maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga qabul qilish qamrovi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu ko`rsatkich 2016 yilda 27,7 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2020 yilga kelib 60 foizga yetdi.[2, 325-bet]. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar istiqbolda o`z mevasini berishi nazarda tutilgan. Shu maqsadda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ―Ayni paytda islohotchi bo`lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog`cha ta‘limining barcha bo`g`inlarini izchil isloh qilmoqdamiz‖[3, 23-bet]-degan edilar.

Maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan muhtaram prezidentimizning 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955 qarorida ham qator ustuvor vazifalar belgilab berildi. Jumladan:

- Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun o‘quv-metodik va didaktik adabiyotlar tayyorlash, tanlash va ekspertizadan o‘tkazish, shuningdek, ularni nashr qilishni takomillashtirish bo‘yicha mexanizmlarni joriy etish.

- Ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini ishlab chiqish.

- Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash va xodimlarni moddiy rag‘batlantirish uchun ularni qo‘shimcha pullik xizmatlar ko‘rsatishga rag‘batlantirish tartibini ishlab chiqish.

- Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruvning zamonaviy shakllarini joriy etish orqali shaffoflikni ta’minlash.

- Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlari malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

- Maktabgacha ta’lim pedagoglarini zarur metodistik materiallar bilan ta’minlash.[1]

Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini zamonaviy talablar asosida shakllantirishda va bolalalarni bugungi zamon ruhiga mos qilib tarbiyalashda xorij tajribasining o‘rni katta hisoblanadi. Ushbu tizimda samarali ishlarni olib brogan va muvaffaqqiyatga erishgan xorij davlatlari juda ko‘p albatta. Mana shunday yutuqlarga erishgan davlatlardan biri bu Fransiya. Mamlakatimiz uzoq yillarda buyon ushbu davlat bilan keng hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Joriy yilning 24-fevral kuni maktabgacha ta’lim va iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash sohasida xorijiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida mamlakatimizning Fransiyadagi elchixonasi delegatsiyasi Parij akademiyasining rektori Kristof Kerrero bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda O‘zbekiston diplomatiya vakolatxonasi rahbari Sardor Rustambayev Fransiya tomoniga mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarning tafsilotlariga atroflicha to‘xtaldi. Shu o‘rinda O‘zbekistonda iqtidorli bolalar bilan ishlash va ular uchun ijtimoiy lift vazifasini bajaradigan mexanizmlar yo‘lga qo‘yilayotgani qayd etilgani barobarida Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyati to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlar ham o‘rtoqlashildi. Iqtidorli bolalar bilan ishlashda Fransiya tajribasini ham o‘rganishga qiziqish borligi alohida ta’kidlandi. Suhbat chog‘ida maktabgacha ta’lim va iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash sohasidagi xorijiy tajribani, jumladan, Fransiyaning maktabgacha ta’lim tizimini har tomonlama o‘rganish muhimligi qayd etildi. Rektor Kristof Kerrero o‘zaro hamkorlik yuzasidan bildirilayotgan qiziqish uchun minnatdorlik bildirar ekan, mamlakatimizda maktabgacha ta’lim va iqtidorli bolalar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirishga o‘z tashkilotining vakolati doirasida ko‘maklashishga tayyor ekanligini ma’lum qildi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvida xorij tajribasini o‘rganish va mavjud muammolarga bag'ishlangan tadqiqot natijalarini o'rganish shuni aniqlashga imkon berdiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish borasida hali ko‘plab amaliy izlanishlar olib borish zarur. Shu munosabat bilan

maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim, zamonaviy boshqaruv prinsiplarini joriy etish jarayoni, sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunday tizim fanlararo asosda, falsafa, sotsiologiya, pedagogika, sistemologiya, boshqaruv nazariyasi, psixologiya, kabi fanlar sohasidagi bilimlarni jalb qilgan holda ishlab chiqilishi kerak. Boshqaruv obyekti sifatida maktabgacha ta'lim muassasasi sifatining mohiyati va maktabgacha ta'lim muassasani uni shakllantirishning alohida sohasi haqidagi bilimlarsiz sifatga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yaratish mumkin emas. Shu sababli, eng avvalo, maktabgacha ta'lim jarayoni sifatini tahlil qilish va sifatni ta'minlaydigan ta'lim tashkiloti sifatida maktabgacha ta'lim muassasasining o'ziga xosliklarini o'rganish kerak. Buning uchun "sifat" kategoriyasi kontekstida maktabgacha ta'limning metodologik va nazariy asoslarini aniqlash hamda ularning asosida o'rganiladigan boshqaruvning dastlabki asosi bo'luvchi integral modelni ishlab chiqish lozim.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 2018-yil 30-sentabr PQ-3944 son qaror lex.uz

2. “Fransiyada maktabgacha ta’lim sohasida Parij akademiyasi bilan hamkorlikning istiqbollari muhokama qilindi”. dunyo.info. rasmiy sayti 2022-yil 24-fevral.

3. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari”. Uslubiy qo‘llanma. T: 2015

4. N.N.Djamilova. “Maktabgacha ta’limda metodika fanlarini o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. T: 2018.

5. Saloydinov, S. Q. (2021). Paxta tozalash zavodlarida energiya sarfini kamaytirishning texnik-iqtisodiy mexanizmini yaratish. “Academic research in educational sciences”, 2(9), 886-889. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH YO’LLARI VA UNI AMALIYOTDA QO’LLASH USULLARI

Muzaffarova Shohida Temirovna

Yangi hayot tumani “Ziyo” nomli 305-sonli DMTT direktori

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan etuk insonlar bo'lib voyaga etishlarini ta'minlash,

ularning qobiliyat va iste'dodi, intelektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyillik tuyg'ularini kamol toptirish kabi ulkan vazifalar qo'yilgan.

O'zbekistan Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli taxlil kilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2022—2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida maktabgacha talim tizimiga aloxida to'xtalib o'tganlar va bir qancha vazifalar bergilab berganlar. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022—2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish to'grisida aloxida to'xtalib o'tganlar.

Maktabgacha ta'limining dinamik sohasida tarbiyachilarning kasbiy o'sishi yosh avlod uchun boyitilgan ta'lim tajribasini taqdim etishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari nafaqat tarbiyachilarning malakasini oshiribgina qolmay, balki ushbu ko'nikmalarni amaliy qo'llashni ta'minlaydigan strategiyalarga sarmoya kiritish kerak. Bu erda maktabgacha tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishning samarali yo‘llarini o‘rganib chiqib ularni amalda qo‘llashni ko‘rsatishmiz kerak.

Moslashtirilgan o'quv dasturlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z tarbiyachilarining o'ziga xos ehtiyojlari va maqsadlariga javob beradigan moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqishi mumkin. Ushbu dasturlar bolalar rivojlanishi, o'quv dasturlarini rejalashtirish, xatti-harakatlarni boshqarish va inklyuziv amaliyotlar bo'yicha seminarlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ta'limni har bir tashkilotning o'ziga xos kontekstiga moslashtirish orqali o'qituvchilar o'zlarining o'qitish amaliyotiga bevosita ta'sir qiladigan tegishli ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Amaliy qo'llash. Masalan, maktabgacha ta'lim tashkiloti savodxonlikni oshirish strategiyalari bo'yicha seminar tashkil qilishi mumkin. Tarbiyachilar interaktiv hikoyalar va fonemik xabardorlik kabi usullarni o'rganishlari mumkin, ular turli yosh bolalar orasida ona tili rivojlanishini rag'batlantirish uchun o'z mashg’ulotlarida amalga oshirishlari mumkin.

Hamkasblarning kuzatuvlari va fikr-mulohazalari. Hamkasblarni kuzatish amalga oshirish tarbiyachilarga o'z hamkasblarining o'qitish amaliyotini kuzatish va o'rganish imkonini

beradi. Konstruktiv fikr almashishni rag'batlantirish tarbiyachilar o'rtasida hamkorlik va doimiy takomillashtirish madaniyatini rivojlantiradi.

Amaliy qo'llanilishi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'zaro kuzatuv dasturini tuzishi mumkin, unda tarbiyachilar bir-birining darslarini kuzatish uchun birlashadilar. Kuzatishlardan so'ng, o'qituvchilar o'zlarining ta'lim amaliyotlarini kuchaytirib, tushunchalar bilan bo'lishish va qo'llab-quvvatlovchi fikr-mulohazalarni bildirish uchun aks ettiruvchi muhokamalarda qatnashadilar.

Mentorlik dasturlari. Tarbiyachilarni tajribali murabbiylar bilan bog'lash qimmatli yo'l-yo'riq va yordam beradi. Mentorlar shaxsiy murabbiylikni taklif qiladilar, tajriba almashadilar va samarali o'qitish strategiyalarini modellashtiradilar, bu esa tinglovchilarning professional o'sishini tezlashtiradi.

Amaliy qo'llanilishi. Tashkilot o'sish sohalari va mosliklari asosida murabbiy-mentor juftlarini belgilashi mumkin. Mentorlar ustozlarga darsni rejalashtirish, bolalarni boshqarish muammolari va refleksiv amaliyot mashg'ulotlari orqali ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Harakatlarni tadqiq qilish loyihalari. Tarbiyachilarni harakat tadqiqot loyihalarida ishtirok etishga rag'batlantirish, ularning o'qitish amaliyotini nazorat qilish, innovatsiyalarni amalga oshirish va natijalar haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Ushbu so'rovga asoslangan yondashuv ta'lim va doimiy takomillashtirish madaniyatini rivojlantiradi.

Amaliy qo'llanilishi. Tarbiyachilarchilar birgalikda o'z o'qitish amaliyotining o'ziga xos jihatini takomillashtirishga qaratilgan harakat tadqiqot loyihalarini ishlab chiqishlari mumkin, masalan, o'yinga asoslangan ta'lim faoliyatini birlashtirish. Tizimli ma'lumotlarni to'plash va mulohaza yuritish orqali tarbiyachilar o'z yondashuvlarini takomillashtiradilar va tashkilotning bilim bazasiga hissa qo'shadilar.

Professional ta'lim uchun texnologiyadan foydalanish. Texnologik platformalar va onlayn resurslarni birlashtirish tarbiyachilarga kasbiy rivojlanish uchun moslashuvchan va qulay yo'llarni taqdim etadi. Vebinarlar, virtual konferentsiyalar va onlayn kurslar o'z-o'zidan o'rganish va yangi o'qitish usullarini o'rganish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Amaliy qo'llanilishi. Tashkilot maktabgacha ta'limiga tegishli bo’lgan onlayn resurslar, jumladan multimediyali ta’limiy resurslar, video va audio roliklar va interfaol modullarni saqlashi mumkin. Tarbiyachilar ushbu manbalardan o'zlariga qulay vaqtda foydalanishlari mumkin, ular paydo bo'layotgan tendentsiyalar va dalillarga asoslangan amaliyotlar haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin.

Ushbu strategiyalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo’llanilgan holda tarbiyachilarining kasbiy mahoratini egallashiga xizmat qiladi degan umiddamiz. Natijasida ular

mashg’ulotlarda yangi bilim va ko'nikmalarni amaliy qo'llash orqali yangi tajribalarga ega bo’lib maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga o’z hissasini qo’shadilar.

Adabiyotlar ro’yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi-O'zbekiston Respublikasining Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847 sonli farmoni. 29.01.2022 dagi PF-60-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT bosh Assambleyasi 2017 yil 19 sentyabrdagi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.
3. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi.— Toshkent, 1997 yil.
4. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyai.— Toshkent, 2008 yil.
5. O‘zbek pedagogikasi antologoyasi (Ikkinchi jild). — Toshkent, 1999 yil.
6. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovasion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.
7. Татур Ю. Г. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стан-дартов высшего профессионального образования. — М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARISHDA HR MENENJMENTIDAN FOYDALANISHNING IJOBIY JIHATLARI

Talipova Feruza Baxtiyarovna

Toshkent shahar Uchtepa TMMTBDNMTTFO‘MShTE bo`yicha metodisti

Maktabgacha ta`lim tashkilotini boshqarish, rejalashtirish va tashkil qilish ishini bajarish tufayli ta’lim tashkiloti jamoasi a’zolarining kuch-g‘ayratini samarali birlashtirish uchun zarur, ammo yetarli bo‘lmagan shart-sharoit yaratiladi. Amaliyotdan shu narsa ma’lumki, odamlar real bajarayotgan ishlar ularga qo‘yilayotgan rasmiy talablarga har doim ham mos kelavermaydi. Ijtimoiy tashkilotlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularga kiruvchi odamlar o‘z sabablariga ega bo‘lgan holda, o‘z oldilariga o‘zlari maqsad qo‘yishga qodirdirlar. Ular nimanidir qilishni xohlashlari va xohlamasliklari va shunga qarab ishlashlari mumkin. Odamlar tashkilotga kelgach, u o‘zlarining manfaatlarini amalga oshirish imkonini berishini xohlashadi. Bu hol yuz bermasa,

ular yo tashkilotdan ketadilar yoki salohiyatlari va iqtidorlarini ishga to‘liq safarbar etmaydilar.

Birgalikdagi faoliyat yaxshi rejalashtirilgan va uyushtirilgan bo‘lsa, ijrochilar bu jarayonga tuzatish kiritishni talab qiladigan qandaydir ichki va tashqi shart-sharoit o‘zgarmagunga qadar nimani, qaerda va qay yo‘sinda bajarishlarini bilishgandagina u muvaffaqiyatli kechadi. Bu o‘zgarishlar rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish uchun xavf tuxdirishi yoki, aksincha, qandaydir yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin. Boshqaruv yuz berayotgan o‘zgarishlarga o‘z vaqtida munosabat bildirishi, buning uchun esa bu haqda axborotga ega bo‘lishi lozim. Bunday axborotni olish va ishning borishiga tuzatish kiritish zarurligini aniqlash uchun nazorat qilish deb ataladigan maxsus boshqaruv harakatini amalga oshirish zarur.

Darxaqiqat, ta'limning boshlang'ich bosqichi bolalar bog'chasi bo‘lib, bu erda bola axloq saboqlarini oladi, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish tajribasini oladi, o‘yinda, jamoaviy ishda ijodiy salohiyatini ochib beradi va ta'lim faoliyatida elementar ko‘nikmalarni oladi. Biz pedagogik texnologiyalarni joriy etish sharoitida maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik jarayonni boshqarishni o‘rganib chiqdik va boshqaruv modelini tuzdik. Pedagogik jarayonni boshqarishning yaratilgan modeliga asoslangan boshqaruv harakatlarining algoritmi o‘qituvchilar, ota-onalar va bolalar jamoasini bolalarning yoshiga mos ravishda rivojlanishi va hissiy farovonligini ta'minlaydigan yagona ta'lim makonida birlashtiradi. Taklif etilayotgan modelning o‘zagi maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik texnologiyalarni joriy etish bosqichida pedagogik jarayonni tashkil etishga dinamik, ijobiy o‘zgarishlar olib keladigan menejerning boshqaruv harakatlaridir. Adabiyotlar tahlili va metodikasi Maktabgacha ta'lim paradigmasida boshqaruv ob'ektini o‘zgartirishda pedagogik jarayonni boshqarish modeli quyidagi xususiyatlarga ega:

- ta'lim va tarbiya bosqichidagi jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari;
- maktabgacha - boshlang'ich ta'limda uzluksiz ta'lim bosqichlarini muvofiqlashtirish va o‘zaro bog'lash;
- maktabgacha ta'lim muassasasining ijtimoiy mas'uliyati;
- maktabgacha ta’lim muassasasining jamiyat, oila, maktab, jamoat tashkilotlari, oliy o‘quv yurtlari bilan aloqasi, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati chegaralarini kengaytirish;
- insonparvarlik tamoyiliga asoslangan kattalar va bolalar o‘rtasidagi hamkorlik. Bundan tashqari, boshqaruv modeliga qo‘yiladigan talablar:
- uning tez o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik sharoitlarga moslashishi, boshqaruv sub’ektlariga yangi tuzilmalar va mazmunni tizimga o‘z vaqtida kiritish imkonini beruvchi ochiqligi;

• maktabgacha ta’lim muassasalarini boshqarishning taqlidchilik xarakteriga barham berish, ijodkorlik muhitini yaratish, qat’iy tartib-qoidalarga barham berish.

Ta’lim muassasasi xodimlari doimiy yangilanishga, maktabgacha ta’lim muassasalarining rivojlanishini ta’minlashga qaratilishi kerak.

Ta’lim tashkilotini boshqarishda bitta emas, balki ko‘plab boshqaruv turkumlari amalga oshiriladi. Bu turkumlar ierarxik tuzilmaga ega — xususiy turkumlar nisbatan umumiylari tarkibiga kiradi. Masalan, ta’lim tashkilotida o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarishning umumiy turkumida boshlang`ich va umumiy o‘rta ta’limni rejalashtirish, tashkil etish, unga rahbarlik va uni nazorat etish turkumlari ajratib ko‘rsatiladi. Bu turkumlar ham, o‘z navbatida, murakkab tuzilmaga ega. Masalan, boshlang`ich ta’limni boshqarish turkumi ichida va ayrim sinflar, predmetlarni o‘rganishni rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish turkumlari ajratiladi. Boshqaruv jarayonida, ayni paytda, turli boshqaruv turkumlari ishi amalga oshiriladi. Kimdir mashg`ulotlar jadvaliga tuzatishlar kiritishi, kimdir o‘qituvchining ishini nazorat qilib borishi, yana kimdir pedagogika kengashining ish rejasini muhokama qilishi mumkin. Bu boshqaruv turkumlarini nafaqat bexabar kuzatuvchi uchun, balki aksariyat boshqaruv sub’ektlari uchun ham nooshkor holga keltiradi. Ammo boshqaruv faoliyatining yaxlitligi uchun javob beruvchi ta’lim tashkiloti rahbari ushbu turkumlarni tuzib, ularning har birini kuzatib borishi kerak. Rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat qilish hokimiyat munosabatlarini amalga oshirishi tufayli boshqaruv ishi deb hisoblanadi.

So‘nggi o‘n yilliklarda maktabgacha ta'lim tizimida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi, bu ta'lim muassasasi rivojlanishining ushbu bosqichida o‘qitish, tarbiyalash va boshqarish muammolariga jiddiy ta'sir ko‘rsatdi. Tom ma'noda 5- 6 yil oldin maktabgacha ta'lim muassasalari omon qolish yoqasida edi, ammo tartibga solish, ma'muriy, iqtisodiy sharoitlarda sodir bo‘lgan katta o‘zgarishlar maktabgacha ta'limning barcha bo‘g'inlarini modernizatsiya qilish imkonini berdi. Maktabgacha ta'lim muassasalariga o‘z qiyofasini topishga, o‘z ishida jo‘shqinlik topishga imkon beradigan mazmunli yo‘nalishlarni va o‘ziga xos ta'lim shakllarini izlash tendentsiyasi aniq.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Камилова.Г.А.,Курбанова.Г.Р.,Джаббарова.С.З. Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений //Academy. – 2020. – №. 5 (56). – С. 25-27.

2.Kamilova.G. Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

3.Olimovna K.G. The importance of the criteria of pedagogical technologies at training highly qualified personnel //Достижения науки и образования. – 2017. – №. 5 (18).

4.Камилова Г.А., Тураева.О.С. Формирование диагностических навыков у студентов дошкольного образования //Проблемы науки. – 2021. – С. 50.

5.Eshova.S.D.,Rajabova.K.I. Organization of didactic games for preschoolers.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QUV TARBIYA JARAYONNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MILLIY ASOSLARI

Mustafoeva Shahnoza Ermuxammedovna

Toshkent shahar. Uchtepa tumani 397-Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti

Maktabgacha ta'lim tizimi yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiya borasida yaratilgan tajribalarga, nazariy va metodik manbalarga, O'rta Osiyo va jahon tan olgan buyuk mutafakkir olimlarning asarlari va ta'lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

Maktabgacha ta'limning milliy asoslari- ta'lim-tarbiya muammolarini, muayyan millatning milliy qadriyatlarini umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lagan holda hal etish, har bir millatning ma'naviy merosi va milliy qadriyatlariga tayangan holda milliy tarbiya masalalarini yosh avlod ongiga yetkazish mazmuni, usul, metod va tamoyillarini milliylantirishdan iborat. O'sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e'tiqodini o'stirish, xulq-atvorini tarkib toptirish maktabgacha ta'lim tarbiyaning dolzarb muammolaridan sanaladi. Bugungi davr talabidagi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma'naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimining maqsadi tarbiyachi murabbiylarning o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, yosh avlodni har tomonlama rivojlangan yetuk shaxs qilib tarbiyalash uchun o'z ustida ishlashi, intilishi, izlanishi, ayollarni zamon talablari asosida tarbiyalash uchun tarbiyaning yangi usul va vositalaridan keng foydalana olish kabi tarbiyachilik mahoratini shakllantirishga qaratiladi. O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta'lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta'lim-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha ta'limining qoida va qonunlarini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir. Shuningdek, bugungi sharoitida uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal

etish maktabgacha ta’lim tizimining oldiga qator vazifalarni qo‘ymoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari esa shaxsni tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga va xususiyatlariga qarab belgilanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, aqliy, hissiy, ijtimoiy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuasidan iboratdir. Bu sohada Sharq va G‘arb xalqlari yaratgan og‘zaki ijodiyot, buyuk mutafakkir, pedagog va olimlarning ta’lim-tarbiyaga doir ilg‘or fikrlarini o‘rganib, tahlil qilib, barkamol insonni tarbiyalash jarayonini o‘rganish biz uchun juda qimmatlidir:

□□ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi qonun-qoida tamoyil, metod va usullarni maktabgacha ta’lim tashkiloti amaliy hayoti bilan bog‘lab, bo‘lajak tarbiyachilarga o‘rgatish, maktabgacha ta’limni boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o‘rganib, tarbiyachilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish;

□□maktabgacha tarbiya tashkilotlarida oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ishini amalga oshirish. Bunday vazifalarda tadqiq etish;

□□birinchidan, bolalar sog‘lig‘ini saqlaydi va mustahkamlaydi, jismoniy rivojlanishini ta’minlaydi;

□□ikkinchidan, ilmga qiziqish va qobiliyatlarini rivojl antiradi;

□□uchinchidan, Vatanga, tabiatga, jonajon o‘lkaga muhabbat, kattalarga hurmatni, o‘rtoqlik va jamoatchilik, xayrixohlik, xulq madaniyati, mustaqillik, uyushqoqlik va intizom, mehnatsevarlik kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi;

□□to‘rtinchidan, estetik tarbiyani amalga oshiradi.

Keyingi yillarda jismoniy, aqliy, ijtimoiy, hissiy, axloqiy, tarbiya bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy- pedagogik tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalarini ularning psixik-fiziologik imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda belgilash zarurligini ko‘rsatib berdi va ular maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun tuzilgan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talabalari”, hamda “Ilk qadam”davlat o‘quv Dasturida aksini topgan. Maktabgacha ta’lim tarbiya mazmunida bir-biri bilan uzviy bog‘langan quyidagi tushunchalar mavjud: tarbiya, ta’lim, ma’lumot. Tarbiya—kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojlanib, o‘sib, avlodtsan-avlodga vorislik vazifasini bajarib kelgan bo‘lsa-da, ammo har bir jamiyatda tarbiyaning mazmuni maqsadi, vazifalari, o‘ziga xosligi bilan farqlanadi. Tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur hodisa bo‘lib, yosh avlodga ilmiy bilimlar tizimini, malaka va ko‘nikmalarini maxsus metod va vositalar orqali rejali ravishda singdirib berish hamda yosh avlodni har tomonlama shakllangan yetuk inson qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yadi.

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash muammolari haqida Abdulla Avloniy haqli ravishda shunday degan edi: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot-yo halokat, yo sadoqat - yo falokat masalasidir”. Demak, tarbiya va odob Vatanga cheksiz muhabbat, imon-

e’tiqod, mehr-muruvvat, rostgo‘ylik, adolatgo‘ylik, samimiylik, mehnatsevarlik va bilimdonlik kabi g‘oyalar vositasida shakllanib boradi. Ta’lim - bolalarga bilimni tartibli bayon qilish jarayoni bo‘lib, muayyan ko‘nikma va malakalarni singdirish, ularning ongi va xulqiga ta’sir etish, aqlini, ongini, idrokini, dunyoqarishini, e’tiqodini va bilish faolligini rivojlantirishdir. Ta’lim berish jarayonida tarbiya va ma’lumotning maqsadi amalga oshiriladi. Ta’lim ikki tomonlama jarayon bo‘lib va o‘qitishni o‘z ichiga oladi. O‘qitish-pedagogik faoliyat bo‘lib, bilim malaka, ko‘nikmalarni bolalarga singdirish, ularning bilish va amaliy faoliyatiga shart-sharoitlar yaratish va rahbarlik qilishdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan beshta rivojlantirish markazlardagi faoliyatlar-bolaning bilim, malaka ko‘nikmalarini egallashdagi amaliy faoliyatidir.

Demak, ta’lim-tarbiya talablar asosida rejalashtirilsa hamda to‘g‘ri amalga oshirib borilsa, bolalarda bilim, malaka va ko‘nikmalar muvaffaqiyatli shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
2. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz.. ota-onalar uchun. – T.: Ma'naviyat, 2013.
3. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. P. Yusupova. — T., «O‘qituvchi». 2001
4. R.A.Mavlonova, O.T.To‘raeva, U.M.Xoliqberdiev Pedagogika. — T., «O‘qituvchi».
5. Sh,Sadikova Maktabgacha pedagogika. Darslik. T., «O‘qituvchi». 2019
6. Yakubova, Z. Z. (2022, October). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLANING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIGA PROFESSIONAL YORDAM KO ‘RSATISHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB BILAN HAMKORLIK ISHLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-73).
7. Yakubova, Z. Z. (2023). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAXALLA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLAR HAMKORLIGI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(15), 141-147.

ALISHER NAVOIY ASARLARINING ZAMONAVIY TA’LIM TALABLARIGA MOSLIK IMKONIYATLARI

Bobonazarova Sevara Odiljon qizi

Qarshi davlat universiteti doktoranti

Mamlakatimizda hur fikrli, mutelik va jur’atsizlikdan holi bo‘lgan, o‘z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan, mustaqil va erkin shaxsni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb

muammolaridan biriga aylandi. Vatanimizning ulkan umidi bo‘lgan yosh avlodni kelajakda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, o‘z Vatani va xalqini, oilasini sevuvchi insonlar qilib tarbiyalash bizning asl maqsadlarimizdan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida eng birinchi dolzarb vazifa bu yosh avlod ta’lim – tarbiyasini rivojlantirish bo’lmog’i lozim deya ta’kidlab o’tdilar.

Badiiy adabiyotning buyuk namoyondalaridan biri Alisher Navoiy asarlarida komil inson mavzusiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Navoiyning butun ijodi komil inson targ‘ibiga qaratilgan. Uning deyarli barcha asarlarida darvesh, orif insonlar axloqi haqida fikrlari bor. Uning hatto mafkuraviy asarlari hisoblangan “Nasoyim ul-muhabbat” va “Lison ut-tayr” da ham darveshlar siyrati, hamda xulq-atvor va javonmardlik xususiyatlari ta’rif-tavsif etiladi.

Shuni unutmaslik kerakki har qanday taraqqiyot, insonlardagi bilim, intellektual imkoniyatlar va ya yaratuvchanlik faoliyatlari mahsulidir. Shuning uchun ham hozirgi kunda insonlardagi intellektual imkoniyatlarni maksimal ishga solish sohasidagi izlanishlar muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim o’z oldiga qator vazifalarni qo’ymoqdaki, bular o’z navbatida ta’lim jarayonini tubdan yangilashga nisbatan bir qancha vazifalarni yuklaydi.

Jumladan:

-yoshlar o‘zlarining ijod qobiliyatini qonuniy meyor orqali boshqara olishi va bu jarayondagi faoliyatini yuqori cho‘qqiga ko‘tarish;

-shaxs estetikasi va intelektining yuqori bosqichga yetishdagi ob’yektiv va sub’yektiv birliklardagi ziddiyatli ta’sir omillari;

-o’z-o‘zini o‘qitish, o‘z-o‘zini takomillashtirish va boshqarish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Alisher Navoiy asarlaridan foydalanish katta imkoniyatlarga ega.

Alloma mavjud fanlarning barchasini o‘rganish inson uchun g‘oyatda foydali ekanligini uqtiradi va bu borada amaliy harakatlarni tashkil etadi. Chunonchi, o‘zi tashkil etgan “Ixlosiya” madrasasi yonida maktab ochadi, uni o‘z vaqfidan mablag‘ bilan ta’minlaydi. Ta’lim oluvchilardan ilm o‘rganishda qattiq intizom talab etadi. Shuningdek, qobiliyatli shaxsni tarbiyalamaslik, uning qobiliyatini rivojlantirmaslik zulm bilan tenglashtiriladi: “Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir, qobiliyatsizga tarbiya hayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, bunga tarbiyangni nobud qilma” [4, 134].

Alloma tarbiyada namuna metodini ma’qullagan. Bu borada o‘qituvchi va ota-ona namunasi birinchi o‘ringa qo‘yilgan bo‘lsa-da, tarbiyada jismoniy jazoni qoralagan. Bolaga

xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lish, lekin qattiqqo‘llikda ham, xushmuomalalikda ham meyor bo‘lishini alohida ta’kidlagan.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy o‘qituvchilarni talabchan va o‘z kasbining bilimdoni bo‘lishga undagan, tarbiya masalasiga jiddiy e’tibor bergan. Mutafakkirning fikricha, bilim olishda uzluksizlikni ma’qullab, bilim beruvchi ustoz – murabbiylarning o‘zlari ham ma’lumotli, o‘qitish usullarini chuqur egallagan bo‘lishlarini talab etadi. Johil, mutaasib, nodon domlalarni qoralab, o‘qituvchi mehnatining og‘irligini alohida ta’kidlaydi. Madrasa mudarrislarining fozil, dono, kamtar, ma’naviy pok insonlar bo‘lishini istaydi va shunday bo‘lishi uchun kurashadi.

Mashhur mutafakkir inson aqliy qobiliyatini, ilmiy quvvatini, iste’dodini takomillashtirish uchun o‘zida zukkolik, fahm tezligi, zehn o‘tkirligi, bilimlarni tez egallash, qo‘yilgan muammoni tez anglash, ilgari his etgan va tasavvur qilgan barcha narsalarni esda saqlash, xotira kabilarni rivojlantirishi lozimligiga alohida urg‘u berib o‘tganlar.

Ta’lim-tarbiya samaradorligiga erishish maqsadida maktab va madrasalarda ana shu talablarga rioya etilgan, talabalarda yuqorida ta’kidlab o‘tilgan jihatlarni tarbiyalash uchun “Tarbiyai fikriya”, “Tarbiyai tafakkuriya”, “Tarbiyai ixlosiya” kabi metodlar qo‘llanilgan, ular talabalarni fikrlashga o‘rgatib, tafakkurlarini rivojlantirib, bilimlarni egallashga bo‘lgan qiziqishlarini oshirgan. Shuningdek, tafakkurni rivojlanttrishda samarali bo‘lgan ilmiy munozara, sharhli o‘rganish, muammolarni hal etish, kuzatish, savol-javob, bilimlarni sinash, ko‘rgazmali tajriba kabi uslublar qo‘llanilgan.

Har bir o‘qituvchi talabalarga umumiy bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularni san’at va muammoli masalalarni yechish sirlari bilan ham tanishtirib borganlar.

Demak, Alisher Navoiyning pedagogik qarashlarida shaxs tomonidan o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan quyidagi sifatlar: aqliy kamolot (bilim, zakovat va uquvga ega bo‘lish); axloqiy kamolot; jismoniy yetuklik; go‘zallikni his etish va o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z ustida ishlash kabilar ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari bugungi kun zamonaviy pedagogikasi o’z oldiga qo’yayotgan talablarga to’la mos keladi va bu qarashlardan ta’lim-tarbiya amaliyotida keng foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ulardan ta’lim jarayonida eng zamonaviy metod va usullar bilan uyg‘un holda maqsadga muvofiq foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017—2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
2. Деркач А.А. Акмеология: личностьи и профессиональные развитие человека: Методолого – прикладные основы акмеологического исследования. М; 2000.
3. Kenjaeva.D. Barkamol shaxs tarbiyasi asoslari.-T: Fan, 2010.-67b
4. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2003. – 224 b

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI EKOLOGIK TARBIYALASHDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARI

Norqulova Latofat Sherali qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti.
LatofatNorqulova@gmail.com

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsadi bolalarda insonning tabiati va undagi o‘rni, atrof - muhitga mas’uliyatli munosabati, bolalarning dunyoqarashini kengaytirish to‘g‘risida yaxlit nuqtai nazarni shakllantirishdir.

Ekologik tarbiyalashda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning vazifa: bolalarda o‘simlik va hayvonot dunyosi, yashash muhiti bilan o‘zaro bog‘liq holda ona yurtning tabiati, tabiatdagi ekologik savodli xatti-harakatlar va unga insoniy munosabat haqida g‘oyalarni shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirish o‘yin texnologiyalaridan foydalanish, mustaqil faoliyat jarayonida, o‘z bilim faoliyatini rivojlantirish, turli xil faoliyat turlari orqali bolalar ijodi orqali amalga oshiriladi. Atrof-muhitni o‘rganishda turli shakllarda – o‘yinlar, suhbatlar, kuzatuvlar, eksperimentlardan foydalanish o‘z samarasini beradi.

Bolalarning rivojlanishi va ta’limining ma’lum yo‘nalishlarini ifodalovchi tarkibiy birliklardan biri bu ekologik ta’limni o‘z ichiga olgan kognitiv rivojlanishdir. Jamiyat rivojlanishi jarayonida ekologik ta’lim alohida keskinlikka ega bo‘ladi. Bolalarning hayotining birinchi yillaridanoq ekologik ta’limiga ko‘proq e’tibor qaratish lozim, chunki aynan shu davrda bola birinchi dunyoqarashni rivojlantiradi– u tabiat haqida hissiy taassurotlarni oladi, hayotning turli shakllari haqida g‘oyalarni to‘playdi, ekologik fikrlash va ongning asosini shakllantiradi.

Ushbu davrda tabiat bilan o‘zaro munosabatlarning asoslari yaratiladi. Kattalar yordamida bola buni barcha odamlar uchun umumiy qiymat sifatida anglay boshlaydi. Tabiat uzoq yillar

davomida pedagoglar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning muhim omillaridan biri sifatida tan olingan. tabiat bilan muloqot qilish, uning ob’ektlari va hodisalarini o‘rganish, maktabgacha yoshdagi bolalar asta-sekin o‘zlari yashayotgan dunyoni anglaydilar, ular o‘simlik va hayvonot dunyosining ajoyib xilma-xilligini kashf etadilar, tabiatning inson hayotidagi rolini, uning bilimlarining qadr-qimmatini anglaydilar, axloqiy va estetik his-tuyg‘ularni boshdan kechiradilar va ularni tabiiy boyliklarni saqlash va ko‘paytirish haqida g‘amxo‘rlik qilishga undaydigan tajribalardir.

Ushbu talablar har bir insonning xulq-atvor normasiga aylanishi uchun bolalikdan atrof-muhit holati uchun mas’uliyat hissini maqsadli ravishda tarbiyalash kerak.

O‘yin texnologiyalari barcha aqliy jarayonlarning boshlang‘ichdan murakkabgacha shakllanishiga ta’sir qilad. O‘yinda ixtiyoriy xatti-harakatlar, ixtiyoriy e’tibor va xotira rivojlana boshlaydi. O‘yin mashg‘ulotlarida bolalar kattalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri topshirig‘iga qaraganda ko‘proq diqqatni jamlaydilar va xotirada saqlash darajasi yuqori bo‘ladi.

“O‘yin texnologiyalari” tushunchasi pedagogik jarayonni turli xil pedagogik o‘yinlar shaklida tashkil etish usullari va usullarining juda keng guruhini o‘z ichiga oladi.

O‘yinlardan farqli o‘laroq, “O‘yin texnologiyalari” muhim xususiyatga ega– aniq belgilangan ta’limiy faoliyat maqsadi va unga mos keladigan pedagogik natija, ularga asoslanishi, aniq ta’kidlanishi ta’limiy faoliyat va kognitiv yo‘nalish bilan tavsiflanadi.

O‘yin texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta’limga undash, rag‘batlantirish vositasi sifatida ishlaydigan o‘yin texnikasi va vaziyatlari yordamida yaratiladi.

Ekologik rivojlanish muhitining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ekologik ta’limning innovasion shakli sifatida foydalangan ekologik yo‘ldir.

Ekologik yo‘l bolalar bilan muntazam yurishlardan ekologik faoliyat uchun yanada unumli foydalanish va shu bilan birga toza havoda bolalar salomatligini yaxshilash imkonini beradi. xuddi shu ob’ektlarga, ayniqsa, yilning turli fasllarida ko‘p marta tashrif buyurish mumkin. agar u tadqiqot bo‘lsa, siz turli nuqtalarga tashrif buyurishingiz mumkin; agar biz aniq maqsadga erishsak (masalan, kim qumtepada yashayotganini bilish uchun), biz o‘zimizni faqat bitta ob’ekt bilan cheklaymiz. Yo‘lda kuzatishlar, o‘yinlar, teatr darslari, ekskursiyalar o‘tkazamiz. Integratsiyalashgan yondashuv haqida eslash juda muhimdir: bolalar bilan yo‘lda biz kuzatamiz, ko‘rib chiqamiz, muhokama qilamiz, tahlil qilamiz va hokazo., bolalar esa tabiat haqidagi ko‘rgan, olgan bilimlarini turli faoliyat turlarida: ko‘rgazmali, musiqiy taassurotlarini ifodalaydilar, bu esa bola xotirasida bu bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.[4]

Bola tomonidan o‘yinda amalga oshiriladigan amaliy va aqliy harakatlarning butun murakkab majmuasi u tomonidan majburiy o‘rganish jarayoni sifatida emas, bola aynan o‘ynash orqali o‘rganadi.

Ekologik ta’limda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim faoliyati doirasida, rejim lahzalarida maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan ishlashda o‘yin texnologiyalari sifatida foydalanadigan har xil turdagi ekologik o‘yinlardan foydalanish ta’limiy faoliyatni shafofligini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti, guruhlarida mavzuni rivojlantiruvchi tabiat burchaglari tashkil etilgan. Unda quyidagilar mavjud: qo‘llanmalar, tabiat taqvimi, ko‘chib yuruvchi, qishlaydigan, ko‘chmanchi qushlar, yovvoyi va uy hayvonlari albomlari, bolalar uchun papkalar, turli xil o‘simliklar, turli xil tabiiy materiallar. Bu erda bolalar har doim hamma narsani ko‘rishlari, teginishlari, taqqoslashlari mumkin.

Ekologik ta’lim bo‘yicha ish samaradorligini oshirish uchun turli shakl va usullardan foydalaniladi. Ushbu usullardan biri ekologik o‘yinlardir.

ekologik o‘yinlar:

rolli o‘yinlar;

didaktik;

taqlid;

raqobatbardosh;

sayohat o‘yinlari.

rolli o‘yinlar ekologik faoliyatning ijtimoiy mazmunini modellashtirishga asoslangan.

Raqobatbardosh o‘yinlar o‘z ishtirokchilarining ekologik bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallash va namoyish etishdagi faolligini rag‘batlantiradi. Bularga quyidagilar kiradi: tanlovlar, KVN, ekologik viktorina, “mo‘jizalar maydoni” va boshqalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash amaliyotida bolalar Shimoliy qutbga, okean tubiga va boshqalarga tushadigan sayohat o‘yinlari muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

Didaktik ekologik o‘yinlar va mashqlardan foydalanishda, masalan:

“Ta’rifga ko‘ra taxmin qiling” - ob’ektlarning asosiy belgilarini nomlash, kuzatishni qobiliyatini rivojlantiradi.

«Bu qanday qush”« - bolalarning qushlar qanday tovushlar chiqarishi haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

“Ha yoki yo‘q” - hayvon, qush tanasining qismlari haqida bilimlarni mustahkamlash.

“Ko‘krak qafasida nimalar borligini” - analizatorlardan biri yordamida mavzuni tanib olishni o‘rganish.

Turli xil botanika, zoologik lotolar, jumboqlar, namoyish rasmlari bolalarga bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirishga yordam beradi va modellardan foydalanish mahoratini

shakllantiradi. O‘yin harakatlarining mazmuni qanchalik xilma-xil bo‘lsa, o‘yin texnikasi shunchalik qiziqarli va samaraliroq bo‘ladi. O‘yin ta’limiy faoliyat usullari, boshqa pedagogik usullar singari, didaktik muammolarni hal qilishga qaratilgan va ta’limiy faoliyatda o‘yinni tashkil qilish bilan bog‘liq. Pedagog (tarbiyachi) ta’limiy faoliyatdagi o‘yinni taklif qiladi va bu erkin o‘yindan farq qiladi. Pedagog (tarbiyachi) bolalar bilan o‘ynaydi, ularga o‘yin harakatlarini va o‘yin qoidalarini rahbar va uning ishtirokchisi sifatida bajarishni o‘rgatadi.

Ekologik o‘yinlarda vizual badiiy bezatilgan materiallardan foydalanish, qiziqarli o‘yin lahzalari, harakatlar bilan chiqish, barcha bolalarni bitta muammoni hal qilish tavsiya etiladi. Shuninigdek ertak qahramonlari, musiqiy hamrohlik yordamiga murojaat qilishingiz mumkin.

Bolalar mavsumiy o‘zgarishlarni, ob-havo hodisalarini kuzatishni, fasllarning asosiy belgilarini ta’kidlashni o‘rganadilar. Tabiatning bir burchagida bolalar pedagog (tarbiyachi)ga tirik narsalarga g‘amxo‘rlik qilishning barcha bosqichlarining ahamiyatini o‘zlashtirib, xona o‘simliklarga (sug‘orish, purkash, yumshatish, yoritish) g‘amxo‘rlik qilishga yordam beradi.

O‘yin intellektual rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi-bolalar ob’ektlarni umumlashtirish va taqqoslashni o‘rganadilar, shu bilan aqliy xujumni rivojlantiradilar. O‘yin texnologiyalarining afzalligi shundaki, ular guruhda, pedagog (tarbiyachi) va bolalarning ta’limiy faoliyatdan tashqari birgalikdagi faoliyati jarayonida, shuningdek bolalarning mustaqil faoliyati paytida ham qo‘llanilishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘yin texnologiyalari yordamida bolalar tabiat va unda sodir bo‘layotgan mavsumiy o‘zgarishlar bilan tanishadilar. Olingan bilimlar qiziquvchanlik, tabiat hodisalarini real tushunish, kuzatish, mantiqiy fikrlash, barcha tirik mavjudotlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Tabiatga bo‘lgan muhabbat, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, tirik mavjudotlarga g‘amxo‘rlik qilish bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va tabiiy boyliklarni himoya qiladigan va ko‘paytiradigan kattalar ishiga hurmat kabi ijobiy xarakter xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Ekologik ta’limda qo‘llaniladigan o‘yin texnologiyalarining shakllari juda ko‘p va xilma-xildir.

Pedagog (tarbiyachi) o‘yinni ta’lim vositasi sifatida ishlatib, ekologiya bo‘yicha o‘yin mashg‘ulotlarini ishlab chiqadi, shuning uchun bunday mashg‘ulotning mazmuni ekologik ta’lim va tarbiya mazmunini aks ettiradi.

Ekologik o‘yin elementlari bilan kognitiv ekologik mashg‘ulotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tabiatda, shuningdek xonada o‘tkaziladi. Ushbu o‘yinlar xotira, tasavvur, kuzatish, xayoliy fikrlashni rivojlantiradi.

O‘yinlar-tanlovlar, viktorinalar bolalarning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanadi, masalan, o‘zlarini boshqalar bilan doimiy ravishda taqqoslash, bolalar tabiatiga xos bo‘lgan raqobatlashish istagi. Tanlov o‘yinlari raqobat, bilim sohasidagi raqobat asosida qurilgan. Ular maktabgacha

ta’lim dasturidan tashqarida bo‘lgan aql-idrok, intellektual bilimlarni talab qiladi. Ularda g‘oliblar ham, mag‘lub bo‘lganlar ham bor. Qanday bo‘lmasin, g‘alaba qozonish yoki yo‘qotish bolalarning bilim faolligini rag‘batlantiradi. Ushbu o‘yinlarning qiymati jamoaviy ishtirokda yotadi. yosh tarbiyalanuvchilar, ayniqsa, guruhda ishlashni yaxshi ko‘radilar va ularga birgalikda aqliy ishlashni o‘rgatish muhimdir.

O‘yin faoliyati jarayonida bolalar o‘zlarini dunyoning bir qismi sifatida anglash qobiliyatini shakllantiradilar, bolalarning jonsiz tabiat hodisalari va ob’ektlari, ekologik farovonlik omillari, tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi bilimlar umumlashtirilib, sayyoraviy ekologik ongning asoslari shakllantiriladi, biz yer sayyorasida yashaymiz degan tushuncha beriladi.va biz mezbonmiz. Barcha odamlar, qaysi millat bo‘lishidan qat’i nazar, qaysi mamlakatda yashashlaridan qat’i nazar, sayyoramizni keyingi hayot uchun saqlab qolish ularning tashvishi. Har bir inson sog‘lom turmush tarzi qoidalarini bilishi va ularga rioya qilishi kerak. Tabiiy muhit haqidagi bilimlar unga xalaqit bermaslik, balki uni himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash uchun ham zarurdir.

O‘yin tabiiy muhitga ijobiy munosabatni tarbiyalashga yordam beradi, bolalar hamdardlik ko‘rsatadilar, yordamga muhtoj bo‘lgan har bir kishiga yordam berishadi, o‘simlik va hayvonot dunyosiga g‘amxo‘rlik qilishadi, tabiatning go‘zalligini idrok etadilar, atrofdagi narsalarni saqlashni va himoya qilishni o‘rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son qarori 3 bob

2.Norboevna, R. N. (2021, April). Improving the membership system in ecological education of preschool children. In Archive of Conferences (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).

3.Ravshanova, N. N. (2020). The principle of continuity in environmental education of preschool children. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 369-374.

4.Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 23-31.

5.Ravshanova N.N. “Ekologik bolajon” variativ dastur T 2021. (82-83 bet)

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Abdugapparova Hikoyatoy Anvar qizi

TDPU Maktabgacha ta’lim fakulteti 303-guruh talabasi

abdugaffarovahikoyatoy@gmail.com

Matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi nazariyasining tarixi, hozirgi holati va zamonaviyligi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi qonuni va “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida sog‘lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan rivojlantirishda ularning tug‘ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta’lim olishga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim berish jarayonini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri bo‘lajak pedagogning ilmiy va uslubiy ta’minlanganligi, uning kasbiy tayyorgarligini oshirishdan iborat. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda miqdor va son, buyumlarning kattaligi va shakli, 444as hu444ic figuralar haqidagi tushunchalarni shakllantirish uchun bir xil harakat usullarini har xil vaziyatlarda va turli ko‘rgazmali materiallar bilan ko‘p martalab aytib ko‘rsatish ularni bolalar o‘zlashtirishlariga imkon beradi. Matematik bilimlar bolalarga, ular nimani bilib olganliklari va nimaning uddasidan chiqa olishlarini hisobga olgan holda, aniq tizim va ketma-ketlikda beriladi. Bolalarning matematik tushunchalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi, ularning idrokini, ya’ni sensor tuyg‘ularini o‘stirish bilan bevosita bog‘liqdir. Umumlashtirish va abstraktlashtirish qobiliyati predmetlarning xususiyatlarini aniqlash 444as hu xususiyatlarga qarab mazkur predmetlarni bir-biriga taqqoslash hamda guruhlarga ajratish asosida o‘sib boradi. Shuning uchun bola maktabga borguniga qadar unda matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida barcha o‘quv-tarbiya ishlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq ravishda ish olib boriladi. Fan-texnika nihoyatda juda ham katta rivojlanayotgan bugungi davrda bolalarning turli sohalardagi tajribalarni 444as holda o‘rganishi va ulardan amaliyotda foydalana olishi uchun ularning maktabgacha yoshdan kerakli va zarur bilimlarni egallashlariga jiddiy e’tibor berishimiz lozim. Ayniqsa, matematik bilimlar bola hayotida, uning har tomonlama rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ilk matematik tushunchalarning qanchalik aniq va mustahkam bo‘lishi bolalar

tafakkurining, ulardagi analiz va sintez, mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish jarayonlarining kuchli bo‘lishini ta’minlaydi. Bizga ma’lumki, 445as matematika orqali maktabgacha yoshdagi bolalar son va sanoq, 445as hu445ic shakllar, vaqt va fazo haqida, kattaliklar haqida boshlang‘ich bilimlarni oladilar. Bu bilimlar yordamida bolalar idrok qilinadigan obyektlarning xususiyatlarini analiz va sintez qilish, taqqoslash va umumlashtirishning eng 445as bog‘lanishlari hamda ular orasidagi munosabatlarni tushunib oladilar. Ilk 445as matematik tasavvurlarni shakllantirish natijasida bolalarda:

- 445as hu445ic shakllar va predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlar shakllantiriladi;
- fazoviy munosabatlarni tushunish va fazoda mo‘ljal olish ko‘nikmasi hosil qilinadi;
- vaqt haqida tasavvurlar shakllantiriladi;
- miqdor kattalik haqida tasavvurlar hosil qilinadi;
- son va sanoq haqida bilimlar berilib, birinchi va ikkinchi o‘nlik ichida miqdoriy munosabatlar haqida tushunchalar hosil qilinadi.

Ta’limiy faoliyatlar mavzusi, maqsad-vazifalari, kutilayotgan natijalar, kerakli jihozlar, ta’limiy faoliyatning borishi to‘liq yoziladi. Ta’limiy faoliyatlar davomida mavzular bolalarga 445as holda tushuntirilib, amaliy ishlar va turli interfaol o‘yinlar yordamida mustahkamlanadi. Har bir ta’limiy faoliyatning oxirida bolalarning bilimlarini aniqlash va mustahkamlash uchun savollar beriladi. Ta’limiy faoliyatlar davomida bolalar mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarib, turli interfaol usullar yordamida topshiriqlarni yechib, o‘yinlarni o‘ynab, ijod qilgan holda yangi matematik tushunchalarni o‘rganib, bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab boradilar. Agar bola masalani yechishdagi yangilikni, masalani qiziqarli yechish uslubini, doim qo‘llab kelgan an’anaviy uslublaridan voz kechib, masalaning yangi yechimlarini, muammoning asosiy bog‘lanish mohiyatini anglash va uni yechish uchun turli usullarni 445as hu445, amaliy masalalarni yechish, muammolardan chiqish, oldindan aytib berish qobiliyatlariga ega bo‘lsa, unda matematik tushunchalar rivojlangan hisoblanadi. Matematik bilimlar bolalarga ma’lum tizim va izchillikda berilishi, bunda yangi bilim kamroq miqdorda, ya’ni bolalar o‘zlashtirib oladigan darajada bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham bir vazifa bir qancha mayda qismlarga bo‘linib, ular ketma-ketlikda o‘rganib boriladi. Tarbiyachi har bir yosh guruhining dasturi qanday tuzilganini bilishi lozim. Bu unga o‘z guruhidagi bolalarning matematikaga doir bilim darajalarini aniqlash uchungina emas, balki maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda boshlang‘ichmatematik tasavvurlarni o‘stirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar tizimida har bir ta’limiy faoliyatning qanday muhim rol o‘ynashi va o‘rin egallashini ko‘z oldiga keltirish uchun ham imkon beradi. Zero, ta’lim-tarbiyani izchil rivojlantirish Ona Vatanga sadoqatli, bilimli, chinakam komil insonlarni voyaga yetkazishning asosiy shartidir. Davlat talablari ko‘rsatkichlarini belgilashda davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, maktabgacha yoshdagi bolalarning

jismonan sog‘lomligi, qobiliyati, ehtiyoji va imkoniyatlari, ya’ni bola shaxsining ustuvorligi nazarda tutilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablarini bajarish, O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy tuzilishidan qat’iy nazar, barcha ta’lim tashkilotlari uchun majburiydir.

Xulosa: Yosh avlodni o‘z xalqi, jamiyati va yurtiga fidoyilik, kelajak taqdiri uchun mas’ullikni his etish, boy milliy madaniy merosimiz va qadriyatimizga hurmat va asrab-avaylash ruhida tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan kechiktirib bo‘lmas vazifa ekan, bunda barcha ta’lim – tarbiya ishi bilan shug‘ullanuvchi xodimlardan ulkan ishlarni bajarish talab etiladi. Maktabgacha tarbiya mutaxassislarini tayyorlash tizimida «Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish asoslari va metodikasi» kursi muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda bolalar bog‘chasida matematika o‘qitish tizimida o‘z ko‘lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo‘lgan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Maktab oldiga yangi maqsadlarning qo‘yilishi bilan maktabgacha ta’lim tashkilotida matematik ta’lim berish mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematikadan samarali ta’lim berish uchun bo‘lajak tarbiyachi bolalar uchun ishlab chiqilgan «Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish» kursini chuqur o‘zlashtirib olmog‘I lozim. Matematik tushunchalarni rivojlantirishga oid izlanishlar yo‘nalishlari va ilk matematik tushunchalar bolalarning yoshiga mos tarzda qiziqarli qilib o‘rgatilsa, samarali natijalarga erishiladi. Bunday mashg‘ulotlar natijasida bolalar umumiy bilimlarni o‘rganish bilan birgalikda jamoa bilan kelishishni, o‘zaro bir – birini qo‘llab-quvvatlashni, yordamlashishni, jamoada o‘zini tuta olishni, bir-birlarini hurmat qilishni o‘rganadilar va ularda o‘ziga bo‘lgan ishonch, mustaqil erkin fikrlash, o‘z fikrini chiroyli ifoda eta olish kabi fazilatlar shakllanadi. Matematika fani oldida turgan maqsadlar umumiy ta’lim, amaliy va tarbiyaviy maqsadlardan iboratdir. Amaliy maqsadlar qatoriga bolalarning nazariyasini amaliyotga bog‘lay olishi, ularning to‘plam va son haqida kattalik miqdorlarning bir-biriga nisbati haqida, eng oddiy 446as hu446ic figuralar haqida boshlang‘ich tasavvurga ega bo‘lishi, joy va vaqtni bilishi kabilar kiradi: bolalar olgan bilimlarini o‘zlarining kundalik mehnat va o‘yin faoliyatida, maishiy hayotida uchraydigan matematikaga doir savol va masalalarni hal qilishga tatbiq eta bilish malakalarini hosil qiladi 446as hu bilan birga bo’lajak yosh avlodlarimiz yanada ko’proq matematik tasavvur bilimlarga ega bo’lishadi. Shuningdek o’z ustida mustaqil erkin ishlaydilar hamda jamoa oldida o’z fikrini bemalol mustaqil erkin namoyish etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2707-sonli Qarori. 2016-yil 29-

dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 528- sonli Qarori. 2017-yil 19-iyul.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni. 2017-yil 30-sentabr.

4. Furqatovna. X.D Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali, 2022/4/15.

5. Umarova. U.V. MS Excel da matematik amallar va funktsiyalarni qo'llash. Ta'lim texnologiyalari. 2017 yil.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY MOSLASHUV KO‘NIKMALARNI SHAKIIANTIRISH OMILLARI

Qurbonova Nargiza Faxriddin qizi

CHDPU “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Maktabgacha yosh davrida bola xayotining xarakterli tomonlari uning jismoniy va psixologik shiddat bilan rivojlanishidir. Bolaning muloqot mazmuni kengayib atrof bilan muloqot va so‘z boyligi oshishi jarayonida bolada vaziyatdan tashqari nutqiy muloqotga ehtiyoj ham shakllanadi. Hayotining birinchi yilidayoq bolada tanlash shakllanadi. Bola juda erta o‘zinikini begonalardan ajratishni boshlaydi, ba’zi ota-onalr o‘zlari hoxlab yoki hoxlamay bolada yaqinlariga bo‘lgan bog’liqlikni mustahkamlaydilar uning muloqot doirasini toraytiradilar, boshqa kattalar bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantirishga urinmaydilar.

Ba’zida pedagogik bilimga ega bo‘lmagan ota-onalar bolada begonalarga nisbatan salbiy munosabatni uyg’otadilar. “mana amaki kelyapti seni olib ketadi” “qara qanaqa yomon xola ekan, agar yig’lasang seni unga berib yuboraman” degan gaplarning bola uchun qanchalar zararli ekanligini ota-onalar bilmaydilar.

Ma’lumotning yetishmasligi, xayot tajribasi kamligi, voqeani tanqidiy tushunib olmasligi bolaning bog’chaga borishini kattalardan ko‘ra umuman boshqacha tasavvur qilishiga sabab bo‘ladi.Adaptatsiya bu-organizmining tashqi muhit bilan adekvat aloqalarining shakllanish xususiyati. Avvalam bor shuni esda tutish lozimki, kichik yosh davrida bolada atrof muhitning o‘zgaruvchan sharoitiga, jumladan temperatura o‘zgarishlariga ko‘nikuvchanlik mukammal bo‘lmaydi shu sababdan bola shamollash kasalliklariga duchor bo‘lishi mumkin. Shuning uchun u judda ehtiyotkor muomalaga, parvarishga muhtoj. Agar bola tez-tez kasallansalar ularning atrof

muhidga qiziqishlari kamayib harakatlar, predmetlar bilan ammalar rivojlanishini anchayin sekinlashtiradi, natijada fikrlash, dunyoni qabul qilish va nutq o‘sishi ham sekinlashishi mumkin.

Shuningdek bolada yangi muhitga moslashish jarayoni ham qiyin kichadi. Muloqot doirasi qanchalar tor bo‘lsa, bolaning yaqinlari qanchalik kam bo‘lsa, bolaning muloqot tajribasi ham shunchalik kam bo‘ladi va begonalar bilan aloqa o‘rnatish shunchalik qiyin bo‘ladi. Tarbiyachi bola bilan birinchi kuniyoq aloqa o‘rnatishi lozim lekin bolada notanishlar bilan muloqot tajribasi bo‘lmasa u tarbiyachining barcha harakatlariga salbiy javob qaytaradi: yig’laydi tarbiyachidan uzoqlashishga harakat qiladi.Kichik yoshdagi bolalar tez charchaydilar. Bolaning charchashi uning o‘zini tutishida turli o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin, shakllangan ko‘nikmalar buziladi, kattalarga bo‘lgan salbiy munosabat va o‘z tengdoshlariga nisbatan agressiv munosabat belgilari paydo bo‘ladi. Salbiy odatlar namoyon bo‘la boshlaydi ya’niy barmog’ini so‘rish va shunga o‘xshash odatlar. Bolada ishtaha yo‘qoladi, uyqusi yo‘qoladi, kerak bo‘lsa stol oldida uxlab qolib, kerak paytda uxlamasligi mumkin, shu sababdan ortiqcha charchoqning oldini olishning eng yaxshi sharti kun tartibini tashkillashtirishdir. Ikki uch yosh bolalarda faol bo‘lib yurish muddati katta bolalarga nisbatan qisqaroq bo‘ladi. Faollik muddatini keragidan ko‘paytirib yuborish uyquni kamayishiga, bolada ortiqcha asabiyikka, bo‘shashish va injiqlikka olib keladi. Shunday ekan bolani guruhga olayotgan paytda u uyda qanday va qancha uxlaganiga qiziqish lozim va shunga mos tarzda bolaning bog’chadagi va oiladagi kun tartibiga o‘zgartirish kiritish lozim. Ortiqcha charchash nevro‘z paydo bo‘lishiga olib kelishi yoki bolaning nerv tizimi chidamliligi juda past bo‘lishi mumkin. Ajoyib pedagog K.D.Ushinskiy aytganidek “bolani to‘laqonli tarbiyalash uchun, uni to‘laqonli bilish lozim”. Bolalar ijtimoiy faolligini oshirish, bolada foydali odatlarni shakllantirish, ijobiy xulq-atvor belgilarini rivojlantirishda ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarning o‘rni beqiyosdir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki- bola bamisoli nihol uni tarbiyalash va sog’lom voyaga yetkazish bu ota-ona va tarbiyachi nafaqat bunda mahalla ham mas’uldir.

Chunki to‘g'ri tashkil etilgan faoliyat davomida bolaning aqliy, jismoniy, axloqiy rivojlanishi va atrofdagi kattalar bilan munosabati takomillashib boradi. Shuning uchun ham bolalar ijtimoiy faolligini bilish, bolada foydali odatlarni shakllantirish, ijobiy xarakter belgilarini rivojlantirishda nafaqat ota-onalar balki tarbiyachi-padagoglarning o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Tarbiya / ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi:

2.M.N.Aminov. Mas'ul muhar. A.Majidov. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

3.Z.S.Teshabayeva “Bolangiz bogchaga tayyormi” uslubiy qo`llanma T: MALIK RINT 2020 y

4.Sobirovna, T. Z. (2023). Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi shakllari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 34(2), 33-34.

5.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Bahtiyor oila” uslubiy qo‘llanma T: “HILOL- NASHR” 2022y 355 b

6.Ibraimov, X., G Gaynazarova, (2023). the content of preparing students for professional activity in the process of individual education. science and innovation, 2(b12), 330-333.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IQTISODIY TARBIYALASH

Maxmudova Marjona Muxtor qizi,

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim fakulteti talabasi

Respublikamizning iqtisodiy mustaqilligini, uning ilmiy salohiyatini saqlab qolish, mustaqil, ongli ravishda, shaxsiy va ijtimoiy hayotda mas’uliyatli qaror qabul qila oladigan erkin shaxsni tarbiyalamasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Bugungi kunda siyosat va ta'limning o'zaro aloqasi hamma uchun ochiq. Har qanday taraqqiy etgan jamiyatning iqtisodiy, intellektual, madaniy, ma'naviy va axloqiy salohiyati uning mazmuni va yo'nalishiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va zamonaviy o’zbek jamiyatining rivojlanishi sharoitida yosh avlodning iqtisodiy tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yangi iqtisodiy sharoitlar maktabgacha yoshdagi mustaqil, faol, mehnatkash, iqtisodiy jihatdan savodli, yuqori axloqiy, insoniy shaxslarni tarbiyalash zarurligini belgilaydi, bu esa insonning keyingi hayotiy faoliyatining asosi hisoblanadi.

Iqtisodiy tarbiya ham shaxsning barkamol shakllanishining zarur shartidir. Bolani iqtisodiy tarbiyalash pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolaveradi. Bozor iqtisodiga o‘tayotgan bir sharoitda va keyingi rivojlanishda ham yoshlarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhimdir. Bu sohada hukumatimiz g‘amho‘rlik ko‘rsatmoqda va pedagoglarimiz tadqiqotlar olib bormoqda. Iqtisodiy tarbiya bolalarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash, iqtisodiy madaniyat asoslarini shakllantirish, bolalarni iqtisodiyotga jalb qilish, bolaning moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlariga va umuman, bola shaxsiyatini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot nazariyasida o'rganilayotgan muammolarning xilma-xilligi tahsinga loyiq, biroq maktabgacha ta'limda bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning pedagogik shartlarini o’rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga dastlabki iqtisodiy bilimlarni berish, pul, bozor munosabatlari tushinchalarini shakillantirib borish zarurigi, bo’lajak tarbiyachilar uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga zamonaviy yondashuvlar asosida iqtisodiy tarbiya berishda tavsiyalar, ularning kasbiy sifatlarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib metodik shart-sharoitlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Iqtisod insoniyatning ibtidoiy davrlarida tovar ayriboshlashning paydo bo‘lishidan boshlab tarixiy nutai nazardan ochib berilishi kerak. Qanday qilib tovar ayriboshlashning rivojlanishi bozor strukturalari: ochiq va yopiq bozor, ko‘tarib yurib sotish, do‘konlar yarmarka va birjalarga olib kelganligini ko‘rsatib berish lozim. Modomiki bozor ayriboshlashning ibtidoiy shakllari xanuzga qadar takomillashtirilgan ko‘rinishda saqlanib qolgan ekan, bola tovar ayriboshlashning qadimgi shakli elementlaridan bozor infrastrukturasining zamonaviy tartibotlariga o‘tishni yaxshiroq eslab qoladi. Iqtisodiy tarbiyaning dastlabki bosqichlari uzoq tarixga ega. Ular kishilik jamiyati taraqqiyotiga mos ravishda tako‘millashib kelavergan. Iqtisodiy tarbiyaga tegishli ma’lumotlarni ilohiy kitob — Qur’oni Karimda va muqaddas kitob — Hadisi sharif hamda «Avesto» bitiklarida ham topish mumkin. Iqtisodiy tarbiya Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham bayon etib kelingan. Jumladan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlarida qozixonada meros va uni taqsimlash bo‘yicha alohida xodim faoliyat ko‘rsatishi qayd etilgan. Ular shubhasiz qozixonadagi iqtisodiy muammolar yechimlarini hal etish uchun jalb etilgan. Bu borada Farobiyning «Inson o‘z mablag‘ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg‘anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka etaklaydi», degan fikri o‘rilidir. Ahmad Yugnakiy “Hibbatul haqoyiq”da: “Mol-mulksiz kishi uchun bilim – bitmas-tuganmas mulkdir, kambag‘al uchun bilim hisob – xatosiz hisobdir”. Bu fikrdan shuni anglash zarurki, inson o‘zining ilmi bilan ijtimoiy hayotga tejamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘z hayotini oqilona tashkil qiladi.

Iqtisodiy tarbiyani oiladan boshlash talab qilinadi. Shu orqali bola oilasiga va qolaversa, shaxsan o‘ziga tegishli bo‘gan imkoniyat hamda ne’matlarning qadr-qimmatiga etishga erishiladi. Bunda oilaviy ehtiyoj zarur, uni bajarishga harakat qilish kera, oilaviy orzu-havas, oila ravnaqi uchun imkoniyat darajasida harakat qilish lozimligini bolaga tushuntirish kerak. Shundan keyin oila budjetini ochib berish kerak. Bolalarga oila daromadlari qanday xosil bo‘lishini, ularning tarkibi va tuzilishi haqida gapirib berish lozim. Ularga, shuningdek, ota-onalarning jismoniy va intellektual kuch-g‘ayrat sarflashi o‘g‘risida tushuncha berish zarur. Bundan tashqari, ularga yordamchi xo‘jalik, dala xovlidagi ishlar, meva va sabzavotlarni qayta ishlash, halq hunarmandchiligi buyumlari tayyorlab sotish natijasida kelib chiqadigan qo‘shimcha daromatlarni ko‘rsatib berish lozim. Asosiy vazifa — bolalarga oilaning yashash manbalari mehnat va faqat

mehnat bilan yaratilishi va bolalarning tobora ortib borayotgan talablarni qondirish uchun ota-onalar ishlashlarini tushuntirishdan iborat.

Iqtisodiy tarbiya bolalarning tevarak-atrofdagi muhitni, muayyan buyumlarni anglab, ularni avaylab-asrash va bilib olishning mustahkam vositasi bo'lib, ularga nazariy bilimlarni qo‘llash imkoniyatini yaratib beradi va ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi. Iqtisodiy ta’lim va tarbiyaning asosiy maqsadi bolalar ongida tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi iqtisodiy jihatlarni o‘z ichiga oluvchi xislatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat, ular orasidagi uzviy aloqadorlikni o‘rgatish va bolalarda shu bilimlarni hosil qilish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Marasulova, D. N. (2023). MAKTABGACHA TA’LIMDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISH. *GOLDEN BRAIN*, *1*(32), 26-30.
2. Toxtasinovna, X. S. (2024). MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI ELEKTRON DIDAKTIK O’YINLAR VOSITASIDA ZAMONAVIY KASBLAR BILAN TANISHTIRISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(1), 131-135.
3. Джамилова, Н. Н. (2011). К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАТОРСКИХ КАЧЕСТВ У ДОШКОЛЬНИКОВ (МАТЕРИАЛЫ ИССЛЕДОВАНИЯ). Педагогические науки, (6), 76-80.
4. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B7), 401-405.
5. O‘rozaliyeva A.A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida iqtisodiy bilim uchun qulay sharoit yaratish omillari. Zamonaviy ta’lim modernizatsiyasi:nazariya va amaliyot mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti Toshkent-2022 yil 206 bet
6. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.
7. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta’lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ARIFMETIK MASALALARNI YECHISHGA O‘RGATISHDA KOMPYUTER SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Auyezova Zernegul

TATU Nukus filiali kompyuter injenering ta’lim yo‘nalishi talabasi

Bola sonlar haqida boshlang‘ich tasavvurlarga ega bo‘lganidan, sanashni bilganidan, 10 soni chegarasida son qatorlari bilan tanishganidan, raqamlarni hamda butunni qismlarga bo‘lishni bilganidan keyin, endi ularni oddiy arifmetik masalalarni echishga o‘rgatish lozim. Buni tayyorlov guruhlaridan albatta elektron resurslar va multimediyalar asosida axborot kommunakatsion texnologiyalardan foydalanish asosida o‘rgatishdan boshlagan ma’qul.

Kompyuter texnologiyalari yordamida masalalarni echishda bola fikr yurita olishi, isbotlashi, o‘z harakatlarni dalillashi, nimani qo‘shish, nimani ayirish kerakligini tushunish lozim. Masalani echish bilan bola sonlar o‘rtasidagi farqni topa oladi, qo‘shish va ayirishni o‘rganadi. Masalalar bolalarda mantiqiy fikrlash, topqirlik, ziyraklikni rivojlantirish vositalaridan biri hisoblanadi. Masalalar bilan ishlashda analiz, sintez, umumlashtirish, konkretlashtirish, asosiylarni ochish, masala matnida asosiyni ajrata olish ko‘nikmasi takomillashadi.

Masalani echish chidamlilik, barqarorlik, erkinlikni tarbiyalashga imkon beradi, masala echimini izlash jarayonigi qiziqishni uyg‘otishga imkon beradi.

Bolaga beriladigan masala turlicha bo‘lgani ma’qul. Ular ko‘proq bir xil tipdagi masalalarni echishda ularning analoglari bo‘yicha echishga harakat qiladi. Ular masalalarni mexanik ravishda echishga o‘rganib qolishadi. Shuning uchun ularni axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida masala mazmunini tushunishga, tahlil qilishga, qo‘shish va ayirish kabilarga o‘rgatish lozim.Demak, maktabgacha yoshda bolalarni quyidagi tipdagi masalalarni echishga o‘rgatish kerak:

1. Yig‘indini, qoldiqni topish bo‘yicha masala:

3+1=

3-2=

2. Noaniq komponentlarni topish bo‘yicha masala:

a). Qo‘shiluvchi x+2=5; 2+x=5

b). Kamayuvchi x-2=5

v). Ayriluvchi 5-x=3

3. Bir qancha birlikka sonni oshirish bo‘yicha (2 ga katta, 2 ga kichik). Masalan, Azizda 7 ta konfet bor edi, Botirda 2 taga ko‘p. Botirda nechta konfet bor?

4. Farqni solishtirish masalalari. Azizda 5 konfet bor edi, Botirda undan 3 ta kam. Azizda nechta ko‘p konfet bo‘ldi?

Bog‘chada masala-kartinkalardan foydalanish, bolalarga masala syujetini tuzish, sonlardan foydalanishga yordam beradi. Kartinkalar ko‘zg‘almaydigan va jonli bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘l kartinkasi, unda baliqlar, qayik, g‘ozlar suzib yurishi mumkin. Bitta kartinkaning o‘zida turli mazmundagi masalalarni tuzish mumkin.

Masala-modellar. Bu bolalar fantaziyasi va ijodkorligi uchun yaxshi. Bunda faqat son qiymatlari beriladi, turli tipdagi masala mazmunini esa bolalar o‘zi o‘ylab topishadi. Masalan: Azizda 5 mashina bor edi, unga yana 2 tasini sovg‘a qilishdi. Azizda jami nechta mashina bo‘ldi? (yig‘indini topish). Botirda 5 ta mashina bor edi, Sobirda 2 taga ko‘p. Botirda nechta mashina bo‘ldi? (bir nechta birlikka sonni oshirish).

6. Masalalarni echishga A.M.Leushina tomonidan taklif etilgan an’anaviy o‘qitish metodikasini ko‘rib chiqamiz. U masalani echishga o‘rgatishni to‘rtta bosqichga ajratishni taklif etadi. Har bir bosqich aniq bir maqsadga ega.

Birinchi bosqich. Arifmetik masalalar bilan tanishish algoritmi.

1. Navbat bilan ikkitadan bola chaqiriladi. Ularga aniq bir harakatni amalga oshirish taklif etiladi (Aziza, stolga 6 ta piyola qo‘y, Sobir sen 2 ta).
2. Xabardor qilish: bolalar nima qilishdi, men masala tuzishni bilaman.
3. Masalani tuzish, savolni ajratish.
4. Bolalar unga javob beradi.
5. Bolalar 2-3 ta dramatik-masala tuzadi, qo‘yilgan savollarga javob beradi.
6. Shunga o‘xshash masalalarni tuzish, matematik savol bermaslik (masalan, bolalarning ismi kim).
7. Tushuntirish, masalada ko‘proq nima to‘g‘risida so‘raladi.
8. Tushuntirish, masalada savol “qancha” so‘zidan boshlanadi.
9. Hikoya tuzish, so‘rash, nima uchun buni masala deb aytish mumkin emas.
10. Tushuntirish, masalada kamida 2 ta son borligini.
11. Topishmoqni topish, uning masaladan farqini topish.

Ikkinchi bosqich. Masala strukturasi bilan tanishish algoritmi.

1. Masalani tuzish (bolalar tuzadi, kartinka bo‘yicha ham bo‘lishi mumkin).
2. Tarbiyachi shartdan keyin pauza qilib, uni takrorlaydi.
3. So‘raydi, masalada nima aniqligini.
4. Tushuntiradi: masaladagi aniq bo‘lgan shart hisoblanadi. Yana savol ham bor. Demak, masalada ikkita qism bor: nima aniq bo‘lsa – shart va savol.
5. Ikki nafar bola qismlar bo‘yicha masalani takrorlaydi.

6. Masala savollariga javob berishadi.

Uchinchi bosqich. Arifmetik misollarni shakllantirish va yozishga o‘rgatish.

1. Dramatik-masalani tuzish (ma’lumotlarni korzinkaga yashirish). Moxira korzinkaga 5 ta olmani qo‘y, Aziz sen yana 1 tasini qo‘y. Korzinkada jami nechta olma bo‘ldi?

2. So‘rash, qanday bilamiz, korzinkada nechta olma bo‘lganligini? (qo‘shish).

3. Tushuntirish: nima uchun hisoblash kerak, biz shunda ham bilamiz, 5 ta olma borligini, yana bitta qo‘sh. Bugundan boshlab, biz masalalarni quyidagicha echamiz: 5+1=6.

4. Bolalar echishni takrorlaydi (3-4 bola).

5. So‘zrash, nima qilish kerak, esdan chiqarmaslik uchun, biz uni qanday echamiz? (yozish).

6. Tarbiyachi raqamli kartochkalar yordamida yozadi, tushuntiradi, ya’ni so‘zni belgi bilan almashtiramiz +(plyus), – (ayirish).

7. Bolalar yozuvni o‘qishadi.

8. Yozuv bo‘yicha masalaning boshqa mazmunini o‘ylab topishadi.

To‘rtinchi bosqich. Ayirishga o‘rgatish.

1. Masalani tuzish, ma’lumotlar ko‘rinib turibdi.

2. Algoritm bo‘yicha analiz qilish. Masalada nima ma’lum? Noma’lum? Qanchaligini qanday bilsa bo‘ladi? 4+2=2

3. Tushuntirish, qanda qilib, 4+2=2.

2 sonida nechta birlik? Ularni navbat bo‘yicha hisoblash kerak. 4+1+1=6

Mazkur metod asosan yig‘indi va qoldiqni topishda ijobiy natija beradi. Bolalarni noma’lum komponentlarni topishdagi masalalarni echishda bu metod kam samarali hisoblanadi. Agar bolalarni butun va bo‘lak o‘rtasidagi nisbatni tushunishga o‘rgatsak, ular bunday masalalarni muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Bunda ular arifmetik amallarni tanlashga anglagan holda yondashadi.

Bunday metodikani N.I.Nepomnyashiy ishlab chiqqan. Uning metodikasi bo‘yicha o‘qitish quyidagicha olib boriladi:

1. Bolalarni aylana va yarim aylana yordamida butunning strukturasini grafik tasvirlashga o‘rgatish.

Tarbiyachi stolga qo‘yadi, masalan, 3 ta olma, 3 ta nok. Keyin so‘raydi. Qanday qilib bir so‘z bilan bu nimaligini aytish mumkin? (o‘yinchoqlar). Bu guruhning nechta bo‘lagi bor? (2 ta, aylanani aylanib o‘tish). Demak, butun guruh 2 ta bo‘lakdan iborat. Qaranglar, men ip bilan barcha guruh va uning bo‘laklarini chegaralayman (bolalar ham shuni qilishadi). Endi men buni chizaman deb tarbiyachi aytadi. Bunday ishlar bir qancha bor takrorlanadi. Teng va tengmas bo‘laklar olinadi, masalan, 5 va 5, 7 va 3, 8 va 2 kabilar.

Har safar butun bo‘lakdan kattaligini, bo‘lak esa butundan kichikligi tushuntirib beradi. Keyin tarbiyachi butundan bitta bo‘lakni olib qo‘yadi va tushuntrib beradi, ya’ni katta aylanada nima qolganini – butun holda (ikkinchi bo‘lak). Bu harakatni chizib ko‘rsatadi, kelishib oladi, ya’ni butunni butun aylana bilan, bo‘laklarini esa aylana bo‘laklari bilan belgilaydi.

Qaytadan butunni qanday olish mumkin? (bo‘lakni joyiga qaytarish kerak). Bolalar mazkur formulalarni tuzish uchun tarbiyachi multimedia va ko‘rgazmali qurollar bilan mashq qildiradi.

2. Keyin tarbiyachi bu formulalar bo‘yicha masalani echishning butun va bo‘laklarini topish bo‘yicha o‘qitadi. Bolalar masalaning qisqa mazmunini chizishga o‘rgatiladi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi: bolalarga masala taklif etiladi, masalan, 6 ta okun va 1 ta ershani tutib oldi, bola jami nechta baliqni tutib oldi? Masalada nima ma’lum? (bola 6 ta okun va 1 ta ershani tutib olgani). Masalada nima noma’lum ? (bola jami nechta baliqni tutib olgani).

Faoliyat oxirida kelinglar bolalar, esdan chiqarmaslik uchun masalani chizamiz. Kelishib olamiz, ma’umlarni sariq rang bilan, noma’lumlarni qizil rang bilan chizamiz. Demak, masaladagi ma’lumlar bo‘lak yoki butun, ularni sariq bilan chizamiz. Noma’lumlarni esa, (butun) qizil rang bilan chizamiz. Butunni topish kerak bo‘lgan formulani toping, unga masalada berilgan sonni qo‘ying va uni eching. Demak, butun 7 ga teng. YA’ni, biz masala savoliga javob berishimiz mumkin – bola jami 7 ta baliqni tutgan.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2019 yil 29 apreldagi PF-5712 Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 7 maydagi PQ-4708 son farmoni.

4. Bikbayeva N.U., Yangabayeva E., Girfanova K. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini boshlang‘ich matematik ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida o‘qitish. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – 88 b.

5. Glushkova YE., Leonova L. Kompyuter v detskom sadu // Doshkolnoye vospitaniye. – M.: Prosvesheniye, 2010. - №10. – S. 44-49.

6. Kalendarova Z.K. Organization work on developming matematikal presentations of childrens with help didactic games. Eastern European Scientific Journal. – Germany: Ausgabe, 2018.

7. Jorayeva, N. T., & Marasulova, D. N. (2024). EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. *World of Scientific news in Science*, *2*(2), 37-43.

9. Djamilova N.N Maktabgacha ta’limda metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2018, 51 b.

10. Djanpeisova G.E, Xodjimuratova B.N Matematik tasavvurlarni shakllantirish. O‘quv qo‘llanma. // “Tafakkur” nashriyoti/. – T.: - 2020 12 b.

OILADA VA MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI SOG’LOM VA SIFATLI OVQATLANTIRISH-DAVR TALABI

Ismoilova Ziyoda Nig’matjon qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta`lim yo’nalishi talabasi

Oilada va maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni sog’lom va sifatli ovqatlantirish bugungi kunda eng dolzarb muammolarimizdan biridir. Chunki sog’lom va baquvvat bola sifatli ovqatlanib, kun tartibiga muntazam rioya qilib borsagina kamol topadi, o’sadi, rivojlanadi, voyaga yetadi.

Maktabgacha ta`lim mutaxassislari 3 yoshdan boshlab bolani rivojlanishiga alohida e’tiborini qaratsa, ota-onalar esa bolani tug’ilganidanoq sog’lom va sifatli ovqatlanishiga muntazam qarab borishadi.

Bizning fikrimizcha, kompleks yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarning ovqatlanish madaniyatini shaxsning umumiy madaniyatining bir qismi sifatida shakllantirishni belgilaydigan barcha omillarning ta'sirini hisobga oladi, ya'ni bolalar bilan ta'limiy faoliyatni loyihalash, tarbiyachilarning ushbu yo'nalishda bolalar va ota-onalar bilan ishlashini tashkil etishi, oilaviy an'analar va ota-onalarning ovqatlanish madaniyati maktabgacha yoshdagi bolalarning ovqatlanish xatti-harakatlariga ta'sirini o’rganish talab etiladi.

Bolani tug’ilganidan 3 yoshgacha bo’lgan davrida oilada ota-onalar to’g’ri va sog’lom ovqatlanishiga alohida e’tibor qaratishi lozim. Bunda bolalarga tug’ilganidan 6 oygacha ovqatlantirish bo’yicha quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

• Bolangiz yaxshi o‘sishi va rivojlanishi uchun olti oygacha bolani faqat ko‘krak suti bilan boqish zarur. Unga boshqa ovqat, suv va ichimliklarni bermagan ma`qul.

• Ona suti bolani ozuqaga va suvga muhtojligini 6 oygacha to‘liq qoniqtiradi va issiq kunlarda chanqovini bosadi.

• Ona suti bolani sog‘lom bo‘lib o‘sishi hamda turli kasalliklardan, ayniqsa, ich ketishi, pnevmoniya, respirator infeksiyadan himoya qilishida uchun zarur moddalarni o‘zida saqlaydi.

• Ona suti yengil hazm bo‘ladi, har qanday sharoitda va istalgan vaqtda bor, kerakli haroratda va doim xavfsiz.

• Bolaga necha marta istasa, shuncha, kechasi va kunduzi ko‘krak sutini bering. Uni 24 soat davomida kamida 10–12 marta emizish lozim.

• Esingizda tuting! Bola qanchalik ko‘p ona ko‘kragini emsa, onada shuncha ko‘p ko‘krak suti hosil bo‘ladi (bola ko‘krakni to‘g‘ri emganda).

• Siz yoki bolangiz kasal bo‘lsa ham, ko‘krak bilan emizishni davom eting.

• Kasallik paytida bolangizni ko‘proq emizish kerak. Kasal bola uchun ona sutidagi ozuqa elementlari katta ahamiyatga ega, ko‘krak bilan emizish bemor bolaga qulaylik yaratadi.Bolani ona sog’lom o’sishi uchun 2 yoshgacha emizishi talab etiladi.

6 oydan 12 oylikkacha bo’lgan bolaga esa qo’shimcha ovqatlar berish tavsiya etiladi.

• Bolaning talabiga ko‘ra kunduzi ham, kechasi ham emizishni davom ettiring.

• 6 oyga to‘lgach, farzandingiz ko‘krak sutiga qo‘shimcha ravishda boshqa ovqatlarga ehtiyoj sezadi.

• Birinchi marta qo‘shimcha ozuqani kunning birinchi yarmida, bola injiqlik qilmayotgan va kasal bo‘lmagan paytda bering.

• 2-3 osh qoshiqdan taom bera boshlang.

• Asosiy ozuqa mahsulotlaridan, jumladan, sabzavotli pyure yoki bo‘tqadan (makkajo‘xori, guruch, grechkadan tayyorlangan) boshlang.

• Davriyligi: bolaga kuniga 3 marta qo‘shimcha ovqat bering.

• Miqdori: miqdorni asta-sekin kosachaning yarmigacha oshiring.(250 ml. hajmli kosacha). Bola berilgan ovqatni to‘liq yeganligiga ishonch hosil qilish uchun alohida idishdan foydalaning.

• Quyuqligi: bolaga oila uchun tayyorlangan taomni pyure shaklida bering. 8 oyga kelib, bola qo‘l bilan yeyish mumkin bo‘lgan taomlarni iste’mol qilishi mumkin.

• Xilma-xillik: har gal ovqatlanishda taomni xilma-xil qilishga intiling. Masalan: hayvonotga oid mahsulotlar (go‘shtli taom, tuxum va sut mahsulotlari); asosiy iste’mol mahsulotlari (boshoqlilar, ildiz mevalar); dukkaklilar va donlar; A vitaminiga boy meva va sabzavotlar (to‘q yashil va to‘q sariq rangli).

1 yoshdan 5 yoshgacha bo’lgan bolalarni sog’lom ovqatlantirish

• Umumiy oilaviy dasturxondan kuniga 3 marta ovqatlantiring. Bundan tashqari, kuniga ikki marta asosiy ovqatlanish orasida bolaga yeyish uchun yengil mahsulotlarni bering.

• Ovqat ratsionini turli mahsulotlar bilan boyiting. Agar bola yangi ovqatdan bosh tortsa, bir necha marta uni «tatib ko‘rishni» taklif qiling. Sizga bu ovqat yoqishini ko‘rsating.

• Ovqatlanishga majburlamang. Uni yoshi, o‘lchami va faolligiga asoslanib, mos keladigan miqdorda ovqat bering. Ovqat miqdorini bolaning yoshiga qarab ko‘paytirib boring.Kasal bolaga sifatli va to‘yimli ovqat zarur!

• Kasallikdan keyin bolani 2 hafta davomida odatdagidan tez-tez va ko‘proq hamda ovqatlantiring, ko‘krak bilan emizishni davom eting!

Oilada bolalarni turli kasalliklardan saqlash uchun quyidagi gigiyenik qoidalarga amal qilish talab etiladi.

• Xavfsiz suv ishlating.

• Barcha idishlarni, piyola va kosalarni sovunli eritma bilan yuving. Ularni yopiq holatda saqlang.

• Ovqat pishirishdan va bolani boqishdan avval, tagligini almashtirgandan so‘ng yoki hojatxonadan chiqqach qo‘llaringizni sovunlab yuving.

• Bolaning qo‘llarini ham sovunlab yuving.

• Meva va sabzavotlarni toza yuving.

• Barcha mahsulotlarga termik ishlov bering.

• Pishirilmagan va pishirilgan mahsulotlarni alohida saqlang.

• Taomni toza joyda tayyorlang va yopiq holatda saqlang.

• Bolaga o‘z idishidan ovqat yediring.

• Ovqatni tayyor bo‘lishi bilan suzing. Bir soatdan uzoq saqlangan taomni yaxshilab isiting.

• Tayyorlangan ovqatni uy haroratida ko‘p vaqt saqlamang.

• Oziq-ovqat mahsulotlarini hasharot va kemiruvchilardan saqlang.

Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilgan holda bolani 3 yoshdan maktabgacha ta`lim tashkilotiga berilsa, bola sog’lom o’sib voyaga yetadi, kasal bo’lmaydi.Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarning sog’lom va sifatli ovqatlantirishda 3-7 yoshli bolalar uchun namunaviy taomnoma ro’yxati tuziladi.Kun tartibiga rioya qilgan holda bolalarga maktabgacha ta`lim tashkilotida muntazam ovqatlantiriladi.Shu asosida bolalarga nonushta,tushlik va ikkinchi tushlik o’z vaqtida berib boriladi.Bundan eng asosiy ko’zlangan maqsad bolalarni sifatli ovqatlantirish va sog’lom voyaga yetishiga erishishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 25.07.2019 yildagi 626-son qarori.

2. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” dasturi. — T., 2022 yil.

3. Махмутазимова, Ю. Р. (2019). Роль воспитателя в детском саду в формировании личности ребенка. Actual Problems of Applied Sciences Journal World, (3), 24-28.

4. Maxmutazimova, Y., & Amirova, M. (2023). Rivojlanish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, *1*(2-3).

5. Махмутазимова, Ю. Р. (2020). Дошкольная образовательная организация и семья: взаимодействие ребенка и педагога. Вестник педагогики: наука и практика, (51), 125-126.

6. Махмутазимова, Ю. Р. (2024). БЎЛАЖАК МТТ ТАРБИЯЧИЛАРИНИНГ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ЁРДАМИДА РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРИЯТИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *14*(3), 98-103.

7. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta'lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

8. Юлдуз, М. (2024). ПУТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОГО ТВОРЧЕСТВА ДОШКОЛЬНИКОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *14*(3), 94-97.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Солодова Юлия Валерьевна *–*

студентка ТГПУ им. Низами, факультет дошкольного образования

С каждым годом растет число возможностей для использования мультимедийных технологий в образовании детей. Особенно важно это в дошкольном возрасте, когда формируются основы знаний и навыков. В данной статье мы рассмотрим, как можно применять такие технологии в процессе обучения дошкольников изобразительной деятельности.

Современное образование ставит перед собой цель не только передать знания и навыки, но и развить творческие способности и фантазию детей. Использование мультимедийных технологий в процессе обучения дошкольников изобразительной деятельности становится все более востребованным и эффективным способом достижения этой цели.

Мультимедийные технологии открывают перед детьми огромные возможности для творчества и самовыражения. С их помощью можно создавать интерактивные уроки, игры и приложения, которые помогут детям развивать свои художественные навыки и способности. Такие технологии позволяют создавать увлекательные задания и игры, которые будут вызывать интерес у детей и мотивировать их к активной учебной деятельности.

Кроме того, мультимедийные технологии позволяют создавать учебные материалы, которые учитывают индивидуальные особенности каждого ребенка. Благодаря интерактивности и разнообразию форматов, такие материалы могут быть адаптированы под уровень знаний и способности каждого ребенка, что помогает им лучше усваивать материал и развивать свои творческие способности.

Кроме того, использование мультимедийных технологий в обучении детей изобразительной деятельности помогает им лучше понимать и воспринимать художественные произведения. Благодаря возможности просмотра и изучения работ в различных форматах, дети могут развивать свои художественные вкусы и познавать мир искусства.

Таким образом, использование мультимедийных технологий в процессе обучения дошкольников изобразительной деятельности становится не только эффективным, но и увлекательным способом развития творческих способностей детей. Благодаря такому подходу, дети получают возможность самостоятельно творить, исследовать и узнавать мир искусства, что поможет им развить свой потенциал и стать более креативными и самостоятельными личностями.

Использование мультимедийных технологий в педагогике позволяет сделать обучение более интересным и эффективным. Например, с помощью интерактивных досок и программ можно создать увлекательные уроки, которые будут привлекать внимание детей и помогать им лучше усваивать материал. Также существуют специализированные программы для изучения изобразительной деятельности, которые позволяют рисовать, создавать анимации и многое другое.

Преимущества использования мультимедийных технологий в обучении дошкольников изобразительной деятельности очевидны. Во-первых, такие технологии делают процесс обучения более доступным и увлекательным. Во-вторых, они позволяют детям развивать творческие способности и фантазию. Кроме того, мультимедийные технологии могут помочь педагогам индивидуализировать процесс обучения, учитывая потребности каждого ребенка.

Однако следует помнить и о недостатках использования мультимедийных технологий. Например, возможна зависимость от гаджетов, негативное воздействие на зрение и мозг ребенка, а также отрыв от реальности. Поэтому важно правильно дозировать время, проводимое за экраном, и сочетать его с другими видами обучения.

В процессе обучения изобразительной деятельности у дошкольников широко применяются мультимедийные технологии, что делает процесс обучения более интересным и эффективным. Однако необходимо учитывать как плюсы, так и минусы такого подхода, чтобы обеспечить полноценное развитие детей.

Список литературы:

1. Амадебай, Е. 2022. 11 советов по написанию диссертационного анализа данных. https://www.analyticsfordecisions.com/dissertation-data-analysis/
2. Бидарра, Ж., Фигейредо, М., и Наталио, К. 2015. Интерактивный дизайн и геймификация электронных книг для мобильного и контекстного обучения. Международный журнал интерактивных мобильных технологий (IJIM), 9(3), 24. https://doi.org/10.3991/ijim.v9i3.4421
3. Бхасин, Х. 2020. Методы наблюдения - определение, типы, примеры, преимущества. https://www.marketing91.com/observation-method/
4. Доре, Р. А., и Дыня, Дж. М. 2020. Использование технологий и средств массовой информации в дошкольных классах: Распространенность, цели и контекст. Frontiers in Education, 5(600305). https://doi.org/10.3389/feduc.2020.600305
5. Дригас, А., Демокритос, Н., и Литрас, М. Д. 2015. Мобильное и мультимедийное обучение в дошкольном образовании. Journal of Mobile Multimedia, 11(1-2).

ИНТЕРАКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Тилонбоева Дилшода Кобилжон кизи,

студентка Дошкольного факультета ТГПУ им Низами

Современная модель дошкольного образования приблизилась к тому, когда возникла потребность в создании и применении педагогических технологий, которые обеспечат подготовку высокоинтеллектуальных и разносторонне развитых личностей, способных к активной социальной адаптации в обществе, началу трудовой деятельности, самообразованию и самосовершенствованию. На сегодняшний день современный воспитатель должен идти в ногу со временем, применяя новейшие технологии. Перед педагогами встает задача: обеспечить индивидуальный путь развития ребенка через

использование всех видов детской деятельности: образовательный, индивидуальный, конструктивно-исследовательский, организационно-проектный.

Сегодня очень эффективен и широко используется новый подход в обучении дошкольников – **интерактивное обучение. Интерактивность означает** способность взаимодействовать или находиться в режиме беседы, диалога с чем-либо (например, с компьютером) или кем-либо (человеком). Следовательно, интерактивное обучение – это обучение, построенное на **взаимодействии** обучающегося с окружающим его миром, развивающей предметно-пространственной средой, которая служит областью осваиваемого опыта.

Интерактивное обучение – это образовательный процесс, организованный таким образом, что практически все участники **оказываются вовлеченными** в процесс познания, имеют возможность понимать и рефлектировать по поводу того, что они знают и думают. Совместная деятельность воспитателей и дошкольников в процессе познания, освоения материала означает, что каждый вносит свой особый индивидуальный вклад, идет обмен знаниями, идеями, способами деятельности. Причем происходит это в атмосфере доброжелательности и взаимной поддержки, что позволяет не только получать новое знание, но и развивает саму познавательную деятельность, переводит ее на более высокие формы кооперации и сотрудничества.

Самой главной **задачей педагога** в интерактивной технологии является направление процесса обмена информацией и помощь в нем: выявление многообразия точек зрения; обращение к личному опыту участников; поддержка активности; соединение теории и практики; взаимообогащение опыта участников; облегчение восприятия, усвоения, взаимопонимания; поощрение творчества.

Практика показывает, что интерактивное обучение влияет на структуру непосредственной образовательной деятельности с детьми, требует особой организации и особого выбора необходимых интерактивных методов и приемов обучения. Технология интерактивного обучения дает возможность одновременно реализовать познавательные, коммуникативно-развивающие и социально-ориентационные аспекты образовательного процесса. Это позволяет педагогу решать комплекс обучающих задач за более короткое время и с более высоким качеством усвоения материала.

Цель интерактивного обучения состоит в обеспечении эмоционально-личностного роста каждого ребенка, в создании **комфортных условий**, при которых дети активно взаимодействуют между собой и при этом каждый чувствует свою успешность, свою интеллектуальную состоятельность, что делает продуктивным сам процесс обучения.

Сегодня вряд ли актуален вопрос — нужно ли интерактивное оборудование в дошкольном образовании. Ответ очевиден. Пришло время разобраться, какие устройства наиболее эффективны для использования в работе с детьми дошкольного возраста. В настоящее время создается множество простых и сложных компьютерных программ для различных областей познания. В зависимости от возраста ребенка и применяемых программ компьютер может выступать в роли оппонента по игре, быть рассказчиком, репетитором, экзаменатором. Существуют различные компьютерные средства, направленные на развитие различных психических функций детей, таких как зрительное и слуховое восприятие, внимание, память, словесно-логическое мышление и др., которые можно с успехом применять при обучении детей дошкольного возраста. Создание и развитие информационного общества предполагает широкое применение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовании, что определяется рядом факторов.

Во-первых, внедрение ИКТ в образование существенным образом ускоряет передачу знаний и накопленного технологического и социального опыта человечества не только от поколения к поколению, но и от одного человека другому.

Во-вторых, современные ИКТ, повышая качество обучения, позволяют человеку успешнее и быстрее адаптироваться к окружающей среде и происходящим социальным изменениям.

В-третьих, активное внедрение этих технологий в образование является важным фактором создания системы образования, отвечающей требованиям и процессу реформирования традиционной системы образования.

В настоящее время уже невозможно себе представить развитие современного общества и производства без ИКТ. К набору существенных преимуществ использования компьютера в обучении перед традиционными занятиями необходимо отнести следующее:

1. Информационные технологии значительно расширяют возможности предъявления учебной информации. Применение цвета, графики, звука позволяет воссоздавать реальный предмет или явление;

2. Использование компьютера позволяет существенно повысить мотивацию детей к обучению;

3. ИКТ вовлекают детей в воспитательно-образовательный процесс, способствуя наиболее широкому раскрытию их способностей, активизации умственной деятельности.

4. Обучение с применением компьютера способствует формированию у детей рефлексии.

Учебные программы дают возможность наглядно представить результат своих действий, возможность исправить ошибку, если она сделана. Сегодня ИКТ начинают занимать свою нишу и в воспитательно-образовательном пространстве ДОУ. Это позволяет:

- предъявлять информацию на экране монитора в игровой форме, что вызывает у детей огромный интерес, так как это отвечает основному виду деятельности дошкольника — игре.

- ярко, образно, в доступной дошкольникам форме преподнести новый материал, что соответствует наглядно-образному мышлению детей дошкольного возраста;

- привлечь внимание детей движением, звуком, мультипликацией;

- поощрять детей при решении проблемной задачи, используя возможности учебной программы, что является стимулом для развития их познавательной активности;

- развивать у дошкольников исследовательское поведение;

- расширять творческие возможности самого педагога.

Использованная литература:

1. Marasulova, D. N. (2023). BOLALARGA CHET TILINI O‘RGATISHDA MULTIMEDIALARNI O‘RINI. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(3), 83-87.
2. Марасулова Д. Н. АУТЕНТИЧНЫЕ ВИДЕОМАТЕРИАЛЫ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА //Results of National Scientific Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 252-259.
3. Марасулова, Д. Н. (2024). ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В ОБУЧЕНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *17*(2), 204-208.
4. Marasulova, D. N. (2023). MAKTABGACHA TA’LIMDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISH. *GOLDEN BRAIN*, *1*(32), 26-30.
5. Marasulova, D. (2023). Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, *1*(1).
6. Jorayeva, N. T., & Marasulova, D. N. (2024). EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. *World of Scientific news in Science*, *2*(2), 37-43.
7. Marasulova, D. N., & Alovatova, L. S. (2023). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘RGATISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 47-50.

8. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta'lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

BOLALARNI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ORQALI MATEMATIKA ELEMENTLARIGA METODIK JIHATDAN SAVODLI O‘QITISH

Yaxshimuradova Jansulu,

TATU Nukus filiali kompyuter injenering ta'lim yo‘nalishi talabasi

Bolalarni matematika elementlariga metodik jihatdan savodli o‘qitish bilan ularda son, hisoblash, o‘lcham, geometrik figuralar, fazo va vaqt haqidagi bilimlar tizimini shakllantirish mumkin. Masalan, kvadrat to‘g‘risida bilimni tizimlashtirish bilan biz uni bolalar bilan birga to‘g‘riburchak, to‘rtburchak sifatida xususiy holda ko‘rib chiqamiz. Yoki, kattaliklarni taqqoslash, seriyali qatorlarni o‘rnatish bilan bolalar amaliy yo‘llar bilan kattaliklar nisbati xususiyatlarini aniqlashadi.

Bilimlarni tizimlashtirish maxsus bilish vositalariga yordam beradi. Masalan: modellar, sxemalar, grafiklar, rejalar (yil, sutka, hafta qismi modeli, masala, uy plani va modellari). Bilimlar tizimini shakllantirish o‘qitish usullariga ham imkon beradi: masalan, muammoli-izlanuvchanlik. Matematik bilimlar turlicha shakllanadi: birinchi yo‘li: xususiydan umumiyga. Bolalarda kattalar rahbarligida aniq bir bilimlar yig‘iladi, keyin ular oddiy tushunchalargacha umumlashtiriladi. Ikkinchi yo‘li: umumiydan xususiyga (to‘rtburchak, ko‘pburchaklar haqida).

Zamonaviy matematikada “son”, “figura” kabi tushunchalarni asoslashda to‘plamlar nazariyasidan foydalaniladi. Bu o‘z navbatida bolalarda miqdoriy munosabatlarni shakllantirishga va natural son haqidagi tushunchani paydo qilishga sharoit yaratadi.

To‘plam ta’riflanmaydigan tushuncha bo‘lib, misollar asosida beriladi, masalan maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi bolalar to‘plami, qo‘ldagi barmoqlar to‘plami yoki gapdagi so‘zlar to‘plami haqida gapiriladi. Bundan tashqari, to‘plam biror narsaning yig‘indisini anglatuvchi so‘zlar o‘rnida qo‘llaniladi, masalan, guldasta, poda, ammo bu yig‘indida bitta yoki birorta ham element bo‘lmasligi mumkin.

To‘plamni turli usullar bilan berish mumkin, masalan, 2 va 0 sonlari orasidagi butun sonlar to‘plami, bog‘cha hovlisidagi daraxtlar to‘plami, viloyatdagi bog‘chalar to‘plami, umuman to‘plamni berish elementlarni sanash yoki uni tashkil etuvchi narsalarning xususiyatlarini aytish bilan beriladi.

Narsalarning sifat belgilarini ajrata bilish va ular uchun umumiy bo‘lgan bitta belgi asosida bir guruhga birlashtirish, sifatdan miqdor kuzatishlariga o‘tishning muhim sharti

hisoblanadi. Bolalar bilan ishlash narsalarning umumiy belgilariga qarab tanlash va guruhlarga birlashtirishni (masalan, barcha qizil rangli kubiklarni tanlab ol) topshirishdan boshlanadi.

To‘plam uning ayrim elementlarini ajratish, ularni to‘plamga birlashtirish yo‘li bilan bolalar to‘plamini uning elementlari birdan bir butun narsa deb idrok etishga o‘rganadilar. Bolalarga to‘plamlarni taqqoslash va uning tarkibiga kiruvchi elementlarni miqdoriga ko‘ra teng quvvatliligini aniqlash usullari o‘rgatiladi (masalan, echkilar qancha bo‘lsa, qo‘ylar ham shuncha, ruchkalarga qaraganda qalamlar ko‘p).

Bolalarda kattalik (miqdor) va ularning xususiyatlari to‘g‘risida dastlabki tasavvur hosil qilinadi, ular figuralar bilan tanishtiriladi, doira, kvadrat uchburchak shaklidagi narsalarning rangi va katta-kichikligidan qat’iy nazar, bir-biridan farq qilishga, ularning nomini aytishga o‘rgatish va shakllarning modelini tanlay olishi uchun kompyuter texnologiyalari, elektron resurslar va multimediyalardan foydalanish maqsadga muvofiq buladi.

Ishni bolaning nimani bilishini va nima qila olishini bilgan holda, ularga yangi bilimlar oz-ozdan, asta-sekin berish bilan tashkil qilinadi. Ish hajmini taqsimlashda ularning imkoniyatiga etarlicha baho bermaslikka yoki ortiqcha baho berib yuborishga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyatga ega, chunki har ikkala hol ham muqarrar sur’atda bolalarni mashg‘ulotda faoliyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Bilimlarni puxta o‘zlashtirishga mashqlarni bir necha marta takrorlash orqali erishiladi, so‘ngra ko‘rgazma material va texnik vositalar almashtirilib, ish usuli o‘zgartirib turiladi. Bolalar faoliyatining xarakterini o‘zgartirib turish, ularning faolligini saqlashga va charchab qolishining oldini olishga imkon beradi, ular tarbiyachini tinglaydi, uning ishini kuzatadi, o‘zlari ba’zi bir ishlarni bajaradi, umumiy o‘yinda ishtirok etadi.

Bolalar yangi material bilan 10-12 daqiqa davomida tanishishi mumkin, chunki yangi materialni o‘zlashtirish ulardan diqqat-e’tibor va kuch talab qiladi, takrorlash mashqlari o‘tkaziladigan mashg‘ulotni 15 daqiqagacha davom ettirish mumkin.

Maktab oldiga yangi maqsadlarning qo‘yilishi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida matematik ta’lim berish mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bu bo‘lajak tarbiyachi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ishlab chiqilgan “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” kursini o‘qish metodikasini egallab, chuqur o‘zlashtirib olmog‘i zarur. Tarbiyachilarni tayyorlash tizimida “Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish asoslari va metodikasi” kursi muhim o‘rin tutadi.

Bolalarda matematik ta’lim berish metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

- matematika o‘qitishda ko‘zda tutilgan maqsadlarni asoslash. Nima uchun matematika o‘qitiladi, o‘rgatiladi?

- matematika o‘qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish. (Nimani o‘rgatish?);

- bolalarga bilimlar qanday berilganda, bu bilimlar fan, texnika va madaniyatninig hozirgi zamon rivojlanishi talablariga mos keladigan bo‘ladi;

- matematika bilim berish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (Qanday o‘qitish kerak?), ya’ni bolalar hozirgi kunda zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni, qobiliyatlarni egallashi uchun o‘quv ishlari metodikasi qanday bo‘lishi kerak?;

- matematik bilimlarni egallash jarayonida bolalar shaxsining garmonik shakllanishi va rivojlanishini amalga oshirish uchun qanday o‘qitish kerak?;

- matematik bilim berish vositalarini darslik, didaktik material, qo‘llanma va texnik vositalarni ishlab chiqish (Nima yordamida o‘qitish?);

- ta’limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (Darsni va ta’limning mashg‘ulotdan tashqari shakllarini qanday o‘tkazish kerak?;

- Mashg‘ulot ishlarini qanday tashkiliy metodlarda o‘tkazish kerak? Mashg‘ulot jarayonidagi ta’limiy va tarbiyaviy masalalarni qanday qilib samaraliroq hal qilish kerak?).

Bolalarga bilim berish maqsadi, metod, vosita va shakllari metodik tizimning asosiy komponentlaridir.

Ta’limiy maqsadlar bolalarga real olamdagi yuz beradigan eng sodda hodisalardagi miqdoriy nisbatlarni tushunishga va olamdagi fazoviy shakllarni joylashishini, natural son, geometrik shakl, miqdor kabi tushunchalar abstrakt ammo, ular real borliqdagi predmetlarga xos bo‘lgan bog‘lanish va munosabatlarni aks ettiradigan hajmda bilimlar berishdir. Bu bilimlar fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishga mantiqiy fikrlay bilishga yordam berishi kerak. Matematikani o‘rgatish bolalarda o‘z ona tilida xatosiz so‘zlashga, o‘z fikrini aniq va ravon qilib bayon eta bilishga o‘rgatishda yordam berishi kerak.

Tarbiyaviy maqsadlar. Matematikaga doir bajariladigan ishlar bolalarni boshqa oladigan bilimlariga qaraganda ko‘proq bilish jarayonini rivojlantirishga, tirishqoqlikka, puxtalikka, aniqlikka o‘z fikr va xulosalarini nazorat qila olishga, ayniqsa kuzatish, tajriba va faxmlash asosida aytiladigan fikrlarining ravon bo‘lishiga e’tibor bera bilishga odatlantirish kerak. Bolalarda matematik bilimlarga bo‘lgan qiziqish, matematik xarakterdagi masalalarni sabr toqat va tirishqoqlik bilan echish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Amaliy maqsadlar: bolalarning nazariyani amaliyotga bog‘lay olishidan, ya’ni olingan bilimlarni amaliy masalalarni hal qilishga, bolalar to‘plam va son haqida, kattalik (miqdor)larning bir-biriga nisbati haqida, eng oddiy geometrik shakllar haqida boshlang‘ich tasavvurga ega bo‘ladilar, joy va vaqtni bilishni o‘rganadilar, ular olgan bilimlarini o‘zlarining kundalik mehnat va o‘yin faoliyatida, maishiy hayotida uchraydigan matematikaga doir savol va masalalarni hal qilishga tatbiq eta bilish malakalarini hosil qilish kerak.

O‘quv yilining boshida o‘rta guruh tarbiyachisi bolalarning kichik guruhda olgan bilimlarini yoz davomida ma’lum darajada unutib qo‘yganliklarini sezadi. O‘rta guruhga yangi bolalar ham keladi. 5-6 mashg‘ulotni o‘tilganlarni takrorlashga bag‘ishlash va bolalarni yangi materialni idrok etishga tayyorlash zarurligi ma’lum bo‘ladi. Asosan sanoqni o‘rgatish va sonlar bilan tanishtirish uchun zarur bo‘lgan tasavvur, ko‘nikma va malakalar mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarni narsalarning boshqa belgilari ichidan kattalik tomonini ajrata bilishga o‘rgatish muhim. Bunga mazkur holda guruhning unchalik ahamiyatli bo‘lmagan belgilarini, narsalarning rangi, katta-kichikligi va joylashuvini o‘zgartirish orqali erishiladi. Kattalik tuzilishi turlicha bo‘lgan to‘plamlar bilan ishlash bolalarda narsalar sonini aniq belgilash zaruratini hosil qiladi. Sanoqda o‘zlashtirish uchun sharoit paydo bo‘ladi. Bu mashg‘ulotda ba’zi fazoviy tasavvurlar aniqlanadi, o‘ng chapni farqlash, narsalarni chapdan o‘ngga qarab o‘ng qo‘l bilan ko‘rsatish, yuqorigi va pastki, chapdan o‘ngga iboralarini tushunish ko‘nikmasi mustahkamlanadi.

Bolalar figuralar doira, kvadrat, uchburchakni sezish, harakat va ko‘rish yo‘li bilan tekshirib ko‘rishni mashq qiladi, ularni rang va hajmlaridagi farqlarga qaramasdan bilib olishni o‘rganadi. Ularning o‘lcham munosabatlari uzunroq-qisqaroq, kengroq-torroq, ko‘proq-kamroq haqidagi tasavvurlari va tegishli munosabatlarni aniqlash uchun yonma-yon va ustma-ust qo‘yish usullaridan foydalanish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Birinchi mashg‘ulotdayoq bolalarda bu ko‘nikmalarga qiziqish uyg‘otish va shug‘ullanish malakasini o‘stirishni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Щукшина С.Е. Готовность будущих педагогов дошкольного образования к реализации задач математического развития дошкольников. Дошкольник методика и практика воспитания и обучения, (2016), 1 (январь), 17-24.

4. Kalendarova Z.K. Organization work on developing matematikal presentations of childrens with help didactic games. Evropean Scientific Journal. – Germany: Ausgabe, 2018.

5. Календарова З.К. Методы и методические приеми обучения детей дошкольного возраста математике. Московской области «Государственний гуманитарно-технологический университет»: «Студенческая наука подмосковья» материалы международной научной конференции молодых ученых. – Орехово-Зуево: Редакционно-издательский отдел ГГТУ, 2018. – С. 221-224.

IV-SHO‘BA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV VA TA’LIM BILAN AMALIYOT INTEGRATSIYASI

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISH SABABLARI

T.L. Xurvalieva
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

X.A.G’ulomjonova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti MBTJT yo’nalishi talabasi

Bola shaxsining tahlil qilish jarayonida uning individual va shaxsiy xususiyatlarni taqqoslash kerak. Ma’lumki, individual sifatlar tug‘ma qobiliyat va tepmerament bilan bog‘liq. Shaxsiy fazilatlar ijtimoiy muhit va kundalik hayoti davomida shakllanadi. Shuning uchun bolalarning qobiliyatini rivojlantirishda individual xususiyatiga tayangan xolda muloqot va faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiqMaktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z xohish va harakatlariga erishish uchun axloqiy motivlar “Men o‘zim bajaraman” tushunchasini ixtiyoriy ravishda yuzaga keltiradi. Axloqiy tuyg'ular boshqa motivlarga qaraganda ko'proq harakatlantiruvchi kuchga ega bo‘ladi. Bolalarning shaxsiy rivojlanishi ierarxik motivlar asosida ro‘y beradi. 3-4 yosh bolalarda o‘z-o‘zini anglash, “MEN” obrazi shakllanadi [1,67]. Ixtiyoriy ravishda impulsiv harakatlar amalga oshadi. 5-6 yosh bolalarda esa, bolaning ixtiyoriy xulq-atvorining ustunligi ongli ravishda namoyon bo‘ladi. Katta maktabgacha yosh ixtiyorsiz harakatlar bilan tavsiflanadi, bu ularning xulq-atvorining nisbiy barqarorligini ta'minlaydi. Bolalarni xissiy jihatdan rivojlantirish va faollashtirish uchun o'yin motivi boshqa bir qator motivlarga (kognitiv, kommunikativ) qaraganda ustunlik qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin aqliy va emotsional rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Bolalardagi xavotir, vahima va xayajonning kelib chiqish omillari quyidagilardan iborat:



Bolalik davrida o‘z-o‘zini anglash, o‘zini namoyon etish, shaxsiy sifatlari, qobiliyati, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik qadamlari rivojlanadi. Asta-sekin “MEN” konsepsiyasi namoyon bo‘ladi. Avvalo 5-7 yosh bolalar o‘zini ob’ektiv belgilarga ko‘ra identifikatsiya qila oladi ya’ni jinsi, yoshi, yashash manzili va ijtimoiy munosabatlari haqida so‘zlab beradi. Bolada ijobiy sifatlar o‘ziga bo‘lgan emotsional munosabati, nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini farqlashi, yutuq va kamchiliklarini bilishi, o‘zini odilona baholay olishi kerak. O‘z-o‘zini baholash yetarlicha barqaror va ba’zan anglamagan holda kechadi. Xayotiy vaziyatlardan kelib chiqib, maqsadga intilish amalga oshirilayotgan faoliyatga bog'liq.

Tarbiyachi-pedagoglar bolalardagi emotsional rivojlanishning dinamik tavsiflarni bilishi lozim.

Birinchidan, bola impulsiv yoki spontan harakatda bo‘lishi mumkin, bunda vaziyatni oldindan baholab bo‘lmaydi yoki aksincha;

Ikkinchidan, refleksiv ya’ni biror bir faoliyat bajarishdan avval, narsa-buyumlar yoki voqealar haqida mushohada yuritish;

Uchinchidan, o‘zgaruvchanlik, tez muddatda bir faoliyatdan, boshqasiga o‘tadi, kayfiyati ham tez o‘zgaradi, rigidlik yuz beradi.

To‘rtinchidan, biror faoliya bilan uzoqroq mashg‘ul bo‘lsa, agar faoliyati tugallanmasa, boshqasiga qiyinchilik bilan o‘tadi.

Ba’zan bola atrofidagi odamlarga ekstravert yoki introvert holatda bo‘lishi mumkin, bu atrofidagi odamlar va vaziyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularni begona odamlar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga o‘rgatish kerak. Har bir insonda individual sifatlar mavjud bo‘lib, uning xulq-avtorini belgilaydi, atrofidagilar bilan muloqoti va o‘z-o‘ziga munosabati turlicha kechadi. Mazkur sifatlar bola shaxsi tuzilishining muhim sharti hisoblanadi. Bolalarning psixik rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan muammolar tajovuzkorlik va xavotirni yuzaga keltiradi. Jahldorlik

yoki xavotir bola hayotida yuz beradigan salbiy xodisalar, unga qo‘yilgan cheklovlar natijasida paydo bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mazmunli faoliyatini tashkil etish va kerakli natijalarga erishish uchun tarbiyachi-pedagoglar, psixolog yordam ko‘rsatadi. Biroq kattalar tomonidan ko‘rsatilgan tajovuzkor xatti-harakatlar salbiy deviant xulq-atvor buzilishiga olib keladi, masalan: ortiqcha jismoniy yuklama, kun tartibiga amal qilmaslik, noto‘g‘ri turmush tarzi, qulay sharoit yaratmaslik.

Bolalarda agressiv xulq atvor yoki jahldorlik nizolarni keltirib chiqaradi, o‘z istagan narsalarga erishishga xavotirlanishdan jahl qiladi, ximoyalanish holati yuz beradi, natijada janjal va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari uchraydi. Xavtorlanish bola va uning atrofidagi yaqinlarini hayotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xavotir va vahima stress xolatida, muhim muammolarni hal etishda, o‘quv jarayonida yoki oilada namoyon bo‘ladi. Biroq, vahima psixik buzilishlar belgisi bo‘lishi mumkin, biroq, xavotir o‘tib ketmaydi va u kuchayishi mumkin. Bolaning kundalik faoliyati va hayot tarziga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Takroriy salbiy voqea va xodisalar kuchli xayajon xosil qilishi, qo‘rquv va salbiy hissiyotni keltirib chiqarishi mumkin. Bolalarda uchraydigan kuchli xayajon va xavotir ta’sirida muskullar zo‘riqishi, turlicha og‘riqlar, ko‘p terlash, yurak urishi tezlashishi, bosh aylanish, xavot yetmaslik, diqqat jamlanishida buzilishlar, uyqusizlik, o‘quv jarayonidagi passiv faoliyat kuzatiladi.

Xavotirlanish va xayajonni kelib chiqishi quyidagi xolatlar bilan tavsiflanadi:

- oddiy hodisalar yoki hayotiy vaziyatlar, sog‘lik, oila, tengdoshlari va o‘yin jarayonidagi tortishuvlar va doimiy tashvishlanish;
- doim qaytarilib turuvchi salbiy voqealar, kutilmagan nokulay vaziyat, janjal va nizolar;
- ijtimoiy muhitdagi vaziyatlar, qo‘rquvni xis qilish va sotsiofobiya (ijtimoiy qo‘rquv), atrofidagi odamlar bilan munosabatdagi noqulay holatlar, atrofdagilarni salbiy baholashi, muloqotdan qochish;
- Ota-ona yoki yaqinlari (bobo, buvi, qarindoshlar)dan ayrilish;
- Fobiya (qo‘rquv) fikrlarni biron bir ramka bilan chegaralamasdan, avvalo his-tuyg‘ular va tajribalarni anglatadi. Irratsional fikrlash o‘z-o‘zini anglashga va hissiyotlarga asoslangan impulsiv qaror qabul qilishga asoslangan. Bolada to‘satdan to‘g‘ri qarorni anglash, to‘g‘ri fikrning bir zumda paydo bo‘lishidir. Ayrim bolalar xattoki insonlar xam balandlikdan, yopiq muassasa, samolyotda uchish, xayvon yoki xashoratlardan qo‘rqadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotir, ruxiy zo‘riqishni bartaraf etish uchun, psixolog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorlikda ishlashi lozim. Eng muhimi bolalarda xulq-atvor terapiyasi o‘tkazilishi kerak. Ya’ni tafakkur, idroq va odob-axloq me’yorlarini shakllantirishdagi xatoliklar

ustida korreksion ishlar olib borish zarur. Natijada bolalarda individual strategiya shakllanadi, qo‘rquv va xavotirni paydo qiluvchi voqea va hodisalarga bo‘lgan munosabatni o‘zgaradi.

Adabiyotlar taxlili va amaliyotdagi kuzatuvlarimiz asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotir va vaxima, emotsional zo‘riqishni bartaraf etishda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tizimliravida jismoniy mashqlar bajarish, stressli vaziyatlarni oldini olish, sog‘lom ovqatlanish va to‘g‘ri uyquni tashkil etish kerak.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Бернс Р. Я — концепция и воспитание.— М.: Прогресс, 1986. — 209 с.
2. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте: психологическое исследование. — М.: Просвещение, 1968.— 297 с.
3. Выготский Л. С. Учение об эмоциях: историко-психологическое исследование: собр. соч. в 6 т. — М.: Педагогика, 1984-300 с.
4. Сергиенко Е. А. Социально-эмоциональное развитие детей. Теоретические основы. — М.: Дрофа, 2019- 248 с.
5. Эльконин Д. Б. Детская психология. — М.: Академия, 2007-297 с.
6. Эриксон Э. Детство и общество. — СПб.: Питер, 2019-302 с.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHNING ME’YORIY ASOSLARI

Lutpillaeva Aziza Mirkarimovna *Respublika akusherlik va gnekologiya ilmiy-amaliy markazi shifokori*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni bilan reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, perinatal markazlarni zarur tibbiy texnika va buyumlar bilan jihozlash, ularni malakali kadrlar bilan ta’minlash vazifasi belgilandi.

Onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash, shuningdek, 2022 yil 18 mart kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘liqni saqlash sohasi vakillari bilan «Tibbiyotdagi islohotlar — inson qadri uchun» mavzusidagi ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida:

Quyidagilar 2022 — 2026 yillarda onalar va bolalar salomatligini mustahkamlashning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan:

- sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inida onalar va bolalar o‘rtasida kasalliklar profilaktikasi, ularni barvaqt aniqlash va sog‘lomlashtirish dasturlarini amaliyotga joriy etish, shu jumladan:

- sog‘lom farzand tug‘ilishi, rivojlanishi va tarbiyasi masalalari bo‘yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish,

-to‘g‘ri ovqatlanish hamda jismoniy faollikni oshirishni targ‘ib etish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish;

- bolalar, homilador hamda emizikli ayollarni vitamin va minerallar bilan bepul ta’minlash hamda maqsadli skrining tadbirlari orqali kasalliklarning samarali profilaktikasini olib borish;

- 2022—2026 yillarda onalar va bolalar uchun tibbiy xizmat ko‘rsatiladigan ob’ektlarni rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

- diagnostika va davolashning yuqori texnologiyali hamda innovatsion usullarini amaliyotga joriy etish hamda soha xodimlarining ilmiy salohiyatini muntazam oshirib borish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 noyabrdagi «Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko‘lamini yanada kengaytirish to‘g‘risida»gi PQ-4513-son qarori bilan tashkil etilgan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish kengashi: onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha qabul qilingan dasturlar hamda chora-tadbirlarning bajarilishini doimiy nazorat qilib bormokda.

Sog‘liqni saqlash vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda «Reproduktiv salomatlik, onalik va bolalik masalalari bo‘yicha» respublika shtabi, 14 ta hududiy shtablar faoliyatini yo‘lga qo‘yilgan.

Hududlarda aholi reproduktiv salomatligini muhofaza qilish, onalar va bolalarga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat faoliyatini tizimli o‘rganish, tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash hamda ijrosini nazorat qilish shtabning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) ekspertlari tomonidan O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim bolalar salomatligi va ularning aqliy rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi o‘rganilgan. 2017-2022 yillarda O‘zbekistonda 1-6 yosh oralig‘idagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi sezilarli darajada oshgan

3-6 yosh oralig‘idagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi esa 25,4 foizdan 68,3 foizga oshgan. Ushbu ko‘rsatkich dunyo miqyosidagi o‘rtacha ko‘rsatkich (61 foiz) dan yuqori.

Multiple Indicators Cluster Survey (MICS) ning 2022-2023 yillarga oid hisobotiga koʻra, 2023-yilda Oʻzbekistonda 5 yoshgacha boʻlgan ortiqcha vaznli bolalar umumiy bolalar sonining 5 foizdan kamrogʻini (oʻgʻil bolalarda 5 foiz, qiz bolalarda 4 foiz) tashkil etgan.

Ma'lumot uchun: Multiple Indicators Cluster Survey (MICS) bu BMT bolalar jamgʻarmasi — YuNISEF tomonidan bolalar va ayollarning holati haqida aniq ma'lumot olish maqsadida ishlab chiqilgan dastur doirasida koʻplab koʻrsatkichlar boʻyicha oʻtkaziladigan klaster tekshiruvidir.

Boʻyi yoshiga nisbatan past boʻlgan bolalar 7 foizni, 5 yoshgacha boʻlgan kam vaznli bolalar umumiy bolalar sonining 2 foizini tashkil etgan.

MHTI mutaxassislari tomonidan MICS ma'lumotlari asosida oʻtkazilgan ekonometrik tahlil davomida quyidagilar aniqlangan:

Maktabgacha ta'lim jarayonida ishtirok etgan bolalarning boʻyi ishtirok etmaganlarnikiga nisbatan 1,83 santimetr uzunroq, vazni esa 0,65 kilogramm ogʻirroq boʻladi.

Tana massasi indeksi (Body Mass Index) asosida qilingan tahlil maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bolalar vaznining yoshiga nisbatan kam boʻlib qolish ehtimolini 1 foizga kamaytirishini koʻrsatgan.

Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish bolalarning aqliy va emotsional sogʻligiga ham oʻz ta'sirini koʻrsatadi. Xususan:

- maktabgacha ta'lim jarayonida qatnashish bolalarda 10 gacha sanay olish qobiliyati oʻrtacha 19,9 foizdan 21,4 foizga;- asosiy muloqot koʻnikmas

i oʻrtacha 3 foizgacha;- alifbodagi harflarni tanish ehtimoli 8;

- ijtimoiy munosabatlar (oʻynash, doʻstlashish) da qiyinchilikka duch kelish ehtimoli taxminan 4 foizdan kam boʻlgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan koʻrinib turibdiki Oʻzbekistonda bolalar va onalar salomatligi boʻyicha keng koʻlamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bolalarning tugʻilishidan boshlab, onalarni homiladorlik davridagi xolatini muntazam kuzatib borish, irsiy kasalliklarni skrining qilish orqali erta aniqlash, kasalliklarni oldini olish va ularni bartaraf etish boʻyicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohatlarni markazida albatta maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatligi va ularda sogʻlom turmush tarzini tarbiyalash ustuvor masala sifatida dolzarb boʻlib qoladi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-60-son Farmoni.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish toʻgʻrisida 2022 yil 25 aprel PQ-216-son qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 noyabrdagi «Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko‘lamini yanada kengaytirish to‘g‘risida»gi PQ-4513-son qarori.

БОЛАЛАРНИ МАКТАБ ТАЪЛИМИГА ТАЙЁРЛАШДА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ВА ОИЛА ҲАМКОРЛИГИ

Тошмухаммедова Азиза Сухбатиллаевна

Тошкент шаҳар Юнусобод тумани 253-сонли давлат мактабгача таълим ташкилоти директори

Ўзбекистон Республикасида мактабгача таълими соҳасининг ривожланишида жуда катта ўзгаришлар бўлиб келмокдаки, соҳа вакилларини улкан бунёдкорлик ишларига ва ислоҳотларга чорламокда. Албатта, узлуксиз таълим мактабгача таълимдан бошланади. Фарзандларимизнинг юксак интеллектуал салоҳиятли, етук ва баркамол шахс булиб улғайиши мактабгача таълим ташкилотида олиб бориладиган таълим-тарбия жараёнига боғлик.

Маълумки, мактабгача таълимнинг самарадорлигини тавсифловчи энг асосий курсаткич 3 ёшдан 6-7 ёшгача булган болаларни мактабгача таълим ташкилотларига камраб олиш ҳисобланади. Бугунги кунда республикамизда мактабгача таълим ташкилотларининг сафи кенгайди ва уларга болаларни қамраб олиш 70 фойиздан кўтарилганлиги барчамизни қувонтиради. Бу билан биз юртимиздаги мактабларга соғлом, теран фикрлайдиган, мулоқотга кириша оладиган бўлғувчи ўқувчиларни етказиб берамиз.

Шу билан бирга мактабга тайёрлов гурухларига қамраб олинмаган болалар ҳам мавжудлиги ва улар жисмоний, руҳий ва аклий жиҳатдан тўлиқ ўқиш фаолиятига тайёр бўлмаган ҳолда мактабга келиб, махсус тайёргарликдан ўтган болалар билан бирга бошланғич таълимни оладилар. Ушбу тафовут таълим самарасига салбий таъсир этади.

Олиб борилган кузатувлар ва таҳлиллардан кўринадики, агар бола мактабгача таълим ташкилотига бормай туриб, мактабга чиқса, унинг бошланғич синфда ўқиш фаолияти етарли даражада самарали булмайди. Яъни, болада таълимга мослашиш - адаптация суст кечади, унинг ижтимоий муносабатларга киришиши, мулокоти, ақлий фаолияти суст равишда булади. Болада куп ҳолларда жисмоний, руҳий жиҳатдан тайёр эмаслик ҳолати кузатилади. Бир синфда укишга келган болаларнинг мактабга тайёрлик даражаси турлича булган ҳолатда - мактабга тайёрланган ва тайёр бўлмаган боланинг таълимни олишга нисбатан руҳиятида бир қатор хислатлар вужудга келади. Мактабга махсус тайёрланган болада дадиллик, ишонч, фаоллик, ўз тенгдошлари орасида ўзини

эркин тутиш кузатилса, мактаб таълимига тайёрланмаган болада эса зўриқиш, уялиш, ҳадиксираш, ўзига нисбатан ишончсизлик каби бир қатор салбий хислатлар намоён бўлади ва бу ўз навбатида, унинг таълим самарасига салбий таъсир кўрсатади, албатта. Таълим олиш мотивацияси, илк ўқув кўникмалари шаклланмаган, психик жараёнлари ривожланмаган бола ўзлаштиришда орқада қолади, ўқишга нисбатан қизиқиши сўниб боради ва яккаланиб қолади.

Маълумот ва мушоҳада учун ушбу далилларни келтирамиз: инсон мияси 100 миллиардлаб нейронлардан, яъни фаол ҳужайралардан иборат. Ҳар бир нейрон дарахт шоҳлари каби боғланиб, маълумотни сақлайди. Ҳар бир нейрон бамисоли кучли компьютер каби бошка ҳужайралар билан боғланади ва уларга турли ахборотларни уза-тади. Шуни қайд этиш лозимки, бола шахсидаги ўқишга бўлган қобилиятнинг 50 фоизи дастлабки тўрт йили давомида ривожланади. Яна 30 фоизи 4 ёшдан 8 ёшгача бўлган даври давомида ривожланади. Бу даврда мия фаолиятидаги нейронларнинг ўзаро боғланиши фаол ривожланади, агар бола 10 ёшга тўлгунигача нейрон боғламлари фаол шаклланмаса, улар фаоллашмайди ва «ўлади». Бола тарбияси психологик жиҳатдан масъулиятли ва нозик масала булиб, бу вазифани бажаришга биз катталар эътиборимизни жиддий қаратишимиз лозим. «Бир ёшдан олти ёшгача булган болаларни вояга етказишга алоҳида ёндашув бўлиши лозим...”. Фанда илмий асосланган шундай тушунча борки, инсон бутун умри давомида оладиган ахборот ҳажмини юз фоиз деб ҳисобласак, олти-етти ёшгача олган информацияси унинг эллик фоизидан купроғини ташкил қилар экан. Шу ҳакикатни ҳар бир оилага, ҳар бир ота-онага тушунтириб бера олсак, жуда катта ишни амалга оширган буламиз. Фикримизни яна психологик далиллар билан изоҳлаймиз: боланинг гўдаклик даврида унинг мияси бамисоли оқ қоғозга ухшайди. Унга нима айтилса, «оқ қозоз»га ўша маълумот ёзилиб қолади. Боладаги салбий хислатлар ҳам, ижобий хислатлар ҳам у билан бўлаётган мулоқотга ва муносабатга бевосита боғлиқдир. Шунинг учун болани атрофидаги катталар гўдаклик давридан бошлаб, у билан муносабатларда жавобгарликни ҳис этишлари зарур.

Одатда, 2-3 ёшли болалар ота-оналарига тақлид қилишни яхши кўрадилар. Бола атрофдагилардан маънавий озуқа олади, уларга тақлид қилади, хулқ-одобни ўзлаштиради. Улар ўз ўйинларида ота, она ёки шифокор бўлиб, катталар нима қилса шуни бажаришга ҳаракат қиладилар. Улар болаларни овқатлантириш, касалларни даволашни ўзларича амалга оширадилар. Бу яхши ҳол, албатта. Лекин оилада аҳллик бўлмаса, кайнота-кайнона ва келин-куёв можароси тез-тез булиб турадиган хонадонларда таклид бутунлай бошқача тус олади, салбий ҳаракатлар кузатилади. Бир нарсани унутманг, фарзанд тарбияни, энг аввало, ўз ота-онасига қараб ўрганади. Ота-онанинг ўзи фарзандига ибрат бўла олмас экан,

уни қанчалик тарбияламасин, бари бефойда бўлиши мумкин.Психологлар боладаги тажанглик, гапга кирмаслик, ёвузлик каби салбий хислатлар шу оила муҳитида кузатилиши ва мавжудлигини уқтириб дейишади: «Эсда тутинг, қаршингиздаги «бераҳм», «ёвуз», «гапга кирмас», «тажанг» бола - сизнинг ўзингиз! Ахир, у сизнинг оилангизда вояга етяпти».

Психолог олимлар соғлом бола шаклланишида унинг эҳтиёжлари муаммосига эътибор қаратганлар. Уларнинг фикрича, илк болалик даврида кузатиладиган асосий эхтиёжлардан бири боланинг билиш эхтиёжидир. Мазкур эхтиёж асосан боланинг у ёки бу нарса, ходиса ҳакида атрофидагиларга берадиган саволларида намоён бўлади. Рухий ривожланиши меъёр даражасида булган 3-5 ёшли бола, имконини топса, бир кунда атрофидагиларга 5000 га яқин саволлар билан мурожаат қилади. Бу эса шу ёшдаги болаларда бир кунда беш минг марта атрофида билиш эхтиёжи юзага келади, деганини англатади. Албатта, бу ҳолат гўдак бир кунда ота-онаси ва оиласининг катта ёшдаги бошка аъзоларига минг хил савол билан мурожаат килади, дегани эмас. У бир саволни унлаб марта такрорлаши мумкин. Шундай ҳолатда бола учун муҳими унинг ҳар бир саволига илмий асосланган жавоб берилиши эмас, балки саволига қандайдир жавоб олишидир. Берилган саволга жавоб олингач, навбатдаги савол тайёр туради.

Лекин катталар, ота-оналар болада пайдо бўлган бу саволларга жавоб кайтаришга ўзларида журъат, тоқат, сабр топа олмайдилар, унинг билиш эхтиёжини сўндирадилар ва натижада болалик давридаёк биз гоҳида болаларни бефарқ қилиб қўяр эканмиз. Шунинг учун бола тарбиясида ниҳоятда қизиқувчан ва тоқатли бўлиш лозим. Инсондаги билишга қизиқиш пайдо бўлганда, унинг қондирилиши бу одамда навбатдаги қизиқишни юзага келтириб чикаради, буни у англаб олса, унинг фикр доираси кенгаяди, ўсади ва ўзини шахс сифатида мукаммал ҳис этишига ёрдам беради. Ўзини мукаммал ҳис этаётган шахсда ҳаётга ва ўз-ўзига ишонч шаклланади ҳамда унда мустақиллик ҳисси уйғонганлигининг гувоҳии бўлишимиз мумкин. Бизнинг мақсадимиз болаларда ана шундай ҳисларни эрта шакллантириш эканлигини унутмаслигимиз лозим. Айникса, боланинг жисмоний ва психологик ривожланишига мактабгача таълим даврининг таъсири ва роли муҳимдир. Инсон ўз ҳаёти мобайнида турли даврларни бошидан кечиради, лекин болалик даври унинг шахс сифатида шаклланиши ва ривожланишида муҳим аҳамиятга эга эканлигини буюк рус адиби Л.Н.Толстой томонидан айтилган ушбу ибратли сўзларни келтирамиз: «Мен билан 5 ёшли бола орасидаги фарк бир қадам, 5 ёшли бола билан янги туғилган бола ўртасидаги фарк дунёчадир, чексиздир» деган эди.

Инсониятнинг барча тараккиёт даврларида болани мактабгача ёш даврига эътибор берилар экан, ҳаётий ва илмий кузатишлар натижаси сифатида ушбу тавсияларни бе-ришни маъкул деб билдик:

- болани доимо танқид килманг, у нафратланишга ўрганади;
- бола тахликада яшаса, у уришқоқликка ўрганади;
- болани масхара қилинса, у одамови булиб колади;
- болага доимо миннат килинса, у доимо ўзини айбдордек яшашга ўрганади;
- бола туғриликда ўсса, у адолатли бўлишни ўрганади;
- бола хотиржам яшаса, у атрофдагиларга ишонишга ўрганади;
- бола ғийбатчилар муҳитида катта бўлса, у чақимчиликка ўрганади;
- болага тан жазоси берилаверса, у сурбет, қайсар, ўжар бўлиб қолади;
- бола ўзаро қаноат муҳитида ўсса, у бошқаларни тушунишга ўрганади;
- боланинг яхши ҳаракатлари қувватлантирилса, у ўзига ишонч ҳосил қилиб яшашни ўрганади. Бизнинг ривожланаётган давлатимизга ва жамиятимизга ўзига ишонадиган, ватанпарвар, инсонпарвар ёшлар керак, Бу борада таълимга тамал тошини қўйиш мактабгача таълим тизимга юклатилган экан, бугун мактабгача таълим ташкилоти раҳбарияти, педагогик жамоа ота-оналар, мактаб, қадриятлар ўчоғи бўлган оила, маҳалла билан биргаликда,ҳамкорликда ишлашга тайёр. Мактабгача таълим ташкилотларида фаолият юритаётган психологлар болалар билан ишлаш жараёнида, психологик методлар, тестлар, сўровномалар, расмлар чизиш орқали уларнинг оилаларидаги ҳолатларни ҳам аниқлайдилар. Шу орқали психологлар боланинг оиласи билан ҳам ишлашга ўтиб борадилар. Бу эса барча ота-оналарга ҳам ёқавермайди. Психологлар айнан шундай оилаларга АКТ, телеграмм гурухлар орқали таъсир этишга ҳаракат қилаяптилар.онлайн семинар, вебинарлар ўтказиш бугун энг яхши таъсир кучига айланмоқда. Болалардаги салбий ҳолатларни бартараф этиш бўйича маъруза матнлари, буклетлар ота-оналарнинг барчасига тарқатилмоқда.

Хулоса шуки, ота-онанинг, мактабгача таълим ташкилотида бериган бугунги тарбия боланинг эртанги келажаги учун пойдевор вазифасини ўтайди. Шунинг учун оила, мактабгача таълим ташкилоти томонидан тарбия тўғри йўналтирилган бўлса, унда унинг катта ҳаётга дадил кадам куйишига,мустақил фикр юритишига замин яратилган бўлади.

Список литературы:

1. Хайтов А. Синф рахбари. - Т.: «Янги аср авлоди», 2006.
2.Замонавий таълим / Современное образование 2017,
3.Расулова З.А. Фарзанд тарбиясига оид психологик маслахатлар. - Т., 2014.

4.Соғинов Н.А., Кодиров У.Д. Соғлом бола шаклланишининг айрим ижтимоий-психологик жихатлари. (Оила кутубхонаси). - Т.: РОИАМ, 2014 ..

5. Fозиев З.F. Умумий психология. - Т.: «Узбекистон фай-ласуфлари миллий жамияти», 2010.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАКРЕПЛЯЮЩИХ ДОМАШНИХ ЗАДАНИЙ ДЛЯ ДЕТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К ОБУЧЕНИЮ В ШКОЛЕ

Расулова Гулшода Тулкиновна

Воспитатель дошкольной образовательной организации Яккасарайского района №300 г.Ташкента

Качественная подготовка детей к школе в дошкольной образовательной организации *(*ДОО). Укрепление сотрудничества с родителями, еще большего повышения их доверия к ДОО. Дополнительные вариативные домашние задания показали положительный результат в формировании, развитии, укреплении, и конечно же, в качественной подготовке детей к школе.

В ДОО этапы дошкольной подготовки в старших и дошкольных группах проводятся на основе государственных требований, исходя из возраста, конечно. Однако, домашние задания, основанные на государственных требованиях программы "Первый шаг" не разработаны и не внедрены в систему образования.

С момента введения подобных домашних заданий по закреплению знаний мы можем наблюдать, что качество образования детей положительно выросло. Эти домашние задания по самосовершенствованию позволят педагогам более тесно сотрудничать с родителями, укреплять знания, которые их дети получают в течение недели, и более заинтересованно заниматься с ними индивидуально. Бесплатность образовательных услуг является еще одним преимуществом этих заданий. Это также удобно родителям, занятых на работе в течении всего дня.

Изучение требований и предложений родителей:

На сегодняшний день большинство осуществляемых реформ направлены на повышение интересов детей и образованию. Благодаря создаваемым условиям, маленькие игривые дети вырастают умными, образованными. Также в процессе деятельности ДОО предусмотрены принятие во внимание желаний и интересов детей. К примеру, что дети любят больше всего? Они добровольно выбирают сферу деятельности в процессе обучения. Дети в этом возрасте, безусловно, заинтересованы в использовании игрушек и подручных средств техники, исходя из современного спроса. Это означает, что для того, чтобы наши

дети с большим энтузиазмом относились к знаниям, нам нужно будет проявлять интерес к предмету с использованием ИКТ, образовательных и логических игр, чтобы всесторонне развивать их. Основываясь на темы государственной программы, проведенные во время уроков, интересов детей, желаний родителей были разработаны домашние задания на закрепление.

Как говорит наш великий предок Абу Райхон Беруний: “Знание — это плод повторения”. Главная задача педагога — воспитывать детей, осуществлять деятельность в пределах безопасности жизни. В этом также важную роль играют и родители. Поэтому, при разработке домашних заданий учитывались и мнения родителей, и советы педагогов.

Проведены беседы, с помощью каких методов можно вовлечь детей к мероприятиям, проводимых на уроках. Так как многие родители заняты на работе большую часть будних дней и занимаются воспитанием ребенка по чаще всего выходным. С учетов физиологических и возрастных особенностей детей, раздача дополнительных домашних заданий планировалась в конце недели и применилась на практике.

Мнения и требования родителей состояли из следующих:

- Чем больше проводится повторение темы, тем лучше это развивает мозг ребенка.

- Закрепление, пройденных в течении недели тем положительно скажется на ребенке и укрепит сотрудничество с педагогами.

Качественная подготовка воспитанников к школе:

Основная задача ДОО состоит в качественной подготовке детей к школе. В этом руководство организации и уровень знаний педагогических работников, условия в группе, желания родителей, уровень рекомендаций, интересы, возможности (по отношению ко времени общения с ребенком) занимают умеренное место в организации.

Особенно сегодня, в связи с современными требованиями, педагоги обязаны регулярно работать самостоятельно, эффективно использовать ИКТ в своих видах деятельности, разрабатывать информационные программы в интересах педагогов, заинтересовать детей в дальнейших видах деятельности, основываясь на требованиях и предложениях родителей. Основанные на государственных стандартах, дополнительные домашние задания могут послужить в этом как вспомогательная инструкция.

В целях дальнейшего повышения доверия к ДОО и преподавателям в организации проводятся ряд работ и контролируются регулярно. Эти дополнительные домашние задания являются еще одним выражением повышения престижа организации, укрепления доверия и уважения по отношению к педагогам. Всем известно, что в настоящее время число дополнительных подготовительных центров (на платной основе) растет с каждым днем. Однако, исходя из социального положения не все родители способны давать своих

детей в подготовительные курсы (на платной основе). Если бы в ДОО использовались такие же дополнительные домашние задания, мы бы подготовили наших детей к школе качественно в самой организации. У родителей не будет чувства потребности в дополнительных платных образовательных услуг и, естественно возрастет почтение и уверенность в работе педагогов.

Нынешние педагоги должны обучать своих воспитанников с ответственностью. Эти дополнительные домашние задания послужат также в адаптации детей к переходному периоду (от дошкольного возраста к периоду начальной школы). Научны наблюдения и исследования показали, что 70 процентов всей информации, которую человек получает за свою жизнь, хорошо запоминается в период до 5 лет, сознание ребенка формируется в основном в возрасте 5-7 лет. Учитывая эту информацию, применение этих домашних заданий в ДОО дает значительные положительные результаты для детей и их родителей.

Государственная образовательная программа является обязательным базовым документом для создания “самостоятельных закрепительных домашних заданий”.

Во всех группах ДОО при управлении дошкольного образования были проведены мероприятия в соответствии с государственной программой и требованиями, и с учетом интересов детей, воспитателями были предоставлены домашние задания. Этот процесс также можно увидеть и в других организациях. Но в этих учреждениях не разработаны специальные программы дополнительных домашних заданий. В целях укрепления государственной программы в старших и дошкольных группах планируется разработка дополнительных домашних заданий с учетом интереса и желаний детей, а также приняты во внимание предложения родителей и процесс образования в современных условиях.

Мы можем наблюдать, что качество образования и подготовки детей положительно выросло с момента введения этих закрепительных домашних заданий. Эти домашние задания по самосовершенствованию позволят педагогам более тесно сотрудничать с родителями. В свою очередь, родители помогут детям укрепить знания, которые их дети получают в течение недели, и заниматься ими более заинтересованно индивидуальных условиях. Еще одним преимуществом этих домашних заданий является то, что это освобождает всех родителей от услуги дополнительного платного образования. Это также будет в пользу родителей, занятых на работе в течении дня с экономической стороны.

Список литературы:

1. Государственная учебная программа «Илк кадам» для дошкольных образовательных учреждений. — Ташкент. 2022 г.

2. Государственные требования к развитию детей раннего и дошкольного возраста республики Узбекистан. — Ташкент. 2018 г.

3. Шин А.В, Грошева И.В. Моделирование предметно-пространственной развивающей среды в дошкольной образовательной организации в контексте Государственной учебной программы Республики Узбекистан.

MAKTABGACHA TA'LIMDA ERTALABKI BADANTARBIYA MASHQLARI TASHKIL ETISH MAZMUNI

Djamilova N.N.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlar pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori(DcS)

Shokirjonova Mohira Ilhom qizi

Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

Barcha insonlar sog‘lom, tetik va baquvvat bo‘lishga, o‘z yoshligi, husni hamda ishchanlik qobiliyatini saqlashga harakat qiladi. Bunga erishishning asosiy omillaridan biri jismoniy harakat sanaladi. Abdurauf Fitratning jismoniy tarbiyani tashkil etish, shaxsni salomat va baquvvat etib tarbiyalash masalalariga oid qarashlari, ya'ni «Badan tarbiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta ahamiyat berilgan. Insonning butun a'zosi salomat va quvvatga ega bo‘lmasa, unda inson uzoq yashamaydi. Agar insonning tanasidagi a'zolaridan biriga xalal tegsa, u kishi ishdan qo‘lini tortib, boshqalarning muhtojiga aylanadi» diqqatga molikdir. Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, ayni vaqtda, mamlakatimizda jismoniy jihatdan yetuk, sog‘lom avlodni tarbiyalash borasidagi tub islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

Zamonaviy tibbiyot insonning jismoniy mehnatga bo‘lgan kam harakati tufayli uning salomatlik darajasining pasayishi, ichki a'zolar faoliyatining buzilishi, ishlash qobiliyatining past ko‘rsatkichi va talab darajasida bo‘lmagan jismoniy rivojlanish kabi holatlarning mavjudligini ko‘rsatmoqda. Zero, qadimgi faylasuflarning, kishini hushsizlantiruvchi va sog‘ligiga shikast yetkazuvchi narsa uzoq vaqt jismoniy harakat qilmaslikdir, degan fikrlari boisi ham shunda. Buyuk hakim Abu Ali ibn Sinoning: «Badantarbiya – sog‘liqni saqlashda ulug‘vor usuldir», degan o‘giti har bir insonning hayotiy shioriga aylansa, kishi hech qachon kasallikka chalinmaydi.

Ertalabki gimnastika - bu organizmni qulay harakat faoliyatiga asta-sekin olib kirishdir. MTTda badantarbiya rejim momentlaridan biri hisoblanib, bolalarning emotsional holatini ko'tarish vositasidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertalabki gimnastika har kuni nonushtadan oldin o'tkaziladi. U asosan sog'lomlashtirish vazifalarini hal qilishga qaratilgan. Suyak-mushak apparatini mustahkamlashga, yurak-qon tomir, nafas olish, asab tizimlarini rivojlantirishga

yordam berib, u shu bilan birga tetik, hayotga chanqoq kayfiyat yaratadi, jismoniy mashqlar bilan har kungi shug'ullanish odatini tarbiyalaydi. Ertalabki gimnastika jarayonida jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi vazifalari hal qilinadi.

Jismoniy tarbiya — sog‘lom avlod, sog‘lom oila, sog‘lom jamiyat uchun bolalikdan qilinadigan amaliy harakatdir. Jismoniy musiqiy harakat, o‘yinlar, sport biian shug‘ullanish iroda, chidam, intizom tuyg‘ularini shakllantiradi. Bola kuch-quvvatga to‘lib, sog‘lom bo‘lib, qaddi-qomati chiroyli rivojlanadi. Bu sifatlar sezilmagan holda didni tarbiyalay boradi, bolani go‘zallik dunyosiga yetaklaydi. Jismoniy tarbiya aslida musiqa tarbiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Musiqa bolalarning jismoniy rivojlanishi va takomillashuvining vositalaridan biri hisoblanadi. O‘z imkoni darajasidagi huzur bag‘ishlovchi musiqa bolada insoniy qadriyatlar tushunchasini o‘stiradi. Huzurbaxsh musiqa bolaga insoniy olamni tushuntirib beradi. Jamiyatimiz bolalarining sog‘lom, baquvvat, mehnatsevar yoki nimjon, chidamsiz, og‘irroq ishga yaramaydigan bo‘lib o‘sishlariga befarq bo‘la olmaydi. Bolalarga jismoniy harakat — uzoq yashash, jismoniy tarbiya va sport, musiqa esa sog‘lik, chiniqish manbayi ekanligini bola ongiga singdirishlari kerak. Tonggi badan tarbiyani o‘tkazish vaqtida bolalarda harakatlanuvchi malakalar mustahkamlanadi, yaxshilanadi va tiklanadi. Tonggi badantarbiya yordamida bolalarni tartibli bo‘lib, ularda ijobiy ko‘nikmalarni hosil qilinadi. Tonggi badantarbiya xotirani mustahkamlaydi. Diqqat bilan musiqani tinglash, musiqa ostida mashqlarni bajarish, tonggi badantarbiya estetik tarbiyani ham mustahkamlaydi.

Musiqa rahbari ertalabki gimnastikani musiqa ostida o‘tishda tarbiyachi bilan xamkorlikda ishlaydi. Ular jismoniy va musiqa tarbiyasining rejalarini kelishib oladilar, ertalabki gimnastika majmuasini, jismoniy mashqlar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarni muhokama qilib oladilar. Musiqa rahbari ertalabki gimnastikada jismoniy mashqlar musiqa jo‘rligida amalga oshiriladi, tarbiyachiga harakatli o‘yinlar o‘tkazish uchun kuylar, qo‘shiqlar tanlashga oid maslaxatlar beradi.Musiqa rahbaridan bolalarning jismoniy tarbiyasiga yegishli nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lish, shuningdek, zarur jismoniy tayyorgarlik darajasi bo‘lishi xam talab etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari ertalabki gimnastikasi badantarbiya mashqlarini o‘z ichiga oladi. Ertalabki badantarbiya mashqlarining bu turlari shug‘ullanuvchilarni har tomonlama jismoniy kamolotga yetkazish, salomatligini mustahkamlash va harakat funksiyalarini takomillashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Ertalabki badantarbiya amaliy mashqlarning bir ko‘rinishidir. Ertalabki badantarbiya yanada tezroq va to‘la ravishda bolaning sog‘lig‘ini tiklash uchun qo‘llaniladi, yana jismoniy sifatlarni rivojlantirishda chidamlilikda qo‘llaniladi. Ertalabki mashqlarning vositalari - saflanish mashqlari, harakatlanishning va raqs qadamlarining xillari; umumiy ritmik mashqlarning buyumlarsiz va buyumlar bilan bajarilish

turlari (tayoqlar, gantellar, arg‘imchoqlar, to‘plar va boshqa), mashqiy devordagi mashg‘ulotlar halqalarda va amaldagi mashqlar (yugurish, sakrash, o‘rmalash, oshib o‘tish)

Ertalabki gimnastika majmuasiga kiritilgan barcha mashqlar bolalarga yaxshi tanish bo'lishi kerak. Mashqlarni o'rganish jismoniy tarbiya mashg'ulotida musiqasiz va musiqa mashg'ulotida musiqa bilan amalga oshiriladi. Bunday sharoitda ertalabki gimnastika emotsional, yaxshi tempda o'tadi. Ertalabki badantarbiya 7-15 daqiqa davom etadi. Badantarbiya mashqlari 5-7ta mashg‘ulotdan iborat.Eng ko‘p og‘irlik mashg‘ulotlarning o‘rtasida o‘tkaziladi. Ertalabki mashqlar sog‘lomlashtirish va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Kun tartibining ajralmas qismi bo‘lgan holda u har bir bola uchun majburiydir. Har kuni uyg‘ongach (5-7 daqiqadan so‘ng) maxsus tanlangan 7-12 jismoniy mashqlar 10-15 daqiqa davomida organizm faoliyatini faollashtiradi, tananing to‘g‘ri o‘sishidagi ko‘nikmalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, yassi oyoqlikdan oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ecological Culture Development of Independent Learning, Creativity, Integrative Technology and Logical Thinking. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2524-2529.
2. Djamilova, N. (2022). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF LIFE STRATEGIES IN STUDENTS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *2*(04), 187-191.
3. Djamilova, N., Isabekova, D., & Abduqodirova, O. (2023). DIRECTING PRESCHOOL CHILDREN TO PROFESSION AT THE EARLY AGE. *Science and innovation*, *2*(B9), 500-507.
4. Djamilova, N. N., Isabekova, D., & Abduqodirova, O. (2023). DIRECTING PRESCHOOL CHILDREN TO PROFESSION AT THE EARLY AGE. *Science and Innovation*, *2*(9), 500-507.
5. Djamilova, N., & Kadirova, N. (2023). SYSTEMATICAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANISATIONS AND ITS INFLUENCE TO THE CHILDREN. *Science and innovation*, *2*(B3), 207-213.
6. Djamilova, N. N. (2023). SYSTEMATICAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANISATIONS AND ITS INFLUENCE TO THE CHILDREN. *Science and Innovation*, *2*(3), 207-213.
7. Djamilova, N. N., Khodjimuratova, B. N., Khasanova, S. T., Nurmatova, I. T., & Kim, I. N. (2020). FEATURES OF ORGANIZING STEAM EDUCATION IN UZBEKISTAN. *Solid State Technology*, *63*(1s), 1803-1808.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI IJTIMOIY FAOLIYATGA TAYYORLASH – PEDAGOGIK ZARURIYAT

Sadikova Shoista Akbarovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi professori, p.f.n sadikova63@mail.ru

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan islohotlar ta’lim tizimining tubdan yangilanishi hamda mazmunan boyishini ta’minladi. Jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarni inobatga olgan holda bir qator yangi o‘quv fanlarini o‘qitishning yo‘lga qo‘yilganligi esa shaxsni davr talablariga muvofiq tarbiyalab voyaga yetkazish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Ilm-fan, texnika va texnologiyaning tezkor rivojlanishi, maishiy turmush sharoitining yaxshilanishi, qishloq va shahar hayotining bir-biriga yaqinlashuvi, inson tomonidan tabiatga ko‘rsatilayotgan salbiy ta’sir doirasining tobora kengayishi, axborot-aloqa almashuvining takomillashuvi, shuningdek, kompyuter va murakkab texnikalar xizmatining ijtimoiy hayotning turli sohalarida ustuvor o‘rin tutishi kishilik munosabatlarida ham ijobiy, ham salbiy holatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Nosog‘lom turmush kechirish (spirtli ichimlikka va giyohvand moddalarga ro‘ju qo‘yish, tartibsiz jinsiy hayot), deviant xulqqa egalik, ijtimoiy mas’uliyatsizlik kabilarni salbiy holatlar sirasida keltirish mumkin.

Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish aholi, shu jumladan, yoshlar o‘rtasida keng ko‘lamli ijtimoiy faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu o‘rinda pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan ”Bolalarni ijtimoiy moslashuvi” o‘quv fanining har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalashdagi roli katta.

Ayni vaqtda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Bolalarni ijtimoiy moslashuvi” o‘quv fani negizida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlash yo‘lida amaliy harakatlar olib borilmoqda. Mazkur harakatlar doirasida bo‘lajak tarbiyachilarda maktabgacha ta’lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning hayotida oila bilan bir qatorda maktabgacha ta’lim tashkilotlari muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari “... bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi”.

Bola shaxsining sog‘lom va yetuk bo‘lib kamol topishi maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida samaradorlikka erishishda ularning moddiy-texnik ta’minoti, pedagog kadrlarning salohiyati, ta’lim-tarbiya yo‘nalishlari, pedagogik jarayon mazmuni, shuningdek, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida qaror topgan sog‘lom psixologik muhit ustuvor ahamiyatga ega.

Garchi tashqi omillar (jumladan, ta’lim muassasasining moddiy-texnik ta’minoti)ni yaratishda davlat hamda jamiyatning bevosita ishtiroki kuzatilsa, ichki omillar (mas., malakali pedagoglarni muassasaga jalb etib, jamoada sog‘lom psixologik muhitni qaror toptirish, ta’lim-tarbiya ishlari mazmunini zamon talablariga muvofiq yangilash, pedagogik jarayonni tashkil etishga ijodiy yondashish kabilar) mavjudligini ta’minlash maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv mahoratlari va pedagogik jamoaning sa’i-harakatlariga bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda ijtimoiy hayot sur’atining tezlashuvi natijasida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning fiziologik-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni mazmunan murakkab, ko‘pqirrali hamda ichki raqobatga asoslanuvchi ijtimoiy munosabatlar jarayoniga tayyorlash ehtiyoji yuzaga keldi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar (mas., Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, AQSh hamda Yaponiya kabilar)ning tajribalari va bir qator pedagogik-psixologik tadqiqotlarning natijalari ushbu ehtiyojni ta’lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yish orqali qondirish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Tanlangan muammo yechimini topishga yo‘naltirilgan ilmiy-pedagogik faoliyat jarayonini yoritishda ustuvor bo‘lgan tushunchalar mohiyatini to‘g‘ri anglab olish tadqiqot yo‘nalishini to‘g‘ri belgilashga imkon beradi. Ayni o‘rinda: ijtimoiylashuv, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, ijtimoiy-pedagogik faoliyat ko‘nikmalari, ijtimoiy-pedagogik faoliyat malakalari, ijtimoiy-pedagogik axloq, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tayyorlash kabilar tayanch tushunchalar sanaladi.

“Ijtimoiylashtirish” tushunchasi “Falsafa. Qisqacha izohli lug‘at”da quyidagicha sharhlangan: “jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni”. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa “ijtimoiylashmoq” tushunchasi “ijtimoiy tus olmoq” ma’nosini anglatilishi ko‘rsatilgan. Ijtimoiy tus olish tushunchaning umumiy mohiyatini ochib beradi. Biroq, ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tahlil etilganda tushuncha mazmunini kengroq, batafsil yoritish taqozo etiladi. Zero, “ijtimoiy tus olish” aynan natijani ifodalashga xizmat qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvida va aynan pedagogik talqinda natijadan avval jarayonning mohiyati, uning kechishini o‘rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

A.V.Mudrik mazkur tushuncha mohiyati “madaniyatni o‘zlashtirish va qabul qilish jarayonida insonning rivojlanishi hamda o‘z-o‘zini o‘zgartirib borishi”dan iboratligiga e’tiborni qaratib, ijtimoiylashtirishning asosiy bosqichlari quyidagilar ekanligini ko‘rsatadi:

1. Bolalik davri: 1) chaqaloqlik (tug‘ilgandan 1 yoshgacha); 2) ilk bolalik (1-3 yosh); maktab yoshigacha bo‘lgan bolalik (3-6 yosh); 3) kichik maktab yoshi (6-10 yosh).

2. O‘smirlik davri: kichik o‘smirlik yoshi (10-12 yosh); katta o‘smirlik yoshi (12-14 yosh).

3. Yoshlik davri: ilk o‘spirinlik yoshi (15-17 yosh); o‘spirinlik yoshi (18-23 yosh); yoshlik (23-30 yosh).

4. Yetuklik yoshi: ilk yetuklik yoshi (30-40 yosh); yetuklik yoshi (40-55 yosh); qarilik yoshi (55-65 yosh).

5. Keksalik yoshi: keksalik (65-70 yosh); nuroniylik yoshi (70 yoshdan yuqori).

Bizning nazarimizda, muallif tomonidan shaxsning ijtimoiylashuv davri to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Biroq, bu o‘rinda yetuklik yosh davrlarining muayyan bosqichi sifatida 30-60 yoshlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur davrda inson “jismoniy jihatdan to‘la rivojlanadi, kamolotga erishadi”. Aynan bu davrda u ijtimoiy jihatdan faollashadi va jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. 60 yoshdan keyin esa o‘rta hisobda olganda aholining fiziologik, jismoniy hamda ijtimoiy faolligida pasayish yuzaga kelib, organizm faoliyatining asta-sekin zaiflasha borishi tipik xususiyat kasb etadi. Mazkur holat, bir guruh shaxslarning ijodiy faolliklarini inobatga olmaganda keksalikning asosiy belgisi bo‘lib qoladi.

R.S.Nemov esa shaxs ijtimoiylashuvining bevosita ta’lim va tarbiya ta’siri ostida ro‘y beruvchi jarayon va natija ekanligiga alohida urg‘u beradi: bola tomonidan psixologik-aqliy va shaxsiy rivojlanish xususiyatlariga ko‘ra ijtimoiy tajribalarning o‘zlashtirilishi, ya’ni ta’lim va tarbiya ta’sirida psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me’yor va qoidalarning o‘zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi.

Darhaqiqat, shaxsning ijtimoiylashuvida ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillarning ta’siri muhim ahamiyatga ega. Biroq, bizning nazarimizda R.S.Nemovdan farqli ravishda shaxs ijtimoiylashuvida uning psixologik funksiyalari takomillashuvi muhim ekanligini inkor etmagan holda globallashuv sharoitida ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me’yor va qoidalarning o‘zlashtirilishi, dunyoqarashning boyishi yetakchi o‘rin tutishini qayd qilmoqchimiz.

Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriluvchi ijtimoiy-pedagogik faoliyat jarayoni ko‘lam jihatidan keng, bir necha yo‘nalishdan iborat bo‘lib, alohida kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishni taqozo etadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etilishi uning metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislar (maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari)ni tayyorlashda ushbu masalaga jiddiy e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020 yil 23 sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g`risida”gi 2019 yil 16 dekabrdagi O‘RQ-595-sonli Qonuni.

3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. — T., 2018 y.

4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

5. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022 yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan takomillashgan “Ilk qadam” o‘quv dasturi.

6. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. — T., 2009.

7. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. —T.: Tafakkur sarchashmalari, 2013.

8. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations-Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, *44*, 1777-1784.

9. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations-Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, *44*, 1777-1784.

10. Sodiqova, S., & Yakubova, Z. (2022). O ‘QUV MASHG ‘ULOTLARINING TALABALARNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDAGI O ‘RNI. *Science and innovation*, *1*(B7), 855-859.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI O‘YINLAR ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH

Babayeva D.R.
Nizomiy nomidagi TDP, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi professori

Qurbonova Z.K.
Maktabgacha ta’lim yonalishi talabasi

Ma’lumki, o‘yin bolalarning shaxsiy tashabbusiga ko‘ra vujudga keladigan, ularning faol ijodiy yo‘sindagi, yuksak ta’sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustaqil faoliyatdir. Pedagogik adabiyotlarda aytilishicha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinlarni ertalab nonushtagacha va nonushtadan keyin, mashg‘ulotlar o‘rtasida, ochiq havoda, uyqudan keyin o‘tkazish maqsadga muvofikligi aytiladi. Ertalab rolli o‘yinlar, qurish-yasash, harakatli o‘yinlarni tashkil qilish tavsiya etiladi. Mashg‘ulotlar o‘rtasida esa harakatli, qoidali o‘yinlar o‘tkazilishi yaxshi samara berishi ta’kidlanadi. Dunyo miqyosida maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yin hisoblansada, mazkur jarayon zamirida ularga ta’lim berish, olam va odam sirlarini anglatish, mustaqil mulohaza yuritishga undash hamda shular asnosida shaxsni shakllantirish

g‘oyasi ustuvorlik qiladi. Ya’ni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida butun jarayon – ta’lim ham, tarbiya ham o‘yin shaklida amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yini mamasalasi ko‘p zamonlardan beri bir qator olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Bevosita bolalarning o‘yinlariga bag‘ishlangan adabiyotlarda ta’kidlanishicha, o‘yinlar maktabgacha yoshidagi bolalarning asosiy ish faoliyatlaridan biri bo‘lib, ularning shaxs sifatida shakllanishlariga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan o‘yinlar bolalarda bir qator sifat-fazilatlarning tarkib topish asosidir.

Bolalarning yoshlari ulg‘ayib mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari ularning atrofdagi narsa va hodisalar ko‘magida dunyoqarashi ham kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosobatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining haddi sig‘adigan narsalar bilangina emas, balki kattalarga mansub bo‘lgan, o‘zining kuchi yetmaydigan, haddi sig‘maydigan ishlar bilan ham amaliy munosobatda bo‘lishga intiladi. Bu tezroq katta bo‘lish ichki istagining tashqi ko‘rinishidir.

O‘yinlar bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyasida, ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. O‘yinlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar, ularning kundalik hayotidagi kuzatishlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi. Bolalarning o‘yinlari o‘zining rang-barangligi, har birining o‘z mazmuni va tashkil etish yo‘siniga, bu jarayonda foydalaniladigan jihozlarning turlari hamda o‘rniga ko‘ra ham xilma-xillik kasb etadi. Bular, o‘z navbatida, bolalar o‘yinlarini turkumlashtirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi ilmida o‘yinlarni ikki katta guruhga bo‘linishi ta’kidlanadi: ijodiy va qoidali o‘yinlar. Ijodiy o‘yinlarning mazmunini bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar va ularda o‘z taassurotlari, borliq haqidagi tushunchalari, bilimlari hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar. Ijodiy o‘yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o‘yinlarda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlari to‘laligicha namoyon bo‘ladi.

Qoidali o‘yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga tatbiq etiladi. Bunday o‘yinlar o‘z mazmuni va qoidalarining sodda yoki murakkabligi darajasiga asoslangan holda bolalarning yoshlariga qarab taqdim etiladi. Kattalar tomonidan belgilab qo‘yilgan qoidalar asosidagi o‘yinlarning ko‘pchiligini xalq o‘yinlari tashkil etadi. Ya’ni avloddan-avlodga o‘tib, bizgacha yetib kelgan ko‘cha o‘yinlaridir.

Har ikkala turdagi o‘yinlar o‘zining xilma-xil ko‘rinishlariga ega. Masalan, ijodiy o‘yinlar sirasiga syujetli rolli o‘yinlarni kiritish mumkin. Didaktik o‘yinlarni esa qoidali o‘yinlar safiga kiritish o‘rinli bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan har bir o‘yinning

o‘ziga xos jihatlari, bajarilish shartlari bo‘lgani holda, hammasi uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlar ham bor: maqsad, vazifa va xulosaning mavjudligi, rejali harakatlar va h.k. Bolalarning rivojlanishiga qarab, ularning o‘yinda o‘z oldilariga qo‘yadigan maqsadlari ham o‘zgarib boradi. Bolalar o‘yinda maqsadga erishish uchun sheriklar tanlaydilar, zarur o‘yinchoqlarni topadilar, o‘yin davomida muayyan harakat va qiliqlar qiladilar. Boshqa faoliyat turlarida bo‘lgani singari o‘yin jarayoniga ham bolalarning shaxsiyati, psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti, ta’sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari hisobga olinadi, o‘yinda bolalar faol harakat qiladilar, muloqotda bo‘ladilar, o‘z bilimlaridan foydalanadilar.

Ochiq havodagi o‘yinlar – yugurish, otish, sirpanish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar ham qoidali o‘yinlar bo‘lib, ular bolalarning jismoniy taraqqiyotiga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Kunduzgi uyqudan keyingi o‘yinlar sirasiga: sahnalashtiriladigan rolli o‘yinlar, qurilish o‘yinlari, ertak bo‘yicha didaktik o‘yinlar va h.k. kiradi va ular bolalarning aqliy, ahloqiy, estetik tafakkurini takomillashtiradi.

Syujetli-rolli o‘yinlar o‘z mazmuni, bolalarning birgalikdagi xatti-harakati, o‘zaro munosabatlari asnosida voqea-hodisalarning rivojlanishi bolalar ruhiyatida minnatdorlik hissini paydo qiladi, yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, bola jismi faoliyatini yaxshilaydi. Inson tabiatan shundayki, unga nima qiziq bo‘lsa o‘sha narsa uning ruhiyati, ongi va jismi uchun foydali hamdir. Shuning uchun ham odamzod o‘ziga yoqqan faoliyat turi bilan shug‘ullanishdan charchamaydi. Jumladan, bolalar ham o‘zlari yaxshi ko‘rgan faoliyati bilan uzoq shug‘ullana oladilar. Bu ularga hech malol kelmaydi. Qurilish materiallari yordamida tashkil etiladigan o‘yinlar ham bolalarning tarbiyasiga ma’lum darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bolalarning qurilish, yasash o‘yinlari rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarning tarkibiy qismidir. Bolalarning biror narsani qurishi o‘z fantaziyalarini ro‘yobga chiqarish usuli hisoblanadi. Qurilish o‘yinlarining boshlovchisi tarbiyachi bo‘lishi ham mumkin. Katta yoshdagilarning ishtiroki, ba’zan qurilish o‘yinlariga o‘z-o‘zidan qiziqishni jalb qilishi, ba’zan esa aks ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin. Turli xil geometrik shakllardan iborat bo‘lgan qurilish materiallari bilan bog‘liq o‘yinlar bolalarni ham mehnatga tayyorlaydi, ham geometrik bilimlarning dastlabki belgilarini shakllantiradi. Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlar ham bolalarning mustaqil tafakkurini rivojlantiradi, ularni qurilish ishlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ajratish, tahlil va sintez qilish, solishtirish, o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlashga majbur etadi. Vazifalarni to‘g‘ri hal qilishga o‘rgatadi. Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlar geometrik jismlarning xususiyatlari, ular bilan ishlashda nisbatlarni (uzoq-yaqin, baland-past, o‘ng-chap, uzun-qisqa, keng-tor) amalda bilib olishga yordam beradi. Bolalar qurish-yasash faoliyati jarayonida bir jamoa bo‘lib birlashadilar, natijada, ularning nutqi ham rivojlanadi. Qurilish materiallari bilan o‘ynash bolalarning ma’naviy dunyosiga ham ta’sir etadi. Tarbiyachi bolalarni qurish-yasashga o‘rgatish uchun quyidagi turli xil

usullarni qo‘llaydi:

- bolalarga qurish-yasashdan oldin tushuntirgan holda qurib ko‘rsatadi;
- qurib ko‘rsatayotgan ishining har bir qismini tahlil qilib beradi;
- tayyor namunani ko‘rsatadi va uni tushuntirib beradi;
- boshlagan qurilishini bolalar davom ettirishini taklif qiladi;
- bolalarga xohlagan mavzuda ixtiyoriy qurilishni taklif qiladi.

Qoidali o‘yinlar sirasiga kiruvchi sahnalashtirilgan o‘yinlarning o‘ziga xosligi shundaki, bolalar biror bir ertak yoki hikoya syujeti asosida ma’lum bir rolni bajaradilar. Yoki «Mehmon keldi», «Doktor huzurida», «Bozorda», «Mehmonda» singari o‘zlari o‘ylab topgan rolli o‘yinlarda ham o‘zlari belgilab olgan rollarni sidqidildan bajaradilar. Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalarga eshitgan asarlari yoki ertaklardan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash yoki mashq qilish imkonini beradi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatlariga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so‘zlashga o‘rgatish usullaridan biridir. Ayrim bolalarda qayta so‘zlab berishga xohish ham qiziqish ham bo‘lmaydi, lekin o‘yin usulining kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirishib, o‘sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qilishi mumkin. Bunday o‘yinlarda bolalar o‘zlarini o‘sha asardagi qahramon o‘rnida his etib, uning sezgi kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradilar. Badiiy asarlarni qahramonlar tilidan so‘zlab berish bolalardagi xayol va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi hamda asar qahramonida mavjud bo‘lgan jasurlik, o‘ziga ishonch, mustaqillik kabi xarakter-xususiyatlarni o‘zlashtirishga intiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi sahnalashtirilgan o‘yinlarga tarbiyachi rahbarlik qiladi. Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli bo‘lib bola unga kirishib keta olsagina, asardagi obraz va harakatlar o‘yinda to‘g‘ri aks ettiriladi. Sahnalashtirilgan o‘yinga tayyorlanish uchun ma’lum vaqt ajratiladi va har bir mashg‘ulotda aniq bir masala hal etib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.O. Najmiddinova. Дошкольная педагогика. “Ilim ziyo zakovat”. -T:.2020y.

2.D.R.Babayeva, D.F.Xalilova. D.F.Salimova “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi”. -T.: “Ilim ziyo zakovat”. 2023y.

3. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq o ‘stirish orqali mustaqil fikrlashga o ‘rgatish. In International conferences (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).

4.Toxtasinovna, X. S. (2024). Syujetli-rolli o’yinlar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarini kasbga qiziqishini shakllantirish ahamiyati. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(1), 145-149.

5.Sadikova, S., & Abdusabirova, L. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat turlari va mazmuni. *Science and innovation*, *1*(B8), 760-764.

MAKTABGACHA TA’LIM SOHASIDA MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH TAMOYILLARI VA JAHON MIQIYOSIDAGI TAJRIBALAR

Gaynazarova Gulbaxor Abdullayevna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O’zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyati barcha tarmoqlarini jadal suratlar bilan izchil rivojlantirishga qaratilgan. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega salohiyatli yosh kadrlarni tayyorlash alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekistonda yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sur'atlari yil sayin takomillashib bormoqda. Ushbu dasturga kiritilgan vazifalarning sifat bosqichiga o‘tish, avvalo, oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida tahsil olayotgan talabalar bilim va malakalariga shunday talablar qo‘yadiki, ular ishlab chiqarishning qaysi sohasida faoliyat yuritmasin, Vatan taraqqiyoti, yurt ravnaqi va xalq farovonligiga astoydil xizmat qiladigan, fidoyi, professional kasb egalari bo‘lishlari lozim. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish, Harakatlar strategiyasida ta'kidlangan ustuvor vazifalar oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog-olim oldiga yuksak ma'naviyatli shaxslarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, ularni kasb sir-asrorlaridan to‘la boxabar qilishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasida ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, hamda uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarishga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida katta e'tibor berib kelinmoqda.

Salohiyatli kadralar barkamol mutaxassislar tayyorlashning asosiy omilidir. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim yangi ta’lim paradigmasiga mos kelish uchun, ta’lim oluvchilarni maqsadli ravishda ijodiy shaxs sifatida shakllantirishni o‘rganish juda muhim hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchini nafaqat ijtimoiy-kasbiy bilimlar bilan ta’minlash, balki unda tanlagan kasbiga xos sifatlar shakllanishiga ham yordam berish lozim.

Hozirgi kunda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi har qanday davlatni zamon talablariga hamohang ravishda innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi va muhim omilga aylanganligi hammaga ma'lum. Ilmiy- texnikaviy taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarishning ko‘p sonli tarmoqlariga, balki madaniy, ijtimoiy-gumanitar bilimlar, ta'lim sohasiga ham innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Ta’lim tizimini rivojlantirish masalalarida Prezidentimizning qator muhim farmon va qarorlari qabul qilindi. Xususan, 2022-yil 21-iyunda imzolangan “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorlari mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, yangi, xalqaro miqiyosda e’tirof etilgan ta’lim dasturlarini va pedagogik texnologiyalarni joriy qilish hamda respublikaning barcha hududida malakali pedagog kadrlarni tayyorlashni samarali yo‘lga qo‘yishga qaratilgan.

Pedagog kadrlarni tayyorlashni butun O’zbekiston bo‘yicha samarali tashkil etish va hududlardagi yuqori malakali pedagog kadrlarga bo‘lgan real talablarni to‘la qondirish maqsadida Prezidentimizning qarori bilan mamlakatimizda 10 ta yangi pedagogika oliygohi — Urganch, Namangan, Guliston, Samarqand, Andijon, Buxoro, Termiz va Qarshi shaharlarida pedagogika institutlari, Jizzax va Chirchiq shaharlarida esa pedagogika universitetlari tashkil etiladi. Ushbu yangi oliygohlar faoliyati joylardagi mavjud universitet va institutlarning pedagogika ta’lim sohalaridagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari asosida yo‘lga qo‘yiladi.

Pedagogika sohasidagi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish uchun ularning ta’lim dasturlari xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikda qaytadan ko‘rib chiqiladi va ta’lim dasturlarining halqaro standartlar klassifikatorlari va baholash dasturlariga mosligi ta’minlanadi. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida akademik mobillikni joriy etish maqsadida ularning o‘quv rejalari va ta’lim dasturlari bir-biriga moslashtiriladi. Bunday yondashuv butun respublika bo‘yicha bir xil standartlarda mutaxassis tayyorlashga, professor-o‘qituvchilar, stajyor va doktorantlar uchun akademik almashuvlarga keng imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim yangi ta’lim paradigmasiga mos kelish uchun, ta’lim oluvchilarni maqsadli ravishda ijodiy shaxs sifatida shakllantirishni o‘rganish juda muhim hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchini nafaqat ijtimoiy-kasbiy bilimlar bilan ta’minlash, balki unda tanlagan kasbiga xos sifatlar shakllanishiga ham yordam berish lozim. Jahon tajribasiga ko‘ra kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish uchun bo‘lajak mutaxassis kompetensiyaviy talablarga javob berishi lozim. Hozirda har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishi, uni izchil ravishda rivojlantirib borishi talab etilmoqda. Maktabgacha

ta’lim sohasi uchun pedagoglarni tayyorlashda innovatsion ta’lim texnologiyalari va axborot texnologiyalaridan integrativ foydalanish quyidagi samaralarni beradi:

- “fan-ta’lim-amaliyot” uzviyligini ta’minlaydi;

- innovatsion ta’lim texnologiyasining maqsadi, mazmun-mohiyati, muhim belgilari, ularning uslubiy va axborot-didaktik ta’minotlari hamda imkoniyatlari bo‘yicha batafsil ma’lumot berishga asoslar yetarli bo‘ladi;

- an’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanishda innovatsion yondashuv asosida axborot texnologiyalardan foydalanishning yangi ko‘rinishlarini qo‘llash ta’lim samaradorligiga erishishga asos bo‘ladi;

- innovatsion ta’lim texnologiyasidan foydalanishda axborot texnologiyalari orqali o‘zgartirishlar kiritish, o‘xshash manbalarni o‘rganish hamda foydalanish mumkin.

Shuningdek, talabalarning amaliy malakalari va pedagogik tajribasini shakllantirish maqsadida bakalavriatning 2-4 bosqichida o‘qiyotganlarga haftaning 4 kuni oliygohda nazariy bilimlar olish, 2 kuni esa bevosita maktabgacha ta’lim tashkilotlari yoki umumta’lim maktablarida amaliyot o‘tish tartibi belgilangan. Bunday yondashuv, shubhasiz, pedagogika oliygohlarini bitirib chiqayotgan mutaxassislarning nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikmaga ham ega bo‘lishi va darslarni yuqori pedagogik saviyada bera olishini ta’minlaydi.

Pedagogika oliygohlarida ta’lim sifatini oshirish maqsadida ularni zamonaviy o‘quv va ilmiy laboratoriya asbob-uskunalari bilan ta’minlash, professor-o‘qituvchilarni ilg‘or xorijiy universitetlarga stajirovka va doktoranturaga yuborish chora-tadbirlari belgilangan. Shuningdek, ta’limning barcha bosqichida uzviylik va uzluksizlikni yaratish uchun Pedagogik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi tashkil etiladi. Bunday Kengash mamlakatimizdagi uzluksiz ta’lim tizimining turli bo‘g‘inlaridagi barcha o‘quv dasturlarining o‘zaro uyg‘unlashishini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim sohasi uchun bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda nazariya bilan amaliy darslar uyg‘unlikda, amaliy darslarga ustuvorlik berish tamoyiliga asoslanib tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy darslar nazariy ta’lim jarayonida o‘rganilgan umumkasbiy, maxsus bilimlar asosida ish usullari va metodlarini amaliy bajarish bo‘yicha kasbiy kompetentlikni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Dunyo taraqqiyoti uzluksiz ta’lim, malaka oshirish, tajriba almashish va ilg‘or g‘oyalarni tatbiq etish asosiga qurilgan. Shu tamoyildan kelib chiqqan holda, yoshlarni xorijdagi nufuzli ta’lim muassasalarida o‘qishga saralashni tashkil etish, xorijiy olimlar, o‘qituvchilar, muhandislar va boshqa mutaxassislarni ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohalariga, ayniqsa, yangi, istiqbolli tarmoqlarga jalb etish, ularning salohiyatidan samarali foydalanishni ta’minlash vazifalarimizning asosini tashkil etadi.

Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “El-yurt umidi” jamg‘armasiga 2021-yildan boshlab mutaxassislarni xorijda tayyorlash maqsadida magistratura va doktorantura ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qitishga o‘tgan yillarga qaraganda besh barobar ko‘p o‘rin ajratish vazifasi yuklatilgan.

Bugungi kunda yurtimizda keng qamrovli islohotlarda faol ishtirok etadigan zamonaviy, innovatsion fikrlaydigan yoshlar, kadrlarga ehtiyoj katta. Muxtasar aytganda, ta’lim sohasini chuqur isloh qilish va sifatini tubdan oshirish, uni xalqaro tajriba asosida yangidan tashkil etish tizim uchun yuksak malakaga ega shijoatli kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bilan birga, yangi O’zbekiston bunyodkori bo‘lmish yoshlarimizga eng ilg‘or ta’lim dasturlari asosida chuqur bilim olib, kelgusida mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligiga hissa qo‘shadigan yetuk mutaxassislar bo‘lib ulg‘ayishi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Valiyeva F. R. MAKTABGACHA TA‘LIM SOHASI UCHUN PEDAGOG KADRLARNI YANGI YONDASHUVLAR ASOSIDA TAYYORLASH. ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI. 2022 yil.

2. Xorijda salohiyatli mutaxassislar tayyorlash: talab, tanlov va samara. https://yuz.uz/uz/news?category=Suhbat.

3. Gaynazarova G.A., Muqimjonova N.I .MAMKAKAT TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISHIDA YOSH KADRLARNING O‘RNI // ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. №-41, Часть–2–2024.— С.100-103.

ПРАКТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ STEAM-ОБРАЗОВАНИЯ

Садикова Дилафруз Хусановна

доктор философии по педагогическим наукам (PhD), и.о. доцента кафедры Технология дошкольного образования Ташкентского государственного педагогического университета им. Низами

STEAM – это образовательный подход, который объединяет в себе пять ключевых областей знаний: науку (Science), технологии (Technology), инженерию (Engineering), искусство (Arts) и математику (Mathematics). Идея заключается в том, чтобы не рассматривать эти области изолированно, а интегрировать их в учебный процесс, создавая максимально полное и разностороннее образование. Значимость методологии STEAM вытекает из ее способности формировать не только технические навыки, но и разностороннюю личность. Интеграция искусства придает учебному процессу творческий характер, что способствует развитию креативного мышления у детей. Однако, значимость STEAM не ограничивается только творчеством. Исследования подтверждают, что

учащиеся, вовлеченные в обучение по методологии STEAM, выделяются лучшими навыками критического мышления, а также умением эффективно работать в команде. Значимость STEAM заключается не только в обогащении знаний, но и в формировании комплексного набора навыков, необходимых для успешной адаптации к современным вызовам общества.

Роль творчества в STEAM-образовании. Творчество играет ключевую роль в STEAM-образовании (наука, технологии, инженерия, искусство, математика), обогащая образовательный процесс и способствуя развитию креативного мышления у детей. Различные исследования подчеркивают неотъемлемую связь искусства с эффективным усвоением материала:

1. **Стимуляция креативного мышления:** Творческие задания в рамках STEAM включают в себя элементы искусства, которые мотивируют детей мыслить нестандартно. Этот процесс развивает у них способность генерировать оригинальные идеи и решения.

2. **Визуальное и чувственное восприятие:** Искусство в STEAM обогащает образовательный опыт через визуальное и чувственное восприятие. Это не только делает учебный процесс более интересным, но и способствует глубокому пониманию концепций.

3. **Интеграция предметов:** Включение искусства в STEAM-подход позволяет объединить различные дисциплины. Это помогает детям видеть взаимосвязи между наукой, технологией, инженерией, математикой и искусством, что способствует более гармоничному восприятию знаний.

4. **Эффективное усвоение информации:** Исследования подтверждают, что творческий подход к обучению способствует более эффективному усвоению материала. Развитие чувства творчества не только активизирует интеллектуальные способности, но также улучшает память и усвоение информации.

Интеграция творчества в STEAM-образование не только обогащает образовательный процесс, но и поддерживает развитие у детей комплекса навыков, необходимых для успешной адаптации в современном мире.

Роль инженерии в STEAM-образовании. Инженерия играет ключевую роль в рамках STEAM-образования, предоставляя детям возможность развивать целый спектр навыков и качеств, начиная от методологии решения сложных задач и заканчивая работой в команде. Обучение инженерным навыкам с детства помогает детям усваивать системный и логический подход к решению сложных проблем. Процесс проектирования и поиска оптимальных решений стимулирует креативное мышление и способствует формированию устойчивого алгоритма мышления. Инженерное образование поддерживает развитие

исследовательских навыков у детей. Они учатся не только решать представленные задачи, но и активно исследовать новые концепции, применять знания на практике и экспериментировать для достижения поставленных целей. Освоение инженерных навыков позволяет детям применять теоретические знания в практических проектах. Это не только углубляет их понимание науки, технологии, инженерии, искусства и математики, но и обеспечивает переход от абстрактных концепций к реальным применениям. Инженерные проекты, ориентированные на творчество, не только формируют у детей устойчивые навыки логического мышления, но и поддерживают их в развитии социальных навыков через работу в команде. Инженерия становится неотъемлемой частью STEAM-образования, способствуя всестороннему развитию будущих лидеров и инноваторов.

Важным аспектом STEAM-образования является его практическая значимость. Дети, обученные по методологии STEAM, лучше подготовлены к реальным вызовам современной жизни. Они не только обладают глубокими знаниями в научных и технических областях, но и обладают креативностью, необходимой для решения нетривиальных проблем. STEAM-образование предоставляет детям не только технические и научные знания, но и развивает креативность и практические навыки, что является ключевым элементом их подготовки к реальным вызовам современного мира. Дети, обученные по методологии STEAM, изучают науку, технологии, инженерию, искусство и математику не изолированно, а в контексте их взаимодействия. Это позволяет им лучше понимать взаимосвязь различных областей и использовать их совместно для решения сложных задач. STEAM-образование акцентирует внимание на развитии креативного мышления. Дети учатся рассматривать проблемы с разных точек зрения, находить нестандартные подходы к решению задач и применять искусство и дизайн в создании инноваций. Знания, полученные в рамках STEAM-образования, нацелены на практическое применение. Дети не только учатся теоретическим основам, но и применяют их в реальных проектах, что развивает у них навыки решения реальных проблем. В современном мире, где технологии быстро развиваются, востребованы специалисты, обладающие не только техническими, но и креативными способностями. STEAM-образование готовит детей к будущим профессиям, которые требуют инноваций и умения решать многозадачные проблемы. Обучение предпринимательскому мышлению в рамках STEAM-образования позволяет ученикам видеть возможности для создания новых продуктов и услуг на основе их знаний и навыков. STEAM-образование подчеркивает важность сотрудничества и командной работы, что отражает современные требования рынка труда, где успешная реализация проектов часто требует коллективных усилий. Практическая значимость STEAM-образования проявляется в том, что дети, получившие такое образование, становятся готовыми к эффективному

участию в современном обществе, где требуется сочетание технических и креативных навыков для успешной адаптации к быстро меняющемуся миру.

Подход STEAM к образованию играет ключевую роль в формировании современных детей как конкурентоспособных и креативных личностей. Развитие их творческих способностей и инженерного мышления через эту методологию придает детям способности видеть мир шире, различать проблемы с разных ракурсов и находить инновационные решения через интеграцию искусства, дизайна и технологии. Обучаться универсальным навыкам, которые позволяют детям легче адаптироваться к постоянно меняющимся условиям и технологическим требованиям. Итак, через методологию STEAM, дети развиваются в индивидуальности, готовые к решению сложных проблем, вдохновленные и готовые к внесению собственного вклада в развитие общества благодаря своим уникальным комбинированным навыкам и креативному мышлению.

Источник литературы:

1. Sadikova, D. K., & Mansurova, A. M. (2023). Study of Foreign Experience in The Application of Steam Technologies in Preschool Education. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 1(2), 162-167.

2. Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., Freeman, A. (2015). "NMC/CoSN Horizon Report: 2015 K-12 Edition." Austin, Texas: The New Media Consortium.

3. Sadikova, D. K. (2023). ORGANIZATION OF CREATIVE ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATION. European International Journal of Pedagogics, 3(02), 31-35.

4. Восторгова Е.В., Васильева А.Е., Махотин Д.А., Михайлов В.В., Смирнова Д.С., Черников В.В. Модель и технологии организации проектной деятельности, учащихся в условиях образовательного технопарка // Интерактивное образование. - 2017.

5. Садикова, Д. Х., & Калауова, М. С. (2023). РОБОТЫ-ИГРУШКИ И МАТЕМАТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ЗАНЯТИЯХ. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(5), 5-12.

6. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK AMALIYOT VA TA‘LIMNING ALOQADORLIGI

Namazbayeva Lola Zakirovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy dasturida taqdim etilgan uzluksiz ta‘lim strategiyasi zamonaviy bilimlarga ega, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, mustaqil fikrlay oladigan va ongli qarorlar qabul qila oladigan barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. O‘zbekistonning uzluksiz ta‘lim tizimi xorijiy tajribani chuqur va keng ko‘lamli o‘rganish va mavjud ta‘lim tizimini tanqidiy tahlil qilish asosida, rivojlanishning milliy o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta‘limdan teng huquqli foydalanishini ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘limni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qaroriga, 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta‘limni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasiga [1] muvofiq O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘limni rivojlantirishning o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ ljallangan maqsadlari, vazifalari, ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab berdi hamda maktabgacha ta‘lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va chora-tadbirlar komplekslarini ishlab chiqish uchun asos bo‘ldi.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim kelajak avlodning muvaffaqiyatli va ko‘p qirrali rivojlanishidagi asosiy omillardan biridir. Bu masala butun dunyodagi ko‘plab olimlar tomonidan faol muhokama qilinmoqda. Maktabgacha ta‘lim sohasidagi zamonaviy mutaxassislar o‘quv jarayonining asosiy qismi sifatida dasturga emas, balki bolaning manfaatlarini ushbu masalaning boshiga qo‘ymoqdalar. Olimlarning fikriga ko‘ra, bu bolaning qiziqishlari maktabgacha ta‘lim jarayonining maqsad va vazifalarini shakllantirish uchun asosdir.

Ammo muammo shundaki, ko‘pincha maktabgacha ta‘lim sohasidagi yosh mutaxassislar shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim tamoyillari asosida ishlashga mutlaqo tayyor emaslar. Ta‘limning ushbu shaklida o‘quv jarayoni o‘yin orqali uzatiladi. Bu bolaning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, bola o‘zini qulay, erkin his qiladi.

Qisqa vaqt ichida o‘z mamlakatlarida samarali faoliyat ko‘rsatayotgan zamonaviy bolalar bog’chalari tarmog’ini yaratishga muvaffaq bo‘lgan Janubiy Koreya va Xitoy kabi boshqa

mamlakatlarning tajribasi mamlakatimiz maktabgacha ta‘lim sohasidagi mutaxassislari uchun namuna bo‘ldi.

O‘z navbatida, O‘zbekiston va Xitoyning maktabgacha ta‘lim sohasidagi hamkorligini rivojlantirish uchun katta sa‘yi-harakatlar amalga oshirildi. Ushbu sa‘y-harakatlar natijasida 2019 yil may oyida maktabgacha ta‘lim bo‘yicha birinchi O‘zbekiston-Xitoy forumi bo‘lib o‘tdi. U ushbu sohadagi mutaxassislar o‘rtasida tajriba almashish uchun o‘ziga xos platforma bo‘lib xizmat qildi. Ishtirokchilar O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma korxonalarini tashkil etish imkoniyatlarini muhokama qildilar, Xitoyda qo‘llaniladigan o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning ilg’or amaliyoti bilan tanishdilar, maktabgacha ta‘lim sohasining dolzarb masalalarini ko‘rib chiqdilar. Forum yakunida Xitoyning oltita kompaniyasi bilan O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘limning barcha sohasini rivojlantirish uchun o‘ziga xos eksperimental va ilmiy-amaliy maydonchani yaratish bo‘yicha memorandumlar imzolandi, unda ilg’or xalqaro amaliyotlar qo‘llaniladi.

Bunday tadbirlar tufayli, muvaffaqiyatli natijalarni ta‘minlaydigan va o‘quv jarayonini tashkil etishga, xususan, davlatimizning maktabgacha ta‘lim muassasalarida yangi yondashuvga hissa qo‘shadigan innovatsion texnologiyalar va mexanizmlarni yaratishimiz kerak. Shu munosabat bilan, maktabgacha ta‘lim sohasida mutaxassislarni tayyorlashda pedagogik amaliyotning ahamiyatini ko‘rib chiqish zarurdir. Pedagogik amaliyot to‘g’ri tashkil etilgan bo‘lsa, pedagogik ta‘limni modernizatsiya qilish va maktabgacha ta‘lim sohasidagi mutaxassislarni sifatli tayyorlashning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Ma‘lumki, yosh bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishi asosan kattalarning unga bo‘lgan munosabati, bolalar bog’chasida va oilada maxsus tashkil etilgan ta‘lim va tarbiya bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ta‘lim jarayoni o‘qituvchining bolaning rivojlanishining tabiiy mexanizmlarini chuqur bilishiga asoslanishi kerak, ularning ochilishi bolaning o‘ziga xos ehtiyojlarini to‘liq qondirishga olib keladi: uning harakatida, muloqotida, bilimida, hissiy qabulida, faol faoliyatida. Bundan kelib chiqadiki, maktabgacha ta‘lim sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimida ushbu turdagi amaliyot asosiy o‘rinni egallashi kerak [4].

Maktabgacha ta‘lim sohasida malakali kadrlar tayyorlashda pedagogik amaliyotni tashkil etish dolzarb masalalardandir. Yuqori darajadagi mutaxassisni tayyorlash uchun bolalar bilan ishlash sohasida faqat nazariy bilimlar etarli emasligi, bolalar bilan kasbiy faoliyatning amaliy tajribasi zarurligi isbotlandi. Bularning barchasi talabalarning yaxshi tashkil etilgan pedagogik amaliyoti sharoitida amalga oshirilishi mumkin. Amaliyotning asosiy maqsadi maktabgacha ta‘lim o‘qituvchisining ta‘lim muassasalarida amaliy faoliyati bilan nazariy tayyorgarligining birligini ta‘minlashdir.

Maktabgacha ta‘lim sohasidagi bo‘lajak mutaxassisning pedagogik amaliyotining asosiy vazifalari quyidagilar bo‘lishi kerak:

- yosh guruhlarda o‘qituvchi sifatida ishlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamini shakllantirish;

-o‘quv jarayonining xususiyatlari, asosiy mazmuni, yosh bolalar bilan ishlash usullari va usullari bilan tanishish;

- yosh bolaning individual xususiyatlarini tashxislash qobiliyati;

- bolalarni tarbiyalashning maqsad va vazifalariga va ularning individual xususiyatlariga mos keladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash va amalda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish;

- tarbiyachi hujjatlari bilan ishlay olish ko‘nikma, malakaga ega bo‘lishlari o‘ta muhimdir [3].

Amaliyot boshida talabalar pedagogning ishini kuzatishi, so‘ngra mustaqil ravishda ishlashi, bolalar faoliyatini tashkil qilishi, ochiq mashg’ulotlar o‘tkazishi kerak. Amaliyot jarayonida talabalarga katta o‘qituvchining tashkiliy va uslubiy faoliyatining xususiyatlarini o‘rganish tavsiya etiladi. Amaliyot oxirida talaba quyidagi hujjatlarni topshirishi kerak: amaliyot kundaligi, ochiq darsning qisqacha mazmuni, bitta yosh guruhi uchun bir haftalik mashg’ulotlar rejasi, yozma tahlil bilan bolaning mustaqil faoliyati vaqtini belgilash, yosh bolalar bilan ishlash uchun vizual, didaktik materiallar, amaliyot haqida hisobot.

Amaliyot davomida talabalar o‘zlarining kuzatuvlari natijalarini to‘plashlari va tahlil qilishlari, pedagogika va psixologiya bo‘yicha nazariy bilimlaridan foydalanishlari, pedagogik ko‘nikmalarini takomillashtirishlari kerak. Maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi pedagogik amaliyot talabaga maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri bolaning to‘liq va o‘z vaqtida aqliy va jismoniy rivojlanishi ekanligini tushunishga imkon beradi.

Maktabgacha ta‘lim sohasidagi bo‘lajak mutaxassisning amaliy tajribasi uning ushbu yosh bosqichida bolalarni tarbiyalashning ustuvor talablariga va bolaning individual xususiyatlariga javob beradigan pedagogik texnologiyalarning turlarini tanlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Amaliyot jarayonida talaba maktabgacha ta‘lim tashkilotining o‘quv jarayonida faol ishtirok etishi, amaliy mashg’ulotlar, o‘yinlar o‘tkazishi, bolalarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilishi va o‘z ishlarining kalendar rejalarini tuzishi kerak [2].

Amaliyotchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatdiki, pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o‘qituvchi faoliyati tarkibida tadqiqot komponenti juda muhim ekanligiga ishonch hosil qilishdi, ularning amaliy faoliyatga erta qo‘shilishi ularga bolalar va o‘qituvchilar bilan tezda aloqa o‘rnatishga, to‘g’ridan-to‘g’ri ta‘lim faoliyatini tashkil etish jarayonida o‘zlarini erkin va ishonchli his qilishlariga imkon berdi. Pedagogik amaliyot davomida talabalarning kasbiy kompetentsiyaning eng muhim tarkibiy qismi — tajribaga ega bo‘lishdi. Natijada talabalar shaxsga

yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tahlil qilish, rejalashtirish, nazorat qilish, bolalar va ularning ota-onalari bilan muloqot qilish, bolalar jamoasida qulay psixologik muhitni yaratish, jamoaviy tadbirlarda ishtirok etish malakalariga ega bo’ladilar [5].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” 29.04.2019.

2. Попова Д. В. Подготовка конкурентоспособного специалиста дошкольного образования в открытом образовательном пространстве // Вопросы дошкольной педагогики. 2019. №8. С. 1-2.

3. Ялунина Е. Н., Фотеева Н. А. Методы оценки конкурентоспособности дошкольного образовательного учреждения // Креативная экономика. 2016. Т. 10. №7. https://doi.Org/10.18334/ce.10.7.35362

4. Абашина В. В. Опыт формирования профессиональной компетентности будущих педагогов дошкольного образования в вузе // Научное обозрение. Педагогические науки. 2016. №6. С. 7-12.

5. Намазбаева, Л. З., & Латипова, Л. С. (2023). Дошкольное образование в современном ракурсе восприятия. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(4), 84-91.

6. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTLARI VA MAKTABLARDA BOLALARNI SOG’LOM VA SIFATLI OVQATLANTIRISHNI TA’MINLASH UZVIYLIGI

Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Ismoilova Ziyoda Nig’matjon qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta`lim yo’nalishi talabasi

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama sog’lom va jismonan baquvvat bo’lishi uchun eng birinchi navbatda sifatli ovqatlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning o’sishi,rivojlanishi intensiv ravishda kechadi. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi mavzumiy taomnoma asosida 4 mahal issiq ovqat bilan

ta’minlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bolalarga vitamin va minerallarga boy ozuqa mahsulotlarini muntazam berib borish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to’g’ri yo’lga qo’yilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning to’g’ri ovqatlanishini tashkil etish, ular organizmini zaruriy ozuqa moddalari va vitaminlar bilan to’yintirish, tez o’suvchi organism talablariga mos tarzda ta’minlash kata ahamiyat kasb etadi. MTT larda bolalar ovqatlanishini tashkil etishda malakali mutaxassis hamshiralar va oshpazlar tomonidan amalga oshirilishi darkor.Shu bilan birgalikda tarbiyachilarning bolalar oqilona,sog’lom ovqatlanish asoslarini yaxshi bilishi,ovqatlanishini nazorat qilish malakasiga ega bo’lishi kerak.

Bolalar ovqatlanishining sifati juda ko’p omillarga bog’liqdir:

- eng avvalo ovqat tayyorlashda mahsulotlardan to’g’ri foydalanish;
- tozalik,ozodalik qoidalariga muntazam rioya qilish;
- har bir bola uchun porsiya taqsimotni to’gri yo’lga qo’yish;
- bolalar ovqatlanishini nazoratini olib borish.

Izlanishlar shuni ko’rsatmoqdaki, kundalik ovqatlarni 75-80%ini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida iste’mol qilishadi.Bola organizmi maktabgacha yosh davrida va boshlang’ich maktab yoshida o’suvchi organism bo’lib, vitaminlar va minerallarga bo’lgan talabi birmuncha yuqori hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida va boshlang’ich maktab yoshida bolalar ovqatlanishida vitaminlarning yetishmasligi ularning o’sishidan orqada qolishiga, aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanishida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, bolalar shirinliklarni sevib iste’mol qilishadi. Bu esa ishtahani pasayishiga va ovqatlanish tarkibidagi shirinlik me’yori oshib ketadi, natijada bolalarda turli kasalliklar rivojlanishiga sabab bo’ladi.Bugungi kunda bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablarda sifatli ovqatlantirishda autsorsing xizmatini joriy etilganligi ham o’zining afzalligi,yutuqlari hamda sohadagi kamchiliklarni namoyon qilmoqda.

Hozir kunda oilada ota-onalar o'z farzandlarining maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktablarda qanday ovqatlanishini kuzatib borishlari va nazorat qilishlari maqsadga muvofiqdir. Albatta, xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ovqatlanish jarayoni sifati jihatdan turli xil ko’rinishda bo'lishi mumkin. DMTTlarda farqli o'laroq, xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari mahsulot yetkazib beruvchilarni mustaqil tanlaydilar va tuman, shahardagi tashkilotlari tender asosida kompaniyalar bilan shug'ullanadilar. To'g'ri, bozorda ba'zi turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish imkoniyati mavjud, ularning sifati tasdiqlangan hujjatlar mavjud bo’lishi talab etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktablarda autsorsing shaklida ovqatlanish tizimi qabul qilinganidan keyin har bir mahsulotga uchta hujjat qo'shiladi: konteyner, veterinariya tibbiyoti guvohnomasi va sifat sertifikati. Mahsulotlarni qabul qilish va sinab ko'rish uchun javobgarlik

mas’uliyati shifokor, hamshira va omborxonada to'lanadi. Mahsulotni tashish bilan shug'ullanadigan kompaniyaga javobgarlik ham kiradi. Ekspeditor va haydovchiga bukletni saqlash vositasi va avtomobil uchun sog'liq guvohnomasi bo'lishi shart. Agar autsorsing tizimi oshxona bilan jihozlangan bo'lsa, oshpazga ega bo'lishi kerak. Oshxonada ham muntazam tekshiruvlar o'tkaziladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktablarda menyu muvozanatli va xilma-xil bo'lishi kerak. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktablarda oziq-ovqatning umumiy normalari qabul qilinmoqda, ular qaysi shahar va xususiy tashkilotlarga rioya qilishlari shart. Shunisi e'tiborga loyiqki, parhez bolaning yoshiga bog'liq. Masalan, 1-3 yoshli bolalarda 53 gramm oqsillar va yog'lar va taxminan 212 gramm uglevodlar buyuriladi. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim tashkilotida ovqatlanish me'yorlari ko'paytiriladi.Tibbiyot xodimi, menyuning dizayni bilan bevosita shug’ullanishi lozim. Bola maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktablarda kuniga 4 mahal taom bilan oziqlanishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktablarda oshpazlar hamda tuman davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi xodimlari ishtirokida bolalarni sog‘lom va xavfsiz ovqatlanishida oshpazlarning o‘rni haqida ma’lumotlar berib boriladi. Oshpazlarning birinchi navbatdagi vazifasi bolalarni sog‘lom va sifatli ovqatlanishini tashkil etish hamda bir kunlik me’yorlar asosida taomnomani tuzishda ko‘mak berishdan iborat.

Maktab yoshidagi bolalarning to'g'ri ovqatlanishi kelajakda salomatlik garovidir. Shuning uchun iloji boricha tezroq va imkon qadar tezroq o'rganish kerak.Bundan tashqari, yosh bolalar singari, oziqlanish rejimi ham katta rol o'ynaydi. Shifokorlarning fikriga ko'ra, bolalarning kuniga 4-5 marta oziqlanishi eng maqbuldir.

Dastlabki nonushta ertalabki soat 8 da bolalariga, ikkinchi kuni soat 11 da, tushlikda soat 15.00dan boshlab, kechqurun soat 20 da nonushta qilinadi.Ovqatni 5 soatdan ortiq bo'lmagan vaqtni hisoblang. Aks holda, bola ochlik sezishi mumkin, ovqat hazm qilish yoki ovqat hazm qilish muammosi inkor etilmaydi. Kun bo’yi tetik va bardam yurish hamda dars jarayonini puxta o’zlashtirish uchun maktab o’quvchisi avvalo sog’lom ovqatlanishi zarur.

Negaki bolalikdan o’smirlik yoshiga o’tayotgan davrda yosh organizm ham aqlan, ham jismonan tez rivojlanadi. Yaxshi ovqatlanmagan bola darrov toliqadi, darsda uzoq o’tirolmaydi. Demak, ota-onalar bu masalaga nihoyatda e’tiborli bo’lishlari zarur. Kuni uzaytirilgan guruh va aqliy yuklama boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun maktabda kuni uzaytirilgan guruhlar tashkil etilgan. Ota-onalar bunday guruhlarda qoldirilayotgan farzandlarining ovqatlanish tartibi bilan albatta qiziqishlari kerak. Ma’lumki, bola organizmi to’g’ri rivojlanishida yetarli miqdorda oqsil, yog’, uglevod va vitaminlar bo’lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o’quvchi taomnomasida kalьtsiyga boy sut va sut mahsulotlari, meva va sabzavotlarning o’rnini hech narsa bilan

almashtirib bo’lmaydi. Maktabdagi mashg’ulotlar mobaynida bolaning aqliy yuklamasi ortadi. Bunday vaqtda iste’mol qilinayotgan taomning vitaminlarga boy bo’lishi juda muhim. Sifatli ovqat organizmda moddalar almashinuvini yaxshilaydi, immun tizimi ishini tartibga soladi, turli yuqumli kasalliklardan himoyalanish qobiliyatini oshiradi. Ba’zi ota-onalar “Boshlang’ich sinfda o’qiydigan bolalar nonushtada nima yeyishlari kerak?” deb so’rashadi. Aytish joizki, o’quvchi nonushtasi asosan yumshoq bo’tqalar, sutli mahsulotlar, pishloq, tuxum, shirin choy, sariyog’ va shunga o’xshash foydali mahsulotlardan tashkil topgan bo’lishi kerak. Dudlangan go’sht va kolbasalar tavsiya etilmaydi. Keyingi ovqatlanishda, ya’ni ikkinchi nonushtada go’shtli, tuxumli taom, meva kompoti, qatiq singarilar iste’mol qilinishi yoki pishloqli va saryog’li buterbrodni jemli yoki tvorogli shirin kulcha bilan yeyish tavsiya etiladi. Tushlik yangi pishirilgan, sifatli, issiq ovqat va kechlik esa yengil hazm bo’ladigan taomlar hamda mevalardan iborat bo’lgani ma’qul.

Bola organizmining bir kecha-kunduz davomida qabul qilishi lozim bo’lgan oqsil, yog’, uglevodlarga bo’lgan ehtiyojini hisobga olgan holda ovqatlanishni to’g’ri tashkil qilish talab etiladi. Ayniqsa hayvon oqsillari, masalan go’sht (mol, tovuq, quyon va boshqa hayvon go’shtlari), baliq, tuxum, sut va sut mahsulotlari, shuningdek sarxil meva-sabzavotlarda zarur miqdordagi vitaminlar borligi tufayli, ular bola organizmining yaxshi rivojlanishi uchun nihoyatda zarur. Maktab o’quvchisining qishki taomnomasida dukkakli va uglevodli mahsulotlardan tayyorlangan taomlar bo’lsa foydali. Ko’klamda turli ko’katlardan pishirilgan ovqatlar bo’lishi muhim. Yozda va kuzda esa ho’l mevalarga keng o’rin beriladi. Asosiysi, bola ovqatlanishida xilma-xillik, vitaminlarning mo’l-ko’lligi, tayyorlangan taomning yangiligi va sifatliligi uning salomatligida muhim o’rin tutadi. Buni aslo unutmaslik lozim.

Ovqatlanish madaniyati — bu to'g'ri va o'rtacha ovqatlanish, stolda o'zini tutish qobiliyati, parhezga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish asoslarini bilish, iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining xususiyatlari va ularning tanaga samarali ta'siri to'g'risida bilimlar majmui hisoblanadi.

Autsorsing — bu ilgari xodimlar tomonidan bajarilgan funktsiyalarni uchinchi tomon tashkilotiga o'tkazish jarayoni tushuniladi. Oziq-ovqat sohasida autsorsing ovqat pishirish, uchinchi tomon ovqatlanish korxonasidan maktabgacha ta'lim tashkilotiga tayyor ovqatlarni etkazib berish, ovqatlanishni tashkil qilish — to'liq ovqatlanish xizmati, shu jumladan menyu tuzish, oziq-ovqat sotib olish, ovqat tayyorlash, dasturxon tuzish va tozalash, autsorsingdan foydalanishning afzalliklarishunday bo’lishi mumkin: oziq-ovqat sifatini yaxshilash: bolalarni oziqlantirishga ixtisoslashgan uchinchi tomon kompaniyalari yanada zamonaviy uskunalar, malakali xodimlar va yangi texnologik muhit bo’ladi,xarajatlarni kamaytirish, autsorsing xarajatlari o'z oshxonangizni saqlash xarajatlaridan past bo'lishi mumkin,vaqt va resurslarni bo'shatish- tashkilot rahbariyati

oziq-ovqat bilan bog'liq odatiy vazifalardan xalos bo'lishi va boshqa masalalarga e'tibor qaratishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablarda bolalarni sog’lom va sifatli,to’g’ri ovqatlantirishni ta’minlashdagi uzviylik mazkur jarayonda muhim rol o’ynaydi.

Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilgan holda bolani maktabgacha ta`lim tashkiloti va maktablarda sog’lom ovqatlanishini ta’minlash uzviyligi bo’lsa, bola sog’lom o’sib voyaga yetadi, kasal bo’lmaydi.Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarning sog’lom va sifatli ovqatlantirishda 3-7 yoshli bolalar uchun namunaviy taomnoma ro’yxati tuziladi.Kun tartibiga rioya qilgan holda bolalarga maktabgacha ta`lim tashkilotida muntazam ovqatlantiriladi.Shu asosida bolalarga nonushta,tushlik va ikkinchi tushlik o’z vaqtida berib boriladi.Bundan eng asosiy ko’zlangan maqsad bolalarni sifatli ovqatlantirish va sog’lom voyaga yetishiga erishishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi

25.07.2019 yildagi 626-son qarori.

10. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” dasturi. — T., 2022 yil.

11. Махмутазимова, Ю. Р. (2019). Роль воспитателя в детском саду в формировании личности ребенка. Actual Problems of Applied Sciences Journal World, (3), 24-28.

12. Maxmutazimova, Y., & Amirova, M. (2023). Rivojlanish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, *1*(2-3).

13. Махмутазимова, Ю. Р. (2020). Дошкольная образовательная организация и семья: взаимодействие ребенка и педагога. Вестник педагогики: наука и практика, (51), 125-126.

14. Махмутазимова, Ю. Р. (2024). БЎЛАЖАК МТТ ТАРБИЯЧИЛАРИНИНГ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ЁРДАМИДА РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРИЯТИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *14*(3), 98-103.

15. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta’lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

16. Юлдуз, М. (2024). ПУТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОГО ТВОРЧЕСТВА ДОШКОЛЬНИКОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *14*(3), 94-97.

BAYRAM ERTALIKLARI VA KO’NGIL OCHARLAR TASHKIL ETISH ASOSIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI MUSIQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Nurmatova Iroda Toxtasinovna
Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta’lim metodikasi" kafedrasi o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

Uktamova Malika Rustam qizi
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Maktabgacha yosh - bu shaxsning rivojlanishi va tarbiyasining eng muhim bosqichi, bolalarning bilimga qiziqishi va qiziqishi rivojlanadigan davr. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy didini tarbiyalash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, musiqa madaniyatini tarbiyalash bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish zarur.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, barcha bolalar tabiatan musiqaga moyil bolib, maktabgacha yosh davr - bu barcha qobiliyatlarni, shu jumladan musiqiy qobiliyatlarni shakllantirish davr hisoblanadi. Musiqiy ijod o'zini o'zi bilish, o'zini namoyon qilish va ularning birligida o'zini o'zi tasdiqlash sifatida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini namoyon qilish zarurati bola san'atdagi axloqiy va estetik ideallarga munosabatini bildirganda namoyon bo'ladi; O‘z-o‘zini bilish bola o‘zining ruhiy olamini musiqa orqali o‘rganganida, o‘zini-o‘zi tasdiqlash esa – musiqa san’ati orqali o‘zini, hissiyot boyligi, ijodiy tasavvurida namoyon bo‘ladi. Musiqa bolaning ijodiy shaxsining rivojlanishiga ta'sir qilishi, axloqiy va estetik tajribalarini rag'batlantirishi, atrof-muhitni faol idrok etish va o'zgartirishga, faol fikrlashga o‘rgatadi.

Badiiy adabiyot, teatr, tasviriy san’at kabi musiqa san’ati ham juda muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Musiqaning janr boyligi qahramonlik obrazlarini, lirik kayfiyatni, quvnoq hazil va jonli raqslarni idrok etishga yordam beradi. Musiqani idrok etishda vujudga keladigan tuyg‘ularning xilma-xilligi bolalarning kechinmalarini, ma’naviy dunyosini boyitadi. Jamoaviy qo'shiq, raqs va o'yinlarda, bolalar ishtirokchilardan birlashgan harakatlar talab etiladi.

Zamonaviy psixologlarning ta'kidlashicha, musiqa bolaning umumiy funktsional faoliyatiga ta'sir qiladi. Imo-ishora, harakat, plastika hissiy holatni umumlashtirishning maxsus xususiyatiga ega. Turli xil musiqiy asarlar bolalarda hissiy tajribalarni uyg'otadi, ma'lum kayfiyatlarni keltirib chiqaradi, ularning ta'siri ostida harakatlar tegishli xarakterga ega bo'ladi. Musiqa asari qanchalik murakkab va hajmli bo‘lsa, shuncha ko‘p harakatlar qo‘llanilsa, eshitish diqqati shunchalik jadal rivojlanadi. U, o'z navbatida, eshitish va vosita analizatorlariga asoslangan musiqiy xotirani rivojlantirishga yordam beradi.

Musiqa bolani estetik tarbiyalashning eng yorqin vositalaridan biri sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarning go'zalni idrok etish, his qilish va tushunishni rivojlantirishga qaratilgan.

Haqiqiy go'zallikka kirish estetik his-tuyg'ularni shakllantiradi, ular estetik did, estetik his-tuyg'ular, hislar va mulohazalarning asosiga aylanadi. Bu bola uchun ijodiy rivojlanish dunyosini ochib beradi, uning ijtimoiylashuviga yordam beradi va uni to'laqonli kattalar hayotiga tayyorlaydi. Musiqa bolaning axloqiy xarakterini shakllantirish vositasi sifatida bolaning his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir qiladi va uning axloqiy xarakterini shakllantiradi. L.S.Vigotskiyning fikriga ko'ra, his-tuyg'ular uzoq vaqtdan beri bolalik davridagi xatti-harakatlarni tartibga solishning genetik shakllari bo'lib qolgan va, ehtimol, rivojlanish jarayonida ular rol o'ynaydi. Bolalarda musiqiy qobiliyatlarni shakllanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, inson miyasi musiqa tinglash uchun juda ko‘p sohalardan foydalanadi. Miyaning chap tomoni odatda ritm va balandlikni, o'ng tomoni esa tembr va ohangni qayta ishlaydi. Musiqani tinglash orqali idrok etish fikrlashning eng mavhum usullaridan biri bo'lib, alohida aqliy konsentratsiyani, e'tibor va hissiy taranglikni saqlash qobiliyatini talab qiladi. Bolalar tovushni tinglaydilar, o'xshash va turli tovushlarni taqqoslaydilar, ularning ekspressiv ma'nosi bilan tanishadilar, badiiy tasvirlarning xarakterli semantik xususiyatlarini qayd etadilar, asar tuzilishini tushunishni o'rganadilar.

MTTda bayram va qiziqarli ko‘ngil ochar soatlari – bolalarni tarbiyalash bosqichida muhim estetik va emotsional ruxdagi o‘quv ishlarini kamrab oluvchi tarbiyaviy jarayondir. Bu jarayon insonlarga ko‘tarinki, bayramona kayfiyat ulashib, ularni o‘zaro birlashtiradi. Bayramlar ertaliklar va o‘yin-kulgilar - maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida yorqin va quvonchli voqea. Har xil turdagi san'at va his-tuyg‘u birlashib, bolalarning ongida katta ta'sir ko‘rsatadi. Bayramlar va o‘yin-kulgilarni tayyorlash va amalga oshirishda bolalarda ma'naviy ta'lim ya’ni, oddiy tajribalar bilan jamoada ishlash asoslari; xalq og‘zaki ijodi asarlari, ona tabiat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish maqsadida Ona Vatan haqida ko‘ngilochar qo‘shiq va she’rlar bilan ishtirok etish madaniyati tarbiyalanadi. Qo‘shiqlar, she'rlar, raqslari o‘rganish oqali bolalar turli yangi mamlakatlar, tabiat va turli millat vakillari haqida ko‘p narsalarni bilib oladilar. Bular bolaning dunyoqarashini kengayishiga, xotirani mustahkamlashga, ruhiy rivojlanishiga, til va tasavvurning shakllanishiga xizmat qiladi.

Bayramona kayfiyat, zalni bayramona bezatilishi, go‘zalligi, liboslar, puxta tanlangan repertuar, bolalarning rangli chiqishlari - barchasi estetik ta'limning muhim omillaridir. Ashula, o‘yinlar, raqslarda bolalarning ishtiroki etishi ularning qomatining to’g’ri rivojlanishini va harakatlarning muvofiqlashtirilishini yaxshilaydi. Maktabgacha ta’limda bayramlar va o‘yin-kulgi tayyorlash tizimli va muntazam ravishda olib boriladi. Tarbiyachi bolalarning qiziqishlaridan, individual xususiyatlaridan xabardor bo‘lsa, bolalar bog‘chasidagi har kunni bolalar uchun quvnoq va mazmunli qilish mumkin.

Bolalar bog‘chasida bo‘lib o‘tadigan o‘yinlar va tadbirlar bolalarda go‘zallik hissini uyg‘otadi. Badiiy musiqiy-adabiy materiallar, turli sahna ko‘rinishlari, liboslar, rang-barang bezaklar i maktabgacha yoshdagi bolalarni shakllanishida go‘zallik tuyg‘usini uyg‘otishda o‘z hissasini qo‘shadi. Bolalar bog‘chasini o‘rab turgan go‘zallik muhiti bolalarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi. MTTning bayram va ko‘ngilochar tadbirlari bolaning yangi iste’dod va qobiliyatlarini kashf etish imkonini beradi. Bu tadbirlar bolalarning yutuqlarini ko‘rsatib beradi, bundan tashqari, bayramlar va ko‘ngilochar tadbirlar bolalarning kelgusi rivojlanishida yangi taassurotlar manbai hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

19. Toxtasinovna, N.I. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQALI SAHNALASHTIRISH ASOSIDAGI FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISHNING SHAKL, USUL VA VOSITALARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *4*(2), 16-22.
20. Nurmatova, I. (2023). Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanishidaqo ‘g ‘irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, *1*(2-3).
21. Toxtasinovna, N. I. (2024). MUSIQA TINGLASH FAOLIYATI ASOSIDA KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *17*(2), 155-158.
22. Nurmatova I.T. Theatrical activity as a means of developing the creative abilities of younger preschoolers., Modern problems of science and yedugation.,15.12.2022.,136-140pp.International scientific and current research conferences.Virginiya.USA.
23. Nurmatova I.T. Development of creative activity of older preschool childrenby means of theaterized activity., european international journal of pedagogics.ISSN: 2751-000X., Pages: 20-25. SJIF – 5,983. https://www.eipublication.com.
24. Нурматова И.Т. “Роль педагога в организации театрализованной деятельности дошкольников”.//“International sonference on yeducational innovations and sciences 2022/8" Toshkent.2022 Page No.: -R.168-171.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING O‘QISH VA YOZUV MALAKALARINI EGALLASHIDA INNOVATSION YONDASHUV

Marasulova Dono Nigmatullayevna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
donomarasulova@gmail.com

Toshtemirova Shoira To’lqin qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi umidatoshtemirova04@gmail.com

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Hozirgi globallashuv sharoitida yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga oid muammolar va ularning yechimi masalasi davlat siyosatining asosiy masalasi sifatida kun tartibiga qo’yildi. Shu bois, O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o’qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo’lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta’lim tizimini yaratish ko’zda tutildi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutilyapdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yil gacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori misolida ko’rsak, mazkur kontseptsiya maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so’z bilan aytganda, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo’lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi. Kontseptsiya tasdiqlangandan so’ng maktabgacha ta’lim tizimida yangi loyihalar, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda

Qayd etilgan Kontseptsiyada 2030 yilgacha 3-7 yoshdagi bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishining ta’minlanishi ko’zda tutilgan. Xususan, yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari binolarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilish, maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini joriy etish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2023 yilning avgust oyi holatiga ko'ra respublikamizda jami 30 792 ta maktabgacha ta’lim

tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularning 6 734 tasi davlat va 24 058 tasi nodavlat (789 ta xususiy, 21 941 ta oilaviy va DXSH asosidagi 1 328 ta nodavlat MTT) maktabgacha ta’lim tashkilotlaridir. Shuningdek, MTTlarda 2 111 487 nafar yoki 72 foiz bolalar maktabgacha ta’limga qamrab olingan bo‘lib, shundan 647 655 nafar 6 yoshli bolalarning 563 331 nafari 2023-2024 o‘quv yilida maktabga chiqadiganlarni tashkil etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun pedagog va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va salohiyatini oshirish borasida ham ijobiy o’zgarishlar kuzatilmoqda.

Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim sog‘lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta’lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim bola 6—7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’limda bolani har tomonlama rivojlantirish, uning umumiy ta’limda erishiladigan sezilarli yutuqlariga asos bo‘ladi. Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Agar shaxsni har tarafiama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo'llanilmasa, rivojlanish to'xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi. 7 yosh bola yangi sharoitga tez o'rganadigan va o'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi.

Takomillashtirilgan **“**Ilk qadam**”** davlat o‘quv dasturi va **“**Ilm yo‘li**”** variativ o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va majburiy tayyorlov guruhlarida nutq o‘stirish mashg‘ulotlari, rivojlanish markazlari, sayr, ekskursiyalar orqali mustahkamlanadi. Tarbiyachilar tomonidan bolalarni o‘qish va yozish malakalarini shakllantirish maktabgacha yoshga doir maxsus metodikalar orqali olib boriladi.

Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan xalqaro tajribalar hisobga olinib, 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish va maktab ta’limiga tayyorlash maqsadida “Ilm yo‘li” variativ dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar 6-7 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlari maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq, bolaning rivojlanishidagi 5 muhim soha: bolalarning jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish sohalarini har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, bunda bola ta’limiy faoliyatning yetakchi ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Dasturlar talablari bolani har tomonlama rivojlantirib, maktab ta’limiga tayyorlaydi, unda turli xil ko‘nikmalarni shakllantirishda xizmat qiladi. Bu yoshda bolani savodxonligi bo‘yicha olib boriladigan ta’limiy jarayonlar bolalarda nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalarini

rivojlantirish sohasi va bola rivojlanishining barcha sohalari bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bolaning so‘z boyligi oshadi, nutqqa nisbatan qiziqish uyg‘onadi, unda mazmunli gapirish, boshlang‘ich til bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lish, badiiy adabiyotga muhabbat shakllanadi. Jamoada o‘zini tutish, savollarga javob berish, kattalar bilan muloqotga kirishish va ular oldida so‘zlash, shaxsiy qarorlarini qabul qilish, boshqalarga namuna bo‘lish, qiyin vaziyatlarda amaliy yechim topish uchun intilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bolada qo‘l barmoqlari mayda motorikasi rivojlantirilib, yozuv malakalari shakllanadi. Ular qog‘ozda to‘g‘ri chiziqlar, so‘zlar va qisqa gaplarni yozadi, yozuv qatorini aniqlay oladi, qo‘lni uzmasdan nuqta chiziqlarni birlashtirib rasm chizish malakalari shakllanadi.

Bolani bu yosh davrida og‘zaki nutq asosiy o‘rinni egallaydi. Nutq rang-barang ifodali tovushlar yig‘indisidir. U bolani ertaga maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun zamin yaratadi. “So‘z boyligi - deb ta’kidlagan edi Q.Shodiyeva - bolaga barcha mashg‘ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o‘zlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi”. Bola nutqining rivojlanishi bevosita uning lug‘atiga bog‘liq. Albatta shuni ta’kidlash lozimki, bolaning lug‘at boyligi bola dunyoni anglashi orqali ifodalanadi. Bola ma’lumotlarni atrof-muhitni kuzatish, ota-onalar, kattalar, tarbiyachilar, o‘rtoqlari, kitoblar, filmlar, mashg‘ulot va o‘yinlar orqali oladi. Bularning barchasida bolaga ma’lumotlar og‘zaki nutq orqali beriladi. Buning natijasida bolaning lug‘at boyligi oshib borishi, u so‘zlar, ularning ma’nosi, ularni qo‘llab, gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzishni, to‘g‘ri tovush talaffuzini amalga oshirishi zarur. Bolaga bu ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi. Bu jarayon boladan aqliy faollikni talab etadi. Bunda tarbiyachilar tomonidan bolani nutqini rivojlantirish va uni savodxonligini amalga oshirish bo‘yicha tizimli ta’lim-tarbiyaviy ishlar amalga oshirilishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda maktab ta’limiga tayyorlash hamda unda savodxonligini rivojlantirish quyidagi talablarga bo‘ysunadi:

- bolani rivojlantirishga qaratilgan qulay, do‘stona, xavfsiz muhitni yaratish. Bolalar jamoasida do‘stona munosabatni qadrlash. Bolaga yo‘naltirilgan ta’limga yondashuv asosida ta’lim-tarbiya berish, uzoq davom etadigan mashg‘ulotlar bilan emas, balki bolada qiziqishni uyg‘otadigan, uni hayratlantiradigan o‘yinlardan iborat ta’limiy jarayonlarni tashkil etish. O‘yindan asosiy ta’limiy faoliyat sifatida foydalanish. Didaktik vositalarni keng qo‘llash.

- bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning xotirasi, diqqati, nutqi, tafakkurini inobatga olish. Bolada o‘qishga nisbatan xohish, istak, qiziqish uyg‘otish. Kattalar tomonidan bolaga bosim o‘tkazish, uning erishgan natijalaridan qoniqmaganlikni bildirish man etiladi.

- olib boriladigan ta’lim va tarbiyaviy jarayonlar ketma-ketlikda, oddiydan murakkablashib borishi zarur.

- tizimli ravishda bolada kichik yosh davridan boshlab so‘zlarni to‘g‘ri talaffuzini rivojlantirish. Tarbiyachi o‘z nutqiga nisbatan talabchan bo‘lishi.

- bolalarda o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan va xilma-xil gap konstruksiyalaridan va yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalana olishga bo‘lgan ishonchni hosil qilish.

Umuman xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, bolalarni 6-7 yoshda maktab ta’limiga tayyorlash, ularda ertaga maktab dasturlarini yaxshi o‘zlashtirishlari, shuningdek ularning intilishlari, qobiliyatlarini namoyon qilishga imkoniyat yaratadi. Bolalarni maktabga tayyorlashda, maktabgacha yoshdagi bolalik inson tafakkuri va umuman inson shaxsini shakllantirish jarayonida alohida rol o‘ynaydi, jamiyatimizning ongli avlodini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019.

20. 2. Marasulova, D. N. (2023). BOLALARGA CHET TILINI O‘RGATISHDA . MULTIMEDIALARNI O‘RINI. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(3), 83-87.

21. Marasulova, D. N., & Alovatova, L. S. (2023). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘RGATISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 47-50.

22. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

23. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta’lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

24. Марасулова Д. Н. АУТЕНТИЧНЫЕ ВИДЕОМАТЕРИАЛЫ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА //Results of National Scientific Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 252-259.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RASM CHIZISHGA O‘RGATISH

Marasulova Dono Nigmatullayevna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
donomarasulova@gmail.com

Tojiyeva Zebuniso Abduvohid qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi tojiyevazebo00@gmail.com

Jahon sivilizatsiyasining ko‘p asrlik nisbiy ravnaqi hozirgi vaqtda ko‘plab innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishini boshdan kechirmoqda. Bu esa, sayyoramizdagi har bir individumga ta’sir qilmay iloji yo‘q. Shubhasiz, tabiat tomondan belgilangan insonning o‘zini anglash, uning intellektual muvaffaqiyatining ijodiy darajasiga bevosita bog‘liq. Ko‘plab tadqiqotchilar zamonaviy dunyoda shaxsning faol hayoti va o‘zini namoyon qilishi uchun har bir bolada ijodiy fazilatlarni shakllantirish kerak, degan fikrni qo‘llab- quvvatlaydi.

Ta’lim-tarbiya sohasidagi masalalarning to‘xtovsiz takomillashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifat va samaradorligini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qitish usullarini va texnologiyalarni muttasil yangilab turishni taqozo etadi.

Bunday vaziyatdan chiqish yo‘llaridan biri — insonning o‘zgaruvchan hayot sharoitlariga munosib javob berishga imkon beradigan aqliy, ma’naviy, ijodiy va jismoniy salohiyatini ochib berishni rag‘batlantiradigan ta’lim va tarbiya tizimini innovatsion texnologiyalashtirishni amalga oshirishdir.

Bunday ta’lim tizimi bolalar tomonidan o‘zlarining mahsulotlarini yaratish orqali «modellashtirish, qurish, loyihalash», kattalar kasbiy faoliyatining samarali shakllari va turlarini rivojlantirish orqali bolaning ijodiy shaxsini rivojlantirishni nazarda tutadi. Faoliyatning ijodiy va samarali usullarini o‘zlashtirish va insonning ijodiy fazilatlarini rivojlantirish kelajakda uning muvaffaqiyatining samarali omili bo‘ladi. Jamiyat a’zolarining ta’lim sifatini oshirish haqiqatan ham, jamiyatning madaniy, ilmiy va texnologik rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Tarix shohidki, jahonga mashhur geograflar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, shoiru yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar. Shunga ko‘ra, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Gyote, Gyugo, G. Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, D. Mendeleyev, B. Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug‘ullanib kelganlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy faoliyatga oid tadqiqot ishlari o‘zbekistonlik pedagog olimlardan F.Valixo‘jayeva, D.Sabirova, S.G‘ozibayeva, X.Qosimova, D.Xalimova, T.Chabrova, O.Mahmudova, Sh.Xasanovalar tomonidan olib borilgan.

Rossiya davlatining taniqli rassomlarini tarbiyalagan, grafika-tasvir ta’limotini o‘rgatgan rus rassomi va pedagogi P.P. Chistyakov shogirdlariga rasm chizish texnologiyasining kuchli va zaif tomonlarini bir necha bor ta’kidlab, rasm g‘oyasini ifoda etishda rasm chizish texnikasining muhimligini aytgan. U shunday deb yozgan: «Afsuski, yaxshi dizayn va aniqlik bilan chizilgan rasmda, ko‘pincha obrazni ifodalashda chizish texnikasi qo‘pol ravishda ijro etilishini ko‘rish mumkin, bu esa, katta kamchilikdir». Rassom va pedagog P.P.Chistyakovning ta’rificha, «Obrazni ifodalash texnikasi-bu rassomning tilidir. Ushbu tilni bilmasdan, rassom o‘z asarining dizaynini tomoshabinga yetkazishda texnikani puxta egallash kerak».

O‘ziga talabchan bo‘lgan fransuz rassomi Ejen Delakrua (Ferdinand Victor Eugène Delacroix.1798-1863), rassom bo‘lishni istagan har bir inson, muntazam ravishda kontur sohasidagi mahoratini oshirishi kerak. Buning uchun u doimiy ravishda shtrix va chiziq texnikasi ustida ishlashi kerakligini takror va takror aytgan. O‘zining kundaligida u shunday yozgan: «Tasvirda birinchi va eng muhim narsa bu konturlar. Agar ular bajarilgan bo‘lsa, demak, rasm kuchli va mukammal, qolgan narsa o‘ta beparvo!» deb yozgan.

Innovatsion texnologiya asosida Rasm chizishni o‘rganish uchun alohida iqtidor, iste’dod kerakmi? Agar astoydil istasa, har kim, qobiliyatidan qat’i nazar, savodli chizishga o‘rgana oladi. Chizishni o‘rganish savodli yozish yoki maktab matematika kursini o‘zlashtirishga qaraganda murakkab emas. Faqat intilish va asosiysi-mustahkam iroda, rasm istalgan kasb, istalgan mashg‘ulot egasiga zarurligini tushunish kerak. Mazkur muallif fikriga to‘liq qo‘shilgan holda, rasm chizishga o‘rganishga ham xohish-istakdan tashqari, uning texnologiyalarini egallab olish zarurati mavjud.

Rasm chizish bolalarning yozish savodini chiqarishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, harfni o‘rgatish uchun narsalaning tasviri chizdirilgan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni rasm chizishga o‘rgatishda qo‘lning erkin harakat qilishiga alohida e’tibor berilgan. Erkin, yengil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qog‘ozlarda bajarilgan. Darhaqiqat, rasm chizish grafik faoliyat hisoblanib, uning o‘ziga xos grafik ifodali vositalari mavjud obraz yordamida chizilgan rasmda tasvirlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rasm chizishni o‘rgatishning asosiy maqsadi-bolalarga hayotiy taassurotlarni majoziy aks ettirish vositasi sifatida narsalar va hodisalarni tasvirlashga o‘rgatiladi.

Pedagog bolalarni rasm chizishga o‘rgatish uchun ma’lum bir mavzu yoki hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun obyektlar va hodisalarni kuzatishni tashkil qilar ekan, obyektni idrok etishning muayyan usulini, uni tekshirishni o‘rgatishi kerak. Chunki chizish uchun zarur

bo‘lgan tasvirlar idrok jarayonida shakllanadi. Bolalarga biror narsani idrok etishga o‘rgatish jarayonida, ular obyektlarning shakli, tuzilishi, nisbati, rangi bilan tanishtiriladi. Bolalarda obyektlarni o‘rganish natijasida ushbu obyektlar tasvirining asosini tashkil etuvchi g‘oyalar shakllanadi. Biroq, obyektni chizish uchun uning shakli, rangi, tuzilishi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish yetarli emas. Obyektning bu xususiyatlarini grafik shaklda qog‘ozning tekis yuzasida ifodalashga, qo‘l harakatlarini rasm chizish vazifasiga bo‘ysundira olish kerakligi o‘rgatiladi.

Rasm yoki haykalchalar tasvirini yaratish orqali bola tasvirlangan obyektni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb baholab, o‘z harakatlarini boshqarib boradi. Tasvirni ijro etishga qaratilgan harakatlar ushbu jarayonning mohiyati tomonidan yetarli darajada tashkil etilgan deb o‘ylash mumkin. Biroq, amalda bu boshqacha. Innovatsion chizish texnikasini ishlab chiqish va texnologiyalarni o‘zlashtirishda san’at asarini yaratish jarayonining bir qismi bo‘lgan mustaqil va muhim vazifa talab etiladi.

Rasm chizish texnikasi tushunchasini aniqlashtiradigan bo‘lsak, tasviriy san’atning yo‘nalishi vakillari chizish texnikasiga katta ahamiyat berishgan va uni rivojlantirishga alohida e’tibor berishgan. Texnikani o‘zlashtirmasdan, aniq va ravshan rasm chizib, tasvirlab bo‘lmaydi. Shu bilan birga, tasviriy san’atda innovatsion texnologiya xizmat vazifasiga ega ekanligi qayd etilgan. U ishning mafkuraviy-majoziy tizimiga bo‘ysunadi; ma’lum texnik vositalar ishning mafkuraviy mazmunini ifoda etishga yordam beradi.

Xullas, har bir soha ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi. Agar har bir tarbiyachi rasm chizishni bilganda edi, ular dars berish jarayonida yuksak samaralarga erishardi, dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish ham tarbiyalanuvchi uchun juda oson va yengil bo‘lardi, hatto o‘zlashtirmovchi bolaning bo‘lishi ancha qiyin bo‘lardi. Shularga ko‘ra bugungi maktabchag yoshdagi bolalarga badiiy bilim va malaka berishga katta e’tibor berilmoqda.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). DEVELOPMENT OF IMAGINARY-CREATIVE COMPETENCES IN THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSION. In Next Scientists Conferences (pp. 84-91).

2. Marasulova, D. N., & Alovatova, L. S. (2023). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘RGATISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 47-50.

3. Maxmudova O.A Maxsus ta’limda o‘quvchilarning plastik materiallar bilan ishlash malakalarini shakllantirish."Bola va zamon" jurnali, №3,2019 y .-B.45-46.(13.00.00; №1).

4. Maxmudova O.A. Maktabgacha ta`lim tizimida tasviriy faoliyat ko`nikmasini shakllantirish bosqichlari. Pedagogika (Pedagogik ta’lim) jurnali, №2,2020y.-B.45-46.(13.00.00; №6).

5. Xasanova Shaxnoza To’xtasinovna. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyat o’rgatish. Darslik. “Metodist nashriyoti”, 2023.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ERKIN SHAXSNI TARBIYALASH

Marasulova Dono Nigmatullayevna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
donomarasulova@gmail.com.

Maxmudova Marjona Muxtor qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi marjonamahmudova22@gmail.com

Respublikamizning iqtisodiy mustaqilligini, uning ilmiy salohiyatini saqlab qolish, mustaqil, ongli ravishda, shaxsiy va ijtimoiy hayotda mas’uliyatli qaror qabul qila oladigan erkin shaxsni tarbiyalamasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Bugungi kunda siyosat va ta'limning o'zaro aloqasi hamma uchun ochiq. Har qanday taraqqiy etgan jamiyatning iqtisodiy, intellektual, madaniy, ma'naviy va axloqiy salohiyati uning mazmuni va yo'nalishiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va zamonaviy o’zbek jamiyatining rivojlanishi sharoitida yosh avlodning iqtisodiy tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yangi iqtisodiy sharoitlar maktabgacha yoshdagi mustaqil, faol, mehnatkash, iqtisodiy jihatdan savodli, yuqori axloqiy, insoniy shaxslarni tarbiyalash zarurligini belgilaydi, bu esa insonning keyingi hayotiy faoliyatining asosi hisoblanadi.

Iqtisodiy tarbiya ham shaxsning barkamol shakllanishining zarur shartidir. Bolani iqtisodiy tarbiyalash pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolaveradi. Bozor iqtisodiga o‘tayotgan bir sharoitda va keyingi rivojlanishda ham yoshlarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhimdir. Bu sohada hukumatimiz g‘amho‘rlik ko‘rsatmoqda va pedagoglarimiz tadqiqotlar olib bormoqda. Iqtisodiy tarbiya bolalarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash, iqtisodiy madaniyat asoslarini shakllantirish, bolalarni iqtisodiyotga jalb qilish, bolaning moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlariga va umuman, bola shaxsiyatini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot nazariyasida o'rganilayotgan muammolarning xilma-xilligi tahsinga loyiq, biroq

maktabgacha ta'limda bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning pedagogik shartlarini o'rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga dastlabki iqtisodiy bilimlarni berish, pul, bozor munosabatlari tushinchalarini shakillantirib borish zarurigi, bo'lajak tarbiyachilar uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga zamonaviy yondashuvlar asosida iqtisodiy tarbiya berishda tavsiyalar, ularning kasbiy sifatlarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib metodik shart-sharoitlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Iqtisod insoniyatning ibtidoiy davrlarida tovar ayriboshlashning paydo bo‘lishidan boshlab tarixiy nutai nazardan ochib berilishi kerak. Qanday qilib tovar ayriboshlashning rivojlanishi bozor strukturalari: ochiq va yopiq bozor, ko‘tarib yurib sotish, do‘konlar yarmarka va birjalarga olib kelganligini ko‘rsatib berish lozim. Modomiki bozor ayriboshlashning ibtidoiy shakllari xanuzga qadar takomillashtirilgan ko‘rinishda saqlanib qolgan ekan, bola tovar ayriboshlashning qadimgi shakli elementlaridan bozor infrastrukturasining zamonaviy tartibotlariga o‘tishni yaxshiroq eslab qoladi. Iqtisodiy tarbiyaning dastlabki bosqichlari uzoq tarixga ega. Ular kishilik jamiyati taraqqiyotiga mos ravishda tako‘millashib kelavergan. Iqtisodiy tarbiyaga tegishli ma'lumotlarni ilohiy kitob — Qur'oni Karimda va muqaddas kitob — Hadisi sharif hamda «Avesto» bitiklarida ham topish mumkin. Iqtisodiy tarbiya Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham bayon etib kelingan. Jumladan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlarida qozixonada meros va uni taqsimlash bo‘yicha alohida xodim faoliyat ko‘rsatishi qayd etilgan. Ular shubhasiz qozixonadagi iqtisodiy muammolar yechimlarini hal etish uchun jalb etilgan. Bu borada Farobiyning «Inson o‘z mablag‘ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg‘anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka etaklaydi», degan fikri o‘rilidir. Ahmad Yugnakiy “Hibbatul haqoyiq”da: “Mol-mulksiz kishi uchun bilim – bitmas-tuganmas mulkdir, kambag‘al uchun bilim hisob – xatosiz hisobdir”. Bu fikrdan shuni anglash zarurki, inson o‘zining ilmi bilan ijtimoiy hayotga tejamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘z hayotini oqilona tashkil qiladi.

Iqtisodiy tarbiyani oiladan boshlash talab qilinadi. Shu orqali bola oilasiga va qolaversa, shaxsan o‘ziga tegishli bo‘gan imkoniyat hamda ne'matlarning qadr-qimmatiga etishga erishiladi. Bunda oilaviy ehtiyoj zarur, uni bajarishga harakat qilish kera, oilaviy orzu-havas, oila ravnaqi uchun imkoniyat darajasida harakat qilish lozimligini bolaga tushuntirish kerak. Shundan keyin oila budjetini ochib berish kerak. Bolalarga oila daromadlari qanday xosil bo‘lishini, ularning tarkibi va tuzilishi haqida gapirib berish lozim. Ularga, shuningdek, ota-onalarning jismoniy va intellektual kuch-g‘ayrat sarflashi o‘g‘risida tushuncha berish zarur. Bundan tashqari, ularga yordamchi xo‘jalik, dala xovlidagi ishlar, meva va sabzavotlarni qayta ishlash, halq hunarmandchiligi buyumlari tayyorlab sotish natijasida kelib chiqadigan qo‘shimcha daromatlarni

ko‘rsatib berish lozim. Asosiy vazifa — bolalarga oilaning yashash manbalari mehnat va faqat mehnat bilan yaratilishi va bolalarning tobora ortib borayotgan talablarni qondirish uchun ota-onalar ishlashlarini tushuntirishdan iborat.

Iqtisodiy tarbiya bolalarning tevarak-atrofdagi muhitni, muayyan buyumlarni anglab, ularni avaylab-asrash va bilib olishning mustahkam vositasi bo'lib, ularga nazariy bilimlarni qo‘llash imkoniyatini yaratib beradi va ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi. Iqtisodiy ta’lim va tarbiyaning asosiy maqsadi bolalar ongida tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi iqtisodiy jihatlarni o‘z ichiga oluvchi xislatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat, ular orasidagi uzviy aloqadorlikni o‘rgatish va bolalarda shu bilimlarni hosil qilish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019.

26. O‘rozaliyeva A.A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida iqtisodiy bilim uchun qulay sharoit yaratish omillari. Zamonaviy ta’lim modernizatsiyasi:nazariya va amaliyot mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti Toshkent-2022 yil 206 bet

27. O‘rozaliyeva A.A Maktabgacha ta’limda iqtisodiy tarbiyaning o’rganilganligi va tahlil qilinganligi, natijalar va talablar. “Journal of new century innovations_Volume-23_Issue-2” http://www.newjournal.org/index.php/new
178-182p.

28. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. 802-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori. 20.12.2020 yil 8

29. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

30. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta’lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA METODIK XIZMATNI TAKOMILLASHTIRISH

Q.M.Azizova

Andijon viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o`rgatish milliy markazi
Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi mudiri p.f.f.d. (PhD)., dotsent

Maktabgacha ta’lim tizimida metodik faoliyatni yo‘lga qo‘yish, uni takomillashtirish, isloh etish bugungi kun maktabgacha ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda bu soha davlat tomonidan tubdan isloh etilmoqda. Zaruriy qonun va ko‘rsatmalar qabul etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli qarori bilan maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida bir qator vazifalar belgilab berildi. Ular qatorida davlat maktabgacha ta’lim muassasalarini ular shtatlarining ko‘payishini yoki kamayishini hisobga olib, metodistlar va logopedlar bilan ta’minlash maqsadida shtat jadvallarini qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, ayrim shtat birliklarini optimallashtirish vazifasi ham qo‘yildi.

Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori ham soha rivoji uchun dasturilamal vazifasini bajarmoqda. Ushbu qaror bilan milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallarni tayyorlash hamda joriy etish ishlari zamonaviy talablarga muvofiqlashtirilishi va boshqa bir qator yo‘nalishlar ko‘rsatib berilgan.

Metodik xizmatni takomillashtirishda metodik kabinetlar muhim ahamiyatga ega. Metodika kabineti o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarga ko‘ra:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar maktabgacha ta’lim metodika kabineti ish faoliyatini nazorat etadi va muvofiqlashtiradi;

maktabgacha ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya ishlar ahvoli va belgilangan rejalarning bajarilishini o‘rganadi;

Respublika metodika kabineti xodimlarini malaka oshirish kurslarida ma’ruzalar o‘qishga, seminar-mashg‘ulotlar o‘tkazishga va to‘garaklar ishini olib borishga jalb etadi. Respublika maktabgacha ta’lim metodika kabineti huzurida tashkil etilgan uslubiy Kengash metodikasi kabinetlari faoliyatiga yangi uslubiy yondashuvlar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishga

mas’uldir. Kengash tarkibiga metodistlar, o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti rahbari va mutaxassislari, mudiralar, tarbiyachilar, musiqa rahbarlari, oliy o‘quv yurtlarining yetuk professor-o‘qituvchilari kiradi. Uslubiy Kengashda markaziy maktabgacha ta’lim metodikasi kabinetining ish rejasi, bajarilgan va rejalash- tirilayotgan tashkiliy, uslubiy tadbirlar muhokama etiladi, ta’lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirish, jumladan, metodika kabinetlarining ilg‘or pedagogik tajribalarni to‘plash borasidagi amaliy faoliyati, maktabgacha ta’lim bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalarni muhokama qilish, tasdiqlash bilan bog‘liq masalalar hal etiladi. Respublika maktabgacha ta’lim metodikasi kabinetida xodimlarning bilimi va malakasini oshirish maqsadida tegishli shart-sharoit yaratiladi (buning uchun ma’ruzalar, seminar- treninglar, ko‘rgazmalar va boshqa tadbirlar tashkil etiladi). Metodik birlashmalar - maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatiga oid eng dolzarb masalalar muhokama etiladigan va hal qilinadigan uslubiy tuzilmalardir. Metodik birlashmalarning asosiy vazifasi - pedagog va tarbiyachilarning ijodiy faolligini oshirish va yangilikka intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, o‘z ishiga tanqidiy munosa- batda bo‘lish va xolisona baho berish ko‘nikmasini shakllan- tirish, zimmasidagi vazifalarga yuksak mas’uliyat hissini qaror toptirish, kasb mahorati va malakasini uzluksiz oshirib borishga yo‘naltirishdan iborat. Metodik birlashmalar butun o‘quv yili davomida (sentyabr- dan maygacha) faoliyat olib boradi. U turli toifadagi pedagog- tarbiyachilar, musiqa rahbarlari, mudiralar faoliyatini takomillashtirish, ularning kasb mahorati va malakasini oshirish maqsadida tashkil etiladi. Bizning fikrimizcha, maktabgacha ta’lim muassasalari soni ko‘p bo‘lgan yirik tumanlarda bunday birlashmalarni bo‘lim (yoki bir necha bo‘lim) shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Har bir bo‘limda 18-20 maktabgacha ta’lim muassasalari kiradi. Birlashmaning ishlash muddati, faoliyat doirasi va vakolatlari vazirlik tomonidan belgilanadi. Odatda, uning yig‘ilishlari 2 oyda bir marta o‘tkaziladi. Metodik birlashma tarkibini shakllantirishda pedagoglarning ish staji, kasb mahorati va malakasi e’tiborga olinadi. Masalan, direktorlar uchun tashkil etilgan metodik birlashma tarkibiga kiritiladigan pedagoglar (yirik tumanlar uchun) oliy ma’lumotli, besh yil va undan ziyod ish stajiga ega bo‘Iishi zarur: O‘rta va maxsus ma’lumotga ega va ish staji kam bo‘lgan mudiralar va metodistlar uchun ham metodik birlashmalar shunday tartibda tashkil etiladi. Tarbiyachilar uchun metodik birlashmalar tashkil etishda esa ularning joriy yilda qaysi yoshdagi bolalar guruhida ishlagani e’tiborga olinadi.

Metodik birlashmalarning ko‘rgazmali qurollar va yangi uslubiy adabiyotlar ko‘rgazmalarini tashkil etish borasidagi faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodik birlashma ishining samarasi uning faoliyati maktabgacha ta’lim bo‘limi va metodika kabineti tomonidan qay darajada boshqarilayotganiga ham bog‘liq.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar metodika kabinetlari metodika birlashma rahbari va xodimlari malakalarini oshirish ishini yo‘lga qo‘yadi, jumladan, bir

yilda 2-3 marta uslubiy birlashmani tashkil etish va rejalashtirisb, uni boshqarish, zamonaviy fan yutuqlari, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va tatbiq etish kabi mavzularda seminarlar tashkil etadi. Shahar, tuman maktabgacha ta’lim bo‘limlari metodika kabineti reja tuzish, ma’ruzalar tayyorlash, turli ko‘rgazmalarni tashkil etishda birlashmalar rahbarlariga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim bo‘yicha tayyorlangan barcha uslubiy ishlanma va qo‘llanmalar, amaliy taklif-tavsiyalar, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga taqdim etiladi. Ular vazirlik tomonidan ko‘rib chiqilib, tasdiqlangandan so‘ng maktabgacha ta’lim muassasalariga tarqatiladi. Metodik kabinet o‘z oldidagi vazifalarni hal etishda materialning mazmun-mohiyatiga, belgilangan talablarga javob berishi, o‘tkazilayotgan tadbirlarda, xususan, seminarlarda yangi uslubiy ishlanmalar, adabiyotlar muhokamasiga alohida e’tibor berishi lozim.

Uslubiy-pedagogik yig‘ilishlar asosan ilk yosh guruhlari tarbiyachilari uchun o‘tkaziladi. Ularda, asosan, bolalarning jismoniy-fiziologik, ruhiy va aqiy rivojlanishi masalalari muhokama qilinadi. Bunday yig‘ilishlar 1 yoshdan 2 yoshgacha guruhlarda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, metodik xizmatni takomillashtirishda quyidagi maqsadlarga erishish muhim hisoblanadi:

- maktabgacha ta’lim muassasalarining har bir yo‘nalish bo‘yicha turli yosh davrlariga tegishli ta’lim faoliyatini muvofiqtashtirish;

- zamonaviy ta’lim-tarbiya berishning innovatsion g‘oya va yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va keng targ‘ib qilish, ilg‘or tajriba va ijodiy tashabbuslarni amaliyotga tatbiq etish;

- ta’lim muassasalari pedagog va tarbiyachilarining kasb mahorati va malakasini oshirish maqsadida mahorat maktablari, amaliy mashg‘ulotlar, yangi pedagogik, uslu- biy adabiyotlar, ta’limga oid va didaktik o‘yin vositalari ko‘rgazmasi, seminar-treninglarni muntazam ravishda tashkil etish orqali uslubiy yordam ko‘rsatishdan iborat.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.P. Yusupova Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Toshkent -O‘qituvchi- 2019

2.R. R. Boqiyev, R. Yu. Mehmonov, D. K. Xusniddinova Bolalar bog‘chasida kompyuter savodxonligi. 2019.

3.Abduqodirov A. A, Begmatova N. N Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). 2018

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI SAVODGA TAYYORLASH

Maxmudova Durdona Mirkarimovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta`lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi dotsent v.b., PhD

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bola nutqining rivoji ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘sishiga bog’liq. Bu masalalar maktabgacha ta’limda o‘z echimi ifodasini topishi va o‘z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini o‘stirish zarur: bola har bir so‘z manosini tushuna olishi, uni o‘z nutqida erkin ifodalashga muvofiq bo‘lishi kerak. Tushunchalar tizimiga moslashgan bola o‘z fikrini jamlab gapirishga va ifodalab berishga o‘rganadi.

Nutqini o‘stirish bo‘yicha o‘tkaziladigan ta`limiy jarayonlarda asosan, bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirishga, nutqni grammatik tomondan to‘g‘ri shakllantirishga, nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish: sodda va qo‘shma gaplar tuzish, bunda barcha so‘z turkumlaridan foydalanishga o‘rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe’lga to‘g‘ri ishlatish malakalarini takomillashtirish, tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishga, ravon gapirishga, mustaqil hikoya tuzishshga e’tibor beriladi. Og‘zaki nutqini o‘stirishda mustaqil hikoya tuzishga o‘rgatish katta o‘rin egallaydi: bolalalarni o‘z hayotlarida uchragan voqealar, suratlarga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mavzusi asosida hikoyalar tuzishga o‘rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari mazmunan bog‘langan, ma’lum izchillikda, grammatik tomondan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi kerak.

Tayyorlov guruhida savodga tayyorlash bo‘yicha o‘tkaziladigan ta`limiy jarayonlar ikki davrga ajratiladi: tayyorgarlik va asosiy. Tayyorgarlik davri vazifalari sentyabr, oktyabr oylariga rejalashtiriladi. Bu davrda quyidagi ishlar olib boriladi:

-tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish va so‘zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirish;

- unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish;

- jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga o‘rgatish asosida fonematik idrokni va tasavvurni rivojlantirish.

- oddiy tahlil va sintez qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish: gapni so‘zlarga bo‘lish, so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish, ma’lum tovushlarni o‘rnini aniqlash (so‘zning boshida, o‘rtasida va oxirida), so‘zda tovushlar ketma-ketligini va sonini aniqlash, tovushlardan bo‘g‘inlar, so‘zlar tuzishga o‘rgatish, tovushlarni eshitishda farqlashga o‘rgatish.

Savodga tayyorlashning asosiy davrida (oktyabr-may) quyidagi ishlar olib boriladi:

- berilgan tovushni harf belgisi bilan tanishtirish;

- kesma harflar yordamida tovush-harf tahlil va sintezi bo‘yicha mashqlarni bajarishga o‘rgatib borish;

- kesma harflar yordamida bo‘g‘in va so‘zlarni tuzish;

- so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qishga o‘rgatish.

Tayyorlov guruhlarida yil davomida o‘tkaziladigan ta`limiy jarayonlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi va ketma-ketlikda olib borilishi kerak.

Ta`limiy jarayon mavzulari bolalar uchun tushunarli, amaliy ishlar va turli interfaol o‘yinlar bolalar yoshiga mos, qiziqarli va turli bo‘lishi lozim. Ta`limiy jarayonlar ishlanmasida mavzuning maqsad, vazifalari, kutilayotgan natijalar, kerakli jihozlar, ta`limiy jarayonning borishi to‘liq yoritilishi kerak. Ta`limiy jarayonlar davomida bolalar barmoq mashqlarini tetiklashtiruvchi daqiqalarda bajaradilar, harflar bilan maxsus o‘yinlarni (yig‘ish, terish), amaliy ishlarni bajarib, alifbeni bilib oladilar, bo‘g‘inlarni o‘qiy olish ko‘nikmalarini mustahkamlab boradilar. Har bir ta`limiy jarayonning oxirida bolalarning bilimlarini aniqlash va mustahkamlash uchun savollar berilishi lozim.

Bolalar fikrlarida murakkab sintaksis tuzilmalarni shakllantirishni «yozma nutq vaziyati»da, ya’ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshli kishi esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Tarbiyachi bolalarga bir xil turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda so‘zlarning to‘g‘ri tartibini qo‘llashni o‘rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e’tiborni qaratish zarur. Muhimi, bolada gap tarkibi va turli gaplarda leksikadan to‘g‘ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllanishi kerak. Buning uchun bolalarga gapda so‘zlarni biriktirishning turli usullarini, so‘zlar o‘rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog‘liqliklardan foydalanishni hamda gapni intonasion jihatdan rasmiylashtirishni o‘rgatish zarur.

Maktabgacha yoshidagi bolalar yetarlicha fikrini aniq va ravon ifodalashi uchun tarbiyachi bolalarning:

- nutq madaniyatini rivojlantirishi;

- so‘z birikmasi, lug‘at, gap ustida ishlash orqali og‘zaki va yozma nutq o‘stirishi;

- bog‘lanishli nutq ustida ishlashda o‘yin va mashqlar, ta`limiy jarayonlaridan foydalanishning interfaol, zamonaviy usullarini ishlab chiqishi kerak.

Bolalar aniq va tushunarli so’zlaydigan, iboralar, so’zlar va har bir tovushni alohida-alohida aniq talaffuz etayotgan, ya'ni yaxshi diksiyaga ega bo’lgan pedagog yordamida ona tilidagi tovushlarni muvaffaqiyatli ravishda o’zlashtiradilar. Ba’zi pedagoglarning talaffuzi biroz noaniq va tushunarsiz bo’ladi, ular tovushlar va so’zlarni og’izni etarli darajada ochmasdan talaffuz

qiladilar, ayrim tovushlar yutib yuboriladi, undoshlar tushunarsiz talaffuz etiladi. Pedagog talaffuzning adabiy me'yorlariga rioya qilishi, o’z nutqida turli shevalar, mahalliy so’zlashuvlar ta'sirini bartaraf etishi, so’zlarda urg’uni to’g’ri qo’yishi lozim.

MTT maktabgacha 6-7 yoshli bolalar yil oxiriga kelib, o‘z onatilining fonetik, gramatik tuzilishini biladi, so‘zlardagi birinchi tovushlarni biladi, bo‘g‘inlab o‘qiydi, alifbeni biladi deb belgilangan. Bu vazifalarni bajarish uchun tayyorlov guruhida yil davomida jami 72ta mashg‘ulot o‘tkaziladi. Shulardan 36tasi bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirish bo‘yicha, 36tasi savodga tayyorlash bo‘yicha bo‘ladi. Ta`limiy jarayonlarning davomiyligi 25-30 daqiqa bo’lib, ular “Til va nutq” rivojlanish markazlarida o`tkaziladi.

Shunday qilib, bolalarda nutqning grammatik tuzumini shakllantirish jarayonida gap, gap bo‘lagi, so‘z birikmasi — sintaksisning asosiy birliklari bilan amallar bajarish ko‘nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot sharoitida va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash ta’minlanadi.

Adaboyotlar ro`yxati

1. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. *Results of National Scientific Research International Journal*, *1*(6), 274-278.

2. Кадирова, Ф. Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. *PEDAGOGS jurnali*, *1*(1), 10-16.

3. Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *4*(1), 177-180.

4. Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).

TA’LIMIY O‘YINLAR MTT VA OILA HAMKORLIGINI MUSTAHKAMLASH VOSITASI SIFATIDA

Maxmudova Durdona Mirkarimovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta`lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi dotsent v.b., PhD

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2022-yil 4- fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv

dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri yaratildi. Mazkur dasturning “MTTning maqsad va vazifalari” nomli 2-bobi, 5-bandi “Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik” masalariga bag‘ishlangan. Maktabgacha ta’lim tashkilotining **ota-onalar** bilan hamkorligi tashkilotning sifatinimuhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining mazmunini belgilab bergan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ta’kidlanganidek, **o‘yin** maktabgacha bo‘lgan ta’lim va tarbiya jarayonining asosiy shakli, “o‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi”. U maktab ta’limining boshlang‘ich sinflarida ham etakchi mavqe tutgani holda o‘rta va yuqori sinflarda turli shakl hamda darajalarda mavzular mohiyatini singdirishning samarali vositasi o‘laroq qo‘llanadi. Bizningcha, yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda **o‘yinni** oilalarda farzandlarning o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish sifati, ularni qay darajada eslab qolayotgani hamda MTTlarda mashg‘ulotlarning samarasini kuzatish, tekshirish va aniqlashning bir vositasi o‘laroq talqin qilish mumkin. Ayni paytda oilalarda bog‘chalarda berilayotgan bilimlar, shakllantirilayotgan ko‘nikmalarga ne qadar e’tibor berilayotgani, oila muhitida ularni mustahkamlashga qanchalik diqqat qilinayotganini bilish uchun ham qo‘l kelishini ta’kidlash o‘rinli.

O‘yin zavqlanish, qiziqarli vaqt o‘tkazish uchun ketma-ketlikda amalga oshirilgan harakatlardir. O‘yin bolalarni qiziqtirish, ularning aqliy va jismoniy rivojlanishlarini tezlashtirishda beqiyos vosita sanaladi. Ta’lim o‘yin bilan uyg‘unlashganda bola dunyosi va tabiatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib boriladi. Ta’limsiz o‘yin bo‘lmaganidek, o‘yinsiz ta’lim ham bo‘lmaydi. Muhimi, Disterveg Adolf aytganidek, o‘yin orqali bolalarga “haqiqatni topish o‘rgatiladi”.

MTT mashg‘ulotlarida tarbiyachi o‘yinni tanlashda (oiladagi kattalar: ona, ota, buvi, buva, opa yoki aka) mashg‘ulot mavzusiga, tarbiyalanuvchilarning qiziqishi va saviyalariga e’tibor berishi kerak. Mavzuga aloqasi bo‘lmagan, qiziqish uyg‘otmagan o‘yindan bolalar zerikadi. Natijada mashg‘ulot nomigagina o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotlar o‘yin shaklida o‘tkazilganda tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlari, o‘ziga xos qobiliyatlari yuzaga chiqa boshlaydi. Hatto **nutqida** muayyan kamchilik yoki etishmovchilik bo‘lgan bolalar o‘yin davomida o‘zlaridagi mavjud bu kamchiliklarini “unutadilar”. Til o‘rganishda, nutqiy malakalarni o‘zlashtirishda bolalarning qobiliyatlari yuzaga chiqqani sari ularning o‘zlariga ishonchlari ortadi. Shu shaklda til va nutq malakalari ustida ishlashning ahamiyati quyidagilarda ko‘rinadi:

a) amaliy so‘zlashuv malakalari rivojlanadi;
b) tushunish va tushuntira olish qobiliyatlari shakllanadi;
v) so‘z boyligi ortadi;
g) so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganadilar;

d) taqlid qilish malakasi shakllanadi;

e) yodlash malakasi ortadi.

“Narsa-buyumlar” mavzusi bo‘yicha “Nimasi bor?” o‘yini yuqorida qayd etilgan ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali usullardan sanaladi. Bola (o‘quvchi, tarbiyalanuvchi) tanlanib, mashg‘ulot xonasidan tashqariga, ya’ni koridorga chiqib turadi. Qolganlar biror narsa (yoki kishi)ni belgilab olishadi-da, uni ichkariga chaqirishadi. Bola o‘rtoqlaridan “Nimasi bor?” deb so‘raydi. Ular nazarda tutilgan buyum (kimsa)ning belgi, xususiyatlaridan aytishadi. Besh yoki olti martagacha so‘rash imkoniyati va ikki (uch) marta taxmin qilish haqqi beriladi.

Masalan: Belgilangan narsa olma bo‘lsin.

- Nimasi bor? – Dumaloq shakli.
- Nimasi bor? – Shirin hidi.
- Nimasi bor? – Mazali ta’mi.
- Nimasi bor? – Ichida urug‘i.
- Nimasi bor? – Archiladigan po‘sti.

Ikki (uch) urinish (taxmin)da topa olgan bola “bilag‘on” bo‘ladi.

Shu o‘rinda, bolalar lug‘at boyligini oshirish maqsadida javoblardagi ayrim so‘z yoki birikmasining ma’nodoshini berib, izohlab ketish maqsadga muvofiq. Masalan, “shirin hidi” o‘rniga “xushbo‘y isi” birikmasini qo‘llash ham mumkinligini aytish o‘rinli bo‘ladi. Uyda oila a’zolari davrasida katta-yu-kichik birgalikda bola bilan bu o‘yinning o‘ynalishi unda ta’limga nisbatan yuqori motivatsiyani uyg‘otadi. Barchaning unga e’tibori, birday olqishlashlari maksimal darajada ichki imkoniyatlarning uyg‘onishiga turtki beradi.

“Inson a’zolari” mavzusini mustahkamlashda “Bu mening burnim” o‘yini barcha uchun qiziqarli bo‘lishi bilan e’tiborli. O‘qituvchi (tarbiyachi) bolalardan birini yoniga chaqirib, o‘yinni izohlaydi: Men burnimni ushlayman va “Bu – mening burnim”, desam, sen ham qulog‘ingni ushlab, “Bu – mening qulog‘im”, deysan. Shunday qilib, men qaysi a’zomni ushlasam, sen unga yaqin a’zoni ushlab, uning nomini aytasan, deydi. Avval o‘yin bir bor mashq qilinadi. So‘ng boshqa bolalar qo‘shiladi. O‘yin bog‘chalarda kichik yoshdagi bolalar, boshqa tilni (yoki davlat tilini) o‘rganayotgan bolalarga inson a’zolarini tanishtirish va yodlatish, ularning so‘z boyligini oshirishda qo‘l keladi. Oilada yoshi bir-biriga yaqin bolalar bo‘lsa, o‘yin oson va qiziqarli kechadi, lekin bola bilan oilaning har qanday a’zosi bu o‘yinni zavqli o‘tkazishi ham mumkin.

Sonlar mavzusi “Bosh” nomli o‘yini orqali engil singdiriladi va mustahkamlanadi. Tartibi shunday: bir xonali son tanlanadi. Bolalar bir sonidan boshlab bittadan sonni aytib ketma-ket sanaydilar. O‘sha son yoki uning qo‘shilmalariga kelgan bola sonni emas, son o‘rniga “bosh” deydi. “Bosh”dan keyin yana sanash davom ettiriladi. Masalan, 5 soni tanlangan deylik. Sanash boshlanadi: 1-2-3-4-bosh; 6-7-8-9-bosh; 11-12-13-14-bosh ... kabi. Yanglishgan o‘quvchi

o‘yindan chiqadi. Bu o‘yinni ikki, uch yoki ettining ko‘shilmalari tarzida o‘tkazish mumkin. Tanlanadigan son sinf (guruh)ning yoshi, saviyasiga ko‘ra belgilanadi. Bunda bolalar sanashni va qo‘shishni o‘rganadilar. Uyda o‘yin o‘tkazilganda oiladagilar, qarindoshlar, qo‘shnilarning oilalari a’zolari sonidan kelib chiqib ish ko‘rilsa, yanada hayotiy kechadi. Bunda kattalardan biroz ijodiy yondashuv talab qilinadi.

Bolalarning xotirasini, yodlangan so‘zlarni mustahkamlash, nutqlarini rivojlantirish maqsadi ko‘zlanadi. Uyda bu o‘yinni qo‘shni bolalar, qarindoshlar yig‘inida kichik bolalarni uyushtirib o‘tkazsa bo‘ladi.

Adaboyotlar ro`yxati:

1. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. *Results of National Scientific Research International Journal*, *1*(6), 274-278.
2. Кадирова, Ф. Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. *PEDAGOGS jurnali*, *1*(1), 10-16.
3. Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *4*(1), 177-180.
4. Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101). Yakubova, Z. Z. (2023). MILLIY TARBIYA

OTA-ONALARNING KOMPETENTLILIGI – BOLALARNING MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIGA MUVAFFAQIYATLI IJTIMOIY MOSLASHTIRISH OMILI SIFATIDA

Yakubova Zilola Zikirovna,

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha talim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
zilolayakubova1979@mail.ru

Mamlakatimiz tinchligi har jihatdan oilalar totuvligiga bog‘liq ekan, shu sababli xonadonlarda xotirjamlik, tinchlik va osudalikni ta’minlashga katta e’tibor qaratish, ota-onalar, buva-buvilar, farzanlar ahillikda yashasa har bir xonadon xotirjamligini ta’minlash borasidagi islohotlarni tizimli yo‘lga qo‘yish dolzarb ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunning to‘rtinchi moddassida oila va maktabgacha ta’lim tashkilotining har tomonlama tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish zarurati

maktabgacha ta’limning eng muhim tamoyili deb ataladi. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta’limning muhim muammolaridan biri bu bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotining yangi sharoitlariga ijtimoiy moslashtirishdir. Bu jarayonda ota-onalarning vazifasi bolalariga psixologik, hissiy qulaylik, aqliy va jismoniy rivojlanishida yordam berishidir. Bu esa ota-onadan kompetentli bo‘lishni talab qiladi.

Falsafadagi “kompetentlik” so‘zi tom ma’noda qismlarning izchilligi, mutanosiblik, simmetriya ma’nolarini bildiradi. Etimologiyaga ko‘ra, kompetensiyaning asosiy shakllantiruvchi belgilari muvofiqlik, tasodifdir. Falsafiy adabiyotlarda kompetensiya deganda “chuqur bilim”, “faoliyatni amalda bajarish qobiliyati”, “harakat samaradorligi” tushunchalari mavjud. Ko‘pgina tadqiqotchilar “kompetentlik” tushunchasini birinchi navbatda, muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, potensial qobiliyati bilan bog‘laydilar. Kompetensiyaga asoslangan yobdashuv pedagogika va psixologiyada tobora ommalashib bormoqda. Bugungi kunda “ijtimoiy-psixologik kompetensiya”, “psixologik-pedagogik kompetensiya”, “shaxsiy kompetensiya”, “boshqaruv kompetensiyasi” tushunchalari muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta’limning muhim muammolaridan biri bu bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotining yangi sharoitlariga ijtimoiy moslashtirishdir. Bu jarayonda ota-onalarning vazifasi bolalariga psixologik, hissiy qulaylik, aqliy va jismoniy rivojlanishida yordam berishidir. Shu bilan birga, ota-onalarning yordami pedagogik jihatdan malalakali va maqsadli bo‘lishi kerak, chunki haddan tashqari vasiylik bolaning o‘sish jarayonini sekinlashtiradi, uni kelajakdagi kuch, yetuklik va mustaqillikdan mahrum qiladi. Biroq qarama-qarshi tendensiya ota-onadan voz kechish va yetarli darajada yordam bermaslik bolani uning o‘sishi uchun muhim bo‘lgan yordamdan mahrum qiladi, bu holda bola o‘sishdagi qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yengib chiqa olmaydi, bu esa unga to‘liq rivojlanish imkoniyatini bermaydi. To‘liq hayot uchun zarur bo‘lgan fazilatlar va xususiyatlar shakllanmay qoladi. Oilaning jamiyatdagi o‘rni o‘zining ahamiyatiga ko‘ra beqiyosdir, chunki aynan oilada shaxs rivojlanadi, jamiyatda og‘riqsiz moslashish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy rollarni o‘zlashtirib oladi.

Ota-onalik haqidagi zamonaviy g‘oyalar, davlat oilaviy qadryatlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy vaziyat, ota-onalarning kompetensiyasi fenomenini o‘rganishga olib keladi. Zamonaviy maktabgacha ta’lim sharoitida oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar modelini yaratish maqsadida “ota-onalarning vakolati” tushunchasi kiritilgan. Ota-ona rolini sifatli, ongli ravishda bajarish, ota-onaning vakolatlarining mavjudligi yoki yo‘qligi jamiyatning holatini va keyingi avlodlar shaxsining psixologik salomatligini belgilaydi.

“Kompetensiya” atamasi so‘nggi paytlarda maktabda ta’lim va tarbiya bo‘yicha tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, ushbu masala bo‘yicha psixologik-pedagogik va o‘quv adabiyotlarini tahlil qilish “kompetentlik” tushunchasining keng qirrali ekanligini

ko‘rsatadi. Agar ota-onalarning kompetensiyasini pedagogik muammo deb hisoblasak, hayotning turli sohadalarida kompetensiyalarga inson tarbiyasining asosiy natijasi sifatida qaralishi mumkin. So‘nggi o‘n yilliklarda ota-onalarning kompetensiyasi muammosi psixologlar tomonidan ko‘rib chiqildi. Psixologik-pedgogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, barcha olimlar ota-onalarning kompetensiyasining murakkab, ko‘p komponentli tuzilishini ta’kidladilar. T.Kulikovaning fikricha oila va ijtimoiy ta’lim tizimi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardagi eng chuqur o‘zgarishlar XX asrning 90-yillarida sodir bo‘lgan. Bu oilaning farzand tarbiyasidagi ustuvor o‘rni va u bilan o‘zaro munosabat zarurligini e’tirof etishda namoyon bo‘lgan ta’lim islohoti bilan bog‘liq edi. Bu davrda “ota-onalarning tarbiyasi”, “ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish”ga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud. Shunday qilib, G.Filipova barkamol ota-onani “bola bilan ishonchli aloqa o‘rnatgan, o‘z farzandining holatini his qilishni o‘rgangan, uning sabablarini tushinadigan, hozirda o‘z farzandi uchun nima va qanday qilishni aniqlashni biladigan shaxs” deb ta’riflaydi. Ota-onalarning kompetensiyasini oshirish (ularda zarur bilimlarni shakllantirish, bolalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish, ota-onalarning xatti-harakatlari uslubini takomillashtirish va boshqalar) oilaga psixologik yordam ko‘rsatishning yo‘nalishlaridan biridir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, maxsus kurslarda ota-onalarni psixologik-pedgogik adabiyotlar bilan tanishtirish orqali ularda bu ko‘nikmalarni shakllantirish mumkin. Bu davrda shaxsning jamiyatdagi faoiliyatining ijtimoiy, kognitiv va hissiy asoslari yaratiladi. Shubhasiz, bolaga tarbiyaviy ta’sirning samaradorligi va uning barkamol rivojlanishi ota-onaning malakasi darajasiga bog‘liq. Barkamol ota-ona bo‘yicha yuqoridagi pozitsiyalar zarur pedagogik bilimlarni olishda ota-onalarning faol pozitsiyasini, uni to‘ldirishga va amalda qo‘llashga doimiy tayyorgarligini anglatadi. Bir qator tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish asosida biz shunday xulosaga keldikki, ota-onalarning kompetensiyasi ota-onalar madaniyatining yetakchi tarkibiy qismi bo‘lib, ma’lum miqdordagi psixologik, pedagogik, fiziologik, gigiyenik va huquqiy kompetensiyalar bilan tavsiflanadi. Ota-onalarning eng muhim qobiliyati ta’lim faoliyatini amaliyotda qo‘llay olishi hisoblanadi. Qobiliyatlarning yagona, umume’tirof etilgan tasnifi mavjud emas.

Xulosa, bizning fikrimizcha, “ota-onalarning kompetensiyasi” bu ota-ona uchun o‘z ta’lim faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sifat, potensial imkoniyatdir. Faoliyatning o‘zi uchun “ota-ona yordami, ota-ona ishtiroki, hamkorlik” ta’riflari ko‘proq mos keladi. Shunday qilib, psixologik-pedgogik adabiyotlarni tahlil qilish va ko‘rib chiqilayotgan muammolarga qarashlarimizni hisobga olgan holda V.Kovalenko “ota-onalarning kompetensiyasi — bu ota-ona shaxsiyatining o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fazilatlari, shu jumladan, kognitiv, qiymat-motivatsion, hissiy va xulq-atvor komponentlari, ularning farzandlariga nisbatan o‘rnatilgan va sifatli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-pedagogik hodisa” deb ta’kidlagan.

Bundan tashqari, ijtimoiy-madaniy, ekologik, siyosiy, mafkuraviy va boshqa shart-sharoitlarning o‘zgarishi oila tizimidagi, ota-onalik qadriyatlari va ustivorlikdagi o‘zgarishlarini belgilaydi va ota-onalarning vakolatlarini shakllantirish muammosi rivojlanadi degan fikrimizni tasdiqlaydi, ehtimol, o‘zgarishlarga duchor bo‘lishi mumkin va albatta tegishli va qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining oila kodeksi. – T.: O‘zbekiston, 1998. – 66 bet.
2. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun. – T.: 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son.
3. Yakubova, Z. Z. (2023). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAXALLA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLAR HAMKORLIGI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(15), 141-147.
4. Zikirovna, Y. Z. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY AN’ANALAR RUHIDA TARBIYALASH. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 181-186.
5. Коваленко Т. В. Понятие родительской компетенции в современной педагогической практике. Евразийский союз ученых 30.04.2015. № 4-6(13).

BOLA RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY MUHIT VA MILLIY TARBIYANING O‘RNI

Yakubova Z.Z.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlar pedagogika universiteti,Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

Qulmanbetova Madina Alim qizi
Maktabgacha ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi.

Ijtimoiylashuv - insonning butun hayoti mobaynida o‘z- o‘zini o‘zgartirish va rivojlantirishning boshqariladigan va maqsadga yo‘naltirilgan jarayoni. Ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda inson shaxsining moslashuvi va individuallashuvi jarayonlarini o‘zaro bog‘laydi. Inson (bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi (individuallashuvi) ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil etadi. Ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudotga aylanish jarayoni va natijasidir.

Ijtimoiylashuv individning o‘z hayoti mobaynida o‘zi tegishli jamiyat, ijtimoiy guruh yoki jamoa ijtimoiy me`yorlari, madaniy qadriyatlari, ko‘rsatmalari va hulq-atvor namunalarini o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonini ifodalaydi. Milliy-tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va

zamonaviylashtirish umuminsoniy extiyoj hamdir. Sobiq sho‘rolar davrida ijtimoiy ongda «zamonaviylik - milliylik» tushunchalari orasida «sivilizatsiya - ekzotika» shaklidagi sun’iy antiteza hosil qilindi. Natijada milliylikni ajdodlardan avlodlarga boyitib yetkazuvchi jarayon - milliy tarbiyaning tobora zaiflashuvi yuzaga keldi. Mafkuraviy maqsadlar ostida rang-barang milliy qadriyatlarni o‘zaro aloqada yuksaltirish emas, balki bir xillashtirish harakati rag‘batlantirildi.

Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralarini ilk bor kashf etgan olimlardan biri – kulturantropolog M. Mid bo‘ldi. Uning tadqiqotlari nafaqat geterostereotip (bir xalqning boshqa xalqlar haqidagi bilimlari yig‘indisi)ning, balki osiyolik va afrikaliklarda avtostereotip (o‘z xalqi haqidagi bilimlar yig‘indisi)ning shakllanishiga, boshqacha qilib aytganda, o‘zligini anglashga ham turtki bo‘ldi. ***Tarbiya*** - so‘zi «milliy tarbiya» tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik ta’rif bermoq kerak.

Arabcha «**tarbiya**», «**tarbiyat**» so‘zlari

1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; odob o‘rgatish;

2) mehribonlik ko‘rsatish: ko‘z-quloq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘p qirrali mazmunga ega.

Milliy tarbiya haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so‘zlari inson e'tiborini tortadi. Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma'lumtolar ilmiy asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e’tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya’ni oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik, uning psixologik qonuniyatlarini bilmaslik illati millatning ma’naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag‘a bo‘lmaydi.

So‘nggi o‘n yilliklar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o‘zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Davlat mafkurasining o‘zgarishi sababli bu muammoga alohida e’tibor qaratish lozim. Shu bilan birga ba’zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o‘rganishadi. Ba’zi olimlar esa ijtimoiylashuv deganda, fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To‘rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini hamma tan oladi. Quyida ijtimoiylashuvning nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi jarayonga xos bo‘lgan umumiyligini aks etishga harakat qilingan tarbiyaning ta’rifi keltirilgan. Biroq unda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan.

A.V.Mudrik quyidagi ta’rifni ilgari suradi: Tarbiya – insonning jamiyatga ko’nikishiga ko‘maklashuvchi va bu ko‘nikish sodir etiladigan guruh va tashkilotlarning xususiyatlariga mos keluvchi sharoitlar yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi. Bu ta’rifni ham to‘liq va butunlay to‘g‘ri, deb bo‘lmaydi. Unda muallifning nuqtai nazari o‘z aksini topgan.

Ijtimoiy omillarning insonga ta’sir ko‘rsatishining tarkibiy qismi bo‘lgan tarbiya o‘z xususiyatlariga ega. Bu jarayon boshqalaridan farqli ravishda doimo bir maqsad sari yo‘naltirilgan va bu faoliyat maxsus tayyorlangan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonida bola ijtimoiylashuviga ta’sir qiluvchi boshqa omillar- muhit, OAV, madaniyatlar inobatga olinadi. Biroq shuni esda tutish lozimki, tarbiya boshqa ijtimoiy omillar ichida o‘z o‘rniga ega bo‘lib boshqa omillarning o‘rnini to‘liq to‘ldira olmaydi ham, bekor qila olmaydi ham.

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta’siri vaqt o‘tgan sari o‘zgaradi. Bola qanchalik kichik bo‘lsin, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko‘p ta’sir ko‘rsatadi. Vaqt o‘tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi. Borgan sari tashqi tarbiyaviy omillarning ta’siri kamayadi. Biroq boshqa bir jarayon – o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o‘z shaxsini mukammallashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma’lumki, o‘z-o‘zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Bizning mavzuga binoan insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashi ehrom bunyod etish bilan barobardir. Shuning uchun o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho‘ziladi.

Bola ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruhiy rivojlanishining salbiy xususiyatlari bilan qiyinlashtirilishi, bolaning ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirishi muhitning salbiy ta’siri oqibatida noto‘g‘ri yo‘nalishda ketib qolishi mumkin. Buning natijasida bola me’yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolib, maxsus yordamga muhtoj bo‘lib qoladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni, avvalo, tarbiya orqali amalga oshadi. Biroq buning uchun har bir toifa bolalarning ijobiy jihatlarini faollashtiruvchi tarbiya metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish lozim. Umuman olganda, tarbiyachi va mutaxassislarning vazifasi qiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuviga qaratilgan, ya’ni jamiyatda qabul qilingan qonun va me’yorlarga faol ko‘nikishi yoki salbiy omillarning oqibatlarini yengishdir.Agar shaxsda ijtimoiy muhit solbiy sifatlarining shakllanmagan darajasi bolaga ijtimoiy muhitga ko‘nikishga xalaqit beradigan holat bo‘lsa, bolaning ijtimoiy moslasha olmasligi sodir bo‘ladi. Bu holatda bola tomonidan yo‘qotilgan ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tiklashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni qo‘llash tavsiya etiladi. Shunday qilib, bolaning jamiyatda o‘sishi, rivojlanishi jarayonida uning ijtimoiylashuvi sodir bo‘ladi. Agar bu jarayon sodir bo‘lmasa, uning aksi-dezadaptatsiya kuzatiladi. Bunday holatda bolaning ijtimoiy reabilitatsiyasiga ehtiyoj tug‘iladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1 Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022 yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan takomillashgan “Ilk qadam” o‘quv dasturi.

3Sodiqova.Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. T:. “Tafakkur sarchashmalari”, 2013.

4Yakubova, Z. Z. (2023). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAXALLA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLAR HAMKORLIGI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(15),

5 Yakubova, Z. Z. (2023). NATIONAL VALUES OF PRESCHOOL CHILDREN BASICALLY FORMING EDUCATIONAL AND MORAL QUALITIES. *European International Journal of Pedagogics*, *3*(01), 51-55.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURIYATI SIFATIDA

Yakubova Z.Z.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlar pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

Sultonxo‘jayeva Fozila Saidolim qizi
Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o‘zlashtirishga yordam beradi, buning asosida roli uning bilishi, ko‘rgazmali, o‘yin, eng oddiy mehnat va o‘quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o‘zlashtirib, faollik ko‘rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog‘liq bilimlar, malaka, ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi, shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi.

Bolaning faoliyatdagi faol mavqei uni faqat tarbiya ob’ektiga emas, shu bilan birga tarbiya sub’ektiga ham aylantirdi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning etakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog‘liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo‘ladi va o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo‘lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning etakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo‘ladi. Har bir faoliyat extiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzusi, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi, uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo‘yilgan zaminga, taqlid qilishga ham borliq bo‘ladi. Hayotning dastlabki yillarida kattalar bilan muomala qilishni va buyumlar bilan ish olib borishni yuz ichiga oladigan yo‘l-yo‘riq tadqiqot faoliyati bolalar faoliyatining asosiy turlari bo‘ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan muomalada bo‘lar ekanlar, ularni buyumlar dunyosiga olib kiradilar. Shunday yo‘l bilan bolalar o‘ziga xos buyumlar bilan bog‘liq faoliyatni egallaydilar. Bunda muomalaning o‘zi bola uchun zarur ehtiyojga aylanadi.

Buyumlar bilan bog‘lik faoliyatni tashkil etish oilada ham, maktabgacha ta’lim tashkilotda ham bir va ikki yoshli bolalarni tarbiyalash vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki bu faoliyatda barcha bilish jarayonlari, maqsadlari va xulq-atvor sabablari rivojlanadi. Bu faoliyatda bolalar tarbiyachilar rahbarligida buyumlarning xususiyatlari, ular bilan qilinadigan harakatlar to‘g‘risida dastlabki bilimlarni o‘zlashtiradilar. Bola ikki yarim yoshga to‘lganda buyumlar bilan bog‘liq faoliyat va muomala ancha yuqori rivojlanish darajasiga erishadi, o‘yin va tasviriy faoliyatga o‘tish uchun asos yaratiladi. Kattalar uyushtiradigan muloqot va faoliyatda bolalarda o‘zini-o‘zi anglashning dastlabki shakllari shakllanadi. Bola o‘zi atrofdagi odamlardan ajratadigan, o‘z imkoniyatlarini anglab etadigan bo‘la boshlaydi. Mustaqillik rivojlanishining ana shu bosqichida bolalar kattalarning vasiyligini qisman cheklashga intiladilar. O‘zini-o‘zi anglashning dastlabki shakllari xulq-atvor sabablarini shakllantirishning boshlanishi bo‘ladi. Ilk yoshdagi bolalarning faolligi va mustaqilligi bevosita katta odamning ishtiroki va ta’siri ostida ro‘y bersa, 4—6 yoshli bolalar xilma-xil faoliyatga tobora mustaqil, o‘z xoxishlariga ko‘ra qo‘shiladilar, bunda ongning roli oshadi va ba’zan ijodiy xususiyatga ega bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, maktabgacha tarbiya yoshida etakchi bo‘ladigan o‘yin faolyyatida maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy, bilish faolligi rivojlanadi. Tarbiyachilar rahbarligidagi o‘yinlar chog‘ida bolalar turli harakat usullarini, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtiradilar. Bolalar makon, vaqt munosabatlarini, uxshashlikka va bir xillikka oid aloqalarni anglab etadilar, tushunchalarni egallaydilar. Harakatli o‘yinlar harakatlarning rivojlanishiga, makonda yo‘l-yo‘riq topishga yordam beradi. Birgalikdagi o‘yinlarda bolalar odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab etadilar va o‘zlashtiradilar, atrofdagi narsalar to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo‘ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. O‘yin hayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqelik, odamlar mehnati to‘grrisidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoachilik

xususiyatlarini shakllantirishga ko‘maklashadi. Muntazam mehnat topshiriqlari o‘z faoliyatini jamoat manfaatlariga bo‘ysundirish, ijtimoiy foyda kelishiga amal qilish, mehnatning umumiy natijalaridan quvonish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Mashg‘ulotlardagi eng oddiy o‘quv faoliyati atrofdagi tabiat, ijtimoiy turmush, odamlar haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishga, shuningdek aqliy va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Agar 3—4 yoshda ta’lim paytida bolalarning e’tibori tabiat, odamlar xayotidagi aniq faktlar va hodisalarga qaratilsa, 5—6 yoshli bolalarga ta’lim berish muhim aloqalar va munosabatlarni o‘zlashtirishga va aloqalarni umumlashtirishga hamda eng oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi, bu esa bolalarda tushunish tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. O‘zlashtirlgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o‘yinlarda va mehnatda qo‘llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta’sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi.

Maktabgacha yosh davridagi extiyojlar, his-tuyg‘ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga etadiki, u bolaga maktabdagi muntazam o‘qishga o‘tish imkonini beradi. Kichik maktab yoshida asosiy narsa oq‘ish bo‘lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushunadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqei o‘z xatti-harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o‘zgacha nuqtai nazardan — maktab o‘quvchisi nuqtai nazaridan baholashni shart qilib qo‘yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko‘rsatib, kattalarning uning xulk-atvoriga va faoliyatiga kuyayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

Har bir faoliyat turining mazmuni va tuzilishining ijtimoiy tarixiy tabiati har bir yosh avlodga ob’ektiv ravishda berilgan bo‘ladi. Odamlarning ishlab chiqarish qurollarida, bilimlarda, san’atda, ahlokda va hokazolarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari birgalikdagi faoliyatda va mulokotda bulgan paytda tarbiya va ta’lim vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Bola shaxsining ijtimoiy tabiati ana shunday shakllanadi.

Tarbiya tarbiyalanuvchida kuchli faoliyat ehtiyojini uyg‘otib, yangi hulq-atvor sifatlarini shakllantirishga yordam bergandagi-na kutilgan natijalarga erishadi. Yosh kattalashgan sari ruhiy faoliyat boyib boraveradi, shu bilan birga teskari jarayon ham ro‘y beradi, shu sababli har bir yosh uchun shaxsning sensor, aqliy, hissiy, irodaviy tomonlari kabi xususiyatlar xosdir; ular orasidagi o‘zaro aloqa o‘zgaradi, bu esa rivojlanishning umumiy darajasiga, xulq-atvorni tartibga solishga ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash uchun ularning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini bilish kerak, bu ishni ilk yoshdan boshlab amalga oshirish zarur.

Adabiyotlar ro’yxati :

1. Xarlamov I.F. Педагогика в вопросах и ответах. – M, 2001.
2. Sh.A.Sadikova. Maktabgacha pedagogika-T,2018
3. N.M.Egamberdieva.Ijtimoiy pedagogika-T,2014
4. Yakubova, Z. Z. (2022, October). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLANING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIGA PROFESSIONAL YORDAM KO ‘RSATISHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB BILAN HAMKORLIK ISHLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-73).
5. ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAXALLA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLAR HAMKORLIGI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(15), 141-147.
6. YZ Zikirovna. MA’NAVIY QADRIYATLAR–SOG ‘LOM AVLODNI TARBIYALASH VOSITASI SIFATIDA.Science and innovation, 2023. 208-210.

MALAKAVIY O‘QUV AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING O’ZIGA XOSLIGI

Bahoroy Ramozonova Sadriddinovna

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya mazmuni, shakli vosita va metodlarini yangilashga alohida e’tibor berilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, bo’lajak tarbiyachilarni zamonaviy bilimlarni egallashlari hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlaring muhim yo’nalishlaridan biridir.

Malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning o’ziga xosligi bilan ajralib turadi. Malakaviy amaliyoti jarayonida bo’lajak tarbiyachilarning turli usullarini qo’llashning ta’lim jarayonida ahamiyati katta bolib, bo’lajak tarbiyachilarning o’z ustida izlanishi, o’z mutaxassisligi bo’yicha yetarli bilim ko’nikmalarni, kasbiy mahoratini oshirishi darkordir.

Bo’lajak tarbiyachilarning malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, bolalarga ta’lim-tarbiya berish sifati uchun jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglashga, kasbiy vazifalariga mas’ulyatli yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib

borish va ishdagi pedagog hamkasblarini bilan o’zaro tajriba almash natijasida malakalarini o‘sishiga yordam beradi.

Bo’lajak tarbiyachi avvalo, bilimli bo‘lishi, o‘zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo‘lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak.

Bo’lajak tarbiyachida quyidagi xususiyatlar uning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim:

- o’z kasbini sevishi va chuqur puxta bilimga ega bo’lishi;
- o’z ustida tinimsiz ishlashi, yangiliklarni tez o’zlashtirishi;
- tarbiyachi ta’lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olishi;
- bolalarni yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil eta olishi;
- yuksak pedagogik mahorat va kommunikativ layoqatga ega bo’lishi;
- pedagogik qonuniyatlarini texnika, nutq, mimika, chuqur o‘zlashtirishi;
- bolalarni kuzata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ta’sir etuvchi vositalarni qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak.

Malakaviy amaliyot jarayonida bo’lajak tarbiyachilar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik mahoratlarini oshirish ustida ishlashi, izlanishi lozim. Bu esa o’z navbatida bo’lajak tarbiyachidan pedagogik, psixologik va metodik tayyorgarlikni talab etadi.

K.J. Risqulovaning fikriga ko‘ra, “kompetensiya” – turli kasb egalariga zarur bo‘lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsning axloqiy me’yorlar yig‘indisini anglatadi. Kompetentlik esa — shaxsning amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, kompetensiya me’yorlarini ijodiy yondashuv asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kompetentlikning asosiy mezoni samarali faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi.”

Kompetensiya — bu ma’lum sohada samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan va o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning turli layoqatlari va hususiyatlarining yig‘indisidir. I.N.Ilxamova kompetensiyaning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga to‘xtalib, u xalqaro tilshunoslik, ijtimoiy-lingvistik va madaniyatshunoslik kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi, deb hisoblaydi.

Malakaviy amaliyot jarayonida bo’lajak pedagoglar innovatsiyalarni o’zlashtirishi, to’g’ri qo’llay olishi, amaliyotga joriy etishi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhimdir.

Xozirgi kunda pedagogik muammo bo‘lib kelayotgan masalalalar: o‘quv-tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish, dars jarayonlarida o‘quv materialni hajmini oshirish, o‘quv

jarayonini jadallashtirish, vaqtni tejash, o‘quv-tarbiyaviy ishlarda interfaol usullardan foydalanish, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy qilishdan iborat. Yuqorida gi muammolarni hal qilishda bo’lajak tarbiyachidan beradigan yangi g‘oyalar, yangi nazariy bilimlar beruvchi pedagog sifatida, shaxsni rivojlanishiga olib keluvchi innovatsiyalarni yaratish, izlash, joriy etish talab etiladi.

Demak bugungi kunda malakaviy amaliyot jarayonida bo’lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik mahoratini oshirishi, innovatsion faoliyatga tayyor bo’lib ta’lim-tarbiya jarayoniga so’ngi yangiliklarni olib kerishi, o’z ustida doimo izlanishda bo’lishi ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashda muhim. Yangi narsalarga ochiqlik o‘rganish istagi va o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan birgalikda tarbiyachilar tomonidan yuqori darajadagi ijodiy faoliyat va bilim mustaqilligiga yerishish, ijodiy ko‘nikma va ko‘nikmalarni yegallashga qaratilgan ijodiy muhitni yaratish uchun asosdir.

Maktabgacha ta’limda ijodiy faoliyatni o‘qitish ijodiy shaxsning bir qator fazilatlarini yaxshilashga hissa qo‘shadigan faoliyat sifatida qaraladi: aqliy faoliyat; zukkolik; aniq amaliy ish uchun zarur bo‘lgan yangi bilimlarni olish istagi; ta’lim muammolarini tanlash va hal qilishda mustaqillik; mehnatsevarlik va mas’uliyat; raqobatbardoshlik va boshqalar.

Davlat ta’lim standartida ta’kidlanganidek, kasbiy kompetensiya insonning tarkibiy qismlaridan biri sifatida ta’limning yangi qiymati sifatida faoliyatga ijodiy yondashuv prinsipiga asoslangan kasbiy yo‘nalishga tayanadi. Ijodiy daraja mustaqil ish jarayonida to‘plangan tajribaga asoslanib, muammolarni hal qilishda o‘ziga xos, yangi bilim kiritilishida namoyon bo‘ladi.

Respublikamiz ta’lim-tarbiya va ijtimoiy sohasini uzoq muddatli rivojlantirish rejalarini amalga oshirish o‘quv jarayoniga zamonaviy innovatsiyalarni joriy qilishni talab qiladi, ularning muvaffaqiyati bo‘lajak tarbiyachining tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash va nostandart yechimlarni topish qobiliyati kabi fazilatlari va ko‘nikmalariga bog‘liq.

Adabiyotlar ro’yxati.

1. Djurayeva B.R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. “Maktabgacha ta‟lim yoshidagi bolalarga ta‟lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari” – Toshkent, O‟zPFTTI nashriyoti, 2015-yil.

2. Fayzullayeva N. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta’lim. – T., 2006. 6-son.

3. Sadriddinovna, R.B. (2022).Technologies for increasing of students'learning competencies in the course of pedagogical practice. Confrencea, 6(6), 226-227.

4. Muratova, M.O. R., & Dekhkambaeva, Z. (2022). Maktabgacha Ta'lim Muassasasida Bolalarning Hayot Faoliyati Xavfsizligi. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, *13*, 111-113.

5. Barno, E. (2023). O‘zbekistonda maktabgacha talim muassasalarining zamonaviy tizimi. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.

6. Ramozonova, B. (2023).Pedagogical-psychological factors of improving the methodology of developing professional competences of future educators during the process of qualified educational practice. Science and innovation, 2(B4), 228-230.

7. Marasulova, D. (2023). Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, *1*(1).

8. Yakubova, Z. Z. (2023). Milliy tarbiya asosida bola shaxsini rivojlantirishda oila, maxalla va maktabgacha ta’lim tashkilotlar hamkorligi. *golden brain*, *1*(15), 141-147.

atics Journal of Education, 7(4).

9. Sadriddinovna, R.B. (2022, October). Significance of developing students'learning competencies in the practice. In Archive of Conferences (pp. 35-37)

MALAKAVIY O‘QUV AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONLARI

Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

So`nggi yillarda ta`lim tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichida maktabgacha ta`lim pedagoglarining salohiyatini yanada yuksaltirish ijodiy va kasbiy o`z-o`zini takomillashtirishga mutaxassislarni tayyorlashning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.05.2019 yildagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi asosida maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar belgilandi: xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida bolalarda Vatanga sadoqat, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mahalla va maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan pedagogik hamkorligiga qo‘yiladigan talabni aniqlashtirish mezonlari ishlab chiqildi.

O'zbekistan Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli taxlil kilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan

metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2022—2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida maktabgacha talim tizimiga aloxida to'xtalib o'tganlar va bir qancha vazifalar bergilab berganlar. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish to'grisida aloxida to'xtalib o'tganlar.

Bo’lajak pedagogining ta’lim tarbiya berish jarayonidagi o’rnini qay darajada muhimli uning malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlanganligida namoyon bo’ladi. Kasbiy kompetensiylarning rivojlanganligi fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasida namoyon bo’ladi. Ta’lim sohasiga qo’yiladigan talablar orasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirish uchun qator chora-tadbirlar yo’lga qo’yilgan. Pedagog shaxsiga qo’yiladigan talab – eng avvalo o’z ustida izlanishlar olib borishidir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bilimga ega bo‘lishida tarbiyachi-pedagogning roli yuqori hisoblanadi. Tarbiyachi-pedagog kasbiga oid bilimlarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi lozim:

- yangicha yondashuvda shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishdagi ma’lum bo‘lgan qolip va bir xillikdan voz kechish;
- amaldagi meyorlar doirasidan chetga chiqib, bilim berishning yangicha usullarini qo‘llash;
- shaxsiy yo‘naltirilgan ta’lim jarayoninini samarali qo‘llagan holda yangi texnologiyalarni adekvat ravishda anglash.

Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta’lim tashkiloti mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarining rivojlanganligidir.

Bo’lajak tarbiyachilarning malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, bolalarga ta’lim-tarbiya berish sifati uchun jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglashga, kasbiy vazifalariga mas’ulyatli yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi pedagog hamkasblarini o‘sishiga yordam beradi.

Demak, bolajak tarbiyachi avvalo, bilimli bo‘lishi, o‘zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo‘lishi, umumiy va

maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak.

Malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak pedagoglar innovatsiyalarni o'zlashtirishi, to'g'ri qo'llay olishi, amaliyotga joriy etishi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhimdir.

Bo'lajak tarbiyachining innovatsiyalargan chuqurroq bilim olish, o'rganish, o'zlashtirish, keng hajmdagi bilimlarni olishga qaratilmog'i yaxshi natijalar beradi.

Bo'lajak pedagoglar fikr yuritgan voqealarga o'z munosabatini bevosita bildirishlarida albatta voqealar rivojiga murojaat qiladilar. Bu bolada ijodiy fikr yuritish, kommunikativlik va liderlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bularning barchasi xususiy mohiyat-mazmun kasb etsada, ular yaxlit holda bo'lajak tarbiyachining kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi.

Bular doimiy pedagogik muammo bo'lib kelayotgan: o'quv-tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish, dars jarayonlarida o'quv materialni hajmini oshirish, o'quv jarayonini jadallashtirish, vaqtni tejash, o'quv-tarbiyaviy ishlarda interfaol usullardan foydalanish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy qilishdan iborat. Yuqori natijalar beradigan yangi g'oyalar, yangi nazariy bilimlar beruvchi, shaxsni rivojlanishiga olib keluvchi, tom ma'nodagi innovatsiyalarni yaratish, izlash, joriy etish talab etiladi.

Malakaviy o'quv amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish jarayonlari natijasida bo'lajak tarbiyachilarning o'z ustida izlanishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarni, kasbiy mahoratini oshirishi hamda o'z faoliyati jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashi, yangi innovatsiyalarni ta'lim tizimiga olib kirishi, tarbiyachi pedagoglarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatga kreativ yondashuvi, kreativ o'qitishning uslub va usullarini ozlashtiradilar.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishi, pedagogik mahoratini oshirishi, innovatsion faoliyatga tayyor bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayoniga so'ngi yangiliklarni olib kerishi, o'z ustida doimo izlanishda bo'lishi maktabqacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

10. Mirziyoyev SH.M. "Maktabgacha ta'lim tizmi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-son farmoni. 30.09.2017 yil.

11. Djurayeva B.R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. – T.: O'zPFTTI, 2015 yil.

12. Змеев С.И. Технология обучения взрослых: учебное пособие/С.И. Змеев. — М. 2002. — 128 с.

13. Sadriddinovna, R. B. (2022). FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Thematics Journal of Education*, *7*(4).

14. Sadriddinovna, R. B. (2022). TECHNOLOGIES FOR INCREASING OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Confrencea*, *6*(6), 226-227.

15. Ramozonova, B. (2023). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE EDUCATORS DURING THE PROCESS OF QUALIFIED EDUCATIONAL PRACTICE. Science and innovation, 2(B4), 228-230.

16. Jorayeva, N. T., & Marasulova, D. N. (2024). EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. *World of Scientific news in Science*, *2*(2), 37-43.

17. Ramozonova , B. S., Maxmudova , D. A., & Ergasheva , B. Z. qizi. (2023). MALAKAVIY O‘QUV AMALIYOTIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 52–5

MALAKAVIY O‘QUV AMALIYOTI JARAYONIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

Tursunova Robiyaxon Ravshanbek qizi

“Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi talabasi

Bo’lajak mutaxassislarni malakaviy amaliyot jarayonida o’z kasbiga mos nazariy bilimlarni mustaqil, ijodiy ravishda hayotga tadbiq etish yo’llarini o’rganadi, kasbga hos malakalarni egallab, bolalarni har tamonlama rivojlanishini kuzatadi va tahlil qiladi. Shu jarayonda tarbiyalanuvchi bolalarning bilim darajasini baholash bilan birga turli faoliyatlarni tashkil etish, ta’lim va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni o’rganadilar. Malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalari hamda kompetentlikni rivojlantirish metodikasiga ko‘ra, “kompetentlik” tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: xulq-atvor, kognitiv, operatsion, texnologik, motivatsion, ijtimoiy va axloqiy komponentlar, ta’lim natijalari va boshqalar. Shu

bilan birga, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishga bag‘ishlangan ishlar va materiallarda «kompetentlik» tushunchasining umumiy qabul qilingan aniq ta’rifi mavjud emas. Bundan tashqari, pedagogika fanida tarbiyachilarning “kompetensiyalari”ni izohlash bilan bog‘liq masalalar hali ham muhokama qilinmoqda.

Kompetensiya" va "kompetentlik" atamalari o'zakdosh so'zlar bo'lib, ular g'arb ilmiy adabiyotida XX asrning 60 yillari oxiri, 70 yillarda paydo bo'lgan. "Kompetensiya" atamasi milliy pedagogikada XX asrning 90 yillaridan e'tiboran ishlatila boshlandi. Bo’lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlanishini aniqlashda, kasbiy kompetensiya moduli yaratilgan. Ya'ni, bunda kasbiy kompetenlikni tashkil qiluvchi muhim kompanentlarni aniqlashdan oldin, uning yaxlit manzarasi yaratilgan. Bo’lajak tarbiyachilarning kasbiy bilim va tushunchalarni egallashdan avval kasbga nisbatan mehr va qiziquvchanlik aniqlashtiriladi. Qachonki, kasbiy faoliyat egasi o'z faoliyatiga mehnat deb emas, sevimli mashg'ulot sifatida qarasa unda ijodiy qobilyat rivojlanib boradi.

Tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini muvaffaqiyatli shakllantirishning asosiy sharti – ularning o‘quv, ilmiy va kasbiy faoliyatini samarali boshqarishdir. Tarbiyachining ta’siri “zarur integratsiyalashgan kasbiy tajribani rivojlantirishga jalb qilishga qaratilgan bo‘lsa va maqsadli xususiyatga ega bo‘lsa, kasbiy faoliyat tarbiyachilarning ijodkorligiga aylanadi. Tarbiyachi mustaqil ravishda muammolarni hal qilish orqali kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi mumkin, bu esa undan zarur bilim va ko‘nikmalarni amaliy faoliyatda qo‘llashga tayyor bo‘lishni talab qiladi. L.I. Bojovich, L.S. Vigotskiy, V.V. Davidov, A.N. Leontev, S.L. Rubinshteyn, D.B. Elkonin, D.I. Feldsheyn va boshqa olimlar amaliy faoliyat dastlabki inson faoliyati ekanligini isbotladilar. Bizning tadqiqotimizda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish usuli – bu ongli motivlar, universal ko‘nikmalar, mustaqil harakatlarga tayyorlikni shakllantirishni ta’minlaydigan va o‘z-o‘zidan maqsad bo‘lishni to‘xtatadigan, ammo ta’lim-tarbiyaviy qarorlarni qabul qilish asosida tajribani o‘zlashtirish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan nazariy va amaliy mashg‘ulotlardir.

N.S. Gluxanyuk, E.F. Zeer, V.D. Shadrikov, Ye.N. Shiyanov kabi olimlar kasbiy tayyorgarlik bosqichida bo‘lajak tarbiyachining faoliyatini rivojlantirish pedagogik jarayonning yaxlitligiga bog‘liqligini va o‘quv- kognitiv, shuningdek, samarali amalga oshirish uchun maxsus bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni talab qiladigan ilmiy va amaliy (kasbiy) faoliyatda, shuningdek, kasbiy shartlangan holda sodir bo‘lishini ta’kidlaydilar.

Ta’lim berish jarayonini tashkil qilishda odatiy ta’lim shakllari (o‘yin, suhbat, ekskursiya, kuzatish va hakozo), hamda zamonaviylari (proektor, vaziyatli vazifalar, ustaxonalar, viktorina va tanlovlar, teatrlashtirilgan tomoshalar va boshqalar). Barcha ta’lim shakllari integrativ xarakterga ega, bolalarning turli faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Markazlarda iqtisodiy tarbiyaga

mos ravishda sur’atlar ertaklar bolalar ijod qilishiga mos jihozlar bilan ta’minlanishi ushbu ta’lim jarayonini yanada jadallashishiga olib keladi.

Nutqni rivojlantirish faol kommunikativ xatti-harakatlarning tarkibiy qismi sifatida kattalar munosabatlari, dunyoda bolaning ijtimoiylashuvining eng muhim elementidir. Nutq yordamida bola atrofdagi odamlar bilan muloqot qilish usullari va vositalarining konstruktivlik usullarini o‘zlashtiradi.

Yuqoridagi barcha sohalarni birlashtirish jarayonida ta’lim sintezini ta’minlovchi didaktik o‘yin shakllardan foydalanish tavsiya etiladi, maktabgacha katta yoshdagi bolaning shaxsiy xususiyatlari, turli faoliyat turlarining munosabati va integral shakllanishi. Shuni yodda tutish kerakki, o‘yin, muloqot va kognitiv faoliyat bular faoliyatning bir turidir, bola uchun ta’limning ushbu bosqichi eng yetakchi va ahamiyatlidir. Bular: namoyishli (kattalar tomonidan qo‘llaniladi) va tarqatma materiallar (bolalar foydalanadi); vizual (vizual idrok qilish uchun); eshittirishli (eshitish idroki uchun); audiovizual (vizual-eshitish idroki uchun); tabiiy (tabiiy) va sun’iy (texnogen); real (mavjud) va virtual (mavjud emas, lekin bo‘lishi mumkin) va boshqalar.

Avvalo, bolalar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli foydalanish tavsiya etiladi: badiiy adabiyotni o‘qish (idrok etish), (bolalar o‘qishi uchun kitoblar, shu jumladan audio kitoblar, illyustrativ materiallar);

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning nazariy va amaliy tajribalarga asoslangan bilimlarni chuqur egallab borishlari bilan bog'liq. Bo’lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha o'zini rivojlantirib borishi asosida ularda kasbiy kompetensiyani tarkib topib borishiga erishiladi. Doimiy ravishda kasbiy o'sishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olish.Odatiy kasbiy-pedagogik vazifalarni to'g'ri hal qilish va o'z mehnatining natijalarini real baholash malakasiga egalik, mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda izchil o'zlashtirib borish qobiliyatiga egalik kabi bosqichlar asosida o'z imkoniyatlarini o'lchovdan o'tkazish va shu asosida o'z oldiga yangi vazifa va maqsadlarni belgilab olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.SH.M.Mirziyoyev “Maktabgacha ta‟lim tizmi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari” to‟g‟risidagi PF-5198 son farmoni 30.09.2017yil

2.B.S Ramozonova.. (2022). FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Thematics Journal of Education*, *7*(4).

3. Ramozonova , B. S., Maxmudova , D. A., & Ergasheva , B. Z. qizi. (2023). MALAKAVIY

O‘QUV AMALIYOTIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 52–56.

4.Sadriddinovna,R.B.(2022). ECHNOLOGIES FOR INCREASING OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Confrencea*, *6*(6), 226-227

5.Kholtorayeva, S., & Ramozonova, B. (2023). THE VALUE OF FORMING BASIC COMPETENCES IN THE PROCESS OF PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION. *GOLDEN BRAIN*, *1*(32), 185-188.

6.Ramazonova, B., & Abdumo'minova, D. (2023). MAKTAB VA MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGLARINING KREATIVLIGI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, *2*(1 Part 2), 193-198.

7.Ramozonova, B. S., & Maxmudova, D. A. (2023). MALAKAVIY O ‘QUV AMALIYOTIDA BO ‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 52-56.

8.Sadriddinovna, R. B. (2022, October). SIGNIFICANCE OF DEVELOPING STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE PRACTICE. In *Archive of Conferences* (pp. 35-37).

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING RIVOJLANISH MARKAZLARIDA TA’LIMIY FAOLIYATGA RAHBARLIK QILISH METODLARI

Zarifova Z.M.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlar pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

Abdumitalova Odinaxon Zafar qizi
Maktabgacha ta’lim fakulteti talabasi

Har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti, shu hisobdan, maktabgacha ta’limning odatdagi shakllari hududiy, milliy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa shart-sharoitlardan kelib chiqib, o’z muqobil dasturlarini ishlab chiqishi mumkin. Dasturning asosi qilib bola shaxsining rivojlanishidagi asosiy sohalar (jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini rovojlantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy jihatdan shakllanishi) bo’yicha O’zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari kiritildi. Dasturning o‘zlashtirish jarayonidagi integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining asosini ta’minlaydi.

O’zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limi tizimini modernizatsiya qilish maktabgacha ta’limga keng imkoniyatlar yaratishning muqobil usuli va uning muhimligi hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning manfaatli va kamchiqim modellarini ishlab chiqishni talab etadi. 6-7 yoshli bolalarni o’qitish majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlari dasturi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ta’lim sektori rejasi, maktabgacha ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi, Davlat talablariga tayangan holda bolaga yo’naltirilgan sifatli pedagogik prinsiplariga asoslangan.Bolaning erta shakllanishi uning kelajakda shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti tarbiyachidan tayyor bilim olishdan ko’ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko’nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo’shilish imkoniyatini berishdan iborat.

Rivojlanish markazlari ta’lim, rivojlantiruvchi, o’qitish, rag‘batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning shaxsga yo’naltirilgan ta’limga asoslangan bolaning tashabbusini rag‘batlantirishi darkor. Guruh xonasidan moslashuvchan va o’zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi.

Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallarlar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi lozim. Markazlarning dizayni estetikasi, bolalar uchun yorqin shaklda bo’lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo’lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o’yin faoliyatining yetakchi rolini hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallarlar bolaga tegishli bo’lishi va bolalarning yoshiga mos bo’lishi shart. Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallarlar mavzuga oid vazifalarni hisobga olgan holda o’zgarishi kerak.

Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o’z o’zi bilan shug‘ullanish imkoniyatini ta’minlashi kerak. Mavzuviy rejalashtirishga ko’ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallarlar va o’yin uskunalari bilan ta’minlash ustida o’ylashi va jihozlashi kerak. Markazlarni bolalar va tarbiyachilarning birgalikdagi faoliyati va asosan qo‘l ishi mahsulotlari bilan to’ldirish mumkin. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning mavzuviy rejasiga asoslanib, materiallarlar tayyorlanadi va jihozlanadi.

Pedagogning faoliyati:

•bolalarni tabiat, musiqa va ijod dunyosiga jalb qilish va bolani o’rgatish;

•mustaqil ravishda bilimlarni egallash, bilimga bo’lgan qiziqishni shakllantirishga, yangi bilimlarni olishga bo’lgan ehtiyoj, o’rganish va rag‘batlantirish, shu bilan birga sub’ekt bo’lish;

•Bolalar bilan birga jamoaviy tadbirlar tashkil etish;

•muammoli vaziyatlar yuzaga kelganda, bolaga beg‘araz va o’z vaqtida og‘zaki va amaliy yordam ko’rsatish;

•bolaning shaxsiy qiziqishini rag‘batlantirish;

Rivojlanish markazlarida o’quv va bilim jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o’yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, shou, badiiy adabiyot o’qish ensiklopedik adabiyotlarni o’qish, ko’rib chiqish va muhokama, tushuntirish, munozara, video namoyishlarni tomosha qilish, kompyuter taqdimotlarini tomosha qilish, ijodiy faoliyat, tadqiqotlar, tajribalar, tajriba jonli va jonsiz tabiatning sirlari va boshqalardan foydalanish kerak.

Bolaning rivojlanishi faqat o’quv faoliyatida emas, balki o’yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o’yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo’lsa, tarbiyachi didaktik materiallarni to’ldiradi yoki o’zgartiradi.

Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini ta’minlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, yechimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning o’z maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etadi, agar shunday bo’lsa, muammolar pedagogning va bolalarning va uning ota-onalarining shaxsiy ishi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to’g‘ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o’ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o’zaro munosabatlarni o’rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanayotgan ta’lim asosida yotadi.

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni shuni ta'kidlab o‘tish joizki, bolaning rivojlanishi uchun keng sharoitlar yaratish, bolaning barkamol shaxs sifatida yetishishida ularda ta'lim - tarbiyaning asosiy o‘rni juda kattadir. Shu sababdan bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida olib borilayotgan maqsadli va ustuvor yo‘nalishlarning asosiy obyekti hisoblanadi.Bunday tarzda bolalar rivojlantiruvchi markazlar hamda ijtimoiy sohalar bo‘yicha rivojlanishida o‘zlarining asosiy "Men"larini hamda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini ham shakllantirish o‘z samarasini olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulkhayevich, A. A. (2020). Challenges, Cluster and Professional Support of Today's Early Educators' through Literacy and Language that Creates a Sense about the Concept of Early Education. International Journal of Word Art, (2).
2. Egamnazarova Sh. M. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Ilim ziyo T.: 2016y.
3."Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. -T.: 2022 yil.
4. Sodiqova SH.A. Maktabgacha ta'limda markazlar faoliyati va uslubiyoti. T.: 2022yil.
5.Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’grisidagi Qonun.T.2019

BO’LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM PEDAGOGLARINI KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Z.M.Zarifova
Nizomiy nomidagi Toshkent davlar pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

Baxodirova Kamola Xojiakbar qizi
Maktabgacha ta’lim fakulteti talabasi

Bugungi kundagi bo‘lajak tarbiyachida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birgalikda ulardagi ijodiy salohiyatni balkim, kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi o‘ziga xos dolzarb yo‘nalishlardan biri sanalmoqda. **Kreativlik:** (ingliz tilida create — yaratish, creative — yaratilgan, ijodiy) – shaxsning yaratuvchilik, ijodiy faollik qobiliyati sifatida tushuniladi. Shuningdek, kreativlik insonning borliqni bilish va o‘zgartirishga yo‘naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo‘lib, uning natijasida yangi, betakror, ilgari mavjud bo‘lmagan jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar va boshqalar ko‘zda tutiladi.

Pedagogik kreativlik: bu– pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish, tashkil etishdagi muhim sifat bo‘lib, u tarbiyachining bilish faoligi, g‘ayrioddiy tafakkur tarzi, mustaqilligi va kasbiy mahorati sifatida namoyon bo‘ladi.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda roli beqiyos sanaladigan maktabgacha ta’lim tashkiloti bo’lajak tarbiyachilari hamda mutaxassislarini kreativ kompetentligini rivojlantirish eng avvalo oliy ta’lim tashkiloti va pedagoglarining zimmasidadir.Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo’lishi uning shaxsiy sifatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo’naltiradi. Oliy ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo’lishlari ularda o’quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g’oya va fikrlarni yaratish, o’ziga xoslik, tashabbuskorlik, intiluvchanlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan bo’lajak tarbiyachilarda kreativ kompetentligini rivojlantirish shaklini ijodiy yondashuv asosida rivojlantirish bo’lajak

tarbiyachilarning har qanaqa jarayonda o’zining ijodiy va kreativ qobilyatlarini namoyon qilishida foydali va kerakli jihatlarini ko’rsatadi. O’sib kelayotgan barkamol shaxsni yangi zamon talablariga to’laqonli javob bera oladigan, har qanaqa vaziyatga kreativ yondasha oladigan, dunyoni yangicha qarashlar bilan anglaydigan kreativ qobilyatlarini shaklantirish, ularda kreativ fiklash va tafakkurni rivojlantirish eng avvalo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, tarbiyachilardan kasbiy faoliyatlarida kreativ kompetentlikni talab etmoqda.

Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda ham intiluvchan bo‘lar ekanlar. Shunday ekan, bugungi kunda bolalarda kreativ qobilyatlarini shakllantirishning ayni vaqtidir. Buning uchun albatta maktabgacha ta’lim tashkilotidagi tarbiyachi pedogoglarning o’zida kreativ sifat va kreativ kompetentlik shakllangan bo’lishi lozim. Pedagog talabalarda kreativ harakat ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko‘rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Shu o‘rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin. Mazkur yo‘l talabalarni muammoni yechish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg‘u beradi.

Ushbu jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo‘llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Bolalar topshiriqni bajarar ekan, bo‘lajak tarbiyachilar mavzuga bog‘liq muammolarni tahlil qiladi. Natijada mazkur jarayonda ko‘p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro‘y beradi. Bo‘lajak tarbiyachilar o‘zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoyon qilishlari mumkin. Bo‘lajak tarbiyachilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta egallanishi va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ xarakterga ega muhitdagina pedogoglar o‘rganayotgan mavzuning mazmuni, o‘quv vositalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi va bu haqida fikrlash boshlashadi .

Xulosa Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, oliy ta’lim yurti talabalari va o’qituvchil pedogogari uchun kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvning olib kirilishi ta’lim mazmuniga, o’qitish shakliga, usullariga, vazifalariga, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullariga hamda ta’lim va tarbiya jarayonida talabalar va o’qituvchilar orasidagi munosabatlarida yangiliklar va o’zgartirishlar kiritishni talab etmoqda. Shunga ko‘ra, oliy ta’lim o‘quv yurtlarida bo’lajak Pedogoglarni o’qitishda ta’limni tashkil etishning mavjud shakllari bo’lgan ma’ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg’ulotlarini mazmunan yangilash, qo’shimchalar kiritilishi ko‘zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
2. 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
3. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-son Qarori / qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020 y.,09/20/802/1658-son.
5. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.Toshkent, «Fan va texnologiyalar» nashriyoti.2008 yil.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOALARGA TEJAMKORLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Shukurullayev Ozodbek Arziyevich,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Bolalar bilan ishlash tarbiyachidan katta kuch va iroda talab qiladi, shuning uchun jamoada pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari orasida yaxshi niyat, xushmuomalalik va hurmatli talabchanlik ayniqsa muhimdir. Har bir o'qituvchining shaxsiyatiga hurmat ko'rsatadigan, moyillik, qiziqish, imkoniyatlarni hisobga olgan holda, oqilona talabchanlik bilan birgalikda boshqaruvning avtoritar usullariga qat'iy amal qiladigan rahbarga qaraganda ancha yaxshi natijalarga erishadi. Ishga qiziqishni oshirish va yaxshi muvofiqlashtirilgan jamoani yaratishning eng yaxshi usullaridan biri odamlarni hurmat qilish va ularga mas'uliyat va vakolatlarni topshirishdir.

Mas'uliyat ikki holatda paydo bo'ladi: ijrochiga juda aniq vazifa va mas'uliyat yuklanganda; ijrochi, albatta, ish qanday bajarilishini so'rashini bilsa. Jarayonning har bir ishtirokchisiga o'z vazifasining mazmunini tushuntirish, muayyan natijalarga erishish uchun tashkilot majburiy boshqaruv xarakteriga ega bo'lmaydi, balki ongli ijodiy mehnat. Natijaga asoslangan boshqaruvdagi muhim masala bu “natija” va “hissa” tushunchalarini farqlashdir.

Bugungi kunda siyosat va ta'limning o'zaro aloqasi hamma uchun ochiq. Har qanday taraqqiy etgan jamiyatning iqtisodiy, intellektual, madaniy, ma'naviy va axloqiy salohiyati uning mazmuni va yo'nalishiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va zamonaviy o’zbek

jamiyatining rivojlanishi sharoitida yosh avlodning iqtisodiy tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yangi iqtisodiy sharoitlar maktabgacha yoshdagi mustaqil, faol, mehnatkash, iqtisodiy jihatdan savodli, yuqori axloqiy, insoniy shaxslarni tarbiyalash zarurligini belgilaydi, bu esa insonning keyingi hayotiy faoliyatining asosi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash, iqtisodiy madaniyat asoslarini shakllantirish, bolalarni iqtisodiyotga jalb qilish, dastlabki iqtisodiy ta'lim iqtisodiy sotsializmning omillaridan biri bo'lib, bolaning moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlariga va umuman, bola shaxsiyatini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot nazariyasida o'rganilayotgan muammolarning xilma-xilligi tahsinga loyiq, biroq maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning pedagogik shartlarini o’rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. A. S. Makarenkoning fikriga ko’ra, erta yoshdan boshlab bola oilaviy sharoitda kelajakdagi iqtisodiy faoliyatga odatlangan bo‘lishi va halollik, g'amxo'rlik, tejamkorlik, mas'uliyat haqida tushunchaga ega bo‘lishi lozim.

XX asrning 70-yillarida olimlar L.N. Ponomaryov va L. E. Epstein iqtisodiy tarbiya xalq xo'jaligini rivojlantirishning muhim omili, ishlab chiqarishni ilmiy tashkil etishning zarur sharti hamda yosh avlodning mehnat va mol-mulkka to'g'ri munosabatni shakllantirishning muhim vositasi sifatida targ‘ib etishdi. "Iqtisodiy ta'lim", "iqtisodiy tarbiya", "iqtisodiy tayyorgarlik" kabi tushunchalarni talqin qilishda tadqiqotchilar A. F. Amend, L. P. Kurakov, B. T. Lixachev, V. A. Povstik, V. D. Popov, A. S. Prutchenkovlarning nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, biz iqtisodiy tarbiya shaxsning axloqiy va iqtisodiy fazilatlarini shakllantirishning maqsadli jarayoni-tejamkorlik, mas'uliyat, samaradorlik, tadbirkorlik, shuningdek, qiymat munosabatlariga yo'naltirilgan odamlarning iqtisodiy hayoti haqidagi bilimlarni o'zlashtirishning maqsadli jarayonidir, degan umumiy ta’rif berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalash nazariyasi va amaliyotining holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy ta'lim jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning yaxlit nazariyasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Maktabgacha yoshda iqtisodiy ta'lim muhitining mazmuni quyidagilardan iborat:

- obyektiv muhit (o'yinga asoslangan iqtisodiy muhit yaratish);

- ijtimoiy muhit "qiziqishlariga atrof-muhit (ota-onalar, ta'lim jamoasi MTT), voqea-bilim muhiti (qiziqarli ekskursiyalar, mashhur odamlar bilan uchrashuvlar) va axborot muhit (jumboq, illyustratsiyalar, do'konlar, banklar, xizmat markazlari, shahar sanoat korxonalari xaritasi, tanga namunalari).

Tarbiyachi ijtimoiy agentlarning ma'lumotlarini professional tarzda qayta ishlab, ushbu ta'sirni maqsadli yo'naltira olishi, ijtimoiy rivojlanish holatini pedagogik holatga aylantira olishi, yetakchi axloqiy va iqtisodiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim muhitini yarata olishi lozim. Iqtisodiy ta'limning yana bir sharti-oila, odamlar, jamiyat va jamiyatning iqtisodiy ahvoliga

oid bolalar faoliyati turlarini (o'yin, mehnat, bilim) tashkil etish va to'ldirish, shu asosda ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatning ijobiy me'yorlari va qadriyatlariga bilimli qiziqishni rivojlantirishdir.

Ta'limning tashkiliy shakllarini tanlash va iqtisodiy ta'lim bo'yicha faoliyat turlari bolalarning maqsadlari, vazifalari, yoshiga bog'liq. O'yin bolaning shaxsiyatini rivojlantirishda faol omil bo'lganligi sababli, o'yin mazmunini hayotiy muhim jihatlar bilan boyitilishi juda muhimdir. Jumladan, bola iqtisodiyot to'g'risidagi bilimning dastlabki tushunchalarini o'yinlar orqali egallashi iqtisodiyot haqidagi g'oyalarini aniqlashtirish va mustahkamlash, odamlarning iqtisodiy hayoti haqida yangi bilimlarga ega bo'lish, bolaning o'zi, uning atrofidagi kattalar va tengdoshlari uchun muhim bo'lgan bilimlarga muvofiq to'g'ri harakatlar, munosabatlar, faoliyatlarda namoyon bo'lish imkonini beradi. Oila iqtisodiyoti, ona shahri, viloyat, biznes sohasidagi kasb-hunar haqida bilim olishning eng muhim rag'batlantiruvchi omillaridan biri-bu iqtisodiyotga bo'lgan bilim va qiziqishni rivojlantirishdir, bu esa bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi.

Maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilarning ko'rsatkichlarini mavjudligi va majmui bo'yicha iqtisodiy ta'lim darajasini quyidagi izohlash mumkin:

-bolalar iqtisodiy tushunchalarning boshlang'ich ma'nosini tushuntirishlari, ota - onalarning ishiga aniq va barqaror qiziqish ko'rsatishlari, ota- onaning kasbi haqida tushunchaga ega bo'lishlari, iqtisodiy so'zlar va iboralarni ishlatishlari mumkin;

-o'yinlarda olingan bilimlarni hayotda qo'llay olishlari mumkin;

-ular kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilishga tayyor, ko'plab savollar berishadi va ularga mustaqil ravishda javob topishga harakat qilishadi;

- ishda kattalar va tengdoshlarga yordam berish, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ongli ravishda muomala qilish, ish mavzulariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uning natijalari, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, o'z mehnatlari va o'rtoqlarining natijalarini to'g'ri baholashga qodir;

-materiallardan oqilona foydalanish; samarali faoliyat jarayonida ishbilarmon, qobiliyatli, ixtirochi, tengdoshlarning ijodiy izlanishlarini faol qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi;

-tashabbusni qabul qilishga intiladi va biladi, vazifalarni qat'iyat bilan bajaradi, boshlangan ishni oxirigacha olib keladi.

-bolalar iqtisodiy tushunchalar haqida g'oyalarga ega, lekin ularni har doim tushuntira olmaydi; ularning oila ehtiyojlariga, ota-onalarning ishiga beqaror qiziqish bor; ularda mavjud bo'lgan bilimlar tiniq bo'lmay, noaniq, yuzaki;

-bolalar atrofdagi hodisalar haqida faqat tarbiyachi o'yin sharoitlari, mashqlar, ijodiy vazifalar orqali bilimga qiziqishni kuchaytirgandan so'nggina savollar berishadi, ular atrofdagi

dunyo haqida yetarli g'oyalarga ega, ammo o'yinda mavjud bo'lgan bilimlardan qanday foydalanishni bilishmaydi;

-kattalar rahbarligi ostida o'z faoliyatini tashkil qilish, o'z vaqtida topshiriqlarni bajarish; moddiy qadriyatlarga sodiqlik bilan munosabatda bo'lish, ular kuchli, tashabbuskor, ishlashga ijodiy yondashishni bilishadi, lekin tayinlangan ishlar vijdonan, faqat kattalar rahbarligi ostida o'z vaqtida amalga oshiriladi;

-ular har doim faol emas, maqsadga erishishda qat'iyatlilikni qisman namoyon eta oladi.

-bolalar iqtisodiy tushunchalarning ma'nosini tushuntira olmaydi, oila ehtiyojlariga qiziqish ko'rsatmaydi, ota-onalarning ishi, zamonaviy jamiyatning atrofidagi hodisalari, nutqda iqtisodiy so'zlarni ishlatmaydi;

-samarali faoliyatga qiziqish bildirmaydi, faqat tashqi kuzatuvchilar sifatida harakat qiladi;

-ular ishni oxirigacha olib kelmaydilar, birgalikda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida qanday muzokara qilishni bilishmaydi, tezda ishlashga qiziqishlarini yo'qotadilar va o'z ishlarini qoldirib, o'yinga qaytishadi;

-shaxsiy va ijtimoiy mulkka nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga moyil emaslar; ishni bajarayotganda ular o'z natijalarida hech qanday qiziqish bildirmaydi; mas'uliyatsiz, tashabbuskor, maqsadga erishishda qat'iyatlilikni ko'rsatmaydi.

Adabiyotlar ro’yhati:

1.”Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi. — T., 2022.

2. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika. O’quv qo’llanma. — Toshkent, 2013.

3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. — T., 2017.

BOLALARNING MATEMATIK RIVOJLANISHIDAGI MODELLASHTIRISH USULLARI

Yorqinoy Ismoilovna Xashimova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Model uch xususiyatga ega bo‘lib, ular: xaritalash, abstraksiya va maqsaddir. Ya’ni, model real dunyodagi ma’lum hodisani xaritaga soladi modellash sub’ektini. Misol uchun, qandaydir bino oddiy yog‘och orqali kichik qilib modellashtirilishi mumkin. Ikkinchidan, model o‘sha hayotiy narsaning kerakli joylarinigina oladi-kerak bo‘lmagan nuqtalari mavhum qoldiriladi. Misol uchun, Eiffel minorasining bu modeli uni haqiqiy metallini yoki yerga qanday o‘rnatilganini ko‘rsatmaydi. Uchinchidan, model ma’lum bir maqsadda qilinadi, va aynan o‘sha maqsad nimani modellashtirish keragu nimani mavhum qoldirish kerakligini aniqlab beradi. Maqsad esa bu model ko‘rsatiladigan

auditoriya kimligiga qarab belgilanadi. Eiffel modelidan murod uni oddiy insonlarga ko‘rsatish bo‘lgani uchun u oddiy ishlangan, ammo u qandaydir arxitektorga kerak bo‘lganda umuman boshqacha holda modellashtirilishi ham mumkin edi. Endi, jarayonlarni modellashga qaytadigan bo‘lsak, uni tuzish vaqtida doimo uning maqsadi va auditoriyasidan kelib chiqishimiz kerak ekan. Jarayonlarni modellashtirishga asosiy maqsadlar ikki-xil: tashkiliy dizayn va dasturiy tizim dizayni. Tashkiliy dizayn uchun tuzilgan jarayon modeli odatda konsepsiyaga asoslanadi. Bu model jarayon analitigi tomonidan tuziladi va butun BJB tashabbusining Jarayonlarni O‘rganish fazasi davomida mutaxassislar o‘rtasida o‘zaro tushunish va aloqani osonlashtirish uchun ishlatiladi. Qo‘shimchasiga, ular jarayon analizi va qayta loyihalanishi uchun ham asosdir. Shuning uchun ham jarayonlar modeli o‘sha jarayonlar bilan bevosita ishlaydigan va ular ustida ishlaydiganlarga oson tushuniladigan bo‘lishi kerak. Dasturiy tizim dizayni uchun tuziladigan model esa Axborot Texnologiyalari kayfiyati bilan tuziladi va u tizim injeneri tomonidan bajariladi. Bu asosan keyinchalik jarayonlarni avtomatlashtirish davrida asos bo‘ladi.

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachi o‘qitishning har xil usullari — amaliy, ko‘rsatmali, og‘zaki, o‘yin usullaridan foydalanadi. Usulni tanlashda bir qator omillar mazkur bosqichda yechiladigan dastur masalalari, bolalarning yosh va individual xususiyatlari, zarur didaktik vositalarning mavjudligi va boshqalar hisobga olinadi.

Tarbiyachining metod va usullarning asosli tanlanishiga, har bir aniq holda ulardan ratsional foidalanishga doimo e’tibor berib turishi quyidagilarni ta’minlaydi:

- elementar matematik tasavvurlarning muvaffaqiyatli shakllanishi va ularning nutqda aks ettirilishi;

- tenglik va tengsizlik munosabatlarini (buyumni soni, o‘lchami, shakli bo‘yicha) idrok qilish va ajratish, natijaviy munosabatlar (o‘lchami yoki soni bo‘yicha orttirish yoki kamaytirish)ni, analiz qilinayotgan ob’ektlarning miqdori, shakli, kattaligini umumiy belgi sifatida ajratish, aloqa va bog‘lanishlarini aniqlash malakasi;

- bolalar o‘zlashtirgan amaliy ish usullari (masalan, qarshi qo‘yish, sanash, o‘lchash bilan taqqoslash)ni yangi sharoitlarda qo‘llashga yo‘naltirish va mazkur vaziyatda ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar, xossalar, bog‘lanishlarni aniqlash, amaliy usullarini mustaqil izlashga yo‘naltirish. Masalan, o‘yin shart-sharoitlarida belgilarning tartibi, almashinib kelish konuniyatini, umumiy xossalarni topishni o‘rgatish mumkin.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy metod yetakchi metod hisoblanadi. Uning mohiyati bolalarning buyumlar yoki ularning o‘rnini bosuvchilar (tasvirlar, grafik rasmlar, modellar va h.k.) bilan ishlashning jiddiy aniqlangan usullarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan amaliy faoliyatlarini tashkil qilishdan iborat.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy usulning xarakterli

xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- aqliy faoliyat uchun asos bo‘ladigan har xil amaliy ishlarni bajarish;
- didaktik materiallardan keng foydalanish;
- didaktik materiallar bilan amaliy ishlash natijasi sifatida tasavvurlarning paydo bo‘lishi;
- eng elementar usulda sanash, o‘lchash va hisoblash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- turmushda, o‘yinda, mehnatda, ya’ni faoliyatning har xil turlarida shakllangan tasavvur va o‘zlashtirilgan harakatlardan keng foydalanish.

Mazkur usul maxsus mashqlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu mashqlar ko‘rsatish uchun belgilangan material shaklida, tashkil qilinishi yoki tarqatma material bilan mustaqil ish ko‘rinishida topshiriq shaklida berilishi mumkin. Mashqlar hamma bolalar bir vaqtda yoki bitta bola doska yoki tarbiyachining stoli oldida bajaradigan yakka tarzda bo‘lishi mumkin. Hamma bolalar bajaradigan mashqlardan bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlashdan tashqari, nazorat qilish uchun ham foydalanish mumkin. Yakka-yakka tarzda bajariladigan mashqlar ham o‘sha vazifalarni bajaradi-yu, ammo ular bolalar faoliyatida yo‘nalish oladigan obraz (namuna) sifatida ham xizmat qiladi. Ular orasidagi bog‘lanishlar vazifalarining umumiyligi bilangina emas, balki doimo almashinib kelishi, qonuniy ravishda bir-birlarining o‘rnini bosishi bilan ham aniqlanadi.



Harakatli usullar va ularga mos tasavvurlar shaklidagi bilimlarni bolalar mashg‘ulotdan tashqari vaqtda oladi, o‘yinlar (syujetli — didaktik, didaktik va boshqa xil o‘yinlar)da esa shu bilimlarni aniqlashtirish, mustahkamlash, sistemalashtirish uchun yaxshi sharoitlar yaratiladi.

Elementar matematik tasavvurlarni o‘rgatish va shakllantirish metodi mashg‘ulotlarda har xil turdagi o‘yinlardan; uning alohida elementlaridan (syujetli-rolli, harakatli va b.), usullaridai (syurpriz moment, musobaqa, izlash va b.), o‘yin va didaktik bog‘lanishlarni kattalarning rahbarlik va o‘rgatuvchi roli hamda bolalarning bilimini faollashtirishni tarkiban birga qo‘shib olib borishdan foydalanishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaeva B.S va b Oliy matematika asoslari - Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2011.— 392 b.

2. Djanpeisova G.E., Xodjimuratova B.N.Matematik tasavurlarini shakllantirish. —T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

3. Jumayev M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi. — T., 2007 y.

BO’LAJAK TARBIYACHILARNING PEDAGOGIK MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA REFLEKSIV QOBILYATNING AHAMIYATI

Ixtiyorova O’g’iloy

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha talim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi
ixtiyorovaogiloy9@gmail.com

Barchamizga ma’lumki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim-tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasida fidokorona mehnat qilayotgan o'qituvchilarning va pedagog xodimlarning asosiy maqsadi va vazifasi bo’lishi kerak.

Bu ulkan javobgarlik hissi o’qituvchilarda pedagogik mahorat qirralarining turli jarayonlarini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirishni talab etadi va bu albatta bo’lajak tarbiyachilarni ham o’z nazaridan chetda qoldirmaydi. So'nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlamoqdalar. Bu qobiliyatlar asosini esa, o'qituvchining kasbiy refleksiyasi tashkil etadi. Refleksiya — «har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarni anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma’naviy dunyosining o'ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir». Bu jarayonlarni bo’lajak tarbiyachilarda ham shakllantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagoglarning refleksiv individualligi modelini yaratishni hozirgi kunda ko'plab olimlar taklif qilmoqdalar. Ma’lum pedagogik-psixologik sharoitlarda bo'lajak tarbiyachining shaxsiy kasbiy o'z-o'zini o'rganishini talqin qilishi boshlang'ich nazariy asos va jadval vazifasini o'taydi. Bo'lajak tarbiyachining professional refleksiyasini oliy ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayonini individualizatsiyalashtirish asosida rivojlantirish mumkin. Kommunikativ va shaxsiy refleksiyani o'rgangan V.A. Krivosheevning ta’kidlashicha, o'qituvchi o'z faoliyatida pedagogik

mahoratni o’zlashtirgani sari hamkasblari va o'quvchilar u haqida nima o'ylashlarini ancha yaxshi tushuna boshlaydi, chuqur o'zlashtirilgan bilim va pedagogik mahorat tufayli o'qituvchi o’z-o’zini baholashga kirishadi va bu jarayonda o’z o’zini anglab yetadi.

Turli fanlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni tahlil qilish mulohaza yuritish jihatlari, ularda o’z o’zini shakllantirilganlarini ko'rsatadi aks ettirishning ta'riflari amalda juda kichik emas bir-biriga teng, lekin ba'zida bir-biriga zid keladi, chunki ular turli xil uslubiy yo'nalishlardan kelib chiqadi (B.G. Ananyev, P.P. Blonskiy, L.S. Vygotskiy, S.J. Rubinshteyn, A.N. Leontyev va boshqalar). Mualliflar birinchi navbatda psixologik bilimlarning nazariy darajasi inson psixikasini tashkil etish va rivojlantirishning tushuntirish tamoyillari haqida mulohaza yuritishgan va eng avvalo, uning eng yuqori shakli — o'z-o'zini anglash deb hisoblashgan. Hozirgi vaqtda "aks ettirish" tushunchasi tushuntirish sifatida ishlatiladigan turli xil hodisalar va faktlar psixologik mazmunni ochib berish printsipi eksperimental tadqiqotlardan olingan.

Psixologik o'rganishning o'ziga xos mavzulari: fikrlash, xotira, shaxs ongi, muloqot va boshqalar B.V. Zeigarnik shizofreniyadagi motivatsion fikrlash buzilishlarini tushuntirish, ushbu patologiyaning rivojlanishida vositachilik va o'z-o'zini tartibga solish, "o'z-o'zini anglash” bilan bog'liq inson o'z qadr-qimmatini aks ettirish imkoniyati bilan buzilishlarning ahamiyatini qayd etadi. Muloqotni harakatlanuvchi, rivojlanayotgan tizim sifatida tavsiflovchi B.F. Lomovning ta'kidlashicha, uning muhim jihatlari empatiya va fikrlashdir. Turli xillarga nisbatan aks ettirishning integrativ funktsiyasi psixologik mavzular va amaliyot sohalarini ta'kidlaydi A.M. Matyushkinning fikricha : fikrlashni o'rganish - muloqot, o'yin, o'rganish, shaxsning kasbiy faoliyatining tuzilishi va shakllanish shartlarini o'rganish barcha hayotiy vaziyatlarga kiritilgan fikrlash, ya’ni o'z-o'zini tartibga solishning refleksiv mexanizmlariga ruxsat beradi.

O.K. Tixomirovning muammo bo'yicha nuqtai nazari xuddi shunday, refleksiya o'z navbatida fikrlash zarurligini qayd etadi va shaxsni aks ettirishning tarkibiy qismi bo'lib, uning ob'ektiga aylanadi

Inson xulq-atvori vositachiligini o'rganish, yuqori aqliy funktsiyalarni anglash va izchillikni o'z ichiga oladi, o'zimizni aks ettirish hodisasini majburiy ko'rib chiqamiz, bu bilan psixologiyaning asosiy fanlar toifalari: nazariy tafakkurni shakllantirish, o'z-o'zini anglash, qobiliyat va shaxsiyatni rivojlantirish. Va nihoyat, eng muhimi, reflekslilik jarayonlarning zaruriy komponenti shaxsning ijtimoiylashuvi va shaxslararo o'zaro ta'sir mohiyatiga ko'ra, ularning yuzaga kelishi uchun shart sifatida harakat qiladi. Reflektsiya – bu ko'p o'lchovli, fanlararo kategoriya, nutq falsafa, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, menejment, kibernetika va boshqalar bilan bog'liq ilmiy sohalardan biri hisoblanadi. Refleksiv jarayonlarning eng keng qamrovli tasnifi va hodisalarga asosiy yondashuvlarning aksariyatini hisobga olgan holda tadqiqotchilar I.N Stepanov va S.Yu. Semenov tomonidan taklif qilingan. Mualliflar nuqtai

nazaridan, aks ettirish faoliyatining maqsadi eng keng qamrovli ob'ekt haqida ma’lumot olish emas, balki ishtirokchilar uchun "aks ettiruvchi oyna" yaratish to'liq tushunish uchun tadqiqot va ekzistensial haqiqatni qayta ko'rib chiqish, u bilan birgalikda ijodiy munosabatlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Zamonaviy tadqiqotchilar tizim qobiliyatiga ega bo'lgan mexanizm o'z-o'zini tashkil etishi aks ettirish ekanligini ta'kidlashadi. Refleksiv qobiliyatlar qanchalik rivojlangan bo'lsa qanchalik ko'p refleksli modellar (usullar) bo'lsa, shuncha ko'p shaxs rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Refleksiv qobiliyatlar — bu, asosan, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tuzatish, ta'sir qilish uchun sharoitlarni ta'minlash umuman shaxsning rivojlanishi va uning dunyo bilan munosabatlari haqidagi fikrlarini shakllanishidir.

Shunday qilib, aks ettirishning o'ziga xosligi birinchi navbatda - bu o'zingizga tashqi tomondan qarashning bir usuli ya’ni o’zini tashqi tomondan kuzatib, anglab yetishi hisoblanadi. Bunday o'z-o'zini kuzatish modellari juda boshqacha bo'lishi mumkin, masalan, siz o'zingizning fikringizni o'zingizga qaratishingiz mumkin va o'zingizni ob'ekt sifatida kuzatishga harakat qilinadi. Bunday aks ettirish introspektsiyaga yaqin bo'lib, ba'zan noto'g'ri bo'ladi aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga yoki undan farqlashga harakat qiladi. Mulohaza o'z-o'zini anglashning bir usuli bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg’or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2019 yil 11 iyundagi 487-sonli qarori.

2. “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori.

3. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik. — T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011. -289-298 b.

4. Safaev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti. –T., 2013.

5. Цахаева А.А., Аминова Д.К., Аминов У.К. Рефлективное развитие как адаптационный потенциал профессионального развития личности будущего психолога //Успехи современной науки и образования, 2016. Т.3. № 4. — С. 6-9.

IJTIMOIY HAMKORLIK ASOSIDA PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA TALABALARNING KASBIY KOMPENTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Artikbayeva Aziza Abrorovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi kunda malakaviy pedagogik amaliyot jarayonining ta’lim sifatini oshirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur amaliyotning maqsadi bo’lajak mutaxassislarni amaliy-kasbiy ko’nikmalarini shakllantirish va pedagogik faoliyatga tayyorlash.

O'zbekistan Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli taxlil kilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Malakaviy pedagogik amaliyotning vazifasi –talabalarni MTTning ta’lim muhitiga moslashtirish, malaka va ko’nikmalarini shakllantirish, nazariy olingan bilimlarni mustahkamlash, rivojlantirish va amaliyot jarayonida qollashdan iborat.

Respublikamiz ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, XX asrning oxiriga ko‘ra fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi tafovut tufayli o‘z mavqeyini yo‘qotdi, bu esa ishlab chiqarishning keskin pasayishiga olib keldi. Ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqani qo‘llab-quvvatlamasdan turib, fan, texnika taraqqiyotini ta’minlash va sanoat korxonalarining zamonaviy ehtiyojlariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash qiyin.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, o‘zgaruvchan mehnat bozorining shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va talabalarning kasbiy kompentensiyalarini rivojlantirish uchun uning maqomini oshirish lozim. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish darajasiga mos keladigan kasbiy kompetensiyalarga ega zamonaviy mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

“Kompetensiya” to‘grisda tushuncha beradigan bo‘lsak – fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir.

Shuningdek kasbiy kompetensiyalarning turli tasniflari mavjud. R.V. Gurinaning so‘zlariga ko‘ra, kasbiy kompetensiyalar, asosiy va maxsus qismlardan iborat. Asosiy kompetensiyalar — har qanday zamonaviy mutaxassisning samarali kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan umumiy kompetensiyalar. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun talabalarning loyihalash faoliyatiga asoslangan umumiy kasbiy fanlarni birlashtirishni o‘z ichiga olgan va

eksperimental-qidiruv ishlarida sinovdan o‘tgan psixologik-pedagogik vositalar to‘plami va ularni tayyorlashda mavjud yondashuvlar taklif etiladi.

Ko’rinib turibdiki, talabalarning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida malakaviy amaliyot jarayoni samarali olib borilmog’i lozim. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish tarkibi va tuzilishini aniqlashtirish va fanlarini integratsiyalashuvi asosida ularni rivojlantirish imkoniyatlari asosida, ilmiy va uslubiy darajada mavzuning dolzarbligi kasbiy rivojlanishning asosiy muammosi ekanligini tushunish bilan bog‘liq. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalrning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o‘z ichiga olgan samarali texnologiyalarni qo’llash asosida talabalar uzluksiz ta’lim jarayonini malakaviy amaliyot bilan bog’liq holda olib borilishi talabalarning kasbiy faoliyatini yanada rivojlantirish bilan bog’liqdir.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv doimiylikni o‘z ichiga oladi. Shu bilan talabalarni doimiy mulohaza yuritishga undaydi (maqsadlarni belgilash, muammolarni aniqlash, rejalashtirish, mavzu bo‘yicha ishni tashkil etish, faoliyatni tuzatish, loyihalash). O‘quv jarayoni esa talabalarning imkoniyatlari, moyilligi va bevosita manfaatlaridan kelib chiqib, rivojlanish asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, talabalarning ta’lim faoliyati kelajak kontekstida quriladi va kasb-hunarga ega va kasbiy bilim va texnologik ko‘nikmalarning rivojlanishini ta’minlaydi.

Inson psixologik ekvivalenti, aqliy (kognitiv) tuzilmalari orqali dunyoni taniydi, uni ko‘radi va tushunadi, bu esa uning hayotiy faoliyatida fikrlash, nutq, xotira, xulq-atvor, kasbiy faoliyatda ifodalanadi. Shunday ekan, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish, kasbiy kompetensiya turli kasbiy vazifalarni hal qilish uchun turli faoliyatlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bo‘lajak mutaxassisning umumiy kasbiy tayyorgarligini belgilaydi, yangi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish va egallashga, shunigdek kasbiy mahoratini oshirish imkoniyatlarini beradi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida fanlarni integratsiyalashuvi asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni samarali texnologiyalarni aniqlash imkonini beradigan pedagogik muhitning xususiyatlari quyidagicha tizimlashtirilgan:

• shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar ichki imkoniyatlar, “yashirin” qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan. Talabaning ijtimoiy va kasbiy o‘zi qiziqqan sohasidagi qobiliyatlari va imkonyatlari, xatti-harakatlar va faoliyat usullarini mustaqil tanlash asosida.

• o‘quv va kognitiv faoliyatni o‘rganish texnologiyasi, pedagog ta’siri yordamida bolani passiv holatdan faol holatga o‘tishga imkon beradi.

Malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish jarayonlari natijasida bo’lajak tarbiyachilarning o’z ustida izlanishi, o’z mutaxassisligi bo’yicha yetarli bilim va ko’nikmalarni, kasbiy mahoratini

oshirishi hamda o’z faoliyati jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo’llashi, yangi innovatsiyalarni ta’lim tizimiga olib kirishi, tarbiyachi pedagoglarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatga kreativ yondashuvi, kreativ o’qitishning uslub va usullarini ozlashtiradilar.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Боброва Е. Б. Формирование профессиональных компетенций студентов в процессе прохождения практики и создание портфолио: Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании», 2009

2. Вульфов Б.З., Харькин В.Н. Педагогика рефлексии. — М.: Эгвес, 1996.

3. Климов, Е.А. Пути в профессионализм (психологический взгляд) /Е.А.Климов. - М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 2011. -320 с.

31. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.

32. Марасулова Д. Н. АУТЕНТИЧНЫЕ ВИДЕОМАТЕРИАЛЫ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА //Results of National Scientific Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 252-259.

33. Марасулова, Д. Н. (2024). ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В ОБУЧЕНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *17*(2), 204-208.

34. Marasulova, D. N. (2023). MAKTABGACHA TA’LIMDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISH. *GOLDEN BRAIN*, *1*(32), 26-30.

35. Marasulova, D. (2023). Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, *1*(1).

36. Jorayeva, N. T., & Marasulova, D. N. (2024). EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. *World of Scientific news in Science*, *2*(2), 37-43.

37. Marasulova, D. N., & Alovatova, L. S. (2023). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘RGATISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 47-50.

38. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ekologik madaniyat Mustaqil ta'lim, ijodkorlik, integral texnologiya va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. *Farmatsevtikaning salbiy natijalari jurnali* , 2524-2529.

"MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQ O'STIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI"

Ochilova Xilola Sheraliyeva

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim texnologiyasi kafedrasi o'qituvchisi
Dhdhdiid625@gmail.com

Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojiantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha ta'lim yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bularning hammasi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'im yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi voqealardagi muhim va muhim bo'lmagan tomonlarini ajrata oladigan ba'zi bir sabab natijali bog'lanishlarni bilib oladigan bo'lib qoladilar. Ularda o'quv faoliyatining dastlabki ko'rsatkichlari shakllanadi. Shuning uchun bog'cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmaliharakatli, ko'rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi.

Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib toptiriladi bu hodisalarni, voqealarni, chuqur anglab olish, ularni muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatish lozim. Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak-atrofdagi

voqeahodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashga, hamma narsani ushlab his qilib, diqqat bilan tomosha qilishni ktizatishda namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni fikrini mustaqil javob qidirishga yo‘llab, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo‘l qo‘ymaydi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Bolalar bog‘chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Insonning aqliy qobiliyati aqlining ziyraklik - fahm-farosatlilik, tanqidiy ko‘z bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatlari bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, ya’ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko‘nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo‘lib, bolaning bilimlarini muvaffaqiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan: o‘simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish bo‘yicha sistemali mashg‘ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim konkret o‘simliklar yoki hayvonlar to‘g‘risida ma’lum bir tasavvurga ega bo‘ladilar.

Ilk va bog‘cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo‘lgan qiziqish juda tez o‘sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo‘lgan har qanday xohishini sezishlari va rag‘batlantirib borishlari kerak. Aqliy tarbiya vazifalari bolani maktab ta’limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko‘nikmalarini egallab olishlari ularni maktabda muvaffaqqiyatli o‘qishlari uchun bo‘lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo‘lib xizmat qiladi. Odamning aqliy faoliyati - bu umumiy ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarining katta miqdoridir.

Ko‘pgina vazifalarni hal etishda qo‘llaniladigan keng ko‘lamdagi aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa, muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi. Ham umumiy, ham maxsus aqliy harakatlarni egallash aqliy faollik va mustaqillikning rivojlanishini ta’minlaydi. Aqliy faoliyatning moslashuvchanligi va jo‘shqinligini, hodisalarni xilma-xil aloqalar va munosabatlarda ko‘ra bilishni shakllantirishga yordam beradi. «Aqliy mehnat madaniyati» tushunchasiga aqliy faoliyatning umumiy tartibliligi, rejaliligi, vazifani qabul qilish va o‘rtaga qo‘yish, uni hal etish usullarini tanlash, ishlab chiqilgan harakat rejasini izchil amalga oshirish natijalarini baholash mahorati kiradi. Aqliy mehnat madaniyati aqliy faoliyatning maxsus malakalari va ko‘nikmalarini, kitob bilan ishlash ko‘nikmalarini egallash darajasi, ilmiy bilish usullari va metodlarini, turli yordamchi vositalardan foydalanish bilan ham bog‘liqdir. Aqliy

tarbiya vazifalaridan har biri maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashni tashkil etishda hisobga olish lozim bo‘lgan bir qancha vazifalarni o‘z ichiga oladi. Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko‘rsatkichining yuqoriligida ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kattalar bilan bevosita muloqot qilish bola nutqiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdagilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to‘g‘ri talaffuz qilishni, so‘z larni to‘g‘ri qo‘llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda (pedagoglar, ota-onalar, oila a'zolarida), atrofdagi bolalarda uchrab turadigan nutq nomukammaliklarini ham o‘z lashtirib oladi. Bolalarning nutq madaniyati pedagogning nutq madaniyatiga bevosita bog’liq bo‘ladi. Doimo kichkintoylarning diqqat-e'tibori markazida turadigan va ular bilan muloqot qiladigan tarbiyachining nutqi bolalar ona tili, nutq madaniyati namunalarini oladigan asosiy manba hisoblanadi, Shuning uchun u nafaqat to‘g‘ri so‘z lashi, ona tilining barcha tovushlarini aniq va tushunarli qilib talaffuz etishi, balki u muayyan balandlikdagi ovozda bosiqlik bilan so‘z lashi, uning nutqi intonatsion jihatdan ifodali, grammatik jihatdan to‘g‘ri rasmiylashtirilgan, ravon, tushunish uchun oson bo‘lishi hamda so‘z bilan belgilash to‘g‘ri va aniq amalga oshirilishi lozim. Tarbiyachining ifodalilik vositalaridan foydalangan holda o‘qigan hikoyasi bolalarda qiziqish uyg’otadi, ularda qayg’urish, so‘z kuchini his qilish, uning mazmunini anchagacha yodda saqlab qolish imkonini beradi; agarda aynan shu hikoya tez va quruq ohangda his-hayajonlarsiz o‘qib berilsa, u faqatgina badiiy asarga nisbatan zerikish va befarqlikni shakllantiradi. Pedagog o‘z nutqiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lishi va unda kamchiliklar borligini sezsa, ularni darhol bartaraf etishgi intilmog’i lozim. Biroq, o‘z nutqining kamchiligini aniqlash har doim ham oson kechmaydi, chunki muloqot jarayonida so‘z lovchining diqqat-e'tibori eng avvalo nutqning shakliga emas (qay tarzda aytish), balki uning mazmuniga (nimani aytish) qaratilgan bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘z nutqiga nisbatan beparvolik bilan munosabatda bo‘lish natijasida ayrim kamchiliklar tilga qattiq o‘rnashib qolishi va keyinchalik so‘z lovchi uni sezmay qolishi mumkin. Masalan, nutqning shoshqaloqligi, tushunarsizligi, bir ohangdaligi (monotonligi), ovozning kuchliligi, ayrim tovushlar, so‘z larni noaniq talaffuz qilish kabi nuqsonlar sezilmasdan qoladi. O‘z nutqining nomukammalliklari haqida bilish uchun pedagog o‘z o‘rtoqlarining mulohazalariga quloq tutishi darkor. Ochiq darslarni magnitofonga (videokassetaga) yozib olish va uni keyin muhokama qilish maqsadga muvofiqdir. Shunda tarbiyachi nutqini tovush, leksik vositalaridan foydalanish, grammatik jihatdan rasmiylashtirish nuqtainazaridan tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Ayni paytda shuni hisobga olish lozimki nutqni yozib olish chog’ida tarbiyachining o‘zini-o‘zini nazorat qilishi evaziga nutq sifati yaxshilanadi. Shuning uchun nutqda aniqlangan kamchiliklarga tarbiyachining o‘z i va uning o‘rtoqlari diqqat-e’tibor bilan yondoshishlari zarur. Shu bois tarbiyachi notiq, kreativ va qobiliyatli bo‘lishi kerak. Chunki, bolajonlar unga qarab so‘z lashni

o‘rganadi. Bolalarning nutqi eng ko‘p rivojlanadigan yosh davri Maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelganida boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Edited by N.F. McGinn and E.H.Epstein Comparative Perspectives on the Role of Education in Democratization Frankfurt am Main; Berlin; Nev York; Lang, 1999

2.R.M.Qodirova. O‘z bekiston bolalar bog‘chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o‘rgatish. T., “O‘qituvchi”2003

3.F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o‘z bekcha so‘z lashishga o‘rgatish. T., “O‘qituvchi” 2000

4.R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog‘och, 2013.

5.Babayeva D.R. “Nutq o‘stirish metodikasi” T.: TDPU 2016-yil. O‘quv qo‘llanma.

ВОСПИТАНИЕ ЧЕРЕЗ ПРОСТРАНСТВО ДЕТСКОЙ САМОРЕАЛИЗАЦИИ

Нурбаева Инобат Тулкуновна,

преподаватель кафедры психологии и педагогики дошкольного образования ТГПУ имени Низами Inobat2379@gmail.com

Дошкольный возраст — это период жизни человека, где обнаруживаются и развиваются способности детей, познаётся мир, и дети учатся взаимодействовать с ним.

Важно с раннего возраста учить детей мыслить критически, на основе полученной информации принимаются обдуманные решения и формируется собственное мнение.

Мышление как психический познавательный процесс проходит несколько ступеней развития. Примерно от года до трёх лет начинается формирование наглядно-действенного мышления. В этот период дети получают информацию об окружающем мире изучая цвет и запах, разбирая и собирая предметы, ощупывая их, ломая, пробуя на вкус и т.д. Примерно с четырёх до семи лет дети воспроизводят образы в памяти — формируется наглядно-образное мышление. Примерно с семи лет складывается словесно-логическое мышление - дети учатся мыслить такими абстрактными категориями и понятиями, как счастье, красота и так далее.

Ещё в дошкольный период закладывается фундамент особого вида мышления — критическое мышление. Это умение ставить под сомнение поступающую информацию, обдуманное решение и формирование собственного отношения. Критически мыслящий ребёнок всегда сможет объяснить, почему он согласен или не согласен с мнением собеседника, учитывая его логику.

С помощью различных видов игр, практических упражнений и повседневного общения важно развивать любой из этих видов мышления

Дети сами стремятся к развитию – так заложено природой. Поддержать ребёнка и его интерес к личностному росту не так сложно, и именно педагоги и родители могут помогать им в этом

Дети дошкольного возраста любознательны и с удовольствием задают вопросы. Но и родители должны задавать вопросы своим детям. Это очень важно, поскольку задавать вопросы дети учатся сначала в семье, от родителей или братьев с сёстрами, а потом уже в образовательной организации. Дети должны видеть то, как сам родитель задаётся вопросами.

Необходимо научить не бояться ситуаций, когда нет известного ответа. Смотреть шире и выходить за рамки обыденного, формируется умение получать удовольствие от создания идей.

Развитие критического мышления предполагает организовать определённую среду ребёнка для проявления посильной самостоятельности. Система правил и традиций вежливости и любезности, формирует положительное само отношение, дети хотят и умеют договариваться.

Опыт построения рассуждений о том, как и зачем следует поступать тренирует рефлексивность, умение думать и рассуждать о своих поступках, о знании и не знании чего-то, умение поставить себя на место другого.

Важно создавать пространство детской реализации, в котором ребёнок порождает новые продукты, а взрослый поддерживает его в этом. Пространство детской реализации требует другого типа общения взрослого и ребёнка. Взрослый вслушивается в голос ребёнка, чтобы понять детский замысел и помочь, не только его реализовать, но и создать условия, показывающие значимость сделанного для других.

Играя, проводя опытническую деятельность ребёнок сам делает вывод, постигает свойство, формулирует закономерность или правило. Дети делятся своими открытиями в групповой работе. Начиная со старшего дошкольного возраста, дети постоянно выполняют проекты. Они разыскивают информацию по теме или вопросу, систематизируют её и делают презентацию результатов исследовательской работы.

Дети сами ставят перед собой простейшие исследовательские задачи, например, соотнесения того, что видит, с тем, что можно сделать, учатся прогнозировать возможные действия на основе видимого. Используют свой опыт для самостоятельной формулировки алгоритма решения задач, ставят проблемные вопросы и решают их. Дети, работая в маленьких группах, ведут обсуждение, готовятся к презентациям, задают вопросы и отвечают на них. Следовательно, у детей накапливается положительный и конструктивный опыт обсуждения различных точек зрения. Именно позитивный опыт такого рода воспитывает личность, имеющую свою позицию, а не зависимого от чужого мнения человека.

Каждое задание побуждает думать, стимулирует фантазию, учит выходить за рамки привычного. На каждое задание можно использовать много вариантов ответов. Доброжелательная, вежливая атмосфера сотрудничества располагает к тому, чтобы дети стремились найти максимально точное описание и понимание реальности.

В режиме дня у детей должно быть время для самостоятельных игр. Именно в этом процессе дети развивают свои навыки коммуникации, учатся договариваться, планируют сообща, находят ресурсы для реализации задуманного, придумывают сюжеты игр, учатся отстаивать своё мнение и принимают много решений. Дошкольные среда, наполненная развивающими материалами, удовлетворяет потребности детей в манипулятивной деятельности, развитии и упражнении чувственного восприятия, мелкой и крупной моторики. Познание через движение и ощущение даёт пищу для мышления. Обучение в движении – это всё существование ребёнка, его развитие, его обучение, и главное – воспитание через самореализацию, которая возможна в свободе действий, мыслей и чувств. Дети познают мир через ощущения и движение, которые позволяют сбалансировать все процессы в теле, активизировать правое и левое полушарие, развивать крупную и мелкую моторику, стимулировать умственные и творческие способности. Это возможность быстро восстановить ясное мышление, эффективно осваивать мир и комфортно себя чувствовать.

Абсолютно каждому ребёнку необходимо развивать креативное мышление, так как это ценное умение находить связи там, где их нет. Оно также означает умение генерировать большое количество вариантов ответов для одной ситуации и умение переучиваться, отказываться от того, во что верил, чему обучали, и находить, изучать новое.

Способ организации образования через развивающее пространство является благодатным полем для развития критического мышления у детей, важно предоставлять возможность такого развития своевременно.

Литература:

1. Бутенко А.В., Ходос Е.А. Критическое мышление: метод, теория, практика // Учеб.-метод. пособие. М.: Мирос. – 2002.

2. Загашев И.О. Критическое мышление: технология развития. — СПб, 2012.

3. Загашев И.О., Заир-Бек С.И., Муштавинская И.В. Учим детей мыслить критически. — СПб., 2003.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH

Akramova Dildora Ergashboy qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi o’qituvchisi

dildoraakramova29@gmail.com

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan va juda murakkab jarayon. Bir tomondan har qanday jamiyat o`z rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o`rganib mazkur jamiyatda yashash, uning to`laqonli a'zosi bo`lish imkoniga ega bo`ladi. Uning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq tarzda ta'sir ko`rsatadi, uni ta'lim va tarbiya doirasida amalgi oshiradi. Ikkinchi tomondan, uning shakllanishiga turli g`oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir kqrsatadi. Uning uchun bunday yo`nalishlar, stixiyali ta'sirlar yig`indisi har doim ham milliy mustaqillik manfaatlariga javob bermaydi. Jamiyat o`z tuzilishiga yega turli xil o`zaro bir-biriga bog`liq va bir-biriga ta'sir etadigan davlvt jamoat institutlariga ega bo`lib, ular ijtimoiy hayotni tashkil etish va boshqarish shakllarini anglatadi. Odamlar bu ijtimoiy normalar ijtimoiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o`rganadilar. Ammo turli xil ijtimoiy institutlarning g`oyaviy tarbiyadagi roli bir xil emas. Ulardan biri bolaning rivojlanishi va ijtimoiy tiklanishi uchun ularga tabiiy ta'sir ko`rsatsa, boshqasi shaxsning shakllanishi uchun maqsadga muvofiq vazifani bajaradi. Bular ijtimoiylashtirish institutlari nomini olib, ularning arkibiga oila, ta'lim, madaniyat va din kabilar kiradi.

“Ijtimoiylashuv” so’zi dastlab siyosiy-iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy-iqtisodiyotda yer, ishlab chiqarish vositalarining umumiylashuvi ma’nosini anglatgan. “Ijtimoiylashuv” atamasining muammoli deb bu atamani “Ijtimoiy nazariyasi” (1987) kitobida hozirgiga yaqin ma’noda qo’llagan amerikalik sotsiolog F.G.Keddings hisoblanadi. Uning zamonaviy ma’nosi-“ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir. XX asr o’rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini uning butun umri

mobaynida o’rganuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli konsepsiyalarining tahlili uni shartli raivshda ikki asosiy yondoshuvga ajratish imkonini beradi:

-sub’ektiv-ob’ektiv. Unda insonga jamiyat ta’sirining passiv iste’molchisi sifatida qaraladi (E.Dyurkgeym, T.Parsons)

-sub’ektiv-sub’ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o’rni, uning hayotiy holatlarga ta’sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko’proq mos tushadi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o’zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o’zgarishi bilan aniqlanadi.

Ijtimoiylashuv jarayoniBolaning ijtimoiylashuvi xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning hamma narsani egallashga bo’lgan ob’ektiv ehtiyoji jarayonidapaydo bo’ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir ob’ektiv ehtiyoj -o’ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro’y beradi. Bu hodisa shunda namoyon bo’ladiki, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo’ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo’ladi. SHunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o’zaro bog’liq yo’nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o’zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o’ziga xoslikni qo’lga kiritish). SHu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan bog’liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni insonning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir. moslashuv sub’ekt va ijtimoiy muhit faolliklarining yaqinlashuv jarayoni va natijasidir.

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. SHunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.

Indivuallashuv insonning xali yoshligidayoq paydo bo’ladigan ob’ektiv ehtiyojlari bilan bog’liq jamiyatdagi o’z-o’zini egallashdir. Bu ehtiyoj: a) o’z qarashlariga ega bo’lish; b) o’ziga xosliklariga ega bo’lish; v) unga tegishli bo’lgan masalalarni hal qilish, uning o’z darajasini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish xohishi sifatida namoyon bo’ladi.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuaalashuv jarayonlari o’rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro’y beradi. Shu bilan birga bu yerda shaxs va muhitning o’zaro ta’sir etish ham sodir bo’ladi. Shunday qilib, muvaffaqqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o’rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon 3 asosiy sohada amalga oshadi:

- faoliyat-turlarning kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish.

- muomala-muomala doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish.

- anglash-shaxsiy men obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o'z ijtimoiy mansubligi va o'rnini anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish.

Ijtimoiylashuv vositalari. Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: go'dakni emizish va g'amxo'rlik qilish usullari, maishiy va gigiyenik yurish-turish qoidalari, insonni o'rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari-muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug'ullanish kiradi.

Har bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh ijobiy va salbiy ta'qiqlar man etish, ruxsat berish, majburlash chora-tadbirlarini ishlab chiqshadi. Bu choralar yordamida inson xulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me'yoriy qadriyatlarga moslashtiriladi. Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari muomala hamda faoliyatdir. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan. Bolaning me'yorida rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri bu muomala. Muomala va faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo'llaniladi:

-go'daklik davri-bevosita hissiy-ruhiy;

-go'daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat;

-maktabgacha davr-rolli o'yinlar;

-ilk maktab davri-o'quv faoliyati;

- o'smirlik davri-kasb ta'limi faoliyati;

-o'spirinlik davri-shaxsiy muloqot faoliyati.

Ijtimoiylashuv agentlari.Insonning voyaga yetishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo'lgan kishilar muhim o'rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo'ladi. Bolalar va o'smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo'shnilar agent bo'lishlari mumkin. Yoshlik davrig kelib agentlar qatoriga turmush o'rtog'i, hamkasblari ham qo'shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o'rinlariga, inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga qarab agentlar ham farqlanadi: faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko'rsatmaydigan.

Adabiyotlar ro’yhati:

1. Akramova, D. (2022). activities of future teachers-psychologists in the system of preschool education. *science and innovation*, *1*(8), 322-326.

2. Акрамова, Д. Э. (2023). совершенствование технологий развития механизмов педагогической и психологической гибкости у студентов как проблема современности. *образование наука и инновационные идеи в мире*, *13*(8), 19-23.

3. Akramova, D. E., & qizi Azimova, X. D. (2023, january). maktabgacha ta’lim yo ‘nalishi talabalarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi. in *international conferences* (vol. 1, no. 2, pp. 382-385).

4. Akramova, D. E., & qizi Suvonqulova, M. D. (2023, january). rivojlantiruvchi markazlarda bolalarni maktabga tayyorlash va milliy qadriyatlar namunalaridan foydalanishning afzalligi. in *international conferences* (vol. 1, no. 2, pp. 393-396).

5. Akramova, D. E., & qizi Ne’matova, S. S. (2023, january). bo ‘lajak pedagoglarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishdagi omillar. in *international conferences* (vol. 1, no. 2, pp. 390-392).

KOMPARATIVISTIK YONDOSHUV VOSITASIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

M.M.Xo`jabekova

ADPI, Maktabgacha ta`lim metodikasi kafedrasi katta o`qituvchisi

Bugungi kunda bo`lajak tarbiyachilarga qo'yilayotgan talablari kundan-kunga ortib bormoqda hamda bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalda bajarish tarbiyachining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda tarbiyachi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo'lishi lozim chunki, u kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma'naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish tarbiyachidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. Tarbiyachining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Kreativ so`zi (lot., ing. "create"-yaratish, "creative"yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib tarbiyachining kreativligi deb uning fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.

"Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik ko`nikmasini aniqlagan. [1, b.13] Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.

2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.

3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlari ni muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan:

• Kreativ fikirlash ko'nikmasini shakllantirish;

• Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish

• Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;

• Kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa tarbiyachining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi.

Xo‘sh, kasbiy mahorat nima? Uning ta’rifi va tavsifini keltirishda birinchi navbatda pedagogik mahorat tushunchasiga murojaat qilinadi. Pedagogik mahorat bu – fahm-farosat va chinakam ilmiy bilimlarning, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo‘lishlik, tarbiyalanuvchi qalbining qandayligini his qilish mahorati (empatiya), ichki dunyosi, bola shaxsiga mohirona, avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, hayol va fantaziyaga boy bo‘lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tarbiyachi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi.
2. Pedagogik iste’dod, qobiliyat.
3. Pedagogik texnika (san’at).

4. Tarbiyachining shaxsiy intilishi.

Pedagogik mahorat nazariyasining tahlilida shunday xulosa qilinadiki, tarbiyachilarning har biri o‘z-o‘zicha, paypaslab ijodiy izlanish olib boradi: bolalar bilan, pedagogik jamoa bilan qanday qilib yaqindan til topish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ichida bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq mumkin? degan savollarga javob izlaydi. Bu savollarga beriladigan javoblar har bir mohir tarbiyachining faoliyati uchun zarur bo‘lgan umumiy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur muammoni hal qilish tarbiyachidan odatdan tashqari kuch-g‘ayrat, qat’iyat, tirishqoqlik, ijodiylikni, o‘z faoliyatini to‘g‘ri baholay bilish, shuningdek, tarbiyalanuvchilarga nisbatan insonparvarona munosabatda bo‘la olishni talab etadi.

Ibn Sino “Tadbiri manzil” asarida bola uchun tarbiyachi tanlayotganda uning to‘g‘ri so‘z, halol, toza-ozoda va bolalarni sevuvchi kishi bo‘lishiga e’tibor berish lozimligini ta’kidlaganida tarbiyachining insonparvarlik sifatini nazarda tutgan edi. Har bir insonda u yoki bu kasbga qobiliyat mavjud bo‘ladi. Ba’zi taniqli ruhshunoslarning fikricha (F.Gonobolin, N.Kuzmina), tarbiyachilik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi:

1. O‘rtaga tusha bilish.
2. Tashkilotchilik.
3. O‘zini idora eta bilish.
4. Mo‘ljallay olish, chamalay bilish.
5. Kuchlilik, zehnlilik.
6. Faoliyatga ijodiy yondashish.

Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo‘lgan, insonparvarlik nuqtai nazaridan turib yondashilgan taqdirdagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin. Pedagogik texnika – pedagogik mahoratning asosiy qismlaridan biri bo‘lib, u tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar bilan muomala qilganda zarur so‘z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o‘tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi. Haqiqiy tarbiyachi ta’sir ko‘rsatishni tarbiyachining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir paytda yaqqol ko‘rinadi. Nutq, imo-ishora, mimika harakat bilan birga sodir bo‘ladi.

Tarbiya berish jarayonida bolalarda nafaqat qoida va xulq-atvor me’yorlari, balki barcha ijobiy fazilatlar shakllantiriladi. Buning uchun tarbiyachida pedagogik mahorat shakllangan bo‘lishi lozim. Pedagogik mahorat inson tarbiyasini amalga oshiruvchi o‘quv-tarbiya ishlarining samarali bo‘lishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan tarbiya jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, uni hech qaysi jarayon bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Har qanday amaliy faoliyat, insonning eng yuqori ma’naviy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradi. Ehtiyojlar insonga tegishli bo‘lib, o‘ziga xos

xususiyatlarni tashkil etadi va u albatta san’atga aylanadi. Bunda pedagogika asosiy o‘rinda turadi, chunki u insonning eng muhim ehtiyojlaridan birini qondirishga harakat qiladi. Pedagogika inson va uning tabiati ya’ni uning qalbini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu fanning asosiy maqsadi mukammal shaxsni shakllantirishdan iborat. Pedagogik mahorat pedagogik san’at bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, pedagogik mahoratning eng yuqori darajada namoyon bo‘lishidir. Ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri, balki dialektik jihatdan ham bog‘liq. San’at barcha amaliy faoliyatning turlariga dahldor bo‘lib, u mohirona va mahorat bilan amalga oshiriladi. San’at harakatning ijodiy ifodasi bo‘lib, u ijodiy-badiiy faoliyat natijasidir. Ya’ni, biror ish yoki kasbni mohirona amalga oshirishdir. San’at ijodni namoyon bo‘lishi, amaliy faoliyatning har qanday shakli hisoblanadi. Mahorat barcha kasb egalarining faoliyatida namoyon bo‘ladi, masalan, aktyor, yozuvchi, tarbiyachi, shifokor, duradgor va boshqalar. Avvalo, mahorat tarbiyachi shaxsining ijodkorligi bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi. Pedagogik faoliyatda esa kreativ yondashuv asosiy omil hisoblanadi. Kreativlik (ijodiylik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. Pedagogik mahorat nazariy bilimlarni emas, balki aniq faoliyatni ko‘rsatadi. Pedagogik adabiyotlarda pedagogik mahorat turlicha talqin qilinadi. Pedagogik mahorat kasbiy ko‘nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi, shaxsning kasbiy sifatlari, san’at darajasidagi mahorat, pedagogik mohirlik, san’at va bilimdonlik deb ta’riflanadi.

Pedagogik mahorat pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlarining sintezidir.

Demak, pedagogik mahoratni doimiy ravishda mukammalashib boruvchi, har bir tarbiyachi uchun qulay bo‘lgan ta’lim-tarbiya berish san’ati, deyishimiz mumkin. SHuningdek, pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning eng yuqori darajasi, deb tavsiflanadi. Mahorat pedagogik faoliyatning eng yuqori cho‘qqisi bo‘lib, muayyan vaqt mobaynida samaraga erishishdir [3, b.21-24].

Pedagogik mahorat tarbiyachi shaxsining o‘ziga xos xususiyatlar majmui bo‘lib, kasbiy faoliyatning mustaqil tashkil etishni ta’minlovchi, refleks asosida amalga oshiruvchi jarayon hisoblanadi. Pedagogik mahorat tarbiyachining mukammal ijodiy kasbiy vazifasini bajarish san’atidir. Har bir ta’lim oluvchiga shaxs sifatida shakllanishi uchun ijtimoiy-psixologik sharoit yaratish, aqliy rivojlanishini yuqori darajada ta’minlash, ularda odob-axloq sifatlarini tarbiyalash va ma’naviy jihatdan boyitishdan iborat. Mahorat va san’at tarbiyachining ta’lim oluvchini shaxs sifatida har tomonlama tarbiyalash ko‘nikmasi hisoblanadi. Pedagogik mahorat har bir shaxsning rivojlanishidagi ma’naviy muhit, uning cho‘qqilarni zabt etish ruhini o‘zida mujassamlashtirib, o‘zining «MEN»ligini ko‘rsatib, insoniyat qadriyatidagi kuchlarni yig‘ib, o‘zining yolg‘iz

emasligini his qilibgina qolmasdan, ma’naviy boy bo‘lishni ham ta’minlaydi.[4, b.2]

Adabiyotlar ro`yhati:

1. https://cyberleninka.ru/viewer_images/18871056/f/1.png

2.Усмонбоева М., Тўраев А. “Креатив педагогик асослари” модули бўйича Ўқув-услубий мажмуа. –Т.: 2016. 4-бет.

3.Xo`jabekova M.M “Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachilarning kasbiy mahorati va tajribalarini tizimli rivojlantirish usullari” nomli magistrlik dissertatsiya ishi 21-24 betlar 2020-yil

4.Olimov Q.T. “Zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha xorijiy tajribalar” moduli bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. –T.: 2015. 2-bet

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA TASHKILOTCHILIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Kadirova Nilufar Mirkarim kizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi talablari asosida, hamda “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi” kabi me’yoriy huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan etuk insonlar bo'lib voyaga etishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intelektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyillik tuyg'ularini kamol toptirish kabi ulkan vazifalar qo'yilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida sog‘lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iboratdir.

Ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan rivojlantirish, ularning tug‘ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashdan iborat.

Mamlakatimiz so‘nggi yillarda, bolalarning liderlik sifatlariga kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida qarash, liderlik sifatlarini rivojlantirish modellarini takomillashtirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish” ustuvor vazifa etib belgilandi1. Shu asosda, yosh avlodimizning fuqarolik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash imkoniyati yanada kengaydi. Shu asosda, yosh avlodimizning mamkatabgacha yoshdan boshlab mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash imkoniyati yanada kengaydi.

Yoshlarda tashkilotchilik fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik masalalari yuzasidan B.Adizov, R.Djo‘raev, O.Jamoldinova, X.Ibragimov, Z.Ismailova, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, M.Maxmudova, N.Muslimov, O.Musurmonova, N.Ortiqov, tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Shuningdek, Ya.Ismadiyarov, R.Isyanov, X.Rashidov, D.Ro‘zieva, R.Safarova, M.Urazova, B.Xodjaev, F.Yuzlikaevlar pedagogik ta’lim muassasasi talabalarida ijtimoiy faollik va liderlik salohiyatlarini rivojlantirish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishgan. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida tashkilotchilik liderlik sifatlarini rivojlantirish L.Zubanova, A.Ivanova, G.Kozibakova, R.Kotruxova, I.Logvinov, A.Murashovlarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Tashkilotchilik ko'nikmalari insonga jarayonlarni samarali rejalashtirish, muvofiqlashtirish va boshqarish imkonini beruvchi muhim xususiyatdir. Zamonaviy jamiyatimizda hayotning ko'plab sohalarida bu qobiliyatlar muvaffaqiyatga erishishning muhim omilidir. Tashkil etilgan inson cheklovlar va muddatlarga qaramay, o'z maqsadlariga erishishga, vaqtdan samarali foydalanishga qodir. Tashkilotchilik ko'nikmalarining namoyon bo'lishi ko'plab omillarga bog'liq: zaruriyat, shaxsiy fazilatlar va tajriba.

Tashkilotchilik ko'nikmalari ishni tuzish va rejalashtirish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash, resurslarni ajratish, aniq maqsadlarni belgilash qobiliyatida ifodalanadi.

Tashkilotchilik ko'nikmalariga misol bo'ladiki, inson ko'p vazifalarni bajarish uchun o'zining shaxsiy vaqtini muvaffaqiyatli tashkil qilganda. Tashkil etilgan shaxs bajariladigan ishlar ro'yxatini tuzishi, qaysi vazifalar muhimligini va ustuvorligini aniqlashi, har biri uchun muddatlarni belgilashi mumkin. Bundan tashqari, ularning murakkabligi va vaqt cheklovlarini hisobga olib, vazifalar o'rtasida vaqtni samarali ajratishi mumkin. Ushbu yondashuv harakat rejasining yo'qligi bilan bog'liq asabiy tanglik va stressdan qochishga yordam beradi.

Liderlik o‘z ildizlari bilan yetakchilikka (“lead” – “etaklash”dan “leadership”) taalluqli, shunga ko‘ra, yetakchi – lider hamda ergashganlar, ya’ni unga ergashganlar mavjud. “Pedagogika” atamasining grek tilidan so‘zma-so‘z tarjimasi bizni “bola yetaklash”ga degan ma’noni anglatadi. G‘arb tadqiqotlarida liderlik va uning turli konsepsiyalari dastlab kichik guruhlarni empirik tadqiq etish asosida yuzaga kelgan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish ularda keyinchalik liderlik sifatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Bugungi jadallik bilan rivojlanayotgan barcha mamlakatlar singari yurtimiz ham yoshlarning ilmiy-amaliy qobiliyatlari, iste’dodlari, ichki imkoniyatlarini, har bir shaxsga xos bo’lgan individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish va ularning samaradorligini oshirish maqsadida tendensiyalar ishlab chiqilmoqda. Yosh avlodni yetuk shaxs va jamiyatga kerakli malakali kadrlar etib tarbiyalash uzluksiz ta’limning bosh maqsadi hisoblanadi. Ushbu jarayonni optimallashtirish va samarali tashkil etish, oz vaqt davomida kerakli bilimlarni berish hamda innovatsion yondashuvlar qo’llash asosida natijaga erishish bugungi davr talabidir. Zero farzandlari bilimli,dunyoqarashi keng va o’zining fuqorolik pozitsiyasida turgan yurt egalarining qadr-qimmati yuqori bo’ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021 yil 18 yanvardagi 23-sonli qarori // Xalq so‘zi. – T., 2021. – 19 yanvar. – B. 1-2.

2. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya: O‘quv qo‘llanmasi. – T., 2007. – 166 b.

5. Куницына В.Н, Казаринова Н.В, Погольша В.М. Межличностное общение. СПб. «Питер». 2003 г.

6. Джамилова, Н. Н. (2012). К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАТОРСКИХ КАЧЕСТВ У ДОШКОЛЬНИКОВ (материалы исследования). Педагогические науки, (2), 11-15.

7. Джамилова, Н. Н. (2011). К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАТОРСКИХ КАЧЕСТВ У ДОШКОЛЬНИКОВ (МАТЕРИАЛЫ ИССЛЕДОВАНИЯ). Педагогические науки, (6), 76-80.

8. Джамилова, Н. Н. (2019). ИЗУЧЕННОСТЬ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНИЦИАТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ" ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ". In ДЕТСТВО В ПРОСТРАНСТВЕ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРАКТИК (pp. 105-107).

9. Джамилова, Н. Н., Кадирова, Н. М., & Жамилова, Ф. М. (2020). ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНИЦИАТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ. Управление дошкольным образовательным учреждением, (6), 36-42.
10. Djamilova, N. (2022). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF LIFE STRATEGIES IN STUDENTS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(04), 187-191.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUTQ NUQSONLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHDA TURLI METODLARDAN FOYDALANISH

Urunova Dilafro‘z Muzafarovna,
BuxDPI o‘qituvchisi dilafruzurunova7@gmail.com

Qoirova Kamola,
BuxDPI talabasi kamolaqoirova2@gmail.com

Nutq — inson uchun zarur, doimiy muloqot vositasi bo‘lib hisoblanadi. Nutq insonda ilk yoshdan boshlab shakllanadi. Shakllangan nutq vositasida bola atrofdagilar, kattalar bilan turli munosabatlarni o‘rnatadi, muloqot qiladi.

Bola hayotining birinchi yili eng muhim davr bo‘lib, bu davrda bola nutqida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu bolaning umumiy ya’ni ruhiy, fiziologik rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Bola tayyor nutq apparati bilan tug‘iladi, lekin undagi nutqni shakllantirish kerak. Bunga bir necha sabablarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

- yangi tug‘ilgan bola o‘zining nutq apparatidan foydalanish ko‘nikmasiga ega emas, bu ko‘nikmani unda hosil qildirish kerak;

- bolada nutq uchun mavzu yo‘q, chunki unda hali atrof-olam haqida tasavvur yo‘q, bu mavzuni bola to‘plashi kerak;

- nutq tafakkur bilan bog‘liq bo‘lib, shuning uchun bolaning tafakkurini rivojlantirish kerak.

Ammo atrofimizda shunday bolalar uchraydiki, ularda tabiiy ravishda nutq shakllanmaydi, bunga sabab qilib nutqning rivojlanishida organik jihatdan buzilishlarni olishimiz mumkin. Bola homiladorlik va tug‘ulish jarayonida turli jarohatlar olishi, ijtimoiy-maishiy sharoitning yaxshi emasligi natijasida nutq to‘g‘ri shakllanmaydi**.** Nutq nuqsonining ko'pgina turlari markaziy nerv tizimining organik shikastlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u logoped va nevrolog yoki psixonevrologning hamkorlikda ishlashi natijasida aniqlanishi mumkin. Bolalarda nutq buzilishini

yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farqlanadi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini o‘rgansak, anomal rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishimiz lozim. Bu jarayonda bolada tovush tomonidan, nutqning sur’at, ritm, ohang tomonidan, lug‘at ya’ni so‘z boyligi tomonidan va ovoz tomonidan buzilishlar kuzatiladi.

Nutqning tovush tomonidan buzilishlaridan biri bu dislaliya deb nomlanib, bu boshqa nuqsonlarga qaraganda ko‘proq uchraydi. Bunda turli tovushlarni bolalar noto‘g‘ri talaffuz qilishadi. Masalan, R tovushi o‘rnida L, K tovushi o‘rnida T, Sh tovushi o‘rnida S tovushi tarzida talaffuz qilishadi. Bunga sabab qilib nutqning organik buzilishlari, ya’ni nutq organlarining qaysidir qismida kamchiliklarni olishimiz mumkin. Ikkinchi turi funksional dislaliyada esa nutq organlarining artikulatsion qismida hech qanday organik buzilishlar, kamchiliklar kuzatilmaydi, balki bu pedagogik qarovsizlik, bolaga nisbatan bee‘tiborlik, bola tilida gapirish natijasida yuzaga keladi. Biz albatta bu jarayonda bola bilan ishlashimiz, nutqidagi nuqsonlarini tuzatishimiz, unga pedagogik yordam ko‘rsatishimiz lozim.

Nutq nuqsonini korreksiyalashda artikulyatsion mashqlar, nafas mashqlari, mayda qo‘l motorikasi ustida ishlash yordam beradi. Biz buni doimiy ravishdagidek olib bormasdan, balki o‘yin tarzida, turli metodlar ko‘rinishida olib borsak bu bola uchun foydali, qiziqarli va manfaatli bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni nutqini rivojlantiruvchi noan’anaviy usullardan foydalanish ularda mashg‘ulotlarga qiziqishni yanada orttirish uchun har xil integratsiyalashgan ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg‘ulotlarni tashkil etishda doimo bolalarning tafakkur xususiyatini hisobga olib ta’lim jarayonini bola yosh imkoniyatlariga mos bo‘lishi metodlarni tanlash bilan bog‘liq bo‘lishi, bolalarga yondashuvda logoped, defektolog, psixolog, tarbiyachi, ota–onalar o‘zaro hamkorlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan, nafas mashqlarini doimiy usuldan foydalangan holda emas balki o‘yin tarzida olib borsak bo‘ladi. Bolalarga aytamiz. Qani bolajonlar tasavvur qilamiz, qo‘limizda tort bor. Tug‘ulgan kun tortini puflab o‘chiramiz. Bolalar birgalikda tortni puflashadi. Yoki bolajonlarga qo‘limizda gul borligini tasavvur qilamiz va uni hidlaymiz deb aytamiz. Bolajonlar gulni hidlaydilar. Natijada nafas mashqini bajarib olamiz.

Bola uchun zerikarli va tushunarsiz mashqlarni qiziqarli o‘yinlarga va tilning turli sarguzashtlari haqidagi ertaklarga aylantirib, ularga turli mazmundagi she’r va topishmoqlar qo‘shib, mashg‘ulotlarni bola uchun osonroq va qiziqarli qilishimiz mumkin. Uning tili o‘z uyida (og‘iz) yashaydi, u uyning ikkita mustahkam darvozalari (tishlar, lablar) bor. Tilchamiz uychasida uxlaydi, darvozadan tashqariga qaraydi, sayrga chiqadi, ovqatlanadi, fudbol o‘ynaydi — shunga

o‘xshash vaziyatlarda tilimizni mashqni bajarishini hayajonli o‘yin va tilchamiz bilan butun bir hikoya tarzida tasavvur qilishimiz mumkin.

Biz tovushlarni talaffuz qilishda artikulyatsion apparatlarning holatini, harakatini, nafas olish haqida o‘ylamasdan bajaramiz. To‘g‘ri talaffuzni endigina o‘rganayotgan bola uchun bu harakatlarning barchasi juda qiyin va tushunarsiz bo‘lib tuyuladi. Shunda bolaga tarbiyachi, ota-ona va logopedlar yordam berishi lozim. Zerikarli va odatdagi mashqlarni qiziqarli o‘yinlarga va tilning sarguzashtlari haqidagi ertaklarga aylantirib, ularga turli she’rlar va topishmoqlar qo‘shib, mashqlarni va vazifalarni bola uchun osonroq va qiziqarli qilishimiz mumkin. Uning tili o‘z uyida (og‘iz) yashaydi, u erda baland to‘siq (tishlar) orqasida yashiringanini tasavvur qildiramiz. U uxlashga yotadi, panjaradan tashqariga qaraydi, sayoxatga chiqadi, begemotga va otchaga aylanadi, shirin murabbo eydi. Shu kabi ertaklar mashqni hayajonli o‘yin va uning hayoti haqidagi butun bir hikoya sifatida tasavvur qilishimiz mumkin. Shular orqali biz bolajonlar bilan artikulyatsion mashqlarni bajarib olamiz

Nutq nuqsonlarini bartaraf etishda mayda qo‘l motorikasi ustida ishlash ham yordam beradi. Bunda ham pedagoglar kreativ qobiliyatlaridan foydalangan holda turli metodlardan foydalanishlari mumkin. Masalan, bolaga turli don mahsulotlarini aralash holatga berib, ularni ajratishni, turli taqinchoq va rangli tugmalarni ipga terish orqali mayda qo‘l motorikasi mashqlarini bajarishimiz mumkin.

Nutq nuqsonini bartaraf etishda bu umumiy mashqlar bo‘lib biz dislaliya nutq nuqsonida asosiy diqqatimizni to‘g‘ri tovush talaffuziga qaratishimiz lozim.

To‘g‘ri tovush talaffuzini amalga oshirish uchun 3 bosqichda ish olib boriladi:

- tovushlar talaffuzini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ustida ish olib boriladi va bu tovushlar postanovkasideb ataladi.

- tovushlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgandan so‘ng oson, uni mustahkamlash - avtomatizatsiyasi ustida ish olib boriladi.

- yakunida esa bir-biri bilan almashtiriladigan tovushlarni bir-biridan farqlashga, ya’ni tovushlar differensiyasiamalga oshiriladi.

Bularni amalga oshirishda birinchi tovushning o‘zi, keyin uni bo‘g‘inlarda, so‘zlarda, gaplarda, turli maqol, hikoya va she’rlarda mustahkamlash ustida ish olib boramiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nutq inson uchun juda zarur bo‘lib, nutqsiz inson mukammal bo‘lib shakllana olmaydi. Nutqida nuqsoni mavjud bolalar bilan yoshligidanoq ishlashimiz, nuqsonni bartaraf etish uchun uning nuqsonidan kelib chiqqan holda korreksion ishlar tizimini tuzib, bola bilan ishlashga, nuqsonini bartaraf etish uchun tayyor turishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Филичёва Т.Б.и др. Основы логопедии. —М.: Просвещение, 1989.

2. Shomaxmudova R., Muminova L.R. Bog‘cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish. — T.: O‘qituvchi, 1981.

3. Law, J., Garrett, Z., & Nye, C. (2004). The efficacy of treatment for children with developmental speech and language delay/disorder: A meta-analysis. Journal of Speech, Language, and Hearing Research, 47(4), 924-943.

4. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "Kasbiy faoliyatda zamonaviy logopedni kompetentligini rivojlantirish yo'llari." International Conference on Developments in EducationHosted from Delhi, India. SciencewebNational database of scientific research of Uzbekistan, 2023.

5. Xonbabayeva, Madinabonu. "NUTQ BUZILISHI BO'LGAN BOLALAR UCHUN IKKI TILLI TA'LIM ASOSLARI." Наука и инновация 1.4 (2023): 231-234.

6. QIZI, XONBABAEVA MADINABONU ASQARJON. "Logopedik mashg'ulotlarni olib borishda sujok terapyaning o'rni". Xalqaro ko'p tarmoqli konferentsiya Angliyaning Manchester shahrida bo'lib o'tdi . Scienceweb-O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar milliy ma’lumotlar bazasi, 2023.

7. Dilshodjon o’g’li, Khonbabaev Shoxruxbek. "THE SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY OF PREPARING FUTURE PEDAGOGS-PSYCHOLOGISTS FOR SPIRITUAL, SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1525-1529.

8. Ayupova M.Y. Logopediya. — TOSHKENT, 2007.

BOSHANGICH SINF YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRIShHDA KITOBXONLIKNING AXAMIYATI

Mo‘minova Gulxayo Turg‘unboy qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha talim kafedrasi o‘qituvchisi

Bugun mamlakatimizda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat hamda sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitob mutoalasiga qiziqishlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillik biz uchun avvalo o‘zligimizni anglash, insoniy qadriyatimizni, urf odat va qadriyatlarimizni, buyuk ajdodlarimiz, allomalarimizning tabarruk nomlari va merosini, g‘urur va iftixorimizni

tiklash, yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kabi beqiyos imkoniyatlar ochib berganini alohida ta’kidlash zarur.

Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muxabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitob mutoalasiga qiziqishlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-sonli ”Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitob mutoalasiga qiziqishlarini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori taraqqiyot uchun eng yaxshi omil kitoblar ekanligini, to‘g‘ri tanlangan kitoblar nafaqat insonni bilimli qiladi, balki baxtli bo‘lishini ham kafolatlashini, avvalo, ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, ta’lim tashkilotlariga yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish yosh o‘quvchilarimizni bolaligidan boshlab kitob o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirishni dolzarb vazifa sifatida e’tirof etdi [1].

Kitoblarni faqatgina bilim manbai degan fikrda bo‘lsak, uning mohiyatini to‘liq anglamagan bo‘lamiz. Kitoblar aslida bizni baxtli bo‘lishimiz, hayotimiz davomida yuksak cho‘qqilarni zabt etishimizda katta yordam beradi. Zero, hech qaysi dorixonada kishini tushkunlikdan olib chiqib, irodali, sabrli, mehnatsevar qiluvchi dori topilmaydi. Biroq bu dori kitob bo‘lib, undan o‘quvchi nimani izlasa shuni topadi. Kitob – bilim, ma’naviyat, ma’rifat manbai.

O‘quvchilarda o‘quv yillari bo‘yicha taqsimlangan va o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning mazmuni va hajmi belgilanadigan maxsus davlat hujjati — o‘quv dasturi yo‘qligini ta’kidlab o‘tish lozim. Bunday dasturni ishlab chiqish lozim, uning umumiy vazifasi — o‘qitish kursining ilmiy va metodologik asoslarini aniqlash natijasi bo‘lishi kerak. Boshqacha aytganda, bizga o‘sib borayotgan va rivojlanayotgan inson egallaydigan bilish va voqelikni qayta o‘zgartirish usuli sifatida kitob o‘qishni ifodalash va rejalashtirilgan o‘quv faoliyatining o‘ziga xosligini ta’minlovchi majmuani dastlabki nuqtasi kitob bo‘lishi kerak.

Kitob va kitobxonga bag‘ishlangan ishlarni o‘rganish kichik maktab o‘quvchilarining o‘quv faoliyatiga kiritiladigan ob’ektlar orasida kitob eng murakkab hodisani ifodalashini ta’kidlash imkonini beradi. O‘zining murakkabligiga ko‘ra “kitob” hamon yagona talqinga ega emas. Fransuz yozuvchisi, adabiyotshunos, sotsiolog Rober Eskarpi ta’kidlaganidek: ”Barcha tirik borliq singari, kitob ham ta’riflarning qat’iy chegaralariga sig‘maydi. Hali hech kim unga aniq va barqaror ta’rif bera olmagan” [2].

Kitobshunoslar “kitob” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan eng ko‘p qo‘llaniladigan quyidagi ta’riflarni ajratadilar:

Kitob – insonlar orasidagi muloqot vositasi, ommaviy axborot quroli.

Kitob – adabiyot asari sinonimi, mualliflik ishi mahsuli.

Kitob – nashr – nashriyot – poligrafiya faoliyati mahsuli.

Kitob – gazeta, jurnal, buklet, albom va boshqalardan farqli nashrning alohida shakli.

Kitob betlarning muayyan konstruktiv tashkil etilishi shakli...

Kitob – yozma xabarning tashkil etilishi shakli [3].

Kitobxonni shakllantiruvchi pedagog uchun va mustaqil o‘qish san’atini o‘rganuvchi o‘quvchilar uchun kitob qanday asosiy ma’noga ega? Mazkur savolni hal etish uchun biz kitobning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan uning ta’riflariga murojaat etdik. Bunday ixcham ta’riflardan biri A.Gersen keltiradi: ”...yozma ifodalangan va umumiy foydalanishga taqdim etilgan tajriba bu kitobdir” [4].

Bunday ta’riflarni biz yana kitobga e’tiborlarini qaratgan o‘tmish va hozirgi zamonning boshqa ko‘pgina buyuk allomalarining ta’riflarida uchratamiz: ―”suhbatdosh”, “ustoz”, “mash’al”, ”o‘qituvchi”, “do‘st”, “bebaho meros”, “inson orqali ko‘rinadigan olam”, “xalqlar tarixi”, “o‘tmish tajribasi”, “inson aqlining merosi”, “fikr kemasi”, “inson kashf etgan buyuk mo‘jiza” — bu va shu kabi bolalikdan o‘zlashtirilgan tasavvurlar kitobni kashf etgan inson uchun g‘urur hissini uyg‘otadi, kitob oldida biz uchun zarur bo‘lgan va insoniyat tomonidan to‘plangan tajribani saqlash joyi va yetkazish vositasi sifatidagi e’zozlash hissini tug‘diradi.

Insoniyatning tarixiy tajribasi va unda shakllangan aqliy qobiliyatlar nafaqat kitobda, balki ―“inson tomonidan yaratilgan har bir predmetda – qo‘lbola quroldan to zamonaviy elektron hisoblash mashinasigacha” amaliy ro‘yobga oshirilgan. Ushbu ma’noda kitob ham istisno emas, u ham ― fikrni amalga oshirish jarayonidir” [3].

Ijtimoiy tajriba va individual fikr kitobda ikki bor: birinchi bor – qo‘lyozmani yaratishda – tilda, so‘zda, yozuvchida o‘z fikrini keng insonlar doirasining mulkiga aylantirish o‘tkir ehtiyoji yuzaga kelganida; ikkinchi bor – muallifning fikrini maqsadga muvofiq va bevosita yetkazadigan tarzda va bizning barchamizga qaratiladigan biror-bir yozma xabarni tashkil etish uchun maxsus mo‘ljallangan predmetda amalga oshishini unutmaslik kerak.

Ammo “inson–kitob” tizimida muallif va nashriyotchilar emas, balki kitobxon, bunda kitobxon boshlovchi – kichik maktab o‘quvchisi qiziqtiradi. Berilgan matnni mustaqil o‘qishda kitob so‘z-belgi bo‘lib xizmat qiladi va topshiriq yo‘naltirgan fikrlar hamda matn obrazining o‘ziga xosligini o‘zlashtirish uchun ularning tizimini to‘g‘ri talqin etish kerakdir.

Hozirgi kunda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kitob mutolaasiga qiziqishlarini shakllantirish ijtimoiy zaruratdir. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan taxliliy

izlanishlarni ko‘rib chiqib, extiyojlarni o‘rganib, muammoning mavjud xolatini o‘rganish yo‘llarini izlab topish, tadqiqotchi olimlarning fikrlarini qayd etish orqali mavzuni yoritish yo‘llarini aniqlashtirishning shakl, usul va metodlari keltiridik, horijiy tajribalari o‘rganib, qisman misollar berdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-sonli ”Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitob mutoalasiga qiziqishlarini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.

2. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: ―”Tib-kitob”, 2009-y. – 184 b.

3. G‘afforova T. Ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. — T.: Tafakkur, 2011.

4. Masharipova va b. ona tili 3-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini amaliètga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma Toshkent,137 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH YO’LLARI VA UNI AMALIYOTDA QO’LLASH USULLARI

Muzaffarova Shohida Temirovna
Yangi hayot tumani “Ziyo” nomli 305-sonli DMTT direktori

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan etuk insonlar bo'lib voyaga etishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intelektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyillik tuyg'ularini kamol toptirish kabi ulkan vazifalar qo'yilgan.

O'zbekistan Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli taxlil kilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2022—2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida maktabgacha talim tizimiga aloxida to'xtalib o'tganlar va bir qancha vazifalar bergilab berganlar. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022—2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish to'grisida aloxida to'xtalib o'tganlar.

Maktabgacha ta'limining dinamik sohasida tarbiyachilarning kasbiy o'sishi yosh avlod uchun boyitilgan ta'lim tajribasini taqdim etishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari nafaqat tarbiyachilarning malakasini oshiribgina qolmay, balki ushbu ko'nikmalarni amaliy qo'llashni ta'minlaydigan strategiyalarga sarmoya kiritish kerak. Bu erda maktabgacha tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishning samarali yo‘llarini o‘rganib chiqib ularni amalda qo‘llashni ko‘rsatishmiz kerak.

Moslashtirilgan o'quv dasturlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z tarbiyachilarining o'ziga xos ehtiyojlari va maqsadlariga javob beradigan moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqishi mumkin. Ushbu dasturlar bolalar rivojlanishi, o'quv dasturlarini rejalashtirish, xatti-harakatlarni boshqarish va inklyuziv amaliyotlar bo'yicha seminarlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ta'limni har bir tashkilotning o'ziga xos kontekstiga moslashtirish orqali o'qituvchilar o'zlarining o'qitish amaliyotiga bevosita ta'sir qiladigan tegishli ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Amaliy qo'llash. Masalan, maktabgacha ta'lim tashkiloti savodxonlikni oshirish strategiyalari bo'yicha seminar tashkil qilishi mumkin. Tarbiyachilar interaktiv hikoyalar va fonemik xabardorlik kabi usullarni o'rganishlari mumkin, ular turli yosh bolalar orasida ona tili rivojlanishini rag'batlantirish uchun o'z mashg’ulotlarida amalga oshirishlari mumkin.

Hamkasblarning kuzatuvlari va fikr-mulohazalari. Hamkasblarni kuzatish amalga oshirish tarbiyachilarga o'z hamkasblarining o'qitish amaliyotini kuzatish va o'rganish imkonini beradi. Konstruktiv fikr almashishni rag'batlantirish tarbiyachilar o'rtasida hamkorlik va doimiy takomillashtirish madaniyatini rivojlantiradi.

Amaliy qo'llanilishi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'zaro kuzatuv dasturini tuzishi mumkin, unda tarbiyachilar bir-birining darslarini kuzatish uchun birlashadilar. Kuzatishlardan so'ng, o'qituvchilar o'zlarining ta'lim amaliyotlarini kuchaytirib, tushunchalar bilan bo'lishish va qo'llab-quvvatlovchi fikr-mulohazalarni bildirish uchun aks ettiruvchi muhokamalarda qatnashadilar.

Mentorlik dasturlari. Tarbiyachilarni tajribali murabbiylar bilan bog'lash qimmatli yo'l-yo'riq va yordam beradi. Mentorlar shaxsiy murabbiylikni taklif qiladilar, tajriba almashadilar va

samarali o'qitish strategiyalarini modellashtiradilar, bu esa tinglovchilarning professional o'sishini tezlashtiradi.

Amaliy qo'llanilishi. Tashkilot o'sish sohalari va mosliklari asosida murabbiy-mentor juftlarini belgilashi mumkin. Mentorlar ustozlarga darsni rejalashtirish, bolalarni boshqarish muammolari va refleksiv amaliyot mashg'ulotlari orqali ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Harakatlarni tadqiq qilish loyihalari. Tarbiyachilarni harakat tadqiqot loyihalarida ishtirok etishga rag'batlantirish, ularning o'qitish amaliyotini nazorat qilish, innovatsiyalarni amalga oshirish va natijalar haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Ushbu so'rovga asoslangan yondashuv ta'lim va doimiy takomillashtirish madaniyatini rivojlantiradi.

Amaliy qo'llanilishi. Tarbiyachilarchilar birgalikda o'z o'qitish amaliyotining o'ziga xos jihatini takomillashtirishga qaratilgan harakat tadqiqot loyihalarini ishlab chiqishlari mumkin, masalan, o'yinga asoslangan ta'lim faoliyatini birlashtirish. Tizimli ma'lumotlarni to'plash va mulohaza yuritish orqali tarbiyachilar o'z yondashuvlarini takomillashtiradilar va tashkilotning bilim bazasiga hissa qo'shadilar.

Professional ta'lim uchun texnologiyadan foydalanish. Texnologik platformalar va onlayn resurslarni birlashtirish tarbiyachilarga kasbiy rivojlanish uchun moslashuvchan va qulay yo'llarni taqdim etadi. Vebinarlar, virtual konferentsiyalar va onlayn kurslar o'z-o'zidan o'rganish va yangi o'qitish usullarini o'rganish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Amaliy qo'llanilishi. Tashkilot maktabgacha ta'limiga tegishli bo’lgan onlayn resurslar, jumladan multimediyali ta’limiy resurslar, video va audio roliklar va interfaol modullarni saqlashi mumkin. Tarbiyachilar ushbu manbalardan o'zlariga qulay vaqtda foydalanishlari mumkin, ular paydo bo'layotgan tendentsiyalar va dalillarga asoslangan amaliyotlar haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin.

Ushbu strategiyalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo’llanilgan holda tarbiyachilarining kasbiy mahoratini egallashiga xizmat qiladi degan umiddamiz. Natijasida ular mashg’ulotlarda yangi bilim va ko'nikmalarni amaliy qo'llash orqali yangi tajribalarga ega bo’lib maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga o’z hissasini qo’shadilar.

Adabiyotlar ro’yhati:

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi-O'zbekiston Respublikasining Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847 sonli farmoni. 29.01.2022 dagi PF-60-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT bosh Assambleyasi 2017 yil 19 sentyabrdagi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.

10. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi.— Toshkent, 1997 yil.

11. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyai.— Toshkent, 2008 yil.

12. O‘zbek pedagogikasi antologoyasi (Ikkinchi jild). — Toshkent, 1999 yil.

13. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovasion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.

14. Татур Ю. Г. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стан-дартов высшего профессионального образования. — М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY JIHATDAN TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARINI O‘RGANISHDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI VA OILANING O‘RNI

Raxmataliyeva Gulmira O‘tkirjon qizi

Toshkent shahridagi Bucheon universiteti magistranti gulmiraabdurahmonova2@gmail.com

Yurt taqdiri, ravnaqi yoshlar ta’lim-tarbiyasiga chambarchas bog‘liq. Ularning har tomonlama barkamol bo‘lib yetishishi mamlakat kelajagining barqarorligini ta’minlovchi asosiy omildir. Turli madaniyatlar va mafkuralar kurashi ketayotgan bugungi vaqtda mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan, endigina oqni qoradan ajrata boshlagan farzandlarimiz o‘zligini to‘liq idrok etib olishiga, o‘z to‘g‘ri yo‘llariga tushib olishlarida, asosan katta yoshdagi yoshi ulug‘ insonlarning hayotiy tajribasi juda qo‘l keladi.

(Kaykovusning “Qobusnoma” asari)

So‘nggi yillarda Prezidentimiz tomonidan maktabgacha ta’lim tizimga alohida e’tibor qaratilmoqda.Uzluksiz ta’lim tizimining boshlang’ich bo‘g’ini maktabgacha ta’lim bo‘lganligi bois,uyning poydevorini mustahkam qurishga qaratilgan e’tibor singari maktabgacha ta’limga ham shu nazarda e’tibor qaratilmoqda.Xususan, maktabgacha yoshdagi bo‘lgan bolalarning ta’li-tarbiyasining to‘g’ri olib borilishi,sifatli ta’minlanishini yo‘lga qo‘yish,sog’lom ovqatlantirish chora tadbirlarini ko‘rish va millatimizning kelajagi bo‘lgan yosh avlodimizning tarbiyasida turgan ulkan ma’suliyatni alohida ta’kidlash lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni ijrosi ta’minlandi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, ta’lim sifatini nazorat

qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy o‘qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish to‘g’risida qator fikrlar almashilindi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da Maktabgacha ta’lim tizimiga alohida to‘xtalib o‘tilgan va bir qancha maqsadlar belgilab berilgan.Jumladan:

- ✓ **38-maqsadida Maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish.**
- ✓ 2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish.
- ✓ Maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish.
- ✓ **39-maqsadida: Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish.**
- ✓ Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish.
- ✓ 2022 — 2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish.
- ✓ Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish.
- ✓ **40-maqsadida: Maktabgacha ta’lim tizimida budjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash.**
- ✓ Maktabgacha ta’lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish kabi qator maqsadlar keltirib olingan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yagona o‘quv dasturi bo‘lgan “Ilk qadam” davlat dasturining ham asosiy maqsadi kompetensiyaviy yondashuvdir.Ushbu yondashuvda aynan bolalarning tayanch kompetensiyalaridan biri “Ijtimoiy” kompetensiyaga urg’u berishimiz darkor.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy ongi va madaniyatini,axloqiy tafakkurini shakllantirishda MTT va Oilaning,mahallaning o‘rni yuqori. Qadimda qolgan iboralarda “Bir bolaga 7 mahalla ota-ona” degan naql ham bejiz emas.Ingliz faylasufi Frensis Bekonning fikriga ko‘ra — “Bola oilaning quvonchi, otaonaning ko'magi, jamiyatning hayotiy kuchidir. Bolalar tufayli hayot yanada shirin, o'lim esa unchalik dahshatli ko'rinmaydi” — degan edi. Darhaqiqat bola hayotning mevasi, oilaviy g'urur, kelajak, baxt. Biroq, tarbiya qiyin vazifa bo'lib, ota-onalar har doim ham farzand tarbiyasida kerakli natijalarga erisha olmaydilar. Hayotning birinchi yilidan boshlab oilaning asosiy vazifasi bolaning shaxsini shakllantirish, ya'ni uning tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilish davri boshlanadi. Oila — bu jamiyatning bir qismi, unda yangi odam tug'iladi — bu kichik ijtimoiy guruh uchun hayotning boshlang'ich maktabi. Ota-onalar bolaning birinchi

o'qituvchisi va tarbiyachisi sifatida birinchi navbatda psixologik jihatdan tayyor bo‘lishi kerak. Har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. “Tarbiya” so‘zi arabcha “robba” fe’lidan olingan bo‘lib, o‘stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma’nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar “tarbiya”ni bir necha xil ta’rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta’riflaydi: “Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir”. Rog’ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta’rif qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o‘tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg’unlik hamda muvozanat ila o‘stirishdir”.

Psixologik bilimlar albatta ota-onalar farzandlarini qanday odamlar tarbiyalaydi va ularda qanday fazilatlarni shakllantirishi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi ta’minlaydi. Bolani to'g'ri tarbiyalash uchun uni yaxshi bilish va tushunish kerak va buning uchun pedagogik-psixologik bilim talab etiladi. Ular ota-onalarga bolaning xatti-harakatlarini tahlil qilishda va uning tarbiyasi uchun to'g'ri yo'lni tanlashda yordam beradi. Ota-onalar bolalarni tarbiyalashda pedagogik - psixologik axloq qoidalariga rioya qilishlari shart. Pedagogik - psixologik axloq nima? Bu bolaga nisbatan ijtimoiy normalarga rioya qilish, ya'ni sharoitga qarab yoshi va qobiliyatini ya’ni individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bola psixikasi va shaxsiga ta'sir qiladigan ta'lim choralarini tanlash qobiliyatidi Yosh va pedagogik psixologiya fanida odob-axloq qoidalari - bu bolani tarbiyalashda mahorat, matonat, sabr-toqat shuningdek ota-onalar bilan bir qatorda o'qituvchilarga ham ta'lim berish kerak. Ota-onalar o'zlarining xatti-harakatlarini tartibga sola olishlari, bolaning psixikasida nimalar bo'layotganini his qilishlari va shunga muvofiq munosabatta bo‘lishlari kerak.Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta’lim-tarbiyasida maktabgacha ta’lim tashkilotining alohida o‘rni va unda faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagoglarimizning ibrat namunasi o‘rin egallaydi.Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning tarbiyasida ota-onalar bilan tarbiyachi-pedagoglar o‘rtasida pedagogik munosabatlarni shakllantirish va bolalar tarbiyasida ularniing yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda psixologik yondashishning alohida shart-sharoitlarini o‘rganish ishlarini olib borishni talab qiladi. Xusussan yuqorida ta’kidlaganimizdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturi “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida belgilangan kompetensiyalarga to‘xtalamiz.

Bolaning asosiy tayanch kompetensiyalariga:

- Kommunikativ
- Ijtimoiy
- Shaxsiy ("Men" kontsepsiyasini qurish)

● Bilish kompetensiyalari kiradi.

Ular orasidan Ijtimoiy kompetensiyaning ahamiyati katta.Negaki unda bolaning belgilangan tartib va odob-ahloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Bolalar boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o‘rganadilar. Guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarda ular yoshi va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ularni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar.

Ular tobora ko‘proq o‘zlarini guruhning bir qismi sifatida ko‘radilar va o‘z huquq hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Bilamizki, Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli, vijdonli,adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo‘lishga o‘rgatadi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Ta’lim tizimida o‘qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallashishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda avvalo ularning ota-onalai yanikim oilasi ichidagi muhitning sof bo‘lishi,ta’lim olayotgan maskani maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining ham namunali xulq egasi bo‘lishlari bu albatta farzandlarimizning axloqiy tarbiyasiga ta’sir etadi. Barkamol insonni tarbiyalash masalasida biz qator Sharq va G’arb mutafakkirlarimizning qarashlariga, ularning tammoyillariga tayangan xolda tarbiyaviy ishlarni olib boramiz. Tarbiyasiz ta’lim nolga teng deganlaridek albatta ta’limni-tarbiyadan tarbiyani-ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda maktabgacha yoshdagi bolalarimizning axloqiy tarbiyalashda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining hamda oilaning o‘rni naqadar yuqori ekanligini aytib o‘tishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Takomillashtirilgan. 2022 yil 4 fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son MTT tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
3. Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid ma’naviy va axloqiy qarashlari. Nabi Pardaboyevich Jumaboyev nabijumaboyev@gmail.com Guliston davlat universitet
4. Abduraimova N. T. Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish 2022 yil 28-29 aprel.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika Darslik. — Toshkent: “Metodist nashriyoti”, 2023.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING MEDIAKOMPETENTLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASINING ASOSIY JIHATLARI

Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
nazarmatovadilshoda6@gmail.com

“Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu-ilm-fan,ta’lim va tarbiyadir”.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miziyoyev

Dunyoda maktabga ta’lim tizimini rivojlantirishda bo‘lajak tarbiyachilar mediakompetentligini rivojlantirishning maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning individual o‘zini rivojlantirish trayektoriyasini loyihalash, ularda media va axborot savodxonligini o‘zlashtirish ehtiyojini tarkib toptirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarining mediakompetentligini rivojlantirish jarayonini malaka oshirish hamda raqamlashtirish muhiti bilan integrativligini ta’minlash, tarbiyachi-pedagoglarda mustaqil mediabilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikma va malakalarini, kreativlik, yangi mediavositalarni o‘zlashtirishga qobiliyatlilikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarining mediakompetentligini rivojlanganlik darajasini tashxislashga qaratilgan yangi metodikalarni yaratish, mediakompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslash talab etilmoqda.Uzluksiz ta’lim tizimining birinchi bo‘g‘ini bo‘lgan Maktabgacha ta’limga bo‘lgan e’tibor kundan-kunga ko‘payib bormoqda. Xususan, Maktabgacha va maktab ta’limining birlashgani va ilg’or xorijiy tajribalarni olib borilishi misol bo‘la oladi.

Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va hamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonlarining asosiy maqsadi va vazifasi ham bu albatta maktabgacha yoshdagi bo‘lgan bolkalarni Maktab ta’limiga sifatli qilib tayyorlash,bolalarning asosiy tayanch kompetensiyalarini shakllantirgan holda komopetentli bola

qilib maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat.Shunday ekan hozirgi vaqtda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal o‘sishi va rivojlanishi natijasida barcha tashkilotlarda raqamlashtirish,Raqamli hukumatning paydo bo‘lishi bejiz emas.Mamlakatimizda milliy genofondni mustahkamlash,yosh avlodni yetuk kadr etib tarbiyalash masalalariga doimiy e’tibor qaratib kelinmoqda.Jumladan:

❖ Maktabgacha ta’lim sohasidagi qonunchilikni,korrupsiya va huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash va tahlil qilish;

❖ Maktabgacha ta’lim sohasida davlat siyosatini samarali amalga oshirishga,xodimlar mehnatini moddiy rag‘batlantirish tizimli m uammolarni kompleks o‘rganish;

❖ Maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg‘un rivojlantirish sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta’limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko‘rib chiqishga;

❖ Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qabul qilishni amaldagi tartibini vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning joriy etilishi holatini tanqidiy o‘rganish kabi qator vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida 2019-yil 8-may PQ4312 son O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida[5] ham: Maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi ustuvor vazifa belgilangan.Maktabgacha ta’lim tizimida 2018-yilda joriy etilgan Open-EMIS dasturi maktabgacha ta’lim tashkilotiga farzandini joylashtirmoqchi bo‘lgan ota-onalar uchun qulaylik yaratish maqsadida yaratilgan platforma hisoblanadi.Ushbu dasturda ishlash o‘zaro Yagona daxlat xizmatlari agentligi hamda Maktabgacha ta’lim tasshkilotlari bilan uzviylikda amalga oshiriladi.Davlat maktabgacha ta’lim tashkiklotlarida tashkilot direktori tomonidan faoliyat olib borayotgan xodimlarning shaxsiy ma’lumotlari,tashkilotga ota-onalar tomonidan berilgan ariza asosida shakllangan yo‘llanmalar ham tashkilot direktorining shaxsiy kutubxonasiga EMIS tizimi orqali kelib tushadi.Shuningdek,UNICEF bilan hamkorlikda Microsoft tizimi asosida yaratilgan,tarmoq va oflayn funksiyalar va imkoniyatlarning o‘ziga xosligi mavjud bo‘lgan Learning Passport platformasi ishlab chiqildi.Learning Pasport-mobil onlayn va oflayn platforma bo‘lib,sifatli ta’limga uzluksiz kirish imkonini beradi.Shu kabi mobil ilovalardan “Bebbo” mobil ilovasi ham misol bo‘la oladi.Ushbu mobil ilova ham ota-onalart uchun bir qator qulayliklarga ega hisoblanadi. Bu albatta maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish,tashkilotda faoliyat

[5] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PQ4312 son 2019 yil 8 may

yuritayotgan pedagog-kadrlarda akt savodxonligini oshirish,mediakompetentligini shakllantirish masalalari bilan bog‘liq.jahon miqyosida Mass-Medianing rivojlanganligi,har bir sohaning negizida ushbu tushunchaning borligi bilan hozirgi kunda axborotlashgan jamiyatga akt bilan,media bilan faol ishlay oladigan mutaxassis kadrlash ishlab chiqarish dolzarb sanaladi.Bilamizki,maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog-kadrlarning aksariyati akt bilan ishlash ko‘nikmasiga ega emas.Shunday ekan biz avvalo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritish maqsadida oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan bo‘lajak tarbiyachilarning avvalo AKT savodxonligini hamda mediakompetentligini oshirish masalalariga urg‘u berishimiz lozim.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to’g’risida” gi 2020 yil 22 dekabrdagi 802- son qarori Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartlari ning 2-bobida keltirilgan davlat talablarining asosiy maqsadi mamlakatda o’tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni,xorijiy mamlakatlar ilg’or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan talablardan biri ham zamonaviy information texnologiyalardan foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishi,maktabgacha yosh guruhidagi bolalarda ham axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olish qobiliyatini shakllantirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2022-2023-yillarda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’grisidagi 22.08.2022 yildagi PQ-357 sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 8 may 2019 yildagi PQ-4312-son qarori.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston, 2022 yil
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha Pedagogika. — Toshkent, 2019.
5. ”Ilk qadam” Takomillashtirilgan Davlat o’quv dasturi. 2022 yil 4 fevral.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KASB TANLASHGA QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Isabekova Dilafruz Shermirzayevna,
Izaitullayeva Lazokat Eshimbayevna

Angren Universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qitivchilari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevni ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi masalasiga jiddiy e'tibor bilan qarash zarurligini davlat siyosati darajasigacha olib chiqqanliklari yoshlar tarbiyasida pedagoglarning faoliyatini nechog‘liq muhimligi va bunda alohida ma'suliyat bilan faoliyatga yondashish zarurligini ko‘rsatadi. Bolalarning mehnat faoliyatlarini o‘zida qamragan mashg‘ulotlar asosan maktabgacha yoshidagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda sodda va elementar bo‘lsa ham ularning psixiktaraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga egadir. Katta yoshdagi bolalarni kasblarga qiziqishlari kattalar faoliyatlariga taqlid qilishlari dastavval bolalarning o‘yinlarida namoyon bo‘ladi. Bolalar kattalarning kasblaridagi faoliyatlarini o‘zlarining o‘yinlaridataqliddan takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar kasbida bevosita qatnashish uchun harakat qila boshlaydilar.Bu yoshdagi bolalarni kasbdagi natijasiga qarab emas, balki mehnat jarayonining o‘ziga qiziqishi psixologik jihatdan xarakterlidir.

Psixologlar 5-6 yoshli bolalarni dunyoni o‘zgalar nigohi bilan ko‘rishga o‘rgatish zarur deb hisoblaydilar . Bu unga o‘z egosentrizmini yengishga yordam beradi, bola faqat o‘z fikrini, o‘ziga ma'qul narsalarni, masalan, taomni, o‘yinchoqni, o‘yinni talab qilavermay, o‘zgalar fikri, xohish-istaklarini ham hisobga olishga o‘rganadi. Kattalar kasbi bilan tanishtirish ham bolani dunyoni o‘zgalar nigohi bilan ko‘rishga va his qilishga o‘rgatadi.

Har qanday inson, jumladan, maktabgacha yoshdagi bola ham yoqimli va yoqimsiz hissiyotlar qo‘rshovida yashaydi. Yoqimli hissiyotlarga quvonch, hayrat, qiziqish kabilar kirsa, yoqimsiz hissiyotlarga qo‘rquv, alam, jirkanish, nafrat, uyalish kabilarni kiritish mumkin. Boshqa yoqimli hissiyotlar kabi qiziqish har bir inson hayotida muhim o‘rin egallaydi. Qiziqish faol ruhiy kategoriya sifatida bolaning kelajakda kasb tanlashiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Psixologiyada kasb tanlashda qiziqish (o‘quv-biluv, kasbga qiziqish), moyillik, layoqat, xarakter, temperament kabi subyektiv omillar; shuningdek, salomatlik holati, tayyorgarlik darajasi, kasblar olamidan qanchalik xabardorligi kabi obyektiv omillarning ahamiyati alohida e'tirof etiladi. Shuningdek,

kasb egallashda motivlar, ular bilan bevosita aloqador bo‘lgan qiziqish, ehtiyoj va moyilliklarga ham katta e’tibor beriladi.

Kasbiy yo‘lini belgilash– insonda muayyan kasb haqida tasavvur, tushuncha va qiziqishlarning shakllanishi orqali unga moyillikning yuzaga kelishi demakdir. Qiziqish insonga xos ijobiy mohiyatga ega bo‘lgan yoqimli hissiyot. U insonni atrof-olamni idrok etish va bilishga intilish tuyg‘ularini qanoatlantiruvchi muhim psixik kategoriyalardan hisoblanadi. Qiziqish sababli bolada o‘rganilayotgan narsaga, obyektga nisbatan e’tibor, u bilan ko‘proq shug‘ullanish ehtiyoji vujudga keladi.

Pedagogik atamalar lug‘atida qiziqishga shunday ta’rif beriladi: “Qiziqish – 1) obyekt yoki hodisani anglash va biror faoliyat turini o‘zlashtirishga moyillik; 2) o‘zi uchun qimmatli va yoqimli bo‘lgan muayyan narsa va hodisaga munosabat”[6].

Maktabgacha yosh davrida bolada o‘rganilayotgan narsalarga nisbatan qiziqish juda yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Chunki bolalik davri inson hayotining eng qiziquvchan pallasi hisoblanadi. Bolalikka xos qiziquvchanlikdan samarali foydalanish, uni aynan bola hayotining zarur sohalariga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Kasbga yo‘naltirish, kasbni to‘g‘ri tanlash muhim tanlov bo‘lib, uning butun hayot yo‘lini belgilab beradi. Bu jarayonning tamal toshi esa aynan maktabgacha yosh davrida qo‘yiladi. Maktabgacha ta’lim davrida kasbga yo‘naltirishning yana bir ahamiyatli jihati u bolani ijtimoiylashtirish tomon qo‘yilgan ilk pedagogik-psixologik ta’sir vositasi vazifasini ham bajaradi. Maktabgacha ta’lim yoshi davrida bolalarni kasbga qiziqtirish jarayoni ularda kattalarning kasbiy faoliyatiga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni tarkib toptirish bilan baqamti kechishi lozim. Bola qanchalik kichiklikdan kasblar olamini o‘rganishga kirishsa, uning istiqbolda o‘zi istagan kasbini tanlashi va hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi shunchalik oson kechadi. Masalaning ahamiyatli jihati yana shundaki, bu nafaqat bola uchun, balki jamiyat uchun o‘ta ahamiyatli masala hisoblanadi. Zero, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy rivojlanishi kadrlar salohiyatiga, ularni o‘z kasbiga sidqidildan munosabatda bo‘lishiga, kasbini sevib, bajonidil mehnat qilishiga, u tufayli o‘z-o‘zini va atrofdagilarni baxtli qilishiga bog‘liq.

Qiziqish insonga xos ijobiy mohiyatga ega yoqimli hissiyotdir. U insonni atrof olamni idrok etish va bilishga intilish tuyg’ularin qanoatlantiruvchi muhim psixik kategoriyalardan hisoblanadi. Qiziqish sababli bolada o’rganilayotgan narsaga, obyektga nisbatan e’tibor, u bilan ko’proq shug’ullanish ehtiyoji vujudga keladi. Pedagogik atamalar lug’atida qiziqishga shunday ta’rif beriladi: “Qiziqish – 1) obyekt yoki hodisani anglash va biror faoliyat turini o’zlashtirishga moyillik; 2) o’zi uchun qimmatli va yoqimli bo’lgan muayyan narsa va hodisaga munosabat.”

[6] Педагогик атамалар луғати. Тузувчи муаллифлар Р.Х.Джураев, Ў.Қ.Толипов, Р.Ғ.Сафарова, Х.О.Тўрақулов, М.Э.Иноятова, Д.С.Диванова. – Т.: Фан, 2008.-196 б. – 164-б.

Maktabgacha yosh davrida bolada o’rganilayotgan narsalarga nisbatan qiziqish juda yuqori darajada namoyon bo’ladi. Chunki bolalik davri inson hayotining eng qiziquvchan pallasi hisoblanadi. Kasbga yo’naltirish, kasbni to’g’ri tanlash muhim tanlov bo’lib, uning butun hayot yo’lini belgilab beradi. Bu jarayonning tamal toshi esa aynan maktabgacha yosh davrida qo’yiladi. Maktabgacha ta’lim davrida kasbga yo’naltirishning yana bir ahamiyatli jihati u bolani ijtimoiylashtirish (jamiyatning haqiqiy a’zosi, davlat fuqarosiga aylantirish) tomon qo’yilgan ilk pedagogik-psixologik ta’sir vositasi vazifasini ham bajaradi. Ijtimoiylashtirishning to’g’ri yo’lga qo’yilishi bolaning maktagacha yosh davridan boshlab o’zligini anglashi, “Men-konsepsiya”sini jamiyat bilan uyg’unlikda idrok etishida ustuvor o’rin egallaydi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarni kasbga qiziqtirish jarayoni ularda kattalarning kasbiy faoliyatiga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni tarkib toptirish bilan baqamti kechishi lozim. Psixologlarning fikricha, bola qanchalik kichiklikdan kasblar olamini o’rganishga kirishsa, uning istiqbolda o’zi istagan kasbini tanlashi va hayotda o’z o’rniga ega bo’lishi shunchalik oson kechadi. Masalaning ahamiyatli jihati yana shundaki, bu nafaqat bola uchun, balki jamiyat uchun o’ta ahamiyatli masala hisoblanadi. Zero, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy rivojlanishi kadrlar salohiyatiga, ularni o’z kasbiga sidqidildan munosabatda bo’lishiga, kasbini sevib, bajonidil mehnat qilishiga, u tufayli o’z-o’zini va atrofdagilarni baxtli qilishiga bog’liq.

N.V.Naumova, O.G.Makarova, O.G.Sharaxovalar bolalarda kasbga yo‘nalish olish kompetentligini shakllantirish zaruriyati ustida to‘xtalib, kasbga qiziqtirishning pedagogik-psixologik usullarini tanlashda quyidagi prinsiplarga tayanish zarurligini ta’kidlaydilar:

• tarbiyalanuvchilar yoshi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ta’lim sohalarini integratsiyalash prinsipi;

• har xil faoliyat turlarida bolalarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash prinsipi;

• bola ta’limiy munosabatlarning to‘laqonli ishtirokchisi ekanini e’tirof etgan holda, kattalar va bolalarning o‘zaro hamkorligi va birgalikda sa’y-harakat qilishi prinsipi;

• ta’limiy faoliyatni har bir bolaning individual xususiyatlarini nazarda tutgan holda tashkil etish prinsipi;

• bolaga bolalikning barcha bosqichlarini to‘laqonli yashab o‘tishiga imkoniyat yaratish, bola rivojlanishini amplifikatsiyalash (to‘laqonli kechishini ta’minlash, boyitish) prinsipi;

• bolani turli xil faoliyat bo‘yicha bilishga qiziqishi va intilishini rag‘batlantirish prinsipi;

• maktabgacha ta’limning yoshga mosligi prinsipi (shart-sharoitlar, talablar, rivojlanish xususiyatlari, metod va talablarning bolalar yoshiga mosligi);

• rivojlantiruvchi (tizimlilik va izchillik nuqtai nazaridan) ta’lim prinsipi;

• yangilik (yangi axborot texnologiyalari)ni qo‘llash prinsipi[7].

Kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borgan rus olimi Ye.A.Klimovning fikricha, mehnatga psixologik jihatdan tayyorlik oila va ta’lim muassasasida ikki xil yo‘nalishda ruhiy tayyorlik (motivatsiya doirasida); 2) ruhiy tayyorgarlik (operatsion doirada, ya’ni sa’y-harakatlar orqali) olib borilishi zarur.

Bolani kasbga qiziqishga hissiy-emotsional yo‘naltirish uchun avvalo unda tegishli motivlarni vujudga keltirish zarur. Mehnatga undovchi motivlar: 1) bolani kasbga yoki muayyan kasbiy mehnat faoliyatini bajarishga undovchi turli sabablar majmui; 2) bolaning kasbga qiziqishini qondirish bilan aloqador faoliyatga moyilligi demakdir.

Motivatsiya doirasidagi tayyorlik shaxsning mehnat qilishga tayyorligi, unda ishlash ehtiyojining mavjudligi, mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglashi, har qanday mehnat turiga birdek hurmat bilan yondashishi, ularga ijobiy munosabatda bo‘lishi (mehnat quvonchini his qilishi), kasb tanlashga tayyorligi, o‘z mehnati natijalariga talabchanlik bilan yondashishi, mas’uliyatni his qilishi, maqsadga erishishga qat’iyat va mas’uliyat bilan yondashishi, mehnatdagi tashabbuskorligi kabilarda namoyon bo‘ladi.

Operatsion doirada, ya’ni sa’y-harakatlar orqali tayyorgarlik esa o‘zi yashaydigan hududdagi talab etilayotgan kasblar olami haqida yetarlicha bilimga egaligi, umummehnat ko‘nikma va malakalariga egaligi, mehnat qilishga odatlanganligi, o‘z yoqtirgan mehnat yo‘lini qanday ekanini bilishi, mehnat ko‘nikma va malakalarini oqilona rivojlantirib borishga tayyorligi, tanlagan kasbining inson salomatligi va turmush tarziga pozitiv va negativ ta’sirini bilishi, muayyan vaqt oralig‘ida ushbu mehnat turi bilan shug‘ullanib, mo‘ljallangan mahsulotni tayyorlay bilishi, mehnatning og‘ir, bir turli ish jarayonini tasavvur qila olishi, o‘z mehnat operatsiyalarini rejalashtirish, nazorat qilish ko‘nikmalariga egaligi, mehnat intizomi tushunchasiga egaligi, mehnat madaniyati nima ekanini bilishi (ish ritmi, maromi, tezligi kabilarni nazorat qila bilishi), jamoa tarkibida ishlay bilishi, mehnat vositalari, jihozlarini bilishi, qancha vaqtda bajara olishini, umumiy mehnatdagi o‘z ulushini belgilay bilishi kabilarni qamrab oladi[8].

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblarga doir o'yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo'ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. Kasbga doir o'yin xayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqelik, odamlar mehnati to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi[9].

---

[7] Н.В.Наумова, О.Г.Макарова, О.Г.Шарахова. Психолого-педагогические приёмы формирования у дошкольников представлений о мире профессий. - ***HTTPS://CYBERLENINKA.RU/ARTICLE***

[8] https://works.doklad.ru/view/c20sJlqGxS4/all.html

[9] O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ,,Maktabgacha Pedagogika” 2019 yil.128-bet

Xalqaro tajribalarni o‘rganish davomida kasbga yo‘naltirish mazmuni va tahliliga ham alohida e’tibor qaratildi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga yo‘naltirishning bir qator yo‘nalishlar mavjud, bular: tahliliy yo‘nalish, ta’limiy yo‘nalish, shaxsga yo‘naltirilgan yo‘nalish shakllanayotgan yo‘nalish, rivojlanayotgan yo‘nalish uning (qiymatli,mintaqaviy, insonparvarlik va boshq.) jihatlari kabilardir.

Shuning uchun, maktabgacha katta yoshdagi bolalarga ta’lim tarbiya berishda, asosiy vazifa shaxsning individual xususiyatlarni o‘rganish va ta’lim tarbiya uchun optimal sharoitlarni tashkil etish lozim. Bu olimlarning fikriga ko‘ra kasb tanlashga yo‘llash o‘quv jarayonining ajralmasqismi bo‘lishi kerak.Kasbga yo‘naltirishning tarbiyaviy yo‘nalishi bolalarning ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, kasb tanlashda va berilgan imkoniyatlardan foydalanishda mustaqil qaror qabul qila olishigao‘rgata olishi lozim. Kasbga yo‘naltirishning bunday yondashuvi shaxsqobiliyatlarini rivojlanishiga olib keladi. Lekin, u differentsial ruhiyfiziologiya nazariyasi va amaliyotida olingan ma’lumotlarni inkor qiladi. Odamlar orasidagi mavjud tabiiy va kam o‘zgaruvchan individual farqlar birxil kasblarda chidamlilikni shakllantirishiga yoki boshqalariga esa bajaraolmas to‘siq bo‘lishi mumkin.

Kasbga qiziqtirishda insoniylik xissini uyg‘otishda, tarbiyalanuvchining insonparvarlik tushunchasining umumiy tamoyillariga asoslaniladi.

Kasbga yo‘naltirishning rivojlanishi, kasbni to‘g‘ri tanlanishini belgilovchi omildir.Bu esa, kasb tanlovchini muhim hayotiy va kasbiy vazifalarini hal etish jarayonida faol bo‘lishini talab etadi.

Kasbga yo‘naltirishning asosiy maqsadi, bola kasbni mustaqil tanlashda uning psixologik tayyorgarligini shakllantirishni jadallashtirishdir. Amaldagi kasb tanlashga yo‘llash ishlarida diagnostika va tarbiya masalalarida uzluksizlik mavjud bo‘lsada, haligacha bu sohadaolimlar o‘rtasida nazariy va amaliy ishlanmalar yuzasidan muhokamalar davom etib kelmoqda.

Kasbga yo‘naltirishning asosiy maqsadi, kasbni mustaqil tanlashda uning psixologik tayyorgarligini shakllantirishni jadallashtirishdir.

Xulosa qilib aytganda, bola shaxsini shakllanishida, kasbning uyg‘unlashgan holda amalga oshirilishida, avvalo oila hamda makttabgachata’lim tashkilotlarining o‘rni katta ahamiyatga egadir. Albatta bu faoliyatlar tarbiyalanuvchilarning, keyingi ta’lim-tarbiya jarayonlarining uzluksizligini ta’minlaydi hamda bola shaxsining shakllanishiga zamin yaratadi. Ko‘plab mualliflar shu narsani ko‘rsatib o‘tadilarki, o‘yinli texnologiyalarning rivojlanishi bolada ijodiy xususiyatdagiqobiliyatlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu qobiliyatlar o‘yin davomida rivojlanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘yindagi ijodkor g‘oyasini keltirib chiqarishga, uni amalga oshirishga, o‘z bilimlariniva tasavvurlarini kombinatsiyalashtirishga, o‘z fikrlari va hissiyotlarini chin dildan qobiliyatlarida ifodalashga, qiyofani yaratishga, uni rol o‘ynash jarayonida o‘ylab chiqarishga va uni yuzaga chiqarishga qodirligi va boshqa shu kabilarda

ifodalanadi.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini shakllantirishda elektron o‘yinlar tehnologiyasidan foydalanishimiz aynan shu sohada kutilgan innovatsiya bo‘ladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ecological Culture Development of Independent Learning, Creativity, Integrative Technology and Logical Thinking. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2524-2529.
2. Djamilova, N. (2022). factors affecting the development of life strategies in students. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(04), 187-191.
3. Djamilova, N., Isabekova, D., & Abduqodirova, O. (2023). directing preschool children to profession at the early age. Science and innovation, 2(B9), 500-507.
4. Djamilova, N., & Kadirova, N. (2023). systematical work in pre-school education organisations and its influence to the children. Science and innovation, 2(B3), 207-213.
5. Djamilova, N. N. (2023). systematical work in pre-school education organisations and its influence to the children. Science and Innovation, 2(3), 207-213.
6. Djamilova, N. N., Khodjimuratova, B. N., Khasanova, S. T., Nurmatova, I. T., & Kim, I. N. (2020). features of organizing steam education in uzbekistan. Solid State Technology, 63(1s), 1803-1808.

ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MEHNAT TURLARI VA BOLALAR MEHNATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Mehnat odamlarning biror bir maqsad uchun sarflagan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnatsiz yashamoq mumkin emas. Barcha tirik mavjudot nimanidir iste’mol qilish hisobiga yashaydi, umrini davom ettiradi. Yerda yashovchi mayda qurt-qumursqadan tortib, parrandalargacha, suv ostida yashovchi jonivorlardan tortib, ulkan hayvonlargacha ovqatsiz yashay olmaydilar. Xuddi shuningdek, odamlar ham uzluksiz ovqatlanadi, hayot kechiradi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli odamlar kiyinishadi, uy-joy

qurishadi, savdosotiq qilishadi, ijod qilishadi. O‘zlariga kerakli narsalarni yaratish uchun odamlar mehnat qilishlari zarur. Mehnat jarayonida oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur narsalar yaratiladi.

Mehnat har qanday moddiy va ma’naviy boyliklarning asosiy manbayi, shu bilan birga shaxsni har tomonlama kamol toptirishning muhim vositasidir. Mehnat jarayonida insoniy xislatlarning faol namoyon bo‘lishi uchun eng qulay sharoitlar yaratadi va har bir kishida ma’naviy qoniqish hosil qiladi.Har bir bola maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab mehnatda ishtirok etishi zarur. Bolalar bog‘chasida, oilada bajariladigan uncha murakkab bo‘lmagan har bir topshiriq uning kundalik vazifasiga aylanishi kerak. Bola mehnatning ahamiyati va mohiyatini tushunib yetishi uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o‘zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi.

Mehnat bolalarning jismoniy rivojlanishida zarur shartlardan biri hisoblanadi. Mehnatda bola o‘zining ishlash, harakat qilish ehtiyojini qondiradi, harakatlarning aniq, uyg‘un bo‘lishini ta’minlaydi. Mehnat jarayonida bola organizmining umumiy hayotiy faoliyati, uning chidamliligi ortadi. Bolalarning turli xil mehnat jarayonlarida ishtirok etishlari, kattalar mehnati bilan tanishishlari ularning tevarak-atrofdagi hayot haqida, kishilarning o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida, narsalar va ularning xususiyatlari, materiallarga ishlov berish usullari haqida, qurilmalar va asboblar to‘g‘risida muayyan tasavvurlarga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Mehnat bolalardan diqqat, o‘tkir zehnlilik, topqirlik, bilib olgan malaka va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay bilish, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi.

Kattalarning mehnati bilan tanishtirish yana quyidagi maqsadni ko‘zlab ham amalga oshiriladi: kattalar mehnati to‘g‘risida aniq bilim va tasavvurlar berish, mehnatni va mehnat natijalarini qadrlashga o‘rgatish, mehnatga qiziqish va muhabbat uyg‘otish, mehnat qilish xohishini tarbiyalash va ishni sifatli bajarishga o‘rgatish.

Kattalar mehnati bilan tanishtirishning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- har bir kishi mehnatining ijtimoiy mohiyati;
- mehnat ahli o‘rtasidagi ijobiy o‘zaro yordam berish munosabati;
- har qanday kasb ham muhim ekanligini tushuntirish.

Mehnat faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtirish:

. mehnatning maqsadi, uning ijtimoiy ahamiyati;

. materiallarni tanlash (mehnat materiallari); . jihozlash (mehnat faoliyati uchun zarur bo ‘lgan asboblarni tayyorlab olish); mehnat jarayoni (maqsadga erishish uchun bajariladigan mehnat harakatlari); . natija-mehnat mahsuli.

Mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallab olish - Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnati jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar bola mehnat harakatlarini bilmasa,

u hech qachon mehnat natijasiga erisha olmaydi. Bolalar mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallab olganlaridagina mehnat jarayonini bajonidil bajaradilar.

Bolalarning mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllaridan yana biri qo‘l mehnati bo‘yicha mashg‘ulotdir. Bilim va malaka birinchi marta berilayotgan bo‘lsa va tushuntirish hamda barcha bolalarga yaqqol, ko‘rgazmali qilib ko‘rsatishni talab etgan hollarda ana shunday mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Bolalarning jamoa mehnati dastlabki jamoachilik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Jamoa mehnatida birgalikda harakat qilish, o‘zaro yordam, shu bilan birga mehnat taqsimoti ham mujassamlashgan bo‘ladi. Bunda mehnat yutuqlaridan birgalikda quvonadilar, ish yaxshi chiqmasa birgalikda qayg‘uradilar. Mehnatda bolalarning birlashishlari tarbiyaviy vazifaga qarab har xil shaklda bo‘ladi.

Shunday qilib, mehnat jarayonining undagi tarkibiy qismlar bilan egallab olinishi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar mehnat faoliyatining boshlanishi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Kodirova F.R, Toshpulatova Sh.K, Kayumova N.M., Agzamova M.N. Maktabgacha pedagogika. Darslik.— T.: Tafakkur, 2019.
2. Djuraev R.X. Ta’lim menejmenti. O’quv qo’llanma.— T.: 2006.
3. Axmedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish. Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi II xalqaro anjuman. - T., 2009.
4. KayumovaN. Maktabgacha pedagogika. O’quv qo’llanma. — T., TDPU, 2013.
5. Jumanova F.U. Umumiy pedagogika. — Toshkent: Ilm ziyo zakovat, 2023.
6. Sodiqova Sh.A.Maktabgacha pedagogika. Darslik. — T.,Tafakkur bo’stoni, 2013.

BO’LAJAK TARBIYACHILARNING MALAKAVIY O’QUV AMALIYOT JARAYONIDA KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Shakarova Sarvinoz Ixtiyor qizi
Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi talabasi

Mamlakatimizda yosh avlodni sog’lom va har tamonlama barkamol qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbia jarayonini samarali tashkil etish bo’yicha keng ko’lamli ishlar amalga oshrilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4623-conli Qarorida pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirishga oid ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh

kadrlarda o‘quv-bilish faoliyatini samarali rivojlantirish va h.k. kabi ustuvor yo‘nalishlar muhim vazifa sifatida belgilab berildi

Malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalari hamda kompetentlikni rivojlantirish metodikasiga ko‘ra, “kompetentlik” tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: xulq-atvor, kognitiv, operatsion, texnologik, motivatsion, ijtimoiy va axloqiy komponentlar, ta’lim natijalari va boshqalar[10]. Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishga bag‘ishlangan ishlar va materiallarda «kompetentlik» tushunchasining umumiy qabul qilingan aniq ta’rifi mavjud emas. Bundan tashqari, pedagogika fanida tarbiyachilarning “kompetensiyalari”ni izohlash bilan bog‘liq masalalar hali ham muhokama qilinmoqda.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bilimga ega bo‘lishida tarbiyachi- pedagogning roli yuqori hisoblanadi. Tarbiyachi- pedagog kasbiga oid bilimlarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi lozim:

- yangicha yondashuvda shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishdagi ma’lum bo‘lgan qolip va bir xillikdan voz kechish;
- amaldagi meyorlar doirasidan chetga chiqib, bilim berishning yangicha usullarini qo‘llash

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv muammosi (N.V.Kuzmina, A.K.Markova, J.Raven, R.Uayt, N.Xomskiy va boshqalar)ga oid ishlarni tahlil qilish asosida uning ta’limda shakllanishida uch bosqichni ajratish mumkin. *Birinchi bosqich* – kompetensiyaga asoslangan yondashuvning rivojlanishi 1960–1970 yillarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda “kompetensiya” tushunchasi ilmiy apparatga N.Xomskiy tomonidan kiritilgan (1965) bo‘lib, kompetentlik va kompetensiya ta’riflarini farqlash shartlari belgilangan edi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishning *ikkinchi bosqichida* (1970-1990) til o‘rgatish nazariyasi va amaliyoti, boshqaruvchi kasbiy mahorat, yetakchilik va boshqaruv sohalarida “kompetentlik” va “kompetensiya” atamalaridan foydalanish ko‘zda tutilgan. Bu davrda “ijtimoiy kompetensiyalar/kompetentlik” tushunchasining mazmuni ishlab chiqila boshlandi.

Tadqiqotchilarning fikricha, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasining tuzilishi kasbiy bilim, ko‘nikma va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlardan iborat bo‘lishi kerak. Pedagogik kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: “bilimlar, ko‘nikmalar, shuningdek, ularni faoliyatda, muloqotda, shaxsning rivojlanishida (o‘zini-o‘zi rivojlantirishda) amalga oshirish usullari va vositalari to‘plami. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida olingan bilim, ko‘nikma, malaka va ularni amalga oshirish usullari ushbu tushunchaning tarkibini tugatmaydi. Tarbiyachining

[10] Rakhmatov U.E. A perfection of the professional competence of teachers by using of creative works in biology lessons under solving tasks and exercises //European Science Review, Vena. № 3–4. 2018, – P. 225 – 228. ISSN 2310 – 5577

shaxsiy salohiyati, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy fazilatlar majmui katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyat turlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, Tarbiyachining kasbiy-pedagogik kompetensiyasining bir qismi sifatida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘plab kompetensiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin, masalan, o‘quv, tashkiliy, uslubiy, ilmiy, AKT kompetensiyasi, o‘z-o‘zini tarbiyalash kompetensiyasi va boshqalar. A.K. Markovaning fikriga ko'ra: Maxsus kompetensiya – kasbiy faoliyatni yuqori darajada egallash, kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati. Ijtimoiy kompetensiya – “qo‘shma kasbiy faoliyatga ega bo‘lish, hamkorlik qilish”, kasbiy aloqa; o‘z kasbiy faoliyati natijalari uchun jamiyat oldida javobgar bo‘lishga tayyorlik. Shaxsiy kompetensiya – bu shaxsiy o‘zini rivojlantirish va o‘zini namoyon qilish, kasbiy shaxsiy o‘zgarishlarga qarshi turish qobiliyatidir. Individual kompetensiya – bu o‘z-o‘zini anglash, kasbiy individuallikni rivojlantirish, individual o‘z-o‘zini saqlash, kasbiy o‘sishga tayyorlik, ish va dam olish bilan bog‘liq kun tartibini tashkil qilish, kasbiy pasayishning oldini olish qobiliyatidir.

E.F. Zeerning fikriga ko’ra esa: Ijtimoiy-huquqiy kompetensiya – bu davlat muassasalari bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, kasbiy muloqot va xulq-atvor texnikasini egallash qobiliyatidir. Maxsus kompetensiya – ma’lum bir faoliyat turini mustaqil ravishda bajarishga tayyorlik; standart kasbiy vazifalarni hal qilish va ularning faoliyati natijasini baholash qobiliyati; mutaxassislik bo‘yicha mustaqil bilim va ko‘nikmalarni egallash qobiliyati. Shaxsiy kompetensiya – bu ko‘nikmalarni rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek, kasbiy faoliyatda o‘zini o‘zi anglash qobiliyatidir. Autokompetensiya – bu kasbiy qobiliyatlarni ob’ektiv baholash va kasbiy muammolarni bartaraf etish texnologiyalarini o‘zlashtirish. Maktabgacha tizimda faoliyat olib boruvchi tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasining tuzilishini hisobga oladigan bo‘lsak, tadqiqotchilar umumiy fikrga ega emaslar. V.A. Slastenin «Kasbiy kompetensiya tushunchasi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy mahoratini tavsiflaydi», deb hisoblagan.

Hozirgi vaqtda ushbu kompetensiyaning tuzilishi bo‘yicha kelishuv mavjud emas. N.N. Lobanova uni shaxsning tizimli mulki sifatida tavsiflab, uchta komponentni ajratib ko‘rsatadi: kasbiy ta’lim, kasbiy faoliyat va kasbiy-shaxsiy. Kasbiy ta’lim (asosiy) – kishi shaxsini o‘rganadigan fanlar asoslari bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lish. Kasbiy faoliyat – amaliyotda sinovdan o‘tgan va shaxs tomonidan eng samarali deb belgilangan kasbiy bilim va ko‘nikmalar. Kasbiy-shaxsiy – Tarbiyachining shaxs, shaxs va faoliyat sub’ekti sifatidagi pozitsiyasi va yo‘nalishini belgilaydigan shaxsiy fazilatlar. Turli xil yondashuvlarga qaramay, mualliflar kompetensiya tarkibida nazariy, amaliy va shaxsiy darajalar (komponentlar) mavjudligiga qo‘shiladilar. *Uslubiy* kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: bilimlarni o‘zlashtirish yo‘llarini bilish, o‘quv jarayonida didaktik usul va vositalarni qo‘llash qobiliyati. Uslubiy

kompetensiya quyidagilar bilan ifodalanadi: motivatsion-shaxsiy, predmet-mazmun, nazariy-uslubiy va operativ-faoliyat (nazariy va amaliy komponentlarning birligi) komponentlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SH.M.Mirziyoyev "Maktabgacha ta‟lim tizmi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari" to‟g‟risidagi PF-5198 son farmoni 30.09.2017yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O‘zbekiston", 2017. – 48 b.
3. Djanpeisova G.E., Xodjimuratova B.N. Matematik tasavurlarini shakllantirish. T.: "Innovasiya-Ziyo", 2020
4. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). Development of imaginary-creative competences in the process of preparing future teachers for profession. In *Next Scientists Conferences* (pp. 84-91).
5. Ramozonova , B. S., Maxmudova , D. A., & Ergasheva , B. Z. qizi. (2023). MALAKAVIY O‘QUV AMALIYOTIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 52–56.
6. Sadriddinovna, R. B. (2022). TECHNOLOGIES FOR INCREASING OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Confrencea*, *6*(6), 226-227
7. Maxmudova, D., & Bahoroy, R. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *Modern Science and Research*, *2*(10), 118-122.

MALAKAVIY O‘QUV AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Allambergenova Gulasal Mansur qizi
Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabasi

Bo'lajak pedagogining ta'lim tarbiya berish jarayonidagi o'rnini qay darajada muhimli uning malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlanganligida namoyon bo'ladi. Kasbiy kompetensiylarning rivojlanganligi fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida

faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasida namoyon bo'ladi. Ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirish uchun qator chora- tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talab – eng avvalo o'z ustida izlanishlar olib borishidir. XXI-asrda maktabgacha - tarbiyadagi dinamik o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, bo'lajak tarbiyachilarning integrativ roliga tayanadi, jumladan: ta'lim jarayonini integral jarayon sifatida tushunish; analitik fikrlash; qobiliyatlar to'plami; muammolarni tanqidiy baholash; soha va vaziyatni kontekstual tushunish; butun mehnat faoliyati davomida o'z bilimlarini to'ldirish va ta'lim-tarbiyadagi o'zgarishlariga, ta'lim talablariga moslashish qobiliyati; innovatsiyalarni ularni loyihalash va o'quv bosqichlarida sintez qilish qobiliyati va boshqalar.

Bo'lajak tarbiyachilarning malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish sifati uchun jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, kasbiy vazifalariga mas'ulyatli yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi pedagog hamkasblarini o'sishiga yordam beradi. Demak, bolajak tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik mahorat quyidagi asosiy komponentlarni o'zlashtirishni talab etadi:

- Pedagogik ijod
- Pedagogik texnika
- Pedagogik muomala
- Pedagogik madaniyat
- Pedagogik nazokat
- Pedagogik qobilyat

Bularning barchasi xususiy mohiyat-mazmun kasb etsada, ular yaxlit holda bo'ajak tarbiyachining kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi. Malakaviy o'quv amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi muvaffaqiyatli shakllantirish uchun quyidagi asosiy pedagogik shartlar mavjud:

1. Tanlangan kasbga ijobiy munosabat va kasbiy o'zini o'zi takomillashtirishga doimiy ehtiyojning mavjudligi (kelajakdagi kasbiy faoliyat mazmuni to'g'risida aniq fikr; kasbiy motivatsiyani mustahkamlash; tarbiyachilarni faol kasbiy yo'naltirilgan faoliyatga kiritish; kasbiy aks ettirish).
2. Kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashni faollashtirish (tarbiyachilarning o'z-o'zini takomillashtirish bo'yicha maqsadli mustaqil ishi; kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash;).

3. Tarbiyachilarni kelajakdagi mutaxassislikka haqiqiy amaliy faoliyatga kiritish (oliy maktab tarbiyachilarining professionalligi; tarbiyachilarning o‘quv, ilmiy va kasbiy faoliyatini samarali boshqarish; oliygohda kreativ muhit yaratish; tarbiyachining murabbiylik funksiyasi; ta’lim muassasasining ijobiy axloqiy va psixologik iqlimi.

Pedagogik jarayon – bu murakkab, ko‘p qirrali, doimiy ravishda o‘zgarib turadigan integral hodisa bo‘lib, unda insonning shakllanishi, rivojlanishi, tarbiyasi, ta’limi jarayonlari, shuningdek, ushbu jarayonning barcha shartlari birlashtiriladi. Pedagogika fanida sharoitlar shaxsni rivojlantirish omillarining ta’siriga hissa qo‘shadigan yoki to‘sqinlik qiladigan tashqi va ichki holatlar sifatida qaraladi, masalan: faoliyatga tayyorlik, atrof-muhitni rag‘batlantirish, moddiy, ta’lim resurslarini qo‘llab-quvvatlash va boshqalar. Keng ma’nodagi sharoitlar, sabablar, rivojlanish omillari, texnologiyalar, usullar, o‘qitish vositalari, ta’lim, boshqaruvni qo‘llab-quvvatlash, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro ta’sir va boshqalar sifatida talqin etiladi.

Demak bugungi kunda malakaviy amaliyot jarayonida bo’lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik mahoratini oshirishi, innovatsion faoliyatga tayyor bo’lib ta’lim-tarbiya jarayoniga so’ngi yangiliklarni olib kerishi, o’z ustida doimo izlanishda bo’lishi ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
2. Fayzullayeva N. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta’lim j. – T.: 2006. 6-son
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022-yil
4. Sadriddinovna, R. B. (2022). TECHNOLOGIES FOR INCREASING OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Confrencea*, *6*(6), 226-227.
5. Ramozonova, B. (2023). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE EDUCATORS DURING THE PROCESS OF QUALIFIED EDUCATIONAL PRACTICE. Science and innovation, 2(B4), 228-230.
6. Muratova, M.O. R., & Dekhkambaeva, Z. (2022). Maktabgacha Ta'lim Muassasasida Bolalarning Hayot Faoliyati Xavfsizligi. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, *13*, 111-113.

7. Barno, E. (2023). O‘zbekistonda maktabgacha talim muassasalarining zamonaviy tizimi. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.
8. Ramozonova , B. S., Maxmudova , D. A., & Ergasheva , B. Z. qizi. (2023). MALAKAVIY O‘QUV AMALIYOTIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 52–5

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LUG‘ATINI BOYITISH TEXNOLOGIYALARI

M.P.Xamidova,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Aqli zaif bolalarning so‘z boyligini oshirish maxsus pedagogikaning dolzarb masalalaridan bo‘lib kelgan. So‘z nutqning eng asosiy xom ashyosidir. Mudomiki shunday ekan, maktabgacha oligofrenpedagogika fanining oldida turgan eng asosiy talablardan biri bolalarni so‘zlar xazinasiga olib kirish, bu xazinadan baxramand qilishdir. Bu murakkab vazifani so‘z ustida mutasil ish olib bormay turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Aqli zaif bolalar bilan olib borilgan kuzatishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular predmetlar va holatlarni bildiruvchi so‘zlarning ma’nosini tushunishda qiyinchilik va xatolarga duch keladilar, hayotiy tajribalarida kam uchraydigan predmetlarni hatto ko‘rsata olmaydilar. Shuning uchun maktabgacha ta’lim maxsus tashkilotida bolalarning faol lug‘atini ularga notanish va qiyin so‘zlar hisobiga boyitish ustida ishlash muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar lug‘atini kengaytirish ishi uni qurshab olgan olam bilan tanishtirish asosida olib boriladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning passiv so‘z boyligi salmog‘i faol nutqidan yuqori turadi. Rasmdagi tasvirlarni mazkur toifadagi bolalar ko‘rsatib bera oladi, ammo nomlashga aqliy imkoni yetmaydi. Faol so‘z boyligining kamligi aqli zaif bolalarning atrofdagilar bilan muloqot qilishda qiyinchilik tug‘diradi. Aqli zaif bolalar ba’zi so‘zlarning rasmdagi tasvirini aytib beradi, lekin boshqa sharoitda va vaziyatda shu so‘zlarning ma’nosini tushunmaydi. Shu bilan birga, so‘z boyligining kambag‘alligi tufayli bolalar bir guruh so‘zlardagina foydalanishi natijasida nutqning bir yoqlama, noaniq bo‘lishga olib keladi.

Lug‘at ishi — bolalarni tevarak - atrofdagi hayot bilan tanishtirish ishining ajralmas qismi bo‘lib, u turli metod va usullar bilan amalga oshiriladi. Lug‘at ishida quyidagi usullardan foydalaniladi:

- Lug‘at ishining yetakchi vositasi o‘rgatishdir. O‘rgatish mashg‘ulotlari bolalar lug‘atini boyitishning samarali yo‘lidir. Lug‘at ishi usullari bolalarni tarbiyachi nutqidagi kerakli so‘zni aniqlab, uning ma’nosini tushunib, puxta esda saqlab qolishiga shuningdeq u so‘zni o‘z nutqida ishlatilishiga yordam berishi kerak.

- Yangi va qiyin so‘zni aytib berish bolalar lug‘atining boyitishnin aktiv usulidir. Yangi so‘z aniq, adabiy jihatdan to‘g‘ri qilib bo‘g‘inlarga bo‘lmasdan talaffuz etiladi. Nomini aytib berishda buyumning o‘zi ko‘rsatilib, tushuntirilib beriladi.

- Tarbiyachi bolalarning yangi so‘zlarni eslab qolishlariga erishish uchun takrorlash usulidan foydalanib, mashg‘ulot davomida bir o‘zi ayrim bolalar bilan birgalikda yoki butun guruh bilan qsha so‘zlarni bir necha marotaba takrorlashlari mumkin. Yangi so‘zni barcha bolalar bilan takrorlash usulidan maktabgacha ta’lim tashkilotining barcha guruhlarida foydalaniladi. Bu usul bolalarning nutq aktivligini kuchaytiradi, bir bolaga yangi so‘zni aytish imkonini beradi.

Lug‘at ishi uchun ba’zi mashqlar va didaktik o‘yinlar ham usul sifatida qqllanishi mumkin. Masalan: katta guruhlarda so‘z tanlash mashqlaridan foydalaniladi. Buyumlar klassifikatsiyalash, taqqoslash, topishmoq, o‘yinlardan katta guruhlarda bolalar lug‘atini aktivlashtirish uchun foydalaniladi. Tarbiyachi lug’at ishini rejalashtirayotganida bolalar bilan maxsus ishlashni talab etadigan so‘zlarni aniqlashi va bu so‘zlarni o‘rgatish usullarini tanlashi zarur.

Didaktik o‘yinlar aqliy tarbiya berish metodi bo‘lib, bu metod vositasida bolalarning diqqat, hotira, kuzatuvchanlik. Topqirlik kabi psixik sifatlari tarkib toptiriladi. Didaktik o‘yinlar bolalarning bilimlarini ular uchun oson va qiziqarli formada mustahkamlash imkonini beradi. Didaktik o‘yin nutqni o‘stirishning, lug‘atni mustahkamlash va faollashtirishning muhim metodlaridir. har bir didaktik o‘yin o‘zining dastur mazmuniga ega u buyumlar haqidagi bilimlarni mustahkamlaydi. Bu o‘yin orqali aqli zaif bolalarning his-tuyg‘ularini rivojlantiriladi. Didaktik o‘yinlardan asosan bolalarning aqliy faoliyatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi vosita sifatida foydalanish bilan bir qatorda nutqni o‘stirish, atrof-muhit bilan, tabiat bilan tanishtirishda keng qo‘llaniladi.

O‘yin shaklida o‘tkaziladigan mashqlar esa bolalarning diqqatini o‘ziga jalb qiladi, qiziqtiradi, natijada bolalar o‘zlarini qiynamay, majbur qilmay takrorlash lozim bo‘lgan so‘z yoki harakatlarni osonlik bilan takrorlaydilar. Demak, didaktik o‘yinlar bolalarning nutqlarini o‘stirishda keng foydalaniladigan ta’limiy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlar jarayonida aqli zaif bolalarning so‘z boyligini orttirish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishni mashq qildirish, so‘z intonatsiyasini to‘g‘ri ifodalay olishga o‘rgatish yuzasidan ish olib boriladi. Didaktik o‘yin uchun tanlanadigan material o‘zining tashqi ko‘rinishi bilan bolalarni qiziqtiradigan, o‘yinga jalb etadigan bo‘lishi kerak. Tanlangan narsalar mashg‘ulot mazmuniga mos bo‘lishi, narsalarning belgilari aniq bo‘lishi kerak.

Kichik guruhlarda o‘tkaziladigan didaktik o‘yinlarda asosan turmush lug‘ati, ya’ni bolalarning tevarak-atrofdagi buyumlarning nomlari, sifati va vazifalarini ifodalovchi so‘zlar mustaxkamlanadi. «Qo‘g‘irchoqni cho‘miltirish» o‘yini natijasida bolalar ustki va ichki kiyimlarning, cho‘miltirish uchun zarur buyumlar (sovun, sochiq) ning nomlarini aniqlaydilar.
«Qo‘g‘irchoqni uxlatamiz» o‘yinida bolar ko‘g‘irchoqni yotqizayotib, ko‘rpa-yostiq nomiga, bog‘liq so‘zlarning (tushak ustini yopib qo‘yish, yotqizish) ma’nosini tushunib oladilar.
O‘rta guruhlarda turli mazmundagi o‘yinlarda o‘zlarining turmush lug‘atlarini (kiyim-kechak, idish-tovoq, tabiatga oid: hayvonlar, o‘simliklar, sabzavotlar, mevalar) mustahkamlaydilar, buyumlarning belgilari sifati, vazifalarini bilib oladilar, buyumlardagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlaydilar, buyumlarni guruhlar bo‘yicha klassifikatsiya qiladilar (stol, stul, shkaf, mebel).
Qo‘g‘irchoqlar bilan o‘tkaziladigan turli-tuman o‘yinlarda aqli zaif bolalar so‘z boyligiga yangi so‘zlar kiritiladi va ularning ma’nosini aniqlanadi.
«Qo‘g‘irchoqlarni choy bilan mehmon qilamiz» o‘yinida tanish buyumlarning vazifalari aniqlanadi: choynak — choy uchun, qanddon -qand uchun, sut idish — sut uchun va hokazo.
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar lug‘atini faollashtirishda «Ajoyib xaltacha» o‘yinidan keng fondalaniladi. Bola xaltachadagi narsalarning nomini bilmasa, uning shakli bilan tanishgan bo‘lmasa, u xaltachaga qo‘lini tiqib, qo‘li bilan ushlagan narsaning nomini ayta olmaydi. Shuning uchun bu o‘yinni o‘tkazishda bolalar ma’lum darajada bilim va kunikmalarni egallagan bo‘lishlari kerak. Bu o‘yinda bolalar narsani ko‘rmasdan, ushlab, paypaslab, uning shakliga ko‘ra nomini aniqlash qobiliyati tarbiyalanadi.

Katta guruhlarda buyumlarsiz-og‘zaki didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Katta yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqlarini o‘stirishda, erkin so‘zlay olish qobiliyatlarini tarbiyalashda, hozir javoblikka o‘rgatishda narsalarsiz o‘tkaziladigan og‘zaki didaktik o‘yinlar muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday o‘yinlar bolalarning so‘z boyligi ancha ortganidan, atrof-muhit haqida ma’lum darajada bilimga ega bo‘lganlaridan keyin o‘tkazilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bunday o‘yinda bolalardan berilgan savollarga javob bera bilishlari talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning psixik rivojlanishidagi nuqsonlar buyumlarsiz og‘zaki didaktik o‘yinlarini o‘tkazishda ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning so‘z boyligi sifat jihatidan tahlil qilinganda, asosan ular tomonidan yo‘l qo‘yilgan leksik xatolar, ya’ni so‘zlarning ma’nosiga ko‘ra noto‘g‘ri qo‘llaganliklari kuzatildi. So‘z ma’nosini tushunmagan bola bir so‘zni ikkinchi so‘z bilan almashtiradi va so‘zlarni bir-biri bilan bog‘lay olmaydi. Leksik ma’nosi jihatidan yaqin predmetning nomi, belgisi va ish-harakatini bildiruvchi so‘zlarni differensiatsiya qilishda kamchiliklarga yo‘l qo‘yadilar. Shuning uchun og‘zaki o‘yinlar o‘tkazish tabiiy buyumlar bilan bevosita tanishilgandan keyin rejalashtiriladi,

og‘zaki o‘yinlar tegishli lug‘atni ancha mustahkamlaydigan mashqlar, buyumli o‘yinlar, o‘yinchoqlar va suratlar bilan almashtirilib turiladi.

«Yanglishma» o‘yinida kiyim kechakni ifodalovchi lug‘at faollashtiriladi. Doira o‘rtasida o‘tirgan ko‘zi bog‘liq, bola kiyimining tavsiflab berishiga qarab bolalardan qaysi birining o‘z oldiga kelganini topadi. Masalan: unga «Bu yashil ko‘ylak qizil tufli kiygan, sochiga oq lenta taqqan qiz» deydilar. Topuvchi qizning nomini aytadi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar bilan o‘yinni boshlashdan oldin uni o‘tkazish qoidasi bilan bolalarni tanishtirish, 2-3 marta o‘yinni borishini defektolog ko‘rsatib berishi lozim. o‘yinda mustaxkamlanadigan so‘zlar ro‘yxati oldindan belgilab olinadi. har bir bolaning nutqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘yinga jalb qilinadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Катаева А.А., Стребелева Е.А. Дошкольная олигофренопедагогика. -М.: Гуманит. Изд. Sентр ВЛАДОС, 2001. -141 с.

2. Стребелева, Е.А. Воспитание и обучение детей дошкольного возраста с нарушением интеллекта. – М.: Парадигма, 2012. – 256 с.

3. Xamidova M.P., M.Y. Ayupova. Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.,2009.

4. Raxmonova V.S Maxsus pedagogika. T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2004.

5. Mo’minova L.R. va boshqalar. Maxsus psixologiy. -T.: Noshir, 2013 y.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHNING BUGUNGI KUN TALABLARI

Jumagaliyeva Tozagul Yesangaliy qizi,

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Ta’lim – maktabgacha yoshdagi bolaning bilish qobiliyatlarining muntazam-rejali ravishda rivojlantirib borish, MTTning talim-tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta’lim yetakchi rol o‘ynaydi. Chunki, ta’lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi.

Ta’lim – bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta’lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning singchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. MTTda bolalarga madaniy-gigienik ko‘nikmalar, asosiy harakatlar o‘rgatiladi, ular madaniy axloqiy qoidalarini o‘zlashtirib oladilar. Ta’lim jarayonida bolalarda o‘quv faoliyatlari asoslari hosil qilinadi, ularni maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi.

Ta’limni ikki yo‘l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, bolalarni bilim, malaka, ko‘nikmalarni kattalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi orqali egallab borishidir. Bu muomala mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o‘quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan rejali ravishda xabardor bo‘lib borishidir. Bunday yo‘l bilan ta’lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo‘lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.Bolalarga ta’lim berish jarayonida tarbiyachi har xil metodlardan, usullardan foydalanadi. Bular: ko‘rgazmali, o**g‘**zaki, amaliy, o‘yin metodlari, kuzatish, tushunish, mashq, didaktik o‘yinlar, ko‘rsatish, namoyish etish, so‘zlab berish, o‘qib berish, hikoya qilish, harakatli o‘yinlar va hokazo.

Kuzatish metodi. Bolalarni tevarak atrof bilan tanishtirish imkonini beradi. Bunda bolalar ko‘rish, eshitish, sezish idroklari orqali bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa asosan yangi bilim berishda qo‘llaniladi.

Kuzatish – bolalarning narsa, voqealarning ma’lum maqsadi bilan rejali idrok etishidir. Kuzatish metodi ma’lum ob’ektlarni kuzatishda yetakchi o‘rinni egallaydi.

Namoyish etish metodi. Bu metod tarbiyachi bolalarga narsani o‘zini yoki tasvirini ko‘rsatadi. Bu bevosita ko‘rib bo‘lmaydigan narsalar (boshqa tabiy zonadagi hayvonlar, o‘simliklar, kishilar hayoti bilan) qo‘llaniladi.Hikoya qilib berish - materialni aniq, obrazli, ta’sirchan bayon qilish. O‘rta guruhdan boshlab badiiy asarlarni ifodali o‘qib berish.

Suhbat metodi. 3-4 yoshli bolalar bilan o‘tkazilmaydi. 4-5 yoshli bolalar bilan ham qisqa suhbat o‘tkaziladi. 6 yoshdani boshlab suhbat mustaqil mash**g‘**ulot sifatida o‘tkaziladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’limning frontal (umumiy), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta’lim berish ishlari ekskursiya, didaktik o‘yinlar orqali, kun davomida bolalarning mash**g‘**ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o‘yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta’sir etishadi, o‘z tashabbusi, topog‘onligini namoyon qilish imkoniyati tu**g‘**iladi. Bolalar oldiga umumiy zo‘r berishning talab etuvchi vazifa qo‘yilganda

birgalikda qay**g‘**urishadi, jamoatchilik xissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o‘yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o‘qishda paydo bo‘lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do‘stona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mash**g‘**ulotda ta’lim berish orqali bolalarda maktabdagi o‘qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik xissi, o‘zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to‘**g‘**ri sifatlar hosil qilinadi.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti”da “Maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim dasturi” aks etgan. Dastur - muhim vosita bo‘lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta’lim jarayonini tashkil qilish yo‘llarini belgilaydilar.

Albatta maktabgacha ta’limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta’lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Dastur asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

- o‘zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- tanqidiy fikrlash;
- tanlashni amalga oshirish;
- muammolarni eta olish;
- ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to‘**g‘**risida **g‘**amxo‘rlik qilish.

Bugungi dunyo kechagi kabi emas, ertangi kun ham bugungi kabi bo‘lmaydi! Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda. Zamonaviy bolalarning 65 foizi bugungi kunda mavjud bo‘lmagan kasblarni egallaydi. Kelajakdagi mutaxassislar texnologiya, ilm-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleks ta’lim va bilimlarga muhtoj bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1 Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va

2 xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

3 Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102 b.

4Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

5XasanboevaO.U. vaboshq. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA TEXNOLOGIK YONDASHUV

Fayzullayeva Mahliyo O‘ktam qizi,

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘lida olib borilayotgan islohotning muhim yo‘nalishi sifatida ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish e’tirof etildi. Bu jarayonning samaradorligi pedagoglar tomonidan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini ta’lim amaliyotida faol qo‘llanilishi, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo‘lish va axborot almashinuvi bunning yaqqol dalili hisoblanadi.

Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik faoliyatning muhim ko‘rinishi bo‘lib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- pedagogning texnologik madaniyatga egaligi;
- pedagogning pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida tajribaga egaligi;
- pedagog tomonidan pedagogik texnologiyalarga “ijodiy” o‘zgarishlar kiritilishi va ularning qayta shakllantirilishi;
- pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etishda o‘qitiuvchi va talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik negizida muvaffaqiyatli vaziyatlarning qaror topganligi;
- pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik;
- peagogik texnologiyalarning talabalar va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashdagi imkoniyatlarga egaligi;
- talabalar o‘quv-bilish faoliyatining ijobiy ahamiyat kasb etishi.

Bunda quyidagi mezonlar muhim ahamiyatga ega:

• asosiy bosqichlar;

• loyihani yaratish;

• talabalar faoliyatini tashxislash ;

• pedagogik jarayonni tashkil etish ;

• pedagogik jarayonning samarali kechishini ta’minlash ;

• talabalar faoliyatini nazorat qilish.

Pedagogik vazifaning hal etilishiga o‘qituvchi va tinglovchi faoliyatlarining mazmuni, vositalarini loyihalash orqali erishadi. Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya’ni, ta’lim jarayonini texnologik strukturasiga muvofiq yoritish zaruratini taqozo etadi. O‘qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta’lim jarayonini loyihalash alohida ahamiyatga ega. Har bir o‘quv kursini o‘rganish alohida mavzu va bo‘limlarni loyihalash asosida amalga oshiriladi. Loyihalash mahsuli ta’lim jarayonining loyihasi sanaladi. Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida ta’lim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari ajratildi.

Ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini loyihalash ikki darajada:

a) pedagog faoliyati darajasida (ta’lim jarayonining alohida qismlarini loyihalash);

b) ta’lim menejeri faoliyati darajasida (ta’lim jarayonini yaxlit loyihalash) amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtiriladi hamda loyihalash qonuniyatlari pedagogik faoliyat ko‘rinishi bo‘lib, u ta’lim jarayonining texnologik tuzilmasi hamda o‘qitish natijasini kafolatlovchi metod va vositalar yig‘indisiga egaligi bilan tavsiflanadi.

Ta’lim jarayonini loyihalash:

1. Ta’lim jarayonining loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiy-psixologik muhit)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta’minlanadi.

2. Ta’limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog‘liq holda tanlanadi.

3. Loyihalash strategiyalari o‘qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi.

4. Loyihalash sifati teskari aloqa (o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi) ko‘lami, loyihalash mazmuni, shuningdek, barcha omillar samaradorligiga bog‘liq loyihalash tamoyillarining nazariy asoslarini ishlab chiqishga, pedagogik faoliyat amaliyotida qo‘llashga zamin tayyorlaydi.

Mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonini loyihalashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Markazlashtirish tamoyili texnologik jarayonda tinglovchilar faoliyati modelini loyihalashning bosh elementi sifatida ifodalanadi. Ta’lim jarayoni tuzilmasida asosiy tizimlashtiriluvchi ta’lim mazmuni va tinglovchi faoliyati texnologik jarayon hisoblanib, uning mazmunini tinglovchilarning ijtimoiy tajriba asoslarini o‘zlashtirib olishga yo‘naltirilgan o‘quv

faoliyati tashkil etadi. Har bir o‘quv fani bo‘yicha ta’lim mazmuni umumiy ta’lim maqsadi va vazifalariga muvofiq belgilanadi.

2. Refleksivlik tamoyili. Sub’ektning o‘ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o‘zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o‘rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi. Loyihalash jarayonida o‘qituvchiga doimo ta’lim jarayoni, uning aniq va ideal sharoitlari, tinglovchilarning bilishga bo‘lgan ehtiyojlari, ularni to‘ldirish imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlari, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Ta’lim jarayonini loyihalash tamoyillari yaratiladigan ta’lim jarayonining loyihasini ta’lim jarayoni ishtirokchisi – subyektning ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil qilish asosida uzluksiz tuzatib, to‘ldirib borishni talab etadi.

3. Natijaviylik tamoyili. Pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik- ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operatsiyalar, ularni o‘zlashtirish, boshqarish uslublarini tanlash, o‘quv faoliyatining muvofiqligi, ta’lim-tarbiya vositalari, texnologik jarayonda subyektning qisqa vaqt va kuch sarflashi vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim.

4. Ko‘p omillilik tamoyili. Har bir ta’lim jarayoni bir qator ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sirida amalga oshadi. Ular sirasiga o‘qituvchi va tinglovchilarning ijtimoiy–iqtisodiy hayot sharoitlari, ta’lim muassasalari atrofidagi ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiiy iqlim muhiti, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy bazasi, o‘qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, ta’lim muassasasi yoki ma’lum sinfdagi ma’naviy–psixologik muhit, tinglovchilarning o‘quv imkoniyatlari, sinfning intellektual salohiyati, jamoaning shaxslararo munosabatlari kiradi. Ta’lim jarayonini loyihalashda o‘qituvchi ana shu omillarni hisobga olishi zarur.

Xususan, ta’lim muassasalarida tashkil etiluvchi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishga texnologik yondashuv quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi:

- aniq maqsad va ijtimoiy g‘oyaga asoslanib, talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi;

- talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatining tarbiyalanishi uchun imkoniyat yaratilmaydi;

- talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishi ularning shaxs sifatida kamol topishlarini ta’minlashga yo‘naltirilganligi haqida emas, balki ta’lim muassasasi jamoasi oldida “soxta obro‘” orttirishi uchun xizmat qiluvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi xulosaning shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi” 2019 yil 27 maydagi 434-son qarori. 3 bob.

2. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In Archive of Conferences (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).

3. Ravshanova, N. N. (2020). THE PRINCIPLE OF CONTINUITY IN ENVIRONMENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 369-374.

CORRECTIVE STRATEGIES FOR PSYCHOLOGICAL SYNDROMES AND LOCAL PSYCHOLOGICAL PROBLEMS IN PRESCHOOL CHILDREN

Khamidova Sitora Alisher kizi,

Lecturer of the department «Clinical bases of special pedagogy» Tashkent State Pedagogical University named after Nizami,

sita_khamidova@mail.ru

The content and choice of methods of psychocorrectional work are determined by the specifics of the objects, their condition, as well as the subject of correction, formulated in psychological practice in the language of the difficulties of clients (children, teachers and parents).

The object of psychocorrection is the individual spheres of the personality that are subject to change, its subject is the mental reality to which the psychocorrectional effect is directed. For example, if the object of correction is a child’s behavior disorders, then the subjects, depending on the locus of the complaint, can be very diverse: the image of “I”, attitude towards the teacher, motivation for learning, etc.

It is the preschool age that is most favorable for the formation of readiness to resolve conflict, since at this stage of age development the child develops experience of interacting with people, a system of interpersonal relationships and basic character traits are formed, in particular elements of conflict and peacefulness. The first concepts about the world around us and human relationships become the basis of an adult’s life. Therefore, we consider it necessary not only to study the psychological characteristics of conflict-ridden children, but also to analyze the personal and behavioral characteristics of peace-loving children. This will allow, in the future, to carry out an individual approach to the child, as well as plan and carry out correctional work.

It should be noted that it is very difficult to correct the behavior of adults, even teenagers, therefore this kind of work, not correctional, but developmental, should begin in preschool age.

Based on the above, it seems relevant to us to study the mechanisms of formation of preschool children's readiness to positively resolve conflict situations. It is necessary to consider the structure of this kind of readiness and identify the conditions for its formation in childhood.

Thus, the relevance of the problem of studying readiness for conflict resolution in preschool age is due to the following factors:

- the need and importance of studying constructive models of conflict resolution at different age stages;

- insufficient psychological study of this problem in preschool age;

- the importance of preschool age for the formation of readiness to resolve conflicts.

Hence, the purpose of this study was to identify the socio-psychological conditions for the formation of preschool children's readiness to positively resolve conflict situations.

The object of the study is the process of interaction of preschool children in a conflict situation.

The subject of the study was the readiness of children to positively resolve conflict situations and the socio-psychological conditions of its formation in preschool age.

In terms of content, we can distinguish general personal correction, correction of individual aspects, spheres and qualities of personality, correction of activities and relationships.

Personal correction is aimed at a positive change in the child's self-concept, the level of his aspirations, harmonization of personal balance, and strengthening of the ego. It involves working to overcome disharmony, immaturity, neuroticism of the individual, inferiority complex, violations of gender identity and other negative personal manifestations.

Correction of the cognitive sphere is aimed at the formation of cognitive motivation, the development of cognitive mental processes, training of intellectual functions and methods of mental activity, overcoming attention deficit disorder, and the development of cognitive styles.

Correction of the emotional sphere is associated with a decrease in psycho-emotional stress, de-actualization of the child's frustrated needs, destruction of the affective image of the world and behavioral stereotypes, and improvement of the social environment. It involves the development of social emotions and ways of safe emotional response and the formation of skills for emotional control of behavior in a child.

Correction of the volitional sphere is the development of arbitrariness of mental processes, the formation of goal setting. motivation, meaningfulness and reflexivity of behavior, overcoming the incompleteness of the child's actions.

Correction of the behavioral sphere is associated with the formation of the child's internal position, mastery of a range of social roles, rehearsal of socially approved behavior patterns, self-regulation and self-control skills, and overcoming negative stereotypes.

Correction of gaming or educational activities is aimed at developing personal, social and educational motivation, mastering the means and methods of activity, goal-setting skills, control and self-esteem.

Correcting a child's relationships involves changing the social situation of development and its subjective perception by the child; development of social intelligence, intuition, empathy and reflection; increasing social status; resolution of internal and external psychological conflicts.

Researchers associate the content of correctional work with the most typical difficulties of children:

- discrepancy between the level of mental development of the child and the age norm;
- unpreparedness for schooling, poor academic performance, low cognitive and educational motivation;
- negative trends in personal development, communication problems;
- disorganized behavior, low level of voluntary regulation;
- emotional behavioral disorders;
- maladaptation in kindergarten, school, family.

Correction of mental development:

- development of perception, sensory abilities;
- development of visual and effective thinking;
- development of the initial functions of voluntary attention and memory;
- speech development;
- development of cognitive motivation.

Correcting the child's readiness for learning:

- correction of the child's internal position;
- formation of general academic performance;
- correction of fine motor skills and spatial orientation;
- speech correction (reading);
- correction of initial ideas about quantity, size.

The main goal of the educational psychological service - the psychological health of children - is associated, first of all, with the promising direction of its activities, focused on the timely and complete mental and personal development of each child. In conclusion of this article, we can highlight the following tasks for orienting the development of a child of the psychological educational service:

1. Implementation in work with children of opportunities and development reserves of each age.

2. Development of individual characteristics of children - interests, abilities, inclinations, feelings, relationships, hobbies, life plans etc.

3. Creation of a psychological climate favorable for the development of the child (in kindergarten, boarding school, school, etc.), which is determined, on the one hand, by the organization of productive communication of children with adults and peers, on the other hand, by the creation for each child for all stages of ontogenesis of situations of success in activities that are personally significant for him.

4. Provision of timely psychological assistance and support to both children and their parents, educators, and teachers. Psychological educational service is one of the components of the country's holistic education system.

Bibliography:

1. Khukhlaeva O.V. "School psychological service. Working with teachers" Genesis, 2008.

2. "Practical psychology of education." Edited by I.V. Dubrovina, shopping center sphere, 1998.

3. Khukhlaeva O.V. "Correction of psychological health disorders in preschoolers and younger schoolchildren" Textbook for students of higher pedagogical educational institutions, 2003.

4. Aleksandrova O.B., Drozhzhin M.A., Moi Seikin D.A. Interactive training for cadets of the highest military department.

5. Aviation School of Safety Culture // Problems of modern pedagogical education. Ser.: Pedagogy and psychology. – Collection of scientific works: – Yalta: RIO GPA, 2018. – Vol. 60. – Part 2. – From 10-23.

6. Aleksandrova O.B., Drozhzhin M.A., Moi Seikin D.A. Integration of theories and practice during the course discipline "Life Safety" at a military aviation university. // Problems of modern pedagogical education. Ser.: Pedagogy and psychology. – Collection of scientific works: – Yalta: RIO GPA, 2019. – Vol. 62. – Part 1. – pp. 25-28.

BOLALAR BILAN ISHLASH AMALIYOTIDA ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLAR SHAKLLANTIRISH VOSITALARI

Baxtiyarova Nafisa,
TATU Nukus filiali komp'yuter injeniring ta'lim yo'nalishi talabasi

Bugungi kunda bolalar bilan ishlash amaliyotida elementar matematik tasavvurlar shakllantirishning quyidagi vositalari keng tarqalgan:

- mashg’ulot uchun ko‘ rgazmali didaktik materiallar to‘ plami;

- bolalarning mashg’uloti va mustaqil o‘ yinlari uchun jihozlar;

- metodik qo‘ llanmalar;

- miqdoriy, fazoviy, vaqtinchalik tasavvurlarni bolalarda shakllantirish uchun didaktik o‘ yin va mashqlar to‘ plami;

- oila sharoitida bolalarni maktabga matematikani o‘zlashtirishga tayyorlash uchun o‘quv-biluv kitoblari.

Mashg’ulot uchun o‘ qitishning asosiy vositalari ko‘ rgazmali didaktik material komplektlari hisoblanadi. Unga quyidagilar kiradi: tabiiy holda olingan atrof muhit ob’ektlari. Masalan: turmushning har xil turdagi predmetlari, o‘ yinchoqlar, idishlar, tugmachalar, kubbalar, rakovinalar; predmetlar tasvirlari. Masalan: yassi, konturli, rangli, kartochkalarda chizilgan; grafik va sxematik vositalar. Masalan: mantiqiy bloklar, figuralar, kartochkalar, jadvallar, modellar.

Har bir yosh guruhi uchun ko‘ rgazmali materialning o‘z komplekti mavjud.

Ko‘rgazmali didaktik material aniq bir mazmun, metodlar, o‘ qitishni frontal tashkil etish shakllariga mo‘ ljallangan, bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladi, turli talabga javob beradi masalan, ilmiy, pedagogik, estetik, sanitar-gigienik, iqtisodiy. Undan mashg’ulotda yangi materialni tushuntirishda, mustahkamlashda, takrorlashda, bolalar bilimini tekshirishda, ya’ni o‘qitishning barcha bosqichlarida foydalanish mumkin.

Odatda ko‘rgazmali material ikki ko‘rinishda ishlatiladi: katta (namoyishli) – bolaga ko‘ rsatish va u bilan ishlash uchun hamda kichik (tarqatma) – stolda o‘ tirib ishlash uchun. Namoyish qilinuvchi va tarqatma materiallar vazifasi bo‘ yicha bir-biridan farq qiladi, birinchisi tarbiyachi tomonidan harakat usullarini tushuntirish va ko‘ rsatish uchun xizmat qiladi, ikkinchisi zaruriy ko‘nikma va malakalarni hosil qiluvchi bolalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga imkon beradi.

Namoyish qilish materiallariga quyidagilar kiradi: tekislik tasvirlangan turli polotnalar to‘ plami masalan, mevalar, sabzavotlar, gullar, hayvonlar; geometrik figuralar, raqamli kartochkalar, belgilar “+”, “-“; molbert rasm chizish uchun; magnit doskasi geometrik figuralar, raqamlar, belgilar, yassi predmetlar tasviri komplekti bilan; har xil rangdagi va bir turdagi predmetlar komplekti; kartochka va jadvallar; modellar (masalan: raqamli zinacha, kalendarь); mantiqiy bloklar; arifmetik misollarni tuzish va echish uchun kartinkalar; didaktik o‘ yinlarni o‘ tkazish uchun jihozlar; asboblar (masalan: oddiy, qumli soatlar, pallali tarozilar, stolli, gorizontal va vertikal hisoblagichlar).

Tarqatma materiallarga quyidagilar kiradi: hajmli, yassi, bir turdagi har xil rangli, o‘ lchamli, shaklli mayda predmetlar; 1, 2, 3 va undan ko‘ proq yo‘ l-yo‘ l chiziqdan iborat kartochkalar, raqam va belgilar, geometrik figuralar, tasvirlangan kartochka kabilar; yassi va hajmli, rangi va kattaligi bir xil va har xil rangli geometrik figuralar to‘ plami; jadvallar va modellar; hisoblash tayoqchalari va boshqalar.

Ko‘ rgazmali didaktik material mashg’ulotda maxsus tashkil etilgan mashqlar jarayonida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bu maqsadda quyidagilardan foydalaniladi:

- bolalarni sanashga o‘rgatish uchun qo‘llanma;
- predmet kattaliklarini aniqlash mashqlari uchun qo‘ llanma;
- geometrik figuralar va predmetlar shaklini aniqlash mashqlari uchun qo‘ llanma;
- bolalarni fazoviy orientirovka qilish uchun mashqlar to‘plami;
- bolalarni vaqt bo‘ yicha orientirovka qilish uchun mashqlar to‘ plami.

Mashg’ulot va mustaqil o‘yin uchun jihozlarga quyidagilarni kiritish mumkin: bolalar bilan individual ishlash uchun, yangi material va o‘yinchoqlar bilan dastlabki tanishish uchun maxsus didaktik o‘yinlar; turli didaktik o‘yinlar. Masalan: o‘rgatuvchi, rivojlantiruvchi, shashka va shaxmatlar; qiziqarli matematik material. Masalan: boshqotirma, geometrik mozaikalar va konstruktorlar, labirintlar, hazil-masalalar; alohida didaktik materiallar. Masalan: mantiqiy bloklar, hisoblash materiali, raqamli va belgili kubiklar, bolalar hisoblash mashinalari; o‘quv-biluv mazmunidagi kitoblar bolalar o‘ qishi va illyustratsiyalarni ko‘ rish uchun.

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish vositalarining biri qiziqarli o‘yinlar, mashq, masalalar, savollar hisoblanadi. Bu qiziqarli matematik material mazmuni, shakli, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ta’siri bo‘yicha juda turlicha bo‘ ladi.

Uning eng oddiy turlari: geometrik konstruktorlar. Masalan: Pifagor, sirli aylana, Kolumb tuxumi; sirli sharchalar, piramida, naqsh chizish; mantiqiy mashqlar; belgilarini topish bo‘yicha topshiqlar; etishmaydigan figuralarni topish bo‘ yicha vazifalar; labirintlar; xususiydan umumiyga va aksincha o‘tishni ta’minlovchi mashqlar; geometrik xarakterdagi topqirlik-masalalari; terminlar ko‘rinishidagi matematik elementlarni o‘z ichiga oluvchi topishmoqlar; matematik elementlarni o‘ z ichiga olgan she’r, sanoq kabilar; she’r shaklidagi masalalar; hazil-masalalar va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, qiziqarli matematik materiallar bolalarning aqliy qobiliyatini, bilish faoliyati va usullarini rivojlantirishga yo‘ naltirilgan.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish bo‘ yicha ishlar amaliyotida quyidagi shakllardagi mashg’ulot tiplari ajratib ko‘ rsatiladi: didaktik o‘yin, didaktik mashq.

Didaktik o‘yin shaklidagi mashg’ulot kichik guruhlarda keng qo‘llaniladi. Bunda o‘qitish o‘yinli xarakter kasb etadi. Tarbiyachi xizmat qiluvchi metod va usullardan foydalanadi: syurprizli

fursatlar, o‘yinli namunalar kiritadi, butun mashg’ulot davomida o‘yinli vaziyatlarni qo‘llaydi hamda uni o‘yinli shaklda yakunlaydi. Didaktik mashqlar shaklidagi mashg’ulot barcha yoshdagi guruhlarda foydalaniladi.

Adabiyotlar ro‘ yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 2020 yil 7 maydagi PQ-4708 son farmoni.

2. Арапова-Пискарева Н.А. Формирование элементарных математических представлений в детском саду. Программа и методические рекомендации. 2- е изд. испр. и доп. – М.: Мозаика - Синтез, 2009. – 112 с.

